TURKIY ADABIYOT
DURDONALARI

TUGALBOY SIDIQBEKOV

83





TUGALBOY SIDIQBEKOV





"O'ZBEKISTON"
TOSHKENT — 2022

UO‘K 821.512.154-3
KBK 84(5Qir)
T 81

Tahrir hay’ati:

Xayriddin Sulton – hay’at raisi,
Ibrohim G‘afurov, Sirojiddin Sayyid, Asadjon Xodjayev,
Behzod Yo‘ldoshev, Minhojiddin Mirzo, Muhammad Ali,
Ahmadjon Meliboyev, Kengesboy Karimov, Isajon Sulton

Ishchi guruh:

Ikrom Bo‘riboyev, G‘ofur Eshmurodov, G‘ayrat Bozorov,
G‘ayrat Majid, Zuhriddin Isomiddinov Rustam Musurmon,
Risolat Haydarova, Umid Hayitov

To‘plovchi va nashrga tayyorlovchi:

Zuhriddin Isomiddinov

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2019-yil 15-oktabr kuni Ozarbayjon poytaxti Boku shahrida bo‘lib o‘tgan Turkiy davlatlar hamkorlik kengashining yettinchi sammitida tashkilotga a’zo davlatlar adabiyotining eng sara namunalaridan iborat “Turkiy adabiyot durdonalari” deb nomlangan 100 jildlik kitoblar turkumini har bir mamlakatning ona tilida nashr etish g‘oyasini ilgari surgan edi.

Ushbu ezgu tashabbus asosida birinchi bo‘lib O‘zbekistonda mana shu muhtasham adabiy majmua yaratildi.

Mazkur keng ko‘lamli, zalvorli badiiy silsilaga umumturkiy adabiyotning eng yetuk namunalari, O‘zbekiston, Turkiya, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Ozarbayjon, Turkmaniston va Vengriya davlatlarining atoqli shoir, adib va mutafakkirlarining asarlari kiritildi.

Turkiy tilli davlatlar orasida ilk bor ro‘yobga chiqarilgan ushbu yirik loyiha ona yurtimizda madaniyat va san’atga ko‘rsatilayotgan ulkan g‘amxo‘rlikning, xalqimizning qardosh xalqlar va ularning so‘z san’atiga nisbatan yuksak hurmat-ehtiromining ramzidir.

ISBN 978-9943-8571-0-0
©“O‘zbekiston” nashriyoti, 2022

"TOG' ODAM"NING TOG'DAY ASARI

Qirg'izning Tugalboy Sidiqbekov degan yozuvchisi ulkan gavdali odam bo'lgan. Teng-to'shlari hazillashib, "Tog' odam" deb atasharkan. Olisdan ko'rganlar ham uni jussasidan tanigan, deyishadi. Men, agar qardoshlarimiz xato deb topishmasa, Tugalboy qariyani Qo'shay alpga o'xshatgan bo'lar edim. "Manas" dostonining bir o'rnida shunday voqea bor: qalmoqlarning Jo'lay dev degan pahlavoni yuzma-yuz turgan ikki qo'shin oldiga chiqib, qirg'izlar ichidan kim chiqib men bilan kurasha oladi, deb hammani izza qiladi. Hech kim, hatto alp Manasning o'zi ham unga ro'para bo'lishga botinmaydi. Ana shunda oz emas-ko'p emas, naq sakson to'rt yoshli Qo'shay bobo, oppoq soqollarini yarqiratib, el-yurtning ori uchun maydonga tushadi. Ikki kun battol Jo'lay bilan bel olishib, axiyri uni yiqitib, tuproqqa qoradi...

Roman — hozirgi zamon adabiyotining eng katta, eng og'ir janri. Uni, agar chinakam roman bo'lsa, hatto o'qib chiqish ham hammaning qo'lidan kelavermaydi. Yozish-ku, inchunin. Alp Qo'shay kabi uzoq umr ko'rgan Tugalboy Sidiqbekov qirg'iz adabiyot maydonining pahlavoni edi, el tarixining eng mushkul, og'ir pallalarini keng epik panoramada ko'rsatib berish — unga tan. Qirg'iz adiblarining xotirlashlaricha, Chingiz Aytmatov ham bir paytlar Tugalboy oqsoqolni o'ziga ustoz tutib, maslahatlarini olib yurgan.

Tugalboy Sidiqbekovning tubi Tup tumanidan, Issiqko'ldan. Shu yerdagi Kengsuv ovulida 1912-yilda o'n ikkinchi farzand bo'lib dunyoga kelgan. Ammo ungacha bu oilada tug'ilgan yetti o'g'il va to'rt qiz chechakdan o'lgan edi. Yangi to'ralgan bolaga umri, baxti tugal bo'lsin deya, umid va ilinj bilan Tugalboy deb ism qo'yishadi. Jabrdiyda odamning tilagi ijobat bo'ladi, deganlariday, Tugalboy yashab qoldi, tugal-to'kis umr kechirib o'tdi.

Biroq bola Tugalboy ota mehriga qonmadi — ikki yoshga kirganida Sidiqbek vafot etib, tul xotinning yolg'iz bolasi bo'lib o'sdi, ammo yosh boshidan ko'p qiyinchilik o'tkazdi. To'rt yashar chog'ida bosqinchilar zulmiga qarshi bosh ko'targan qirg'iz elining katta bir qismini chor askarlari Xitoyning Tekes degan yeriga qadar otib-chopib, quvib borib badarg'a etadilar. Onasi bilan go'dak yoshida qattiq sovuqlarda Xitoy yerlariga borib kelgan Tugalboy yo'qsil-yupun qirg'izlarning ahvolini tiyrak ko'zi bilan ko'rib, anglay boshladi. Tugalboylar ko'chirib yuborilgan so'lim Kengsuv ovuli esa Rossiyadan kelganlarga berildi. Biron yildan ko'proq vaqt o'tgach, minglab qirg'izlar qatori ona-bola yana yurtga qaytib kelishib, uy-joy, yer-suvdan ayrilgan holda boshqa ovuldagi boy xizmatida kun ko'rishadi.

Olti yashar Tugalboy bir o'rïs boyga yollanadi, so'ng boshqalar qatori o'qishga tortiladi, zamona zayliga qarab rus tilini uncha-muncha o'rganadi. Maktabda she'r yoza boshlaydi. Qishloq xo'jaligi texnikumini bitirgach, Ashxoboddagi O'rta Osiyo zooveterinariya institutida ta'lim oladi.

Tugalboyning birinchi she'ri 1930-yilda bosilib chiqadi, oradan ikki yil o'tib, "Chal qo'mizni" degan poemasi markaziy jurnallardan birida chop etiladi. Bu doston yosh adibning odamlardan eshitgan naql-rivoyatlari negizida yozilgan. 1931-yilda dastlabki kitobi "Kurash", keyinroq "Botirlar" va "Shoir — bulbul" she'riy to'plamlari yorug'ga chiqadi. Ayni shu yillarda bo'lg'usi romanchini nasriy asarlar yozish havasi o'ziga jalb etadi.

1937-yilda ona qishlog'ini qo'msab bitilgan "Kengsuv" romanining birinchi kitobini yozib bitirdi, keyingi yil esa uning ikkinchi kitobi ham chop etildi. Bu romanda yosh adib favqulodda jasorat bilan qirg'iz elining sovet davridagi og'ir ahvolini qalamga olgan edi. Yozuvchi 1939–1940-yillari "Temir" romani ustida ish boshlaydi, shuningdek "Ovsinlar", "Olatovlik oltovlon", "Tun jarchisining xabari" kabi roman va dostonlarini yozib bitiradi. "Manas bilan Almambet" (1942), "Bo'rk tagida bo'ri bor", "Tog'day yurak" singari dramatik asarlari ham bosildi.

Ikkinchi jahon urushi yillari va undan keyingi yillari Tugalboy Sidiqbekov mardlik va jasoratni tarannum etuvchi ko'plab pub-

litsistik maqolalar, ocherklar yozdi. Ana o'sha maqola-yu ocherklar navbatdagi "Zamonamiz kishilari" (1948) degan salmoqli romanga xamirturush vazifasini o'tadi. Tugalboy Sidiqbekovning asarlari (ularning ko'pchiligi — romanlar) ro'yxatining o'zi bir-ikki sahifaga sig'maydi.

50-yillarga kelib adib bolalar bilan kattalar orasidagi psixologiya masalalari ko'tarilgan "Tog' bolalari" romanini bitdi. 1955-yildan "Kengsuv" romanining navbatdagi kitobi ustida yana ish boshladi va asar "Tog' orasida" nomi bilan paydo bo'ldi. "Xotinlar" (1966) romanidan so'ng yozuvchi o'tgan asrning 70-yillariga kelib "Tengdoshlar", "Sirning ochilishi" (1978) degan romanlarini yozdi, "Imonboyning fe'li" (1980), "Yo'l" (1982), "Qaynarbuloq" deb nomlangan qator qissalar muallifi bo'ldi.

"Men kamida ming yil yashaganday sezaman o'zimni, — deb yozgan edi adib. — *Shunga ishonaman... Ota-bobolarimizning bosgan yo'li, hayot tarzi farzandlarimizga ibrat bo'lsa deb, kelajakning qanday bo'larini o'ylab ketaman... Mana shular bilan andarmon bo'lib, aloq-chaloq xayollar poyonida negadir tegramda zamonlar charx urayotganday bo'ladi. O'zi, men qachon tug'ildim ekan, 1912-yildami yo... 912-yildami, deb ikkilanaman...*

Bu mening faqat xayollarimgina emas. Qay bir mahal o'sha olis zamonlarni tush ko'rdim, goho ulkan to'ylarda qatnashdim, yov-yarog'i shay, arg'umog'i ko'kka sapchigan botirlar bilan, ko'hna udum va tutumlarni mahkam ushlagan boyvuchchalar bilan birga yurganday bo'ldim. Keyin, bularning bari bir tushgina emas, bir zamonlarda chindan ham bo'lib o'tgan voqealarning shuurimizda bugun qayta jonlanishi, odam aql-hushining o'zgacha bir xosiyati bo'lsamikin, deb o'yladim, o'lmaslikning xosiyati-da..."

Bu gaplar, aziz kitobxon, qo'lingizdagi "Ko'k yalov" romaniga daxldor. "Ko'k yalov" — an'anaviy romanlardan ancha farq qiladi. Hajminigina emas, qalamga olingan voqea va tarixiy davr ko'lamini ham hisobga oladigan bo'lsak, uni epopeya deyish to'g'riday. Asarda bundan qariyb bir yarim ming yillar avvalgi "ko'k turk" zamonasida turkiy xalqlarning bobo yurti bo'lgan Sibir va Oltoyda, uning tevaragida barq urgan hayot lavhalari tasvirlangan. Asarning tili ham ma'lum darajada O'rxun-Enasoy

yodgorliklari tilini eslatadi, asarda Kulchur, Oqish, Chag'ildir, Erdana, Urdana kabi bugungidan boshqacha kishi ismlari uchraydi.

Roman uch bo'lim va o'ttiz bir fasldan tashkil topgan, qahramoni ko'p. 1-bo'limda Er-Kishi bilan Yosh Teginning sayohatidan hikoya qilinadi. Bu shunchaki safar emas, balki bir davrning o'zida davr va makon oralab yo'l yurishdir. 2-bo'limda esa qadimgi turkiylarning turmushi, urf-odatlari tasvirlangan. 3-bo'lim — urush lavhalaridan iborat. Unda ikki qo'shinning omonsiz jangi, askarboshilarning taktikasi ko'rsatiladi. Adibning bundan maqsadi — qirg'iz urug'larining boshi birikishi, ko'k yalovning poyida birgalikda harakat qilib, yengilmas kuchga aylanishini dalillashdir.

"Ko'k yalov"da so'z degan bebaho ne'matga alohida e'tibor berilgan. Shuning uchun ham unda oq so'z, ola so'z, ezgu so'z, uch so'z, bo'lak so'z, yomon so'z, harom so'z, baholi so'z degan so'zlar keladi. Oq so'z — xalq bir tug', bir yalov yoki bir bayroq poyida bosh qo'shib, rizqini ahillikdan topishga intilgani mahal aytiladigan so'z. Agar oq so'z aytilmay qolib, adolat buzilsa, el ichida ola so'z oralab ketadi. Yozuvchining e'tiqodicha, ola so'z milliy fojianing boshi. Yomon so'z degani — yolg'on aytishni ayblovchi baho. Harom so'z esa — yovga sotilgan, chaqimchi, murtadlarga nisbatan aytiladi. O'g'rilarga nisbatan — boshqa so'z qo'llansa, ezgu so'z barcha odamlarning hayotidagi asl axloqiy masalalarga xalqning munosabatini ifoda etadi. Ulug' so'z — ota-onani, ulug'larni siylash, kindik qoni tomgan makonni e'zozlash so'zidir.

Ijodkor hayotida "Ko'k yalov" romani alohida ahamiyatga ega. Turkiy xalqlarning o'sha olis moziyda bosib o'tgan yo'llarini yoritish totalitar davrga to'g'ri kelmagani bois, asar ancha vaqt chop etilmay, nihoyat 1989-yilda — milliy uyg'onish shabadalari esa boshlagan bir paytda yorug'ga chiqqan.

Hozirga qadar Qirg'iziston xalq yozuvchisi, akademik, mustaqil Qirg'iziston davlatida birinchi bo'lib Qahramon unvonini olgan mashhur adib Tugalboy Sidiqbekovning uch romani o'zbek tilida bosilib chiqqan edi. Bizga ularning birontasini qayta ko'chirib,

nashriyotga topshirish ancha o‘ng‘ay bo‘lar edi. Biroq biz “Turkiy adabiyot durdonalari” turkumiga adibning aynan “Ko‘k yalov” romanini qo‘shishga qaror qildik. Sababi — o‘quvchilarimizga yangi asarni tortiq qilishnigina emas, balki shu orqali o‘zbek adiblarini ham elimizning olis o‘tmishi haqida yirik asarlar yozishga da’vat etishni o‘yladik. Milliy adabiyotlarimiz ana shu tariqa bir-biridan ilhom va rag‘bat olib taraqqiy etadi.

Zuhriddin Isomiddinov,
filologiya fanlari nomzodi

KO‘K YALOV

Roman

BIRINCHI QISM

... Sakkiz aka-ukaning kattasi Turk edi. Yofas dunyodan qaytganda Turk ota uning o‘rniga taxtga o‘tirdi. U dono va fazilatli podshoh bo‘lib o‘tdi. Turkdan so‘ng uning to‘qqiz o‘g‘li xonlik qildi. Shuning uchun ham bizda to‘qqizta meros bor. Ulardan biri aqlli, badavlat Tutuk edi. Ko‘p marosim va an’analarni Tutuk turmushga tatbiq qildi. Ikki yuz yil umr surib, Tutuk xon ham chin dunyoga ketdi. Uning o‘rniga Elchixon o‘tirdi ...

Zamonlar o‘tdi. Podshoh o‘rniga podshoh keldi ...

Keyin Alancha xonlikka keldi. O‘sha paytda hamma xalq badavlat va farovonlikda yashadi. Boylikka ko‘pganlar butparastlik qila boshladi. Alanchadan egizak o‘g‘il tug‘ildi. Biri — Tatar, biri — Mag‘ul. Ular voyaga yetgach, elni ikkiga bo‘ldi ...

Bu ikki xonning avlodlari ham mustaqil ravishda hukmronlik qilishdi. Ancha zamonlar o‘tdi. O‘sha paytda Tatar xonining yetti o‘g‘li hukmronlik qilishdi. Mag‘ul xonning o‘rniga o‘g‘li Qoraxon xon bo‘ldi.

Qoraxon zamoni axloqsizlik zamoni bo‘ldi. Tangriga sajda qiladigan odam qolmadi. Buning oqibatida Qoraxon kishi suiqasdidan qazo topdi. Uning o‘rniga o‘g‘li O‘g‘uzxon xon bo‘ldi. U aqlli, har narsani oldindan sezadigan lashkarboshi bo‘lganligidan elni birlashtirdi. Butparastlar to‘g‘ri yo‘lga tushdi, adabsizlar tartibga tushdi.

O‘sha O‘g‘uzxonning yigirma to‘rtta nevarasi bor edi. Eng kichigi Qirg‘iz edi. Qirg‘iz qachon tug‘ilgan, deyishadi. Qirg‘iz Iskandar Zulqarnayndan ancha oldin tug‘ilgan.

Safarsha, Alxan, Analxon, Arslon biy, Timushi biy, Atan biy, Shukur biy, Murat biy, Telqo‘zu, Qalpoq biylar kabi qirg‘izlar-

ning yigirmadan ortiq avlodi hukmronlik qilib o'tishgan. Ularning izlari karvon tuyalarining qumga singib ketgan izlari kabi vaqt kengliklariga singib ketdi. Oxirgi Dombol biyning o'g'li Dolon biy Ayganxonning (Chingizxonning) davrida yashab o'tdi...

O'sha davrda qirg'iz o'z yerida tinch-totuv yashagan el edi. Chorvachilik bilan shug'ullangan, ekin ekkan. Ko'k temirni o'tkirlab, oybolta ishlatgan. O'sha paytda Iris va Darxon degan donishmandlar bor edi. Toytuyoq degan botir o'tgan. Ular Ayganxon bilan yovlashishni xohlamagan. Qirg'iz yerlariga Ayganxon o'zi hujum qilgan. Jangda qirg'izlar jonini ayashmay kurashdi. Oxirida zo'ravonlik qilichi tig'i ostidan o'tishga to'g'ri keldi. Qirg'iz qabilasi qirildi, tiriklar tarqab ketdi... Dolon yer kezib, qirlar oshib, jasadi qolgan dovonni Dolon atalgan, dedik.

"Shajara" kitobidan

O'sha paytda yeniseyda yashagan qirg'izlar Xitoy manbalariga ko'ra eramizdan avval 201-yildan ma'lum edi ...

V. V. Bartold

YOSH TEGIN

Ota turgan yer — o'g'ilga meros bo'ladi.

* * *

Boshiga qush qo'nsa, yurtiga baraka keladi.

Eski maqollar

Malla soqolli Erkishi suyri tortib qolgan qabrning oftobda qaqshab, umalangan tuprog'idan hovuchlab oldi va uni to'kmay-sochmay ehtiyotlab bolaning og'ziga tutdi:

— Osmondan Tangri buyurdi. Tatib oling, o'g'lim! Bu — yer otang yotgan muqaddas joyning tuprog'i.

Bola yig'lamsirab turdi. Yig'lamadi. Uning mo'min ko'zlari javdirab qaradi, yig'lagisi keldi. Lo'ppi yuzlari qon tomadiganday qip-qizarib ketdi va sekin og'zini ochdi. Guruchday oppoq tishlari ko'rindi, qizg'ish tilini chiqardi.

— Qo‘rqmang, qo‘rqmang, o‘g‘lim! Otangiz uchib ketdi. Tabg‘ach[1] uni aldab o‘ldirdi. U boshlagan qo‘shinlarning yo‘lboshchisi yo‘q endi ... “Ey, el, yashagan yeringda tinch o‘tirsang, qayg‘u seni bosmaydi, to‘qsan”, degan bobolar. Biz o‘z yerimizda farovon yashagan tinch yurt edik... Qo‘shinni boshqargan, yaxshi-yomonni ham boqqan sening mard otang edi. U endi yo‘q. Jonini Tangrim oldi! Sen yoshman dema. Mard otangning ishini davom ettir!

Erkishi kaftidagi tuproqni bolaga uch marta yalatdi. Bola har gal tuproqni yalagani sayin ezilgan suzmaning tanglayida yana bir bor ezib yutganday tuproqni shimib yutdi. U “Endi qo‘rqmay qoldim” degandek Erkishiga ko‘zining tepasi bilan qaradi. Jilmayib, kulib qo‘ydi.

— Bor bo‘ling, yurtim egasi! — dedi Erkishi. Keyin u hovuchida qolgan tuproqni chiroyli tikilgan ipak bog‘ichli ipak tumor xaltaga mohirlik bilan soldi. Bog‘ichni bolaning bo‘yniga ildi, tumorni uning qo‘yniga yashirdi:

— Mard otangning tirik arvohi seni yer yuzida qo‘llab yursin!

Shu gapni aytishi bilan bolani ikki qo‘ltig‘idan tezlik bilan olib, dast ko‘tarib, oqbo‘z g‘unonning ayirmach[2]iga qo‘ndirib qo‘ydi.

— Endi qo‘rqmang, yiqilmaysiz!

O‘zi ham katta to‘riq otga chapdastlik bilan mindi.

— Ketdik. Bobongizga yetib olaylik!

Erkishi bir zum yonlab keldi-da, keyin bolani oldiga chiqardi. Silliq quyrug‘i sal ko‘tarilib, oqbo‘z g‘unon oldiga intilib, yengil qadam tashlab ketmoqda. Ayirmachdan ozgina boshi chiqqan bola endi o‘sha ayirmachga ko‘chigi bira-to‘la yopishib qolganday o‘tirib, g‘unonning oldiga qarab dikkaygan ikki qulog‘iga qarab, o‘zichasiga maza qilib, quvonib, kulib borayotgan edi. Qora qunduzdan tikilgan telpakning jilbirsqi[3] yopib tikilgan uchli cho‘qqisiga taqilgan mato shamolda hilpiraydi. Bola o‘tirib, olis-olislarga

---

[1] **Tabg‘ach** — xitoy.

[2] **Ayirmach** — bolalar uchun tayyorlangan egar.

[3] **Jilbirsqi** — onasining qornidan yorib olingan uloq yoki qulun terisi.

qaraydi. Ustidagi qulundaaki[1]si, suv quyganday yelkasi, ko'kragi, yenglari quyoshda yaltiraydi.

— Yo Tangrim! — dedi Erkishi boladan ko'zini uzmay. — Otangday bo'lsang, qaniydi...

Uning baquvvat tanasi bo'shashib, holsizlanganday bo'ldi. Yaqindagina ko'rgan ajib bir tush kabi umri ko'z oldidan asta o'ta boshladi.

Kuchli yov bilan yakkama-yakka kurashda yalinmagani, tortinmagani, qaytanga g'ayrati jo'shib urushga kirgani yodiga tushdi. "Bir yerda o'tirgan katta el qo'zg'almaydi, derding-ku. Bepoyon qarag'ayzor qiyilib bitmaydi. O'z yerida tinch-totuv yashagan mo'min qariyaning boshi g'amdan egilmaydi, derding-ku. O'o', irg'ib turgan kuchli ot oldida, o'tkir janchar[2] qo'lida, po'lat shamshir qinida yurt chegarasini tog'da, qirda, dala-tuzda qo'riqlagan uyqu bilmas mardlar, sizlar haqiqatan ham ozayib ketdingizmi? Yo'q! O'o', el boshqarib, mard bo'lib o'tgan bobolar, qo'llang! Oramizdagi tirik yurgan arvohingizga sajda qilamiz. Bobojon, bizga kuch bering! Osmonda Tangri, pastda yer, bizni qo'llab-quvvatlang... Chop, chop, o'g'lim! Seni bobong kutib o'tiribdi. Chop!

Tizginni ushlagan qo'lini otining qulog'iga qaratib cho'zib, qo'zichoqning kallasidek mushtini silkitar ekan, Erkishi:

— Chop, chop, yosh begim! Sening mard otang qo'y yili o'n olti yoshida lashkarga boshchilik qilib, dushmanga qarshi kurashgan! Sen ham ertaroq voyaga yet. Botmon temirga o'ran, bosib kelgan yovga tikka qarshi chiq!.. Ko'zim tirik bo'lsa, hayqirib yoningda bilgi[3]ng bo'laman. Chop, chop, yosh eran[4]!

Egasining qo'ng'ir ovozi tobora kuchayib borarkan, silliq yolli katta to'riq ot qayta kuchga kirganday "burr-burr" pishqirib, tizginini uzgiday bo'lib, boshini oldiga enkaytirgancha qadamini tezlashtirardi. Ko'pgina hujumlarda jonini ayamay kurashib ko'ngan, tolmasdan yugurib chiniqqan bu ot qo'yib bersa, hozir

---

[1] **Qulundaaki** — yangi tug'ilgan qulunning terisidan tikilgan kiyim.

[2] **Janchar** — nayzaning o'ziga xos turi. Sopi kalta bo'ladi.

[3] **Bilgi** — donishmand. Bilging bo'lib — doimo yonida yurib maslahat beruvchi, yo'l ko'rsatuvchi bo'lish ma'nosida.

[4] **Eran** — botir, qo'rqmas kishi.

ham bir qadamcha oldinda ketayotgan g‘unonni surib yetguday. Undan o‘zib ketguday. Bobosining izidan borib, elni farovonlikda yashashiga shart tuzgan mard otasiday bo‘lsin, deb irim qilib, Yosh teginning tilagini tilab kelayotgan Erkishi oqbo‘z g‘unondan o‘zmaslik uchun tizginini tortdi. Katta to‘riq ot bosh bergisi kelmay, olg‘a intiladi. “O‘o‘, jonivor, er oti[1]. Sen qachon tug‘ilgan eding? Qochganda yetkizmas, quvganda qutqarmas o‘pkasi butun, jonivorim?”

Erkishining malla soqoli shamolda to‘zg‘iydi, u goh boshini o‘ngga, goh chapga burib, bo‘ri qarash qiladi. Bu dushmanga zarba berib, jangga borayotgan mard odamning doimiy qarashi. U qochgan dushmanning orqasidan dumma-dum quvib borayotgan paytda, o‘zicha usullar qo‘llab alohida bo‘lib tarqalib, siyraklanib borayotgan yovning quvib, kimga yetsa, janchar bilan urib, otdan ag‘darib chopib tashlardi. Keyin ora-sira oldinga chiqib, har qayerda bizni qo‘llab-quvvatlayotgan askarlar bormikin, degandek, atrofga shunday qarab qo‘yish odat tusiga kirgan. Hay-haylagan qiy-chuv kuchayadi, to‘polon-to‘s katta yerni shovqinga to‘ldiradi.

“O‘o‘, tinchi yo‘q tajang odamlar, sizlar yana qanday vahimani boshladinglar?” — deyayotganday tuyiladi.

“Muqaddas yer, bizni qo‘llab-quvvatlang! Bizga kuch bering?”

Gurzi ko‘targan askarlar, lashkarboshilar Tangridan shunday tilaklar so‘raydi. Askarning charchog‘i yozilib, jasur va xotirjam jangga tayyorlanadi, otini boqadi, sovitadi va urushga toblaydi.

Bu tuyg‘u askar ot yolidan ushlab mingandan boshlaboq uning kuchiga kuch qo‘shadi, otini jilovlaydi. Sababi, har bir o‘g‘il bola kichkinaligidan boshlab askar bo‘lishni orzu qiladi. Avval u toyga, keyin esa g‘unonga minadi. Shu paytdan boshlab u chiniqib, pishib, kuchli erkak bo‘lib ulg‘ayadi.

Qizg‘ish soqolini oq oralagan Erkishi ko‘mirchi-ko‘ruk[2]chining o‘g‘li edi. U yoshligidan ko‘ruk bosib, otasiga yordam berdi. U cho‘g‘da qizargan po‘latning sandonda “chirillashini” ushlab ol-

[1] **Er oti** — g‘unon, asiydan yuqorgi albir, qariluv, boldurmas (otlarning yosh nomlari) voyaga etgan erkaklar minadigan ot.

[2] **Ko‘ruk** — temirni eritadigan o‘choqdagi ko‘mirni puflab yondiradigan va olovni kuchaytiradigan moslama, dam.

gisi kelardi. Sababi, u eshitgan rivoyatlarga ko'ra osmondan xuddi po'latdan chiqayotgan uchqunlarday qut-baraka yerga tushib turadi. Uni terib, qo'ynini to'ldirib olgan odam yov yenga ololmaydigan sherga aylanadi, dasturxoni doim nasibaga to'la bo'ladi.

Er yigitning doimiy hamrohi — bu ot. Ot — odamning qanoti. Chavandoz burgut kabidir, degan gapni ko'p eshitgan edi. U ham qo'ynini qutga to'ldirib, olg'ir qushday bo'lgisi kelardi. Oldinda oqbo'z g'unonni chopib ketayotgan — xon Yosh tegin ham hozir o'zini qanotli burgutman, deb ketyapti. U hozir otdan yiqilib tushaman, deb xayoliga ham keltirmaydi. Yolg'iz ketyapman, deb qo'rqmaydi. U haligina mard otasining qabr tuprog'ini yaladi. Tuproq tuproqqa o'xshamadi: kichikni tez ulg'aytirib qo'yadigan ajabtovur doriday tuyildi. Bola hech qachon bunday ajoyib dori tatib ko'rmagan. Bobo yotgan ko'kish bo'z yerning mayin tuprog'i ana shunday kichkinani tez ulg'aytiradigan, kuchsizga darmon beradigan ajoyib kuchga ega, deb uqqan edi. Bola o'shanga ishondi. U otni chopgan bo'yi katta suvning ikki qirg'og'iga qo'ngan elni oralaydi. El yashagan joyning to'rida alohida tikilgan katta o'rdada uni bobosi kutib o'tiribdi, mard yigitga aytiladigan so'z kutib turibdi. Bola shuning uchun shoshadi. Hozir yo'lda birorta odam uni to'xtatmaydi. Aksincha, bolaga o'zi yo'l bo'shatadi. Otlig'i boshini egib, piyodasi tizzasini bukadi:

— O', Erkishi! Oq yo'l bo'lsin! Moviy osmon ostida, qo'ng'ir yer ustida yurt qayg'uga botmasin, ozaymasin! — deyishadi.

Hozir katta-kichik demasdan yo'lda yo'liqqan hamma oqbo'z g'unonni chopib ketayotgan bu bolaning qayerdan va qanday kelayotganini bilishadi.

"Oh, odam! Oq yo'l ochiq bo'lsin! Ko'k ostida, qo'ng'ir tuproqda, odamlar g'amgin bo'lmasin, g'amgin bo'lmasin!" — deyishdi. Hatto unga bosh egib, ta'zim qilish uchun yo'l chekkasiga shoshiladi.

Bola yo'lda uchragan odamga bosh irg'aydi:

— Hormang!

U to'xtamay, otini chopib ketaveradi.

Yosh tegindan keyin Erkishi o'tadi. Katta qo'ng'ir otning baquvvat tuyoqlari qurigan yo'lda "dup-dup" ovoz chiqaradi.

Yo‘l bo‘yida turganlar ularga ergashib yugurishadi:

— Ey, yurtning Erkishisi!

— O‘o‘, yurtning Yosh tegini!

— Biz sizning askarlaringizmiz!

— Yetti tuluk[1] muntazam to‘llasin[2], el qayg‘u bilmasin!

— Biz qir-adirda chorvaning orqasida bo‘laylik!

— Don sepib, ekinzorda yuraylik!

— Konlarni qazib, ko‘k temir, oq kumush olaylik!

— Tinchlikni yaxshi ko‘rgan el qayg‘uga botmasin. Dushman kelsa chegaradamiz!

Kamon o‘qi yetguday masofada orqada borayotgan, endigina qiyalikka yetgan Erkishining ko‘zi bolada. Bola do‘mlikka chiqishi bilan undan ko‘zini olmagan Erkishi baqirib, ovozining boricha hayqirdi:

— O‘o‘! El-yurt! Ko‘zi o‘tgan qo‘rqmas botirning palaponi uchdi! Uni ustidan Ko‘k, pastdan yer qo‘llab-quvvatlasin! Unga omad tilanglar!

Ungacha bola oshib o‘tgan do‘nglikka Erkishi o‘zi ham yetib keldi. Shu paytgacha daryo ko‘rinmayotgan edi. Hozir daraning old tomoniga keng yoyilgan daryoning ikki qirg‘og‘i yulg‘un, qamishzor, uyub qo‘yganday to‘p-to‘p qarag‘ay va qayinzor. Yuqori tomoni tog‘ tomonga cho‘zilgan, burilib, sekin oqayotgan daryo ko‘rindi. Bola daryoning o‘ng qirg‘og‘i bo‘ylab yuqoriga — kun chiqishga qarab ketayotgan edi. Yo‘lning ikki tomonidagi uylardan odamlar chiqishdi ...

Erkakning ovozi:

— Kelyapti!

Ayol kishining ovozi:

— Kelyapti!

Bolaning ovozi:

— Kelyapti!

Oqbo‘z g‘unon mingan bola bu ovozlari eshitmay, hech qaysi tomonga burilmay, yo‘lda davom eta berdi. Insonlar bilan uzoq

[1] **Etti tuluk** — yilqi, qulon, qo‘tos, sigir, echki, tuya va qo‘y. Hozirgi paytda to‘rt tuluk iborasi ko‘proq ishlatiladi. To‘rt tuluk — yilqi, sigir, echki va qo‘y.

[2] **To‘llasin** — tug‘ib tursin.

vaqtdan beri do‘st bo‘lib, foydasi tekkan itlar egalarining qosh-qovog‘i va boshqacha xatti-harakatlari tufayli ularning fikrlarini sezganmi, har holda uyning yonidan o‘tgan otliqqa ham tashlanib, shoshirib qo‘yadigan devbat itlar g‘ingshib, yalanib uyning orqa tomoniga ketadi. Bunday vaqtda itning irillashi yomon belgidir. U yomon belgini o‘rnida yo‘qotib, yaxshilik chaqirish uchun o‘sha hurgan itning egasi uni janchar bilan sanchib, yerga yopishtirib tashlaydi:

— Yomon tilaging o‘z boshingga! Yomon tilaging o‘z boshingga!

Ana shundanmi, it egasining fikrini harakatlaridan sezadi, hurmaydigan vaqtda hurmaydi, hurish kerak bo‘lsa, huradi.

Oq o‘tovlarning oldida bir to‘p odamlar qiziqish bilan qarab turishardi. Ularning oldida silovsin, bo‘ri ichik[1] kiygan, qulundaa-qilarni yopingan soqollilar turardi. Biri popukli jancharini yuqori ko‘taradi. Biri yalov silkitadi. Uzun tekis sopga biriktirilgan yalovlar ko‘k, oq, yashil va qizil — urug‘larning yalovlari. Chegaraga yov kelganda, o‘r va tuzdan, keng yaylovdan unga qarshi lashkar to‘planganda, janchar ushlab, oybolta olgan elga urug‘ donishmandi rahbarlik qiladi. U lashkar oldida o‘z urug‘ini atab, yalov silkitib: “Yigitlar, otlaninglar, yigitlar, otlaninglar!” — deb da’vat qiladi.

Yalovni silkitish — yurtga obro‘, shon-shuhrat va g‘alabaga chaqiriqdir.

Bugun ham daryoning ikki qirg‘og‘iga joylashgan yurt oqsoqollari yeldek uchib borayotgan yosh chavandozni olqishlab, unga obro‘, shon-shuhrat, g‘alaba, umriga baraka tilab yalovlarini hilpiratdilar.

Erkak ovozi:

— Biz sizning askarlaringmiz ... Dushmanga qarshi bizni chaqir, biz boramiz!

Ayol kishining uni:

— Yurishga boshla, boramiz!..

Bolaning ovozi:

— Biz askaringmiz, ertutuk[2]!

---

[1] **Ichik** — ichi aytilgan narsaning terisidan, tashi matodan bo‘lgan po‘stin.

[2] **Ertutuk** — mardlikning nomlanishi.

Keng o'zanga qarab daryo kamonday egilgan yerdagi tekislikda ko'p ovul bor edi. Bu ovulning bo'z uylari o'zicha tartib bilan joylashgan. O'ttizga yaqin uy o'ng qanot bo'lib o'ng tomonda, o'ttizday uy chap qanot bo'lib chap tomonda. Hammasi birday katta va oq. Xuddi o'sha ikki qanotning o'rtasida eng katta dabdabali uchta uy olisdan ko'zga tashlanadi. Uyning tevarak atrofida yurgan odam, o'tlayotgan mol ham ko'rinmaydi. Bu hashamatli uch bo'z uy ovulning o'ng tarafidagisiga ham, chap tarafidagisiga ham ovoz yetadigan darajada alohida joylashgan. O'rtadagisi qolgan ikki uydan boshqacharoq: unga yopilgan namatlarning chekkalariga harflar va bezaklar chizilgan. Bezash uchun ishlatiladigan kashtaning o'rniga "Bu Er Qulchurnning o'rdasiga Tangri yaxshilik ato qilsin, tepada Ko'k, ostida hosildor yer yordam bersin", degan tilak yozilgan. Ot yili chiqay·deganda, tog'larga jancharbo'yi qor yog'ib, yut[1] bo'ldi. Mol qirildi. Yigitlar minadigan otlar kamaydi. Bu holatdan xabar topgan hiylagar tabg'achlar besh tuman[2] askar bilan kelib chegarani buzdi.

Er Qulchur ko'ksuvlik, qiziljarlik qirg'izlarni dushmanga qarshi otlantirdi. Tinch yashagan elning ustiga tungi bo'ronday yashirinib kelib, qimirlatmasdan bosib, katta o'ljaga ega bo'lishni xohlagan tabg'achlar jangga tayyor turishgandi. Otlari toblangan, askarlari yaxshi qurollangan yov chegarani buzib o'tdi. Ovulning chekkasidagi uylarni talon-taroj qilib, kuydirib, o'g'il-qizlarni asir qilib olishni boshladi.

Ammo tabg'achlar qonli hujumlarini davom ettira olmay qolishdi. Atrofdan yig'ilgan Kulchur lashkari dushmanga qarshi uch tarafdan jangga kirishdi. O'lja umidida ko'zlarini moy bosganday bo'lib, esini yo'qotgan tabg'achlar hujumni susaytirishdi. O'lja umididagi askarlar jangdan avval mol, mulk, boylikni poylab qolishgandi. Ular tarqala boshladilar. Ana shu vaziyatda Er Qulchurning tuman-tuman askarlari qirlardan oshib keldi. Ko'k, oq va yashil yalovlar hilpiradi. Surnay chalinib, otning tuyog'i yerni

[1] **Yut** — em-xashak yetishmasligi. Yut bo'lganda chorva uchun yem-hashak tugab, hayvonlar qirilib ketadi.

[2] **Tuman** — o'n ming. Askarlar hisobi o'n, ellik, yuz, ming, o'n ming hisobida yuritilgan.

larzaga keltirdi. Bu urush 602-yil it yili chin quron[1]ning to‘qqizinchi kechasi tong otar-otmas tabg‘achlarning bosh qo‘mondon San Lin-Xe boshchiligidagi o‘n minglab yov askarlari bosib kirish bilan boshlangan edi. Dovuldek tez harakat qilgan Kulchur askarlari tabg‘achlarning yashirinishiga ham joy topishga ulgurtmay qirg‘in qildi. Hali maydonda jangga kirmagan to‘rt tuman askari bor tabg‘ach bundan xavotirga ham tushmadi. Biroz zarba yedi, xolos. Boshdagiday tartibsiz urishmasdan, o‘zlarini ehtiyot qila boshladilar. Ular biroz chekinib, o‘zlarini tartibga keltirib, yarador qashqirday g‘azab bilan va astoydil urishishdi. Ikki tarafdan ham ozmuncha odam qirilmadi. Qir-qir, dala, chekka-chekka, daryolar qirg‘og‘i, kechuvlarning sayoz joylari, qarag‘ay va qayinzorlar soqol-mo‘ylovi soqsayib o‘lib yotgan odamlarning jasadi-yu, qorni shishib ketib, to‘rt oyog‘i tarvaygan otning o‘limtigiga to‘ldi. Qarama-qarshilikning odatiy ayovsiz qirg‘ini yerning bag‘rini kuydirdi.

Besh kunu besh tun davom etgan tinimsiz janglardan so‘ng rosa holdan toygan tabg‘ach avval qo‘lga kiritgan o‘ljasidan ham ajralib, qirg‘indan omon qolganlari tartibsiz tirqirab, tengidan ozi zo‘rg‘a qochib qutuldi.

Bu safar ham qirg‘iz chegarasi buzilgani yo‘q.

Ammo insonni o‘kintiradigan bu dunyo elni chiqimsiz qoldirmadi: jangda yarador bo‘lgan Er Qulchurning yarasi tuzalmay, tabiblarning bergan dori-darmonlarining hech biri foyda bermay yilqi yili oyog‘iga chiqib, ilon yili boshlanganda yolg‘on quron[2] oyining yigirma sakkizinchi tuni og‘a qarindoshlarini, yurtning ko‘zga ko‘ringan donishmandlarini, qurol ushlagan mardlarini oldiga chorladi. Yaraning azobi bergan og‘riqdan joni qiynalib, surli o‘tkir ko‘zlarining nuri ketib, holsizlanib, to‘planganlarga bir qur qarab, Er Qulchur vasiyatini aytdi:

— Orig‘ingni semirtirgan edim. Ozingni ko‘paytirgan edim. Qirq urug‘ butun yurtni boshini qo‘shib, tubi teran ko‘l qilaman, degan orzuim amalga oshmay qolyapti. Gap bilgan chechaning eshit, yov sanchar marding eshit. Men o‘n ikkida edim. Og‘a, qarin-

[1] **Chin quron** — oy nomi, mart oyiga to‘g‘ri keladi.

[2] **Yolg‘on quron** — fevral

doshlarning o‘g‘illari bilan g‘unon minib, olisdagi Qo‘ng‘ir yayloviga qirg‘iy solgani ketdik .. O‘o‘, bag‘ri hamma narsaga boy yer... Bizning yerda nimalar yo‘q? Hamma narsa bor: qorabag‘ir, bedana, kaklik, chil, qirg‘ovul, qoraqur tiqilib yotibdi. Zoriqtirmaydi. Oyog‘ingning tagidan uchadi. Meni u yerlar o‘ziga maftun qildi, qiziqdim. Qirg‘iyim uchganni tutdi. Men o‘zimni arslondan ham qo‘rqmas mardman, deb o‘yladim. Urinib, beringim keldi. O‘shanda yo‘q yerdan janjal chiqardim. Menga yaqinlashgan sherigimga qamchi soldim. Bir-ikkitasining beti men urgan qamchi zarbidan yorildi. Bir-ikkitasining qirg‘iyi qo‘llaridan uchib ketdi... O‘zimni jangda yovni chopgan mard askar singari sezdim. Mendan boshqa o‘g‘lonlar menga tiz cho‘kadigan yovday tuyildi.

Birdan baland ovoz eshitildi:

— To‘xta, o‘g‘lim?!

Men qaraguncha katta to‘riq otga mingan bahaybat odam tik bostirib keldi-da, chap qo‘li bilan yelkamning o‘rtasidan ushladi. Qo‘lining og‘irligidan o‘pkam g‘ijimlanib qolganday bo‘ldi. Keyin u meni egardan dast ko‘tarib, bir qancha fursat pastga tushirmadi. Men “Jon, aka” deb yolvordim. U meni sekin egarga qayta o‘tirg‘izdi ...

Er Qulchur vasiyat qilayotgan paytda juda holsiz edi. Endi o‘tmishdagi bir voqeani eslab o‘ziga kelishga harakat qildi. Doim yonida turgan kumush kosadan suv xo‘pladi. Tilini og‘zida aylantirdi. “Oh, muzdek suv. Er yigitning ichimligi ... ” deganday bo‘ldi.

U bir zum o‘ylanib, so‘ng vasiyatini davom ettirdi:

— Qo‘rqib ketgan bolalar dovdirab turishardi. Bahaybat kishi ularga dedi:

— Nechtasizlar?

— Qirqtamiz, amaki, - dedi kimdir.

Qolganlar og‘ziga suv olganday yerga qarab, qovog‘ini solib turdilar.

— Boringlar! Hammang ikkitadan novda kesib kelinglar! — dedi u.

Biz o‘rmondan ikkitadan novdani kesib, tez qaytib keldik. Bahaybat odam bizga qarab kuldi. Erkalatganday dedi:

— A-a,... ahmoqlar, endi mening hukmimni eshiting!..

Biz birimizni birimizga savalatar ekan, deb qo‘rqib ketdik.

— Novdalarning birini sindiring. Birini qoldiring! — dedi bahaybat kishi.

Biz uning aytganini qildik. Qolgan qirq novdani menga bergizdi. Ikki qo‘limga qirq novda zo‘rg‘a sig‘di.

— Sen kuchli o‘g‘lon ekansan?! —dedi bahaybat kishi menga. — Shu qirq novdani ikki qo‘llab sindir.

Men “chiq” etkizib, bosh chayqadim. U kuldi. Men uning dubulg‘asi bosgan chakkasidan ter aralash qon sizib oqayotganini ko‘rdim.

— Ha, xuddi shunday! — dedi bahaybat kishi. — Bitta edi, sindi. Qirqi biriktirilgan edi, sinmadi. Men qirqta bo‘lib bosqinga otlangandim. O‘ttiz to‘qqizi tabg‘ach vodiysidan berigi cho‘lda tarqab ketdi. Men yolg‘iz jang qildim. O‘lishim mumkin edi, otim chopqir bo‘lganligidan dushmandan zo‘rg‘a qutulib qoldim. Qirqoving birga bo‘lsang, sizlarga birov haddi sig‘ib hujum qilolmaydi. Yolg‘izlansang, sizlarni bo‘ri yeydi, ahmoqlar!

Bahaybat kishi qaytib ketdi. Kimligini so‘ray olmadim. Uning so‘zlari butun umr yodimda qoldi. U odam emas, qo‘llovchi edi. Bosqin paytida u mening yodimga kelardi.

— Askaring oz. Hamma urug‘larni chaqir! — degan gapi qulog‘imda... Elu yurtim, qirqing qirq tarafga tortmang, taramang. Biriking, dedim. Ozchilik ko‘paysa, och to‘ysa, dedim. Bir bo‘lganda bosqinda yengib qaytdik. Oz bo‘lganda, parokanda bo‘lib qaytdik. Er gapini yodingda tut, ajdodlar urf-odatlarini tashlamang, elu yurt!

Er-Kulchur to‘planganlarni ko‘zdan kechirdi va so‘nggi nafasini oldi:

— ... qabrim chekkasiga tosh balbal[1] qo‘yinglar! Bir tomoniga hayotimda qilgan qahramonliklarni o‘yib yozdiring. Ajdodlarimiz bilsin. Unutmasin! Ey, botirlar, qirq urug‘larning donishmandlari, beklari, eshiting! Och qolganingizda to‘q bo‘lishni unutmang. To‘q bo‘lganingizda och qolishni eslab turing!.. Birga bo‘lsangiz tinchsiz, yakka bo‘lsangiz, qayg‘uga botasiz ... xayr...

[1] **Balbal** — qadimda turkiy elning ko‘zga ko‘ringan insonlari qabrlariga qo‘yiladigan tosh haykal.

Shundan keyin Er Kulchur vafot yetdi. O‘shandan beri bir qish o‘tdi. Tog‘da bug‘ular chopqillay boshladi. Er Kulchurning o‘g‘li Yosh tegin beshga to‘ldi. U otasini eslab, juda sog‘inar edi. Mayli, sog‘insin, deb qo‘yishardi. Otasidan yosh qolgan farzand, otasini qanchalik ko‘p sog‘insa, uning arvohini unutmaydi, otasidagi barcha yaxshi fazilatlarni o‘ziga chaqirib oladi, degan ishonch elda kuchli.

Butun umri davomida Kulchurning ishonchli kishisi bo‘lib kelgan Erkishi Yosh teginning besh yoshga to‘lishini intiqlik bilan kutardi. Beshdagi o‘g‘il odam bo‘laman desa, yaxshi-yomonni, qahramonlik nima, qo‘rqoqlik nima ekanligini qalbiga singdiradigan payti. Bolani shu yoshdan boshlab ot ustida mardlikka, chorva ortida mehnat qilishga, ehtiyotkor bo‘lishga ko‘niktirish bobolardan qolgan azaliy an’anadir..

Er Kulchur oldida va’dasiga vafodor bo‘lgan Erkishi bugun uning o‘g‘li Yosh teginning boshiga baxt chaqirdi. Otaning lochini ota o‘tovining chamg‘arag‘[1]iga, yoki bolaning boshiga qo‘nsa, otaning baxti bolani qo‘llab-quvvatlaydi. Bu ko‘pdan beri qonga singgan muqaddas e’tiqod odamlarni uni intiqlik bilan kutishga majbur qildi.

O‘rtadagi katta oq uyning to‘rida uzun oppoq soqoliga ko‘z yoshi oqib o‘tirgan Odiltoy ajo[2] goh xo‘rsinib, goh yig‘lab xavotir bilan tilak qilardi: “Ey, Ko‘k Tangri, ota qushini bolaning boshiga qo‘ndir! Qo‘nsa, biz kam bo‘lmaymiz. Qo‘nmasa, ishlarimiz hammasi chala bo‘ladi”, — deb ichidan zor qaqshardi.

Tashqarida ovozlar kela boshladi:

— Kelyapti!

— Kelyapti!

— Yaqinlashib qoldi!

To‘rdagi oltin taxtda o‘tirgan ajo ochib qo‘yilgan bo‘z uy eshigidan chopib kelayotgan nevarasini allaqachon ko‘rgan. U hozir Oq uyga yaqinlashib qolgandi.

Odiltoy ajo qo‘lini ko‘targanida qizil kimxob choponining yoqasi yelkasidan sirg‘aldi:

---

[1] **Chamg‘arak** —bo‘z uyning tuynugidagi yog‘och xodalar jamlamasi.

[2] **Ajo** — podsho, bosh xon, davlat boshlig‘i. (Muallif izohi).

— Ey! Lochinni qo‘limga qo‘ndiring!

Bu so‘zni kutgan yosh yigit kumush qo‘noqdagi lochinni uzun ipak bog‘ichini chuvalashtirib, ajoning cho‘zilgan bilagiga qo‘ndirdi. Odiltoy lochinning tirnoqlarini o‘pdi, ko‘kragini hidladi, boshini, boshidan dumining uchigacha uch marta siladi-da:

— Ey, shunqor, ochiq gapir, aniq so‘zla! Bu ulug‘ lashkar boshli bo‘ladimi? Mard egangni top! — dedi-da lochinni chang‘arakka qarab siltadi..

Lochin nimagadir jon talashganday chirilladi. Uzun bog‘ichi chamg‘arakka tegib, ilashib, o‘zi ham chamg‘arakka qo‘nadiganday bo‘lib talpinib, qanotlarini qoqib turib, keyin qalqib uchib ketdi.

Qaltirab turgan oppoq barmoqlari soqolining uchida qotib qolgan Odiltoy holsizlanib, gandiraklab eshikka qarab kelayotgan boladan ko‘z uzmadi. Uyda ham, tashqarida ham, tevarak-atrofda ham go‘yo butun hayot so‘ngandek jimlik hukm surardi....

“Bobolar lochini o‘z egasini topmasa, naslimizdan baraka ketadi, baxt qochadi” degan qo‘rquv jimjitligi.

— Qo‘ndi!

— Qo‘ndi! — deb ovozlar atrofga yoyildi.

— Ajo ota, bolangizga baxt qo‘ndi!

— Qush qo‘ndi, bobo!

Odiltoy ajoning ko‘zlari yoshga to‘ldi. O‘zi ko‘ra olmaganligi uchun, quvonib shoshib so‘radi:

— Haqiqatan ham qo‘ndimi? Rostmi? Qurbonligini olib kelinglar! Sariq boshli oq qo‘zidan olib kelinglar!

Sariq boshli oqish jingalak junli shirboz qo‘zi eshik oldiga olib kelindi. Hansirab oldinga intilib, g‘unonini choptirib Tegin ham yetib keldi.

Ungacha bolaning qizil matoli boshiga qo‘ngan lochin, yana talpinib, yelkasini timdalab, chirillab yubordi. Cho‘chidimi, yoki lochinning tirnog‘i bexosdan qulog‘iga tegdimi? Har holda, bola yelkasini qisib, yig‘lay olmay, kula ham olmay: “Bobo-o!” — deb chaqirdi.

Shu payt katta to‘riq otini entiktirib yetib kelgan Erkishi otdan sakrab tushib, bolani ayirmachdan dast ko‘tarib oldi.

Shimalangan yigit so'yilgan sariq boshli oq qo'zining qaynoq qoniga to'la kumush oyoqni onaga tutqazdi. Qo'llari tilla bilakuzuklarda bilagi bukilganday, g'am-g'ussa ichida qolgan Sayqal ona qonga to'la oyoqni olib, darhol Yosh teginning boshidan aylantirdi:

— Bosh-ko'zingdan aylansin, yurt egasi bo'l! Qoning kamaysa, mard o'g'lonlar sening qoningni to'ldirsin! Kuch-quvvating kamaysa, mardlar piri senga kuch qo'shsin! Dushmaning tiz cho'ksin!

Ona oyoqni oqbo'z g'unon yolining ustidan aylantirdi:

— Urushda charchama, ey, er oti. Qochganni quvib yet, er oti. Egang qochsa, qutqargin, er oti. Sening qoning to'lsin, dushman oti qonsirasin, jonivor!

Ona qonni idishi bilan chetga qarab irg'itdi.

Halitdan beri o'rda eshigi oldida oppoq ichik yopinib turgan Umay ona Yosh teginni alqadi:

— Chirog'im, yuqoridan ochiq Ko'k, pastdan Muqaddas yer seni qo'llasin! Mard bobong jilovingda bo'lsin! Dushman senga ro'para kelolmasin! El-yurt seni unutmasin!..

Keyin o'rdaga kiraverishda nevarasining peshonasini uch karradan siladi. Buvining uzuklarga to'la yumshoq barmoqlari Yosh teginning yuziga mayin tegib o'tdi.

— Bor, o'g'lim. Bobongdan duo ol!

Yosh tegin ochiq eshik tomon shoshildi. U to'rda qimirlamay, ammo chayqalib, ming'irlab o'tirgan, o'zi ham, soqoli ham oppoq ajo bobosini ko'zlab shoshdi.

Bola tushganda chirillab, qanot qoqib, ayirmachning qoshiga qo'na qolgan lochinni Erkishi qo'lqopsiz qo'liga qo'ndiribdi. Keyin u bolaning orqasidan bo'z uyga kirdi. Bu paytda o'g'il askarlarning odatiga ko'ra, tiz cho'kib, qo'lini ko'ksiga qo'yib:

— Mard otamning qushi avval boshimga, keyin yelkamga qo'ndi!- dedi.

Chol dadillanib dedi:

— Seni bobolaring qo'lladi, o'g'lim. Boshingga qushi qo'ndi. Kichik bo'lma, katta bo'l. Ahmoqlik qilma, bilimdon bo'l! Mingan oting yaydoq qolmasin! Kirgan uying chamg'arakli bo'lsin!

Ortingdan qo‘shin ergashsin! Nomingni el unutmasin! — Odiltoy ajo ikki kaftini yoyib, qo‘llarini boshidan yuqori ko‘tarib dedi: — Ey, bepoyon Ko‘k, hosildor muqaddas yer? Mana shu bolaga aql bilan kuchni ayamang! Och bo‘lsa, nimadan och bo‘lganini payqamagan, to‘q bo‘lsa, nimadan to‘qligini sezmaydigan kamtarin yurtimizga yaxshi yetakchi bo‘lsin. Daryo bo‘ylab, keng adir va yaylovlarda tinch yashashsin. Qayg‘u chekmasin!

Odiltoy ajo uyda so‘zlayotganda tashqaridagilar ham unga qo‘sha tilak tilashib turdi.

— Duo qiling.

Uydagilar ham, hovlidagilar ham bir-birini ko‘rib, birini biri qo‘llab, daryo bo‘yidagi hamma uylardagi va yo‘lda turgan katta-kichik hammasi Ko‘kka qarab qo‘llarini ochdilar. Uch marta yaxshilik so‘rab duo qilishdi:

— Ey, Ko‘k Tangri, yurtimizga baraka bering!

— Baraka bering!

— Baraka bering!

Fotihadan so‘ng ajo oldida turgan yaltiroq po‘lat xanjarni kaftiga qo‘ydi va bolaga uzatdi:

— Doimo el bilan birga bo‘laman! Haqiqat va to‘g‘ri yo‘ldan og‘ishmayman! — deb po‘lat xanjarning tig‘ini o‘p, o‘g‘lim!

Bola shosha-pisha bobosining gapini takrorladi. U peshonasini xanjarga tegizdi, keyin uning tig‘ini uch marta o‘pdi.

Bolaning boshidan qon aylantirgan onaning ovozi eshik oldida paydo bo‘ldi:

— O‘pdi, chirog‘im, o‘pdi! Ey, elchilar, xushxabarni elu yurtga yetkazinglar!

Xuddi shu xabarni kutib turgan to‘rt askar momi[1]ga bog‘langan otlariga tezdan minib, to‘rt tarafga qarab shamolday uchib ketishdi:

— Xushxabar!

— Xushxabar!

— Qush qo‘ndi! Baxt qo‘ndi! Ey, el-yurt! Ozing ko‘paydi! Orig‘ing semirdi!

— Xushxabar! Qush qo‘ndi!

[1] **Momi** — bo‘z uylarning yoniga ot bog‘lash uchun o‘rnatilgan ustun.

— Bemalol yotgan el, eshitinglar! Poyloqchilik qilayotgan askarlar, eshiting! Xushxabar!

— Qirda yurgan yilqichi, eshiting! Vodiyda yurgan podachilar, eshiting! Xushxabar! Yaqindagi qarindoshlar, eshiting! Olisdagi yot-begonalar, eshiting! Xushxabar!

— Qush qo'ndi! Baxt qo'ndi!

Dehqonlar eshiting! Ko'mirchilar, eshiting! Konchilar, eshiting!

— Qush qo'ndi! Baraka-xayr qo'ndi!

— Xushxabar!

ULG'AYISH

Ko'miriga chidamay
Ko'hna o'rmon qiyilgan,
Ko'rugiga chidamay,
Ko'k buqalar so'yilgan.
"Manas"dan

Qirg'iz hunarmandlari qurol-yaroq yasashda juda mohir bo'lganlar. Qirg'izlar yasagan temir qurol nihoyatda o'tkir bo'lganligi uchun karkidonning terisini teshib o'tganligini xitoyliklar yaxshi bilishgan va o'zlarining yilnomalarida yozib qoldirishgan.

L. A. Yevtuxova. "Qadimgi davrda Janubiy Sibir".

"Yilqichi bo'ladigan bola egarda uxlaydi. Egarda uxlaydigan bola elni to'ydiradi", degan so'z ichgan qimiziday yoqib, tomiriga taralib, ishontirib, g'ayratiga g'ayrat qo'shib qo'yganligidan Yosh tegin yilqichilarning oldiga kelgandan beri ot ustida uxlaydi. Albatta, har bir yangi joy yoshni ham, keksani ham cho'chitadi, ko'niktiradi va toblaydi. Yosh tegin avvaliga egarda uxlay olmay, qalqib, boshi shilqillab, egarning qoshiga urib iyagi shishib yurdi. Ko'zlari qizarib, rangi ham bir ahvol edi. Shunday bo'lsada, "Egarda uxlagan bola yilqichi bo'ladi" degan naql uni to'la ishontirgan edi. Egarda uxlay olmasa, yilqichi bo'lmasa, mard odam bo'lmay qoladigandek his qiladi. "U bola otasiga tortmabdi. Egardan shilq etib tushib qolibdi. Ko'chigi bo'sh quvray ekan-da" degan yomon so'zlar Yosh teginning nomiga aytilishi aniq. Uni yil-

qichilarning oldiga uzatayotganda: "Uyquchi bo'lma, o'g'lim. Agar uxlayotganingda yilqilarga yo'lbars yoki dushman hujum qilsa ham, otdan ayrilma. Undan ayrilib, dalada qolma. Eng yomoni shu, sen chopadigan so'yil kamayadi, hushyor bo'l!" — degan ona.

"Sen chopadigan so'yil kamayadi". Hamma aytilganlardan ko'ra shu so'z bolani hushyor qiladi, g'ayratiga g'ayrat qo'shadi.

U qayin uqruq[1]ning chilvir bog'ini qaruu[2]siga puxta ilib, telpagini bostirib kiyib, teri to'nining etaklarini ikki tizzasiga o'rab qimchidi. Go'yo o'zi egardan unib chiqqanday. Darvoqe, atakchechak bosgandan o'zicha ayirmachga bog'lanib, mustaqil ot bostirgan bola, yetti yoshdan o'tib qolganda egarda bo'sh o'tirarmidi? O'sgan joyi egar, ko'rgani ot yoli, uqqani qadimgi o'tgan mardlar bayoni:

— Bizning mard bobomiz uch yoshida yilqi boqqan ekan. Besh yoshida ovga chiqibdi. Kamon bilan bo'ri otgan ekan. Yetti yoshida askar bo'lib, dushman ustiga to'g'ri bostirib boribdi. Hozir bo'lsa, olti yoshli bola otni zo'rg'a minyapti. Eh, erlar ozayyapti, arg'umoqlar esa hozir ham ilgarigiday... Mard bobomiz o'ttiz lashkari bilan tabg'achning qo'shinini mag'lub qilgan ekan.. Bizning zamonamizda yashayotgan mardlar shu ishlarni qila oladimi?!

Bu so'zlar Yosh teginning g'ayratiga g'ayrat qo'shadi. "Buyursa, men ham bobomday bo'laman. Kamon otaman, yovga bostirib boraman. Gurzi bilan dushmanning dodini beraman".

Kunduzi yilqi tekislik, adirlarni qoplab timirskilanib yuradi. Yotgani yotib, o'tlagani o'tlab, o'yinqaroq qulun-toy, g'unon, do'nanlari bir-biri bilan olishib, tishlashadi. O'ydan qirga bir-birining orqasidan quvib, o'yin solishadi. Toshqo'rdo'[3] "biq-biq" qaynaydi. Yilqichilar dam olishib, zerikkanlarini tarqatishga harakat qilishadi. Ular uzoqroq joydagi quruq yog'ochga to'n kiydirib, qaroqchi sifatida nishon qilishib, musobaqalashadi. Kim nishonga uch marta ketma-ket o'q tekkizgan bo'lsa, u "Yilqichi

[1] **Uqruq** — kamand.

[2] **Qaruu** — qo'lning chig'anoq bilan elkagacha bo'lgan qismi. Bu so'zning uzunlik o'lchovi ma'nosi ham bor. Bir qaruu 80 sm.ga teng.

[3] **Toshqo'rdo'** — askarlar ichiga qizdirilgan tosh solib ovqat pishiradigan, yilqi terisidan tayyorlangan idish.

og‘a” nomini olib, to‘rda o‘tiradi va ziyofatda ucha[1] oladi. Sovriniga silovsin yoki suvsar terisi bilan taqdirlanadi. Kim uch o‘qdan birini ham nishonga tekkiza olmasa, uni ermak qilishadi. U alvasti adashtirib, sehrlab ketgan narsaday suvga solinadi yoki o‘tin terib, yilqichilarga ovqat pishiradi. Ya’ni, yilqichilarning zerikkandagi o‘yinlari: nishonga otish yoki ikki guruhga bo‘linib ag‘darish[2], asovlarni o‘rgatish....

Qancha-qancha kuchga to‘lgan g‘unon-pishtilar[3], yangi asilar bo‘yniga uqruq tushganda ikki oyoqlab, osmonga qarab sakrab, kishnaydi. Chaqqon yilqichi uni qulog‘idan mahkam ushlab, yugan solib, egarlaydi, biri chaqqonlik bilan minadi. Asov ot o‘zini u yoq-bu yoqqa tashlab, olg‘a intiladi. Orqa ikki oyog‘ini u yoq-bu yoqqa kerib, chavandozni yiqitmoqchiday, irg‘ishlab jo‘naydi. Egarga yopishib olgan yilqichi yiqilishning o‘rniga asovni tartibga solish uchun qamchi solib, asovning jonini unga sayin og‘ritadi. Asov ot yana ham irg‘ishlaydi. Yilqichi yana qamchi bosadi. Tekislikdan to‘shga entiktirib, to‘shdan pastga oyoqlarini kerib, cho‘chigansimon tarzda choptiradi. Ot suv-suv terlaydi. Og‘zidagi sulug‘i jamajoy[4]ini qiyib, qonatadi. Peshonasidagi kokili to‘planib, ko‘zlari atrofga termiladi. To‘shidan, sag‘risidan va qo‘ltig‘idan qaynab chiqqanday oq ko‘pik sachraydi. U juda charchaganidan boshini chayqaydi, chalishib, chayqaladi. Inson asovni bo‘ysundiradi. Katta kishi bir mingandan so‘ng, u asovni yilqichi bolaga mindiradilar. Albatta, bolaning salmog‘ini sezgan asov qaytadan kuchga kiradi, qaytadan titrab, oldiga qarab intiladi, gir aylanadi. Hali asovning ixmini olmagan, asovni o‘rgatishga tajribasi yo‘q bolani ot shart egardan irg‘itib yuborganda kattalar yilqichi bolani masxara qilishadi. “O‘o‘, bechora bola! Hali bu otni minishga ancha bor ekan. O‘zingni chiniqtir. Bu bolani yilqi boqishga kim yubordi o‘zi? Qo‘qqisdan yov hujum qilib qolsa, baqirib yig‘lab, otidan ayrilib qoladigan mishiqi-ku bu! E, o‘g‘lim,

[1] **Ucha** — eng hurmatli mehmonga qo‘yiladigan mucha.

[2] **Ag‘darish** — ot ustida ikki kishining tortishishi. Birini ot ustidan tushirmaguncha davom etadi.

[3] **G‘unon-pishti, asi** — otning yoshlari.

[4] **Jamajoy** — og‘izning ikki chekkasi.

sen uyingga borib, buzoq mingin. Ot sakraganda egardan "shalp" etib tushib qoladigan bola yilqi boqishga yaramaydi.

Yig'lamoqchi bo'lgan bola kattalarning masxaralaganini eshitib, alam qiladi va g'ayratiga g'ayrat qo'shiladi. U asovga qayta minadi. Endi u egarda mahkam o'tiradi. Jilovni qisqa tutadi. Qamchinini yuqoriga ko'taradi. Kuchini boricha asovni taqimiga bosadi. Hovuridan tushgan asov endi avvalgiday sakramaydi.

Yoshi ulug' yilqichilar bolani har tomondan maqtay boshlaydilar:

— Ee, zo'r. Molni qaytarishga yarab qolibsan.

— Bexosdan oting hurkib ketsa, yiqilib tushma!

— Otdan ayrilgan mardning qanoti kesiladi, o'g'lim! O'lsang, jasading egarga yopishib tursin!

— Yaxshi erkakni otning yoli ham yaxshi ko'radi!

Yosh tegin har gal asovdan yiqilganida katta yilqichilarning ana shunday tanbehini eshitdi. Keyin u yilqi boqib yurib, juda tez otga minish va unda yurish sir-asrorlarini o'rgandi, tajribasi oshdi. Oysiz tunda u katta yilqichining xohishiga ko'ra tekislikka tayangan uzun qirning ustida yurib, toqqa yolg'iz chiqib ketdi. Yolg'iz yurgan tunda u o'ziga qo'rqmas va jasur ko'rinardi, lekin shubha bilan ikkilanib, u yoq-bu yoqqa qarab ot bostirdi. To'satdan qirdan bo'ri chiqib qolganda, mingani pishqirdi, o'zini u yoq-bu yoqqa tashladi. O'zi cho'chiganidan "Er bobo" deb yilqichilar boshlig'ini chaqirdi.

Keyin o'zini qo'lga oldi:

"Bo'ri ham it-da. Undan nima uchun qo'rqishim kerak?... Odamdan it qochadi, bo'ri ham qochadi". O'zini qo'lga olib, g'ayrat bilan ot bostirdi..

Bir safar (kuzga yaqin edi) yaproqlar sarg'ayib, yonbag'ir-adirlar, kungaylarning cho'plari quriy boshlagan.. Tong otishiga yaqin, lekin yorug' tushmagan. Mayin shabada esardi. O'sha tunda yangi o'rgatilgan asini mingan Yosh tegin o'zini katta bo'lib qolgandek his qildi, bir chimdim ham uxlamay, ko'kragini kerib, hech narsaga e'tibor bermay, sekin ot bostirib kelardi. Yonbag'irda qattiq shitirlagan ovoz keldi. Sigirmi yoki qo'tosmi, nima ekanligi belgi-

siz, do‘mpaygan qoramtir jonivorlar gursillab u tomonga kelardi. Chindan qo‘rqqan Yosh tegin boshini u yoq-bu yoqqa burmay shartta jo‘nadi. Usiz ham ozgina sharpadan hushyor bo‘ladigan asi qirning shamolini orqada qoldirib, uchib ketdi. Biroq u bu voqeani, qo‘rqqanini yilqichilarga bildirmadi. Uni qo‘rqitgan qanday hayvon ekanligini ham bilmadi. Oradan ancha vaqt o‘tgach, o‘zi tungi qorovullikka ko‘nikib, tunda ko‘plab yirtqichlarga duch kelganidan keyingina uni qo‘rqitgan yovvoyi to‘ng‘izlar ekanini bildi. Yer turtib yuradigan to‘ng‘izdan qo‘rqib qochib ketganidan juda afsuslandi, g‘azablandi va o‘zini-o‘zi so‘kdi. “Yomon to‘ng‘izdan qo‘rqqanimga qaraganda men eran bo‘la olmayman, shekilli”, — deb o‘kindi.

Bulutlar kirlanib, qor tog‘ etaklariga tushib qolgan. Yilqichilar yilqini vodiyga haydab tushishdi. Ikki-uchtasi yoylarini sozlab, qoyali qo‘rum[1]dan taka[2] ovlagani qolishdi, Yosh tegin ularning orqasidan ergashdi. Undan-bundan qochgan echki-takalar asta-sekin toshdan-toshga sakraydi. Ikki taka yoyning o‘qidan omon qolmadi. Yaralangan bir echkini tutib olishdi. Jonivor kulrang echkining ko‘zlari javdiraydi. Uni so‘yib, otdagi Yosh teginning oldiga solib qo‘yishdi.

— Bu ulush seniki. Yilqingdan semiz toy so‘yib, yilqichilarni mehmon qilasan. Echkini esa bobongga olib bor!

Ularning ko‘ngli ochilib, baqirishib, shovqin solishib, ikki tomoni tik suv bo‘ylab, qalin o‘rmonni oralab kelishayotgan edi. Birdan o‘ng tomon shitirlab qoldi. Cho‘plar yotib qolgan, ochiq yotgan maydondan otilib chiqqan qobonni ko‘rib, katta yilqichilar:

— Ie, qobon[3]-ku! Ehtiyot bo‘linglar, yana u chelib[4] ketmasin, — deyishdi.

Ular otlariga qamchi bosishib tezlashdi. U tomonga o‘qday otilib kelayotgan qobonga beparvo qaragan Yosh tegin:

---

[1] **Qo‘rum** —qoyalardan, jarlardan tog‘ yonbag‘irlaridan nurab tushgan toshlar to‘plami.

[2] **Taka** —kiyikning erkagi.

[3] **Qobon** — yovvoyi to‘ng‘izning erkagi.

[4] **Chelish** —qobonning oldidagi o‘tkir tishlari bilan hujum qilib yarador qilishi.

— Ee, qobondan qochsam, eran bo‘la olamanmi,- deguncha bo‘lmay, ko‘ziga sal ko‘rinib turgan hayvon yetib kelib, otni tumshug‘i bilan urib o‘tdi. Albars[1] bilan urganday yo‘g‘on soni yorilib ketgan to‘riq ot o‘tirib qoldi, yurolmasdan tashvish chekkanday qulog‘ini shalpaytirib, o‘krandi[2].

Otliqlar orqaga qaytishdi. Ular atrofni kuzatib borishar ekan, payqab qolishdi:

— To‘xtanglar! Bolaning otini qobon chelib qo‘ydi, shekilli...

Shundan keyingina Yosh tegin o‘tgan safar qobondan qochganini eslab uyalmaydigan bo‘ldi.

Chetidan kemtilib, kichrayib chiqqan oy unchalik shu’la bermaydi. Juda ozg‘in, sarg‘ayib g‘amgin ko‘ringan oy yulduzli osmonda o‘ta sekin qalqib kelayotganday. Tun zulmatining o‘ziga xos yorug‘ligi bu. Xuddi shunday kechada yer qandaydir bir jonivorga o‘xshaydi. Qarag‘ay va qayinlar qorayib, ko‘paygandaY, butalar do‘mpayib bilinar-bilinmas ko‘rinadi. Uni oralab o‘tlagan ot tayinsiz yo‘qoladi. Aynan shu kechada chavandoz chetdan deyarli payqalmaydi. Xuddi shunday tunda yo‘lbarsning butun gavdasi bilan sakrashi ko‘rinmaydi... Bu ham xavfli, ham shubhali. Shuning uchun yilqichilar “Jangchi o‘yini”ni o‘ynaydi. Bu o‘yinda ular umumiy soniga qarab, beshga bo‘linadi. Ularning to‘rt qismi beshtadan, gohida undan ham ko‘p bo‘lib, yaylovning to‘rt tomoniga ketishadi. Qolgan beshinchi qism boshqalardan ko‘p bo‘ladi. Ular hammaga ham ko‘rinmaydigan, lekin o‘zlariga ma’lum bo‘lgan pana joylarni egallaydi. Ular bosh qo‘mondon va dam olayotgan qo‘shin. Otlarini o‘tga qo‘yishib, o‘zlari ovqatlanishib, bemalol yotishgan bo‘ladi. Aslida, ular bemalol emas: ular oralaridan bir bola, bir katta kishi va yana to‘rtta kishini bo‘lib qo‘yishgan. Ular otda. Askarning urf-odati, askarning epchil ko‘nikmasini mashq qilgan — epchil va hushyor. Oyboltayu gurzini taqimga qistirib, otlarning yoliga yotgan holda qirni qir, vodiyni vodiy demay, qalin o‘rmonni kezib, qator bo‘lishib chopishadi. To‘rt tomonga ketgan tungi kuzatuvda yurgan askarlardan xabar olib, katta qo‘shinga yetkazishadi. “Chegara tinch. Mol-jon omonlik-

[1] **Albars** — toza po‘lat.

[2] **O‘krandi** — biror bir tashqi ta’sirdan yilqining ovoz chiqarishi.

da!" Undan yana har tomonga chopishadi. Tungi qorovullarga xabar yetkazishadi: "Mahalla-ko'y tinch. Mard va donishmand xonimizning mard askarlari qo'riqlagan el-yurt qayg'usiz. Yurt qiz uzatib, kelin olib, to'ylarini o'tkazib, so'zga usta-chechanlarning so'ziga qonib, tomoshalarni mazza qilib ko'rib yotibdi!"

"Jangchi o'yini" deb atalgan bu tungi kuzatuvning faqat bugina emas, balki ko'plab boshqa turlari ham mavjud. Ularning qaysinisi bo'lsa ham, jasoratni, epchillikni, chaqqonlikni va qo'rqmaslikni kuchaytiradi.

Agar tungi o'yinda yurgan askar-yilqichi haqiqatan ham bir muammoga duch kelsa, u qiyinchilikdan ehtiyot bo'lib, qochishga haqqi yo'q. Agar u qo'rqsa yoki beparvo bo'lsa, u dushman kiyimini kiygan hisoblanib, ot ustida yurishga haqqi yo'q. Yolg'iz uyga g'amxo'rlik qilib, o'tin to'plab, o't yoqib, toshqo'rdo'ni tayyorlab, ovqat pishirib qoladi. Bu erkak uchun katta sharmandalik, uyat ish. Nomusli yigitlar bunday sharmandalikka chiday olmay, boshiga gurzi bilan urib, o'zini yomon ahvolga solib qo'yadiganlar ham bo'ladi. Shuning uchun ham "Uyat o'limdan qattiq" degan naql bor.

"Jangchi o'yini"da ishtirok etayotgan bolalar ham har qanday xavfga qaramay, o'zlariga berilgan vazifani qo'rqmasdan aniq bajarishga harakat qiladilar.

Hozir Yosh tegin qo'shinning kuzatuvdagi yilqichi askarlarini yangiliklar bilan tanishtirib, va'z aytib yuribdi. Uning yonidagi yoshi qirqqa yaqinlashib qolgan yilqichi askar ham bola kezida hozirgi Yosh tegin kabi o'sha paytda hozirgi o'ziday kishi bilan yonma-yon yurgan. Katta odam har holda ko'p narsani biladi. Yonidagi bolani sinab ko'rgisi, uni mazax qilgisi yoki turli mashqlar bilan uning qalbida shijoat uyg'otgisi keladi. U yonidagi bolani goh yo'ldan ozdiradi, deb goho aldaydi. Unga: "Dushman kelib qoldi! Yo'lbars sakrayapti!" — deb uni bexosdan qo'rqitadi. Bola bunday gaplardan qo'rqadi, himoyalanadi. Atrofga cho'chib qaraydi. Ammo o'zining qo'rqqanini katta kishiga bildirmaydi. To'satdan qo'rqib ketib, "Onajon"! deb yuborsa, unda u o'zining qo'rqoqligini sezdirib qo'yadi. Bunday holatni aniq sezgan Yosh tegin "Onajon!" deb aytib yubormaslik uchun irinini qattiq tishlab,

gurzini taqimiga qistirmay, uni qamchi o'rnida mahkam ushlab, otda mustahkam o'tirib kelardi. Yer adirlik, qalin butazor bor. Ular olisdan do'mpayib ko'rinadi, nurlanadi va birni ikkita qilib ko'rsatadi. Ular ochiqlik joyga chiqqanda ro'paradagi qalin o'rmondan chiqqan sharpalar ularga qarab tik bostirib kela boshladi. Katta kishi oldida, Yosh tegin undan bir arg'amchi orqada ketayotgandi. Sharpalarni birinchi bo'lib Yosh tegin payqadi. U "Er aka, yov!" deb aytgisi keldi, biroq "Qo'rqoq ekan, deb o'ylamasin", deb indamadi.

Yosh tegin bir fikrga kelmasdan haligi sharpalar unga tikka bostirib kelar va uni qurshab olishga harakat qilardi. U chap tomondan kelayotgan edi. Tegin qo'rqib ketdi. Nima qilishni ham bilmay qoldi. Yuragi gursillab urayotgani ham o'ziga sezildi. "Nima, men qo'rqamanmi? Mard otamga o'xshamadimmi, unga tortmay qoldimmi?" degan fikr xayoliga keldi.

Ungacha bexosdan urilgan jancharning po'lat uchligi oy shu'lasida yaltirab ketdi. Yosh tegin jancharga chap berdi va uni gurzi bilan qoqib yubordi. Dushmanning shashti qaytgansidi, shoshilib jancharini o'nglaguncha Yosh tegin unga hujum qilib, gurzi bilan yovning qaruusiga soldi. Dushmanning chig'anog'i uzilib tushganday bo'ldi, shekilli. O'zini o'zi eplolmay, qochishning payiga tushdi. Shu payt askar-yilqichi orqaga qaytib, dushmanga qarab bostirib kela boshladi. Dushman qochib ketdi. Qochib borar ekan, yarador qo'lini yonboshiga mahkam yopishtirib: "Bola tortinmadi, kuch kirib qolibdi", degan fikrni xayolidan o'tkazdi. U qalin o'rmon ichiga kirib, ko'zdan g'oyib bo'ldi.

Yosh teginning botirligini chegaradagilar eshitdi. Biroq ular dushman hujum qilganiga ishonishmadi. "O'zimizdan birortasi bolani sinagan bo'lsa kerak. Chetdan kelgan yomon niyatli yov bolani tikkasiga chopib tashlamasdimi?" — deyishdi chegaradagi yilqichilar. "Ovuldan kelgan birortasi bo'lsa kerak", deb aytishdi. Ovuldagilar bu gapni uqib, hech kim hech qayoqqa bormaganini, hammasi birga bo'lganini tasdiqlashdi. Shunday qilib tunda Yosh teginga hujum qilgan "dushman"ning kimligi noma'lum bo'yicha qoldi. "Haqiqatan ham u yot odam bo'lsa kerak. U o'zining to'pidan ajrab qolgan askar bo'lishi ham mumkin. Ehtimol, oti xorib,

yurolmay qolgandir. Yaxshi bir ot olgani u yilqiga kelganmikin?" degan gumonlar ham bo'ldi.

Nima bo'lsa ham, Yosh teginni egarda uxlab, kuzatuvga yarab, pishib qolgani maqtaldi. Er boboning avlodlari egardan yiqilsa, arvoh uyaladi! Uyat o'limdan ham yomon. Ko'zi o'tgan boboning ruhi o'ladi. O'o', bu nima degan gap?! O'zini uyatga qo'yish, mard bobosining arvohini uyat qilish o'g'il bolaning ishi emas-da?!

Yosh tegin hozir o'zini ham, bobosini ham uyaltirgani yo'q. U unchalik noloyiq, zaif yoki qo'rqoq emas. U tengdoshlar bilan emas, balki kattalar bilan ham ot ustida yengishadi. Mohir kamonchilar bilan kamon otishadi. Hatto "Buqa tortish" o'yinida ham kattalar bilan arqon tortishga chiqadi... Yoshligida qirda otda qalqib uyqusirab turganida... begona bir odam hujum qilgan. Shunda Yosh teginning oti cho'chib, orqaga tashlagan. Yosh tegin egardan yiqilmagan. Hujum qilgan askar uning yelkasidan ushlab o'ziga tortdi. Yosh tegin unga bo'ysunmay egarga tirmashgan. Askar uni kuch bilan tortgan. Negadir oxirida egardan tushib ketayotgan Yosh teginni qo'yib yubordi-da, kimdandir qo'rqqanday qochib ketgan. Uning ham kim ekanligi noma'lum. "Yosh teginni sinovdan o'tkazayotgan birov bor", deb biri gumon qilsa, "O'o', yo'q. Agar sinasak, biz sinardik. Biz bo'lmasak, qarindoshlaridan biri kelardi. U bizga ko'rinadigan bo'lardi", — deb ikkinchisi aytadi.

Nihoyat:

— Arvohi tirik Er bobo, zurriyotlarni qo'llab yuring! Yosh bekning boshiga qush qo'ngandayoq Er boboning arvohi uni qo'llagan. Yosh bekni tirik arvoh saqlab, qo'riqlab yurgani haqiqat emasmi? Tangrim, yosh bek dushmandan yengilmas alp bo'lsin! Ey, yaxshi niyatli kishilar, Ko'ko'[1], qo'lingizni duoga oching! — deyishgan bu safar yilqichilar ...

Oxirgi marta tanilmagan dushmanni yilqichi-askarlar Er boboning tirik arvohi bo'lsa kerak, deb chamalashdi. Unday degan bilan keyingi hujum qilgan arvoh emas, kishiga o'xshadi. Uning kimligi noma'lum bo'yicha qoldi.

[1] **Ko'ko'** — Tangrining yana bir nomi.

Erkishi yilqining oldiga keldi. U, odaticha, harbiy kiyim kiymagan. Qanjig'aga bog'langan arqon, qopi va boltasi bor.

Kiyimlari eski va yuqa tog'ar[1]dan qilingan. Tog'ar bo'lsa ham, tuya junidan to'qilgan, to'qilishi mayda emas, shovna[2]ga yaqin yo'g'on ipdan qo'pol qilib to'qilgan. Boshiga kiygani oddiy odamlar kiyadigan oq qalpoq. Qalpoq bo'lganda ham, qirg'og'ida jiyagi yo'q, qalin bo'z kigizdan tikilgan, chetlari kesilgan kigiz qalpoq. Bunday qalpoqni eng kambag'allar, o'choq boshida o'tirgan qarigan chollar, ko'mirchilar kiyishadi. Mingani qirchang'i ot, to'qigani g'iychillagan ingirchak[3] egar. Qirchang'i otga yuganning o'rniga solgani tugun-tugun ip no'xta. Unga yarasha o'zi ham yudov[4]. Pastki labining osti kesilganmi, jer dulay[5]ni pastki labiga qoraytirib yopishtirib olgan. Uning keng ko'kragi to'shigacha ochiq edi. U uzoqdan ovoz berib keldi:

— Ee, hormanglar, er yilqichilar!

— Bor bo'ling, polvon aka!

Erkishi siyrak soqolli, semizroqdan kelgan qizil kishiga yuzlandi:

— Ee, yilqichilarning boshlig'i Er Bolchur! Sendan bir bolani so'rab keldim?

— Ee, so'rang, otam?

— Yosh teginni bering? O'rniga uchta bola keladi ...

— Mayli, oling, otam...

Erkishi o'zi bilan Yosh teginni olib ketdi. Hozir ikkovi qalin o'rmonda qarag'aylarni butab, ko'mir tayyorlab yurishibdi. Qarag'ayning ingichka uchi og'irlikdan pastga qarab egilganda, yerda turgan Yosh teginga baqirdi:

— Beri qara, Teginjon. Men og'irman. Qarag'ayning uchi egilib, mening boshim aylanib ketyapti. Agar sen qarag'ayning

---

[1] **Tog'ar** — jundan to'qilgan dag'al mato.

[2] **Shovna** — qop va kigizlarni tikish uchun ishlatiladigan jundan yigirilgan yo'g'on ip.

[3] **Ingirchak** — yuk ortishga moslashtirilgan, ko'pincha, xo'kizga to'qiladigan egar.

[4] **Yudov** — juldur kiyingan, soqollari olinmagan, kir-chir.

[5] **Jer dulay** — ichida qora changi bor qo'ziqorinning bir turi.

uchida bo‘lsang, qarag‘ay uchi chayqalmaydi. Sababi, sen yengilsan. Men tushayin, sen chiq. Qarag‘ayni sen buta. Yerda men yig‘ib olib, o‘rtayin. Maylimi?

Erkishi qarag‘aydan tushdi. Uning o‘rniga Yosh tegin chiqib, qarag‘ay butadi. Keyin ko‘p shoxlarni chaylasimon qilib yig‘ib, ikkovi ko‘mir tayyorlashdi.

Oradan biroz vaqt o‘tgach, Erkishi Yosh tegindan so‘radi:

– Ko‘mirni nima qilamiz, Teginjon?

– Usta ishlatadi, otam.

– Ee, balli, — dedi. Erkishi biroz turib dedi:

– U yerda ajdodlarimiz qazib olgan temir koni bor. O‘zi yonib turadigan qoratosh bor. Sen buni ham o‘z ko‘zing bilan ko‘rishing mumkin. O‘zi yongan toshning cho‘g‘i toshni eritib, tuproqni yondirib yuboradi. Undan mo‘lt-mo‘lt temir erib chiqadi. Uni tindirib, ko‘k po‘lat olish mumkin. U po‘latni odamlar tuyalarga yuklab bizga olib kelishadi. Bizning ko‘mirimiz u temirni qizartirib yuboradi. Usta ishlaydi. Qizargan temirni mustahkamlaydi. Undan bolta yasaydi, qilich o‘tkirlaydi, pichoq, xanjar tayyorlaydi.. yovdan mudofaa qiladigan qurollar bular. Biz tayyorlagan ko‘mirni nimaga kerakligini endi bildingmi, Teginjon?

Yosh tegin xushmuomalalik bilan javob berdi:

– Bildim, otam.

– Shunday. Agar askar o‘z asbobini o‘zi yasasa, unda bu asbob unga kuch qo‘shadi! Sen tayyorlagan bu ko‘mir temirni qizartiradi. Unda o‘zing ko‘ruk bosasan. O‘zing temirni mustahkamlaysan. O‘z qilichingni yasaysan. Bu — bizning ajdodlarimizning azaldan qilib kelayotgan hunari. Bizning avlodlarimiz tinchlik paytida mol boqadi, yer haydab ekin ekadi, temir ishlatadi. Chegaraga dushman kelsa, unga qarshi chiqadi. O‘shanda o‘zi yasagan asboblari o‘zining qo‘lidan tushmaydi!

Erkishi bir pas jim qoldi va yonayotgan olovga qarag‘ayning butog‘ini tashladi:

– Nima uchun ko‘mir tayyorlab yurganimizni bildingmi, Teginjon?

– Bildim, otam.

– Ha, shunday...

– Men ham o‘z boltamni o‘zim yasayman, otam...

– Rost aytgan bo‘lsang, orqamdan yur, Teginjon!..

Yosh tegin Erkishiga ergashdi. U juda mahoratli, pishib yetilgan, ulg‘ayib borayotgan alp kishining yonida alp yosh novdaday egiluvchan, hali hamma narsaga to‘la tushunmagan bola xuddi otasiga ergashganday ergashib, otasini uqqanday uqib, otasini hurmat qilganday hurmat qilib Erkishining orqasidan borardi.

Erkishi esa charchoq nimaligini bilmaydi. Qayoqqa borgisi kelsa, o‘sha tomonga yurib, ichida nimalarnidir g‘o‘ng‘irlab, qalin o‘rmonga, osmono‘par qarag‘aylarning uchlariga ko‘z tashlaydi. Ahyon-ahyonda gapirib, gohida Yosh tegindan so‘rab qo‘yadi:

– Yilqichilik yoqdimi? Yo ko‘mir tayyorlash yaxshi ekanmi? Rostini ayt!

Yosh tegin xijolat bo‘lib, jilmaydi:

– Hozircha bilganim yo‘q, otam.

– Ee, shunday degin... Qani, yur, orqamdan ergash-chi!

Ikkovi qarag‘ay yiqitishadi. O‘rmondagi boshqa daraxtlardan ham qirqishadi. Erkishi taka jargak[1] shimidan boshqa barcha kiyimlarini yechib yubordi.

– Sen ham yechin, buning uyati yo‘q. O‘zingni qulay his qilmasang, ishda baraka bo‘lmaydi.

Yosh tegin ham kiyimlarini yechib tashlaydi. Ikkovi tinmay bolta urishadi. Yosh tegin terlaydi. Erkishi terlamaydi. Yosh tegin charchaydi, Erkishi charchamaydi. Ammo Yosh tegin charchaganini sezdirmaslikka harakat qiladi. Qo‘ltig‘ini cho‘zib, boltani baland ko‘taradi. Qanday bo‘lsa ham, u hali ko‘p narsani ko‘rmagan, pishmagan yosh bola-da. Terga botib ketgan holda gohida boltasini tortaman, deb dovdirab ketadi. “Uhh, charchadim .... Er aka bilmasin...”, – deb o‘kinadi.

Erkishining qoshlari chimirilib ketgan. Birovga bildirmay, mushukchasiga yuvosh qarab, Yosh teginga ko‘z qirini tashlaydi. “Mushaklari hali qotmagan... Hechqisi yo‘q, vaqti kelganda birovdan kuch so‘ramaydi”, – deb bolani nazardan o‘tkazadi.

[1] **Jargak** – birorta mayda jonliqning terisi avval hidlantirilib, juni yulib olinadi. Keyin pishiriladi. Undan turli kiyimlar tikiladi. Taka jargak shim – takaning terisidan tikilgan shim.

Keyin sekin Yosh tegindan so‘radi:

— Yilqichilik yaxshimi? Ko‘mir tayyorlash yaxshi ekanmi? Rostini ayt!

— Hozircha farqiga bormadim, otam, — dedi Yosh tegin.

— Aa... Shunday deng. Unday bo‘lsa, menga ergashing! O‘rmonning ichkarisini oralaydi. Ular mo‘yil[1] izlashyapti.

Yerni changallagan qancha-qancha katta ildizlarni Erkishi boltaning orqasi bilan urib, sinaydi. Egarqosh bo‘ladigan, jancharga sop bo‘ladigan va qalqonlarni teshib yuboradigan yog‘ochlarni tanlaydi. Yog‘ochlarni darrov tanlamaydi. Tanlanganlarni darhol kesib yubormaydi. U Yosh teginga o‘rmonning egasi bor ekanligini, u o‘rmonda o‘sadigan har turli daraxt va o‘simliklarni asrab, parvarishlab turishini Yosh teginga bayon qiladi. O‘rmon egasi muqaddasdir, u o‘z o‘rmonining orasida kim nima qilayotganini ko‘rib, sezib turadi: ko‘mirchi o‘ziga kerak bo‘lgan ko‘mirni olsa, duradgor o‘ziga yetarli yog‘och kessa, o‘tinchi o‘ziga kerakli o‘tin olsa, o‘rmon egasi unga minnatdor bo‘ladi. Lekin kim suqlik qilib beboshlik bilan o‘ziga keragidan ortiq o‘rmonni kessa, o‘rmon egasi undan g‘azablanadi; g‘azablanganda, odamning yuragini og‘ritib, ko‘ziga bilinar-bilinmas narsani tushirib, qo‘lini og‘ritib belgi beradi. Agar bu belgilarni bilmay, odam o‘rmonni ortiqcha qirqa bersa, unda o‘rmon egasi u kishini qarg‘aydi, la’natlaydi, falaj qiladi yoki biror bir muchasini ishdan chiqarib qo‘yadi, — deb Erkishi Yosh teginga tushuntiradi.

— Shunday, Teginjon, — dedi Erkishi. Sen o‘zingga keragini kesib ol. Kerak bo‘lmasa, hech qaysi daraxtga tegma. Uni jo‘n qo‘y. Ular tinch ko‘karaversin. O‘rmon egasi uni ham kerak bo‘lganda odamlarga beradi. Muqaddas o‘rmon egasi o‘zi oladigan narsani o‘zi tugatmasin, deb haligiday tentakni jazolaydi...

Ikkovi sovuq suvga suzma ezib yutishadi.

— Shunday, Teginjon, — deydi sekin Erkishi. Qayvaran[2]ning muqaddas egasi ham oppoq echki. Uning shoxi tik va uzun. Sho-

[1] **Mo‘yil** — qobig‘i qizil, yog‘ochi qattiq butasimon daraxt.

[2] **Qayvaran** — jamiki ayri tuyoqli, kavsh qaytaruvchi go‘shti halol hayvonlarning umumiy nomi. Qadimgi turkiy elda yaxshilik tarqatuvchi afsonaviy tushuncha. Teskarisi Jeztirnoq.

xining uchida sham yonib turadi. Kishi yoy bilan elik[1], kiyik, echki, taka, qora quyruq, jayronni qirsin-chi. Ularning muqaddas egasi — qayvaran achchiq-achchiq yig'laydi. Qayg'udan azoblangan shoxini daraxtga urdi. Keyin qalin o'rmonda yong'in chiqdi. Vaqti-vaqti bilan yong'in bo'lib turadi. Qayvaran ochko'z kishini shunday qilib jazolaydi. Odamlar asrayotgan uy hayvonlarining ham muqaddas egalari bor. O'zing bilarsan. Sen boqayotgan yilqining muqaddas egasi Qambar ota. Qambar avliyo yilqini odamga berganida, "Minsa, unga qanot bo'lsin", degan. Odam yilqidan ajrasa, qanotlari kesilgan qush bo'lib, yerga emaklab qoladi. Qush qanotlarini tarab asraydi. Odam ham o'z qanotini boqib, parvarish qiladi. Aks holda u o'zini o'zi xor qiladi, piyoda qoladi. Qambar ota yilqini odamga berganida, u bizga yana bir yaxshilikni xohlagan: biya sutidan qimiz paydo qildi. U jonga shifo bo'lgan erkak ichimlik, yer yuzida qimizdan o'tadigan yoqimli ichimlik yo'q. Shunday, Teginjon. Qo'yning egasi Cho'lpon ota, molning egasi Zangi bobo, tuyaning egasi O'ysul ota, Chichan ota. Qulonning egasi Qulonoyoq Qulmurza ... Odamlar turli xil chorvani boqib, asraymiz. Biroq biz ularning muqaddas egalariday bo'la olmaymiz ...

Necha marta terlab, necha marta qurib charchab o'tirgan Yosh tegindan Erkishi so'radi:

— Yilqichilik yaxshimi? Ko'mir tayyorlash yaxshi ekanmi? Rostini ayt, Teginjon?

Yosh teginning javobi aniq:

— Har biri o'zichasiga yaxshi ekan, otam!

— Ee, shunday degin! Agar shunday bo'lsa, keling, temirchilar qo'shiniga qaytaylik!

— Ertagingiz qiziq ekan... Erkishi Yosh teginga olayib qaradi:

— Men senga ertak aytmadim. Haqiqat va muqaddas narsalarni aytdim.

Ulug'larni ertak demagin. Insonning egasi usti ochiq Ko'k, hosildor yer-suvdir! Agar inson Ko'kka, muqaddas yer-suvga sig'inmasa, qahrga qoladi. Erkakdan kuch ketar. El yurti vayron bo'ladi. Ozayadi, qayg'uga botadi. Alpning egasi — shavkatli kishi. Shavkatli kishi qo'llagan er urushda bir boshi bilan ming-

[1] **Elik** — o'rmon bug'usi.

dan, o'n mingdan qo'rqmaydi. U kecha-yu kunduz tinmay urusha oladi. Agar boshi yorilsa, u oqqan qonga tegmaydi. Chanqasa, otining terini sidirib yalaydi. Chopishadi. O'lsa, uning jasadi qoladi. Tirikligida dushmanga bo'ysunmaydi. Uning vahshatidan yov qochadi. Shavkatli kishi qo'llagan alp aniq shu. Ha, haqiqiy alpdan ajal uzoqroq yuradi...

Ular tayyorlagan ko'mirlarini katta-katta qoplarga solib, tuyalarga tikkasiga ortib, o'zlari otda temirchilar qo'shini[1]ga jo'nashdi.

Temirchilar qo'shini Yosh teginlar ko'mir tayyorlagan o'rmondan besh chaqirimcha uzoqlikda ikki daryo suvi quyilgan keng ko'rfazdagi tekislikning burchagiga joylashgan edi. Ko'mir tayyorlaganlar faqat Yosh teginlar emas ekan. Bulardan boshqa yana bir necha kishi yaqin atrofdagi o'rmonlarda ko'mir tayyorlayotgan edilar. Ular ham qop-qop ko'mir ortilgan tuyalarini ustalar qarorgohiga yetaklab qaytishardi. Erkishi va Yosh tegin qaytishmadi. Ular qo'shinda qolishdi. (Yosh tegin avval ham ko'mirchilar qo'shini, hunarmandlar qo'shini degan gaplarni uqqan, lekin o'zi unday qo'shinning birida ham bo'lmagan edi.). Har bir urug'ning yoki turli ko'p ovulli bobolarining avlodlarining shunday qo'shinlari muntazam ishlab turishmasa, unda u urug' yoki ovulga qurol-yaroq yetarli darajada bo'lmaydi. Ular boshqa qabilalarga qaram bo'ladi. Ular kambag'allashadi.

— E, voh, tashvishli kunda qo'rqoqlarcha olqishdan ortiq xo'rlik bormi? Erkaklar qo'shinga g'amxo'rlik qiling! Yog'och kesadiganlar yog'ochingni kes. Yoyga o'qlik uchun to'g'ri yog'ochlar — do'lanani, tobulg'ani, oq chechak, qayinni, irg'ay bilan tolni tanla! Egarga qoshlik, jancharga soplik, qalqonga yaraydigan yog'och-toshingni g'amla! Temirching bosqon va sandoningni yerto'laga o'rnat. Agar ochiq joyda mehnat qilsang, ishing yaxshi bo'lmaydi. Yerto'lada yog'in-sochinga qaramasdan mehnat qilaverasan!

Bu oddiy maslahat emas, donishmand bergan buyruq sifatida qabul qilinadi. Ushbu vazifalarni amalga oshirish uchun odamlar

[1] **Temirchilar qo'shini** — bu yerda temirchilik bilan shug'ullanuvchi askarlar ma'nosida.

ma'lum joylarda qo'shinlarni joylashtiradilar. Bunday qo'shinlar oy, yil emas, balki yillar davomida o'z ishlarini davom ettiradilar. Bunday paytda Erkishi Odiltoy ajoning eng ishongan kishisi hisoblanadi. Chunki Erkishi el tinch yashayotgan paytda, ko'pincha, hunarmandlar qo'shinini boshqargan. Uning otasi Oqbergen, bobosi Teshe, hatto undan keyingi ajdodlari ham temirchi bo'lgan. Hozir bu lashkarboshi Erkishi — usta. Uning mardligi, ish boshqarishi va jasorati nafaqat o'z urug'iga, balki boshqa urug'larga va yot, dushman elga ham ma'lum. Erkishining borida Odiltoy boboning qo'li uzun. Er Kulchur jancharining sopini eslab qayg'uga tushmaydi. Vaqti kelsa, Erkishi Odiltoy boboga maslahat ham beradi. Chegaraga dushman kelsa, uch tuman qo'shinni o'zi boshlaydi. Janchari sinsa, oyboltasini oldirmaydi. Yaroqsiz qolsa, Erkishi dushmanni alpligi bilan tor-mor qiladi! Bu botirlikni uning tarafdorlari ham, begonalar ham tan olib aytadilar. O'sha ulug'vor Erkishi el tinch-osoyishta kun kechirayotgan bir paytda o'zi ham tinch mehnat qilmoqda. Bo'lgani bir tuman lashkar xizmatini tartib bilan davom ettirib, kun chiqish tarafda kuzatuvda yuribdi. Ko'p yillardan buyon bu yurtga ko'z olaytirgan tabg'achlar so'nggi jangda mag'lub bo'lsa ham, yerli el hozir ham xavotirda yashaydi. Vaqti-vaqti bilan yarim tuman, bir tuman askar bilan chegaradan o'tib, ovullarni bosib, molni haydab ketishi hozir ham davom etmoqda. U dushmanni o'chakishtirmay, hovliqsa, yo'lini to'sib, kuchayib borayotgan bo'lsa, urishib — askarlik urf-odatlarini yoddan chiqarmay, jancharni, oyboltani mahkam ushlab, otlarni boqib, mashq qilishib — ot o'ynatib, vaqti-vaqti bilan yoy tortishib, erkaklarning ozig'i, deb guloziq[1] g'amlashadi. G'amlamagani oziqni yo'ldan topishadi. El chegarani saqlab, kuzatuvda yurishadi. Har kuni bo'lmasa-da, ikki-uch kunda bir marta askar odamlar yashayotgan ovullarga kelib chegaradagi ahvol haqida xabar yetkazib turadi. Bir oy — ikki oy, gohida bir yil tabg'ach yerga so'rilib ketganday dom-daraksiz yo'q bo'lib ketadi. U kezlarda charaqlab turgan yozning kuniday chegara ham tip-tinch. Gohida dushman yer-

[1] **Guloziq** — uzoq muddatga yetadigan oziqlar. Mas: talqon, qotirilgan non, quritilgan go'sht, yoqqa qo'vurilgan va ustidan yana yog' quyilgan go'sht.

dan unib chiqqanday olisdan vahimasi eshitilib qolar, ularning ko'targan chang-to'zoni haqida gap-so'z yurardi. Mish-mishlarga ko'ra, dushman katta yurishga tayyorgarlik ko'rmoqda. El kezib yurgan savdogarlar ipak va kimxob sotuvchilar; qunduz, silovsin, ilbirs[1] va yo'lbars terisini oluvchilar; oltin, kumush va bronza oluvchilar har doimgidek tinch emas. Ular ham qo'rqib qolgan jonivorlarday cho'chib, alanglab, xavotirga tushib yurishadi. Savdogarlar ilgarigiday baholashgan paytda ipakni, kimxobni oshira maqtab, ularning narxini ko'tarish, ov terilarini qo'lning orqasi bilan urib teskari silkib, terilarning bahosini kamaytirishga harakat ham qilishmaydi. Qisqasi, bari bizga ma'qul deganday urush xavfi sezilib qolgan paytda savdogarlar shoshilib savdosini tez pishirishadi va tez yo'lga tushadilar. Qo'ng'iroqlar "dangur-dangur" etib ellik-yuz tuyadan iborat karvonlarni yonidan haydab, otlig'i ot bilan yoki tuyalarini minib savdogarlar yo'l tortadilr. Ular ketganlaridan keyin:

— Kun chiqishda tabg'achlar hujumga tayyorgarlik ko'rish-yapti ekan. Olako'ldan naridagi vodiydagi yurt tabg'achlarga qarshi lashkar to'plabdi. Pastdagi keng tekislikda yashagan qarluqlar tabg'achlar bilan jang qilishibdi, — degan so'zlar qoladi.

Urug'larni qidirib, yurt kezib qaytgan sinchi[2]lar, o'tgan-ketganni suhbatga tortib, fahmlab fikr aytadigan donishmand-chechanlar, folbinlar, yilning belgisiga qarab, yulduzlar orqali bo'ladigan voqealarni aytadigan munajjimlar bir joyga to'planishadi. Har kim bilganini, tutgan belgisini, idrok etgan ko'lamini, sonini, sifatini aytib, o'rtaga solishadi...

— Haqiqatni so'zlang, aziz? — deb folbin gap boshlaydi.

U ko'zlarini bir yumib, bir ochib sirli ravishda deydi:

— Tez orada chegarani buzib dushman kelmasa ham... Qovoq uyulgan... Qanday bo'lsa ham, janjal bo'lishi mumkin... Askar ot chilvirini qo'lida tutsin! Lashkarning tayyor turgani o'ng!

Uzun silliq soqolining uchini silab turgan sinchi ham folbinni quvvatlaydi:

---

[1] **Ilbirs** — tog' qoploni.

[2] **Sinchi** — bu yerda munajjim.

— Bu yil Cho‘lpon yulduzi o‘tgan yilgidan besh kun erta chiqdi... Biroz balandroqdan o‘tdi... Mo‘ylovi kalta, dumi uzun... Orqasida biroz shovqin-suroni bor. — Munajjim biror narsani eslaganga o‘xshab, “tars” etkizib kafti bilan soniga uradi: — Folbinning foli to‘g‘ri chiqdi. Ot yolini tortib minishga yaragan har qanday oila hushyor turgani yaxshi. Yov qanday keladi, urush qanday bo‘ladi, aytish qiyin. Askar qochsa, qari-qartang, o‘g‘il-qizlar yov qo‘liga o‘lja bo‘lib qolmasin. Yovni qochirsak, lashkarga tayanch bo‘lishsin. El-yurt o‘ljadan kam bo‘lishmasin. Jangga ot yolini tortib mingan har bir oila kam bo‘lmasin!

Kementay[1] yopinib, bo‘layotgan gaplarni ko‘nglida tahlil qilib o‘tirgan donishmand xulosa chiqaradi:

— Hushyor yurgan xor bo‘lmaydi. Urush-janjalli kun navbat kutmay keladi. Yaxshilik va yomonlikni birday o‘ylang, ey, yurt. Yov ko‘p va kuchli bo‘lib, bizning lashkar yengilib qolsa, mo‘min yurt azob ostida qolib, qirilmasin. Bobolarmiz yashagan muqaddas yer bo‘sh qolmasin. Qari-qartang, xonimlar va ayoling, o‘g‘il-qizing qo‘lga tushmay dushman yetolmaydigan qalin o‘rmonga, yov topolmaydigan tog‘larga yashirinib qutulishsin! Ularga bosh-ko‘z bo‘ladigan kishi aqlli bo‘lsin!

Lashkarboshi, donishmand, sinchi, munajjim, dono biylar Odiltoy boboning oldida duoga qo‘l ko‘tarishdi:

— Ustimizda Tangri bizni qo‘llab-quvvatlasin. Ostimizda yer-suv bizni quvvatlantirsin! Yoshu qari, katta-kichik har kiming qo‘lingdan kelgan ishni bajar.

Aynan shu tilakdan keyin Erkishi askarlarni qurol-yaroq bilan ta’minlashni o‘z zimmasiga oldi. Hozir u daryoning taram-taram bo‘lib bo‘lingan joydagi ikki quruqlikda joylashgan ustalarning yer to‘ladagi qo‘shinida o‘zi bosh ko‘mir tayyorlab, bosqon uryapti.

Yetti asrga to‘lgan katta muguzli ko‘k buqa qo‘sh orolda so‘yilgan zahoti uning boshi ikki oroldagi qayindan qilingan ustunga sanchildi.

— Ushbu ko‘k buqa molning egasi Zangi boboning yo‘liga atab so‘yilganining sababi, Zangi bobo qo‘llab, shunday ho‘kiz

[1] **Kementay** — kigizdan yasalgan ust kiyim.

terilaridan tikilgan ko‘ruklar cho‘g‘ni yaxshi puflasin, cho‘g‘ni rosa qizartirsin. Ko‘ruk qizartirgan cho‘g‘ ko‘k temirni tez qizartirib, tez erigan temirdan o‘tkir er qilichi, er boltasi, er minar ot abzal-jabduqlari mustahkam, sinmaydigan bo‘lib yasalsin. Har bir jangchiga shu ko‘k buqaning kuchini bersin, degan irim bilan shu marosim o‘tkaziladi.

Ushbu marosim o‘tkazilishi bilanoq, yerto‘lalardagi katta-katta ko‘ruklar “qush-kush” bosildi. Ko‘ruk bosganlar qora soqol baquvvat yigitlar. Yuzidan ter oqadi. Dam olishmasdan ko‘ruk bosib, qo‘llaridagi kuchni ko‘paytirishga harakat qilishadi. Tajaal[1] puflaganday shuvillagan ovoz chiqib, qora ko‘mir qip-qizil cho‘qqa aylanadi. Bosh-quyrug‘i kesilgan olabug‘aday tovlangan ko‘k temir uyutqilari mustahkamlanib, qizarib, birpasda sandonning ustiga tushadi, uni bosqon bilan uradilar. Ajoyib bir qush jon talashib bezildaganday temirdan “shir-shir” degan ovoz bilan uchqunlar sachraydi.

— Ur, aka! Bosqonni ur. Ko‘k po‘lat cho‘zilsin. Qilich o‘tkir bo‘lsin! Ur, aka!

Boshqalar terlaydi. Erkishi terlamaydi. Boshqalar charchashadi. Erkishi charchamaydi. Boshqalar chanqaydi. Erkishi chanqamaydi. Boshqalar dam olgisi, uxlagisi keladi. Erkishi dam olmaydi va uxlamaydi. Shundanmi, boshqalar ham Erkishidan qolishmaydi.

— Haqiqat bor joyda qilich qizil[2] to‘kmasin,

Haqiqat bor joyda qilich boshni kesmasin.

—Bos ko‘rukni! Bosing, aka. ko‘k[3] qizarsin...

— Ur, aka, bosqonni ur!

— Ko‘k mustahkam bo‘lsin!

Dastlabki kunlarda suv-suv bo‘lib terlagan Yosh tegin endi terlamay qoldi. Dastlabki kunlari Yosh tegin tez charchar edi, endi charchamaydi. Vaqti-vaqti bilan kattalarning qo‘shig‘iga jo‘r bo‘ladi:

---

[1] **Tajaal** — qirg‘iz mifologiyasida zamon oxirlaganda chiqadigan ajdarga o‘xshash hayvon.

[2] **Qizil** — qon. Qadimgilar “Ko‘k kirsin, qizil chiqsin” deyishgan.

[3] **Ko‘k** — temir.

— Bosing, aka,

Bos ko‘rukni. Qizarsin ko‘k!

Keyin u kerilib turib bosqon uradi. Erkishi qovog‘ini uyib, qoshlari chimirilib, unga norozi kishiday ko‘z qirini soladi:

— Ee, o‘g‘lim. Mushaklaring yetilib, kuchga to‘ldingmi? Ilgari menga gurzini chala urgansan. U urishing kuchsiz edi...

Erkishi Teginning bosqon urishidan ko‘ngli to‘lgandek sekin so‘raydi...

— Yilqichilik yaxshimi? Yo bosqon urgan yaxshimi, Teginjon?

Tegin avvalgidek o‘ylanib o‘tirmadi:

— Hammasi o‘z o‘rnida yaxshi, otam! Erkishi soqolini silaydi:

— Ha, shunday degin. Rost aytdingmi?

Yosh tegin tortinmay deydi:

— Rost aytdim, otam.

— Ha, rost aytganing yaxshi, Erkishi o‘zicha kimlar bilandir maslahatlashganday: “To‘g‘ri aytdi, o‘g‘il! Voyaga yetdi, o‘g‘il! Mard otasi Er Qulchuming o‘rnini hech kimga bermayman, deydi, o‘g‘il! Yaraydi.. Qasamni oqlamagan odam harom o‘lsin!”

Erkishi hunarmandlarni ogohlantirdi:

— Qolganini davom etinglar! Biz ovulga boraylik!

O‘sha gapdan keyin temirchilar bir kun dam olishdi. Uyurdan qisir emdi toy[1] oldirishib so‘ydirdi. Sanoch-sanoch qimiz ichildi. Kechga bayram qilishdi. Ko‘p kunlar davomida tayyorlangan asbob-uskunalarni bog‘lab, to‘g‘rilab tuyalarga yuklashdi. Keyin Erkishi va Yosh tegin ikkovi askar yarog‘ini taqib, sadoq osishdi. Tuyani biri yetaklab, ikkinchisi haydab ovulga qaytishdi. Temirchilar mehnatni davom ettirishdi ...

[1] **Qisir emdi toy** — qulun onasini bir yil emadi. Onasi keyingi yilga qisir qolsa, yana bir yil emadi. Unday toyning eti, yumshoq va o‘ta totli bo‘ladi.

ODILTOY AJO

Nima qilyapsan deydigan ajong bo'lmasa, eling bebosh.
Qo'y, deydigan xo'jang yo'q bo'lsa, cho'pon gap uqmas.
El so'zi

Ko'ringan kishi o'z emas, o'z ham birday emas.
Qadimgi maqol

Podshohini ajo deb atashgan; uni ajom deyishgan.
I.Y. Bichurin

Ertangi notinch kunlar haqida har xil so'zlar aytiladi:

— Jancharni qattiq ushlang! Ertaga bosqin!

— Unday demang, Ajomiz bu haqda hech narsa demadi-ku?

— Men senga aytyapman. Eshit! Ertaga biz urushga boramiz. Biz az yurtini bosamiz. Bu haqda urug'imizning barakasi, ishonchli kishisi Erdona alp aytdi. Askarlar yoppasiga tayyorlanmoqda!

— To'xtang! — dedi berigi yosh askar gapirgan yosh askarga yuzlanib.

— Farmonni ajo qabul qiladi. Erdona alp ajoning farmonini bajaradi. Erdona alp o'zi farmon chiqara olmaydi.

Yosh askar jahl bilan ikkinchisiga dedi:

— Ee,... Erdona alp xohlasa, "ay" degan ajoning uqmay ham qo'ya beradi.

Berigi yosh askar biroz to'xtab, norozi bo'lib dedi:

— Unda eldan irq[1] ketadi. Donishmad ajo bunga yo'l qo'ymaydi! Narigi yosh askar ikkinchisiga tik qaradi.

— Nima? Sen o'z urug'ingning alpini tarafini olmaysanmi?

— Olaman, — dedi boshqa yosh askar. — Biroq jami qirg'iz birikib, Odiltoy ajodan ham ketmayman.

— Odiltoy ajo o'zi boshqalardan kam emas. Lekin biz o'ljadan quruq qolyapmiz. Endi uni eshitmaymiz. Chopmagan ot tez charchaydi, yoy tortmagan jangchi dangasa bo'ladi. Erdona alp bilan Urdona alp bosqinga otlanamiz, deyishdi. O'zing bilasan. Bu ikki sher hayqirib tursa, askarlar kimni uqar edi?

[1] **Irq** — ittifoq, birlik.

Berigi askar ehtiyotkorlik bilan so‘radi:

— Unda sen borasanmi?

— Men boraman. O‘la-o‘lguncha o‘ljadan mahrum bo‘lishim kerakmi? Menga o‘lja kerak, o‘lja!

Ikkinchi askar gapirmadi. Ichida: “O‘lja” deb qo‘ydi.

— Tayyorgarligingni ko‘r! — dedi birinchisi.

Ikkovi o‘z-o‘z ovullariga ot choptirib ketishdi.

* * *

Katta-yu kichik keyingi bo‘layotgan voqealarga quloq solish bilan ovora.

Mamlakatda notinchlik, to‘qnashuvga, qon to‘kiladigan urushga tayyor. Umrini muntazam ot ustida o‘tkazishni odat qilib olgan odamlar taqimiga gurzi qistab, katta kamariga xanjar osib, egri qilichni bog‘lab, oybolta, janchar ushlab jangga tayyor bo‘lishgan. Qishin-yozin hukm surgan tinchlik ularni zeriktirganday.

— Qoyil?! Bizda lashkarboshi tugaganmi?! Kuchga to‘lgan askarlarni bosqinga boshlaydigan o‘g‘il bola bu urug‘dan chiqmay qolganmi? Erkakning oti yugura olmaydigan, erkaklar bo‘shashgan bo‘lib ketmasaydi! — deydiganlarning hech asosi yo‘q gaplari Erdona alpni hovliqtirdi. U tarlon ko‘k otga minib, ko‘k sovut, ko‘k dubulg‘a kiyib, savlat to‘kib keldi.

— Chetdan dushman kelishini kutadigan tayyorgarligi yo‘q yurtmidik? Afsus, agar azlarning yurtichalik janchar urib, yoy tortishni unutib qolsak, bo‘tam, yov bizni keyin oyoq osti qiladi. Sariq oltin, oq kumushi ko‘p, ipagi mayin tabg‘achni chopaman! - deb Erdona alp g‘ayrat bilan chiqdi.

Urdona uni muloyimlik bilan ogohlantirdi:

— Arslon, agar sen ikkovimiz tabg‘achga otlansak, kuchimiz yetmasa kerak ... Ular ko‘p ...

— Ko‘p bo‘lsa ham cho‘p. Men ularni o‘rib oladigan o‘roqdirman, — dedi Erdona .

Urdona qilichini shart sug‘urib oldi-da, yaltiragan tig‘idan o‘pdi:

— Men o‘zim senga tayanchman, alpim! Tilimni ol: tabg‘achni bosmaylik. Bu safar anavi izgilni bosib olaylik. Yetim o‘g‘il

o‘ntadan otni o‘lja qilib olsin. Botirlar yuz ot haydab, o‘lja olib kelsin. Olov yonida o‘tirgan qariyamiz jaya[1] kesib, qarta[2]sini chaynasin. Izgilning go‘zal qizi qul bo‘lib, irege[3]sida o‘tirsin. Shunda Odiltoy ajo bizning kuchimizni o‘zi ko‘radi!

Urdona o‘zining gapiga o‘zi mast bo‘lib, xoxolab kuldi.

— Ajo o‘zi ko‘radi-da.: “Voh, yurtni qo‘riqlaydigan alplar, sizlarni men bilmay yuribman. Biring yurtning barakasi — Urdona, ikkinching el egasi Erdona ekansizlar. Endi men sizlarni o‘sha sizlar aytgan tabg‘achga qarab boshlayman”, — desa kerak, agar u haqiqiy donishmand bo‘lsa.

— Vah, Urdona sher. Rost aytding! — dedi Erdona. U qilichini qinidan shart sug‘urib oldi. — Ontdan qaytganni shu qilichning o‘tkir tig‘i kessin, — dedi.

Urdona bilan Erdona qilichni o‘pishib ont ichishdi. Ikki lashkarboshi har biri o‘z urug‘idan uch mingdan olti ming askar to‘plab, to‘satdan izgillar yurtiga hujum qildi. Beg‘am yashab yotgan yurtni tayyorgarlik ko‘rib otlangan lashkarning bosib olishi har doim bo‘lib turadi. Agar yengilgan taraf tizzalab, yer o‘pmasa, yengganlar ularni qattiq jazolaydi. Kulini ko‘kka sovuradi. Qozonni sindiradi. Chorvasini, bo‘z uyini olib ketadi. O‘g‘illarini qul, qizlarini cho‘ri qiladi.

Bu safar izgil yurti Erdona bilan Urdonaga unchalik qarshilik ko‘rsatmadi. Kuzatuvda yurgan kichikroq lashkari biroz qarshilik ko‘rsatdi, keyin otini ovulga burib, qochdi va elini oraladi. Ovulni talon-taroj qilish boshlanganda izgil xon taslim bo‘ldi.

Izgil xonini tiz cho‘ktirganiga Erdona va Urdonaning burni osmonga ko‘tarilib ketdi. Ko‘p chorva mollari, ko‘p o‘lja oldilar. Bosqinda qarshilik ko‘rsatib qo‘lga tushgan askarlarni qullikka haydab, qaytishdi.

Odiltoy ajo qirq urug‘ni Ko‘k yalov ostida birlashtiramiz, deb bor kuchini sarflab yurganda Erdona bilan Urdonaning qilmishlari yurt birligiga bolta urganday bo‘ldi. Hovliqqan ikki alp hozirgi

[1] **Jaya** — yilqi uchasining yog‘li yumshoq go‘shti.

[2] **Qarta** — yilqining yog‘li yo‘g‘on ichagi.

[3] **Irege** — bo‘z uyning ostonasi.

dushmanga qarshi otlanishsa, nima bo'ladi. Qirq urug'ning biri izgilni chopishdi. "Ko'ringan o'z emas" deb o'ylagan Erdonalar izgilni yot o'rnida qabul qilishdi.

"O'z ham birday emas", degan Odiltoy ajo o'zlarining urug'iga bosqin uyushtirgan Erdona bilan Urdona alplardan qattiq xafa bo'ldi. Bugun izgilni o'zimizniki demay yov sifatida ko'rgan Erdona alp ertaga mening urug'imni ham, ovulimni ham begonadek ko'radi, — deb Odiltoy ajo o'kindi.

Donishmand ajoning bahosi to'g'ri. Darhaqiqat, bu hovliqqan ikki lashkarboshi Odiltoy ajoga e'tiroz bildirishdi. "Ajomiz qarib, aljib qoldi. Sher o'g'li Er Kulchur uchib ketdi. Uning vorisi Yosh tegin hali palapon — temir qanot. Temir qanot yetilib, qiron bo'lguncha... biz qimirlamasdan ashula aytib turishimiz kerakmi?!" degan e'tirozlarini bu ikki sarkarda ajo bilan maslahatlashmay izgilga hujum qilish bilan ifodalagandi.

Erdona va Urdonaning bunday ishlarini oldini olish maqsadida Odiltoy ajo qirq urug'ni biriktirib turgan abo-bek[1]lar va sarkarda, xonlarni o'rdaga chaqirtirdi.

Ajo o'rdasi bezatilgan. Faqat o'rdagina emas, balki butun o'rdani o'rab turgan oppoq bo'z uylarga, butun aymoqqa baraka yoqqanday ajoyib ko'rinishga ega, boylikka to'lib ketgan. Buning sababi, so'nggi bir necha yil ichida bu elga chetdan hech qanday hujum bo'lmagan. Qish — yoqimli, bahor — mayin, mol — bolalagan, dehqon donni yetarli yetishtirgan. Temirchi esa o'z temiriga ega. Oq o'rdada qiz-kelin nozlanib, suhbatlashib, yor-yor aytishadi. Kergich[2] kerib, kashta to'qishadi. Har bir oq uyda ota-ona bemalol o'tirib, qimiz ichadi. Sekin gapirib — "Ulug' so'z"ni davom ettirishadi.

Ajoning o'rdasidan boshlab, el-yurtning har bir qo'nishida shunday tinchlik hukm surayotgan bir paytda Erdona va Urdonaning fe'li, qilgan ishlari yurtga yoqmadi. Tinchlik va osudalikni orzu qilgan kishilarning g'ashini keltirdi.

---

[1] **Abo-bek** — Ya.H. Bichurin ularni vazirlar, deb tushuntirgan.

[2] **Kergich** — kashta tikish uchun mato tortiladigan doira shaklidagi maxsus yog'och moslama.

Butun yurt endi Odiltoy ajoning fikrini kutardi.

Faqat o‘z kishilari emas, boshqa urug‘ odamlari ham hozir Odiltoy nima deyishiga, qanday hukm chiqarishiga astoydil quloq tutib turardi. Buning sababi bor edi:

Qadimda ko‘p urug‘lardan turgan yurtning boshida alp O‘g‘uz xon bo‘lib turganida unga qaysi yov to‘g‘ri kelgandi? Hech kim. O‘sha zamonda alp O‘g‘uz boshlagan yurt janjalkash tabg‘achning xoqoni O‘g‘uzga bo‘ysungan edi. Sariq oltin, oq kumushini, qimmatbaho ipagini ayamagan, go‘zal qizini taqdim etdi ...

... keyingi avlodlar bo‘linib ketdi. Er boboday bo‘lolmasdan tarqab ketdi.

... necha yuz yillar davomida parchalandi. Tumtaraqayi chiqib ketdi. Endi butunlay qirildik, yo‘q bo‘lib ketdik, deb turishganda, yurt qaytadan jonlandi. Qayta birlashib, bosh ko‘tara boshladi. Tarqalib, tentib yo‘q bo‘lib borayotgan urug‘lar qaytadan birlasha boshladi. (Ularning ko‘pi yo‘q bo‘lib ham ketdi.) Holbuki, yerning ildizi qanday zich va chuqur bo‘lsa, elning ildizi ham shunday zich va chuqurdir. U gohida ozayib, so‘ligani bilan qaytadan yana ko‘karib ko‘payishini hayot ko‘rsatdi.

— Eh, qarindoshlarim! — dedi Odiltoy hammaga — o‘sha vaziyat bizning ham boshimizga keldi... Sizlar bilgan turgash[1]ning bosh xoqoni Berlik Uchsuv qurultoyiga chaqirdi. U shu bilangina to‘xtab qolgani yo‘q.

G‘ozioqko‘lda yashagan ko‘p el — uysun[2]ni birga yashaylik, bir yurt bo‘laylik, dedi. Berlik tutab, o‘rt[3] bo‘lib ketyapti. Hatto o‘sha to‘lo‘s[4]ning jasur Qorachurini, tot[5]ning Tanri botirini, Eshtek[6]ning Oltin xonini, qarluq[7]ning Keljurini, o‘n o‘q[8]ning Jariq teginini o‘zimning fikrimga bo‘ysundiraman degan alp Berlik endi

---

[1] **Turgash** — urug‘ nomi.

[2] **Uysun** — urug‘ nomi.

[3] **O‘rt** — gulxan, katta yong‘in.

[4] **To‘lo‘s** — urug‘ nomi.

[5] **Tot** — urug‘ nomi.

[6] **Eshtek** — urug‘ nomi.

[7] **Qarluq** —urug‘ nomi.

[8] **O‘n o‘q** —urug‘ nomi.

Odiltoy ajoni ham o'ziga bo'ysundirgisi bor. U, men tog'larni, keng tekisliklarni, tiniq daryolarni bo'lmasdan yakka o'zim boshqarmoqchiman. Qirg'iz otaning yurti menga qo'shilsin, qo'shilmasa, dushman ekanligini bildirsin, debdi?!

Agar u chinakam donishmand xon bo'lsa, oybolta qoqishtirmay, jangchilarning boshini qonatmasdan biriktirmaydimi? Nima, u kuchga solib do'q qilsam, bizni qaltiraydi, qo'rqadi, dedimi?

— Ajom, qarab o'tirmasdan lashkarni Berlikka qarshi qo'ymaylikmi? — dedi Azman qoshlarini chimirib.

— Berlik hovliqsa ham, o'zimizniki. Bizning haqiqiy dushmanimiz Sarijayiqning narigi tomonidagi hozircha tinchga o'xshab turgan tabg'achlar. U bugun tinch, ertaga tinch. Keyin u yozni yaylovda o'tkazib, bahorda do'l yoqqani singari bizni qoplaydi. Biz o'sha katta dushmanga tayyor turishimiz kerak! — dedi ajo.

Ajo narigi tarafdan keladigan ashaddiy yovga qarshi turishimiz kerak, deb aytganida, u o'z elining ichidagi ittifoqqa ishongan edi. Ko'p urug' yurt bir bosh, bir qo'l bo'lib qolgan, deb o'ylagan. Ko'rsa, ahvol unday emas ekan. Endigina yasab, shakl berilayotgan asl buyumni bir urib sindirganday, yangidan birikib, uyushib kelayotgan urug'lar ittifoqiga zaxa yetkazgan haligi ikki alpni bir-biriga qo'shib bog'lab olib kelishni Erkishiga buyurdi:

— Bizga ismi boshqa, oti qashqa tabg'ach dushman desak, qirg'izdan chiqqan anovi ikki buzuqi dushman ekan. Ey, yurtimning Erkishisi! Senga usta otang Oqbergen qo'ygan ism — Cho'g'ultur edi. Cho'g'ultur, deb senga otang ot qo'yganda Ko'k tangri: "O'g'lingga shu ismni qo'y!" —deb ko'ngliga solibdi. Sen o'zingning donishmandliging, polvonliging, ayyorliging bilan o'tga kirib, kuymading, suvga tushib, cho'kmading. Odamning piri — Erkishi ismini senga el-yurt qo'ydi. Yerdagi buzuqilikni tartibga solsin, deb Ko'k tangri senga katta imkoniyatlar bergan! Bor, Cho'g'ultur! Borib, o'sha ikki buzuqini qo'sha bog'lab bu yerga olib kelgin!

Ajoning buyrug'idan keyin Erkishi Erdona va Urdonaning qarorgohiga keldi. Bosqindan katta o'lja bilan qaytgan ikki alp bu vaqtda qimizdan aroq yasatib, qisir emdi toyning jayasini chaynab, polvonlarni kurashtirib, ayg'irlarni olishtirib, o'zlaricha maza

qilib yotishgandi. Ular Erkishiga e'tibor bermaymiz, deganday fikr bildirishdi... Lekin ikkovi qanchalik alp, qanchalik jasur bo'lishmasin, Erkishi kelganda unga bo'ysunishlari majbur ekanligini bilgach, sir bermay, bo'y ko'tarib o'tirishdi. Erkishiga qarshi ikkovi bir og'iz ham so'z aytisha olmadi. Erkishining aytganlarini eshitib, ikkalasi ham jimgina tiz cho'kdi. Qurol-yaroqsiz Erkishining oldiga tushdi.

Erkishi maqtanchoq ikki botirni ko'pchilikning oldida xorlamadi. Ularni otlariga mingizib ergashtirib jo'nadi. Ajoning o'rdasi ko'ringandan so'ng, ularni otdan tushirib, yayov bostirdi. Yayov bosganda ham jo'ngina yayov bosmasdan qamchilarini bo'yniga ilib, aybdorday yerga qarab, dovdirab, shalpayib kelishardi.

Shu payt Odiltoy ajo tashqarida ko'k choponni yelkasiga tashlab, kumush taxtda o'tirardi. Bu g'azabning belgisi hisoblanardi. Abo, biy[1], bek yoki sarkarda, alp, urug' oqsoqoliga o'z marhamatini ko'rsatadigan paytda esa, ajo oq kimxob choponni yelkasiga tashlab, o'rda to'rida oltin taxtda o'tirib ularni qabul qiladi. Yurishga lashkarni boshlagan paytda qip-qizil charayna[2] sovut kiyib, qalin kamar taqib, qilichini osib, boshiga dubulg'a kiyib, hozir otlanadiganday tayyor turadi.

Ajoning bu an'anasi ilgarigi er bobo O'g'uz xondan buyon kelayotgan an'ana..

Hozir Erkishini haydab ketayotgan ikki botir — Erdona va Urdona qamchilari bo'ynida, qo'llari ko'kragidan pastda bo'ynini egib kelayotgan edi. O'rdaga yaqinlashib, abo, biy, lashkarboshilar orasida ko'k to'nini yelkasiga tashlab yomon belgi bilan o'tirgan ajoni ko'rib, Erdonaning nomusi kelib, o'zicha norozi bo'ldi.

— E, Erkishisiga haydatib, meni g'azab bilan kutib olgani ajoga men nima yomonlik qildim?! — deb Erdona o'ziga o'zi aytdida, cho'kkalamasdan qamchisini bo'ynidan oldi.

Erdonaning bu qilgani birlikni buzib, boshqa elga bosqinchilik qilgandan ko'ra odobsizlik, ko'zga ilmaslik, bosh egmaslik edi. Buni bilgan biladi. O'z kuchiga, o'z g'ayratiga ishonib, ajoga qil-

[1] **Biy** — urug' boshchisi.

[2] **Charayna** —qalin qayishdan, gohida metalldan tayyorlangan, tanaga yopishib turadigan sovut.

gan xizmatlariga ishongan alp yoki lashkarboshi shunday qilishi mumkin. Ochig'ini aytganda, qarindoshchiligi ajoga teng, qadrli va obro'ga ega odam shunday qiladi.

Erdona katta janglarda ko'p marta dovruq qozongan bo'lsa ham, kelib chiqishi unchalik dong taratmagan. Shunday bo'lsada, uning gajirligi, tajangligi ajoni ko'rganda nomusini qo'zg'adi. "Alpning tiz cho'kkani — o'lgani", — dedi u o'ziga o'zi.

Uni ko'rgan Urdonaga ham kuch-g'ayrat kirdi.

— Biz egizak alpmiz. Biz xonga, bekka bosh egmaydigan so'mtemirmiz[1]! — deb boshida berilgan ontni esladi.

Erkishi xon ham, bek ham, abo ham emas. U odam piri — shavkatli kishi qo'llab-quvvatlagan odam. Bu elda undan qo'rqmagan, tortinmagan jon yo'q. Unga tiz bukmaslikka bu ikkovining darmoni yetmasdi.

Endi Erdona to'g'ri ajoning oldiga kelib, mardlardek ta'zim qildi:

— Aldiyar[2] ajo. Aybim yo'q. Men tiz cho'kmayman!.. Odiltoy ajo hech narsa demadi. Ajoning o'rniga javobni Azman abo aytdi:

— Izgilni bosganing ayb emasmi?

— Men elimning alpiman. Yo'limda turganni chopaman va elimni boqaman!

— Izgil yurti yo'lda turmagan edi, — dedi Azman abo. — Izgil ham bizning bir butog'imiz. Sen, Erdona, anovi Urdona ikkoving boltani o'sha o'z butog'ingga urding. Aybdorsizlar?!

Erdona keskin dedi:

— Yovni chopgan alpda ayb bo'lmaydi!

Odiltoy ajoning o'ng tomonida o'tirgan Chekir biy keskin so'radi:

— Erdona, sen o'zdan dushman ko'rsang, o'z qo'lingni o'zing kesasanmi?! Dushman qayerda? Bizning azaliy dushmanimiz qadim zamonlardan beri tabg'ach. Undan yuqoriroqda joylashgan kuruy ham bizga yov. Janubda tubut[3] yurtining serhosil yeri So-

[1] **So'mtemir** — hali ishlov berilmagan temir.

[2] **Aldayar** — qadimda xonlarga, yurt boshqargan odamlarga murojaat vaqtida ishlatiladigan so'z.

[3] **Tubut** — urug' nomi.

running xoqoni dushman. Bundan tashqari, ot minmay, fil mingan shim kiymay yalang‘och yurib yayov yuguradiganlarning o‘t yutarlari dushman. G‘arbda urum[1], purum[2], abar[3]lar yov. Qirg‘izning avlodlari haqida gap ketganda, dushman kim? Otam qirg‘izning oltin o‘rdasi boshida qirg‘iz avlodlarini birlikka chaqirib kelgan. Ko‘ngani ko‘ndi. Ko‘nmagani bizga dushman. Nima qilaylik? Moylashganga moylashamiz, yovlashganga yovlashamiz. Erdona, agar sen haqiqiy alp bo‘lsang, o‘sha bizga qasdlashgan xon bilan yovlash. Izgil bizga dushman emasdi.

Erdona o‘zini oqlamoqchi bo‘ldi;

— Izgil ilgari urug‘imizning yilqisini talab ketgan.

Chekir biy da’vosini davom ettirdi:

— Izgil yilqingni ilgari olgan bo‘lsa, undan da’vo qilib ol, ovulga yaqin yaylovdan ol. Chegarasini buzib, ovulini talab, naslini qirib, o‘g‘il-qizini qul va cho‘ri qilishga kuchni senga kim berdi? “Ey, to‘xta!” degan ajosi yo‘q, qo‘pol, bebosh botirning hech qaysi qoidaga to‘g‘ri kelmaydigan ishini qilding, Urdona ikkoving! Bundan keyin sizlar tartibsiz alpsizlar. Bundan keyin “Er barakasi Erdonaman” deyishni bas qiling. Anovi Urdona “Yurt barakasi Urdonaman” deyishni tashlaydi. Tashlamay ko‘rsin-chi?! Biz sizlarni yurt buzgan buzuqi deymiz. Buzuqiga jazo bitta — so‘yiladi! Bu bizning buyruq. Yoshi to‘qsonga to‘lgan mening otam qirg‘izning bosh ajosi Odiltoy bobo aytgan buyruq. Men ajomning o‘ng tomonida o‘tirgan odil biyi — Chekir aytdim! O‘zni dushman deb atab, shafqatsiz urush qilding. Muqaddas taxtda o‘tirgan ajoning oldiga tikka bosib kelding Bu odobsizlik. Bu katta ayb!

Erdona ham, Urdona ham hech narsa deyisha olmadi. Aqli o‘ziga keldimi?.. Erdona oldinga tik qaray olmay tinchlanib qoldi. Urdona yerga qaradi.

Chekir biy hukmni e’lon qildi:

— Urushda lashkar ichida g‘avg‘o solib, lashkarning birligini buzganga, tinchlik paytda yolg‘on gapirganga, o‘g‘irlik qilganga,

[1] **Urum** — urug‘ nomi.

[2] **Purum** — urug‘ nomi.

[3] **Abar** — urug‘ nomi.

yurt tinchligini buzganga, yolg'on xabar tarqatib, o'z yurtini g'alag'ovur qilganga jazo bitta — o'lim!

Bu hozir aytilayotgan gap emas, balki bu qadimdan kelayotgan bobo qonuni!

Abo-biylar hayqirishdi:

— Tiz cho'k, Erdona!

— Tiz cho'k, Urdona!

Erdona ham, Urdona ham vaziyatdagi holatdan qo'rqib ketishdi. Qamchilarini bo'yniga ilishib, qo'llarini ko'ksiga qo'yishdi. Tiz cho'kib, peshonalari yerga teggunchа yukinishdi.

— Aybdormiz, ajo ota!

— Aybdormiz, ajo ota!

Azman aboning yo'g'on ovozi yangradi:

— Ajom, botirlar aqlidan adashib, nima qilganini ham bilishmagan. Ikkalasining qonidan keching, ajom!

Hamma Odiltoy ajoga qaradi. Odiltoy kaftini o'ng soniga qo'ygan holda tiz cho'kkan botirlarga uzoq qarab turdi-da, qat'iy aytdi:

— Aqlini yo'qotgan bu ikki buzuqining boshini men kes, deb buyruq bermayman. Yurt birligiga bolta urgan buzuqini yurt oldida bo'g'izlansin, deb qoida qoldirgan arvohi tirik boboning odatidan qaytmayman.

— Men aybdorman! — dedi Erdona . — O'limim haq...

— Men aybdorman! — dedi Urdona. — O'limim haq ...

Oltin jiyakli oq qalpoqli, oq guppi to'n kiygan oqsoqol o'ng qo'lini oldinga chiqarib, ko'rsatkich barmog'ini ko'tarib dedi:

— Hammasi mening urug'im. Bu ikkovi ham mening naslimdan. Ittifoqni buzgan bu ikkovining tarafini olmayman. Men ham bobolarimiz qoidasidan chiqmayman. Urug'ning katta-kichigi hukmga rozi... Bu ikki johilga ergashgan bir tuman lashkarga uyat bo'ldi. Men shunga achindim...

Urug' oqsoqolining bunday gaplarni aytishi aynan e'tiroz emas. Erdona bilan Urdonani o'limdan saqlab qolishning iloji ham emas. Albatta, oqsoqol o'z botirlarini o'limga topshirishga qarshi. Qarshi bo'lganda iloji qancha? Ular birlikni buzdilar. O'lim jazosini olishga ular o'zlari borishdi. Endi qo'l bilan qilganni bo'yin

bilan tortishdan boshqa bu ikkovini saqlab qoladigan sababning o‘zi yo‘q. Ilgaridan beri kelayotgan ajdodlar udumi bunday kishilarni o‘limga buyuradi. Qanchalik qadrli bo‘lmasin, qanchalik mag‘rur, qanchalik jasur bo‘lmasin, yovlarga qarshi kurasha oladigan alp bo‘lsa ham, har ikkisi ham o‘limga bo‘ysungani yaxshi. Qarindoshlar ham, urug‘doshlar ham ilojsiz udumga qarshi chiqa olmaslar ...

O‘o‘, shunday bo‘lsa ham, birida bo‘lmasa, boshqasining qalbida kek qolishi ehtimol. Odiltoy ajo to‘qsondan oshdi. Insonning o‘lmaydigani yo‘q. Odiltoy ajo ham uchadi... Orqada oltin taxtni egallaydigan Yosh tegin taxtning egasimi? Uni Tangri biladi. Urf-odat, udum uni taxtga o‘tirg‘izgani bilan Yosh teginning o‘ziga Ko‘k Tangri donolik, ayyorlik, epchillik va jasorat beradimi? Yo‘qmi? Bu hozircha noma’lum ... .

Kecha Er Kulchur borligida Erdona va Urdonaga o‘xshab qaysi urug‘ning alpi bezorilik qilgandi? Bugun bu ikki alpning o‘zboshimchalik bilan lashkar to‘plab, tinch yurtga hujum qilishi ham.. — Endi bizni kim unday qilma, deydi?.. Er Kulchur uchib ketdi. Qari ajoni endi ko‘zga ilmaymiz”, — deganimi.

Bu holatni sezib ertangi kunni o‘ylagan Erkishi taxtdagi Odiltoy ajoga sekin qaradi. Odiltoy ajo Erkishining ko‘nglidagi fikrni sezdi.

Odiltoy ajo sekin o‘ng qo‘lini ko‘tarib, mo‘ylovini asta siladi.

“Ajdodlar udumi ham saqlansin. Tentaklar ham o‘ziga kelsin. Elga ham namuna bo‘lsin. Fikringni o‘zing ayt, Cho‘g‘ulturum. Sening fikring — mening fikrim. Bizning fikr — bobolar udumi”, — degan ajoning fikrini Erkishi ko‘z qarashdan sezdi. U darhol ajoga ta’zim qildi:

— O‘o‘, donishmand ajom! Agar buzib aytsam, tuzab qo‘ying! Yaxshi aytsam, ulab qo‘ying. Xonning o‘limi — bu unga elining ters qaragani. Alpning o‘limi — el orasida sharmanda bo‘lgani. Agar Erdona alp bilan Urdona alp oko‘rukchiligini yo‘qotgan qul bo‘lganida, biz ularni hozir uloqday bo‘g‘izlab tashlardik. Bu ikki alp aqldan ozishdi, nodonlik qilishdi. Nodonlik bilan qilgan ishi uchun elining oldida uyat bo‘lishsin. Ikkoviga mardlar minadigan ot, mardlar kiyadigan to‘n berilmasin. Ikkovi yaydoq ot minib,

mardlik ko‘rsatsin.. Agar shunday qilsalar, ikkalasi ham aybini oqlaydi. Bargi urug‘ining qadrli donishmandlari anovi bosqinda qolgan izgil yurtining oldida aybdor. O‘lganlariga xun to‘lashlari kerak. To‘kilganini to‘ldirib, bog‘lab olib kelingan o‘g‘il-qizlarini qaytarib, o‘zlari izgilga qiz bersin. Quda-anda bo‘lishsin. Botirlari o‘q tishlashib, yarashishsin. Oqsoqollari to‘shlarini taqashib, quchoqlashishsin!

Odiltoy ajo yonida o‘tirgan abo-biylardan kengash so‘rab ohista aytdi:

— Haq so‘z. Alp hukmini Cho‘g‘ultur aniq aytdi. El boqqan alpning uyat bo‘lgani — o‘lgani. Bu haqiqat! O‘ng yonimdagi abo-biylarim, so‘l tomonimdagi alp lashkarboshilarim, sizlar nima deysizlar?

Azman abo ta’zim qildi:

— Yuqorida Ko‘k, pastda bag‘ri keng yerdan keyingi egamiz — Odiltoy ajom. Hovliqqan ikki buzuqiga alp o‘limi haq! Farmon bering, bo‘ysunaman. Dushmanga yuboring. Boraman!

Bosh abo Azmandan keyin Chekir biy ajoga ta’zim qildi:

— Hovliqqan ikki buzuqiga alp o‘limi haq! Bular minadigan otsiz, kuchli yaroqsiz toqqa tentib ketishsin! Menga Farmoningizni ayting. Er Kulchurning vasiyatiga sodiqman!

Boshqa abo biylar, oqsoqollar va sarkardalar birday ajoga ta’zim qildilar:

— Tentaklarga berilgan alp o‘limi haq. Bizga Farmoningizni ayting. Yurt chegarasiga boramiz!

Odiltoy ajo o‘ziga o‘zi ovozini past qilib gapirdi:

“Ey, Ko‘k tangri! Hozir menga ta’zim qilgan abo, biy, bek, botir-alplarning qalblarini tuzat. Men aytgan gaplarni ularga em qil. Hech qaysisi ters bosib, qing‘ir ishga bormasin, yo, Tangrim!”

Biroz o‘zicha gapirganday bo‘ldi-da, ajo aniq va sekin gap boshladi:

— O‘ng tomonimda o‘tirgan abo, biy beklarim! So‘l tomonimda o‘tirgan oqsoqol, donishmand, alp-lashkarboshilarim, ko‘ngil burib tinglang. Ajom Odiltoy aytdi, deb eshiting! Abong, biying adolatli bo‘laman, deb eshiting. Alp-botiring o‘lja uchun elga bosqin qilmayman, el boqaman, deb yovga qarshi urushga boshlay-

man, deb eshiting. Mana bu ikki tentak yulduzimizni o'chirayozdi. Qirq urug' bir-biriga janchar sanchib, birligi buzila boshladi. Agar biz hujum qilsak, o'limdan boshqa boshpana topolmay qoladilar, deb anavi chetdagi yov poylab o'tiribdi. Hammang o'sha kuchli yovni kelishini bilishasan! Ichimizdan chiriydigan bo'lsak, o'sha kuchli dushman bizni osongina bo'ysundiradi. Muqaddas yersuvimiz oyoq osti bo'ladi. Qiz, kelin cho'ri, o'g'il qul bo'ladi. Boylaring sochiladi, o'lja qilinadi.

Qirq urug' biriksa, kuchli bo'ladi!

Esingizdami, bir tomondan tumov, kasallik kuchayib, ikkinchi tomondan qish qahriga olib, yut bo'layotgan paytda bexosdan hujum qilgan yovni qo'lini qayirib tashlar edik. O'shanda qirq urug' bir edi.

O'rda eshigi ochilib, Umay xotin chiqdi. U qariyb sakson yoshga yaqinlashib qolgan bo'lsa ham, qayg'u ko'rmagani uchun hali yosh ko'rinadi. Yengil kiyingan, boshida oq elechek[1]. Elechekning ustidan ko'k tasma bog'langan. Unda o'ta aniq, yarashgan oltin chizmalar bor. Ular chiroyli bezaklar yoki ko'rk uchun chizilgan chizmalar emas, balki harflardir. Unga "O'rda bekasi — Umay xotin" deb yozilgan. Bu Umayning xonimlik belgisi. Ko'ylagi ham, kamzuli ham ko'kish ipakdan tikilgan. Qirg'og'iga qunduz bostirilgan beldamchi[2]si ham o'sha rangda. Uning jiyagidagi rangi qo'ng'ir tortgan qunduz juda yarashiqli. Beldamchida kashta yo'q. Kashta o'rniga yo'g'on sonning yuqorirog'ida oq kumushdan o'rnatilgan bezak, ilon boshlarini eslatadi. Ular bir qaraganda beldamchining buklangan chokida ko'tarilib chiqib kelayotgan tirik ilonning boshiday ko'rinadi. Ularning og'izlari sal ochilib, ayri tillari eshilib yurayotganday. Darhaqiqat, ular mahorat bilan tikilgan ilon boshlari. Bu jo'ngina go'zallik uchun emas — "Ajoning o'rdasiga zahar tilli buzuqi oralamasin. Uni hurmatli ajdar — muqaddas ojizlar avrab yo'qotsin" degan irim. Bu belgi ham o'rda bekasi Umay xotinning piridir. Nima bo'lsa ham, ajo degani ajo. Jasorati hadsiz. Umay xotinning martabasi — u o'rda bekasi, barakasi. O'rda qutini saqlagan xonim erning ham, ajoning ham, botir

[1] **Elechek** — ayollarning milliy bosh kiyimi.

[2] **Beldamchi** — yubka.

sarkardaning ham, hatto mard jo‘ralarning va oddiy askarning ham g‘amini ko‘rgan — har tomonlama barkamol g‘amxo‘r, dono, g‘ayratli, ishbilarmon, bilimdon. El-yurt tinchlik-omonlik vaqtidami, urushga otlanayotgan paytdami, mana shunday ajo yig‘inida qaror, fikr aytadigan paytdami o‘rda bekasi o‘z burchini ado etadi.

Boyagina ajo ko‘k to‘nni yopinib, o‘rda oldiga chiqib, kumush taxtga g‘azab bilan o‘tirgan edi. Unda ajoning qarori aybdor alplarga o‘lim jazosini berish edi. Donishmandlar yig‘ilishib bir qarorga kelishdi:

Erdona bilan Urdonaga alp o‘limini buyurishdi.

Odiltoy ajo o‘ng tomonida o‘tirgan abo, biy beklariga, so‘l tomonidagi oqsoqol, alp, mard lashkarboshilariga kelajakdagi yurt birligini, yurt tashvishini, yurt orzu-umidini aytishdan oldin u g‘azab choponini yechishi kerak.

Hozir yig‘in chog‘ida Umay xotinning shoshib o‘rdadan chiqib kelganligining sababi ham o‘sha g‘azab to‘nini olib, ajoga ajolik to‘nini kiygizish edi.

Oqqush patiday yengil ichikni Umayning o‘zi ham yelkasiga tashlab chiqqan, xuddi o‘shanday yengil ichikni o‘rda navkarlariga ko‘targizib kelib taxtdagi ajoning ko‘k to‘nini oq ichikka almashtirdi.

Umayxotin ikki qo‘lini ko‘ksiga qo‘ygan edi, uzuklarning gavhar ko‘zlari kunning nurida yaltirab ketdi. Xonim hammaga muloyim qaradi:

— Yurtim ajosining aytgan gaplari eliga em bo‘lsin!

Yig‘inda o‘tirganlar “dur” etib o‘rnidan turishdi. Ajoga, xonimga hurmat bajo keltirishdi:

— Donishmand ajom, muqaddas Umay ena! Sizlarning omadlaringiz bizga ham nasib etsin!

— Siz ayting, biz bajaramiz. Hujumga boshlang, boramiz! Otam qirg‘iz naslini asragan oltin o‘rdaga buzuqilik qilganni ajdaho yutsin!

Hamma qayta o‘tirdi. Xonim o‘rdaga qaytib ketdi.

Oqish tusi juda yarashgan ajo to‘nini kiygan Odiltoy ajo endi yanada savlatliroq ko‘rinardi. Kerilib, yuzlari yorishib o‘tirgan ajo fikrini o‘rtaga soldi:

— Mening haqiqiy o‘g‘lim sizlarning qulingiz — Er Qulchur kecha qo‘ldan uchib ketdi. Elni boqqan elning xizmatkori qo‘ldan uchganda el motam tutar. O‘z qayg‘urar. Yov quvonar. O‘shanday paytda o‘zdan chiqqan yot quvongan dushmanga yuzlanadi. Yo‘q! O‘z qayg‘uga botsa ham, dushman quvonmasin, deb sizning xizmatkoringiz o‘rnini bosdim!

Erkak otdan ayrilsa, yayov, yurt mard erkakdan ayrilsa ojiz, yetim. Ey, ko‘p qayg‘u tortgan kamtar elim! Men sizlarni yetim bo‘lmasin, deb o‘lmay kelayotirman. Erkaklarning boshlari soy-soyda toshday yumalaydigan qirg‘inni orzu qilgan odamga yaxshilik yo‘q!

Ey, mo‘min yurt! Sizni kim to‘g‘ri yo‘ldan ozdirayotganini biling. Kim senga janchar o‘qtalib, dushman bo‘lishini bilding! Jangda jasursan. Tinch vaqtda xotirjam va yuvoshsan. Kamtarsan. Sen o‘sha kamtarlikdan ko‘p aldanding. Xo‘rlanding. Qayg‘uga botding. Yumshoq ipagini sovg‘a qilib tabg‘ach kelsa, endi aldanma! Tabg‘achning ipaklari yumshoq. Dili qora. U kuchi yetmaganda hiyla bilan aldaydi. Sariq oltin va oq kumushini ayamaydi. U iliq so‘z bilan eritadi. Kimki o‘sha tabg‘achning asliga qiziqib, mayin so‘zlariga aldanib ergashsa, o‘sha qayg‘uga botadi. Muqaddas yer-suvidan mahrum bo‘ladi. Asl qizlarini cho‘riga aylantiradi. Ota onaning muqaddas xosiyatini oyoq osti qiladi. Mening ishonganlarim, men nima demoqchi ekanligimni tinglang. Bu gapni ajo aytdi, deb tinglang! Bizga yaxshilik, deb eshiting! Bizga yaxshilikni xohlagan ajomiz aytdi, deb tinglang.

Keksani to‘rga chiqarib, hurmatni joyiga qo‘ying. Farzandni kuchli qilib o‘stirib, yovga qarshi jangda sinang! Qiz-kelindan chevarlar, yaxshi ustalar ko‘paysin.. Cho‘pqut[1], ko‘k guppi to‘n va charayna to‘n kabi erkakning kiyimlari o‘sha ayol chevarning qo‘lidan chiqadi. Eru xotin kuzatuvni bilsa, qari bilan yosh uy joyning, mol chorvasining ishlarini o‘zlari bajaradilar. Biyang yilda qulunlasin. Chavandoz minadigan ot ko‘paysin. Vaqti kel-

[1] **Cho‘pqut** — qadimgi qirg‘iz askarlarining harbiy kiyimi. Cho‘pqut to‘n pishiq kigizdan bir necha qator qilib tikilgan. Qavatlari orasiga bo‘r, qum solib qavilgan. Shu sababdan u o‘q o‘tkazmaydigan yengil va qulay askar kiyimi hisoblangan.

ganda biz uch tuman, besh tuman, o'n tuman, kerak bo'lsa, undan ham ko'p lashkarni jangga boshlaymiz. Bir askarga ikkitadan ot bo'lsin! Tayyorgarlik ko'rgan kam bo'lmas!

Dehqoning ekiningni ek. Molching molingni qara. Konching koningni qazi. Ustang ustaxonangda ishla. Askaring chegarada, kuzatuvda bo'l! Donishmandlaringni qo'yma, shularning hammasini boshqar!

Bu gapni bosh ajom Odiltoy bobodan eshitdim deng. Dalatuzda o'y-qirda, konda, o'rimda yurganing shu gaplarni baring boshqalarga yetkaz! Bu ajo hammaga aytgan va hamma bajarishi kerak bo'lgan omonat so'z! Ey, donishmand, urushni o'zingiz boshlamang! Dushman kelganda undan qochib, chegarani kichraytirmang.

Bu farmonni otam qirg'izning ajosi Odiltoy aytdi, deb eshiting!

Anovi ikki buzuq endi alp emas, buzuqi bo'ldi. Buzuqilar o'ldi, deng!

O'ng tomondagi abo, biy beklari, so'l tomondagi oqsoqol, alp, mard lashkarboshilari birdan o'rnidan turishdi va hamma bir kishiday ta'zim qilishdi.

— Aldiyor adolatli ajomiz. Buyruqni eshitdik! Qabul qildik!

— Haqmiz!

— Haqmiz!

— Yurt buzganni o'limga buyuring!

— Yurt buzganni o'limga buyuring!

...bosqinni qo'msagan Erdona jang kiyimini yechib, qurolini tashladi. Holsiz, nima qilarini bilmay dovdirab alohida ketdi. Ko'k chiviq olib, kul savadi.

Odamlar uni haqorat qilishdi:

— Odam edi, mol bo'ldi. Alp edi, o'ldi.

Urdona bo'ron bo'lib turgan tepalikda uch kecha-yu uch kunduz yotdi:

— Mardlik sehri mendan qochdi. Janchar sanchadigan holim yo'q. Men tirik o'likman. Qo'tosning dovdiragan buqasiman. Endi bosh suyagimni it-qushlar kemirsin?

Odamlar tomonidan maqollar aytildi:

— O‘zingni tutolmasang, Erdona bo‘lasan. Hovliqsang, Urdonadirsan. Biri kul titib, biri dovonda qoldi. Ikkovi ham alp edi. Tiriklayin o‘lik bo‘ldi.

* * *

...Odiltoy ajoning buyrug‘ini bajarib, bosqinga otlanmay lashkarboshilar uyda edi. El tinch, ko‘chib, qo‘nib yurishibdi. Yosh tegin aqlini ishga soldi:

“Kuchga g‘ayrat tayanchdir. Aqlga zakovat tayanch, dedi Er aka. Haqiqatan ham shunday. Er akam kuchli. U bosqon urdi. Toliqmadi. Yosh askar charchab qoldi. Akam charchamadi. Biz suv-suv bo‘lib terladik. Uning chekkasidan bir tomchi ham ter chiqmadi. Yilqichi ham, temirchi ham, ko‘rukchi ham, duradgor ham Er akamni hurmat qiladi, qo‘rqadi. Tuman lashkarni boshlab izgil yurtiga hujum qilgan Erdona bilan Urdona alplar ham yolg‘iz o‘zi borgan Er akamning oldiga tushib o‘rdaga kelishdi. Er akam bo‘lmaganida bu ikki alp hech kimga taslim bo‘lmasdi... Er akamni men ham hurmat qilaman, men ham undan qo‘rqaman. Er akam hech qachon o‘lmaydigan alp. U Kishi piri — shavkatli kishi. Men Er akamga o‘xshagan bo‘larmikanman?

Doimo shuni orzu qilgan Yosh tegin voyaga yetdi. Uning gapini donishmandlar diqqat bilan tinglashdi. O‘zlaridan chiqqan yigitning dili oq:

“Eh, omon bo‘l, bekvachcha. Tangri senga to‘g‘ri qarasin. Odiltoy bobongning o‘rnini bosgin”, — deyishdi.

Ichida yomon o‘ylari bor urug‘ boshliqlari:

“Ey, o‘rtning quluni. Odiltoy ajo ko‘z yumishi bilan senga hokimiyatni beradigan ahmoq yo‘q. O‘zim boshlab, o‘zim boshqaradigan yurt bor. Men ham osmono‘par tog‘ning katta bir cho‘qqisiman. Tekislikdagi odam o‘tmas o‘rnoniman...

Ajoning oldida sirtidan hammasi joyida, hammasi tinch va o‘ziga xosdek tuyilsa-da, ichdan yuqoridagiday ko‘rolmaslik bosh boqqanini Yosh tegin sezmadi. U bo‘layogan voqealar mohiyatini sezish u yoqda tursin, hali ham yoshlikning chaqmog‘iday chaqiladi. Uning tabg‘achning ipagidek yumshoq, g‘ayrati ichiga sig‘ma-

gan o‘tkir va nozik xayoli, yugurik fikri ulug‘larning oldidan erta ketib, ro‘paradagi moviy daryoning narigi qirg‘og‘ida kechagiday lochin solib, ov qilish edi. “Oh! G‘ozlarning ko‘pligini, o‘rdaklarning ko‘pligini... Lochin havoni kesib, baland ko‘tarilganda, ular pala-partish suvga sho‘ng‘iydi. Suvdan olisroq quruq yerda yoyilganlari pitirlab, har xil ovozlar chiqarishib, gohilarining qanot-pari to‘zib, ayrimlari qo‘rqqanidan tezaklab yuboradi. O‘hho‘, maza-yu, bu... Lochining bir sho‘ng‘ib, bir asta uchadi. Qanotlari shalpayib, bo‘yinlari shilqiyib, g‘a-g‘alashga ham holi qolmagan g‘oz-o‘rdak osmondan yog‘iladi. O‘hho‘, qanday maza bu...

Bu fikriga berilib qolganda Yosh tegin bobosining: “Urushni qo‘yinglar, el-yurt tinch bo‘lsin”, degan bobosining amriga qo‘shilgisi kelmaydi. U o‘zi urushga otlangisi, dushman bilan jang qilgisi keladi. U Erkishining yonida bo‘lsa, er og‘asi ikkovi yov lashkarini tumtaraqayini chiqarib yuboradiganday sezadi. Aynan o‘zining lochini — bundan bir necha yil avval o‘zining boshiga qo‘ngan lochini g‘oz-o‘rdakni “tars-tars” tepib tushirganday, ular ham yovni “tars-tars” chopib tashlaydiganday ko‘rinadi.

Yosh tegin shu fikrini bobosiga aytib yuborayozdi. Donishmand vazirlar, xonlar, biylar, sarkarda alplar ajoning oldida sukut saqlab o‘tirgani Yosh teginning g‘ashini keltirdi. “Boramiz. Tayyormiz. Qani ketdik!” deb hammasi aytsa, bobom ko‘nib, rozi bo‘lishi mumkin. Bosqinga ruxsat berar. Bu qo‘rqoqlar, nimadan xavfsirab o‘tirishibdi?

Bu fikrga berilib ketgan Yosh tegin askariy urf-odatga ko‘ra tiz cho‘kib, qo‘lini ko‘ksiga qo‘yib, bobosiga ta’zim qildi:

— Harbiy yurishga ruxsat bering, bobo?

Nabirasining jasoratidan ich-ichidan mamnun bo‘lib, ko‘ziga yosh kelib, bo‘g‘inlari bo‘shashib ketgan Odiltoy ajo hech ikkilanmay keskin dedi:

— Erdona va Urdonaning o‘limini esingda tut, o‘g‘lim! Jangni o‘zing orzu qilma! Agar o‘zing orzulab jangga otlansang, uning yo‘li to‘polonli bo‘ladi. Men ana shunday janjalli harbiy yurishga yo‘l bermayman! Dushman chegaraga kelsa iloji yo‘q, to‘qsonga kirsam ham, lashkarni o‘zim boshlayman.

Bir kuni Odiltoy ajo Erkishini o'rdaga chaqirtirdi. Umay xotin oldida, yaqin qarindoshlar jamuljam o'tirgan paytda ajo Erkishiga dedi:

— O'zimning sinmas qanotim, elning er o'g'li. Endi sening o'zingga tegishli gaplarimni tingla! Bu gaplarni barcha qirg'izning ajosi Odiltoy aytdi, deb eshit. Aboni abo, biyni biy, alpni alp ko'ra olmaydi. Ular o'z holiga qo'yilganda, hovliqqan buqa bir-biriga muguz taqashganday bular ham o'zaro talashib ketadilar. Sababsiz suzishganning zarari juda katta. Birining shoxi sinadi, birining ko'zi chiqadi.... bu buzuqilarning hayqirig'idan tog'u toshlar jaranglab ketadi, yer titiladi. Donishmand boboning so'zi deb eshit. Quloq uqqan, biroq ko'z ko'rmagan ilgarigi zamondan beri kuch hovliqqanda, uni donishmandlik boshqargan. Biliming kuchsiz bo'lsa, qora kuching hech narsaga yaramaydi, uni dushman osongina pachaqlaydi.

Odiltoy ajo bir qalqidi, o'zicha nimalarnidir dedi, keyin afsuslanib aytdi:

— Afsus, afsus...Anovi qora qarg'aday qag'illagan tabg'achlarning bir ustunligi shuki, ular teskari o'qiladigan yozuvi orqali hiyla o'ylab topadilar. Bizning toshga, ipakka, yog'ochga, kigizga bosgan harflarimiz o'sha tabg'achning hiylasiga javob topsa, qaniydi? Ular o'zlarining ko'pligiga ishonadi, hiylasini oshiradi. Unday qilmasa, xoh otda bo'lsin, xoh piyoda bo'lsin jangda bizga qarshilik ko'rsata olarmidi... O'o', yo'q! Cho'loq jaychi[1]-ning nayranglari shiddatli jangda ba'zan bizni aldab qo'ygani rost emasmi? Oyboltang o'tkir, sadog'ing o'qqa to'la, yoying tinmay otib turibdi. Bu sening imtiyozing, elimning er o'g'li. Oting uch oyoqlab qolsa ham yugurar, yigitlaringni boshi yorilsa ham, chopishadi. Bu sening ustunliging, elimning er o'g'li. Kemtiging, urug' orasida er yigitlaring ko'p. Ular bir-biri bilan tortishib turadilar. Musobaqalashadi, o'zini boshqalardan kuchli hisoblaydi. Bora-bora bir-birlari bilan janjallashadilar. Birlik buzilib, urug' orasidagi ittifoqqa darz ketadi. Bu sening bir kamchiliging, elimning er o'g'li. Ba'zida donishmandlikni ham kuch boshqarib, hovliqtirib,

[1] **Jaychi** — qadimiy mifologiyada toshlar yordami bilan ob-havoni o'zgartirib yuboradigan sehrgar.

ko‘ptirib yuboradi. Bu yana bir kamchiliging elimning er o‘g‘li. Ot ustida, yov qarshisida umrini o‘tkazgan er bobomiz ko‘pchilikning orzu umidlarini yo‘qqa chiqarib, yo‘lini to‘sgan. Erlikning tubi — o‘ziga yov ko‘payadi. Hozir dunyoning to‘rt tarafidan bizga ko‘z tikkan yov bor. Muqaddas yerimizda oltin, kumush va mis to‘lib yotibdi. Temiri toza. Mehnatkash kamtar yurtimizning mol-mulki juda ko‘p. Shu boylikni egallab olsam, deydiganlar ham ko‘p. Buni sen yaxshi bilasan. Buni ataylab senga aytganim — yoningda turgan Yosh teginga aytganim. U mol qarab, bosqon urib ancha pishib qolgandir? Endi u lochin solib, hovliqib tursa...Ajo asta sirli kulganday bo‘ldi. — Lochini ham o‘ladi. Bir qizga uylanadi... Shunda yoshlikning lazzatiga botib, ... bobosining mardlik urf-odatini an’anasini unutib qoladi. Lochin qochmaydi. Qiz qarimaydi. Ungacha Yosh tegin Yosh tegin vazifasini bajarib, qirg‘izning el yurti yashagan yer-suvini kezib, ko‘rib olsin. O‘y, qirda, keng yaylovda mol asrab, dehqonchilik qilib, kon qazigan mehnatkash kamtar el-yurtini tanib olsin! Elimning er o‘g‘li, eshit: anovi Tegininggni yoningga ergashtir. U el-yurtni, yer-suvni tanisin. G‘alayonli yurishda, bexosdan bo‘ladigan to‘qnashuvda yovdan himoya qilishni o‘rgat, tuyg‘uningga.

Odiltoy ajo ovozini ko‘tarib, qattiq aytdi:

— Nochor ahvolda qolsa, o‘rtaga tush. Qo‘shnilar bilan yaxshi yashashni o‘rgat. Sarson bo‘lsa, ot mindir. Qulni ham bag‘riga tortishni bilsin. Qo‘lingdan yaxshilik ko‘rgan odam, hissasin qaytaradi!

Tur, endi otlan, er o‘g‘il!

ERKISHINING KAMONI CHIYILLAB UCHDI

Otang borida el tani.
Oting borida yer tani.
Maqol

Jasoratim kuchaysin, deb el kezib,
Qoraxonning oldiga bordim.
Toshdagi yozuvdan

O‘rdadan chiqib ketgandan so‘ng, Erkishi Katta to‘riq otining bo‘ri yelishini tezlatdi. Qayerdadir unutib qolgan ishni eslab, endi o‘shangga oshiqqanday uzoqdagi o‘rmon bilan qoplangan tepalik adirlardan ko‘zini olmay, yonida ketayotgan Yosh tegindan bexosdan so‘radi:

— Qayoqqa ketyapmiz, Teginjon?

— Bilmadim, Er aka...

— Ko‘pga ketyapmizmi, Teginjon?

— Bilmadim, Er aka...

— Ha-a... Shunday deng... — Yosh tegin hech narsa demadi.

Erkishi shart tepindi-da gapira boshladi:

— Molboqar — yaylovda. Elboqar — chegarada, el ichida. Eliga tayanch bo‘ladigan o‘g‘il ikki tig‘li shop[1]. El oralab yerni ko‘rmaguncha u pishmaydi. El-yurtini oralatib, yer-suvini tanitgin, deb ulug‘ bobong seni menga topshirdi. Ikkovimizni ham usti ochiq Ko‘k, ulug‘ Tangrining ixtiyoriga qo‘ydi. Muqaddas yer-suvning quchog‘iga berdi. Hozir el tinch: ona-bola g‘am-tashvishsiz. Mol yaylovida. Oddiy odamlar tirikchiligi bilan, mollarini qarash bilan, o‘rog‘ini tayyorlab ekinini yig‘ishtirish bilan ovora. O‘rmondan yog‘och kesadi, o‘tin oladi, tizginini tiladi, uyga yog‘och tanlaydi. Biri teri pishirib, bug‘uning bo‘yin terisidan chilvir tayyorlaydi, otga jabduq hozirlaydi. Bahorda poyga, kuzda kurash bo‘ladi — hech kim bekorchi emas. Sen ikkovimiz ham bekorchi emasmiz. El ko‘rib, yer kezib safar qilib yuribmiz.

Erkishi bir zum to‘xtab qoldi. Katta to‘riq o‘zini chivindan qo‘rigandek ipak kokilini silkitib pishqiradi. Yangidan qizdirib

[1] **Shop** — xanjar.

kelayotgan quyosh nurlari otning silliq kokilida o‘ynaydi. Yo‘rtib kelgan otning bo‘ynidan, yaltillagan qora yolidan iliq nafas keladi. Cho‘lda suvsizlikdan qiynalgan odam muzdek suvni xo‘plab chanqog‘i qongandek Erkishi otining iliq nafasini yutadi. “O‘o‘, qochganda meni qutqargan, quvsam, yetkazgan qanotim. Sen tagimda, meni olib uchganingda men ajalga ham bo‘yin bermasman!”

Yosh teginning mingani ilgarigi oqbo‘z g‘unon. G‘unon olti asiyga to‘lgan edi. Sag‘risi silliq bo‘lib, kuchga to‘lgani sezilib turgan g‘unon ustida odam bormi, yo‘qmi buni sezmaydi. Oqbo‘z sakrab-sakrab yuradi. Yosh tegin otning ustida tol novdasiday chayqalib borayotganday. Bu yil u o‘n ikki yoshga to‘ldi. O‘g‘il bola uchun bu yetuk yosh. Yov bosganda o‘n ikki yashar bola janchar ko‘tarib yovga qarshi chiqadi... Yosh teginning qirra burni shishganday. Qalin qora qoshlar chimirilgan. Chaqnoq ko‘zlari har tomonga boqadi, o‘ynaydi. Jiyagiga zardo‘z kashta qilingan oq qalpog‘i qizil yuzini yanada chiroyli ko‘rsatib, beshmantcha tikilgan kiyimi kelishgan gavdasiga quyib qo‘yganday yarashgan. Yosh teginga qaraganda, Erkishi beso‘naqay qariyaga o‘xshab ko‘rinadi. Ikkalasining ham kamonlari bor. Yosh tegin egri qilichini osib olgan. Erkishi kiyimining ustidan taqib olgan katta kamarida qilich osilib turibdi. Qurol-yaroqlari ham yengil.

Aytgancha, o‘z elu yurtini oralab, ota-bobolari yashab o‘tgan yer-suvini ko‘rgani otlangan bu sayohatchilarga og‘ir qurollarning nima keragi bor?

— Ey, Teginjon! — Erkishi endi Yosh teginga kulib qaradi. — Ikkovimiz kuch sinashaylikmi yo hunarimizni sinab ko‘raylikmi?

Yosh tegin bolalarcha jilmayib qo‘ydi:

— O‘zingiz ayting, Er aka?

— Endi o‘zim aytsam, ehtiyot bo‘l! Men sen bilan epchillikni sinashaman!.. Bundan keyin Erkishining nima qilishini bilib olgisi kelib, ich-ichidan qiziqib turganini Yosh tegin sezdirgisi kelmaydi. Indamasdan tortinchoq kishiday jilmayadi. Oqbo‘z suvluqni chaynab, bo‘ynini silkib, boshini chayqab qo‘yadi. Ipakday taram-taram bo‘lib to‘kilib turgan yoli suv oqqanday to‘lqinlanadi, kumushday yaltiraydi ...

Erkishi o‘zicha tahlil qiladi: yosh bo‘lsa-da, Oqbo‘z ham doim uning nima qilishini oldindan sezadigan bo‘lib qolibdi. Yosh tegin baquvvat yilqichilar orasida o‘zicha kuchga to‘lganday, sho‘x-shodon kulib, ot chopganga qiziqib, ot o‘yinlari, tungi o‘yinlar asov otlarni o‘rgatishga yashirinib, yo‘lbars, ilbirslarni ovlashga qiziqib, olovday o‘ynab, hech narsani o‘ylamay yurdi-da. Albatta, bundan Yosh teginning baquvvat va qo‘rqmasligini bilish uchalik oson emas. Sababi, yurishga o‘rgangandan boshlab ayirmachga mingan bo‘lsa, uning ustiga chavandoz bolalarning kimisi Yosh teginga o‘xshab ot o‘yinlariga, tungi o‘yinlarga asovni bo‘ysundirishga, ilbirs, yo‘lbars ovlashga qiziqmaydi deysiz? Bu har bir erkakninggina emas, balki olti muchasi sog‘lom ayolni ham qiziqtiradigan mashg‘ulotlardir. Yosh tegin birinchi marta ot poygasida qatnashganida eng epchil, eng uchqur otni mingisi kelgan. Birinchi asov otni o‘rgatganda, u ketma-ket yana uchta asovni o‘rgatmoqchi bo‘lgan. Unga yuvosh bo‘lib tuyilgan asov ot unga bo‘ysunmay tekislikdan toqqa qarab uchib jo‘nagan, bir-ikki marta yiqitib ham ketgan. Xo‘v, anavi ko‘rinib turgan Gulo‘to‘kning ustidagi ochiqlikda hay-haylab yo‘lbars ovlaganda, Yosh tegin tengdoshlaridan ustunligini ko‘rsatgan emas. To‘g‘ri, uning pishiq, chaqqon, bexosdan bo‘ladigan qo‘rqinchga e’tibor ham bermaydigan jasur ekanligi ko‘ringan. Ilgaridan beri ot ustida tashvishli umrni o‘tkazuvchi ko‘chib yuruvchi yurtning o‘g‘il-qizlari bo‘lar-bo‘lmasga o‘zlarini u yoq-bu yoqqa tashlasharmidi? Es tortgandan boshlaboq ayiq, yo‘lbars bilan yakkama-yakka olishuvni orzu qilmagan o‘g‘il bola o‘zini erkakman, deb sanamasa kerak.

Yosh tegin kichikligidan boshlab ana shunday jasur bo‘lib o‘sdi, o‘zini o‘g‘il bolaman, dedi. U tengdoshlari kabi sergak, chaqqon va har qanday xavf-xatardan qo‘rqmaydigan bo‘lib o‘sdi. Yoshlikda, kuchga to‘lgan paytida har bir yigit shunday bo‘lsam, deydi. Qiyin kunlarda, yomon xavf-xatarda qaltirab ketgani, paypaslanib qolgani qancha... Yosh teginni ana shunday qo‘rqoq bo‘lib qolmasin, degan Erkishi astoydil bo‘lib unga o‘zining mahoratini, qo‘rqmasligini asta-sekin singdirdi. Haqiqiy qahramonlik an’anasi bu harakatdir! Ho‘v, boyagida, Erkishi tun-

gi qaroqchilarday kiyinib, Yosh teginga hujum qilganda, qochib ketmagani uchun boladan minnatdor edi. Biroq Erkishi o'shanda gurzini unchalik yaxshi ishlata olmaganidan Yosh tegindan biroz hafsalasi pir bo'lgan. "Bu erkatoy bola... Bahodir otasining o'rnini bosa olsa, yaxshi bo'lardi", deb shubha bilan qarab yurgan Erkishi qobon quvganda, Yosh tegin unga angrayib qarab qolib, otini qobonga cheldirganini eslab, ichida kulib qo'ydi. "Bu erkatoy bola... qobonni tanib turib, qo'rqmay, qarab qolsa, yaxshi. Bu uning qobonni ko'zga ilmasligi, jasurligi, qobonni xavf o'rnida ko'rmaganligidir. Agar xavfni ko'rganda ko'zlaridan qo'rquvning pashshalari chiqsa, titrab, qobondan qocha olmay turib qolsa, unda bu bola qo'rqoq bo'ladi. U yovga janchar sunib, sanchadigan paytda ko'zlarini yumib oladi".

Yosh teginga bosqon urdirib ishlatib, uning kuchini, bardoshini sinab ko'rdi. Kamon ottirib, uning aniqligi va ovchilik mahoratini sinab ko'rdi. Unga asov otlarni ushlatib, uning ishga kirishimliligini, chaqqonligini sinadi. U tun qaroqchisi kiyimini kiyib, Yosh teginga "hujum" qilib, uning qo'rqmasligini va jasoratini sinovdan o'tkazdi. Yosh teginni allomalar qatoriga o'tirg'izib, uni bo'layotgan gap-so'zga aralashtirib, uning aql-zakovatini, bilimdonligini, notiqligini sinovdan o'tkazdi. Bu sinovlarning hammasida ham Yosh teginga oson bo'lgani yo'q. Ustoz huzurida o'zini yo'qotgan shogird kabi, goh o'zini ko'rsatdi, gohida esa yo'q. Shunday bo'lsa ham, u umidni uzdirgan nochor, qo'rqoq va enlay-epsiz[1] emas. U sinov paytida mayli, aql-idrokdan bo'lsin, mayli, kuch-g'ayratdan bo'lsin yoki odamlarni o'ziga torta olishi bilan o'zining sezilarli qobiliyatlarini ko'rsatdi. U ajo bobosi ham, Erkishini ham, qarindosh-urug'lari va unga tilakdosh bo'lgan el-yurtni ham o'ziga bo'lgan ishonchlarini oqladi.

Bu sayohat — Yosh teginni sinovdan o'tkazishning eng mas'uliyatli davri. Buni Yosh teginning o'zi ham tush ta'birini qilganday fikr yuritib, bilishga harakat qiladi. Erkishi o'tgan-ketgandan gapirib, Yosh teginning e'tiborini hech shoshilmaslikka, sokinlikka buradi. So'ng xuddi cho'chiganday, qandaydir dahshatli jasorat

[1] **Enlay-epsiz** — hali tartibga tushmagan, aqli nochor, gapga tushunmaydigan.

haqida gapirib beradi. Avvaliga unga qiziqib hayrat bilan qaragan Yosh tegin birozdan keyin er akaning fikrini fahmlaydi va bemalol eshita boshlaydi.

Shunday qilib, ular bir kunni behuda o'tkazdilar. Ikkinchi kuni tushgacha tinmay yo'l yurishdi. "Kuch sinashaylikmi, Teginjon. Yoki ep sinashaylikmi?" degan Erkishining savoli bolaga oddiy gapdek tuyildi. Uni yosh o'g'lon esidan ham chiqarib qo'ydi. Ikki kungi yo'l Yosh teginga unchalik qiziq ham bo'lmadi. Vodiyda, tog'da va adirlarda har turdagi mollar yulduzlardek sochilib yoyilib ketgan, ularni kuzatib yurgan molchi, qo'ychilar ko'rinib, ko'rinmaydi. Go'yoki, jonivorlar ochiq joylarda to'p-to'p bo'lib yoyilib, o'zlari to'llab[1] ko'payayotganday. Mollarning ko'pligi bu yoqda tursin, yovvoyi hayvonlar ham tinch, bexavotir: o'rmondan chiqa qolgan bug'u otliqlarga ajablanib qaraganday bo'ladi, keyin asta sakrab, o'zini daldaga oladi. Bo'lmasa, qayta burilib qalin o'rmon ichiga kirib yo'qoladi. Gohida bir-ikkita bolasini ergashtirgan elik[2]lar paydo bo'ladi. Qoraquyruq ko'zga ilashmay g'izillab o'tib ketadi. Ba'zida tulkining dumi selkillab ko'ngilni o'ziga tortadi. Ayiq ham, yo'lbars ham hozircha yo'liqmadi. Faqat bir marta uzoqdan kichik bir tepalikda ko'k chipor tusli qandaydir bir yirtqich yurgani ko'ringan. U ilbirsga, silovsin yoki boshqa yirtqichlarga ham o'xshash emasdi...

Molini boqib yurgan, yog'och qirqib, o'tin ortib yurganlar, bir ovuldan boshqa ovulga borayotganlar, ko'chib-qo'nganlar bo'lmasa, odam bolasidan ham yot birovlarni ular uchratmadi. Uchramasligi ham aniq edi-da. O'zining eli, o'zining yurtining chegarasidan hali chiqmagan edilar.

Quyosh botib bormoqda. Ular o'rmon ichidan oqib o'tadigan katta soy bo'ylab borishardi. O'rmon gohida ochilib, siyraklashadi, gohida o'rmon qalinlashib, uni oralagan otliqlar ot yoliga engashib, birining orqasidan biri yurardi. O'ng tomonda suv ovozi eshitiladi. Katta-katta qoraqurlar tars-tars qanot qoqib, qarag'aydan qarag'ayga qo'nishadi. Qayerdandir burgutning ovozi

[1] **To'llab** — bola tug'ib.

[2] **Elik** — o'rmon bug'usi.

keladi, qayerdadir qirg‘iy chirillaydi. Ko‘rinmas qalin o‘rmon ichida dungkillab, gursillab, qobonning “g‘o‘rt-g‘o‘rt” degan ovozi kelganday bo‘ladi. Uning ustiga “dang-dung”, “qars-qurs” kabi ovozlar hamma tomondan eshitiladi. Ularga qizilishtonning daraxtni urib chiqargan ovozi qo‘shiladi. O‘rmonda turli ovozlar eshitiladi. Qisqasi, o‘rmon ichi har xil tovushlar, quloqqa yoqimli eshitiladagan o‘rmon kuylari bilan to‘lib toshgan. Yosh teginning yodiga bolaligida eshitgan ajoyib hikoyalar keladi. Atrofdagi manzara, daryoning ovozi, o‘rmondagi har xil tovushlar o‘zicha bir qo‘rqinchli, vahimali bir dunyo Yosh teginlarni ichiga yutib ketayotganday. “Jez tumshuq bor, odam-kiyik bor, yolg‘iz oyoqli yalmog‘iz bor, o‘rmonning tukli egasi bor” degan vahimali hikoyalarni Yosh tegin ham boshqa bolalar singari juda ko‘p marta eshitgan. Hozirgacha u hech qachon oralab ko‘rmagan o‘sha changalzor o‘rmondan birinchi marta o‘tib boryapti. Qalin o‘rmonni qorong‘ilik juda tez qopladi. Devorga o‘xshash qoya tagidan qaynab chiqqan moviy tiniq buloqning boshiga kelganda, bu yerda doim sayr qilishga odatlangan kishiday Erkishi otidan tushdi. Katta to‘riq ot suvlug‘ini shildiratdi. Lekin suvga intilmadi. Yigit ham otdan tushdi. Oqbo‘z xuddi yo‘l yurmagandek, ustiga hech kim minib kelmagandek, ovoz ham chiqarmadi. Tek turib qoldi. Quloqlarini qaychilashtirib, ovozlarga quloq solgandek bo‘ldi.

Erkishi guppi to‘nini yechib, yerga tashladi. Yosh tegin gapirmasdan yo‘l qopchig‘idan oyoq[1] oldi. Unga xurjundan ikkita qurtob olib soldi va buloq boshiga keldi. Bu paytda Er kishi to‘niga chig‘anog‘ini qo‘yib, yonboshlab olgandi. “Qarilik-da... Uch kunga yetmay egarda yanchilib qolgandayman-a?” degan o‘yini “Ey, bolam, seni tez[2]ga tushgan bug‘uning bo‘yin terisidan ham battar qilib iyga solarman” degan fikri yengdi. Buloq boshiga ko‘z qirini tashladi. Buloq boshida nari qarab o‘tirib qurtobni maydalab, ezayotgan yigitning kelbati Erkishining ko‘nglini to‘ldirdi. U tana tuzilishi baquvvat va mushaklari ham yetilgan edi. “Ayt-

[1] **Oyoq** — yog‘ochdan yasalgan kosa.

[2] **Tez** — hayvon terisini ajratadigan maxsus pichoq.

gancha, burgut uchish paytida, tulpor chopayotganda haqiqiy kuchini ko‘rsatadi... O‘g‘lim, yov bilan kurashsang, bundan ham baquvvat bo‘lishing aniq edi...”

Yosh tegin qurtobni ezib bo‘lganini sezgan Erkishi charchaganday, uyqu bosib borayotgan kishiga o‘xshab, mudrab qoldi. U yoq-bu yoqqa ag‘anaganday bo‘ldi... Dikkaygan sarg‘ish mo‘ylovini qimirlatgancha, xurrak otdi. “Buh-h ...”

Biroq uning ko‘zlari kipriklari orasidan bolaning harakatini kuzatib turardi. “Men uxlaganday bo‘lib turayin-chi... Nima qilar ekan? Agar u to‘g‘ri kelib uyg‘ota olsa, demak, u tortinmas bo‘lgan bo‘ladi ... ”

Yosh tegin jon oyoq[1]dagi qurtobning ezmasini chaypaltirib asta-sekin keladi. “Er akam charchagan ekan” , — deb o‘yladi u.

“Men uxlaganday bo‘lib olay-chi... Nima qilar ekan?” — dedi Erkishi.

Yosh tegin biroz to‘xtala qoldi-da, tez kelib toyib ketganday bo‘lib Erkishini cho‘chitib yubordi. U buni sezmaganlikka oldi. “Bu uyg‘otayin, degani. Shartta uyg‘otmagani ham ma’qul. Odob saqlaydi-da...”

Yigit tizzasining biri bilan Erkishiga yaqinlashdi va uning yo‘g‘on sonining pastrog‘iga suyandi.

Erkishi cho‘chigansib, boshini shartta ko‘tardi.

— Ooh...mudrab ketibman. Belchi ichimligingni!

U shoshgan kishiga o‘xshab “belchi” dedi. Qo‘liga olar zahoti jon oyoqning qiriga og‘zini olib bordi.

— Vah, muzday buloqning suvi-ku. Qurtobning ezmasi bilan bolqimiz[2] bo‘lib ketibdi-yu! Endi o‘zing ich!

Otlar nari-berida o‘tlaganday bo‘ldi. O‘zlari ham yana bir oyoqdan ichimlik ichishdi. Nimadir yodiga tushganday Erkishi shoshilib o‘rnidan turdi.

— Otlan!

U Yosh tegindan oldin tezdan otga mindi-da bostirib ketdi. “G‘alvali yurishda dam olib yotishga bo‘sh vaqt qani?”

Keyin u bilan yondashib kelayotgan Yosh teginni ogohlantirdi:

---

[1] **Jon oyoq** — sayohatda ishlatiladigan kosa.

[2] **Bolqimiz** — qimizning eng zo‘ri, asal qimiz.

— Biz tuni bo‘yi yuramiz! Uxlamoqchi bo‘lsang, ot ustida mudrab olgin... Er uyqusi — qush uyqusi. Yov qochirgan notinch kunlarda erkak kishidan uyqu qochadi. Unday paytda nima qilasan? Insonning dushmanlaridan biri uyqudir. Uyquchi ovchini yo‘lbars titib tashlaydi, uyquchi alpni qo‘ychi ham cho‘ktiradi. Uyqu — dushmandan tuman lashkar ham qirg‘inga uchraydi ...

Janchar bo‘yi qor. Qalin o‘rmon oqqa burkanib, silkinib, titrab, ayoz qichiraydi. Oq chilla[1]ning muz soqoli chayqalib, daryo tubida uxlab yotibdi. Chilla ota muz soqolini silkitgan sayin ayozning kaftlari o‘rmonni, tog‘larni, bepoyon keng yaylovlarni larzaga soladi. Shunday sovuqda hozirgidan besh battar yurtning tinchligi buziladi, yo harakatga tushadi. Erkakki bo‘lsa, to‘shakda tinch uxlashga yo‘l qo‘ymaydi... “Lashkarni to‘pla, urushga otlan. Anovi tabg‘achni, bu tatni, anovi o‘n o‘qni, qarluqni hammasini chop. Harakat qilib sen chopmasang, oldin harakat qilgan u chopadi. Qozoning sinadi, kuling ko‘kka sovriladi. Boshlig‘ing boshini egadi, oyoqliging tizzasini bukadi. El bo‘lib omon qolaman desang, yovdan ilgariroq harakat qil”... Yurt boshida g‘avg‘o. Oti bori otini minadi, to‘ni bori to‘nini kiyadi. Jancharning uchi o‘tkirlanib, bolta tobga keltiriladi. Uyqudagi lashkarni yov tez harakat qilib bosadi. E, otangning go‘ri, ay! Ikki yov teng bosganda uni kuzatib turadigan er yigit qayda? Uyqu — dev bilan donishmandlarning hiyla-nayrangi bir bo‘lib bosgandan keyin tuman lashkar ham sochilib ketadi. Yurt o‘z yerida qirilib, yovga bo‘ysunadi. Ha, ha, yovni ko‘p marta uyquda bosdik. Lochin qora qarg‘aga hujum qilganday dushman lashkari necha marta tirqirab ketdi. E, voh, o‘zimiz ham uyquda bosqinga uchradik. Yovdan zarba yeb mag‘lubiyatga uchraganimizda necha marta qonsiradik. O‘o‘! Atang-a, attang! Urushning idishi to‘lmas g‘orday. Unga sening qoning ham, yovning qoni ham quyiladi, lekin u to‘lmaydi. Qilich esa, seni ham, yovni ham ayamaydi. U hech kimning boshini tanlab o‘tirmaydi. Chegarasini saqlab, elining to‘q yashashini o‘ylagan, botir bo‘laman degan kishi o‘zining boshini qanjig‘a[2]ga

[1] **Chilla** — qirg‘izlarning mifologiyasida sovuqning qo‘llovchisi.

[2] **Qanjig‘a** — biror narsani bog‘lash uchun egarning orqa tomonidagi ikki yonboshiga bog‘langan tasma.

bog‘lab yurib, uni yovga ham choptirmay, bo‘riga ham oldirmay saqlamasa, botir bo‘ladimi?

Chiniqqan to‘riq birdaniga to‘g‘riga tikildi. Erkishi tezda kamondan o‘q uzdi. Dumli o‘q o‘rmon-tog‘ni tinchligini buzganday ovoz chiqarib uchdi-da, yumshoq narsaga kirganday ovoz “lip” etib bosildi... Erkishi beparvo o‘kinganday bo‘ldi:

— Eh... Qo‘ltig‘idan kirib, yuragiga sanchilarmikin, deb o‘ylagandim... Buyragiga tegdi, shekilli... Endi darrov o‘lmaydi, ancha qiynaladi...”

Erkishining so‘zlari Yosh teginga maqtangandek eshitildi. — Nimaydi u aka?

— Nima bo‘lsin? Olachipor yirtqich-da ...

— Unga tegdi, deb o‘ylaysizmi?

— Ha, tekkanini qo‘lim sezdi ...

Yosh tegin indamay otini bostirdi. “Qo‘lim sezdi”, deydi. Qo‘lning sezgani qanday bo‘ladi? Qorong‘ida qanday qilib mo‘ljalga oldi? Erkishi bolaning o‘ylarini sezgandek ming‘irladi:

“O‘qing zoye ketishini istamasang, uzoq mo‘ljallab qiynalma! Mushaklaring tortilgunga qadar o‘qing tegishini sezgin. Sezmay otgan o‘qing mo‘ljalga tegmaydi. Yorug‘da ko‘rib mo‘ljallaganni, qorong‘ida sezib nishonga ol! Vaqtida o‘q otmasam, yo‘lbars menga sakrardi. O‘qning hushtak ovozi uni cho‘chitib yubordi. Yirtqich ahmoq emas-da! U ham jonini ehtiyot qiladi. Yo‘lbars o‘zini u yoq-bu yoqqa tashlay berdi, shekilli, o‘q uning yumshoq joyiga tekkanday bo‘ldi...

Erkishi bir muddat jim otini bostirdi. Tun ham oxirlab qolganday. Moviy osmon chuqurlashib oqarganday bo‘ldi. Tiniq, yorug‘ yulduzlar uzun-uzun qarag‘ay uchlarining orasidan miltillab ko‘rinadi.

Dahshatli sukunat hukm surdi.

O‘rmon, tog‘, suvning sharillagan ovozi. Tun shovqini, tungi o‘ziga xos ovozlar — hammasi rangsiz, xavfli yirtqich hayvonning damiga tortilib borayotganday ...

Yosh tegin qalqib ketdi. Jag‘i ko‘ksiga tegib, ko‘zini ochdi. U ot ustida biroz uxlab olgan edi. Yo‘lbars esiga tushib, uyqusi ham ochilib ketdi.

Erkishi xotirjam sekin dedi:

— Haligi olachipor yirtqich bizni poylaganiga ancha bo'ldi. Hali buloqning oldidan jo'naganimizda Oqbo'z bir depsinib qo'ygan edi. Jonivor pishqiraman, dedi, lekin pishqirmadi... Jangchining oti ustida chavandoz o'tirgan paytda yirtqichlardan qo'rqmaydi. Odamning zo'ri yirtqichni ham cho'chitadi. Odamning dami otga ham, itga ham madad bo'ladi. Bo'ri: "Ikki yashar bolani ko'rsam, ikki qirni, yetti yoshli bolani ko'rsam, yetti qirni oshib qochaman", der ekan. Sening yoshing esa ikki oltidan oshib qolgan. Ulug' bobong rosa o'n ikki yoshida yo'lbarsni o'ldirgan. O'zingning otang Er Kulchur o'n to'rtda urushga otlangan. Oh, attang-a, attang, ay?! Keyingilar maydalashib ketishyapti ...

Haligi yerda uxlasak, yo'lbars bizni olib ketardi. Agar qalin o'rmonda ovoz eshitsang, o'sha tomonga tik qara! Inson ko'zlari olisdan ham yirtqichni seskantiradi. Ko'zingni olib qochsang, u seni olib ketadi. Erkakning ko'zida ko'rinmas o'q bor. U yirtqichningina emas, hatto lashkarboshini ham tortinishga majbur qiladi. Jangda qo'rqmasdan oybolta urgan odamdan ajal ham qo'rqadi. Ko'zini yumgan qo'rqoq esa o'ladi.

Erkishi gapining asosiy yerini aytdi: "Kuch sinashaylikmi, yo mahoratimizni sinashaylikmi", desam, sen o'zimga qoldirding. Men senga hunarimni, mahoratimini ko'rsatdim. Undan qanday xulosalar qilding? Endi uni sen bizga ko'rsat.

— Men kechasi nishonga urolmayman. Kunduzi adashmayman, Er aka...

— Kunduzi adashmagan, kechasi his qila oladi!

— Bilmadim... Men buni qilib ko'rmaganman-da hali...

— Boshingga ham keladi. O'shanda "onajon" deb baqirmasang, bo'ldi.

Erkishi xoxolab kuldi. Yigitning ori kelib ohista dedi:

— Men hozirgacha baqirmaganman ...

Qorong'ilikninng choki so'kilib, yorug' tusha boshladi. Tong otdi. Yosh teginlar o'rmonsiz tekislikdan, keyin daryodan o'tib, kichik-kichik xarsang toshli, archazor, yulg'un o'sgan qayqang[1]ga

[1] **Qayqang** — ikki tomoni baland, o'rtasida birozgina do'ngligi bor qir.

chiqib kelishganda, tong to'liq otib, yerga yorug'lik tushib bo'lgan edi. Ungacha old tomondagi xarsanglar orasida nimadir qimirlab qoldi. Odamning ovozini eshitib, so'yil dumini cho'ziltirib qochib qolgan ilbirsni ko'rganda Yosh teginning ko'ziga u toshni oralab yurib ketayotgan qandaydir bir g'alati xavf bo'lib ko'rindi.

— Navbat sizga, Teginjon! — dedi Erkishi.

Tegin kamondan o'q uzdi. U o'q otguncha Erkishi afsus chekkanday bo'ldi:

— O'qni kechroq otding? Ilbirsning ajali yetmagan ko'rinadi.

U aytganday ilbirs omon ketdi.

O'qi mo'ljalga tegmay, Yosh tegin juda izza bo'ldi. Hammasidan ham o'ziga ta'lim bergan Er akaning oldida o'qi ilbirsga tegmay, xato ketganidan yig'lagisi keldi. Oqbo'zni tinmay qo'ltig'iga tepinadi. O'zi u yoq-bu yoqqa alanglab qaraydi. "Seni, seni... Nima ko'rinsa ham, seni-i".

U izzalanadi, ori keladi va asabiylashadi. Hamma narsani qirib tashlaguday bo'lib, kamonni ushlab, ushlab qo'yadi.

— E, o'g'lim, — deydi Erkishi, — oring kelsin, nomusing kelsin. Ori yo'q odam jangda halok bo'lishini eslaydi. Shoshma! Nomusdan yuraging yorilib ketishi mumkin. Uni er g'ayrati o'rniga keltiradi. Janglarda boshing ham ko'p marta yoriladi. Qonsirab, o'ch olging keladi. Uni ham er g'ayrati o'rniga keltiradi, emlaydi. G'ayrati yo'q alp o'zining qora kuchiga o'zi qul...

— Qo'rqoqning asosiy dushmani — uning qora kuchi, o'g'lim, — dedi Erkishi, — shuni esda tut! U o'zining qora kuchiga ishonib, yovga qarshi chiqadi. Janchar etagini yerga qadab, oybolta boshiga tegsa, shoshilib nima qilishini bilmay qoladi. Qo'rqoq xonning boshida dubulg'a turmaydi. Bunday holatni jang paytida ko'zim ko'p ko'rdi. Dushmanning o'qi yalang'och boshiga tegmasdan qumga singib ketadimi? — Erkishi miyig'ida kuldi-da, so'zini davom ettirdi. — Gurzi bilan solishganimda to'qqiz yoshda edim. Ovulda o'g'lonlar bilan urushib, necha marta peshonalar do'mpaygan de-chi! Yilqi boqishda yurganda bo'ri, ayiq, yo'lbars, qaysar[1] ko'p yo'liqardi. Ochig'ini aytganda hammasidan qaysar yomon edi. Tangri uni qarg'adi, shekilli, urug'i yo'qolib boryapti.

[1] **Qaysar** — o'sha zamonlarda yashagan yirtqich hayvon, hozir yo'q.

Yo‘q bo‘lgani yaxshi. U yovuz hayvon. U molga ham, odamga ham tikkasidan hujum qiladi. Sen uning qo‘ltig‘iga xanjarni botirib olib, endi o‘ldi, desang, u seni g‘ajib tashlaydi. Shuning uchun ham qirg‘izlar uni qaysar deyishadi. Sen qaysarni ko‘rmagansan, o‘g‘lim. Uni ko‘rmaganing ma’qul. Uning kepatasi sovuq: bo‘ridan yirikroq, yo‘lbarsdan kichik. Tumshug‘i buzoqnikiga o‘xshash ... Balki undan ham do‘mpayganroq. Pastki jag‘i sal kengaygan, katta-katta o‘tkir tishlari irsayib yuqori jag‘ini tirab turadi. Juni qil, tig‘iz, dumi bo‘rinikiga o‘xshash, lekin undan yo‘g‘on va kaltaroq. Bo‘ri doimo dumini chotiga qisib yuradi. Qaysar unday qilmaydi: u dumini so‘yilday tik qilib ko‘tarib yuradi.

U ovga chiqqanda doimo oldinga qarab intilib, qochgan hayvonlarni yutadigandek holatda yurardi. Ilonnikiga o‘xshash chag‘ir jiyaklari qizil vahimali ko‘zlari bilan odamning ko‘kragini teshadiganday qaraydi. Men jasurman, alpman degan har qanday odam qaysar bilan tiklasha olmaydi. Qaysarning suri ko‘zida. Kuchi bo‘ynida. Pichog‘i uning og‘zida. U yarador bo‘lib qonsiragan sayin ixcham harakat qilaveradi. Joni chiqarda tishiga ilinganni o‘zi bilan qo‘sha o‘ldiradi. Bunday yirtqich kamdan-kam uchraydi. Inson muqaddasdir! Inson qaysarning naslini yo‘qotadigan bo‘ldi ...

Men dastyor bo‘lib qolgan vaqtim. Yilqida yurgan paytlarim. Ey, er aka, ay! Yilqichi Qarluqday baquvvat, epchil, qo‘rqmas odam bo‘lmasa kerak. U unchalik katta ham emasdi. O‘zi kichkina bo‘lsa ham pishiq, puxta, polvon edi. Ikki yuzi qip-qizil. Har doim xoxolab kulib yuradigan odam. Urishsa ham kuladi, chopishsa ham kuladi, aytishib ketsa ham kuladi. — Voy, kulishni bas qil! — deyishsa, u “Nima, mening kuchimni yo‘qotmoqchimisan?” — deydi. O‘sha Qarluq akaga hammamiz “Er aka” deb murojaat qilamiz. U haqiqatan ham zo‘r erkak edi. Senga bir voqeani aytib beray: biz yilqi boqayotgan joyda arqon tortishib o‘ynayotgandik. Tepa tomondan “chang-chung” degan ovoz eshitildi. Hammamiz o‘sha tomonga qaradik. Qulun, toy, biyalar biz tomonga qarab yig‘ilib, hurkib qolishdi. Hammamiz o‘sha yerga chopdik. Ey, jonivor, Qambar otamning nasli yilqi bolasi xosiyatli-da. Ayg‘ir, ot yol-dumlarini tik qilib, pishqirib, qulog‘ini pastga qilib allaqanday narsaga haybat ko‘rsatayotgandek edi... Yilqichilar yetib keldik...

Ey... yuzini teskari qilsin?! Bo‘z otning yon tomoni yorilib, qon, jini[1] to‘kilib, jonivor o‘zi, odamning rahmi keladigan ovozda kishnab, dovdirab kelyapti. Boshqa ayg‘ir-ot xuddi quyunday tezlik bilan yirtqichga haybat qiladi..

Buni ko‘rib, Qarluq amakim hayqirib chopdi:

— Voy, qayt, qayt! Qaysar!!! Qaysar!!!

Ayg‘ir jonivorlar quyunday qaysarga hujum qilishib, birin-ketin yarador bo‘la boshladi. O‘rtada turgan qaysarga Er akam tikka qaradi. Qaysar ot ustidagi Er akamga tikka otildi. Qaysar juda yomon yirtqich ekan-ov!. Xuddi oyga qarab sakraganday tik otilgan qaysarning oldidagi o‘tkir tishlari hozir ham ko‘zimga ko‘rinadi. Bir g‘alati ish bo‘lgandi-da. Shunday qattiq sakragan qaysar er akamga yetar-yetmas jelbo‘[2]ga bog‘langan tulupday, u yoq-bu yoqqa qimirlab, yerga dup etib tushdi. Biz yetib kelganimizda amakim kulib dedi:

— Voy, bechora-yey... o‘zingning ahvolingni bilmay menga qarab irg‘iysan-a? — deb, yana kuldi.

Jonivor ayg‘ir ot o‘zicha ovoz chiqarib, pishqirib, ketmay qo‘ydi.

Qarluq amakim kulib, sonini uradi:

— Vey... Qarasam, tishlarini qayrab, bo‘g‘zimdan oladigan ... Ikkala uzangini teng tepib, egarda tik turdim-da, yirtqichning ko‘zlarga tik qarab turib, naq chakkasiga soldim... Oh, qo‘lim ish berdi! — deydi er akam. Ey, senga aytsam, butun odamzotda Qarluq akamday qo‘rqms odam bo‘lmasa kerak. “Mening kuchim — kulgimda, kula olmay qolsam, o‘zimni holsiz his qilaman”, derdi alp akam.

Quyosh nurlari Oqbo‘zning kokil-yollarida o‘ynab, uning iliqligi bolaning yuz-qo‘llarini isitardi. Er akaning boyadan beri aytayotgan voqealariga berilgan Yosh tegin hech ikkilanmay “Qaniydi, men ham shu Qarluq akaday qo‘rqmas, mard bo‘lsam”, deb ichi qizib kelayotgandi.

---

[1] **Jini** — yilqining ichidagi yeyilgan em-xashak qoldiqlari.

[2] **Jelbo‘** — bo‘z uyning o‘rnidan qimirlamasligi uchun bir uchi tundukka bog‘lanib, ikkinchi uchi kemegening chetidagi qoziqqa bog‘langan qo‘sh ip.

Yozning qizg‘in pallasi atrofni qizdirayotganday edi. Olisda keng yaylov, alohida bo‘lib ko‘ringan o‘rmon, qancha-qancha go‘zal o‘t-o‘lanlarga, turli ajoyib gullarga, butalarga, o‘simliklarga to‘lgan adir va tekisliklar, o‘y-qir, ola boshini mag‘rur ko‘tarib turgan olisdagi tog‘lar, rangi qoramtir, kerilgan daryolar, chaypalib turgan yaylov to‘rlari — hammasi odamni o‘ziga rom qiladi. Usti ochiq, tagi qalin, bag‘ri keng dunyo tovlanib, go‘zalligini namoyish qiladi.

“Ey, tepaga chiqarda tirgagim, pastga tusharda suyanchig‘im — Er kishi... Seni usti ochiq Ko‘k, bag‘ri keng yer-suv qo‘llasin. O‘g‘limni sen tarbiyalagin. Otga mingazib, yilqiga ber. O‘n yoshida qiyinchilikka solib iylab pishirgin. El oralat, yaxshi-yomonni ko‘rsin. Yer oralat — yer-suvni tanisin... Bo‘ri o‘z bolasiga bosh yumalatadi, shundan keyin u bo‘ri bo‘ladi. Ko‘kto‘rning ustidagi katta qabristonga olib bor. U yerda tinch uxlab yotgan bobolar haqida hikoyalar aytib ber. O‘g‘lim “Ulug‘ so‘z”larni ham eshitsin. Ho‘v, anovi katta tekislikdagi qarag‘ayzorlarni oralat. Yo‘lbarsga o‘q otishni bilsin. Yurtning cho‘l tomondagi kengliklarida jayron quvlasin. Jiparkindik[1]ka ovga olib bor. Bu vaqtda qalbi quvonchga to‘lib, tabiatga qiziqishi ortsin. Bu jonivor jiparkindikning ajoyib ipori kun chiqish[2]da tabg‘achning podshosigacha, anavi katta ko‘lning etagidagi begona yurtgacha, quyosh tomondagi hindlarning yurti — yalangoyoq yuradiganlarga, yana to‘rgut, tirgo‘o‘t, uyg‘ur; kun yurish tomonda, ulug‘ tog‘ning narigi tomonida askari tuya mingan, oddiy kishilari filga yuk ortgan kishidan boshqa yalang‘och yurtgacha — bu keng dunyoda umrguzaronlik qilgan qancha-qancha boshlig‘i bor, podshohli, oltini to‘lib yotgan, oqillari ko‘p, kitob yodlab, bilimini oshirgan va boshqa ko‘p yurtlarga yetgan bizning iporni jonivor jiparkindik berishini Teginjonga ko‘rsat. O‘o‘, yorug‘ dunyo... bu olamda yashash davrida o‘sha

[1] **Jiparkindik** — bug‘ular oilasiga kiradigan hayvon. Uning kindigidan ifor olingan. U muskus, deb atalgan qirg‘iz ifori o‘z vaqtida juda qimmat baholangan.

[2] **Kun chiqish** —sharq. Kun botish — g‘arb. Kun yurish — janub. Tunduk — shimol.

jiparkindikni ovlash o'zi bir topishmoq. U jonivor o'q sayilgan joyini hidlaydi... "Meni otgan odam, sen endi mening kindigimdagi iporimni behuda sarflama, ol, ol!" deganday ko'zi javdiraydi.

O'g'lim yaxshi-yomonni ko'rsin, bu dunyoning rohatini, qo'rqinchini boshidan o'tkazsin ... Xayr! Mening vasiyatim senga omonat..."

Hozir Erkishi qadrdon do'sti Er Kulchurning vasiyatini oqlab, omonatni qabul qilib, Yosh teginni ergashtirib yuribdi. Agar u baxtsiz hodisa tufayli vafot etsa, iloj yo'q: kim o'limni la'natlaydi? Tirikligida yonida turgan yigitni Erkishi tezdan qayishday iylaydi — uni xuddi o'zidek qo'rqmas qilib qo'yadi. Qo'qqisdan yonidagi yigitni ajalga berib qo'ysa, unda Erkishi omonatni bajarmagan bo'ladi.

Erkishi degan nomini o'chiradi. Qadimdan buyon bobolardan qolgan mardlikning yuksak ishonchini oqlay olmasa, yomon bo'ladi. Bunday baxtsiz hodisa yuz bermasin. Tasodifan, shunday voqea sodir bo'lgan taqdirda, el Erkishining mardligini baholasa baholar, lekin uning hammasini keyingi ojizligi yuvib ketadi...

Gap shu yerdaki, bu vasiyat bosqin, askarlikning katta yurishlarini o'tab yurgan qiyin kunlarda odamlar haqiqatni, halollikni, mardlikni mahkam saqlab, uning nomini shon-shuhratga belab, uni davom ettirib, nasllarning xor bo'lmasligi uchun unga qoldirilgan vasiyat! Hozir Erkishi o'sha vasiyatni bajarmoqda ...

TEKEMERGEN

Alpning ko'nglini qoldirma,
Otning belini yag'ir qilma.
Eski maqollardan

Erkakning g'ayrati ham em.
Maqol

Shilvi, chizg'anoq kabi butalar ko'zga tashlanadi. Do'lananing rangi o'zgarib, archa, chetan qiyalikni qoplab borayotganday.

Kichkina jilg‘alardan buloq sizib chiqadi, daryo shoshib oqadi. Qamish aralash qora qiyoq chayqalib, yakan chiqqan botqoqli ko‘lchalar yaltirab, yuqoridagi kulrang kungay tomonda qaqroq adirlar yastanib yotibdi. Ko‘rinishidan o‘sha bo‘z adir kaltakesak, ilonning makoniga o‘xshaydi. Tepa tomondagi do‘nglikdan oshib sho‘ng‘igan sor to‘g‘ridagi butali, tobulg‘ali betni ko‘zlab, tezlab uchib bormoqda. Bechora ilon toshning ustida isinib yotgan yeridan sor[1] ilib ketsa kerak, boshi sorning changalida, tanasi bilan u yoq-bu yoqqa buraladi.

Yosh tegin og‘zini ochib, unga hayron bo‘lib qaradi:

— Er aka, sorning changalida ilon ketyapti.

Erkishi iljayib qarab, ming‘irladi:

— Sorga ovqat kerak. O‘o‘, bu kichkina sorning ilonni tutib olganini qara? Endi tez uchib, maza qilib ketyapti...

— Uni nima uchun ilon chaqmadiykin-a?

— Chaqtirmas yo‘lini topadi ...

— Sho‘rlik ilon ...

— E, Teginjon, Ko‘k osmon bilan qo‘ng‘ir yer o‘rtasidagi talash-tortishni boshlagan faqat odam, deb o‘ylaysanmi? Ana, yerda sudralib yurgan ilonni sor olib ketdi. Xuddi shu vaqtda tuyoqli[2]ni ozuqli[3]lar yorib ketyapti-yu?! — Yosh tegin hali ham ag‘rayib, ovoz chiqarmadi. Erkishi afsuslanganday soniga shappatiladi:

“Tu-uu... Anovi Ulug‘ tog‘da, qor bosgan qoyalar orasida ko‘m-ko‘k muz qoplagan tosh qichig‘iga qisilib qolgan takani bir ilbirs sudrab chiqdi. Ey, yirtqich-yey. Yirtqichliging qolmas ekanda? Birni yoki ikkitani yorib yesang ham to‘yasan-ku?! Qoyalar orasiga qamab qayvaranlarni qirib yuboradi, deysanmi?... Qoyalar bo‘zlaydi, tosh yig‘laydi. Daraning ichi qizil qon. Ustida burgut aylanib, ovoz chiqaradi, quzg‘un bir tarafdan qurqullaydi. Anovi besh qirning narigi yog‘ida kalxat o‘limtik izlab aylanib uchib yuradi. Bunday qarasang, bag‘ri keng yerning qo‘yni talash-tortishga to‘liq — uv tortgan bo‘ri elikning bolasini yamlamay yuta-

[1] **Sor** — yirtqich qushning bir turi.

[2] **Tuyoqli** — elik, kiyik, qoraquyruq, bug‘u, maral, g‘ulja, jiparkindik — hamma o‘txo‘r hayvonlar.

[3] **Ozuqli** —arslon, yo‘lbars, ilbirs, bo‘ri, qaysar kabi barcha darrandalar.

di. Ko'l tubidagi baliqlarni suv burguti ovlaydi. E, voh ... ne, ne zo'ravonlik bor bu dunyoda?!

Bir uyur jiparkindik oydin tunda ko'ringan sehrli sharpaday, oq shiyroqlari buralib-elas ko'rinib, qizg'ish sur yag'rinlari yalt-yult etib, adirga qarab qochib borayotgan edi. Ular suhbatga qiziqib, jiparkindik uyurini o'tganini payqamay qolishgandi. Uyur ancha uzoqlashib borayotgan edi.

— Er aka! Anovi qochayotganlar chiroyli kiyiklar ekan. Otib olaylik.

Ular otlariga qamchi bosishdi. Katta to'riq bilan Oqbo'z yonma-yon yurib, suvlug'ini silkitishdi. Doimo urushda, hujumda va poygada chiniqib qolgan jonivorlar qamchi soldirmay yelib uchmoqda. Hatto shabada ham yo'q, havo dim edi. Birdan izillagan shamol yurib, betga urildi. Tepalik, qir va tekislikdan yo'lni qisqasini tanlab chopishdi. Endi o'q yetib boradigan masofaga kelganida Erkishi Yosh teginni ogohlantirdi:

— Navbat seniki! O'q ot!

Otda chopib kelayotgan Yosh tegin kamonni cho'zdi. O'qning chiyillagani jonivorlarni juda qo'rqitib yubordi, shekilli, avval bo'linib, keyin tirqirab qochdi ...

Erkak jilovni tortdi:

— Bo'ldi, o'g'lim... O'qing bu safar ham bekor ketdi.

Adirga tarqalib ketgan jiparkindiklarni Er kishi bezovta qilmadi. Yosh teginning jahli chiqdi. U xijolat tortdi. Necha marta o'q otib, nishonga tekkiza olmaganiga yig'lagisi keldi. Tovoni qizigan otlari suvlug'ini cho'zib intiladi, oldinga chopgisi keladi..

Yana bir tizma ustidan pastga qarab yurib, qalin o'rmon, qamishli tog' etagida kelayotgan edilar. Tasodifan chinqirgan ovoz keldi. Birozdan keyin jim bo'ldi. Bu ayolning ovozimi yoki erkakning ovozimi? Bilib bo'lmadi. U, hatto odam ovoziga ham unchalik o'xshamay qoldi. Ovoz kelgan joyni izlab, atroflarni qarab shoshilishdi. Biroz vaqt o'tgach, old tarafdagi ko'rinmaydigan joydan tovush aniq eshitildi:

— Otajon, tirikmisiz?

Ovoz bolaniki edi.

Ular tovush chiqqan tomonga shoshilishdi.

Yengi kalta, yo‘l-yo‘l ilbirs beshmantcha kiygan, lekin etagi kalta, qo‘l-oyog‘i uzun yalangbosh bola tizzalari bukilib, chalqancha yotgan odamning boshini suyab, bezillaydi:

— Otajon, otajon... Ichaklaring chiqib ketyapti. Nima qilayin?...

Oq oralagan sochlari hurpaygan yalangbosh kishi ikki qo‘li bilan o‘z qornini o‘zi yuqoriga yig‘ib bosib, bola qo‘rqmasin, deganday xotirjam dedi:

“Qindan pichoqni ol. Qorin moyidan qo‘l uchiday kesib olib, og‘zimga sol[1]! Keyin, keyin... Chuvalgan ichagimni yig‘ib, ichimga sol! Yorilmabdimi? Yorilmasa, yaxshi. Qo‘rqma! Bosib turayin...

Erkishi nima bo‘lganini anglab, otdan tushdi.

— Qo‘rqma, o‘g‘lim.

Yarador kishi Erkishini ko‘rmaganday bo‘lib, gapini davom etdi:

“Qo‘rqma... Men o‘lmayman....Otangning go‘ri... Hech bo‘lmaganda meni yo‘lbars olsa-chi.... Yarador bug‘uni orqasidan quvib, adashib ketmayin, deb shoshilib kelayotsam, bexosdan chiqqan qobon meni urib o‘tdi. To‘ng‘iz bo‘lmay o‘l, o‘zining jonidan cho‘chidi, shekilli. Men unga tegib nima qilaman. O‘ylamagan ish bo‘ldi-da. Yo‘q yerdan qornim yorilib... ichaklarimni ko‘rib... bola qo‘rqib... Yaxshi kelding. Kamardagi cho‘ntakda ipak ip bo‘lsa kerak, igna ham bor edi. Olib yur, deb bechora ayolim yana nimalarnidir soldirib qo‘ygandi...

Yarador tishini tishiga qo‘yib, zo‘rg‘a dedi:

— Unutmang, qorin moyimni og‘zimga solib, qornimni tikib qo‘ying!

Yechingan Erkishi hazillashib kulgan bo‘ldi:

— Men seni taybas[2] yorib ketibdi, desam... Qobonga oldirgan epsiz ekansan-ku! Chida, o‘zingni qo‘lga ol. Hozir qorning tikiladi! Teginjon, quruq xashaklardan to‘plab, chaqmoq tosh bilan o‘t yoq, Akangning terligidan o‘yib, kigiz kuydir...

---

[1] Qorni yorilgan odam o‘zining yog‘ini esa, yara tez bitadi, deb ishonilgan. Bu marosim ba’zi joylarda, hatto XIX asrda ham qo‘llanilgan. (Muallif izohi)

[2] **Taybas** — yo‘lbarsning kattaroq turi.

Teke ovchisi tishlarini qattiq qisgan holda ogohlantirdi:

— Qorin yog'ini og'zimga soling?

— Ie, eshitganingni esdan chiqarmaydiganlardan ekansanku! — dedi Erkishi. Tekeni gap bilan chalg'itdi. — Qorin moyingni qobon yulib ketibdi.

— Obbo, yo'q deganda, bir chimdim qolgandir. Yara gazak olmay tuzalib ketadi. Insonning o'z moyi o'ziga em, dori ...

— Haqiqatan ham, eshitganingni esdan chiqarmaydiganlardan ekansan... Endi bu Umayning dorisi, deb yutgin! Erkishi ko'karib, buralgan ichaklarni qoringa solib, yorilgan joyni bosdi:

— Qo'rqoqqa o'xshaysan, qo'rqma! Yorilgan joyni tikib, kigizning kuyugini bosib, bog'lab qo'yaman... Bo'ldi. Yaxshiyam o'tkir ozug'i bor qobon tilibdi. Tekis kesibdi ... Biz ozuq emas, jancharga yorilgan qorinlarni ko'rganmiz. Boshi yorilsa, qadatib, shiyrog'[1]i sinsa, shaqshaq[2] qo'yib tang'ib, oyog'ini qanjig'asiga bog'lab olib, qayta jangga kirgan alplarning joni temirdan ekanda. Biz bo'lsa, bu yerda qobon tilgan qorinni bosib, hushimizni yo'qotamiz ...

Tishini tishiga qo'yib arang chidab o'tirgan Teke so'radi:

— Kinoyalaring jonimga tegdi...Sen o'zi kimsan?. Erkishi hazillashdi:

— Otam qirg'izning Erkishisiman! Ovozingni chiqarma! Bo'lmasa, qolgan qorningni men yoraman!

Teke o'tkir ko'zlari bilan termilgan holda jim bo'lib qoldi. U Erkishini bilar edi. Halidan beri qattiq og'riqning zarbidan (va u haqiqatan ham ko'p qon yo'qotib, rangi oqarib ketgan edi) Erkishini tanimay qolgandi. Erkishining ismini eshitdi-yu, o'zining ismini tilga olmadi. Ko'p yillar oldin hujum qilayotgan kuchli yovga bu odamning urug'i yashirincha yordam bergan, o'sha paytda Tekening yigit kezi edi. Cho'g'ultur ham hali Erkishi nomini olmagan yosh yigit edi.

O'shanda yosh polvon sifatida nomi chiqib kelayotgan Cho'g'ulturni o'ldirish uchun Teke yashirincha borib o'q uzib, uni

[1] **Shiyroq** — boldirning old tomonidagi suyak.

[2] **Shaqshaq** — shiyroq singanda bog'langanda qo'yiladigan yog'och. Shiyroqqa yog'och qo'yib bog'lanishi shaqshaqladi, deyiladi.

yarador qilgan. Tabibning muolajalaridan so‘ng Cho‘g‘ultur omon qolgan. Keyinroq mish-mish tarqab uni otgan to‘lo‘sning mergani Teke ekanligini Cho‘g‘ultur eshitgan. O‘sha Teke shu. Keyinchalik Cho‘g‘ultur Erkishi nomi bilan atalib, butkul yurtning jasuri, yovlarni ayamay qiradigan, lashkarboshisi bo‘lganda, shu Teke bir vaqtda shunday mard odamga o‘q uzgani uchun o‘zini yurt oldida aybdor hisoblardi. Ich-ichidan ezilib, o‘zini o‘zi la’natlardi. U elning urf-odatini qo‘llab, o‘zi Erkishining oldiga borib, aybini bo‘yniga olishni ham o‘ylagan, lekin unday qilolmagan.

Hozir uning yorilib ketgan qornini tikarkan, Erkishi uni masxara qilib ham turardi:

— Ee...otang o‘zi mazasi yo‘q qo‘rqoq bo‘la turib, o‘g‘lim, ovga chiqishga qanday jur’at qildi, a?

Ko‘z yoshlari yonog‘igacha oqib, qurib qolgan yigitcha Erkishiga indamay yordam berardi.

— Epchilgina bola ekansan. Yomon otangga ergashsang, unga o‘xshab qo‘rqoq bo‘lib qolarmikansan, o‘g‘lim?

Tishini tishiga qo‘yib, rangi ham sarg‘aya tushgan Teke rostini aytdi:

— Haqiqatan ham qo‘rqoqman... Erkishi...

— E-ha, shunday qilib tan oldingmi?

— Tangri meni atayin jazoladi...

Erkishi kulgan bo‘ldi:

— Seni qobon yorib ketganiga mening nima aloqam bor? Bu qanday gap?

— Ey, Erkishim... meni shu safargi o‘limdan qutqar... Qamchimni bo‘ynimga ilib, o‘qni tishlab, oldingda kechirim so‘rayman. Kechirarsan?

Qandaydir bir muhim voqea sirini fahmlagan Erkishi kulmay, hazillashmay sekin dedi:

— Biz er urf-odatini bajaramiz! O‘lmaysan, tuzalib ketasan!

— Sog‘aysam, qaniydi ...

— Ota-bobolarining urf-odatlarini bajarmaydigan odamni senga o‘xshab qobon yorib ketadi.

Tekening butun badani durr etdi. “U bilarkan.” Keyin sekin dedi:

— ... o‘shani ayting ...

— Chegarada katta dushmanga qarshi chiqsang, yaxshi.

Tekening ko‘zlari xiralashib, holsizlandi. Sarg‘aya tushgan rangiga qarab, Erkishi: “O‘o‘, o‘q tekkur... o‘lib qolmasmikin? Agar qon ko‘p ketmagan bo‘lsa, bu yaraga odam o‘lmaydi. Ko‘rinishidan o‘zi sal bo‘shroq, shekilli. Haqiqiy mergan bunaqa yaralarni ko‘zga ilmaydi ... “

— Teginjon, menga ichimlik olib kel-chi.... Teke tishini tishiga bosib, qattiq og‘riqdan ezilib qiynaldi. Chekkasidan munchoq-munchoq ter oqdi. Uning qattiq qiynalganini ko‘rib, Erkishi uni jerkib qo‘ydi.

— Sen haqiqiy ovchi emas ekansan. Agar haqiqiy ovchi bo‘lganingda, bunday qilmasding...

Teke zo‘rg‘a gapirdi:

— Jon qiynalyapti-da... Erkishi uning tomirini ko‘rdi:

— Joning qursin... Joning ham o‘zingga o‘xshash dirillagan ko‘r chivin[1]ga o‘xsharkan-da. Tepangda dirillab turibdi....

Manovi ayronni yutib yubor! Joning og‘zingga qo‘sha kirsin... — Erkishi Tekeni boshini sal ko‘tarib, ayron ichirdi. U biroz o‘ntadi, keyin, entika-entika ayron ichdi va ko‘nglidagini aytdi.

— Rahmat... Meni saqlab qolding...Erkishi hazillashdi:

— Yo‘lbars hujum qilganida, bu o‘zi yo‘lbars ekan, deb, sirtlon tashlansa, mayli, sirtda o‘laversin, der edi. Haligi yomon qobonning tishlari tekkanida, ko‘r chivining tepangga dirillab ucha qochibdi. Eh, shu qo‘pol odam ham o‘lmasin. Tog‘u tosh kezgan mergani yomon qobondan o‘libdi, desa, to‘lo‘s yurtiga gap tegib qoladimi, deb sening urug‘ingni mazax bo‘lishidan saqladim. Titrab turgan ko‘r joningni qanotidan olib, ayronga solib, senga ichirib yubordim. Endi o‘lmaysan!

Teke davom etdi:

— Ha-a, ... endi o‘lmayman ...

Teke Erkishi kalaka qilganday g‘ayratsiz va nochor kishi emas edi. O‘z avlodlari hurmatiga sazovor bo‘lgan askar, ovchi, mard kishi sifatida tanilgan edi. Yurishda yuzboshi bo‘lgan. U ovulda

[1] Ilgari qirg‘izlarda kishining joni ko‘k chivinga o‘xshash chivin degan ishonch bo‘lgan. (Muallif izohi)

yurtning donishmandlari safiga qo‘shilgan. Erkishiga o‘xshab boshiga ish tushgan odamga o‘zi yordam bergan. “O‘lim qo‘rqoqni o‘zi qidirib topadi”, deb maqol aytgan Teke yuz askarni boshlab, hayqiriq solib, tabg‘achlarning askarlariga qarshi borgan.

Urushda ko‘p odam yarador bo‘ldi. O‘shanda oybolta tegib, bosh suyagi yorilgan Teke yovdan arang qutulib, boshiga quyqum bostirib, qayish bilan chirmatib ovulga kelgan. Mard desa, mard, chidamli desa, chidamli Teke faqatgina jarohatga, og‘riqqa chidab qolmay, boshiga tushgan og‘ir kunga, katta qayg‘uga g‘ing etmay chidagan tosh yurak kishi. U uch marta uylandi. Uch ayoldan yetti o‘g‘li va besh qiz ko‘rdi. Uch o‘g‘li jangda halok bo‘ldi. O‘rtancha xotini va ikki qizini elini chopgan dushman asir qilib olib ketdi.

Qo‘rqmasligiga Kergen ismli sher bolasi ham sabab bo‘lgan. Kergen mohir ovchi bo‘lgunga qadar ovga chiqib, Qora tog‘da bexosdan yo‘lbarsga oldirdi. To‘qnashuvda olgan jarohatning og‘rig‘iga chidab, qancha fojiali kunlarni boshidan kechirgan Tekening shu yoshda suyanchig‘i yonida yurgan Yo‘lbarsi. (Mard o‘g‘li Kergenni yo‘lbars o‘ldirgan yili tug‘ilgan o‘g‘liga uning arvohini shu o‘g‘li olib yursin, deb Yo‘lbars deb ism qo‘ygan.) atak-chechak bosa boshlagandan boshlab, unga yo‘lbars bolasining terisidan jilbirski daaqi kiygizdi. U bu yoqda tursin, o‘g‘li tug‘ilishi bilan Qora tog‘ning orqasiga o‘tib, Kergenni o‘ldirgan yo‘lbarsning izidan soyaday tushib, uni otib, yuragini olib, qonini chiqarib, go‘dak Yo‘lbarsni yo‘lbarsning qoni bilan og‘izlantirgan. “Yo‘lbarsday olg‘ir bo‘l, o‘g‘lim, yo‘lbarsday qo‘rqmas bo‘l, o‘g‘lim. Otangning qayg‘usi tuganmas. Uni yurtni bosib olgan yov, Kergenimni o‘ldirgan yo‘lbars yana ham ko‘paytirdi. Esonomon ulg‘aygin, mard bo‘l. Qayg‘umning yo‘qolishiga yordam ber. Meni zaharlagan qayg‘um yov bilan yo‘lbarsning boshiga to‘kilsin.”

Ana shunday irim va xohishlar bilan Teke kenjasi Yo‘lbarsga ovchilikning yo‘l-yo‘rig‘ini, askar bo‘lishning sir-asrorlarini astoydil o‘rgatdi: o‘g‘lini mohir mergan, qo‘rqmas askar bo‘lishini yurak-yurakdan xohlardi. O‘g‘li ot ustida katta bo‘lsin, deb yilqichilarga ham qo‘shgan. U merganlikda mohir bo‘lsin, deb uni

o‘zi bilan ergashtirib ovga olib chiqardi. Hali yosh bo‘lsa ham, qo‘l-oyog‘i suyakli, o‘zi baquvvat, muchalari katta bo‘lib o‘sgan Yo‘lbars yigitlarday ko‘rinardi. Harakatlari yengil, hushyor, sergak, chaqqon. Unga birovga bildirmasdan duo qilgan otasi: “O‘o‘, Ko‘k tangri, tilagimni ber. Yo‘lbarsim yo‘lbarsday bo‘lsin! Yovdan yurtini qo‘riqlaydigan mard bo‘lsa, qaniydi? O‘g‘limga jonim fido bo‘lsin! Yumshoq suyaklari qattiq bo‘lsin, boldirlari to‘la bo‘lsin. Yurt qidirtib, el tanitaman, yer kezdirib, yer tanitaman. Tilaklarimni ber, ey, tangrim!” — derdi.

Qattiq jarohat olgan Teke o‘ylagan tilagiga yeta olmaydiganday o‘kindi, g‘am chekdi. Erkishini ketkazmadi. Qisir emdi toy so‘yib, ikki kungacha Erkishi bilan Yosh teginni mehmon qilib hurmatini joyiga qo‘ydi. Og‘a-qarindoshlarini chaqirib, ularni Erkishiga, Yosh teginga topshirdi. Keyin Yo‘lbarsni ham topshirdi. Topshirardan oldin boshini ko‘tarib, tinch o‘tirgan Teke sirini ochdi:

Qadimdan beri bizga dushman bo‘lib kelgan anovi tabg‘achlar ipagini tortiq qilib, odamning ko‘ngliga yoqadigan so‘zlarni aytib, boylikka aldangan aqli kalta beklarni, lashkarboshini, biyni hiyla-nayrang bilan qo‘lga tushirdi. O‘yi buzuqlar odamlar orasida kelishmovchiliklarni keltirib chiqardi. Elning birligi buzildi. Biri pastga, biri toqqa qaradi. Xuddi shunday kezda yov bizni osongina bo‘ysundirdi, o‘ng‘ay o‘ljaladi.

Og‘zi qurib qolayotgan Teke qimizdan yutib, gapida davom etdi:

— O‘sha aldangan jonlardan biri men edim, yurtim, O‘zgalardan ko‘proq o‘lja olishni orzu qilib, o‘zimning qondoshim Erkishiga yovlashdim. Ho‘o‘, o‘sha Oqchambilning belidagi qirg‘inda dushman askarlariga lochindek hujum qilib, ularni surib yurganingda, Erkishim, bexosdan kamondan o‘q uzib, seni yarador qilgan buzuqi iflos men edim. Keyin aqlimni yig‘ib oldingga otimni yetaklab borayin, dedim. Borolmadim. Qo‘rqdim. Men aybimni tan olishdan uyaldim. Sendan uyaldim. Yurtdan ham uyaldim, qo‘rqdim... Ey, Erkishi, bir qarashdayoq meni qo‘rqoq ekanligimni bilding. Men qo‘rqoq ekanman. Muqaddas yerga boshimni qo‘yishdan oldin men o‘zimning buzuqiligimni olib ketmayin. Undan yer jirkanadi. Seni menga Tangri o‘zi uchrashtirdi. Nopok-

ligim tufayli og'a-inilarimning ko'zicha boshimni kes! Boshimni uch katta yo'lning ayrilishiga tashla. Mard odamlarga xohlagan yomonlik mening boshim bilan ketsin!

Erkishi ham, Yosh tegin ham va uning qarindoshlari ham jim o'tirishardi. "Aytadiganini aytib bo'lsin. — Aytsin, — dedi Erkishi ichida. Boshini olamanmi, uch katta yo'lning ayrilishiga tashlaymanmi? Bu keyingi ish... "

Teke tizzalab yurib, boshini yerga qaratib, aybdorday o'tirgan Yo'lbarsga ishora qilib, gapini Yo'lbarsga aytganday bo'ldi:

— Yo'lbars, sen o'zingning mard otangni topding! U seni urushda askar, tinchlikda mergan qilib olib yuradi. Sen er otangga omonatsan! — Keyin u jim o'tirgan og'a-inilariga qaradi: — Sizlar hammangiz bunga rozi bo'linglar. Yaxshilar yurti o'z egasiga oq niyat bo'lsin. Biz aqldan adashib, yotga yondashib ko'rdik. Bu ishimiz bilan biz obro' topmadik. Yengildik, to'zdik va xo'rlandik. Endi donishmandlar yurtining begini Tangrining o'zi bizga yubordi. Yurtimizning boshiga baxt qushi qo'ndi! Bunga qari-yosh hammangiz quvoninglar. Bundan keyin hech kiming yotga yondoshib, o'zga buzuqilik qilmang. Buni meni aytdi, deb eshiting. O'zimizning donishmandimiz mard Teke aytdi, deb eshiting. Qani, bo'lmasa, mening bu safarim oq bo'lsin: oq tayloqni so'ydiringlar. Uning qonini xo'playin. Keyin Erkishi meni o'zing bo'g'izlagin. O'z qo'ling bilan, o'zingning xanjaring bilan yovni bo'g'izlaganday qasos olayotganday, qaytmas bo'lib achchiqlanib bo'g'izla!

Turinglar, og'a-qarindoshlar! Marosimni bajarishga kirishing.

Halidan beri indamasdan, tizzasini yerga qo'yib, aybdorlarday o'tirgan kishilarning ikki-uchtasi irg'ib turishdi. Haqiqatan ham, ular o'zlari hurmat qilgan mard Tekening aytgan hukmini bajarishmoqchi ekanligini sezgan Erkishi qo'lini ko'tardi:

— Qani, o'tiringlar-chi!

Ular qayta o'tirishdi. Erkishi sekin gapirdi:

Teke, sen meni dushman demagin! Yo'q! Senga dushman emasman. Senga sening yurtingga yov emasman. To'qnashuvda xon ham o'ladi. Ming o'qdan biri meni yaralagani rost. Ie, jangda askar yaralanmaydimi?! Ilgari bir bexosdan bo'lib o'tgan falokatni gina qilib, hozir yonimda o'tirgan yurtingni egasiz qoldirmayman.

Bobolar udumini hurmat qilib, sirni ochiq aytding. Men bu jasur jangchi an'anasiga bo'ysunmay qo'ya olmayman. Oq toyloqni qo'ying. Oq uloqni so'yinglar. Teke ikkovimiz uning qonidan xo'plab, quchoqlashib, do'stlashaylik.

Oq uloq so'yildi. Halidan beri qimizdan maza qilib ichib o'tirgan el go'sht pishgandan keyin go'sht yeyishdi. Keyin yarador Tekeni o'rnidan suyab turg'izishdi. Erkishi ikkovi yurt udumi bo'yicha to'shlarini tekkizishib, quchoqlashib, yelka tegdi qilishib, jonajon do'st bo'lishdi.

Erkishi keskin dedi:

— O'o', do'stim Teke! Yo'lbarsni menga qo'shing? Yo'lbars yurishda jangchi bo'lsin, tinchlikda donishmand bo'lsin. Yer ko'rib, el tanisin!

Shunda Yo'lbarsning onasi Jagul va boshqa qarindoshlar hammasi qo'llarini duoga ochishdi.

— Usti ochiq osmon, bag'ri keng zamin sizlarga kuch-quvvat berib tursin. Otaning alp kuchi, onaning oq suti senga kuch qo'shsin, o'g'lim, quvvat bersin, chirog'im. El chetida — chegarada yurganingda bizni qo'riqla. Ovulda, o'ynab kulganingda bizga tayanch bo'l, o'g'lim! Yer-suv, seni qo'llasin!

Yo'lbars chavandozni fotihadan so'ng ola chipor g'unonga mindirib, chipor yo'lbars to'nni kiydirib, yelkasiga kamon osib, qo'liga gurzi berib, ota-ona, og'a-qarindoshlari Erkishiga qo'shib berdi.

Ular siyrak o'rmonni oralab, bo'zarib turgan kulrang tepaliklarning narigi tomoniga o'tib, ko'rinmay qolgunlaricha tashqarida Teke va uning qarindoshlari jim qarab turishdi. Qachon qirdan oshib, otliqlarning qorasi ko'rinmay qolganda, Teke xitob qildi:

— Mening yo'lbarsim haqiqiy yo'lbars bo'ladi! Haqiqiy yo'lini endi topdi! Yurtim, endi ko'nglim tinchidi. Oltmish besh yoshimda men sizlardan ajrashaman. Mening jasadimni Qorasengirga qo'yinglar. Toshga qobonning suratni chekib qo'yinglar ...

"Mardning g'ayrati em —dori. Qayg'urma, Teke, yaxshi bo'lib ketasan! — dedi chol.

ER TEKESHNING O'LIMI

Inson o'ladi. Yaxshiligi qoladi.
Qadimgi maqol

Yenisey, davrida qirg'iz qo'l hunarmandchiligi o'zgacha rivojlangan. Ularda temir va boshqa metallarni qazib olish va qayta ishlash birinchi o'rinni egalladi.
L. A. Yevguxova. "Qadimgi davrda Janubiy Sibir".

Endi ular uchta bo'lishdi.

Ikki kunlik yo'ldan keyin yilqichilar qo'nishida dam olishdi. Ular qisir emdi toy so'yishib, qimiz shopirib, Erkishini izzat-ikrom qildilar. Yigit chog'i yodiga tushib, yayrab o'tirgan Erkishi bir qancha ajoyib voqealarni ko'z oldiga keltirib, hikoya qilib berib, yilqichilarni hayratga soldi. Eng qiziqarlisi so'z ustasi Shapning ko'rsatgan hunarlari uni birinchi marta ko'rib turgan Yosh tegin, Yo'lbars va Erkishi bu yoqda qolib, har kuni u bilan birga yurgan yilqichilarni ham lol qoldirdi.

O'sha vaqtda Shap o'ttiz yoshda, bo'yi pastroq, juda ozg'in edi. Bo'yiga qaraganda bo'yni, barmoqlari nomutanosib uzun. U yaltiragan ko'zlarini yumganday bo'lib, qiliq qilib, go'ng kalxatni o'xshatmoqchi bo'lganida qalpog'ini boshidan olib qo'yadi. Boshining tepasidagi tozi yaltiraydi. Qisiq ko'zlari bilan termilib, ingichka bo'ynini oldiga chiqarib, uzoqlarga qaraydi. Iyagi tortilib oldiga yana ham chiqsa, bexabar odamning qarshisida o'limtik izlagan go'ng kalxat paydo bo'ladi.

— Kalxatning o'limtik poylagani. — U bo'ynini yana ham cho'zib, ko'zlari termilib tumshug'ini oldiga chiqarib qo'yadi. Keyin u yovvoyi mushukning o'limtikni qizg'angani, deb tezdan tusini o'zgartirib yuboradi. Ko'zlarini yumib-yummay, barmoqlarini g'alati qilib bukib, o'limtikni tirnog'i bilan titib, qizg'anish holatini ko'rsatadi.

Yilqichilar kulaverib, bag'ri ezilib qoladi..

— O'zi, o'zi ...

— Bu odam bolasi emas. Jin tashlab ketgan sasitqi ...

— Biz uning ota-onasini bilamiz. Odam bolasi bu...

— Ee, yo‘q ... o‘lsin, jin bu. Qo‘y, deng! Jigarim ezilib, o‘ladigan bo‘ldim...

Shunda Shap yovvoyi mushukka yaqinlasha olmagan, toshning daldasida o‘zini u yoq-bu yoqqa tashlab tinchini yo‘qotgan tulkini o‘xshatadi. Ko‘zlari tez-tez yumila qolib, tumshug‘i turila tushganda unga qarab turganlar kulgidan o‘zlarini qo‘yarga joy topolmay qoldilar.

— Ey, jin, to‘xta, deyman... bo‘ldi, bo‘ldi... Yosh tegin bilan Yo‘lbars boshqalarga qaraganda maza qilishdi, qiqirlab rosa kulishdi. Shap esa birda hayvonni, birda odamni va birda jeztumshuqni qiliqlarini ko‘rsatib, kuldira berib odamlarni charchatdi.

— Vah! — dedi Erkishi kulib. Buni ayol kishi tuqqan emas, odamdan bunday jonzot tug‘ilishiga ishonib bo‘lmaydi.

Kulgisiga bahaybat gavdasi titrab, Erkishi Shapni yoniga chaqirdi:

— Qo‘lingni ko‘rsat-chi, qiziqchim!

Shap barmoqlari tarvaygan ozg‘in kaftini Erkishining kaftiga qo‘ydi. Erkishi chin dildan dedi:

— Odamning qo‘li ekan! Ha, odamning qo‘li!.. Yilqichilar gap kutib indamay qolishdi.

— E afsus, — dedi Erkishi. — Agar shu qo‘llar bilan oybolta ushlasang, qattiq urarding. Aytgancha, qo‘lingda kuch ham bo‘lmasa kerak?

— Ie?! Shap qo‘lini cho‘chiganday tortib oldi. — Unday demang-da, amaki?! Men shu qo‘llarim bilan jinning devini bo‘g‘ib o‘ldirganman ...

— Jinning devini deysanmi?

— Nima bo‘lmasa? Qodirxonning qalin o‘rmonida yolg‘iz kelayotsam, qora dev bir to‘nkani quchoqlab uxlab qolibdi. Bunday qarasam, tuyaga o‘xshab ko‘rindi. Minib olib uyga ketayin, deb o‘rkachiga chiqsam, tuya emas, dev ekan. O‘sha zahotiyoq Shap akang devning tomog‘iga shartta yopishib qoldi. Qo‘rqib ketgan dev turib qocha boshladi. Men uning tomog‘iga osilib qoldim. U qo‘rqqanidan yana ham tezroq qocha boshladi ... Bir paytda qarasam, u bo‘g‘ilib qulab boryapti. Bu itning tagida qolib ketmayin, deb tumshug‘iga oyog‘imni qo‘yib turib, bir sakrab qarag‘ayning

ayrisiga minib qoldim. Dev o'ldi. Men qarag'aydan tushib, uyga keldim ...

Erkishi kulgan bo'ldi:

— Sen shunchaki qiziqchi emas, lofchi ham ekansan, Shap.

— Ie, lofchi deganing nima?! Shap Erkishiga tik qarab, ko'zlarini pirpiratdi. — Yolg'on aytsam, tepa sochimni ko'rmay qolay. O'tgan yili anovi tog'da yolg'iz kelayotsam, atrofimni bir to'da chiyabo'rilar o'rab oldi. Chiyabo'rilar ustimdan kulishdi. Men ularning ustidan kuldim. Chiyabo'rilar meni qitiqlashdi. Men ularni qitiqladim. Kulaverib, tog'dan pastga qarab quladim. Chiyabo'rilar ham quladi. Bir payt hammamiz jarlikka yiqilib tushdik. Men odamman-ku, jarlikdagi archani tutib omon qoldim. Chiyabo'rilar pastda shovullab oqayotgan muzday suvga birin-ketin cho'lp-cho'lp etib tushib, oqib o'ldi. Men uyga sog'-salomat keldim...

Shapning qiziqchiligi va hayratlanarli hikoyalari to'xtamay, o'sha tuni Erkishilar uxlaganday bo'lmadi. Ertalab yilqichilar bilan xayrlashayoganda, Shap turnaga o'xshab bir oyog'ini ko'tarib, ikkinchi oyog'iga suyab, bo'ynini cho'zib, Erkishiga dedi:

— Dushman kelsa, menga xabar bering, Er aka! Avvaliga turna bo'lib uchaman. Keyin tuyg'un bo'lib sho'ng'iyman, keyin dushman sarkardasining qo'liga qo'naman. Kumush tasmam bo'ladi. U mening qanotlarimni silaydi. Men uning ko'zlarini cho'qib olaman, — deb Shap lochin kabi chirillab, kerilib, u yoq-bu yoqqa yurib qo'ydi.

Erkishi kulib, otini bostirarkan:

— Bor bo'l, Lochinim. Chegaraga dushman kelganda, men seni chaqirib olaman!

O'sha otni bostirganda aytilgan gap sabab bo'lib, Shap — lochin bo'ldi. Uning g'alati qiyofasi, ajoyib qiliqlari, sarguzashtlari, harakatlari, aytgan yolg'onlari esga tushib, Yosh tegin bilan Yo'lbars bolalarcha maza qilib kulishadi. Ularga qo'shilgan Erkishi ham xursand.

Mollar o'tlayotgan adirlardan o'tib, daryodan kechishib, o'sha yerdagi o'rmonning cheti bilan uchovi bemalol kelishardi. Daryodan yig'i ovozi eshitildi. U avvaliga ayanchli uliganday bo'lib,

keyin xuddi odam, bo'lganda ham erkak kishi yig'lagandaу edi. Bo'lsa, bo'lmasa yoshroq bola. Uchalasi yig'i chiqqan tomonga otlarini shoshirishdi. Yig'i yaqinroqdan eshitila boshladi. Ular qalin tolni aylanib, ochiq tomonga chiqishdi. Odam ham, mol ham emas, qandaydir bir yumaloq narsa jilib borayotganini ko'rishdi. Yosh tegin sestayib, jim qoldi. Yo'lbars pichirlab so'radi:

— Aka, bu haligi Shap qiziqchi aytgan devning urug'idan bo'lib yurmasin?

"Bu nima bo'ldiykin!" deb Erkishi uni taniy olmay borardi. Darhaqiqat, u tanib bo'lmaydigan yumaloq bo'lib, bosh-oyog'i bilinmay, o'zi yurib borayotgan bo'z qopga o'xshardi. Erkishi otini tepindi:

— Nimasi bo'lsa ham, borib ko'raylik.

Uchovi otlarini chopib yetishdi. Aslida bu to'ldirib ko'mir solingan qop ekan. Uni yosh yigitcha orqasiga ko'tarib olibdi. O'zi hech narsaga qaramay ovozini chiqarib yig'lab kelardi. Unga yetib kelgan otliqlarni ham sezmadi.

— Voy, otam, oh... O'ldi-i, o'ldi-i...

— To'xta, o'g'lim! — dedi Erkishi. U to'xtamadi.

— Oh, o'ldi-i, o'ldi-i....

— Kim o'ldi?

— Otam ...

— Nima bo'lib o'ldi?

— Qora bo'g'rani, otamni yo'lbars yorib ketdi ... oh ...

— Sen qanday qilib omon qolding?

Qop ko'targan yosh bola yoshga to'lgan ko'zlarini pirpiratib endigina Erkishiga qaradi. Keyin u yig'lashni to'xtatdi. U yig'lab-xo'rsinib, qiyinchilik bilan dedi:

— Biz ko'mirchi edik... Otam ikkovimiz tayyorlagan ko'mirni bo'g'raga ortib, konga yetkazardik... Erta tongda otam bo'g'rani topib kelaman, deb ketgan. Kelavermadi. ... Keyin izlab borsam, bo'g'ra ham, otam ham o'lib yotibdi ... Oh, otam, otakem-aay ...

— Yig'lama, o'g'lim, — dedi Erkishi yigitchaga rahmi kelib. — Otangning ruhi rozi. Yo'lbars olgan kishi u dunyoda sher bo'ladi. Sening otang mard kishi ekan. Avliyo kishi ekan, sen unga quvongin.

— Endi meni uradi, — dedi yigitcha yutkinib. — Meni Dev aka uradi.

— Dev akang qayerda?

— U konda... Temir erityapti. Ko'mir tugadi. Tezroq kelgin, degan. Bo'g'ra yo'q, otam ham yo'q. O'zim qop ko'tarib ketyapman.

— Konda Dev akang yolg'iz qolganmi? Yolg'iz odam temir konda ishlay oladimi?

— Odamlar ko'p... Dev akam shunday. Uning achchig'i yomon. Uraveradi. O'lsang ham, uradi. O'tgan safar bir yigitni qobon urib ketsa, yomon qobondan ham yiqilasan, deb urgan. Undan keyin bir yigitni chiyabo'rilar talasa, odam bo'la turib, chiyabo'riga talanasanmi, deb urdi. Keyin bir otni bo'ri yorib o'ldirib ketsa, sen Qambar ota bo'la turib itga oldirasan, deb otning boshini to'qmoqlagan. Endi yonida yurib, otangni yo'lbarsga yordirasan, deb meni ham uradi. Yolg'on aytsam, Ko'k yutib ketsin meni. Voy, otam-aay.

Erkishi yigitchani ayab, yolvordi:

— Yig'lama, o'g'ilginam. Ismingni ayt-chi!

— Otam — Tekesh, o'zimning ismim — Bars.

— Bargining er Tekeshimi?

Bars "Mening otamni qayerdan bilasan, ey, yo'lovchi? — deganday Erkishiga hayrat bilan qaradi.

— Xavotir olma, o'g'lim, — dedi Erkishi. Bargining er Tekeshini kim bilmaydi, deysan? Yetti otasi alp o'tgan sher u...

Bars javob berdi:

— Otam, bargining er Tekeshi!

— Eee! — dedi Erkishi xayoli qochib. Men bilgan Tekesh qaytmas, jasur edi. U yo'lbarsdan o'lmagan bo'lardi. Bo'g'rani o'ldirgan yo'lbarsga qo'li bilan qarshi chiqqanmikin-a?

— Ha, amaki. Otam o'zi hech narsasiz ketdi. Uning, hatto yonida pichog'i ham yo'q edi ...

— Shunday, shunday. Afsus, yaxshi kishi edi. Ana shuning uchun ham yo'lbars uni o'ldira olgan.

Bars Erkishining aytganlariga unchalik yaxshi tushunmasdan unga anqayib qarab qoldi. So'z aytolmay yutindi:

— Otang oliyjanob odam edi, — dedi Erkishi mahzun ohangda. U yosh vaqtida senga o'xshab yig'loqi bo'lgan ekan. Yig'lamay qolsin?! U yov bilan jang qilganda, hayqirib jang qilardi. Ajaldan hech cho'chimagan. Ko'ngli tortib qolsa, har qanday botirga qarshi qurolsiz ham kurasha berardi. Qo'y, oltin o'g'lim. Yig'lama! Sen otangga o'xshagan bo'l. Ko'miringni Yo'lbars oldiga olib olsin. Sen Yosh teginga uchqashib ol. Kon uzoqmi?

Bars qopni yerga qo'yib, qo'lda eshilgan qilarqonning uchini chiqardi.

— Anovi Uchtepaning orqasida.

— Bo'l, ort, Yo'lbars...

Ular tezda qopni Yo'lbarsning otiga ortishdi. Barsni Yosh tegin uchqashtirdi. Gap-so'zga chalg'igan Bars bolalik xayoli kelib, bo'lgan voqealar yodidan ko'tarilganday jonlandi. Erkishi undan nimalarnidir so'rab surishtirardi:

— Bu yoqqa ko'chib kelganinglarga ko'p bo'ldimi?

— Bultur bahorga yaqin kelganmiz ...

— Yaqin orada ko'chmaysizlarmi?

— Kon yaqin, — deydi Dev amaki. Toqqa bir kunlik yo'l. Urush chiqmasa, el ko'chmasa, tura beramiz, deydi.

— Ie... ikki kunlik yerdan ham kon tashiladimi?

Ha, biz anovi Qorasengirda yashagan kezda ro'paradan kon tashilardi. Keyin u tomonlar xavfli bo'lib qoldi ...Erkishi beparvo dedi:

— To'polondan tangri saqlasin ... U bir zum gapirmasdan otni bostirib dedi: — Kim biladi? Keki bor tabg'achlar tinch yotmasligi ham mumkin ...

Bars bolalarcha soddalik bilan dedi:

— Dev akam, biz izgil yurtini bosib olamiz, — deydi. Izgilning qilayotganlari jonga tegdi. U yoq-bu yoqqa yuradi, yaylovni toraytiradi. Beklari bo'ysunmaydi. Biz o'sha izgil yurtini bosamiz. Buning uchun temir kerak. Temirning o'tkiri — kamonning o'qi, oyboltaning tig'i, qosqoq[1]ning uchi. Oh, badbo'y yaramaslar. Uxlamanglar. Temir qoldi, — deydi Dev akam. U hammamizni uxlatmaydi. Erta ketaylik, deb otam erta turgan...

[1] **Qosqoq** — yalov bog'lanadigan uzun sop.

Otasi esiga tushgach, Bars yana piqillab yig‘ladi:

— Endi meni Dev akam kaltaklaydi ...

— Yig‘lama, urmaydi, — dedi Yo‘lbars. — Er akam bor! Er akam urgizmaydi.

— Ha, — dedi Bars ishonmay. Dev akam qo‘rqmas kishi. U aytganini qiladi.

Erkishi eshitgisi kelib, jim kelardi. Halitdan beri hayron bo‘lib kelayotgan Yosh tegin, to‘g‘ridan to‘g‘ri so‘radi:

— Dev akang o‘zi odammi?

Bars unga hayron bo‘lib qaradi.

— Ha, odam ...

— Unda nimaga Dev aka deysan?

— U o‘zini devning jiyaniman, deydi. O‘zi asli bizning urug‘dan.

— Kattami?

— Katta! Soqoli jingalak, ko‘zlari qizil. Juda g‘alati kishi. U jahli chiqqanida, yonida hech kim chidab tura olmaydi. Haqiqatan ham, devga o‘xshaydi. Uning onasi Kuluk opani ilgari bosqin paytida qoya tubidan topib olgan ekan. U shunaqangi tez yugurar ekanki, hatto otga yetkazmay qo‘yibdi. Chindan ham devning qizi ekan, deb odamlar aytishardi. Dev akam bo‘lsa, onasi devning qizi ekanini rost, deydi. Hech kim unga gumon qilmaydi. Yolg‘on desa, Dev akam unga baqiradi. O‘sha yolg‘on degan kishi yerga kirib ketay deydi.

Barsning so‘zlarini tinlab, Erkishining o‘zi ham Devni ko‘rgisi kelib ketdi.

“Ol-e, u qanday odam bo‘ldiykin? Bolaning yuragiga bunchalik tegibdi, devmi, yoki boshqa narsami? Borib ko‘raylik-chi...”

Nimasi bo‘lsa ham, Erkishi Dev aka bilan sinov uchrashuvini o‘yladi. Ular yolg‘izoyoq so‘qmoqdan katta yo‘lga o‘tishdi. O‘sha yo‘ldan bir muddat yurgach, taqir kalxatning boshiday yalang‘och uch tepalikni ko‘zlab burilishdi. Buloq suvidan o‘tishdi. Kechib borarkan, buloq suvini qop-qora go‘ng qoplab olganday ko‘rinadi. Ma’lum bo‘lishicha, bu go‘ng emas, balki son-sanoqsiz qo‘noqbosh suv yuzasini qoplab olgan ekan. Ora orasida buloqdan it baliqlar ko‘rinadi. Yosh tegin egilib ot ustida

suvdagi itbaliqlarni qamchi bilan chopib o‘tdi. Bir-ikki burilishdan o‘tgandan so‘ng ro‘parasida tuproq to‘plangan bo‘z tepa ko‘rinib qoldi. Cho‘kayotgan tuyalar va undan yuk tushirayotgan odamlar yuribdi. Qandaydir bir qizarganday yerto‘laga o‘xshash bo‘rtib turgan “qurilish”ning balandligi janchar bo‘yi, yo‘g‘onligi uch-to‘rt quloch arqon yetgudek “karnay” chiqib turibdi. Uning yonida yurgan-turgan, o‘tirishib olib, bir nimalarni qilayotgan kishilar juda ko‘p.

Yuki bor tuyalar tiz cho‘kkan, yuk tushirilganlari atrofda sekin bosib yurishibdi. Tuyalar orasida ko‘p odamlar bor edi ...

Kul va issiq qo‘rning hidi burunga uriladi ...

“Aa, konning qo‘r xonasi anovi ekan. Dev aka ham o‘sha yerda bo‘lsa kerak”, — deb Erkishi otini ildamlatdi. Qanday bo‘lsa ham, bunday otliqlar kelib, ketib turishsa kerak, u yerdagilar beparvo o‘z ishlarini qila berishdi. Katta-katta uch-to‘rtta it xirillagancha hurib chiqqanda, bir-ikkitasi boshini ko‘tarib, atrofga qaradi.

Erkishi uzoqdan qamchisini ko‘kragiga qo‘yib:

— Bor bo‘linglar, birodarlar! Ko‘ruk puxta-pishiq bo‘lsin, kon temirga to‘lsin!

Ishdagilar Erkishini kutib olib, salomlashishdi:

— Horma, yo‘lovchi! Aytganlaring kelsin! Safaring bexatar o‘tsin!

Erkishi to‘xtamay, past ovozda dedi:

— Dev akaga o‘zimizning tilaklarimizni aytib ketaylik, dedik... Bunda bolanglarning biri falokatga uchrabdi...

Yalang‘och badaniga jargak to‘n kiygan saqsaygan qora kishi qayerdandir kelib qoldi. U avlod-ajdodini ham surishtirib o‘tirmay, tars-turs bosib, so‘roq qilishni istamay, xirillab yo‘g‘on ovozda dedi:

— Ha, ha! Anovi Bars bularga qayerdan uchqashib olgan?!

Barsning ta’riflashi orqali Dev akani tanigan Erkishi esa sog‘ingan do‘stini ko‘rganday otdan tusha qoldi:

— O‘o‘, Dev aka! Ko‘ruk puxta-pishiq bo‘lsin, kon temirga to‘lsin!

Dev aka Erkishiga olayib qaradi. Uning qarashida hayrat ham, g‘azab ham, vahshiylik ham ko‘rinadi. U hech unutilmas keki bor

dushmani uning oldiga o'zi kelganday ko'zini qizartirib, Erkishini yutib yubormoqchiday kinoya bilan dedi:

— Vey, sen qaysi dushmansan? Rostini ayt!

— Men begona emasman, men o'zman, Dev aka ...

— Tekesh qani? Qora bo'g'ra qayerda? Ko'mir qani? Ey, Bars?! Bars?! Bars deyapman?! Menga tezroq bildir?! Hammasi qayerda?! Bular kimlar? Uu-uu, yy-yy.

Dev aka o'zichasiga achchiqlanib, u yoq-bu yoqqa yurdi, titindi... Bars yig'lab yubordi. U hali ham Yo'lbarsga uchqashib turardi. Erkishi sabr bilan vaziyatni tushuntirdi:

— Ey, Dev aka, kuyinmang? Kuygan bilan o'tganga o'kingan bo'lmaydi. Er Tekesh bilan qora bo'g'rani yo'lbars g'ajib ketibdi... O'sha joyda yolg'iz yig'lab qolgan Barsni biz olib keldik ...

Dev aka tang qolganday, hayrat bilan aytilganlarga tushunmaganday Erkishiga engashib olayib qarab qoldi. Keyin boshidan issiq suv quyib yuborganday baqirdi:

— Yolg'iz qolgan?! Bars nimaga yolg'iz qoladi?! U nimaga yo'lbarsni chopmaydi? U qayerda, qo'rqoq kuchukni tiriklayin yutib yuborayin! Tangri! Tangri!

Erkishi qamchini yana ko'kragiga qo'yib, askarlik udumi bo'yicha boshini egdi:

— Jahlingiz chiqmasin, Dev aka! Usiz ham bola ayriliqdan sarg'ayib, azobda qolgan.

— Voy, sarg'aysa, u mis emas, odam. Uning otasi Tekesh, onasi To'r opa. U shunchalik ham qo'rqoq ekanmi? Uning qo'rqoqligini bilganimda, uni o'tgan yiliyoq konning qo'riga solib moyini sizg'irib[1] olgan bo'lardim?!

Dev aka bo'g'ildi, og'zida oq ko'pik chiqardi. Hayqirdi. Bir marta jargak to'nini yechdi, bir ko'ruk puflagan o'tning og'zidan cho'g' oldi... Erkishidan qayta so'radi:

— Ayt, ayt! Sen kimsan? Sen kimsan, deyapman?

— Oh, gajir, — dedi o'ziga o'zi Erkishi. — Bu haqiqiy erkak, haqiqiy alp kishi ekan. Qadimgilarning gajirligini o'ziga meros qilib olgan alp. Bunday gajir alp jangda o'lishini bilmaydi.

[1] **Sizg'irmoq** — moyini siqib olmoq.

U hammani o‘ziga o‘xshagan gajir va alp bo‘lishini xohlaydi. Bu odam — haqiqiy dev.

— Ayt, ayt! Sen qaysi dushmansan?!

“Buni o‘zining usuliga solayin”, deb o‘yladi va Erkishi unga kulib qarab:

— Sen bo‘la[1]ngni tanimaysanmi? Oltintog‘dagi Ko‘k devning o‘z jiyaniman! Sen O‘teken tog‘ining egasi Buurul[2] devning jiyanisan!

Dev hayron bo‘ldi.

— Bo‘lam?

Erkishi:

— Ha, bo‘lang!

— Ko‘k devning?

Erkishi:

— Ha, Ko‘k devning! Atayin sen bilan uchrashaman, deb keldim! Devlarning merosi olishish. Biri-birining ustidan g‘alaba qozonish. Ikkovimiz o‘sha tog‘alarimiz kabi olishaylik! To‘nni yech, bu yoqqa kel, qo‘lingni ber!

Bu gaplarni aytayotganda Erkishining o‘zi ham kamarini yechib, sirtidagi choponini tashladi. Odamlar hayrat bilan tikilib qolishdi. “Yo Tangrim, o‘zing saqla! Bu qayerdan kelgan polvon ekan? Dev akam buni o‘ldirib qo‘ymasa ekan, yeb tashlamasa ekan?” degan xayollar atrofdagi odamlarda bor edi.

Dev aka achchig‘iga chidamay yig‘lab yubordi. Jargak to‘nni yechib irg‘itdi.

— Bo‘la?! Bo‘la!?

— Ha, bo‘laman! Bo‘lam uchun o‘laman?!

Dev aka tog‘dan yumalagan to‘nkaday Erkishiga tashlandi. U o‘zining tezligi bilan Erkishini bosib olaman, deb o‘ylagandi. Biroq uning qo‘llayotgan usulini sezgan Erkishi kurashning yo‘lini qo‘llab, ikki qo‘lini yoyib, mushtlarini siqdi, kuchini gavdasiga yig‘di. Dev aka yaqinlashganida aql bovar qilmaydigan tezlikda uni silkib yubordi. Erkishini urib, bosib qolmoqchi bo‘lgan Dev

[1] **Bo‘la** — opa-singillarning farzandlari, xolavachcha.

[2] **Buurul** — sur, bo‘z, ko‘k ranglarning aralashmasidan paydo bo‘lgan rang, tus.

aka ikki arqon uzunligicha yerga o‘zini to‘xtata olmay yugurib borishga majbur bo‘ldi. Dev aka o‘zini to‘xtata olmay lapanglab yugurib borayotganda, Erkishi uni ko‘rsatib xoxolab kuldi:

— Aa-ha-ha! Buurul devning jiyani Buurul devga o‘xshab yugurdi. Ha-ha.

Qarishqircha bo‘yni bilan burilib yana kelganida Dev aka chindan ham izza bo‘lib, jahl bilan qaytdi. Agar bu safar usuli ish bersa, Erkishini mayib qilib qo‘yishi aniq. “Aahh! Ahh!” deb yirtqich hayvonday tez-tez nafas olib, ko‘zini qizartirib, yugurib kelib to‘g‘ridan to‘g‘ri Erkishining qo‘lidan olmoqchi bo‘ldi. Erkishi undan qochmay, unga bilagini tutdi. Narigi bilakdan olaman deguncha juda tezlik bilan Erkishi uning o‘zining bilagidan oldi. Ikkovi bilaklarini ushlagancha turib qoldi. Avvaliga Dev aka buni sezmadi. U bilagini Erkishidan bemalol chiqarib olaman, deb o‘yladi. Chiqarolmadi Qaytanga Erkishi uning bilagini qisib, burab, mahkam ushlagancha turar, qo‘yib yuboradigan emasdi. “Kuchi ancha ko‘p, kamayadigan ham emas, xavfli, odamni sog‘ qo‘ymaydi. Astoydil kirishmasam... devchalish, baxshichalish bu kimsa meni mayib qilib qo‘yishi mumkin. Men endi astoydil bo‘layin. Joni chipor chivin bo‘lib ko‘ziga ko‘rinsin ... “

Erkishi devning bilagini silkib turib, qattiq qisgan edi, uning suyaklari sinish darajasiga yetdi, qo‘llari suyakday oqarib ketdi.

Erkishi undan sekin so‘radi:

— O‘o‘, Dev aka. Ikkovimiz bo‘la ekanmiz. Tanidingmi?

“Ha, haqiqiy Ko‘k devning jiyani ekan”, — dedi ichida Dev aka va baland ovozda dedi:

— Bo‘la ekanmiz... bo‘la ekanmiz...U suyagining og‘riganiga arang chidab, tishini tishiga qo‘ydi. — Ko‘k devning o‘z jiyani ekansan.

Erkishi devga o‘xshadi:

— Ha, bo‘la. Endi devlarcha to‘shimizni to‘shimizga tekkizaylik! Erkishi bilagini qo‘yib yuborib, Dev akaga quchog‘ini yoydi. Aqlini yo‘qotayozgan Dev aka “Buning onasining alp otasi mening onamning alp otasidan alproq ekan”, dedi u o‘ziga o‘zi. Shunda yosh boladek chaypalib, Erkishini bilan quchoqlasha ketdi.

...O‘sha kuni yaqin qarindoshlari, temir konida ishlaydigan kishilar Tekeshning o‘lgan yeriga kelishdi. Chamasi yo‘lbars qora bo‘g‘rani yiqitib qoniga to‘ymasdan turib, Tekesh uning ustiga kelib qolganmi? Qanday bo‘lsa ham, cho‘chib ketgan yo‘lbars qo‘rqib ketgan Tekeshni tayyorgarlik ko‘rishga ulgurtirmay uloqtirib yuborganday ko‘rinadi. Uzun-uzun qiyg‘oq bosgan sandiqday toshga beli bilan tushib, jon beribdi. Uni ko‘rib Dev aka murdani aylanib yurdi:

— O-uu! Sirtlon! O-uu! Bo‘ri! U shunday o‘lardi ... u shunday o‘lardi: u to‘satdan o‘lardi. Ajali o‘ziga. Arvohi tirik, bizni qo‘llab yursin. Qora bo‘g‘ra bilan ikkovini birga kuydiraman! O‘zi yotgan toshni bosh tomoniga balbal qilib qo‘yaman. Tekeshning arvohi yo‘lbarsni tushasin, o‘sha yo‘lbarsning shaklini balbalga o‘ydiraman. Oh! Qadrdon do‘stim, sen o‘sha ishlarni qilgandan keyin mendan rozi bo‘l! O‘shanda rozi bo‘l!

Boshqalar Dev akaning gapini bo‘lmadilar.

— Bo‘l, bo‘l, tezroq! Tezroq! O‘tin yig‘inglar! Tekeshning arvohi rozi bo‘lsin! Yo‘lbarsdan qazo topgan odamning ruhi tirik. U odamning avliyosi, erkagi! Tekesh ingrab yotib, sassiq tumov[1]dan o‘lmadi. Mardning haq o‘limini bo‘yniga oldi, aziz sirtlon! Qimmatli bo‘ri, qimmatli ko‘kyol bo‘ri, aziz qaysar, aziz toymas! Haq o‘lim mardga loyiq: qadimgi bobolarning urf odati bo‘yicha Tekeshni askarlarday yerga qo‘yamiz.

Hamma narsa dev aytganidek sodir bo‘ldi. Tekeshni ko‘mishda qadimgi ajdodlar an’anasi davom ettirildi. Unga Dev aka rozi, Tekeshning yaqin qarindoshlari, uni bilgan quda-andalari, barcha yurt undan minnatdor.

Tekeshday mard askarning o‘limi — fojia. Dafn qilish qiyinchilik tug‘diradi. Ilgari, bundan ko‘p zamon avval, o‘lgan askarga xotinini ham qo‘shib ko‘mishardi. Urushda mingan oti, kiygan askar kiyimi, qurol-aslahalari, u dunyoda yeydigan taomlari va o‘ziga xizmat qiladigan qul va cho‘rilari mayit bilan narigi dunyoga jo‘natilardi.

Qandaydir bir sabab bilan erkakning jasadi otsiz, kiyimsiz, yeguliksiz, ayolsiz yolg‘iz ko‘milsa, tiriklar askarni qayg‘uga solib

[1] **Sassiq tumov** — gripp.

uchirdik, askar o'g'ilning mardlik ishini oqlamadik, asl maqsadini o'tamadik. U shunaqa bo'lib, jasadim yolg'iz yotib qolmasin, deb yaylovda mol boqqan, chegarada yovga qarshi urushga borgan, biz uning mardligini oqlamadik, deyishib ota-ona, og'a, qarindoshlar nolishardi, qayg'uga botishardi. Ayollar sochlarini yulib, betini timdalab, o'tga tashlanardi..

Ajali yetgan erga soppa-sog' xotinini qo'sha ko'mish el naslini davom ettirishga ziyon yetkazdi. Yosh askar jangda halok bo'lsa, uning yosh xotinini qo'sha ko'mish — hammadan ham yetim qolgan mayda bolalarning boshiga tushadigan eng yomon qayg'u. Ota-onasidan birdaniga ayrilgan yetimchalar ko'pincha, boqar-ko'rari yo'q qul ahvoliga tushadi. Yovga bo'ri bo'lgan erkak naslining qul, cho'ri ahvoliga tushishi ota arvohining ta'sirini yo'qotadi. Yana besh battar nomusini to'kadi...

Bunday og'ir fojiani ko'rgan olomon o'zlari boshdagi odatlarni o'zgartirib yubordimi? Yoki shunday qilishni donishmand ajo yoki dono sarkarda buyurdimi? Nima bo'lsa ham, o'zi o'tgan erga xotinini qo'shib ko'mish to'xtatilgan.

Er o'lsa, chamg'arak olovda. Xotinning o'zi o'tsa, qut-barakaning qochgani shu. Ikkisi teng bo'lsa, ortda qolgan o'g'il-qizning qayg'usi arimaydi. Oltin chamg'arak o'tga tushganda, uni qut-baraka joyiga qo'yib, o'g'il va qizning yetimligini bildirmay asrasin, chamg'arakni yangilasin, degan odatni qachon paydo bo'lganini hech kim aniq ayta olmaydi. Eski odat o'rnini yangisi egalladi, xolos.

Erkak vafot etganida, uning ortida qolgan ayol sochlarini yoyib, betini tirnab, qon oqizadi. Belini mahkam bog'lab, ikki buyragiga suyanib:

— Birga olib yoting, arslonim! — deb yig'laydi. Mard askar eri bilan ilgarigiday qabrda birga yotmaganiga armonini aytib, uchib ketgan askar umr yo'ldoshini ulug'lab, marsiya aytadi.

O'sha qadimiy an'anani davom ettirib, Dev aka Kuluk opani mard Tekesh bilan birga narigi dunyoga jo'natishni ham bir bor o'yladi. Har holda bu niyatini Dev aka ochiq aytganda, Erkishi bunga ko'nmagan bo'lardi. Aka-uka, qarindosh urug'lar ham bunga ko'nmasdi, albatta.

Oqibatda, Kuluk opani Tekesh bilan birga uzatilmasligini bilgan Dev akaning yanada jahli chiqdi. Qayg'urdi. "Oh, afsus, bu zaif dunyoda devlik odati bajarilmay qoldi-ku", deb qayg'urdi Dev aka.

O'rtadagi olovlangan gulxan Tekeshning tanasini qamrab olgani uchun hech kim og'iz ochmadi. Hamma olovlangan o'tga sig'indi. Gulxanning alangasi moy quyilganday barq urayotgan paytda odamlar og'ir jimlikka cho'kkan. Ichida ibodat qiladilar:

"Muqaddas olov. Tekeshning olijanob ruhini osmonga uchirgin! Mard Tekesh endi tirik arvoh bo'lib, bizni Ko'kda qo'llasin".

Ibodat, sig'inish, yolvorish sukunati...

Qachon suyaklar kul bo'lib, alanga kichrayib, o't o'chgandagina Dev aka oyboltaning sopini buyragiga tirab o'kirib yubordi.

"O'o', mard Tekesh. O'o', Tekesh alp! Sen urushda qaytarib bo'lmaydigan suyanchiq eding, alp! Meni yolg'iz qoldirma. Meni birga olib ket ...

Og'a-ini, qarindoshlar o'kirdi:

— Alpdan ayrildik!

— Oltin tog'imiz — tayanchimizdan ayrildik!

— Jangda yovni o'ldirgan jasur jangchidan ayrildik!

— Tinchlikda temir eritgan ustadan ayrilib qoldik!

— Ellik besh yoshida bizni tark etdi. Uchib ketdi, jigarim...

Qizi, kelini, singlisi marsiya aytib chuv soldi:

Kecha quyosh tutildi.
Bugun Er akam o'tdi.
Lochin tasmasin titdi.
To'r opa sochini yoydi,
Ko'chgan ko'ch toqqa taqaldi,
O'g'il-qizlar qayg'uga botdi
Bizni ola yot, armo-on... ola yot!

Hammasidan ham Kuluk opa juda qattiq kuydi. U yuzini timdalab, qon oqizib, quchog'ini yoygan holda Tekeshning orqasidan ketadiganday, Tekeshning jasadini quchoqlab, olovga birga tushadiganday intildi, tashlandi, titindi. Ammo boshqa hurmatli xotinlar uni qo'yib yuborishmadi. Ular:

— Aqling bilan bo'l. Esingni yig'! Arvoh Ko'kda. Tirik aziz yerda kun ko'radi!

— O'g'il, qizning o'sishini tila. Ularga qut-baraka bo'l, — deyishdi.

Salobatli ayollar Kuluk opani ushlab turishdi. Sochlari yoyilgan, yuzlari qonagan, qora yopingan Kuluk opa tuyaday bo'zlardi.

Bars otasining kulini ko'zaga soldi. Ko'zaning og'ziga avval qalay aralashtirilgan qo'rg'oshin quyib, uning ustiga bronza qopqoqni Dev akaning o'zi yopdi. Keyin Tekeshning kuli solingan ko'zani ko'rukning ustiga qo'ydi-da, odamlarga yuzlandi.

— O'o', el, sen eshit! Bu so'zni men, Dev aka aytyapti, deb eshitinglar! Tekesh urushda olg'a yurgan qo'rqmas jangchi edi. Ovulda tinmay ishlaydigan ko'rukchi va ko'mirchi edi. Tekeshning boltasi tegmagan yog'och ham oz. Tekesh bosmagan ko'ruk oz. Tekesh ko'p temir eritgan! Tekesh mard, Tekesh ko'kyol[1] bizning urug'ning mard odami edi! Men, qadrdon do'sti, Dev aka, sizlar birodarlari mard Tekeshni sog'inamiz. Sog'inchimiz yozilguncha uning arvohi oramizda, jasadi oldimizda bo'lsin! Yil o'tsin. Keyin yerga beraylik. Qarindoshlari sizlar rozimisizlar?

— Rozimiz, rozimiz, — degan ovozlar keldi.

— Tanishlari rozimisiz?

— Rozimiz, rozimiz, — deyishdi.

— Oilasi rozimisizlar?

— Rozimiz, rozimiz, — deyishdi oilasi ham.

— Qadrdon do'sti, rozimisiz?

— Roziman, roziman, — dedi Dev aka o'ziga o'zi. Keyin u jamoatchilikdan so'radi:

— Tekeshda haqingiz yo'qmidi? Haq aytinglar? Birovning haqini Erkishi mard Tekesh bo'yniga ilib ketmaydi. Undan qutuladigan o'g'li bor!

— Bizning haqimiz yo'q, haqimiz yo'q! — deyishdi konchilar.

— Tekesh yaxshi odammidi?

[1] **Ko'kyol** — ko'k yolli bo'ri, bo'rining yirik va abjiri, u to'da bilan emas, balki yolg'iz yuradi. Turkiylarda qo'rqmas, jasur kishilar ko'kyolga qiyoslangan.

— Yaxshi odam edi, yaxshi odam edi! — deyishdi ko'pchilik.

Dev aka kul solingan ko'zani o'zi qo'sh qo'llab ko'tarib bordi va qarag'ay shoxiga osib qo'ydi.

— Yanagi bahorgacha Tangriga omonat!

Keyin u yig'ilganlarga e'lon qildi:

— Ko'mirching ko'mirga jo'na. Karvonching kon tashi, Tuyalarni haydang. Qo'rching qo'rdagi konni eriting!

— Hammang bu bizning Dev aka aytgan qonun, deb eshitgin!

— Shoshilinglar! Qo'r bo'sh qolmasin!

ERKISHI BOG'LANDI YOKI UYSUN YERIDA

Pichoq qanchalik o'tkir bo'lsa ham,
u o'zining sopini yo'nmaydi.

Qadimgi maqol

Qulaali[1] *solib, qush qildim,*
Qurama yig'ib, yurt qildim.
Teli qush[2] *solib qush qildim,*
Tentiganni yig'ib, yurt qildim.

Manasdan

Dev akaning qanday odam ekanligini Erkishi ilk bor Barsdan eshitgandayoq bilgan. O'zi mardlikni ulug'laydigan, dushmandan, olovdan, suvdan, o'limdan qaytmagan, o'zini odamlardan boshqacha betakror va aziz, deb bilgan ba'zi odamlar: shu Dev akaga o'xshab, chindan ham o'zini boshqacha kuchli, jasur, xavf-xatardan qaytmaydigan alp sanashadi. O'zining qadr-qimmatini tanitadi. Uning qilgan ishlari uning o'ziga ataylab ishlangan harakat bo'lib ko'rinmaydi; uni unga ko'zga ko'rinmagan, biroq kishining qo'llovchisi kishi — shavkatli kishi bergan xosiyatli sir, tabarruk kuch bo'lib seziladi. Chamasi, faqat e'tiqod emas, balki sadoqat — tilak, umid birikib, Dev akani shunday alp qili-

[1] **Qulaali** — qirg'iydan kichikroq, rangi sariq yirtqich qush.

[2] **Teli qush** — tentigan, tuturug'i yo'q qush ma'nisida.

shini Erkishi bilardi. Uning o'zi ham yigitligida sal hovliqib ko'rgan. Biroq u bunday hovliqma kuchga, bo'rttirilgan nayranglarga berilmay, oxir-oqibat haqiqiy kuch-qudratga, haqiqatga, haqiqiy hunarga berilib chiniqib yetildi. Shuning uchun Erkishi musobaqalar va tortishuvlarda doimo g'alaba qozondi. U kuchga — kuch, mahoratga — mahorat, hiylaga qarshi hiyla ishlatadi. Yolg'onni rost yengadi.

Darhaqiqat, Dev aka haddan tashqari kuchli, darg'azab va hech narsadan qaytmaydigan odam. U aytganini qiladi. Mardlik tushunchasi o'tirsa, tursa, hatto uxlasa ham, fikrida bo'lib, ichgan taomi bilan qoniga singib ketgan. Uning nazarida dushmandan qochgan askar emas, balki qo'rqoq. Yirtqich hayvondan (ayniqsa, bo'ri, ilbirsdan) mayib bo'lib qolgan odam odam emas, tashqi ko'rinish bor, o'zi yo'q narsa. Otdan yiqilgan o'g'il bola qo'g'irchoqdek ko'rinadi. Dev aka askarlikni va alpliknigina orzu qiladi.

Erkishi "bo'la" bo'lish orqali Dev akani mag'lub etdi. Agar u oddiy odam sifatida kurashganida edi, Dev aka unga osonlik bilan tiz bukib, bo'ysunmagan bo'lardi. Kishiga kishi bosh ekkandek, alpga ham alp itoat qiladi. Dev aka Erkishiga itoat etishi bilan birga uni juda hurmat qildi va sig'indi.

Erkishi Tekesh jasadining kuydirilishiga va kuli ko'zaga solinishiga to'liq qatnashdi. Buni Dev aka Tekeshning arvohi sharafiga usti ochiq Ko'k Erkishini ataylab jo'natgan, deb o'yladi. Xullas, marosimlarni, taomlarni, o'likka bo'lgan qarindoshlarning, oila a'zosining — hammasida Erkishining omadli yo'li esga olindi. Hamma marosim va tadbirlar tugagach, qarindosh-urug'lar, beva qolgan Kuluk opa va Dev aka Barsni ikki qo'llab Erkishiga topshirdilar:

— Suyagi bizniki, eti seniki, Er aka. Agar yarasa, askarlikka toblang, yaramasa, o'tinching bo'lsin ...

— Bizning nasllimizdan biri yo'lingdan borsin, ustozi bo'l, ta'limingni olsin, Er aka.

— Hammangizni tirik arvoh qo'llasin! Yulduzingiz urushda o'ng bo'lsin!

Bu so'zlar aytilayotgan paytda, kon o'choqlari og'zida ko'ruklar gupillab, o'choqlarda ko'mir ko'kyolqin berib, cho'g'ning issi-

g‘i tosh va qumlarni eritdi. Qip-qizil cho‘g‘ yig‘laganday “mo‘lt-mo‘lt” tomgan qizil tomchilar ko‘payib, suvday oqa boshladi.

Otliqlar jo‘nash oldidan yodiga tushganday Dev aka shoshib borib, kon og‘zidagi qotib qolgan temirni Barsning xurjuniga soldi.

— Otang Tekeshning ko‘mirida erigan ko‘k temir. Shundan o‘zingga qilich yasatib ol, o‘g‘lim!

... Bular endi to‘rtta bo‘lib yo‘lga tushdi.

Oxirgi kunlarda kimsasiz dalalarni, bir tomoni cho‘l tekislikni bosib o‘tishdi. Tuman, tuman lashkar kelayotganday olisdan qorayib ko‘ringan qalin jonivorlar yaqinlashganda, ular yoyilib kelayotgan tuyalar ekanligini ko‘rdilar. Ikki o‘rkachi ikki o‘g‘irday tikka, peshonasidagi kokillari ipakday o‘ynab, bo‘ynining ostidagi junlari yer chizib, bemalol o‘tlagan urg‘ochi tuyalar, atan[1]lar qayg‘usiz o‘ynayotgan sutemdi taylóqlar, kaymal[2]lar, irg‘ishlab o‘yin solyapti. Ingichka chiroyli dumlarini ilonday buraltirib, boshini yuqoriga ko‘targan holda javdiragan bo‘tako‘zlarni yashnatib, “Buh...” etib ajoyib bir soyaga aylanib, usti ochiq Ko‘k bilan bag‘ri keng yerning ustida hozir uchib jo‘naydiganday.... qolaversa, tuya jonivor yolg‘iz yursa, hozirgiday erkin va sirli bo‘la olmaydi. Ko‘zlarini javdiratib, sekin-asta sarosima bosadi. Ayanchli bo‘zlaganday qayg‘uga botib, javdiragan qora ko‘zlaridan yosh tomadi.

Balki yolg‘iz bo‘zlayotgan tuya, o‘z bo‘talog‘ini izlamay, katta uyurini sog‘inar? Ha, albatta, u buni sog‘inadi! Bu sog‘inch paydo qiluvchi ta’sirli ko‘rinish qadimdan bu jonivorning his-tuyg‘ulariga o‘rnashib qolgan bo‘lsa kerak? Har holda, katta uyurning bo‘g‘ralari hushyor va odamga yaqin bo‘lishadi.

Ro‘paradan kelayotgan ulkan uyurning tuya ekanligi bilingandan keyin Erkishi yosh askarlarni ehtiyotlik bilan ogohlantirdi:

— Bu tuyaning katta uyuri ekan! Yilqi — odamga qanot. Tuya — odamga kuch!

Yosh tegin bilan Yo‘lbars tuyalar bo‘zlab yurgan dalaga qiziqib qaradi:

---

[1] **Atan** — erkak chopqir tuyalar.

[2] **Kaymal** — besh yoshdan yuqori urg‘ochi tuyalar.

Er aka, keling, yaqinroq boraylik, — dedi Yosh tegin. Erkishi uning gapini kesib aytdi:

— Uzoqdan ko‘rsang ham bo‘ladi, Teginjon, tuya dev emas, burkuldagan bo‘g‘ralar uyur bo‘lib yashashni xohlaydi, odamga yaqin bo‘ladi...Tangri qo‘llasin... Bunday katta tuya uyurining oldiga qurollangan ko‘p otliq kelmasa, bir-ikki kishini o‘ldirib qo‘yadi. Yovvoyilashgan tuya o‘z egasini tanimaydi... ana shuning uchun ko‘p mol o‘tlab yuraversin, deb qarovsiz qoldirgan.

Erkishi ikkala uzangini teng tepdi-da, egardan turib, atrofga qaradi. Yo‘lbars yana so‘radi:

— Bo‘g‘ralar quvsa, kamondan o‘q otamiz! Yaqinroq boraylik, Er aka?

Er aka kulgan bo‘ldi:

— O‘o‘, bo‘g‘ralar Dev akaday yolg‘iz emas, son-sanoqsiz. O‘qing ularga chikora. Qo‘y, shu yerdan olisroq yuraylik. Yaqin orada ko‘plab qishloqlar bor. Tuyani bizning elimiz ham, tirg‘o‘o‘t[1] eli ham, tabg‘ach ahli ham boqadi. O‘xshash, lekin hammasi birikib G‘ozioqko‘lda yashagan uysunlarga yetmaydi. U yurt tuyaning egasi O‘ysul ota avliyoning o‘zini ko‘rishganmi, bilmayman, sabab, tuya jonivor ularning boqadigan asosiy mollari. Boshqa yurt ulovga zoriqib qolganda, ulardan minglab tuyalarni olib ishlatadi. Bu elning o‘g‘il-qizi askar. Uni aytmang. Ilgarigi zamonda ularda “Tuya jangi” bo‘lgan deyishadi. U voqea bunday bo‘lgan ekan. Qasdlashgan dushman ularni bosib olish uchun hujum qilgan. O‘shanda uysunning donishmand begi o‘zining askarlarini qochdi qilib, yovni keng tekislik tarafga yo‘naltirgan. Dushman keng yoyiqni qoplaganda, bekning askarlari yashirinib turgan joydan tuyaning katta uyurini hurkitib, yov tomonga haydagan. Bilib olinglar: tuya ham, yilqi ham hurkib ketgandan keyin odamga bosh bermaydi. Son-sanoqsiz tuyalar g‘ala-g‘ovur bo‘lib, dushmanning yo‘lini to‘sdi... Eh, aldangan dushman tuya bilan urisharmidi?! Tuyalar yo‘l bermay — odamlar hayqirib, tuyalar burkillab, bo‘zladi. Ko‘kka to‘zon ko‘tariladi. Osmonni bo‘z qoplab quyosh ko‘rinmay qoldi. Keyin kuchli bo‘ron ko‘tarildi... Shunda dushman lashkari “Bizga katta ofatdan ishora bo‘ldi,

[1] **Tirg‘o‘o‘t** — urug‘ nomi.

shekilli", dedi-da, chuvalashib qaytib ketadi. O'shandan keyin ota-bobolarining og'zida:

"Tuya jangi" hikoya bo'lib, "Ulug' so'z"ga qo'shildi.

Erkishi yosh askarlarni shunday chalg'itdi:

— Shunday, tuya jonivor uyur bo'lib yoyilganda ulardan uzoq bo'l! Sababi, bu jonivorning ana shunday odatdan tashqari kuchi, ta'siri bor!

Suhbatlashib yurib, ular tuya yaylovidan uzoqlashib, buralib, sekin oqayotgan suvni kechib o'tishdi. Undan pastda bo'zargan cheksiz yaylov yastanib yotibdi. Erkishi bu ko'rinib turgan cheksiz yaylovlar bo'ylab o'n-o'n besh kun yo'l yurgandan so'ng, boshqa yurtga o'tishi haqida, bu aymoq haqida yosh askarlarga aytib, bemalol ketayotgan edi... Ular qalin chiy o'sgan tepalikka yetishganda, o'ng tomondan boyagiday quyuq tumanday qorayib, keng yoyilgan tuyalar ko'rindi.

Bars xursand bo'lib dedi:

— Qaranglar, endi buyoqda ham o'ta ko'p tuya bor ekan! Vey, bu haligidan ham ko'p ekan!

— Nima bu yerda boshqa mollar bo'lmaydimi? Ungacha ularning orasidan "zuv", "zuv" etib o'qlar uchib o'tdi ...

To'rtovi birdan tizginlarini tortib to'xtashdi.

"Tizzangni buk, dushman!" — deb aytgguncha, yerdan unib chiqqanday tuya mingan kishilar chor atrofdan paydo bo'lishdi. Ma'lum bo'lishicha, ular tuyalarini cho'ktirib, tog' oldidagi adirda o'sgan chiy orasiga yashirinib, Erkishilarning yo'lini to'sgan ekanlar.

— Ey, dushman, otdan tush! Bo'lmasa, peshonangdan otamiz! Erkishi sekin tushuntirdi:

— Bor bo'l, og'ayni? Biz dushman emasmiz ...

Ular odamni yamlab yutguday bo'lib, tuyalarini burkullatib kelishdi-da, Erkishilarni o'rab olishdi. Bo'ynining tagidagi junlari silliq, lablari shalpaygan, kesik quloq oq bo'g'ra mingan malla soqolli katta odam, g'alati boshiga katta tulki tumog'a[1] kiygan, bularning boshlig'i bo'lsa kerak, jahl bilan baqirib, tuyasini choptirib kelib, Katta to'riqni turtib yubordi. Bo'g'ra harsillab otni sur-

[1] **Tumog'a**-qirg'og'i mo'ynali bosh kiyim.

moqchi bo‘lar, uning og‘zidan chiqayotgan oq ko‘pik Erkishining yuziga sachrardi.

— Ee.. Oltintog‘ning arslonidan qo‘rqmagan bu boshim buning bo‘g‘rasining oq ko‘pigiga bulg‘andimmi? —dedi Erkishi...

— Dushman bo‘lmasang, kimsan, ey, hiylagar? O‘zing bu navqiron bolalarni aldab-so‘kib olib ketmayapsanmi? ..

— O‘zingizni bosing, og‘ayni? Men odamlarni aldaydiganlardan emasman...

— Unda kimsan?

— Erkishiman!

U biroz tinchlandi:

— Ie? Qaysi Erkishi?

— Er Kulchurning tuman boshlig‘i! Mening otam qirg‘iz yurtidan.

U ayiqdek hayqirdi:

— Aldama! Qirg‘iz yurtining tuman boshlig‘i bo‘lsang, bu yerda nega sandiroqlab yuribsan?!

Boshqalar ham unga qo‘shilib, har tomondan so‘z otishdi:.

— Yolg‘on, bizni aldab bosadi.

— Kallasini olib tashla!

— Kelinglar, bo‘g‘ralarga bostiramiz!

Eti qizib, to‘polonni qo‘msagan erkak bo‘g‘ralar uzun qiyshiq bo‘yinlarini selkillatdi. Chunoq quloqlarini yana ham yashirib, katta-katta ko‘zlaridan g‘azabini oshkor qilib, o‘rtada turgan to‘rt otliqni tepalab, surib ketmoqchiday oldinga intilib, og‘zidan oq ko‘pik purkardi.

Umrida bunaqasini ko‘rmagan Yosh teginning jahli chiqib ketdi-da, buldursun[1] qamchisini ko‘tarib, tepada aylantirib, ularga tashlangan tuyalarning bosh-ko‘ziga urdi.

— Tort, Tangrini tanimagan beti yo‘q, qaroqchi! Tuyangni tort!

— Ehhe, manovi bola jasur ekanmi? Ey, Marka, yuragiga o‘q uz ...

— Ahmoq bo‘lma! — jerkidi Erkishi uni. — Bu senga bola emas, Er Kulchurning oq lochini boshiga qo‘ngan butun bir yurtning yosh begi! To‘xta, tort hovliqqan tuyangni.

[1] **Buldursun** — o‘rimlariga qo‘rg‘oshin qo‘shilgan qamchi.

Tuya minganlar bir cho‘chib tushib, qarab qolishdi:

— Ie ... anovi sog‘ emas ...

— Hoy! — dedi saqsaygan soqolli Erkishini jerkib. — Sening aytganingga kim ishonadi? Bir yurtning tegini bilan Erkishisi bu yoqqa nima izlab keldinglar? Bu yer pistirmasida tuyasi bor, har qayerda o‘g‘risi bo‘lgan Ko‘kadir, Sardala degan yer. Bu yerdan bir o‘tsa, kun botishdan chiqib, tabg‘achga boradigan karvon o‘tishi mumkin. Bir o‘tsa, anovi Qoratog‘dan o‘tib G‘ozioqko‘lning yayloviga boraman, degan bizning yurtning katta ko‘chi o‘tadi. Ulardan boshqa yana bizning yurtga ko‘z olaytirgan yovning lashkari kelishi mumkin. Kelgan yov bu dalada mag‘lubiyatga uchrab, boshlaridan ajraydilar. Yovga qarshi kurashadigan er kishilar bizning yurtda oz emas.

Qozon to‘la go‘sht qaynab, sanoch to‘la qimiz achib, qiz-kelinlar o‘lan aytib, chol-kampirlar suhbatlashib, yurt tinch turganda bu yaylovlarga tuyalarmizni yoyamiz. O‘sha tuyalarni yirtqichlardan, ikki oyoqli yovdan qo‘riqlaydigan soqchilari biz bo‘lamiz!

Bizni mensimasdan, uyalmay bechora bolalarni aldab, “Men Erkishimin, anovi Tegin” deb yolg‘on gapirgan senga o‘xshaganlarni tiriklay yerga ko‘msam, deyman. U atrofiga qarab, dedi:

— Mening hukmimga nima deysizlar, lochinlar?

— Hukming ayni haqiqat!

— Aytganlaring donishmandlik belgisi.

— Yolg‘onchi-o‘g‘riga rahm-shafqat yo‘q!

— Ushlanglar, bog‘lab tashlanglar! — dedi malla soqolli.

Qolganlari qanjig‘adan qil arqon olib Erkishini bog‘lashga kirishishdi.

— Mayli, bog‘lashsin, — dedi Erkishi. — G‘azablari bosilsin, o‘zlariga kelishsin. Tuyaning qimizini ko‘p ichib qizib olgan erqullarning gapiradigan payti ham kelar. Kelmasa, bir yo‘lini toparmiz... — dedi va qo‘lini qimirlatmasdan tek turdi. Erkishi:

— Dushman, deb o‘ylasanglar, mayli, bog‘langlar, — dedi

Erkishi egarda qimirlamay o‘tirdi. Bars yig‘lab yubordi. Yo‘lbars va Yosh tegin qarshilik qilishga harakat qila boshlagandi, Erkishi ularni to‘xtatdi.

Bog‘langan Erkishini yig‘layotgan Barsga yetaklatdi. Yosh tegin bilan Yo‘lbarsni qochib ketmasin, deb otlarining dumini bir-biriga bog‘lab o‘zlarining qarorgohiga olib kelishdi.

Qo‘shin tuyachilar qo‘shini deb atalgani bilan u kuzatuvda yurgan katta lashkar edi. Shuncha ko‘p molni boqish va asrash bu yurtning asosiy ishlaridan biri ekan. Ortiqcha yilqi va tuyaga boy yurtning minsa, qanoti, yuk tashisa, ulovi bo‘lgani uchun bir qo‘nishdan ikkinchisiga o‘tish odatdagiday bir ish edi.

Ayniqsa, orqadan yov surib turgan notinch kunlarda irg‘ishlab turgan chopqir tuyalarga, bukullagan bo‘g‘ra va atanlarga uydagi narsalarni yuklab, o‘g‘il-qizlar, umuman, hamma birdan otni minib, ko‘ch uzatgan kezlarda Sardala shamol haydagan qo‘ng‘ir tumanday bo‘lib ko‘zga tashlanadi. Yerning beti molga, jonga jiq-jiq to‘ladi.

Ko‘chgan ko‘chday tinim bilmaydi, to‘xtash yo‘q; urushdagi qo‘shin singari selday qoplab shiddat bilan oldinga qarab yuradi. Ro‘paradan chiqqan yovga faqat askarlar emas, ot ustidagi barcha ayol-erkaklar ot qo‘yadi. Bir to‘pi yuk ortilgan tuyalarni, bir to‘pi yosh bolalarga, kasalmandlarga, qari-qartanglarga qaraydi. Yana bir to‘pi qolgan mollarni kuzatadi. Undan boshqa ot ustidagi el bir lashkar tuzib, hamma bir bo‘lib harakat qilib, yovga qarshilik ko‘rsatadi. Qancha marta jang bo‘lsa, shuncha marta maydonda mohir jangchilardan yosh yigitlar qolishmasdan jang qilishadi. To‘g‘ri, yuzma-yuz kelganda katta yoshli askarga yosh o‘spirinning kuchi yetmasligi mumkin, lekin to‘polonda, shiddatli jangda ular mohir askarlardan kam qolmasdan jang qiladilar. Tinchlik kezda ham, g‘avg‘oli kunlari ham odamlarning qalbida doimo bir odatni so‘zsiz bajarish hissi ketmaydi. Bu odat shuki, askarlik, chaqqonlik, mohirlik tundami, kunduzimi, bahordami, qishdami: “Otlan! Otlan! Dushman keldi!” degan chaqiriq chor atrofni buzganda, do‘llar urilib, surnay sadolari yangrab, birpasda lashkar to‘planganda, oyog‘i bilan bosgan erkak-ayol egarda, ot ustida bo‘lishi shart. Bir zumda tuman lashkar tashkil qilinib, shamol haydagan bulutday shiddat bilan aytilgan tomonga jo‘naydi.

Bunday notinch kunda tog'dagi yilqichilar, tuyalar ortida yurgan tuyachilar bu ishdan chetda qolishlariga aslo haqi yo'q. Tashvishli kunlarda hammadan avval ular tayyor bo'ladilar. Sababi, aynan o'sha yilqichilar, tuyachilar qo'riqlagan mol dushman qo'liga o'tib ketmasligi kerak. Bunday paytda ular molni qalin o'rmonga kirgizib, odam ko'zi tushmaydigan burchaklarga qamab, molni dushmanga bermay saqlab qolish uchun xuddi askarlarday chaqqon, hushyor va mas'uliyatli bo'ladilar. Ularning vazifasi faqat podaning chetida beparvolik bilan yurish emas, balki u yoq — bu yoqqa kuzatuvga chiqib, atrofdagi holatlardan xabardor bo'lib turish, olis masofadagi vaziyatga e'tibor berishdir. Shubhali ko'ringan odamlar yursa, ularni qo'lga olib, ularning kim ekanligini bilib turish shu molchi-askarlarning ishi hisoblanadi.

Uysun eli keyingi uch yilda uch marta hujumga uchradi. Ikki marta u molga, odamlarga unchalik zarar yetmasdan avval dushmanni qaytardi. Bir martasida esa katta ko'ch yurayotgan paytda jang bo'lib, mol va odamdan ancha chiqim bo'ldi. Shundan so'ng yaralangan yo'lbars kabi el yov yana hujum qilmasin, deb ogoh bo'lib turgan kezi. Ana shuning uchun yilqini qalin o'rmonda boqib, tuyalarni ko'zdan dalda, yo'ldan olisroq, deb Sariadir tekisligiga haydashgan. Haqiqatan ham, bu tomon yovga teskari edi.

Tuyachilar qo'shini kattasidan kichkinasigacha jangga yaroqli edi. Ular chopqir atanlarni, kuchli bo'g'ralarni tanlab minishib, o'rkach bilan taqimning orasiga gurzi va oyboltani qistirib, qosqoq ushlab, kamon osinib, yoyiqning bu chetidan narigi chetigacha ko'z ochib-yumguncha yetishadi.

Chopib qizigan atanlar bo'ynini kamon o'qiday cho'zib sakrab yugurganda, orqa oyoqlari oldingi oyoqlaridan oshib tushadi, shamolday tez yuguradi. Hayqirib-hayqirib yovni kelishini kutgan tuyachilar to's-to'polon bo'lib, kamon otishib, musobaqalashadi. Atan va bo'g'ralarni poygaga solishadi.

Yeyishi go'sht, ichishi tuyaning qimizi. Kengliklarni buzib hayqirib aytganlari o'lan..

Ko'p tuya uyurining chetida beg'am yurgan tuyachilarning biri uzoqdan otliqlarning qorasini ko'rgan. Keyin ular otliqlar-

ning yo'lini bildirmay to'sib chiqishdi. "Dushman! Dushman!" — degan ular. Shunday qilib, yovni qaytarishni xohlagan tuyachilar Erkishining dushman emasligiga ishonishmadi.

...Tuya qo'riqchilarining to'pi bu joyga yaqinda kelib joylashgani bedaka[1]ning bosilib ketmaganidan bilinib turardi. Ularni ko'rib besh-o'n nafar yigit irg'ib turishdi. Tuyalarga ortadigan chaylalarning yonida tuyaning qo'mlari yig'ilib turibdi. O'n beshga yaqin kulba bor. Har birining yonida o'n-o'n besh popuksiz qosqoq yerga sanchilib, suyab qo'yilgan. U yer-bu yerda qo'm tortilgan tuyalar bog'liq turibdi. Ular dunyoda nima bo'layotgani bilan ham ishi yo'q, javdiragan ko'zlarini ochib-yumib, tinch cho'kib, kavsh qaytarib yotishardi. Shunday bo'lsa-da, odam ustiga shap minib "Chu!" desa, u shart o'rnidan tezda turadiganday, irg'ib, o'qdek bo'ynini cho'zib, shamol kabi uchadiganday. Astoydil tashlansa, odamni ot ustidan ham, tuyaning ustidan ham olib tushadigan katta-katta boydevat itlar, tumshug'i uchli, qo'li-oyog'i uzun tayg'onlar chaylalarning atrofida yotishibdi. Ular tuyachilarni o'ziniki hisoblagani uchun ularga qarab, hurib ham qo'ymadi. Biri to'g'riga chiqdi, biri o'rnida aylanib-aylanib qo'ydi. Sariq choponini sudrab, sarg'ish tumog'asini silkitgan birov xuddi devonalarday ikki qo'lini ko'tarib, bir kulbadan ikkinchisiga, keyin uchinchisiga katta-katta qadam tashlab yugurdi:

— Tuyachilar, chiqinglar! Qaranglar! Anovi yoqda bizga qul bog'lab kelishyapti! Qul! Qul! Chiqinglar, ko'ringlar!

Odamlar shoshib tashqariga chiqishdi. Ularning orasida yoshi ulug'i ko'rinmadi. Hammasi "Kimlar?" "Qayerdan"? "Olib kelinglar"! "Kaltaklanglar"! "Sirin ayttiringlar!" deyayotday biridan biri g'arazli qarashdagi askar yigitlar. Yig'indagi so'zlari ham xuddi shunday.

— Ey, bu qaysi dushman?

— Maqsadi nima ekan?

— Otdan tushirib, kelinglar!

— Kim ekanini aytadimi? Aytmasa, oyoq-qo'lini kesish kerak! Kelganlar apil-tapil tuyalardan sakrab tushishdi. Bir-ikkitasi

[1] **Bedaka** — to'yimli yaylov cho'pi.

Erkishini qo'llarini yechdi. Shu payt o'rtadagi katta chayladan bir katta odam chiqdi. Ustida tuyaning terisidan tikilgan katta bo'z chopon, yalangbosh, keng ko'kragi ochiq, oyog'ida qo'njiga qizil kashta tikilgan, e'tibor berib qaragan kishiga arslonning shakli tushirilgan qora kigiz etik, nima bo'lsa ham, arslonning suratini qo'njiga tushirgan bu kishi oddiy kishi emasligi ko'rinib turardi. Erkishi bu odam shu yerning alpi — boshchisi ekanligini ko'rgan zahoti bildi. Unisini aytmay, uning yaltillab turgan o'tkir, haybatli ko'zlariga ko'zi tushganda, "bu ko'zni" boyagi ikki urug'ning katta urushida o'zi bilan yuzma-yuz kelganini esladi. O'shanda shu uysun yurti Kulchur eli bilan urishgan. Ikki taraf katta lashkarga ega bo'lib, bir-biriga tik tashlanishgan. Bir-biriga g'arazlashib, keki qonmagan olis dushmanlarday qattiq urishishgan. Askarlar qosqoq sanchib, oybolta ko'tarib, jon ayamasdan chopishgan. Mingan askar o'lgan bo'lsa, otlari chilvirini sudrab, irg'ishlab, oti yiqilgan askarlar oyboltasini tepaga ko'tarib, yayov yugurib... keng dala to's-to'polon, izi-chuvga to'lib ketgan. Xuddi o'sha qonli urushda Erkishi hozirgina chayladan chiqqan qushtumshuq zo'r kishi bilan yuzma-yuz kelgan. U paytda bu kishi yosh, savlatli, kuchli va jasur yigit edi. O'shanda bir-biriga oybolta o'qtalishganda uning oyboltasidan ko'ra kulimsiragan haybatli va o'tkir qaragan ko'zining kuchi uni cho'chitgan. Keyin ham o'sha urushni esga olganda o'shandagi bu kishining ko'z qarashlari uning ko'z oldiga kelardi: "Ay, polvon yigit, ay! Uning suri, qo'llagani, o'sha yonib turgan o'tkir ko'zlarida, tik qaraganida. U oybolta ko'tarmay, ancha-munchasini ko'zi bilan otib soladi", — degan Erkishi.

O'shalarni o'ylagan Erkishi hozir uni o'sha ko'zidan adashmay tanidi. Biroq o'zining kim ekanligini aytib, tanitgisi kelmadi.

Tarpang otdan tushib, haligi odamning oldida tiz cho'kdi.

— Agush aka! Oldinggizga qul bog'lab keldim!

Agush Tarpangga indama, deganday qo'l shiltadi.

Tarpang boshini egib, o'ng qo'lini ko'ksiga qo'ygan holatda jim bo'ldi. Agush ham Erkishini ko'rishi bilan tanidi. Agush Erkishiga qaraganda, Erkishi Agushga belgili edi. U Erkishining qahramonligini ko'p eshitgandi. Qolaversa, o'sha jangda Erkishi-

ning bodom qovog'i Agushning shashtini olgan. "E, voh, men olg'ir burgut bo'lsam, bu tengsiz yo'lbarsning kattasi ekan. Buning boltasidan omon qolganimga o'zim hech ishonmayman. Meni Tangri o'zi saqladi", — deb aytgan Agush bodom qovoqli Erkishini yodida saqlab qolgan.

Bu ikki alp, alp bo'lganda ham nomdor ikki urug'dan chiqqan biridan biri kam qolmas alplar, biri biridan kam bo'lmagan oriyatli odamlar edi. Ikkalasi ham qahramonliklari bilan mashhur. Haqiqatan ham, Erkishining hozirgi ahvoli o'ziga ham kulgili tuyildi. "Oh, dunyo, dunyo", — dedi u. — Bir kezda uning boltasini sindirgandim, bugun uning oldiga bog'lab olib kelishdi. Shu haqiqatmi?

Erkishi shularni o'ylab, o'zining ustidan o'zi kuldi.

Agar Agush bobolar an'anasini unutib, mardlik-askariy qoidalarini buzsa, Erkishini qanday xo'rlatsa, haqorat qilsa, qanday jazolasa, o'zi biladi. U hozir hech narsa qilolmaydi, chunki bog'langan. Uni mudofaa qiladigan birorta ham jangchisi yo'q.

Agushning askarlari bu to'rtovini uloq qiladiganday...

Ammo Agush Erkishiga iljayib qaradi:

— Ey, horma!

— E, bor bo'l? — dedi Erkishi. Uning ovozida hech qanday ranjish yo'q. Faqat qayg'uli ohang bor edi.

Agush uni payqadi va uni sinab ko'rdi:

— Ahvoling qanday?

Erkishi javob bermadi. Agushga qarab tamshanib, jilmaydi.

— Javob berishni xohlamaysanmi?

— Ko'ryapsan-u!

Tarpang bukilib, shoshib dedi:

— Bu aldamchi, begim. Erkishiman, deydi ... Seni nimang Erkishi?! Bu yoqqa kelguday u odamning boshiga qanday kun tushibdi ...

Agush Tarpangga tanbeh berdi:

— Bo'ldi. Nariroqqa bor.

Keyin Erkishiga topishmoq aytdi:

— Ko'z yig'lasa, yosh tomar, Quyosh yig'lasa, ne tomar? Bu haqda menga ayting! Atan o'lsa, qo'm qolar. Otim o'lsa ne bo'lar?

Bu haqda menga ayting! Yolg‘iz oqqush uch turnani ergashtirib, ko‘kka uchibdi. U neni ko‘zlaydi? Uni ham aytib ayting!

Erkishi boshini sal ko‘tarib, sekin dedi:

— Ko‘z yig‘lasa, yosh tomishini o‘zing aytding. Quyosh yig‘lasa, qon to‘kilishini men aytay. Tubi bir el bir-biri bilan yovlashsa, ilgarigiday qon oqmaydimi! Atan o‘lsa, el qirilishini men aytay. Boyagiday yayov qolganingda uysun eli qirilmaganmidi? Yolg‘iz oqqush uch turnani ergashtirib, ko‘kka uchganini ko‘ribsan, uni nima ko‘zlaganini men aytay: oqqush qurqullab bepoyon ko‘lni juda xohlaydi. Turnalar yaxshi niyatlar bilan qanot qoqadi.

Oqqush suzadigan ko‘l va turnalar kezib uchib yurgan bag‘ri keng yer g‘uborsiz bo‘lsa, deydi. Turnaning asl qanotlari yetgan yurt ahli g‘amga botmasa, deydi. Ana shularni xohlagan oqqush turnalarga yo‘l boshlab uchib kelmoqda.

Javobdan ko‘ngli to‘lgan Agush bosiqlik bilan dedi:

— Ha, donishmandim, bu aytganlaring menga yoqdi. O‘zing nima deysan?

Erkishi afsuslandi:

— Nima deyishim mumkin? Quyosh yig‘lamasin deb, oqqush uchdi. Oqqush bolalayman, degan ko‘lni yo‘qotaman, deb orqadan dev chiqdi. Uni nima qilamiz?

Devni to‘saylik, desak, o‘chog‘imda o‘t yonadi. Achchiq tutun ko‘zlarimni achishtirdi. U ilgarigiday bo‘lmay qoldi. Buni qanday qilamiz? Uning ishi nochorlamasin, desam, otliqni tuya mingan yov qatori ko‘radi. Ular ikkovi yovlashsa, o‘rtada qarg‘a-quzg‘un to‘ylashadi. Uni qanday qilamiz?

Agush Erkishining jumbog‘iga javob aytmasdan chin dildan kuldi-da, hayron bo‘lib qarab turgan tuyachilardan so‘radi:

— Ey, qimizga qonib, go‘shtga to‘yganlar! Bu “o‘g‘ri”ning gapini kiming tushunding? Qani, tushunganing ayt-chi! Tushunmasag, og‘zingga tariq solganday daming chiqmay tursin.

Jag‘ida yarasi bor sariq bola oldiga o‘tib sal egilib, tiz cho‘kdi:

— Agush aka, ruxsat bering? Topishmog‘ining javobini bu odamga men aytayin. Bu odam muqaddas zamin oyoq osti bo‘lmasin, el-yurt g‘amgin bo‘lmasin, deb tilar ekan. Bu tomonda qasd qilgan dushman bor, Uni qanday qilib bartaraf qilamiz, deydi.

Dushmanga qarshi kurashaylik desak, aqli zaif hoqonlar, hovliqqan beklar odamlar o‘rtasidagi ittifoqchilikni ketkazishmoqda. Buni qanday qilamiz, deydi bu odam. Bir bo‘laylik, desak, bir-birimizni bilmaymiz. Bilmoqchi bo‘lsak, mana bunday qilib yovlashamiz. Birimizni birimiz qarg‘a va quzg‘unlarga yem qilamiz, — deydi bu odam. Jag‘ida yarasi bor bola bukilib, so‘zini tugatdi:

— Agush aka, xato qilsam, jazolang. Adashmasam, biz yov deganlar o‘zimizdan ekan. An’ana bo‘yicha xulosa chiqaring. Ikki el bundan keyin ittifoq bo‘lsin, yovlashmasin. Meni shularga qo‘shing. So‘ranaman, qo‘shing. Otasiz edim, otalik bo‘layin.

— Bo‘ldi.

Agush shunday chechan bolani boshqa yerdan kelgan yot odamga bergisi kelmadi. U shu gapni aytolmay, to‘xtab qoldi.

Yosh tegin askarlik odatini bajarar ekan, dedi:

— Biz yot emasmiz, o‘zmiz. Bundan keyin bir-birimizni bog‘-lab yurmaylik. Kelib chiqishimiz bir, uysunning quluni mening do‘stim bo‘lsin.

“Ie, donishmand ajoning quluni tagi toza insonni tanib kishnadi-yu”, — degan fikrni ichidan o‘tkazdi Agush va:

— Xo‘p, borsin, yetim qulun otalik bo‘lsin, — dedi.

* * *

Hiylang arslonni ushlaydi,
Kuching sichqonni qochiradi.
Qadimgi maqol

Ilgari tuya poygasi bo‘lardi.
El so‘zi

Erkishini adashmay tanigan Agush uning “dushman” emasligini ham bildi. Nima uchun yigitlarni ergashtirib, yurt oralab, yer kezib yurganligini tuydi. “O‘o‘, dono taybas! Mard donishmand do‘sti Kulchur uchib ketgandan keyin uning xonlik o‘rnini bosadigan o‘g‘li yosh, degan. Ha, o‘g‘il yosh, er og‘a uchib ketgan lochinni hurmat qiladi. Jangchi muqaddas qadriyatni davom ettirib, bu donishmand bolalarni boshlayin, elni, yerni ko‘rsatayin, bilim berayin, degan. Boshlasin, boshlasin.

Agush Erkishini alohida chodirga joylashtirdi. Tuya qimizini shopirib, ikki o‘rkachi o‘g‘irday kaymal so‘ydirdi.

— Uzoq yo‘l bosib, yer kezibsan, taniganga shavkatli kishi arslon dedirding. Tanimaganlar seni “o‘g‘ri” deyishdi, ey, alp! Otlaringizni dam oldirib, o‘zingiz hurmat-ehtiromda bo‘ling. Yotlar hujum qilsa, mollarimiz urushga to‘sqinlik qilmasin, deb otlarni o‘rmon yoqalatib, tuyani Sarijaziqqa haydab, uysunning katta eli hozircha tashvishsiz yashamoqdamiz. Kuzatishga otlanadigan lashkar bor. Boshga tashvish tushsa, xotin, bola-chaqa otda. Qamchi ko‘targanki erkaklar urushda bo‘ladi... Odamlarimizning bir nechtasi tuyalarni kuzatib, o‘zing ko‘rgan yerda yurishibdi. Yuklash, ortishga kerak bo‘ladigan lo‘k, atan-bo‘g‘ralar, qisir va bir-ikki sog‘ilgan tuyalar ovulda turibdi. Ko‘k saqlasin. Dushman qo‘liga o‘ligimiz tushsa tushar, lekin yilqi, tuya tushmaydi. Yuk va kon ko‘targan tuyalarning kuchi yurtni boyitadi, rivojlantiradi. Qirq kun sahroda xorib-tolmagan asl molni minsang, qanot: qolaversa, ikki urug‘ elning urushida otliqlarni tuya mingan qo‘shin yo‘q qildi...

Shularni aytib Agush otdan tuyaning ustunligini maqtab yuborganligini his qilib, xoxolab kulib yubordi. Keyin keng ko‘kragini kafti bilan siypalab, qiyqirdi:

— Oh, Tarpang, manovi “o‘g‘rilar”, “Tuya poygasi” bilan “To‘y o‘yini”ni ko‘rsin. Tayyorlaninglar.

Erkishilar tuyachilar qarorgohida ikki kun bo‘lishdi. Kengjayiqning Sarijazig‘ini o‘tlagan katta uyurning qo‘riqchilari ham, egalari ham o‘zlari. Bir uyurda bir bo‘g‘ra bo‘ladi. Hozir bo‘g‘ralarning qaraydigan vaqtiga ancha bor. Shuning uchun bo‘g‘ralar ko‘pik chiqarib, jinlanmaydi. Uyurda oq kokil va qora kokil tuyalar chayqalib bosib yuribdi. Yaylov chekkasiga otliq yaqinlashsa, uyurdagi bo‘g‘ra yer tepinadi. Boshini chayqab, “Bux” etib o‘kiradi. G‘azablanib quvgisi keladi. Boshqa uyurdan kelgan bo‘g‘rani o‘z uyuriga yaqinlashtirmaydi. Yotib, ag‘nab-ag‘nab quturganday og‘zidan oq ko‘piq sachratib, kelgan bo‘g‘ra bilan olishadi. Qisqasi, maza qilaman desang ham, qo‘rquv sezaman desang ham, olishayotgan bo‘g‘ralarga yaqin bo‘l. Bo‘ynidagi junlari

tuproqqa aralashib, bo‘yinlari bir-biriga chirmashib, og‘izlaridan ko‘pik sochib, birini biri yelkalarini bosib, tizzalab chaynashlari — mol emas, ikki ajdar, ikki yovuz narsa olishayotganday sezim paydo qiladi.

Odamlar to‘y-tomoshalarda bo‘g‘ralarni olishtirishadi. G‘alaba qilganiga katta sovrinlar beriladi. Bo‘g‘rasi yenggan nomu ulug‘, obro‘si baland, o‘zi o‘ljali va qadrli hisoblanadi. Bo‘g‘rasi yengilgan kishining obro‘si, oriyati ketadi, yulduzi pastlaydi, tengdoshlariga masxara bo‘ladi.

— Voy, bo‘g‘rang atan bo‘libdi. O‘zingga nima bo‘ldi?!

...Agush atayin Erkishi ko‘rsin, deb bo‘g‘ralarning olishishini katta maydonda, oy yorug‘ida o‘tkazdi. O‘ylaganiday, biri bo‘yinidagi osilib turgan juni qora, ikkinchisiniki oq ikki bo‘g‘raning olishgani oy nurida ajoyib, odamni o‘ziga beixtiyor tortadigan, sehrli bo‘lib ko‘rinardi. Bo‘g‘ralar olishuvning zo‘rligidan cho‘kkalab qolganda, o‘g‘irday tikka o‘rkachlari ikki tomonga silkinadi, yonboshlari bir-biriga urilganda ikki g‘aroyib narsalar kurashayotganday his paydo qiladi. Undan qo‘sh oyoqlab tura qolishib, uzun bo‘ynilari ko‘kka qaratib cho‘zib, bir-birlariga ko‘pik sochishib, qars-qurs chaynashganda, biri oq, biri qora o‘rkachli ikki ajdar olishayotganday tasavvur hosil qiladi.

Kuzatuvchilarning og‘ziga kalima kelmay qolgan, hamma jim. Ular bir-birlariga qaltirab qarashadi.

— Ko‘k o‘zing saqla!

— Tangri, o‘zing saqla!

— Oq bilan qora bo‘g‘ra bir-birini chaynab tashlamasaydi?

— Ha, O‘ysul ota...

— Jonivor-yey.

Oy ostida ikki bo‘g‘ra ajoyib kurash ko‘rsatdi... Ba’zan shiddatli, ba’zan jim. Odamlar chaynashgan bo‘g‘ralarga aldanadi. Qadimdan kelgan bir qoida bor: poygadagi otlardan biri yutib chiqadi. Olishgan ozuqlining ham biri o‘ladi. Urishayotgan alplarning biri mag‘lub bo‘ladi. Kuch bilan kuch tizgindosh. Kuchlilar har doim jangda. Ba’zan oq, ba’zan qora g‘alaba qiladi. Qora yengsa, el motam tutadi. Oq yutsa, el xavfsiz va xotirjam bo‘ladi.

Hozirgi olishuvda oq bo‘g‘ra g‘alaba qozondi. Bu yaxshi belgi.

Kunduzi olisdan zo‘rg‘a ko‘rinib turgan bo‘z tepalikdan o‘zlari tomonga atanlarni qo‘yishib, poyga uyushtirishdi. Ot poygasi o‘zicha bu shamol uchganday yengil va ko‘rkam ko‘rinsa, tuya poygasi yerdan bulut uchganday tasavvur hosil qiladi. Bu ham o‘zicha qiziqarli.

Poygada qatnashayotgan tuyalar to‘qson to‘qqizta edi. O‘sha to‘qson to‘qqiz nafar atanlarning har biri kamonday cho‘zilganda, yer chetidan berigi tomonga afsun oqqandek, sehr chuvalashganday bo‘z chang ko‘tarildi. Chang ichidagi tuya minganlar yerdan ko‘tarilib, ucha boshlagan boshqacha narsalarday cho‘zilib oqib borardi ...

Tuya poygasidan so‘ng atayin o‘rgatilgan bo‘g‘ra bilan Tarpangning olishuvi bo‘ldi. Tan olish kerak, kuchga kirgan bo‘g‘raga odam o‘ng‘aylik bilan kurashga chiqolmaydi. Bo‘g‘ra chopqir, kuchli va tishlong‘ich. U o‘qday otilganda otning uchqurini uzoqqa bormasdan bosib qoladi. Odamni bir tishlab otning ustidan irg‘itib yuboradi. So‘ng uni sichqonni ezganday tizzalab, butun og‘irligi bilan ustiga cho‘kadi. Odamni ezadi. Anchadan beri tuya jangida qatnashib yurgan Tarpang kelsak, hozircha bo‘g‘raga tizzalatgani yo‘q. (Balki bo‘g‘ra uni bosib ham qo‘yardi) Atrofda turgan tuyachilar Tarpang yengiladigan paytda uni saqlab qolishadi. Erkishini tanimay, uni bog‘lab kelgani uchun Tarpang uyat bo‘ldi. Tarpang hovliqma bo‘lganida “Men otam qirg‘izning besh alpini bog‘ladim”, deb maqtanardi. Ammo Tarpanda bunday qilish uchun hech qanday sabab yo‘q. U olishib, keyin bog‘lamadi. Qimirlamay turganda bog‘ladi. Shunda Tarpang: “Bu dushman qo‘rqdi. Ilojsizlikdan taslim bo‘ldi”, deb o‘ylagan. Ma’lum bo‘lishicha, dushman degani — Erkishi ekan. U qo‘rquvdan emas, alpni tanimagan kimsani uyat va aybdor qilishni o‘ylab, indamay turgan ekan. Tarpan kuchga kirgan bo‘g‘ra bilan kurashga kirishdan oldin Erkishining oldiga kelib, tiz cho‘kdi:

— Alplarning zo‘ri, seni tanimabman. Bu uchun men aybdorman. Jazoimni olaman. Olishayotgan bo‘g‘ra meni chaynasa, meni qutqarmanglar. Men g‘alaba qozonsam, kuchim senga, Er aka!

Tarpan yerni o‘pdi. Quyoshga qarab ibodat qildi. Keyin bo‘z ayg‘irga irg‘ib mindi.

Tantanali sukunat hukm surardi.

Qizil popukli kumush bilan qoplangan qayish no‘xtali qora bo‘g‘rani tuya mingan ikki kishi jag‘ini ikki tomondan ushlab maydonga olib chiqqanda, dumlari kalta qilib tugilgan bo‘z ayg‘irga mingan Tarpang qamchisini ko‘tarib aylantirdi va otini choptirib borib bo‘g‘rani ko‘zga ilmay jahl bilan boshiga uch-to‘rt marta chopdi va tuyaning oldiga tushib, qochdi. Shu paytda haligi ikkovi xuddi qo‘ldan qushni uchirayotganday bo‘g‘rani qo‘yib yuborishdi.

Xirillab og‘zidan oq ko‘pik sachratib jinlangan bo‘g‘ra yerni titaladi, keyin yerga yotib ag‘nab-ag‘nab oldi, ingichka dumi xuddi ilondek buralib, bo‘ynini o‘qday cho‘zdi-da, Tarpangning orqasidan uchib ketdi. Bo‘ynidagi junlari shamolda go‘yo hushtak chalganday bo‘ldi. Bo‘z ayg‘ir bo‘g‘ra yerda ag‘nab turguncha Tarpangni allaqancha joyga olib ketgan. Qamchi zarbidan alam qilgan bo‘g‘ra ko‘z ochib-yumguncha Tarpangga yaqinlashdi.

Otlig‘i otda, tuya mingani tuyada hamma qaragan elning ichidan ovoz keldi:

— Yetib qoldi.

— Bir irg‘isa, otdan olib tushadi...

— Ie , Tarpang aka, oldirarmidi?

Tuyaning oldida ketayotgan Tarpang ko‘z ochib yumguncha otni orqaga burdi va bo‘g‘raga qarab haydadi. Bo‘g‘ra unga butun tanasi bilan tashlandi. “Xo‘p” etkizib so‘rib oladiganday uzun bo‘yni endi Tarpangni otdan ag‘anatib, tizzasining tagiga bosadiganday. Ajablanarli darajada g‘azab va haybat bilan bo‘g‘raga qilingan hujum — eng qiyin va eng qo‘rqinchli ko‘rinish paydo qildi.

Selning dahshat bilan kelishi va arslonning o‘ljaga tashlanishiga bo‘g‘raning zarbasi juda o‘xshaydi. Biridan biri qolishmaydi, biridan biri haybatli, biridan biri dahshatli. O‘o‘, bunday fojiali dahshatni mardning mardi, kuchlining kuchlisi qo‘rqmasdan to‘sadi. Hech cho‘chimasdan hujum qiladi. Oddiy qora kuch dahshatli

emas. Bundayda chaqqonlik, epchillik, mahorat va qat'iyat kerak bo'ladi.

Tuyani ham ko'targan alp epsiz bo'lsa, sekin qimirlasa, mag'lub bo'ladi. Tagida qoladi. Yoshligidan chaqqon bo'lgan, yoshligidan barcha usullarni o'rgangan inson hech narsadan yengilmaydigan, hech qanday kuchga bo'ysunmaydigan jangchidir!

Tarpang ham kuchli, ham chaqqon edi. U bo'g'ra bilan ko'p marta olishgan. Ko'p marta g'alaba qozongan. Necha marta bo'g'raga chaynalib qolayozdi. O'shanda uni qosqoq ushlab hushyor turgan tuyachi-askarlar qutqarib qolishdi. Tarpang hozir bo'g'raga chaynatsa, boshqalar uni qutqarmaydi. Sababi, u Erkishining oldida aybdor. Tarpang ana shu aybni yuvish uchun Er akaga o'z kuchini, mahoratini ko'rsatmoqchi. Bu haqda boshqa odam emas, Tarpangning o'zi aytdi. Bu Tarpangning harbiy an'ananing saqlaganligi!

Urush an'analariga sodiq qolgan askar bor kuchini, mahoratini, epchilligini ishga soladi. Qon oqsa, bog'laydi va jang qila beradi. Chanqasa, ot terini yalaydi, jang qilaveradi. Oti yiqilsa, o'zi yiqilmaydi, jangni davom ettiraveradi. Holi qurib, oxirgi nafasi qolguncha jang qiladi, jang qila beradi — bu jangchining odatidir.

Bo'g'raga duch kelgan Tarpang bo'z ayg'ir shart orqaga burilguncha bo'g'raning boshiga qamchi bilan uch-to'rt marta chopib yubordi. Bo'g'ra Tarpangga yetib, endi tishlay deganda, bo'z ayg'ir chap beradi. Bo'z ayg'ir quyonday epchillik bilan u yoq-bu yoqqa tashlab yuguradi. Tarpang bor kuchini, mahorati, chaqqonligi va tezligini ishga soladi. Bo'g'rani savalaydi. O'ziga bo'g'rani yo'latmaydi. O'o', agar bo'g'ra bir martagina tishlasa edi, unda Tarpangning ahvoliga maymunlar yig'lardi. Uning ustiga salmog'i og'ir bo'g'ra o'zini to'g'rilaguncha vaqt ketadi, ayg'ir esa yengil, tez va chaqqon harakat qiladi-da. Bo'z ayg'ir bunga o'rgangan, o'zining yengil harakatlari bilan bo'g'rani Tarpangga yaqinlashtirmaydi. Go'yoki bo'g'ra bilan Tarpang emas, bo'z ayg'ir hunar solishtirayotganga o'xshardi. Oh, jonivor yilqi, ay. Oh, muloyim, kuchli, ayyor odam, ay. Og'zidan oq ko'pik sachratib turgan bo'g'ra bilan Tarpang go'sht pishishga ketadigan vaqtgacha olishishdi. Suv-suv bo'lib terlagan bo'z ayg'ir suv ichgisi keldi. Uni

mingan chavandozning ko‘zlari qonga to‘ldi, rangi quv o‘chdi, tili quridi.

Bo‘g‘ra avvalgidek tez emas, katta ko‘zlari chora izlab, o‘ch olishga harakat qilib, yutinib, bulkillaydi. O‘zini har tomonga tashlaydi. Hapriqib bo‘z ayg‘irni quvlaydi. Nihoyat, ey, odam, endi tizzamga bosayin, dedimi, kaltaklanganiga qaramay, u Tarpangni bir necha marta tishlashga harakat qildi. Chaynab tashlashga oz qoldi. Nima bo‘lsa ham, bo‘g‘raning qashqa tishi tildi, shekilli, Tarpang kiygan tuya chakmonining bir tomoni uzilib tushdi.

Ochiq bilagidan qon oqishni boshladi.

Atrofda qarab turgan odamlar chuvillab yuborishdi:

— Ko‘k Tangri o‘zing saqla!

— Tarpang holsirab boryapti...

— U qasamini oqladi. Uni bo‘g‘radan qutqaringlar...

Nima bo‘lsa ham, Tarpangning bu gaplarga oriyati keldimi, har holda u otini orqaga burdi, ikki uzangini teng tepib, o‘rnidan turdi, uni quvib kelayotgan bo‘g‘raning ikki ko‘zining o‘rtasiga buldursun qamchi bilan qattiq urdi. Tarpangni o‘ldirayozgan qora bo‘g‘ra zarbaning kuchidan uzunasiga yiqildi. Bo‘g‘rani odam yengdi. Tarpang Erkishiga ta’zim qildi.

YASHIL KO‘L BO‘YIDA

Otasining gapiga quloq solgan o‘g‘il odobli bo‘ladi.
Qadimgi maqol

... Bular endi beshta!

Erkishini topishmog‘ini topgan jag‘i yarali sariq bola Buylash ham ularga qo‘shildi. Askarlik urf-odatini mahkam tutgan Agush Erkishiga bosh irg‘adi.

Birga tuya boqishgan Agushning ikki o‘g‘li Yosh tegin bilan ko‘kraklarini bir-biriga tekkizib, do‘stlashdi:

— Eng qiyin ahvolda ham do‘stmiz. Chegaraga yov kelsa, el chetida birga bo‘laylik!

— Suyagi bizniki, eti sizniki, bir o‘g‘il, Er aka, yoningda bo‘lsin! Yovni kutgan bizning yigitlarimiz seni tanimay, seni o‘g‘ri, deb tutib oldi, qo‘llaringni bog‘ladi. O‘sha aybimizni yuvaylik. Bo‘ylash yo‘lingni yo‘llasa, lashkarboshi bo‘lsin, qo‘rqoq bo‘lib chiqsa, askarlarga otboqar, o‘tyoqar bo‘lar...

— E, voh, tentiganni terib yurgin, demaganmidi, ajom, -deb Erkishining ko‘ngli o‘rniga tushdi va tuyachilar bilan xayrlashdi.

Qora va oq marjonlar barmoqlar orasidan tushganday kecha va kunduz bir-birini quvib vaqt ham o‘tib boradi.

Yer-suv endi boyagiday tog‘li, o‘rmonli, adir, cho‘l va cheksiz maydonlar emas. Ulug‘vor tog‘lar olisda chalqanchasiga yotganday. Yirtqich hayvon tishlariday cho‘qqilar esa uzoqdan oqarib ko‘rinadi, qoyalar-u jarliklar bo‘zarganday. Borgan sari olis-olislarda o‘rmon qorayib, qo‘ng‘ir-yashil zich, chekkalarini ko‘z ilg‘amaydi. Undan beriroqda buralib ajoyib yaltirab, yashil ko‘l bo‘yi ko‘rindi. Albatta, ko‘lning suvi yashil emas, ammo atrofdagi manzara uni shunday ko‘rsatadi. Ko‘l suvi tog‘dagi yashil yaylovga o‘xshaydi. Suvning yalt-yalt qilishidan uning ko‘l ekanligi bilinadi. Aytaversang, uning atrofidagi botqoqlik ham, ko‘lning bo‘yi ham, suv ham juda go‘zal, odamni o‘ziga rom etadi.

Yosh teginning esiga yilqichining qo‘shig‘i tushdi:

Yashil ko‘lda o‘rdagim,
Kokili uzun nozigim.

Ee, iyy, nozigim.
Men urushga ketarda,
Nozigimni ko'rmadim
Ee, iyy, nozigim.

O'shanda yilqi atrofida otini sekin bostirib, Yosh tegin tinmay qo'shiq aytgan.

Qarang, Yashil ko'l shu ekan-da?

Quyosh qizdiradi, Atrof go'zal. O'zgacha bir toza, salqin havo anqiydi. Tuproq yumshoq, hosildor. Bu yerda jonivorlar o'tlayotganiga qaramay, yerdagi o'tlar yam-yashil. Ko'lmaklarning qirg'oqlari, botqoqliklar, chuqurliklar, suv bo'ylarida qamish, yakan chayqaladi. Qora qiyg'oq, mayin cho'plar shamolda egiladi. Ko'ldagi jonivorlarni ko'rib, ko'zing qamashadi. O'rdak, churrak, erkak o'rdaklarning to'pi, uyuri suv yuzasini bermaydi. Odamdan qochish, cho'chish degan narsa yo'q. Yoy tortgan ovchilar ham onda-sonda. Suvdagilar suvda, osmondagilar osmonda. Ko'zing to'yadi. Bu yerga jonivorlar shuncha to'libdi-ya, deb ajablanasan.

E, ha, lochin uchirib, o'q otib, sayohat qilib, dam olib yuradigan vodiy ko'llar shu tekisliklar ekan-da! — deydi jonivorlarga qiziqib qaragan Erkishi. Qiziqishi g'alaba qildi, shekilli, otni yeldirib kelayotib, o'q otgandi, uchib borayotgan bir to'p g'ozdan biri oldiga dup etib tushdi. Bo'lganda ham, bo'yni ko'kidan ekan.

— Otlarni dam oldirgan joyda o'tga toblab pishiramiz, — dedi Erkishi.

Yosh tegin, Jolbors, Bars, Buylashlar yoshlik zavqi bilan atrofni tomosha qilardilar. Yigitlar o'q otishib, qanjig'alarni o'rdak-g'ozga to'ldirib yuborishdi...

U yoq-bu yoqda el zich joylashgan ovullar ko'p. Chorva boqib, ekin ekib, o'zlarining tirikchiligi bilan ovora bo'lgan odamlar ularga unchalik ahamiyat ham bermaydilar. Uchrashib qolsalar, odatdagi urf-odat bo'yicha salomlashadilar:

— Hormanglar!

— Bor bo'ling, birodarlar!

— Otinglar, kiyiminglar biznikiga o'xshamaydi. Yo'lovchimisizlar?

— Shunday birodar ...

— ... Safaringlar davom etsin! Omad yor bo'lsin!

Har kim o'z yo'lida davom etaveradi.

Yo'lda tirikchilik g'amida yurgan kishilar ko'plab uchraydi. Hov, anovi tog' etagidan beri yoyilgan tekislikni katta ariqlar to'g'ri kesib o'tgan.

Qirg'oqlari yo'sinlar bilan qoplangan, suvi tiniq oqqan bu katta ariqlardan yaylovga, haydovga chiqarilgan mayda ariqlar ko'rinadi.

U yer-bu yerda ekinlarni sug'orayotgan odamlar ko'zga tashlanadi. Bo'lak-bo'lak tilkalarda ekinlar bosholomon ekilgan. Bir tilka uzun, ikkinchisi to'rt burchak, birining bosh tomoni keng bo'lsa, narigi tomoni ingichka, ola. Haydalgan uchburchak yerlar ham bor. Arpa bosh olib doni dumbuldan o'tgan, ko'k yashil bug'doy arpaga qaraganda sarg'ayib, qilqon chiqarib qolgan. Boshqa ekinga qaraganda qora tariqni yaxshi ko'rgan bu el arpadan ham, bug'doydan ham tariqni ko'p ekanligi ko'kidan ham bilinib turibdi. Bir tilka bug'doy, ikki tilka tariq. Ikki tilka arpa bo'lsa, uch tilka tariq bo'lib, ekin dalasi gohi yerlarda o'zicha bir kashtaga o'xshaydi.

Anchadan beri yo'l yurib, faqat qurtobning suvga ezib ichayotgan, go'shtdan boshqa ovqat yemayotgan Yosh tegin sutga ko'ptirilgan tariqni shimgisi keldi. Og'zida tariqning shirin ta'mi keldi, burniga qo'yning og'ir iliq sutining hidi kirdi. "Er aka, ovulga tushib sut ichib, tariq yeylik", deb aytayin, deydi, aytolmaydi. Buni aytish haqiqatan ham uyat ish. Bunday yer kezib yurganda ovul-ovulda mehmon bo'lib, ovqatning shirinini totish emas, balki chegarada, urushda yurganda qanday kun boshga kelsa, o'shani ko'rib, o'shani kutib, o'shandagiday og'ir, qo'rqinchli, g'alag'ovur kunlarni boshdan o'tkazishni o'rganish asosiy maqsad hisoblanadi. Yosh tegin buni juda yaxshi tushunadi. Bola: "Tariq yeyman, sut ichaman", deyishi tabiiy narsa. Bunday gapni Erkishi eshitsa, xafa bo'ladi...

Shu bois, chanqasa ham, qorni ochsa ham, Yosh tegin bildirmay kelaveradi. Ba'zan Erkishi:

— Ey, yigitlar! Chanqadinglarmi? - desa, yigitlar rosa chanqagan bo'lsalar ham:.

— Chanqaganimiz yo‘q, Er aka! — deyishadi. Erkishi jilovni silkitadi.

Ular ship-shiydam joylarda ham tunni o‘tkazdilar. Kunduzi jonivorlarni ovlab, tun bo‘yi yo‘rtib yurgan kezlari bo‘ldi.. Tegin bilan Erkishidan boshqalari bir-biriga yot, hech kim yo‘q joyda uchrashsa, bir-birin to‘nashib, yovlashishlari mumkin edi (Albatta, ajosu, abosu, donishmandi qora niyat urug‘larning bebosh bo‘lganlari bir talay). Bularning ichidan, ayniqsa, Barsning bolaligida ko‘rganlari shafqatsizlik va zo‘ravonlik edi. Chunki Dev akaning kimgadir qilgan zo‘ravonlik va qo‘polligini u mardlik, deb bilardi.

Hech kim yo‘q joyda ikki-uch otliqni ular bilan urinib, berilib kuch sinashishni, topishishni o‘zicha bir mahorat, deb bilardi. Binobarin, uning xulq-atvori, mehnati, gapirgani ana shunday “tayinsiz mardlik va tayinsiz hunar” haqida edi. “Qarshisidan chiqqani bir chopib, yiqitgan, arslondan ham qo‘rmaydigan”, deb maqol aytib, elni boqadigan mard odam bo‘laman, degan odam shafqatsiz va zolim odam bo‘ladi, degan fikrda edi. Mehribon, qalbi bo‘sh odam chumchuqni ham o‘ldira olmaydi-ku! O‘o‘, Tangri, unday yomonni o‘zing yo‘qotgin. Dushman senga tikkasidan hujum qilsa, unday yomonlar etagi bilan boshini berkitib oladi... Mard bo‘laman, el boqaman, desang, senga qarshi chiqsa, o‘z jigaringni ham tikkasidan chopib tashla. Shunda sen dushmanga qarshi bo‘ri bo‘lasan!”

Jasoratga intilgan Bars Dev akaning o‘sha aytganlarini to‘g‘ri, deb bilardi-da, sababi, Dev aka unga arslondan qo‘rqmas, odamdan yengilmas alp bo‘lib tuyilardi. O‘sha ishongan kishisi boyagida Erkishiga bir hujumiga ham to‘g‘ri kelmay yengilib, tiz cho‘kib, bosh egganini ko‘rganda, Bars og‘zidan oshini oldirganday ahvolga tushgan. “Ey, muqaddas Umay ena, muqaddas El-Tuqqan opa-a? Oh, g‘alati bo‘ldi-yu. Dev akani mag‘lub etadigan odam bor ekan-a?” O‘sha ajablanishdan so‘ng, u Erkishiga sherik bo‘lib ergashganidan juda xursand bo‘ldi. Hozir Erkishi uchun o‘t kelsa, kechib, suv kelsa, ichishga tayyor. Chunki bu safarda Erkishidan eshitganlari, Erkishidan ko‘rganlari uning uchun ajoyib saboq bo‘ldi. Tuyachilar Erkishini bog‘lashganda, “Dev akani purkovga keltirmay yenggan Erkishi nima uchun tuya boqqan bu

daydilarning qo'liga tushadi. Yo bularga chindan ham kuchi yetmaydimi?" deb qo'rquvdan emas, oriyatdan yig'lab yuborganining sababi ham shu.

Keyinroq Erkishining hiylasini, bilimdonligini ko'rib, o'zining yig'laganini eslab uyaldi. O'sha voqeani eslasa, qizarib ketadi, o'zini qo'yarga joy topolmaydi. Endi haqiqiy mardlik, chinakam bilim Dev aka aytganidek, yuzaki bo'lmasdan, qalb qa'rida yashiringan oliy fazilat ekanini anglab yetgan sayin Bars butunlay o'zgardi. O'zgarganida ham onasini sog'ingan boladek yuvosh bo'lib qoldi. Kim nima desa, rozi bo'ladi, og'zi ochilib, anqayadi...

Barsning o'zgargan qiyofasini o'rtoqlari ham payqashdi. Qo'rquvdan yig'lab, quvonchdan og'zi ochilib qoladigan Barsdan Erkishining o'zi ham katta umid qilmaydi. Yosh tegin bilan Yo'lbars uni masxara qiladi:

Bittasi:

— Ey, Bars sher, og'zingni ochib tur, og'zingga o'rdak tushadi! — desa, ikkinchisi undan o'tadi:

— Arslonning og'ziga yosh taka ham sig'adi?

Piqillagan kulgi va kulgi aralash qiyqiriqlar atrofdagi jonivorlarni cho'chitib yuboradi. Qamishzor shitirlab, o'rdaklar uchib chiqadi.

— Bars aka, og'zingni ochib tur. Kel, o'qni behuda sarflamaylik. Og'zingga o'rdaklar o'zi qator bo'lib tushsin.

Yana kulgi. Bars o'zi ham kuladi. Achchiqlanmasdan, izzalanmasdan hazilni bo'yniga oladi.

Agar Bars shunday qilib og'zini ochib, anqaya bersa, tengdoshlariga kulgi bo'lib, hech narsaga yaramaydi, degan nomga qo'nib, kamsitilib, otboqar bo'larmidi? Ammo uni bezovta qilgan ichki hissiyotlari tinchitmasdi. Faqat ko'rganiga va eshitganiga kifoyalanmay, u ko'proq eshitishni va ko'proq bilishni xohlardi. U vaqtini topib, Erkishidan so'raydi.

— Er aka, — dedi bir kuni Bars. — Otam ko'p narsani aytib turardi. O'zi boshqa yerda yurganday yonida biz borligimizni ham unutib qo'yardi...

Keyin o'z otam — Boy, bobom Alpyurak, undan keyingi otam Azman, undan narigi bobolarim Oquul, To'quul, Oltintamga, Qo-

dirxon bo'lgan, deb qatorlashtirib sanab qo'yardi otam. Yetti otasini tanimaganlar bizning yurtda qul hisoblanadi.

Elimiz Qodirxon tog'ida yaylovda yurgan yili bobomiz tug'ilib, unga Qodirxon, deb ism qo'yishgan. O'sha Qodirxon bobo yetti yoshida yer kezib, ko'zga otar mergan bo'libdi. Osoyishta kunlarda ekin ekib, chorvasini boqdi. Yer kezib kon izlashdi. Kon qidirib yurishganda, kiyik oviga qiziqib, Qangg'ay[1]ga o'tib ketishgan. U tomonlar bizning dushmanlarimizning yurti. Yovlashgan ikki yurtning chegaralari muqaddas, derdi, otam. U yerni bir yer o'lchovchi va elchigina bosib o'tishi mumkin. Dushmaning bilan bir tovoqda ovqat yeyish hurmat bilan tanqidga bog'liq. Unday yerda o'z uyingday harakat qilishing o'zingga ziyon bo'ladi. Yomon muomala birda bo'lmasa, birda nomusga tegadi. Bu urushga olib keladi ovulingni katta qayg'uga soladi...

Qodirxon ota o'sha Qangg'ay diyorida bug'u ovlagan ekan. Kuzatuvda turgan dushman qo'liga asir tushadi. Qo'shnimiz, suvimiz bir, dedi. Lekin kuzatuv boshchisi unga quloq solmadi.

"Sen dushmansan. Qo'limga tushding. Jim o'tir!" — deydi. Shunda Qodirxon bobo kuzatuv boshchisiga murojaat qiladi: "Ey, yovning mard jangchisi! Ishoning, biz xazina izlab yurgan odamlarmiz. El-yurt qo'shni yashab, tinch turgan kezda ikki el bir-birini qul qilib qo'yish odati yo'q. Bu harakat ikki elning orasiga adovat soladi. Agar bizni qul qilib qo'ysang, oqibati nima bo'lishini o'ylang. Anovi Qodirxon tog'ining orqasida keng aymoqda yashab kelayotgan mening elim ertaga sening chegarangga keladi. Sening yurtingda ham, mening yurtimda ham kambag'al odam ko'p. O'sha bechora elning orasiga nizo solgan kishi yomon kishi bo'ladi. Mardlar odatini buzma. Ha, sen meni qo'lga tushirding. Men bug'uning oviga qiziqib ketib, chegarangdan o'tganimizni bilmay qolibman. Sen askarlaring bilan meni o'rab olibsan. Men afsusdaman. Endi kelishaylik. Urushgan yovlarday ikkovimiz bir-birimizga ajal chaqirmaylik. Kuch, hunar bilan sinashaylik. Sinovda sen yengilsang, bizni qo'yib yubor. Do'stlashaylik. Men yengilsam, iloji yo'q, senga qul bo'lamiz.

[1] **Qangg'ay** — O'rxo'n tog'i.

— E-ha, — debdi askarlarning boshlig‘i. — Sen teshaga sop bo‘laman, degan no‘yonga o‘xshaysanmi?... Afsus chekma. Men mardlik an’anasini inkor qilmayman. Menga maqsadingni ayt! — debdi u.

Shunda bobo ikkilanmasdan javob beribdi:

— O‘q otishaylik. Kimning o‘qi baland uchsa, yutuq o‘shaniki.

— Kelishdik, — deydi u.

Bobom bilan askarlarning boshlig‘i o‘q otishadigan bo‘lishibdi. Shunda boshliqning otgan o‘qi osmonda xolday bo‘lib zo‘rg‘a ko‘rinadi. Bobom otganida o‘q osmonda yo‘q bo‘lib ketadi...

— Sen haqiqiy no‘yon ekansan! — deb kuzatuv boshlig‘i bobomga ta’zim qilibdi. Ikkalasi do‘stlashibdi. U bobomni qo‘yib yuboribdi. Ketishdan oldin, boshqa duch kelsak, bir-birimizni unutmaylik, no‘yon. Seni qul qilamiz deganim uchun kechir, deb bobomga oltin pichoq sovg‘a beribdi.

— Oltin konlarini qidirib, yer kezib, kiyik ovladik. Kiyik bizni adashtirdi. Biz dushman yeriga o‘tib qolib, ularning qo‘liga tushdik. Dushman bizni qul qilaman, dedi. Obro‘ bizni qutqardi. Biz qochib qutulmadik: biz izlayotgan oltinni topdik, — deb kuylashib, odamlar orasiga qaytib kelishadi. O‘shanda tabarruk buvimiz o‘g‘il tuqqan ekan. Qodirxon ota unga Oltintamg‘a deb ism bergan.

O‘n ikki yoshida Oltintamg‘a bobo chegarani qo‘riqlashga chiqadi. Chegaraga kelgan yov qosqoq sundi, oybolta urdi. Hech qaysi yovga yengilmadi, yengdi. El tinch yashay boshlagach, qumdan oltin chayqab, toshdan kon eritibdi. Ekin ekishib, chorvachilik bilan shug‘ullanib, o‘zi bilan o‘zi ovora bo‘lgan farzandlari bir-biriga mehrsiz bo‘ldi. Shunda Oltintamg‘a bobo: “Ey, muqaddas Tangrim, mening avlodlarimdan mard chiqmaydimi? Qilichim endi zanglaydimi? Menga ham bir mard o‘g‘il bergin, Tangrim! — deb u Uchsuv qo‘shilgan yerda uch kun yig‘ladi. Shunda suv egasi Sulaymon Uchsuvning qo‘shilgan yeridan cho‘zilib chiqdi. Bo‘yi yosh qarag‘ayday, yuzi sutdek oppoq edi. Kumush soqolining uchi suv tagida ajabtovur selkillab turibdi. Momiq qo‘li bilan Oltintamg‘aning ko‘z yoshlarini artdi: “Bor, bor, bechora, uyingga bor. Sening tilaganing bo‘ladi”, deb o‘zi sekin suvning ichiga ki-

rib ketadi. Oltintamg'a bobo uyiga kelsa, Gulerkin ena homilador ekan. Undan tug'ilgan eng kenja o'g'liga Oquul degan ot qo'ydi. Keyinchalik, o'sha Oquul bobo — Oquul degan alp, juda donishmand odam bo'lib yetishibdi. Oquul bobo hukmronligi davrida chegaradan yov ketmay, hujum kuchaydi. Oquul bobo boshlagan lashkar bahorda yoqqan qorday yov boshiga mushkullik soldi. Oquul bobo suvga va ko'lga yaqin yerlarda jangga kirganda, uning yonida arslon mingan bir oqsoqol hayqirib yurar edi, deydi eshitganlar. Cho'lda suv shovvasi sharillab, undan bulut chiqib, shamol paydo bo'lib, do'l yog'ib, yovning jonini olardi, deydi... E, ey, Er aka, elning sho'ri ekan.. Oquul bobo uzoq yashamadi, dedi otam. Bir safar bo'lgan katta savashda tabg'achning askarlari childay tirqirab ketdi. Oquul boboga qarashli yerlar o'ng, so'l tomonlarga, narigi yog'i Ulug'toqqa, bu yog'i o'tib bo'lmas o'rmonlargacha taradi. U elini yovdan qo'riqlab, dono ajo bo'lib turgan paytda Yashil ko'lga ovga chiqdi... O'shanda qirg'oqda boboga qora g'oz ko'rindi. Bobo uni otmasdan ushlab olaman, dedi. Poyladi. O'zi ko'lga qanday kirganini sezmay qoldi. O'sha bo'ydan qora g'oz Oquul boboni ko'lga tortib ketibdi. U jo'n g'oz emas, suvning otasi Sulaymon pir ekan. U o'zi bergan o'g'ilni odamga berishga ko'zi qiymay, o'ziga chaqirib olibdi... Oh, yurtimizning sho'ri, ado bo'lganligi, der edi otam. Aytishlaricha, Oquul bobo yurt boshqargan vaqtida san'atni rivojlantirib, harflarni ko'paytirib, o'qishni davom ettirarmidik, deydi donishmandlar... Oquul bobodan yolg'iz farzandi qoldi. Uning ismi To'quul. To'quul bobo davrida elimiz hech qanday dushman tahdidiga duch kelmadi. To'quul boboning nomi boshqa yurtlarga ham yetib borgan. Ana shuning uchun bizning yurtimiz o'ttiz yilcha hech tashvish tortmay tinch yashagan.

O'sha davr To'quul bobo boshqargan davr edi. To'quulning o'nta o'g'li bor edi. Eng kichigi Azman bobo! Endi Azman boboni ayta ko'rmang! U tabarruk, alp desa, alp, arslon desa, arslon. Bilim desa, bilim! Bu, xuddi Oquul bobosi kabi yerni quyqalaydigan, xohlasa suvni yoqib yuboradigan bo'ldi. Bechora naslining sho'ri: Azman bobo Oquul boboday yosh paytida o'z ajali bilan uchib ketdi, lochin bo'ldi. Azmandan uch o'g'li qoldi. Ik-

kitasi — molboqar. O‘rtanchisi — Alpyurak arslon chiqdi. Endi keling, bolalar, Alpyurak katta otamning arslonday bo‘lganligini men aytayin, sizlar yaxshilab quloqqa quyib olinglar, derdi otam. O‘n yoshida chegaraga kuzatuvga chiqqan, o‘n besh yoshida yakka sayish[1]ga qatnashgan. O‘limdan qo‘rqmaydigan, ajoyib bahodir, ko‘kyol bir necha marta o‘z askarlaridan bo‘linib qolib dushman qurshovida ham yurdi. Mard Alpyurak o‘ldi, deb bir to‘da askarlar mardning o‘limiga yig‘lab o‘tirganda, yorilgan boshini tang‘ib yoki singan oyog‘ini qanjig‘aga bog‘lab. Gurkirab yetib kelar ekan.

Otam bir necha lahza gapirmasdan, tizzalariga boshini qo‘yib o‘tirib, ich-ichidan xo‘rsinib qo‘yardi:

— Alpning o‘limi yovdan bo‘ladi. Tabg‘achlar bilan bo‘lgan katta jangda Alpyurak yov lashkarining o‘rtasiga tashlanib, yirab chopishib, dushman qo‘lida qazo topdi. O‘sha paytdagi askarlarimizning tortgan qayg‘usini, jangda chopilishini men aytmayin, eshitmay qo‘yaveringlar, o‘g‘illarim, — deb ko‘z yoshlari oqizib yer qarardi....

Keyin birozdan keyin xo‘rsinib qo‘yardi:

O‘z otam boy bobomga o‘xshamadi. Mol boqardi, mashaqqati ko‘p edi. O‘zim birovga yomonlikni o‘ylamagan odamman. Harakat qilib yurib, har qanday nishonga tekkizadigan ovchi bo‘lib yetishdim. Agar meni yo‘lbars olsa, yaxshi... lekin bir kuni buzuqi qobonga oldirib qo‘yamanmi, deb cho‘chiyman, derdi otam bechora.

Bars atrofga qarab, indamay qoldi.

U Erkishi, otang Tekeshni yo‘lbarsga oldirib qo‘yding, deb meni masxara qilarmikin degan fikrda edi. Ammo halidan beri uning gapini bo‘lmay, diqqat bilan eshitib turgan Erkishi uni qo‘llab qo‘ydi:

— O‘o‘, Barsjon! Bobongning naslini aytding. Eshitdim! Oquul bobo Alpyurak boboning qahramonligi biz tomonlarga ham yetgan. Yer tomiri o‘t o‘stiradi, mard tomiri o‘t kuydiradi, degan gap bor elimizda.

[1] **Yakka sayish** —maydonda ot ustida ikki odamning nayza bilan urishish musobaqasi.

Oppoq sochlari chakkalarida yaltirab, egilgan, ko‘zlaridan jasorat o‘ti yonayotgan Erkishi o‘tkir ko‘zlari bilan uzoqlarga tikilib qaradi. Burgutnikiday burni yana ham ko‘tarilib, tikka-tikka yoyilgan qoshlari peshonasining o‘rtasiga turiladi, ko‘zlarining chetlari qontalash bo‘lib qizargan. Uning uzun beti o‘tlagan otning jag‘iga o‘xshaydi: betining muskullari chiqqan, uzun malla mo‘yloviga qaraganda soqoli kalta, sal qalin va jingalak. Nima bo‘lsa ham, Erkishi hozir boshidan kechirgan fojiani ko‘z oddiga keltirdimikin?

U o‘z so‘zini takrorlaydi:

— ...mard tomiri o‘t kuydiradi! Barsjon, sen buni eshit. Teginjon, sen buni eshit. Yo‘lbars, Buylash, hammang buni eshit! Agar mard tomiri o‘t kuydirmaganida edi, bu bag‘ri keng yerning tinchimas tentak bolalari hozirgacha bir-birlarini talab bo‘lishardi. Bir-birlarini yeb qo‘yishardi... Eh, usiz ham bu odamlar bir-birini bezovta qilishmayaptimi, rizqini kesib, bir-birini o‘ldirmayaptimi? Nimani aytayin, bolalarim! Elimiz oz kuldi, ko‘p kuyundi. Rahmdil oddiy odamlar ko‘p qirildi. Qadim zamonlardan buyon yurt chegarasini buzgan yovlar keldi, qon to‘kilishlar avj oldi. Bobom yashab o‘tgan tabarruk zaminni tortib olib, kelishgan o‘g‘il, olijanob qiz, ota-onalarni, ko‘ngli ochiq oddiy odamlarni qul qilib olmoqchi bo‘lganlar u yoq-bu yoqdan ko‘p keldi. O‘o‘, bizning alp bobolar birda dushmanga majbur bosh egsa, birda dushmanni tiz cho‘ktirdi! Buni ustimizdagi Ko‘k biladi! Ota-onasining qadrini bilgan o‘g‘il elga xizmat qiladi. Bizning yurtimiz qiz boladan ko‘ra o‘g‘il bolani ko‘proq orzu qilgani shundan. Bizning qulunlar beshikdan hali yer bosmay turib ot minganining sababi ham shu. “Oting borida yer tani, otang borda el tani” degan naqlning mazmun-mohiyati shu.

Men hozir ota o‘rnidaman. Hammangiz menga bola o‘rnidasiz! Bu yergacha oz yerni bosdikmi, oz elni ko‘rdikmi? Iyagingizga hali soqol chiqqani yo‘q, o‘zinglar hali tolning yangi novdasidaysizlar. Hali mo‘rtsizlar. Hali sizlarni hayqirib yo‘lbars quvgani yo‘q. Qiyqirib hali dushman quvmadi. Erkishi miyig‘ida kulgan bo‘ldi. Tuyachilarning bog‘lagani — bu hech narsa emas.

Haqiqiy dushman qo‘liga tushib, bog‘lanmang! O‘o‘, yov bog‘lab o‘tirmaydi. Shart boshni kesadi. Qoningni ichadi... Shuni

o‘ylab, jonini ayagan kishi dushmanga hujum qila olmaydi. Chegarani kuzatuvga borganda “boshim qanjig‘ada, qonim ko‘ko‘r[1]da”, deb otlanish kerak. O‘z joningni o‘zing yomon ko‘r, unday qilmaguningcha yovning boshi qo‘lingga tegmaydi, Barsjon!

Erkishi Barsga qarab kulgan bo‘ldi:

— Tuyasini yo‘lbarsga oldirgan otangni men unchalik baholamagan edim. Ko‘mir kavlab, yuklab yurgan sho‘rlik bir odam ekan, bolasining yig‘loqiligi ham o‘shandan bo‘lsa kerak, deb o‘ylaganman. Ko‘rsa, bobolaring elga xizmat qilgan odamlar ekan.

Bars cho‘chiganday dedi:

— Qo‘rqib, yig‘lamayman, Er aka. Biror narsani eslashim bilan butun vujudim titrab ketadi. Yig‘laganimni o‘zim sezmayman. Qo‘rqmayman...

— O‘-ho‘, bu yaxshi belgi!

— Alpyurak bobom yovni quvganda yig‘lab borarkan! — dedi Bars.

— Men seni qo‘rqib yig‘laydi, deb o‘ylarkanman, — dedi Yosh tegin.

— Qo‘rqqanimni bilmayman. Ko‘zlarim imir-jimir bo‘lib, kimnidir titib yuborgim keladi.

Yo‘lbars va Buylash unga indamay hayron bo‘lib qarashdi.

CHAA BILAN AZ

Ko‘k bilan yer-suv elsiz qolmasin, dedik.
Az, qirg‘iz elini yig‘ib keldik...
Kul Tegin maqbarasidagi yozuvdan.

Tikanni ildizi bilan uz.
Maqol

Yosh teginlar uzun-uzun do‘lana shoxlaridan qilingan sixlarga birdan g‘ozni o‘tkazishib, cho‘qqa qo‘yib bemalol kabob

[1] **Ko‘ko‘r** — suyuqlik saqlash uchun yilqi, yoki tuya terisidan tayyorlangan og‘zi tor, tagi keng idish.

qilishmoqda. Buylash har zamon-har zamonda qiziqchilik qilib, uning gapiga berigilar qotib kulishib o'tirishibdi. Semiz g'ozning tanasidagi yog'i cho'qqa oqib, chirr-chirr etib, tutaydi, parranda yog'ining xushbo'y hidi keladi. Moy tomgan cho'g' o't olib g'ozga yopishadi. Shunda Buylash kosov bilan olovni u yoq-bu yoqqa surib:

— Ey, tabarruk olov! Talashmang? Eplab otib olgan g'ozimni o'zimga bering. Bu yerda eldan ketgan Erdona, uyatdan o'lgan Urdona yo'q, ey, tabarruk olov, — deydi.

Boshqalar kulishadi.

To'plangan cho'g', o'tda pishirilgan g'ozlar. Havo moy hidiga to'lgan va atrof sokin. To'yingan otlar bo'shashib, boshlarini silkib, chivinlardan o'zini qo'riydi.

Erkishi pichog'ining tashqi tomoni bilan g'ozning belini qirib tashladi, yog'li etini kesib, og'ziga soldi. Umrini yo'lda o'tkazib, nasibasini yo'lda tatib, o'ta malakali keksa askar jizillab turgan moyli kabobni issiqqina chaynayotganidan xursand bo'ldi... "Vaa... Yashil ko'lni o'ynatgan, jonivorim. Joning Tangriga, moying menga, — deydi moy chaynagan Erkishi. Uning dag'al mo'ylovi moylangan. Erkishi g'oz go'shtini oshiqmay kesib, sekin chaynaydi. "Ha endi... shundan keyin katta qora oyoqda ichimlik bo'lsa, qaniydi? Bo'zami yoki qimizmi"...

Erkishi yosh askarlarga eslatdi:

— To'yganing, qurtob ezgin!

Berigi tomondagi qalin qamishzor orasidan suvning ovozi eshitiladi. Atrofdan chigirtkanimi yoki "qo'shiqchi" jonzotnimi chirr, iz-biz degan ovozlari tinmaydi. Qaydadir qamishlar orasidan bo'kirgan yo'lbarsning ovozi keladi. Balki u yoqda yo'lbars yo'qdir. U shunchaki gurkirab chiqqan nimanidir ovozi bo'lishi ham mumkin... Qayerdadir yovvoyi mushukning chinqirig'i uqilganday bo'ladi. Ehtimol, haqiqatan ham, yo'lbars bordir? Yovvoyi mushuk bilan to'qnashib qolgandir? Yo'lbars uni bosib qoldimikin? Ajoyib. Yana sukunat...

Orqa oyoqlarini cho'zib, bo'ynini burib, o'zining qornini hidlagansib, mudrab turgan Katta to'riq birdan cho'chidi. Cho'zgan oyog'ini rostlab, shoshib tura qoldi. U boshini u yoq-bu yoqqa

burdi, pishqirdi. Bir yerda tinch turgan otlar ham hushyor tortdi: ular hurkib, u yoq-bu yoqqa qarab, cho'chiganday boshlarini silkitib, pishqirgan holda gulxan atrofida o'tirgan egalarini o'rab olishdi. "Nima o'tiribsizlar! Yov, yov keldi! Dushman sizlarni o'rab oldi. Tezroq otlaninglar!", deganday jonivor otlar o'kranib, yerni chopchilaydi. Ular atrofga cho'chib qarashadi.

Bars ezgan qurtob ichimligini Erkishiga endigina sungan edi. Yo'lbars sakrab turdi:

— Er aka! Yov!

Erkishi oyoqdagi ichimlikni oshiqmay yutdi. O'shanday bosiqlik bilan dedi:

— Hamma ichimligini ichsin! Dushman deyapsizlarmi? Ular kelsin ...

Uchrashishsin!

Keyin u shoshilmay turdi, pichog'ini qiniga soldi. Katta to'riq tezroq meni min, deganday Erkishining yelkasini hidlaganday bo'lib, uning orqasida turardi.

"Zuv-zuv" uchgan o'qlar ularning ustidan o'tdi.

Erkishi o'q chiqqan tomonga qaradi va haybat bilan ovoz berdi:

— Ey, kamonchilar! Hormanglar? O'qni behuda sarflamang, bu yoqqa kelinglar!

Uning salomiga javoban viz etib kelgan o'q Erkishining dubulg'asiga tegib, qayrilib ketdi. "Cha-arq" etdi. Erkishi baland ovozda kuldi:

— Balli, mergan ekansan. O'qing boshimni yalab o'tdi. Endi yaqin keling. Kimligimizni surishtiraylik.

Erkishining gapi ularning achchig'ini keltirdimi, qalin qamishlar shatir-shutur bo'lib, uning ichidan faqat pakana sur otlarni mingan bir to'p odamlar chiqib kelishdi. Ularning kiyganlari ham, minganlari ham yot, boshqacha. Ko'rinishlari ham qo'rqinchli. Belidagi egri qinli qilichlari tebranadi. Oybolta o'rniga hammasi birday gurzi ko'tarib olgan.

Yo'l-yo'l bo'shliqlari qo'rg'oshin bilan to'ldirilgan tomirdan yasalgan gurzi qo'zichoqning boshi kabi uzunchoq. Kiyganlari ke-

mentay[1], etaklarini bukib, kamarlariga ilib qo'yishgan. Boshlarida oddiy odamlarning bo'z qalpoqlari. O'zlari shuncha qurollanib, yov izlab, kurash kutib yurgan odamlarni dubulg'a o'rniga kigiz qalpoq kiyganligi Yosh teginga g'alati ko'rindi.

— Bizdan emas, Er aka? Tatabimi, tatmi... bular boshqacha-yu...

Ularni adashmasdan tanigan Erkishi yigitlarga:

— O'z. O'zdan chiqqan yot. Qo'rqmanglar. Yosh teginning nomusi keldi:

— Bog'lashga yo'l qo'ymang, Er aka.

— Chopishamiz, Er aka, — deyishdi Yo'lbars bilan Bars birdan.

— Tek turish yo'q!

— O'zlari ham urishmaydi... Urishsa, bularga teng kelish qiyin. Qaranglar, minganlari o'zimizning qulon... Bular Odiltoy ajoga bo'ysunmay yurgan chaa[2] urug'i.

Buylash haqiqatan ham hayron qoldi:

— Qulonni o'rgatgan bo'lsa, bular haqiqiy mardlar yurtidan ekan-a, amaki?

Erkishi indamadi.

"Vaa, chaa urug'i bu — bahorda yog'adigan qorga o'xshaydi. Bu yurt bahor qor to'plab, o't yoqadi. Ozi ko'pday, yovni ayamaydi". Erkishi baland ovozda dedi:

— Bular dushman bo'rilari. Askarga qaraganda askar mingan qulonining g'azabi kuchli ...

O'g'lonlar chindan ham seskanishdi. Darvoqe, uyuriga odam emas, yo'lbarsni ham yaqinlashtirmaydigan qulonni uyuridan bo'lib, uni uydagi yilqiday qo'lda asrash va ot o'rnida minish ko'ringan odamning qo'lidan kelavermasligini yigitlar yaxshi bilishadi. Erkishi bir vaqtlarda qulon uyurini qamashgan. Qulon uyurini qo'lga o'rgatib, asrab ko'rgan. "Qulonni o'rgatgan erkak g'ulja[3]ni ko'tarib ketgan burgut" degan maqol bejiz aytilmagan.

---

[1] **Kementay** — kigizdan yasalgan ustki kiyim.

[2] **Chaa** — urug' nomi, lug'aviy ma'nosi askar. U qahramon va urishadigan bo'lgani uchun nomi urug' nomiga aylangan. Hozir ham chaa degan ism bor. (Muallif izohi)

[3] **G'ulja** —kiyikdan katta tog'da yuradigan hayvon.

Durkiragan qulonning uyuridan bitta qulonni ajratib olish — qumning ichidan tomchi siqib olishdan ham qiyin. O'zlari unchalik katta emas, qo'l oyog'i mushakdan, poydan unib chiqqanday mustahkam. Bo'yni yumaloqroq, yoli, dumi silliq, tumshug'i sal bo'rtib chiqqan. O'zidan o'zi dirillab, hurkib turgan jonivor ko'zlarini olaytirib, quloqlarini dikkaytirib, bo'ynini sal egib quvganda, po'lat tuyog'i har qanday narsani ezadi, o'tkir tishlari jon olguday tishlab otadi. "Qulonning tishi — po'latning tig'i" degan maqol bekordan aytilmagan.

Qulon uyuriga tekkan qancha-qancha er azamatlarni qulonning ayg'irlari boshga, ko'zga urganiga qaramay, quvib kelib, yelkasidan tishlab, otning ustidan irg'itib, tepalab ketgan. Kuchga to'lgan Erkishi o'shanda tortinmay, qo'rqmasdan o'ziga hujum qilgan qulon ayg'irining naq peshonasiga oybolta bilan aniq urib, omon qolgan.

Qisqasi, kulon o'rgatish, qulon asrash haqiqiy mardning qo'lidan keladigan ish. Qulonni o'rgatib, ot o'rniga qulon minayotgan askar o'zining haybatini o'sha qulonni minib yurishi bilan his qildiradi.

Saman yilqi, tur yilqi,
Teng o'tlagan sur yilqi![1]

Qulonni yilqi o'rnida ishlatgan odam Qambar otani o'zining maskanida tunatgan odam hisoblanadi. U tabarruk davolovchi, o'zining sehrli duolari va qo'llagan kuchli usullari bilan shunday darajaga yetgan, degan elda ishonch bor.

Hozir bu ishonch yosh askarlarni ham, hatto Erkishini ham cho'chitib yubordi. U bir xil qulon mingan askarlarga taslim bo'lishiga oz qoldi. Lekin u tiz cho'kmadi, tiz cho'kishi shart ham emasdi. Hozir ajoga qarshi chiqib, ko'k jiyakli qizil yalov ko'targan chaa elteber[2]i Chag'ildir o'zini abo, deb atamasdan elteber, deb o'z shiorini ko'tarib chiqqan. Aslida u qirg'iz ajosiga bo'ysunishi kerak edi. Yosh teginga, boshqa urug'lardan qo'shil-

[1] **Qulon** — "Manas"da shunday ta'riflangan. Qirg'izlarda ham u yilqi, deb nomlanadi. Yovvoyi eshakni qulon deyishmaydi.

[2] **Elteber** —qadim turkiy elda el boshlig'i ma'nosida qo'llanilgan.

gan yigitlarga el tanitib kelayotgan Erkishining asosiy maqsadi har qayoqqa tarqab, o'zlaricha yashayotgan urug'larni birlikka chaqirish, o'zini elteber sanagan Chag'ildirga o'xshagan alp yo'lboshchilarni gapga ko'ndirish edi. "Pichoq qanchalik o'tkir bo'lsa ham, o'z sopini yo'nmaydi, sher. Yaloving ola bo'lsa ham, kuching chala. Chala kuchni kuchli yov toptab qo'yadi", deb aytadigan gapi ko'p Erkishi qulonchan jangchilarga sir bermadi. U o'zining haybati bilan turdi.

— Qimirlamang, tizginingizni torting beboshlar! Biz siz uchun begona emasmiz! — dedi.

Ular ham Erkishining haybatini, ko'rinishini va surini his qilishdi. O'zlarichasiga hovliqqani bilan ichlarida ular Erkishidan qo'rqib, undan saqlanib tortinib qolishdi.

— Biz qul qidirib yuribmiz! — dedi narigilarning boshlig'i. — Ikki aymoq biri-biri bilan qarshilashib qoldi. Azning boshlig'i Bayirquv chaaning ovuliga tish qayraganiga bir oydan oshdi. Yaxshi otlarni o'g'irlab, qul va xizmatkorlar sirtga chiqsa, ularni urib, olib ketishmoqda. Qisqasi, Bayirquv biz bilan urushni xohlab qoldi. Sizlarni bog'laymiz. Ketgan qullarimizning o'rniga ishlatamiz. Qarshilik ko'rsatmanglar. Qarshilik ko'rsatganing, bo'g'izlanasan.

Aslida, urishishni xohlagan tomon az yurti emas, balki chaalarning elteberi Chag'ildir azlar bizning chopqir otimizni o'g'irladi, qullarimizni olib ketdi, deb bahona topib, azni bosib olmoqchi. Urush olovini yoqish uchun uning qulon mingan askarlari atrofni kezib yurishibdi. Erkishi bu sirni angladi-da, Chag'ildir elteber bilan uchrashishni o'yladi:

— Bizni boshlig'ingga olib bor, — dedi Erkishi sekin. — Bizning qul bo'lish bo'lmasligimizni yurt boshlig'i aytadi. Kuzatuvda yurgan askarning ishi qo'lga tushgan yovni bog'laydi. Biz bog'languday yov emasmiz.

— Unda kimsizlar? — dedi qizil yuzli, chag'ir ko'zli jangchi egardan sal ko'tarilib, oldinga intilgan holda. Sening aldov gaplaringga ishonib boshimizdan ayriladigan ahmoq emasmiz. Rahmdil askarni bizning jasur elteberimiz uloqday bo'g'izlab tashlaydi. Shu gapni qulog'ingga quyib ol. Sening tashqi ko'rinishing ham bejiz emas, ko'pni ko'rib, ko'pni bilgan jonsan...

Atrofdan uni qo'llagan ovozlar eshitildi:

— Kim bo'lsa, bo'lsin, bog'langlar. Otlariga minganda urishgisi kelsa, urishib yotar...

— O'lishni xohlasa, urisha bersin.

— Asirga tushgandan keyin, boy ham, bek ham, quvnog'i-yu, xafasi ham — hammasi qul bo'ladi...

Ular Erkishilarni oldilarga solib haydab olishdi...

Chaa urug'i bilan az urug'ining o'rtasidagi kelishmovchilikning sabablari quyidagicha edi. Chag'ildirning uyidagi qul qochib ketadi. U qochib ketishidan biroz ilgari uning urushga minadigan oti yo'qolgan edi. Bo'lgan voqealarni Chag'ildir qo'shni yashagan azlardan ko'radi. "Avval otimni o'g'irlab, keyin qulimni yo'ldan adashtirib, aldab qochirib... az meni ko'zga ilmaydi. Uning yurti az bo'lsa, men uni chaynab qo'yadigan oziq tishman. Az kim o'zi? Mening berisi turgashga, narisi tabg'achning sonsiz askarlarga qarshi kurashadigan elim bor. Albatta, elim oz, lekin oz bo'lsa ham, tatiydigan el. Katta yovga purkab qo'yadigan zahrim bor. Ot yolini ushlaganki erkaklar otlaning! Urishaman."

Urug' boshlig'i Chag'ildir shunday, deb jar soldirganda, minadigan oti, chopadigan yarog'i doim tayyor bo'lgan erkaklar tayyor bo'lishdi.

Doimo kim bilandir kelishmasdan, yovlashib, birda yengilib, aybini bo'yniga olib, birda yengib ayb qo'yib tortishishga juda ko'nikkan chaa yurti bemalol emas, har qanday vaziyatga tayyor turardi. Chaaliklarnning hammasining oti, to'ni yarog'i tayyor turardi. O'o', qadimdan beri bu elning ozi ham, ko'pi ham chegarada ot ustida, yovning ro'parasida birgalashib ichgan oshiday odatga aylangan urushdan qochgani yo'q hisobda. Urushdan qochish, urushda yengilish bilan birday. Qarshilashgan taraf elingni qul qilib, molingni qanday talab, olib ketsa, o'zi biladi. Bo'lmasa, qanjig'adan bosh tushib, ko'ko'rdan qon to'kilgandagina bira to'la sochilib, yengilib, bosh egish odatga aylangan, ungacha urisha beriladi. Mingan otini yovga mindirib, sevimli yorini, tabarruk ota-onani, o'g'il-qizlarni qul, cho'ri sifatida bog'latib, xo'rlangandan ko'ra o'lish, qirilish allaqancha yengil, degan, aytganidan qaytmagan nasl shu — chaa urug'i.

Chaa va Az uzoqdan kelgan keklashgan dushman emas. Holbuki, "Ikki qo'chqorning boshi bir qozonda qaynamaydi"... Bu dunyoda har kim o'z aqliga yarasha keklashadi, bir-biriga dushman bo'ladi. O'zaro teng bo'lgan bu ikki urug'ni bir-biriga o'chashtirib, qayrashtirib turgan narsa ham o'sha qadimgi qoida. Endi ular ko'pdan beri vaqti-vaqti bilan bir-biriga ot qo'yib turishadi. Shu paytda ular allaqachon ko'zi o'tib ketgan bobolarini eslashadi, qanchadan beri unutilgan o'ch, kek esga tushib, ko'z oldida namoyon bo'lib, urushga o't yoqib, ikki tomonning urushga kirishiga sabab bo'ladi. Natijada, bir tomon yengilib, bostirilib, xonavayron bo'ladi. Ikkinchi taraf ham undan kam qon yo'qotmaydi: to'qqiz qavat uzilib, bir yolg'iz qavati eplab ushlab qolgan ipday shalvirab, narigi tarafni o'ziga bo'ysundiradi. Qisqasi, uning molini talon-taroj, odamlarini esa qul qiladi.

Ko'pdan beri kelayotgan qasdlashuv — tuzalmagan yomon yaraday ezilib, azning ham, chaaning ham tana-bo'yini luqillatib, yiringlatib, shu ikki urug' kishilarining ko'pining boshiga qayg'u tushadigan bir paytda Erkishi xuddi shu qasdlashgan ikki urug'ning chegarasini bosdi.

Jang hali boshlanmagan, lekin ikki tarafning tizgin ushlagan odamlarining hammasi yalpi otda yurgan edi. Bular allaqachon urishishardi: ikki tomonning ham urishmay turganinning sababi, oy hali to'lmagandi. Oy to'lishiga yana besh kun bor. Ungacha kuzatuvga chiqqanlar ehtiyotkor, ziyrak, yaxshi ko'ra biladigan, yaxshi uqadigan bo'lishlari shart. Agar biror notanish kishi ko'rinsa, u kim bo'lishidan qat'i nazar, bog'lanib, boshliqning oldiga olib kelinadi. Qo'qqisdan kimdir notanish odamga "mehribonlik" ko'rsatsa, eng avvalo, o'sha "mehribon"ning o'zi bo'g'izlanadi. Bu ham azaldan kelayotgan jangchi qoidasi. "Yosh tomizgan ko'zingni o'zing cho'qimasang, dushman boshingni kesadi", degan gap katta-kichikka ona suti bilan kirgan.

Shunday ishonchdagi askarlar Erkishini yosh askarlari bilan elteberi Chag'ildirning oldiga olib kelishdi. Ayni paytda chaa yurti katta-yu kichik demay kuzatuvda. Chetda joylashgan ovullar ham bir-biriga yaqin joylarga ko'chib, ovulning bir chekkasiga odamning ko'zi yetmaydigan darajaga kelgan.

Chamasi sigir, qo'y, echki ko'zga ko'rinmaydigan dala tarafga haydalgan. Ularni ham soqchilarning katta guruhi qarab turishgan bo'lsa kerak. Kun botish tarafda qoraygan qalin o'rmonning ichi hayvonlargami, odamlargami to'laligidan, yerga jon kirganday olisdan qimirlaganday ko'rinadi...

Ovulda yayov bosgan jon yo'q. Bola ham, qari-qartang ham, ayol ham otda. "Vaa, shunday holatni shulardan ko'rdik, chamasi bular bizni butunlay qirilib ketishimizni xohlashyapti. Shuning uchun bu safar azlarning belini sindirib, yurtini vayron qilib bosh ko'tarmaydigan darajaga yetkazaylik". Qaysi biri askar, qaysi biri oddiy odam, qaysi biri tashqaridan kelgan, umuman, ularni tanib olish juda qiyin.

Kuzatuvdagi askarlar Erkishilarni haydab kelayotganini ko'rgan bir guruh otliq yoshlar chopib chiqishdi. Ularning ayrimlari ot o'ynatib, ularga teginib ketadi, ayrimlari Erkishi bilan Yosh teginlarni uradiganday do'q qilishadi. Achchig'i kelib so'kinadi... Ular ovulni oralab ancha yurishdi. U uydan, bu uydan chiqa qolgan yoshi ulug' ayollar bukchaygan holda o'zlaricha kelayotgan odamlarni qarg'ay boshlaydilar:

— Ifloslar. Ie, bular qanday dushmanlar bo'ldi yana?!

— Iflos azlar bo'lsa kerak-da. Usti ochiq Ko'k sizlarni o'z g'azabiga olsin. Bosh suyagingga begonalar suv quyib ichsin!

— O'o', sizlarni shamol uchirsin, o't quyqalasin, ifloslar!

Az yurtidan deb o'ylagan chaalar anchagacha Erkishilarni qarg'ab, so'kib, quvib, o'zlarining nafratini ko'rsatishdi.

— Vey, azlarning kimisi bular?

— Yana otimizni o'g'irlab, qullarimizni aynitib, qochirgani kelishgandir bu xaromxo'rlar!

— Chaa yurtining chayon ekanligini bilmasmikin, bu ifloslar?

— Bilmaganni bildirib qo'yish o'zimizga bog'liq...

— Bu buzuqlarni boshliqqa olib borib ovora bo'lib yurasanmi, uni bo'g'izlab, boshini olib kelmaysanmi, ey, Elchur!..

Ukki ko'zli ingichka soqolli bor ozg'in chol har xil gaplarni aytib, qo'lga tushganlarni rasvo gaplar bilan so'kib, taqimidagi gurzisini olib, Erkishining beli aralashtirib urib o'tdi. Erkishi unga g'azab bilan tikilib qaradi. Bars achchig'idan yig'lab yubordi ...

— Biz az emasmiz! — Ko‘p yashagan odam ekansan, otam qirg‘izning Erkishisini tanimay qayerlarda yurganding? — dedi jahl bilan Yosh tegin.

Chol soqolini saqsaytib, kekkaygan holda tizginini tortdi.

— Ie, yana qaysi Erkishi?...

Buylash masallar keltirib, cholning ko‘zini ochmoqchi bo‘ldi:

— Alp hovliqsa, ro‘para kelganni chopadi, xon hovliqsa, eldan chiqadi. Ko‘zlaringni yog‘ bosib qolibdi. Tangrini ham tanimay qolibsan..

Chol hayrat bilan Buylashga qaradi:

— Hali eting qotmagan bola ekansan. Aytgan gapingga og‘zing to‘ladi. Qaysi urug‘dansan, ey, bola?

— Bizni bola deganning ishi chala, amaki. To‘g‘ri, yosh bo‘lsak-da, bizni boshlab el-yurt tanitib yurgan pirimiz — Erkishi mening ustozim!

Chol ayiqday bo‘kirdi:

— Hoy, Elchur! Sen chaaga yog‘ayotgan qor olib keldingmi, yo yashnagan bahor olib keldingmi? Az bilan arazlashib tinchligim ketib turganda, otam qirg‘izning ajosi qahrlansa, nima qilamiz, yo Tangri? — deb ovozining boricha baqirdi chol. Uning do‘rillagan ovozi ovulning chekka-chekkasigacha eshitildi chog‘i. Piyoda va otliqlar yerdan unib chiqqanday tezda ko‘payib ketdi. Ularning yayovlar otlanib, otliqlari taqimiga gurzisini qistirib, tayyorlanib, “O‘o‘” desa, “Uu” deb otlarini choptiradigandek hovliqib, u yoq-bu yoqqa alanglab qaray boshladilar.

— Bular kimlar, Tangrim?

— Nega bog‘lab kelishmadi?

— Kim bo‘lsa, bo‘lib yotar. Hammasini bir ipga tizib bo‘ynidan bog‘laymiz.

Nafratni Erkishi uzoqdan sezdi. Yurt kezib, turli urug‘ va jangchilarning urf-odatlarining hammasini tushunib qolgan Erkishi ovulda zir yugurib yurgan odamlarning o‘y-xayollarini anglab yetdi.

Erkishi hozir bu chaa naslidan bo‘lgan jangchining jasoratidan minnatdor. Darvoqe, xuddi shu chaa askarlari ozligiga qaramay, sonsiz askarlarga qarshi urishgani ko‘pchilikni xursand qilgan,

ancha vaqtgacha aytilib yurgan. Xolis odamlar bu yoqda tursin, chaani bosib olaman, deb chaaga yengilgan mard sarkarda:

— Ha... Daryo kabi ko'tarilib, buloqqa singib ketdim, yo, Tangrim! Mening toshib turgan kuchimni kim oldi? Qoyaga qilich ursang, sinadi. Chaaning odamlari er, otlari charchamaydigan tulpor ekan. Ular hayqirib tikka hujum qilganda, har biri alpga aylanadi. Men ularning kuchiga qoyil qoldim...

Boshqa elning botiri shunday, deb baholagan chaani Odiltoy ajo o'rniga qo'ygan. "Qirq urug'ning biri" sifatida hisobga qo'shilgan bo'lsa-da, chaa Odiltoy ajoning hukmronligi ostida emas. Odiltoy ajo ham astoydil bo'lib, chaani bo'ysundirish uchun urishmadi. "Bo'linganni bo'ri yeydi", deb Chag'ildirni birlikka chaqiradi. Unga yetti otasidan beri lashkarboshi bo'lib o'tgan Chag'ildir ko'ngil burmaydi. "Bo'ri to'rt oyoqlini yeydi, ikki oyoqli alp o'zicha yashaydi", deydi chaaning Chag'ildiri ajoni ham, aboni ham, bekni ham, alpni ham ko'zga ilmaydi. "O'zim xonman — o'zim elteberman", deb bobolarining shiorini davom ettiradi. Aslida bu uning mard Turk boboning tirik arvohiga sig'inib, uning yo'lidan ketgani emas, mardlikka o'xshab ko'ringan tajangligi, urushni xohlagan askarlik odati. Agar rostakamiga tajanglik qilsa, o'sha boboning yalovini ko'targan xoqonga ham e'tiroz bildiradi. To'sh tirashadi. Urishadi. U emas, yo'lida qarshi tursa, bir qorindan talashib tushgan qarindoshiga ham qilichini sug'uradi.

Chag'ildirning "Yog'ochning qattig'i — xur[1], elning qattig'i — chaa", degan maqoli ham bor.

Ovul bo'ylab yurganda, chaa nasliining harbiy an'analarining salobati seziladi. Qonli to'nka yonida boshi kesilgan murda yotibdi.

Askarlardan biri ming'irladi:

— U o'zimizdan...

Boshqalar jimgina ot bostirishdi.

— O'z bo'lsa ham, o'g'ri, yoki dushmanlarga xabar yetkazuvchi josus. Unga qaramanglar, — deb buyurdi Elchur.

"Bu zolimlik, — dedi Erkishi. Urushni xohlagan paytda lashkarboshining ham, yurt boshchisining ham yuragi tosh bo'lib

[1] **Xur** — yog'ochning bo'qog'i.

qoladi. Chag'ildir o'sha yomon irimni davom ettirayotgan ekan. Buning oxiri yaxshilikka olib bormaydi....Qonni qon yuvadi"...

Chekkaroqda o'n beshga yaqin odam bir arg'amchiga bo'ynidan qator qilib bog'lab qo'yilgan.

Ular xuddi qo'shoqdagi qo'ylardek bir-birlariga boshlarini tekkizib, qo'llarini qornining ustiga qo'yib, muk tushgan holda yotishardi. Qanday bo'lsa ham, ko'gan[1]dagi qo'ydaysan.

Ular o'zini qimirlamaydigan qilib ko'rsatishdi, shunday emasmi? Ularning hech biri odamga o'xshamasdi. Molni taqlid qilib, molga o'xshab muk tushgan holsiz va ilojsiz..

Hattoki ular yonidan ot bostirib o'tayotgan odamlarga qarashdan ham qo'rqishadimi, tanalari o'lik nes bo'lib qolganmi, har holda soqoli oppoq qariyasi ham, soqoli sarg'ish yoshi ham, baquvvati ham nes, qul.

Qulon mingan askarlarning ularga keki borday gap otishadi:

— Ular dushman, — dedi biri.

— Ko'k jazolasin, — dedi ikkinchisi.

Bu safar Elchur indamadi. U faqat ikki tomonga qashqir qarashni qilip, sekin otini bostirdi. Qattiq yig'lagan bolaning ovozi keldi:

— Voy, alp aka!

To'g'ri oldinga qarab ketayotgan Erkishi ovoz kelgan tomonga yalt etib qaradi. Qator qilib bog'langan odamlarning eng oxirida qo'rqqanidan rangi quvarib ketgan bola yig'lab yubordi.

— Bizning aybimiz yo'q, Er aka!

Erkishi jilovni tortmadi. El hech narsani eshitmaganday bo'ldi. Ko'gandagi bechoralarni ko'rmaganga o'xshadi. U to'g'ri bostirib borar ekan, eshittirib aytdi:

— Ahmoq, erkak ko'z yoshini dushmanga ko'rsatmaydi. Erkishining ovozi bolasini o'dag'aylaganday bo'lib uqildi.

Chaa yurtning donishmand lashkarboshisi Chag'ildir eltebernin ovuli to'r tomonda: kamida bir yuz ellikday bo'lib, bir-biriga yaqin qurilgan bo'z uylar. O'sha zich joylashgan ovulning qoq o'rtasida boshqalardan ajrab turadigan katta oq uy bor edi. O'sha oq uy oldida ikki yuzga yaqin bir xil dubulg'a kiygan otliq askar-

[1] **Ko'gan**-qo'y yoki qulunlarni bitta arg'amchiga qator qilib bog'lash usuli.

lar sigir muguzi shaklida qatorlashib turishibdi. O‘rtada urug‘ning ko‘k jiyak qizil yalovi hilpiraydi. Turli tomondan qishloq oralagan nomi chiqqan odamlar, uydan chiqqan kampir-chollar demay atrofdagi katta-kichikning ko‘zi o‘sha to‘rdagi ovulda. Elning diqqati kuzatuvdagi askarlarga qaratilgan. Hozir o‘sha askarlarning bir yuzboshisi begona kishilarning ovul oralatib to‘rdagi yalov turgan to‘daga qarab boshlab kelayotgan edi.

Odamlarning nigohi endi kelayotganlarda:

— Ular kimlar?

— Kim bo‘lardi, dushman-da ...

— Begonaga o‘xshaydi.

— Kim bo‘lsa bo‘lsin, qo‘lga tushdimi — u qul.

— Qo‘lga tushgandaymas... Tirik.

— E, tirik bo‘lsa, o‘ladi-da. Chag‘ildir alp buyurib qo‘ysinchi.... Ko‘ganlanadi. Undaylar ozmi ...

Katta-kichik ularga qarashni davom ettirishdi. O‘q yetadigan masofaga kelganda, yuzboshi Erkishiga buyurdi:

— Otdan tush! Elteberning oldiga boramiz. Boshlig‘imiz oldida tiz cho‘kib, boshingni eg!

— Biz shunday boraylik, yuzboshi, — dedi Erkishi. Erkishining o‘ta ishonch va g‘ayrat bilan aytganiga yuzboshi Elchur o‘zini yo‘qotayozdi.

U beixtiyor dovdirab ketganday bo‘ldi-da, yalinib yolvordi:

— Yoshing ulug‘ ekan, amaki... Chag‘ildir elteberimning odati qattiq. Menga rahmingiz kelsin.

— Qo‘rqma, yuzboshi! Mening yo‘lim ochiq.

Mening yo‘lim ochiq, degan gapni eshitganda Elchur nima deyishini ham, nima qilishini ham bilmay qoldi. Yig‘lab yuborguday bo‘lib, ayanchli ovoz bilan yalinib dedi:

— E, aka, haqiqiy Erkishi ekansiz. Men endi o‘ladigan bo‘ldim.

— Qo‘rqma, — dedi Erkishi Elchur yuzboshiga. — Sen o‘lmaysan. Kuzatuvda o‘z burchini sidqidildan bajargan askar o‘lmaydi, maqtovga sazovor bo‘ladi. Menga ishonmaganing o‘zi mardlik.

Dubulg‘a kiygan Chag‘ildir yoli silliq sur otga minib, oyboltaning sopini soniga taqab, ko‘kragini kerib halitdan beri g‘azablanib o‘tirardi.

"Ular qachon otdan tushadi, qachon tiz cho'kadi?" Yaqin kelganda Erkishiga ishonmaganday qaradi:

"Yo, Tangrim! Ko'zimga kim ko'rindi? Erkishi chin keldimi yo ro'yomi? Bu uning arvohi emasmi?"

Chag'ildirning katta tanasi tagidagi otni kichraytirib bosib qo'yganday. Pishiqqina ko'ringan sur ot jonivor nima bo'lsa ham, qulon bilan chatishtirilganmi, har holda, tumshug'i do'mpayganroq, qulog'ini chimirib, g'azablanganday, ustidagi og'ir vaznga e'tibor ham bermaganday turibdi. "Chuh" desa bo'ldi, oldinga intilib gavdali Chag'ildirni xuddi kichkina narsani olib ketayotganday uchishga tayyor turardi...

Oq yuzli, qirra burun, qo'y ko'zi bilan uzoqlarga qattiq tikilgan Chag'ildir atrofdagilarga sir bermadi:

"Yo, Tangrim? Anovi yuzboshi Er Kulchur Erkishini boshlab kelyaptimi? Yonidagi yigit boshiga qush qo'ngan Yosh teginga o'xshaydi ... Az qurib ketsin. Biz ajdodimizdan qahriga qolmadikmikin?"

Shu tariqa ichida mulohaza yuritgan Chag'ildir o'z sirini sirtga chiqarmadi.

"Bu kelayotgan kim?" deganday kekkayib turib, keyin bo'ynini qisdi.

Otliq amaldorlarning aksariyati Erkishini bilishardi, uning kuchiga, aql-zakovati va ayyorligiga qoyil qolardilar. Qirg'iz otaning butun obro'si shu odamning qo'lida ekanligini ham bilishardi. Erkishi borligida Odiltoy ajoning salobati ham boshqacha bo'ladi. Erkishi jangda halok bo'lsa, ko'k yalov yiqiladi. Ajoning oltin o'rdasi yanchiladi. Unda to'plangan sariq oltin va oq kumushlar sochiladi. Yigitlar qulga, go'zal qizlar esa cho'riga aylanadi. Ha, Erkishi borida ko'k yalovning dovrug'i baland ekanini his qilgan odamlarda ishonch bor. Qolaversa, xuddi shu chaa urug'ining manmansiragan kishilari ham unga ishonar edilar.

Hozir o'sha Erkishini ko'rgach, Chag'ildir ham, uning qatoridagi ko'zga ko'ringan odamlar ham cho'chib ketdi. G'ala-g'ovur bo'ldi:

— Ey, Ko'k Tangri. Bu kelayotgan haqiqiy Er alpmi?

— Bu bizga kelgan yaxshilikmi? Yo...

— Agar u jahli chiqsa... nima qilasan?

Chag'ildir o'zi ham shuni o'ylab turganini sezdirmay, ming'irladi:

— Ey, botirlar. Chaaning dovrug'ini har doim ko'tardik. Bu yog'iga mahkam bo'linglar!

Keyin u birdan tepinib qo'ydi. Sur ot harakatga kelib, qatordan bo'linib chiqdi. Shu paytda Erkishilar salomlashadigan masofaga kelib qolishgandi. Chag'ildir oldiga o'tganda, Erkishi bilan salomlashish uchun emas, qochishga chamalaganday, nima qilarini bilmay dovdirab, o'zini yashirganday, cho'chiganday bo'ldi. Kelayotganlar Erkishi emas, begona, boshqa urug' xoni, begi yoki botir sarkardasi bo'lsa, Chag'ildir uni qora ko'k toshday qimirlamasdan qabul qilardi. Erkishining kelbati uni shoshtirdi.

Yo'g'on ovoz hammaga eshitildi:

— Hammangiz hormang endi. Mard chaa urug'i dovrug'ining qadriga yetib, uni baland ko'targan xaloyiq!

Eshitganlar qo'llarini ko'ksiga qo'yib churqirab yuborishdi.

— Hormang, otam qirg'izning Er o'g'li!

— Bor bo'ling!

— Bor bo'ling!

Erkishi yo'l-yo'lakay qishloqda hech narsani payqamaganday, safardan kelayotgan yo'lovchi singari o'zini oddiy odam qilib ko'rsatdi.

Bu uning sirtqi ko'rinishi. Asl maqsadi esa shu qiyin kunlarda anovi isyonkor amaldorlarni, alp Chag'ildirni bo'ysundirib, ko'k yalov ostida birlashtirish edi.

Darvoqe, o'tganda donishmand Odiltoy ajo: pichoq qancha o'tkir bo'lsa ham, o'zining sopini yo'nmaydi, Er o'g'il. Sen borib uysunda tunagin. Anovi chaa bilan azga bor. Qarluq bilan nayman, izgil, qurixondan kayt. Yer-suvni o'g'longa tanit. Yozuv yozgan ustozlarni ko'rsin. Ulug' so'z aytgan dostonchini eshitsin. Arslonni o'ldirgan alpni ko'rsin. Gapirishni notiqdan uqsin. Qorong'ida yorug'lik va yomonni bilsin. Og'ir bilan yengilni ajratsin!

Ey, Er o'g'il, otlan. Yoningizdagi yigitga usti ochiq Ko'k va bo'z yer orasidagi salmoqni his etishni o'rgat. Tarozi o'lchaydigan salmoqni his qilsin. Shu yo'l bilan ko'zi ochilmasa, bu zurriyot

ota o'rdasiga ega bo'la olmaydi, — deb ajo unga omonat topshirgan.

Erkishi ajoning omonatini shu kungacha aniq bajardi. Yosh teginga yer-suvni ko'rsatib, el-yurtni tanishtiribgina qolmasdan, unga tayanch bo'ladigan o'g'lonlarni qo'shib qo'ydi. Jo'ngina qo'shgani yo'q, do'st bo'lishsin, bir-biriga tayanch bo'lishsin, deb qo'shdi. Bu:

— Tirik bo'lsak, bir do'mdamiz, o'lsak, bir chuqurdamiz! O'g'il bolaga o'g'il bola jilovdor bo'lsa, qozondagi ovqat bir qaynaydi, degan eng qadimdan kelayotgan irimning qoidasi.

Erkishi o'sha qozondagi xaloyiqning nasibasi bo'lgan rizqni bo'lib tugatmoqchi bo'lgan chaa urug'ining bilarmonlariga tikka aytdi:

— Osmonda kun ochiq. Qishloq ustida yomg'ir, Chag'ildir sher. Muzlikning boshi oq qor, ko'k muz. Daryolarda moviy tiniq suv oqmoqda. Ovul ichida buloq, buloqdan esa qon oqmoqda. Bu nimadan, Chag'ildir polvon?

Achchiq qattiq ovoz bilan Chag'ildir qo'pol dedi:

— Ko'k toshga qilich uradigan mard qolmadi! Yonimda Erkishi yo'q! Ajom bo'lsa, teskari qaraydi...

— Gapirma. Ajom teskari qaradi, dema. Ajom oltin taxtida!

— Ha! Ajong oltin taxtida senga qaraydi, Cho'g'ultur! — Chag'ildir Cho'g'ultur deb Erkishining otasi bergan ismini atadi. Yurt bergan tabarruk ismni aytmaslik "Sen ham aslida menga o'xshagan odamsan. Sen Cho'g'ultur bo'lsang, men Chag'ildirman. Sening jasorating mening jasoratimdan ortiq emas. Men sendan kam emasman", deb Erkishiga qarshi aytilgan gap edi.

Chag'ildir buni ataylab aytdi. Uning bunday qilgani Erkishining salobatini, sha'nini, obro'sini o'ziga tenglashtirgani. O'z salobatini, sha'nini, obro'sini o'zi ko'tarmoqchi bo'lgani. Haqiqatan ham, u alp, botir sarkarda va donishmand. Biroq uning alpligini, botir sarkarda va donishmandligini boylikka bo'lgan hirsi, mansabparastligi, shon-shuhratga o'chligi yengib qo'yadi.. Chag'ildirning ana shu salbiy sifatlari uni Choguldurdan pastga tushirib qo'ygan edi. Olomon uni jasur alp ekanligini qadrlaydi. Biroq uning och-ko'zligi va shuhratparastligini yoqtirmaydi. Elga to'la yoqmagan,

ayrim salbiy sifatlari bo'lgan alpga qut-baraka ergashmaydi. Qut ergashmagan odam Erkishi unvonini ham ololmaydi.

Chag'ildir elteberning Erkishi bilan raqobatlashishi, uni el qo'ygan nomi o'rniga otasi bergan ismi bilan chaqirishi boshqalardan avval o'zining atrofidagi amaldorlarga ham yoqmadi.

Bo'z ot mingan chechan, so'zamol chavandoz hech ikkilanmay dedi:

— Elteberim, Erkishi bilan raqobatlashmang! Bizni tirik arvoh qahriga oladi!

Keyin chaa chechani bo'z otning yoliga peshonasi tekkuncha ta'zim qildi:

— Chegaramizda yov turibdi, Erkishi. Qiynalgan ko'p. Ovulimizning ustida yomg'ir turgani shundan. Dushman o'g'illarimizni qul, qizlarimizni cho'ri qilmoqda. Ulardan asirga tushganlarini biz ko'ganlab, bo'g'izlamoqdamiz... Ovulimizning bulog'idan qon oqayotgani shundan, Erkishi.

— Sizning dushmaningiz kim? — dedi Erkishi.

— Dushmanim — az ...

— Az o'z emasmi?

— O'o', az bizga o'z emas...

— Unday bo'lsa, sizlarga kim o'z? Kun chiqish tomonda tabg'ach, kuruy, yapon kun botishda urum, purum, abar; kun yurish tomonda tuput, forslar, hindlar, o'zing bilgan Odiltoy ajong. Uni ters qaradi, deding. Qirq urug'dan biri azni dushmanim, deding. O'zakdan kuygan o'rt, o'zdan chiqqan yot kim?! O'rtasi o'n o'q yurti yo'q, qarluq yo'q, eshtek, uyg'ur yo'q, alaqchi, tat, tatabi yo'q chegarangda. Azlar bizga yotmidi? Yoki ular mard bobomning g'oyalaridan tondimi? Ola qo'yni alohida qilib junini qirqqan junga yolchimaydi. Ikki otani to'rtga bo'lgan lashkarboshi yov bilan bo'lgan jangda o'ladi.

O'lganda ham u otidan ayrilib, harom o'lgan... Chag'ildir bir gap aytmoqchi bo'lib egardan ko'tarildi va oldiga sal cho'zilib, keskin dedi:

Agar chaaning eli urushqoq bo'lmasa, tundugi o'tga tushadi...

— Urushqoqlikni o'zingizlarnikiga ishlatmang, Chag'ildir sher! — dedi Erkishi. — Ko'rdim! Sizlar dushman deb bo'g'izla-

gan askarlar o‘zimizniki. Ularning gunohsiz joni lochin bo‘lib osmonda chirillab, gunohsiz qonlari qo‘ng‘ir tuproqqa singmasdan, buloq bo‘lib oqib yotibdi. “Biz yot emasdik, o‘z edik. O‘zakdan yot chiqdi. Begunoh jonimizni chirqiratdi”, deb ikki uy orasida qon bulog‘i zor qaqshab oqmoqda. Bunga nima desak, bo‘ladi, Chag‘ildir sher? Undan beri o‘tdim. Anovi katta oq uyning yonida ko‘ganlangan odamlar moldek bo‘g‘ilib o‘tirishibdi. Ichida qarisi ham, yoshi ham bor. Begona odam emas, o‘z. Kechagina dono bobomiz oddiy qushni tobladi, uchqur qildi. Tentiganni to‘pladi, yurt qildi. Bugun biz to‘rtga bo‘linib, o‘sha bobomiz tuzib bergan yurtni bir bosh, bir qo‘l qilib bo‘lib, birlashaylik, degan ajomizga achchiq teskari gap aytdik.

Bu gapni meni aytdi, deb tinglang, chaa urug‘ining odamlari! Qirg‘iz otaning Erkishisi aytdi, deng. Menga ochiq javob bering.

Agar o‘zni dushman demasak, bilagimiz kuchli bo‘ladi. O‘zni yov sanab, qirqqa bo‘linsak, qo‘llarimiz qars-qars sinadi!

O‘z qo‘limizni o‘zimiz qayirib, sindirib, o‘z qonimizni o‘zimiz to‘kmayapmizmi? Javob bering.

Erkishining g‘azabidan cho‘chib otliq chaa donishmandlari otdan tushmoqchi bo‘lishgan edi, Erkishi ularni to‘xtatdi:

Chegarada dushman bor deb otlanibsan. Bosqinga tizgin burganda otdan qayta tushmaydi. Bobomizning bu yo‘lini buzmang. Javobni ot ustida kutaman.

Chag‘ildir biroz o‘zini bosib, orlanib, tavoze bilan ohista dedi:

— Az o‘z bo‘lsa, bo‘lgandir. Ular bizning chegaraga qo‘l solib tinchitmadi... Chegaraga kim hujum qilsa, u dushmandir.

— Ha, — dedi Chag‘ildir g‘ashi kelib. — Chegaraga az keldi. Uning o‘rniga tabg‘ach kelsa, tat kelsa, alaqchi kelsa, o‘n o‘q kelsa, to‘lo‘s kelsa, mayli, kim kelsa kelsin, hammasi dushman! Men chegaraga kelgan dushmanga tiz cho‘kmayman. Qo‘limdan kelsa, belini bukib qo‘yaman!

— Ha, to‘g‘ri, — dedi Erkishi. — Dushmanning belini sindir. Dushmanni ayagan o‘zi o‘ladi. Biroq to‘ndan to‘nning farqi uning terisida. Dushman bilan dushman o‘rtasidagi farq kurashda. Ota qo‘shinini oyoq osti qilib, elni kaltaklab, hammangni o‘lja qilaman, deb kelgan dushman bilan janjallashib, g‘azabini bosolmay,

oriyat talashib, ovul chetini bosib qo'ygan yovning farqi katta, Chag'ildir sher!

— Ee... Er aka... Menda dushmanni salmoqlaydigan tarozi yo'q...

— Qindan qilich sug'urma. Qon to'kilishini o'yla. Aql urush-qoq qalbga kuch qo'shmaydi...Erkishining jahli chiqdi:

— Meni eshit. Qilichni kuch ko'tarsa, toshga uradi. Ahmoq lashkarboshi o'zni begonadek ko'radi. Az — o'z. Men ham — o'z. Sharqda eski o'chi bor tabg'ach boyagiday chegaramizga hujum qilgani tayyor turibdi. Biz endi qirq yeridan tugilgan ipga o'xshab uzilamizmi, yo uzilganni ulaymizmi? O'zimning yuz-boshim o'zimni bog'layman, deb tursa, u yoqda tabg'achning ishtonbog'i bo'sh oyimi etagini ko'tarib kulmaydimi? Er nomu-si — el nomusi. Men oriyat uchun kurashaman, birovning no-musini to'kmayman. Yo kuch sinashaylikmi? Haligi bo'z otliq so'zamol hayqirdi:

— Vey, esi yo'q, Elchur! Sen elning Erkishisini tanimasdan qayerlarda yuribsan?

Yuzboshi Elchur otdan sakrab tushdi. U yerni o'pib, yolvordi:

— Er aka... Aybdorman. Oyog'ingizga boshimni qo'ydim. Boshimni kesib tashlang. Esi yo'q ahmoq qulni o'ldiring, Er aka? O'ldiring ...

— Tur o'rningdan, — dedi jahli tarqab qolgan Erkishi yuz-boshi Elchurga. — Boshingni ko'tar. Sen askarlik vazifasini ba-jarding. Askarlik ishini aniq bajargan askarning boshi kesilmaydi. Tikka tur! Etagingga cho'p ham ilashmasin. Uni qoqib tashlab, otingga min!

Titrab turgan chaa yurtining sarkardalari har tomondan yolvor-dilar:

— Bilmagan zahar yutadi, Er aka? Hammamiz aybdormiz, hammamiz tiz cho'kib, itoat qilamiz? O'z bilan yotni, yaxshi va yomonni ajratgin, deb o'g'illarga aytmabmiz ...

"Ha, chaaning amaldorlari ko'k yalov g'oyasini qo'llamay qo'yganini eslashdi-yov! Eslasa, bu yaxshi. O'zlari sezib, o'zlari tan olganlari ham yaxshi. Aytib, o'rniga keltirish — bu tobulg'a sixni ko'zga sanchish", dedi ichida Erkishi. Keyin sekin hammaga

eshittirib aytdi, aytganlari turgan ikki yuz kishiga buyruqdek eshitildi:

— Tayyorlangan askarlar otdan tushmasin, chegaraga jo'nasin. Anovi bog'langan odamlar bo'shatilsin. Ular ham chegaraga borsin. Urishsang, urisharsan, Chag'ildir sher. Urishmasang, az bilan ellasharsan. Bo'linsang, bo'ri yeydi. Bo'lingan qirg'iz yurtini boshqa yurt oyoq osti qilaylik, deydi.

Erkishi shuni aytdi. Chaa yurtining shu yerda turgan donishmand, sarkardalari aytilgan so'zga ma'qul bo'lishdi. Az bilan bo'ladigan urushni esdan chiqarishib, Erkishi va u bilan birga yurgan, boshiga qush qo'ngan Yosh teginga hammasi itoatgo'ylik izhor qilishdi...

Azning donishmand lashkarboshisi Bayirquv tayyorgarlik ko'rgan besh mingday askarini boshlab katta daryoning chaa tomonining yonboshidan kechib chiqdi. Lashkarning oldi o'tib bo'lmas O'to'ken o'rmoni tomon yopirilib, o'n-o'n beshtadan bo'linib qolganini hisobga olmaganda, g'ozqator bo'lib kelishardi. Chaaning haybati qattiq, hozir urishadigan payti emas, degan xabar kelgandan so'ng, azning lashkari ham elning chekkasiga to'plangan. Endi azning qo'shini bir tomonga surilib, tayyorlanib, o'zining chegarasida chaani to'sib chiqishdi.

Balki chaaning askarlari bularnikidan ozlik qilar? Oz bo'lishiga qaramay, ularning askarlari yaxshi tayyorlangan. Har doim mingani bir xil qulon sur ot. Hammasining sadoqlari yo'lbars va ilbirs terilari bilan qoplangan. Barining boshida bo'g'rakindik dubulg'alari bor. Temir dubulg'asi bo'lmaganlar qum yopishtirib qo'sh qavat bosilgan ko'k kigizdan dubulg'a kiyib yurishadi. Agar kigiz degan nomi bo'lmasa, qum yopishtirilgan dubulg'a og'ir, uni o'q teshmaydi, gurzi ham o'tmaydi. Ular, shuningdek, yenglari va etagi kalta to'n kiyib olishadi. Uning ustidan yengil, mustahkam kementay kiyishib, uning etaklarini qayirib belbog'iga qo'sha o'ranib oladigan odati bor. Bu an'ana askarlarni yengil, baquvvat va chaqqon qilib ko'rsatadi. Dushman askari, ko'pincha, chaa askarlarining shu suridan cho'chib, ularning qo'rqmasligiga toqat qilolmay qochishga majbur bo'lishardi.

Soni oz bo'lsa-da, o'sha haybatli lashkarni boshqaruvga Chag'ildir endi otlanayotgan paytda Erkishi keldi. Askar marosimini tabarruk, deb hisoblagan Erkishi lashkarboshilarini to'xtatmay, ular bilan birgalikda ovuldan uzoqlashib, chegaraga yo'l oldi.

Ot yoliga qo'l tegib jilovni olgandan keyin, otdan qaytib tushsa, ovulda, teridan yopqich kiydirilgan ot mingan askarning yo'lida yomon ishlar bo'ladi, degan ishonch, bunday holatda eng muqaddas hisoblanardi.

Otlangan lashkar mo'ljallangan kuzatuv joyiga borib to'xtashi kerak.

Chaa askarlari qator bo'lib o'tib bo'lmas O'to'ken o'rmoning janubiy qirg'og'iga yo'l olib, tezlab kelishmoqda Oldinda — o'ngda va chapda elliktadan qo'riqchi bor. Ular ba'zan otlarining sakrab, yelib yugurishidan to'xtatmaydilar. O'rtadagi ko'p askarlar oldinda, ularning ortidan o'z chaa askarlarining qo'mondonlari Chag'ildir va Bertebes ketishyapti.

Chaa askarlari o'rmondan uzoqlashib, o'rtada turgan adirning janubiy yonbag'riga kelib joylashdi. O'sha tekislikning narigi tomonidagi jo'nning chuqurroq joyida, yonbag'rida azning askarlari ko'rinib turibdi.

Chaaning askarlari paydo bo'lganda, azning askarlari orasidan oldi tomonga ot o'ynatib, chopganlar bo'ldi. Bu haybat ko'rsatish uchun qilinadigan askarlarning an'anasi. "Nimaga kechikdinglar, jangdan qo'rqdinglarmi?! Yaqinroq kel! Urushga chiq!" degan hayqiriqlar urush bo'ladigan maydonning belgisi, narigilarga qilingan chaqiriq.

Az ko'k jiyakli yashil yalovini silkitdi! Bu "Biz jangga tayyormiz! Ot qo'yishamiz!" degan belgi. "Urushga! Urushga chaqiramiz!" deyishsa, chaa tarafida ham o'z yalovlarini o'shanday qilib silkitishlari kerak. Shunda ikki tomon bir-biriga toshgan seldek surilib, yaqinlashadi... Yalov tutgan odam to'siq ustida, o'z o'rnida turadi. Uni o'rab qo'riqlayotgan jasur yigitlar yalovni saqlashlari zarur.

Askarlar qizil qonga bo'yalgan, qarsillagan urush o'rtadagi tekislikda qaynaydi, askarlar u yoq-bu yoqqa surilib, bir-biriga

tashlanishib, tirashadi, otlar bilan aylanishib solishadi, qora terga botishadi. Egasi o'lgan otlar chilvirini sudrab, chetga chiqishga harakat qiladi, o'lgan askarlar yerga yopishib qolgan. Yarador bo'lib, qonsiragan askarlar, egarda tebranib, ot yoliga og'ib... urushayotganlari yalov turgan yerga intilib... Hayqiriq, qiyqiriq: "Az, az", "Chaa, chaa" degan da'vatlar osmonni jaranglatib turadi. Bu vaqtda jang maydonida parrandalar ham uchmaydi.

Biroq az askarlari yalov silkitganda, chaa taraf ularga javob qaytarmadi. Erkishiga ergashib, askarlardan elliktachasi bo'linib chiqdi. Ular az tomonga yaqinlashgan sayin az urug'ining askarlari yalovini silkitdilar. Bu ularning: "Biz hech qanday gap-so'zga kelmaymiz. Urishamiz, urishamiz!" deganlari edi.

Yo'lning o'rtasiga yetganda, Erkishilar to'xtashdi. Shu payt Yosh tegin ikki askar bilan guruhdan ajralib, az tomonga jo'nab ketdi.

"Biz o'zagi bir ikki yurtning urushining ustidan chiqib qoldik. Bu ishga befarq qarab, ko'z yumib o'tishga odatimiz yo'l bermaydi. Ota-bobolar meni la'natlaydilar! Biz oraga tushib, aralashmasak, moslashmasak, tiymasak, ikki shiddatli lashkarni to'xtatmasak, baxt-omad bizdan qochadi! Teginjon, sen elchilikka bor! Otam qirg'izning kecha ko'zi o'tgan Er Kulchurining boshiga qush qo'ngan Yosh tegini oldingga keldi, og'ayni, degin. Azning mard yo'lboshchisi Bayirquvni elchilikka chaqir", — deb Erkishi Teginga so'z o'rgatgan.

Yosh va kelishgan Yosh teginni ikki askar kuzatib, bularning oldiga oqbo'z ot boshini ko'tarib bostirib kelganida kiygan kiyimi, mingan oti, otga o'tirish odati chaa kishisidan o'zgacha ko'ringan Yosh tegin Bayirquv to'pini tang qoldirdi.

Boyadan beri hammasini bilib, barini fahmlab turishgan azning donishmandlari bu kelgan elchining kelib chiqishi boshqa ekanini aytmay turib tushunishdi.

Erkishidan saboq olgan, askarlik, elchilik tartib-qoidalarining ko'pini uqqan Yosh tegin yoshligini sezdirmadi. U shoshmay, qo'rqmasdan haybat bilan keldi-da, dadil ovoz bilan dedi:

"O'o', o'zimning o'zakdoshim — az yurti! Azning donishmandlari, yo'lboshchilari, hormanglar! "

Ular jim qarab turishadi "Ey, yo'lni to'sadigan sen kimsan? Kim bo'lsang bo'l. Yo'l to'smasdan, tizginingni tort", deganday kek va g'azab bilan qarab turishardi.

Tegin bu gapga quloq solmadi. Qamchisining soniga tirab so'zida davom etdi.

— Otam qirg'izning kecha ko'zi o'tgan Er Kulchurining Teginiman! Er akam bilan yer kezib kelayotgandik. O'zakdosh ikki urug' — az bilan chaa sizlarning urushinglarning ustidan chiqdik. — Yosh tegin orqa tomondagi maydonning o'rtasida turgan to'pga qarab qo'ydi. — Anovi o'rtada xolis bo'lib Er akam turibdi! Sizlarni tinchlikka chaqirib, men keldim! O'o', az og'ayni, o'o', Bayirquv! Urushni qo'ying, so'zga keling! U yerda xolis kutadi!

Yol-quyrug'i silliq to'riq ot minган savlatli Bayirquv baland ovozda dedi:

— Tanidim! Yosh tegin ekansan! Sening gapingni qaytara olmayman! Erkishi xolis bo'lsa, men bu harakatlarimni to'xtatishga majburman, yurt! Ajdodlar an'anasini chetlab o'tolmaymiz. Xolisning oldiga borib ko'raylik, donishmandlar! Aytganini eshitaylik. Xolislik bo'lmasa, urishganim urishgan, askarlar hushyor turishsin.

Bayirquv otini shartta ilgari bostirganda, ellikka yaqin askar unga ergashdi. Oqbo'z intilib, tizginini cho'zib, bosh chayqab, Yosh teginni to'pning oldiga olib chiqdi. Yo'rg'asi yugurgandan kam bo'lmagan to'riq arg'umoq tezlab, Oqbo'zning yoniga keldi. Har ikki ot shuvillaganday chopib tez yetib kelishdi.

Berigi to'pdan Erkishi ularni yolg'iz kutib olishga chiqqan edi, Chag'ildir ham unga hamroh bo'ldi. O'rtadagi masofa ikki arqon uzunligicha qolganda, Bayirquv to'pi to'xtadi. Urushmoqchi bo'lib turgan ikki to'pning o'rtasida oti ham, o'zi ham muloyim Erkishi gapini hammaga eshittirib, asta aytdi:

— Horma, azning donishmandi Bayirquv! Men kelganimda, o'rim-yig'im ko'paysin, dehqon bobo donni ko'paytirsin, deb xirmonga bir ehson qilib ketsam bo'lardi. Koning ko'p bo'lsin, o'tkir tig'ing ko'paysin, deb ko'ruk bossam bo'lardi. To'y to'yga ulansin, ostonadan moy oqsin, deb rizq-barakaga duo beradigan bo'lib

kelsam, nima bo‘lardi? Erkishi ovozini oldingidan ham balandroq qilib, qattiq-qattiq aytdi: — Biring anovi Qodirxon tog‘ining orqasidan kelgan manguldan battar, biring bu bo‘z adir cho‘lni bosib, g‘ijillab keladigan tabg‘achdan battar, o‘zagi bir ikki og‘am birbiri bilan urishayotganining ustidan chiqibman.

Ko‘rsa, meni bu safarga Ko‘kdagi Tangri, bobolarning arvohi bor, degan ekan. Ilgaridan beri bobolar yashagan yer-suvni qiynab, qonga yuvgan kim? Qani, ikki tomonning donishmandlari haq gapni aytib, ochiq javob bering.

Ey, nimaga indamaysizlar? Tabarruk yer-suvni chetdan kelgan yov qonga botiradi. O‘zagi bitta az bilan chaa ikkovinglar bir-biring bilan yovlashganda, anovi sirtdan kelgan tabg‘ach yovning askarlari ikkovingni qo‘shib supurib tashlaydi.

Qo‘yinglar, ikki og‘aynilar, o‘zlaringni bosinglar! Urishmang, arvohlar sizlarni koyib yurmasin. Tabarruk yer qonga botmasin. Qonni sog‘ingan erning g‘azabini bosadigan qon yo‘qmi? Bir oq qo‘chqorni bo‘g‘izlab, qoniga qo‘llaringni botirib, yarashinglar, og‘aynilar. Biringning singling bo‘lsa, biringning inisiga ber. Biringning qizing bo‘lsa, biringning o‘g‘liga uzat. Qator quda-anda bo‘lib ittifoqni mustahkamlashning harakatida bo‘linglar.

Hoy, yovlashgan tomonlar! Bu ittifoqni men aytdi, deb eshitinglar. Az bilan chaaning donishmandlari va er lashkarboshilari, otam qirg‘izning Er Kulchurining Yosh tegini, uning ustozi Erkishi aytdi, deb eshiting.

Jangda el qayg‘uga botadi, zor-zor yig‘laydi. Oddiy, bag‘ri keng odamlar sizlarda ko‘p. O‘shalar qayg‘uga botmasin, yig‘lamasin. Yarashinglar!

Quyosh zarrin nurlarini ayamay sochmoqda. Otlarning ipak yollari shabadada ohista selkillaydi. Ikki tomonning yovlashgan lashkarlari chiyday to‘planib, ikkovi ikki tomondan bir-biriga tiklashgan arslonlarday chekkadan bir-birini yomon ko‘rib, bir-biriga hujum qilishga sakrashga tayyor. Askarlarning cho‘pqut va sovut to‘nlari quyoshda yaltiraydi. Tikka jancharlar uzoqdan ko‘rinadi. Qalqonlar bir-biriga tiralgan, dubulg‘alarda quyosh nuri aks etadi.

Katta to‘pda yalov hilpiraydi.

Oyoq-qo'li uzun, bir joyda turolmaydigan to'riq otda o'tirgan Bayirquv jim turib, da'vosini aytdi. Uning mayin ovozi baland va haybatli eshitildi:

— Chaaga men tegmadim. U o'zi bizga suykaldi. Yarashinglar, deding, yarashayin, Er aka. Chaa ovulga yaqin yaylovda mol boqayotgan molchimni tekislikdagi dehqonimni bog'lab olib ketdi. Ularni ko'p xo'rladi. Ular qul to'nini kiyganini ko'rdik. Ko'pi bo'g'izlandi. Qonga — qon, deb lashkar otlangan edi.

— Qoyil! — dedi Chag'ildir. Uning ovozi ham o'ktam chiqdi. — Azda kekim bor, desam, Bayirquv, sen da'voingni aytyapsan. ...Sen bebaho otimni o'g'irlatib ketding, uyimdagi qulimni ozg'irding, ichimdan buzib, o'zimni o'zimga qoptirding.

— Aytganlaring isbotsiz da'vo, Chag'ildir sher. Otingni az olgani yo'q. Qul qochib ketgan bo'lsa, uni az ko'rmadi. Bizning ko'p kishimiz begunoh halok bo'ldi ...

— Chaadan ham oz o'lgani yo'q. Bayirquv alp. Sen ham chaaning o'g'lini qul qilding, chaaning qizini cho'ri qilding. Jang qilaman!

— Jang qilsang, qilaveramiz. Ana, lashkar narigi tomonda tayyor turibdi... Bayirquv ham ot o'ynatdi. Chag'ildir ham ot o'ynatdi. Ikki yo'lboshchi bir-birlariga qilich o'qtalishayozdi.

Hech narsa bo'lmaganday Katta to'riqni o'ynoqlatib, Erkishi jim turardi. Biroq jim turgan paytida ham mudragan arslonday ko'zini ochib-yumib, yashirincha Yosh teginga ishora qildi:

Bu "Oraga tush. Ko'k po'lat qilich qindan chiqmasin! Qon oqmasin. Jahlini bos!" — deganday belgi bo'ldi.

Yosh tegin bosh irg'adi. Eti jimirab, oldinga intilib turgan Oqbo'z o'ynab, olg'a intildi. Ot o'ynoqlab tizginga ham bosh bermay jo'nadi. U to'g'ri borib bir-biriga ot solishmoqchi bo'lib turgan Chag'ildir bilan Bayirquvning orasiga tushdi. Bir-biriga tashlanmoqchi bo'lib turgan ikki urug' alplarini ajratdi:

— Jahlingizni bosing, Er akalar! Sizlarning orangizda o'ta olmaydigan jar bo'lib turibman.

— Tur, Er Kulchurning Yosh tegini! Boboning ko'k qilichini bosib o'tganni qoya bosadi.

Chag‘ildir bilan Bayirquv bir-biriga achchiq va g‘azab bilan qarab, to‘xtab qolishdi. Ularni qo‘yib yuborsa, bo‘g‘raday bir-birlarini chaynab tashlashadiganday. Lekin...

Boboning ko‘k qilichini bosib o‘tganni qoya bosadi, degan gap bekordan aytilgani yo‘q. Aslida, hozir yarashuvga kelmaganning chopilishi aniq. “Tikanni ildizi bilan uz” degan naqlni qoidaga bo‘ysunmay, el birligini buzgan o‘zni ham chopib, tiz cho‘ktirish kerakligini bobolar aytgan.

Hozir yarashuvga kelmagan ikki urug‘ halok bo‘lishlarini ko‘z oldiga keltira oladimi?

Chag‘ildir ham, Bayirquv ham qilichlarini sug‘urmay to‘xtalishdi...

O‘sha paytda Erkishi o‘z qarorini aytdi:

— O‘zlaringcha botir bo‘lganlar hoziroq ikkoving otdan tush.

Ilojsizlikdan har ikkovi ham otdan tushishdi.

— Ikkoving bir-biringga chilvir ber, — dedi Erkishi.

Chag‘ildir Bayirquvga, Bayirquv Chag‘ildirga chilvir irg‘itishdi.

Ikki tarafdagi hamma otliqlar yoppasiga otdan tushdilar. Bu:

“Urush tugadi. Yovlashgan edik — yarashdik!” —degan marosim edi.

— Urush tugadi.

— Yarashdik!

— Yarashdik!

— Oq po‘lat qilichning oldida qasam iching! — dedi Erkishi ularga.

Yosh tegin oltin qinli egri qilichni ikki kaftiga qo‘yib, oldinga cho‘zildi. Bayirquv qilichni o‘pdi:

— Kek qilsam, kek o‘ldirsin, qonim oqsin!

Chag‘ildir qilichni o‘pdi:

— Kek qilsam, kek o‘ldirsin, qonim oqsin!

Er kishining oraga tushib, ularni yarashtirishi ikki tarafning ham g‘azabdan tushirdi. G‘azab kelganda, so‘kinib va bag‘ri tosh bo‘lib qolgani bilan, odatda, o‘zi mehribon bo‘lib o‘sgan bu yurtning odamlari ajdodlar odatini mahkam tutgan yo‘li bu safar ham tirashgan ikki lashkarboshini tezda tartibga soldi. Ular yarashdilar.

Ikki eldan ikkita oq bo‘g‘ra so‘yildi. Bo‘g‘ra kuchga kirib jinlanganda uning jini bahor tugaganda yo‘qoladi. Suv bilan oqib ketadi. Xullas, ikki daryo qo‘shilgan joyda ikki bo‘g‘ra bo‘g‘izlanib, qoniga hamma — mingboshidan torib o‘nboshigacha askarlar qo‘llarini botirishdi.

— Askarlar qirilishardi. Bosh kesilib, qon to‘kilardi. Biz urushni to‘xtatdik. Biz yarashdik.

— Bu yarashuvni buzgan tomon shu suv oralig‘ida, mana shu bo‘g‘ralar kabi bo‘g‘izlansin! Kekimizni shu qon olib ketdi!

— Biz bir suyakdanmiz. Bizning suyaklarimiz bitta!

Chag‘ildirning o‘n oltidagi qizi Akbermetni shu safar mingboshi sifatida, askarlarga bosh bo‘lib kelgan Bayirquvning o‘n yettiga kirgan o‘g‘li Kuluchur oldi.

Yovlashgan ikki urug‘ endi quda-anda, og‘ayni bo‘lishdi.

DOSTONDAN XABAR

“Ulug‘ so‘z”ni ulagan — Uqumchidan gap uqdim,
Ilgarigilar yengishda ajib bo‘lar, deb uqdim.

El so‘zi

Qaytgandan qolgan so‘z ekan,
Kuchim yetmas yolg‘onga.

Manasdan

Hozir bular yettita.

Bayirquv bilan Chag‘ildir — az bilan chaaning ikki lashkar boshlig‘i, ikki donishmandi achchiq tarqab, ikkovi quda-anda bo‘lib ittifoqlashgandan keyin o‘zlari boshlagan urush, agar urush bilan yakunlansa, yurtga qayg‘u, tashvish qirg‘in olib kelishini o‘shanda tushundilar.

Bolta sopi tul qoldi,
Uni ushlar qo‘l ham yo‘q.
Qayin sinib, o‘rmon qiyrar,
Yondiradigan o‘t ham yo‘q,

deb qizligida tul qolgan o‘sha yaxshi va asl qiz va kelinlar o‘zlarining umr yo‘ldoshlarini qidirardi. O‘zining uyida cho‘ri

atalib qolardi. Chakkalari oppoq, ko'zlari qizarib ketgan chol-kampirlar o'z naslini davom ettiruvchi yosh farzandlarini yo'qotib qayg'uga botishardi. Bo'taloqsiz tuyalar bo'zlab, sigirlar mo'rardi.

Qisqasi, ilgari bo'z-adir, cho'lni quyunday bosib, quturgan bo'ronday hamma yoqni ag'dar-to'ntar qiladigan urush bu safar ham ikki urug'ning yurtini qayg'uga rosa botirardi.

Ikki tomon kelishuvga erishib, o'sha bo'ladigan qirg'in to'xtadi, tashvish tugadi. Tangri yurtni ayadi. Uni o'zi saqladi. G'azabga, quruq nomus oldirgan Bayirquv bilan Chag'ildirning aqlini kiritdi. Ot yolidan qon to'kiladigan bo'lib turganda Tangri bizga Erkishini yubordi, deyishdi ellar. Katta-kichik, yaxshi-yomon — hamma Erkishini, Yosh teginni va har bir urug' o'g'illarni ulug'ladilar. Yilqichi, cho'pon va tuyachi Erkishi boshlab yurgan yigitlarni maqtadi. Bular qo'nib o'tgan qo'shinning yilqilariga yo'lbars ham tegolmaydi. Anovi yo'lbarsning rangiga o'xshagan chipor ot minib, yo'lbars to'n kiygan yigitning ismi Yo'lbars ekan. Uni Erkishiga Tangrimning o'zi topshiribdi, deb biri gapirsa, ikkinchisi, berigi Buylash uysunning zo'r yigiti ekan, uni Tangrim o'zi qo'llab, Erkishiga qo'shib qo'yibdi. Bular tunab o'tgan yurt tuyasiga qora chivin ham tegmaydi.

Keyin uchinchi biri gapni ulaydi:

— Yilqi, tuyalarni aytib nima qilasiz? Ularning orasida hunarmand Bars ham bor ekan! Qadimgi Bars aka Oltintoqqa qarab na'ra tortganda oltin erib tusharkan. Qoratoqqa qarab hayqirsa, temir erib to'kilar ekan, Kumushtoqqa qarab, hayqirganda, kumush erib tushadigan Bars akaning bir urug'i shu odamlarga qo'shilibdi. Otasini yo'lbars o'ldirgan bolaning o'zi Erkishining yonidagi Bars bola ekan.

— Bu Bars bola hunarmandlar qo'llagan, qo'lidan qo'ri to'kilgan usta, urushga otlansa, haybatidan yov qo'rqqan alp, yig'inda o'tirsa, gapi elga yoqqan donishmand-chechan ekan. Uni bilgan Erkishi o'zi ta'lim berib, yurtni, yerni, el tanisin, deb o'zi bilan birga olib yuribdi...

— E-e-e, — dedi yana biri. Molni, konni aytib nima qilasan? Erkishi hamrohligidagi yigitlarning orasida dehqon boboning avlodi ham bor ekan! Bobo dehqon tabarruk, o'zi qo'llagan yili

toshda ko‘k unadi, qumda don pishadi. Yetim-yesirlar kichkina kulchaga ham to‘yadi. Anovi to‘riq ot mingan katta bola yer ochgan, qizil bug‘doy, tariq, javdar urug‘ini sepgan dehqonning o‘g‘li ekan. Uni Tangri Erkishiga qo‘shib qo‘yibdi...

— To‘xta, — dedi yana biri. — Molni, konni, dehqonni aytib vaqtni ketkazma. Erkishining yonida Yosh tegin yuribdi-yu! Uning boshiga qush qo‘ngan. U hammamizdan baland o‘g‘lon. Mol boqqan, ekin ekkan, kon eritgan, lashkar boshlab yovga qarshi chiqqan, boshi qora oyog‘i ayri kishiki bo‘lsa, ularning kuchi Yosh teginda. Erkishining o‘zi Yosh teginga kuch berib, yo‘l ko‘rsatib, qayta o‘zi unga yana itoat qilarkan. O‘sha donishmand yo‘lboshchining yonida bizning nasldan odam yo‘qmi? Botir chiqsa, sarkarda bo‘lsin, qo‘rqoq chiqsa go‘lax bo‘lsin, deyishib Bayirquv bilan Chag‘ildir ikkovi o‘z urug‘laridan Erkishiga Oquul bilan Bo‘zuulni qo‘shdilar. O‘tganda, Chaa ovulida bog‘langan yetim bola To‘quul ham Erkishini ota, — deb, unga qo‘shildi.

* * *

...Jonivor otlar odamning fikrlarini uning salmog‘idan sezganday. “Bu maxluqning ishi o‘ylanish, mayli, o‘ylansin, chalaroq bo‘lsa ham, uxlab ketsin”, deganday bir qolipda yo‘rg‘alaydi. Ko‘pdan beri yomg‘ir yog‘maydi. Yo‘l qurib, “Top, top” etib qotib qolgan yo‘lning betidan chiqqan tuyoq tovushi yosh askarlarni terlatadi, allalaydi. Ular mudraydi, egarda uyqu bosadi. Yashirincha u yoq-bu yoqqa qaraydi. Agar ulardan biri egarda mudrasa, Erkishi jilovni qoqadi.

— Ie, uxlash yo‘q, o‘g‘lim.

Katta to‘riq egasining fikrini sezgandek tezlikni oshiradi. Boshqa otlar ham uning orqasidan ergashadi. Egarda mudragan Bars bilan Yosh teginning bo‘yni shilq etib, iyagi ko‘kragiga tegadi.

Uyqusi ochilib ketgan Bars cho‘chib, u yoq-bu yoqqa qarab oladi. Ko‘zlari yig‘lab turib uxlab qolgan bolanikiday qizil, qovoqlari shishib qolgan. U o‘ziga kelib qoldi, shekilli, otini tepinib, dadil bostira boshladi.

Erkishi buni sezmaganday, u uyqusi kelgan odamday shilqiyib otini bostira berdi. "Top-to'p, tip-tip!" etgan tuyoq tovushlari qaytadan otliqlarni tebrata boshladi. ...

"Chegaradagi askarga uyqu yov. Chap ko'zi uyqusirab, o'ng ko'zi hushyor bo'lmasa, askarning haqiqiy o'limi uyqudan. E-ey, o'g'lim, o'g'lim! Qosqoq ushlab, hayqirib urishib askar bo'lish — hammaning ishi. Olti kun otdan tushmay va yetti kecha kiprik qoqmay chegarani kuzatish haqiqiy jangchilikdir! Zulmatda yo'l topib, bexosdan so'z topish haqiqiy bilimdir!

Katta to'riq yengil yeladi, Erkishi chayqaladi. U toliqib, mudrab kelayotgandek qamchisini ham ko'tarmaydi. Keng yelkasi oldinga sal engashganday.

"Men ularni yetti kecha-yu yetti kunduz egardan tushirmayman. Ishga yaraydigani shunda bilinadi. Ha..."

Yil bo'yi egarda yurib pishib ketgan jangchi o'zi charchamaydi, o'zi uxlamaydi. Shunchaki shilqiyib... "Top-to'p, tip-tip!" etgan tuyoq tovushlarini tinglaydi ...

"Bosh ot, askar oti, er oti — odamga qanot! Jonivor, yo'lda davom eting".

Hayotida Erkishi ko'p janglarda ko'p marta yov ustidan g'alaba qozonib, yulduzi ko'kda yongan. Ko'p marta o'zi ham yengilgan, yulduzi oyoq ostida toptalgan. Bu obro'li boshi qullikda ham bo'lgan. Yovni yengib, yulduzi uchganda ham, qul bo'lib, yulduzi toptalganda ham Erkishini qo'llagan bir kuch uning yonida yurdi. U ko'zga ko'ringanday qo'llagan, unga yo'ldosh bo'lib kuch bergan odam ko'rinishdagi qo'rqmas alpning elasi, ruhi. Ko'zga ko'rinmagan, lekin Erkishining umidini qo'llagan ishonchi kuchi bo'lardi. Boshqalar "Er akani jilovidan yetaklagan qo'llovchisi tirik arvoh, o'sha qo'llovchisi yonida yurganida Er aka hech qachon yovga yengilmaydi", deyishardi.

Erkishining otasi qo'ygan ismi Cho'g'ultur. Uning otasi Oqbergan ekin ekkan, chorvachilik bilan shug'ullangan, ko'mir qazuvchi, kon erituvchi o'z vaqtida har xil kasblarni egallagan hunarli kishi edi. U hunarini qo'llab uzangi egib, omoch, shamshirning tig'i, xanjar va egri qilich o'tkirlagan mohir usta edi. "Mol boqib, ekin haydash hammaning qo'lidan keladi. Lekin

hunarning yaxshisi konchilik bilan temirchilik. Oltin quyib, kumushni ishlatish esa ustaning ustasi — zargarning qo'lidan keladi. "Qilichi o'tkirning chegarasi mahkam. Ignasi o'tkirning usti butun!" — deb maqol aytuvchi Oqbergan o'g'illariga ham temirchilikni o'rgatdi. Ey, o'g'lim, agar jangchi bo'laman desang, qurolingni o'zing tayyorla! O'zingning quroling o'zingni saqlaydi. Buni bilib ol!" — degan edi Cho'g'ulturga otasi.

Zero, bu asl so'z azaldan bobodan otaga, otadan o'g'ilga aytila berib, qoida bo'lib qolgan. Oqbergan o'sha so'zlarni aytganda, har doim yodda saqlanishi zarur bo'lgan gapni aytayotganday kulmay, haybat bilan:

— Buni unutma. Agar unutsang, boboning vasiyatini bilmaydigan aqlsizsan. Bunday o'g'il otasining o'rnini egallay olmaydi. Ota kasbini davom ettira olmaydi.

Cho'g'ultur Erkishi nomini olgandan keyin ham otasining shu vasiyatini yodida mahkam tutdi. Uni bajarishni o'zidan keyingilaridan ham talab qildi.

Shunchaki o'g'il jangchi bo'lish, shunchaki askar bo'lish: jasur sarkarda bo'lish, har bir g'ayratli kishi erisha oladigan ish. Albatta, qo'mondon bo'lishga shaxsiy jasorat, kuch, mardlik va mohirlik ozlik qiladi. Unga aql-idrok, ayyorlik, bilim va oldindan ko'ra bilish ham qo'shilishi zarur.

Erkishi nomini hokimiyatdagilar kengashib beradigan nom emas, bu ulug' nom el, hamma lashkarboshilar, askarlar tomonidan beriladi. Bu nomni olish quyidagi tadrijga ega: jangchi — mard jangchi, mard jangchi — mard qo'mondon, mard qo'mondon — Erkishi. Erkishi nomini olish esa qadimdan kelayotgan botirlikning eng yuqori darajasi, shon-sharafi.

Bu qaysi zamonda qoida tariqasida el qo'llangan an'anaga aylangani o'zicha bir sir. Bu sir ko'ringan joyda ko'ringan odamlarga aytila bermaydi. Bu mardlikni o'zlariga chaqirish uchun kishilar yaroqlarini taqib, uning chekkasidagi katta tepalikning ustiga to'planishib, quyoshga sig'inishadi.

— Ey, muqaddas Ko'k, yorqin Quyosh! Bizga kuch beringlar! Bizning aytganimizga guvoh bo'ling? Sening kuching bilan bag'ri keng yer ko'karadi, yomg'ir yog'adi, o'rmon unadi, suv oqadi.

jonivorlar rizqlanadi. Inson nasli ko'payadi. Nasldan Erkishi chiqadi!

Hamma bir zum to'xtab, so'ng deydi:

— Ey, usti ochiq Ko'k, bizni o'zing qo'lla. Biz shavkatli kishilarning mardligini eslab sig'inamiz.

Shundan so'ng urug'ning egasi, donishmand notiq so'z boshlaydi.

— Shavkatli kishining tirik arvohi jilovida yurgan odam o'zi tabarrukdir. Unga odamlar yetaman, deydi, yetolmaydi. Ot yolini ushlab mingandan boshlab odam o'zini toza olib yursin. Och qoldim, deb quvarmasin. Hech narsam yo'q, deb qayg'urmasin. O'zi o'lsa, unda u yov bilan yuzlashgani. Agar arvoh jilovida bo'lsa, unda o'lmas er bo'lgani! Shavkatli kishi hammangning jilovingda bo'lsin!

Toza bo'linglar!

Donishmand kelishtirib gap aytganda, hech bir jon uning so'zini bo'lmaydi. Qadim-qadim zamonlarda el-yurt boshidan o'tgan qancha ulkan fojiali voqealarni bir ipga tizganday aytib, o'sha vaqtdagi urush maydonlarida o'zi birga qatnashib yurib, asrlarni boshidan o'tkazib, o'lmaydigan xosiyatli, sehrli tabarruk kishiday ranglari oqarib, ko'pchilikka termulib, ovozini sozlab, gap boshlaydi. U faqat o'zining bobosi o'tgan aymoq, o'z yurti yurgan yer haqida aytmasdan, chegaralariga ko'z yetmas dunyoni to'rt tarafidan asta kezib kelib, u tomonda kun kechiradigan el-yurt bilan rizqi bir, qayg'u-alami bir bo'lganday, qancha ulkan yotlarning, dushman yurtining qahrini ko'rganday, ularning donishmand yo'lboshchilari bilan sirdosh bo'lib gaplashganday bo'lib yurib, keyin ular bilan yovlashib, urishib, barcha hunarlarini o'rganib, sirini bilganday hikoyasini ulaydi.

Keyin ochiq aytadi:

— ...shunday yurtim. Hozir donishmand-xon bo'lib, birpasdan keyin qo'lga tushib qul bo'lib qolish hech gap emas. Tangri saqlasin! Agar uzoqdan qoplab yov kelsa, chegara buziladi, ichingdan bildirmasdan yov chiqsa, o'zaging o'rtanadi. Oddiy va rahmdil odamlar moldan battar haydalib, tahqirlanadi, nasl qiriladi. Kishi

qul bo‘lganda, moldan past ahvolga tushadi. Mol o‘z ozig‘ini oyoq ostidan topib yeydi. Inson cho‘p bilan kun ko‘ra olmaydi. Molni qamchilasang, bir-birining oralariga kirib, jon saqlaydi. Odamni qamchilasang, ular bir-birini g‘ajiydi. Qulni qul savalaydi. Ochni och talaydi... Qiyinchilik qattiq bo‘lganda, odam odamligini yo‘qotadi. O‘shanda shavkatli bahodir o‘zini tabarruk tutib, o‘zini ham, yurtini ham, azob tortayotgan kishilarni ham qutqaradi. Uning haybatini, jasoratini, ayyorligi va kuchini ko‘rib, unga rahmat aytib uni Erkishi, deb ataydi.

— O‘o‘, Ko‘k tangri! Bizning avlodimizga shijoat bering, aql bering, kuch bering, rizq bering!

Shu tilakka katta-kichik fotiha berishadi. Hamma qahramonlikka sig‘inadi. Askarlikning irim-marosimi, sog‘ingan oq tilagi shu. Keyin quyoshga sig‘ingan kishilar suv bo‘yiga yig‘ilishadi. Oqbo‘z biya so‘yishib, yer-suvga ibodat qilishadi.

— Echkidan qo‘tir ket. Qo‘ydan jigar qurti ketsin. Sigirni ko‘k ko‘ylak[1]dan saqla. Chivin tuyaga tegmasin. Yilqiga manqa[2] kelmasin! O‘o‘, alas, alas[3]! Falokatdan xalos! Yer ko‘karsin, ko‘k chiqsin. Yelin to‘lsin, sut chiqsin. Qishda qor tekis yotsin. Bahorda yomg‘ir tekis yog‘sin! O‘o‘, alas, alas! Falokatdan xalos!

— O‘g‘il bolaga keladigan katta tumov eshikdan qayt. Qizga keladigan qizil tumov teshikdan qayt. O‘g‘il, qizni Umay ena qo‘llang. Qarini hurmat qilib uzat... Askarni shavkatli bahodir — Erkishi qo‘llasin. O‘o‘, alas, alas! Falokatdan xalos!

Ibodat oy botganda davom etadi. Donishmandlar rivoyat qilgan “Ulug‘ so‘z” yashirin bo‘la boshlaydi... Yashirin so‘z — odamlar amal qiladigan marosimdir!

...Uchgan qushday, esgan shamolday qaydan kelib, qayerga ketgani bilinmay kecha-yu kunduz egardan tushmay, shu paytda shavkatli bahodirning tirik arvohini olib yurgan — Erkishi Oqbergan ustaning o‘g‘li — Cho‘g‘ultur o‘z ismidan Erkishi nomiga o‘tganiga bir yilcha bo‘lgan edi...

---

[1] **Ko‘k ko‘ylak** — sigirlardagi o‘ta yuqumli kasallik, o‘lat.

[2] **Manqa** — yilqilarda uchraydigan yuqumli kasallik.

[3] **Alas-alas** — qirg‘izlarda archaning shoxini tutatib, isiriq solayotganda aytiladigan so‘z.

Oxirgi o‘n-o‘n besh yildan beri qirg‘iz zaminiga hujum bo‘lmadi. Yurt chegarasiga kelgan yov hayqirib, haybat bilan hujumga o‘tadi. O‘zi qirilib, bezadi, atroflarga tarqab ketadi. Buni shavkatli bahodir jilovida bo‘lgan Erkishining haybati va suridan bo‘ldi, deb bilishadi. Darhaqiqat, Erkishi tumanboshi bo‘lib jang maydoniga yo‘lga chiqqanda uning buyrug‘ini olgan har bir mingboshi, yuzboshi, ellikboshi va o‘nboshilar ot ustida bo‘lishga qasam ichadi. Har bir askar o‘q tishlaydi:

— Boshim yorilsin. Egarda qolaman! Dushmandan qochsam, Ko‘k ursin! Erboboning tirik arvohi qahriga olsin! Er akaning qilichining tig‘i ursin! — deb otlanadi.

Jangda qo‘mondon, tinchlikda usta, ko‘mirchi Erkishi hozir yer kezib, yurt qidirib yurgan oddiy yo‘lovchi. Bu sayohatdan maqsad tabg‘achlar bilan bo‘lgan so‘nggi jangdan keyin el-yurtning qanday yashayotganligini bilish, urug‘ donishmandlarining sirlari bilan tanishish. Tabg‘ach — ayyor dushman. U bildirmay o‘ldiradigan yorilmagan yaraga o‘xshaydi. Qilichidan hiylasi, buzuqiligi o‘tkir. U qadimdan oldindan ayg‘oqchi jo‘natib, o‘ziga yo‘l izlab o‘rgangan. Lashkarboshiga lashkarboshini yomonlash, urug‘ga urug‘ni gij-gijlash tabg‘achlar tomonidan hech bilintirmay amalga oshiriladi. O‘zi yovlashib, urishib yurgan Er Kulchur vafot etganda asosiy dushmanimiz o‘ldi, deb xursand bo‘lishmadi. Qaytanga qayg‘urdi, yolg‘on bo‘lsa ham, aza tutdi.

Er Kulchur bu dunyodan uchib ketganda, uni bilgan boshqa yurtlarning xonlari, beklari aza tutib keldi: qarluq xoni Gelchur, bargi xoni Takachor, Uchsuvning begi Urun-xe, totning boshlig‘i Tayra, ho‘v, olisdagi tuput yurtidan beri qancha-qancha urug‘-yurtlarning xoni, begi, botiri Er Qulchurga aza tutganda, bu az bilan chaa narigi G‘ozioqko‘lning uysuni, To‘qqizsuvning to‘lo‘si, bargi... qirg‘iz otaga o‘zimiz o‘zakdoshmiz, Er Qulchurga xizmat qilamiz, deyishdi. Qo‘y, yilqisini, tuyasini haydab kelib, mehmonlarni kuzatish uchun so‘yish[1] qo‘shishdi. O‘zlari aza tutganlarga qo‘shilib, qilich tayanib, yig‘lab turishdi.

— O‘o‘... essiz botir! Essiz botir!
Chegaraga tabg‘ach yov keldi,

[1] **So‘yish** — marosimlarda so‘yiladigan hayvonlarning umumiy nomi.

Er Kulchur oqbo'z ot mindi,
— O'o'... essiz botir! Essiz botir!
El-u mardin qator, teng saydi[1]ng,
Ikkitasi oz, deb sen sayding.
— O'o'... essiz botir! Essiz botir!
Yetti mardin qator teng sayding,
Yettisi oz, deb so'z sayding.
— O'o'... essiz botir! Essiz botir!
Oqbo'zing o'qqa uchganda,
Cho'ng[2] xoldor ot minib, xayqirding.
Ko'p emas ekan, deb xo'p sayding.
— O'o'... essiz botir! Essiz botir!
Cho'ng xoldor o'q yeb, oqsadi.
Cho'ng qirdan kunning botgani.
Ne qilarni bilmasdan
Ko'p yurtning suyagi qaqshadi.
— O'o'... essiz botir! Essiz botir!

Yurt shunday motam tutib turganda ham, tabg'ach xoni Sen-Lin-Xa xolis hisoblangan Uchsuvning begi Esenlayni elchi qilib jo'natdi. Urush yomon narsa. Urushda xon o'ladi, degan gap bor. Yaxshi ish bo'lmadi. Er Kulchurning donishmandligini, jasoratini hurmat qilgan dushman bo'lsam ham, do'sti edim! Urushda men hurmat qilgan ulug' bahodir to'satdan uchib ketganiga afsuslandim... Do'stlarday yig'lab, ko'z yoshi to'kaman. Donishmand ajo Odiltoy, tumanboshi Erkishi, bevasi Sayqal opa, o'g'li Yosh tegin, donishmandlar, beklarning hammasi mening qayg'urayotganimni bilishsin. O'sha yurtning urf-odatlarini hurmat qildim: mayin sarg'ish tilla, oq kumush buyumlar, kimxob to'nlarni to'qqiz tuyaga yuklab, ta'ziya bildirib jo'natdim. Er Kulchurning qabriga tul[3] qo'yinglar! Kecha chegarada yov bo'lsam, bugun to'rda do'stman. Tilagim bitta, elchilikka tayyorman, — debdi.

[1] **Saydi** — sanchdi.

[2] **Cho'ng** — katta.

[3] **Tul** —yog'ochdan qilingan o'lgan odamning shakli.

Sen-Li-Xaning bu "elchiligiga" el g'azablandi. O'rtaga tushib kelgan Uchsuv begiga Azman abo g'azab bilan dedi:

— Qarich, qarich, so'yam[1], so'yam, Esanlay! Uchsuv yurti ham To'qqizsuvda yashagan to'lo's, o'n o'q, bag'irday hammasi o'z. Anovi o'zining chegarasini tosh qal'alari bilan berkitgan Sen-Li-Xa menga ham yov, senga ham yov. Katta qirda kun botib hamma o'z yurt qayg'uga botib turganda sen yovdan sovg'a olib kelganing nimasi? O'z bo'lsang, bunday qilmasding. Ipagidan so'zi mayin tabg'ach senga yaxshi narsalarini berib, aldab, mayin so'zlarini aytib, adashtirsa, uning ola ipagini olib, yolg'on, odamni aldaydigan gaplarini aytib, sen mening qayg'umga qayg'u qo'shma! Esing borida etagingni yig', bu yerdan omon chiqib ketgin!

Azman abo Esanlayni qayta yo'lga solarda Odiltoy ajo uni to'xtatdi. Tabg'ach xonining hiylasini ichida sezib, sergak bo'lib, xavfsirab o'tirgan bo'lsa ham, sirtidan sir bermagan Odiltoy:

— Ilon buralib o'rmalasa ham, iniga to'g'ri kiradi. Iliq kelgan dushmanni sovuq kuzatmang, qarindosh! Kamtar elimizning mardlari shoshqaloq, qo'rqmas. Qilichni baland siltaydi, so'zni ham qattiq aytadi. Buzuqilik qilmaydi... Yumshoq ipak, yaxshi so'zga osongina aldanadi. Sen-Lin-Xa buni biladi. Sen unga bir marta qo'pol tegib ko'rgin, u senga ikki marta ta'zim qiladi. G'azabingni yutib, uning ipagiga nega qiziqasan? Aldanib qolasan. Keyin bo'ysunib, qul bo'lasan. El-yurt qayg'uga botadi... Sen unga aldanma. Qo'pol bo'lma. Ipagini, yaxshi sovg'alarini ol, lekin aldanma. Kulimsirasa, kulimsira, egilsa, egil, lekin aldanma. Bersa ol, kelsa, hurmatini joyiga qo'y. Aldanma. Sen-Li-Xadan ko'ra Esenlay bilan Elteres bizga ancha yaqin. Biroq shunday bo'lsa ham, u ikki o'rtada go'yoki bir daryo. Biz ham kechamiz uni, tabg'ach ham kechadi. Elteres bilan Esenlay balchiq bo'lishni istamaydi. Ular o'rtadagi ko'k toshdir. Bu tomondagi ko'p urug'lar unga qilich qayraydi. Narigi tomonda ko'plagan tabg'achlar ham qilich qayraydi. Esenlay bilan Elteres esa o'rtada qayroq bo'lishni xohlashmaydi. Ular o'z yurtlarining yalovini Talcho'qqiga o'rnatsam, deydi. Qo'lidan kelsa, bu tomondagi ko'p

[1] **So'yam** — bosh barmoq bilan ko'rsatkich barmoqning oralig'i.

urug‘ yurtni bo‘ysundirsam, deydi. Iloji bo‘lsa, narigi tomondagi son-sanoqsiz tabg‘achning tosh qal’sini buzsam, deydi. Ular shunday qilib gohida ikki o‘rtasida vositachi bo‘lib qolishadi. Da’vo talab qilib, gohida tuhmatchi ham bo‘lib qolishadi. Bu ishlarni ba’zan qilishga majbur bo‘lishadi. Ba’zan hiyla ishlatib shunday ishlarni bajaradi... Shunday vaqtda sen ularni yov ko‘rsang, ular bizga qaramay, orqasini qilur. Narigi katta dushmanga o‘tib ketadi. Kichkina daryolar qo‘shilsa, katta daryo paydo bo‘ladi. Katta daryoni ot kechib o‘ta olmaydi. Elteres bilan Esenlayni o‘z tomoningga bur. U sharqirab senga quyilsin. Unga muloyim bo‘l, o‘shanda ular sen bilan maslahatlashadigan bo‘lishadi. Agar ikkita urug‘ birlashsa, kuch ortadi. U narigi katta yovni o‘zi bilan hisoblashishga majbur qiladi. Buni tushuning! El g‘amdan qon yutib turganda, “men sizning odamingizman” deganni odamlarning oldida uyat qilmang! Bag‘ringizga oling!

Odiltoy ajo shunday qilib ahvolni tartibga solgan. Katta dushman Sen-Li-Xa tomonidan yuborilgan Uchsuvning begi Esanlayni boshqa xon, beklar kabi qabul qildi. Ichida norozi bo‘lishiga qaramay, tashqaridan hurmat ko‘rsatgan abo, beklar Esenlayni bu safar hurmat bilan kuzatib qo‘yishgan...

Holbuki, na ajo, na Erkishi, na boshqa abo, biy, bek va donishmandlar unga ishonmadi: “Yovning yo‘lini tutib kelgan Esanlay tabg‘achning toza ipaklariga sotilgan josus bo‘lsa-chi”, deb o‘ylagan Erkishi, buzuqi bo‘lsa, aniqla, siri bo‘lsa, bilib ol”, deb Esenlayga Sanjar sinchi[1]ni qo‘shgan. Sanjar Esenlayni ikki elning chegarasigacha kuzatib borayotib, yo‘l-yo‘lakay qancha-qancha gap-so‘zlarni aytib, chechanligining hamma qirralaridan foydalandi. Qancha eski hikoyalardan boshlab, masallarni misol qilib keltirdi: uzilgan biriksa, ulanadi, uyutqisi yirisa, qatiq sariq suvga aylanadi, Qadim-qadimdan kiyinib, sigir, tuya, otning tezagini yoqib, ot minib, ko‘chib, qozon osgan yurtmiz. Toshqal’aning bekligi, tabg‘ach xonning hiylasi ko‘p marta qilichimizni sindirdi. Tulpor horidi, odam o‘ldi — lochin bo‘ldi. Sendan ham o‘ldi, bizdan ham o‘ldi. O‘ljani anovi katta dushman olib ketdi ...

[1] **Sinchi** — odamlarning ko‘rinishi, gaplaridan ichki sirlarini biladigan odam. U otlarning ko‘rinishidan qanday ot ekanligini ham aytib beradi.

Oppoq yuzli Sanjar siyrak malla soqolining uchini barmog'i bilan o'ynab, o'tkir ko'zlari bilan otining qulog'ini qaragan bo'lib, Esenlayning sirini bilmoqchi bo'ladi.

O'z yurtiga qadrli basavlat Esenlay egarda to'g'ri o'tirgan holda qalin qora qoshlarini turib, oldiga tik qaraydi. Bexosdan shunday deydi:

— Qaysi tomondan bo'ron kelsa, o'sha tomonga qalqonimni to'saman. Tabg'ach qilich o'qtalsa, qaytaraman, ipak sunsa, olaman. Qirg'izga ham shunday: ot bersa, minaman. Hayqirsa, qiyqiraman.. Men o'z chegaramni dushmandan himoya qilaman!

Shu gapni aytib, Esenlay ketgan.

Uning Sen-Lin-Xadan sovg'a olib oraga tushgani ham, dushmandan chegaramni to'saman, degani ham Erkishiga shubhali tuyildi. Uchsuv begi "yov" deb kimni aytdi?

"... meni aytdi! — dedi Erkishi g'azablanib. Uchsuv begi men bilan tilida, Sen-Lin-Xa bilan dilida gaplashadi! U ko'p urug'ning qulunlariga xiyonat qiladimi?! Ha, ha, shunday qiladi, tabg'achning yumshoq gapi kimlarni aldamadi? Qimmatbaho ipagi kimlarni qiziqtirmadi? Ipak ipning erish-arqog'i xuddi o'rgimchakning to'riday ko'rinmay, sezdirmay qancha-qancha zo'rman, degan xonlarni, kuchliman degan alpni qimirlamaganday qilib chirmadi, sehrgar ozg'irganday yo'ldan adashtirdi, ota-bolani, og'ainini, qarindosh-qarindoshni tanimasdan tabg'achning ozg'irig'iga aldandi. Esenlay o'sha. Uni ayyor Sent-Li-Xa chirmab olmaganida, u buzuqi so'zlarini aytib, sovg'alarni olib oraga tushib kelarmidi?"

— Kelmasdi! — dedi Erkishi eshittirib. — G'ururli odam o'z sha'nini shak keltirib, dushmanning ishini qilmaydi. Yovning so'zini aytgan odam qo'shnisining o'chog'iga suv quygandan toymaydi... Yo Esenlay o'ziga keladi... Yoki qo'shnisining qozonini kavlaydi... Keyin uni Oltintog'ning ko'k alpi tartibga soladi...

Shunday fikrga kelgan Erkishi Uchsuvning alpi Elteresga ham va begi Esenlayga ham ishonmay qo'ydi.

U har doim kun chiqishga chegaraga kuzatuvga chiqqanida, yoki o'zi lashkar boshlab urushga borganida narigi tabg'achdan avval berigi Ulug'tog', Qoratog' qurama tog'laridan tortib besh

daryoni cheksiz tekisligida yashab, katta g‘ildirakli aravalariga ko‘ch ortib ko‘chib yurgan ko‘p urug‘ yurtni yov, deb hisoblardi.

Ko‘chmanchi ajdodlarining qadimiy an’analariga doimo sodiq qolgan bu yurtning kichigidan kattasigacha, erkagidan ayoligacha nomusini qattiq qo‘riqlaydi. Bu yurtning qadimiy hayoti ot yolida, ya’ni otning ustida o‘tgan! Bu yurtni qancha-qancha donishmand xonlar, qo‘rqmas alplar boshqargan. Ular harflardan foydalanib, yozuv yozgan, kitob o‘qigan ko‘zi ochiq donishmandi bor, asrlar bo‘yi boshqaruv shu yurt naslining qo‘lida bo‘lgan. Asrlar davomida ot dong‘ini ulug‘ladi. Ulug‘tog‘, Oltintog‘, Qoraqo‘rum va Saridala oralig‘ida chang-to‘zon ko‘tarib yashadi. Ko‘ktoshda qilich o‘tkirladi. Chegarasini mustahkamladi. O‘shanda narigi tabg‘ach yurti bo‘yin egib, qo‘rqqanidan Uchsuv yurtiga o‘lpon to‘ladi.

Lekin bir payt tig‘idan qon tomgan qilichni zang bosdi. Bir vaqtdar bo‘ysungan el o‘rnidan turib, boshqasini tiz cho‘ktirdilar. U keng koinotni bir marta tun qorong‘iligi qoplab qoraytiradi, bir marta quyosh o‘z nurlarini sochib, gullatadi. El-yurtning taqdiri ham shunga o‘xshash. Endi o‘sha Uchsuv yurti ikki sandonning o‘rtasida qolgan eski bosqon singari, cho‘zilib, qayta o‘ziga kelib erk bermayin, deydi. Sir oldirmayin, deydi. Shunday bo‘lsa ham, uni boshqargan Elteres alp, Esanlay bek, Salim donishmand kabi elning bilarmonlari yuqoridagiday ishlarni qilib, o‘zlarining kuchsizligini, buzuq fikrini bildirib qo‘yishadi. To‘g‘risini aytganda, Sen-Lin-Xadan Esanlayning aza tortig‘ini olib kelishi yurt odatiga to‘g‘ri kelmadi. Uni uyat qildi. Bunday olib qarasa, uni xo‘rladi ham. Erkishi qolib, aqli kirib qolgan har qanday odam bu holatdan orlanar, nomusga chidamas, achchig‘i kelar, hushyor tortar va saqlanar edi. Erkishi ham juda orlandi. Ehtiyot bo‘lib, odamlar nima deyayotganiga e’tibor qildi. Ko‘ylagining ichidan qilich bog‘lab, peshonasi yerga tekkuncha yukunib, hech yomon fikri yo‘qday bo‘ynini egib kelgan tabg‘achning elchisi ajoning, xonning, alpning ichayotgan ovqatiga zahar tomizardi. Muloyim gapirib, yo‘lingga ipak to‘shab, kulimsirab turib, bildirmasdan o‘ldirib ketardi.

Har qanday so‘zni ochiq aytgan, to‘g‘ri so‘zlagan, boshqalarni ham o‘ziday ko‘rib, buzuqilik kutmagan kamtar, ishonuvchan ko‘chmanchi el tabg‘ach hiylasiga berilib, aldanib qolganini keyin sezardi. Kech o‘kinardi. Yarador arslonday o‘zini u yoq-bu yoqqa tashlardi. Qaytmas o‘jarligiga solib jang maydonida bir tomchi qoni qolguncha urishardi. Ko‘p vaqtlarda o‘sha qaytmasligi, haybati kuch berib, bahordagi ko‘chkiday bostirib, o‘sha hiylakor yovni son-sanoqsiz lashkarini yengib chiqardi. Ayrim vaqtda toshqinday kelib, qumga singgan daryoday qurib qolar, o‘zi tugar, chopilar va sochilardi.

Hovliqqan katta yovi o‘sha tabg‘achning tajangligi, zolimligi, hiylagarligi ko‘z oldida namoyon bo‘lgan Erkishi o‘zidan o‘zi ming‘irlab qo‘ydi:

— ... E, qiliching singur ...

Yonida ketayotgan Yosh tegin so‘radi:

— Er aka, kimni aytdingiz?

Erkishi hech narsa demadi. Burgut qovog‘ini uyub, uzoqlarga boqadi. Katta to‘riq bir tekisda erkin bosadi.

— Er aka, ayting. U kimning qilichi?

“Voh — dedi Erkishi o‘zicha. — Qadimiy O‘g‘uzxon bobo haqida gapirib, bu yigitlarni yetti kecha-yu yetti kunduz uxlatmayin. Kimisi mard so‘ziga qiziqib “Ulug‘ so‘z”ni tinglaydi. Kimisi qahramonlikni orzu qiladi?”

Keyin boshqalarga eshittirib dedi:

— Suv-puv ham ichaylik. Quyoshga ibodat qilaylik? Buloq bormikin?

— Ana buloq, Er aka, — dedi Yo‘lbars.

Erkishi jilovni tortdi. Hammasi buloq yoniga tushishdi.

Otlar o‘t kavshadi. Suvsagani buloqdan suv ichdi. Yigitlar oyoqlarini olib, tip-tiniq sovuq suvga qurtob ezishdi.

— Chanqaganinglar ichinglar, deb Erkishi ogohlantirdi. Oyoqni qo‘lga olish bilan ayronni qult-qult qilib yutib yubordi:

— Ichinglar! Bundan keyin bizga boshqa ichimlik yo‘q! — dedi u. Dam olish ham bo‘lmaydi. Poyga qilamiz. Chanqaganing otning terini yalaysan. Egarda mudrab, uyqumizni qondiramiz. Askar o‘z yo‘lida dam olmaydi. Bu “Ulug‘ so‘z”ning irimi. “Yo‘lda

“Ulug‘ so‘z”ni eshitdik. Dam olmadik. Er boboning arvohi bizni ochiq-oydin qo‘lladi. Jilovingdan oldi. Ey, qo‘rqoq o‘g‘il, mahkam bo‘l, dedi arvoh”, — degan ota so‘zini o‘g‘illar ko‘p eshitishgan.

Yo‘lda “Ulug‘ so‘z” aytilgan paytda, quloqqa nimalar eshitiladi? Ko‘zga nimalar ko‘rinadi? Keyingi aytiladigan “Ulug‘ so‘z”ning kuchi yigitlarni qiziqtirdi, xumorini oshirdi ...

Erkishi Katta to‘riqning jilovidan oldi-da, xuddi bosqinga otlanayotgandek suvluqqa uch barmog‘ini tegizdi. Keyin uch barmog‘ining uchini o‘pdi. Otning ipakdek kokilini siladi va uzangini tepmay, egarga irg‘ib mindi. Hech kimga qaramasdan, ikkilanmay shartta jo‘nab ketdi. Bu — bosqinda bajariladigan yurish.

Yigitlar Erkishining yonida “Ulug‘ so‘z”ni boshlang. Biz eshitamiz, Er aka deyotgandek, odob saqlab, otlarini yo‘rttirib ketishmoqda.

— E, qiliching singur, — dedim-a men? Uning sababini biz hozir eshitadigan “Ulug‘ so‘z” sabog‘ida... Oh! Undan beri ko‘p zamon qanot qoqib o‘tib ketdi. Ajo, xon, beklarning ayrimlari burgut bo‘lib, osmonlarga parvoz qilib, kuchli ovozlari bilan atroflarni yangratdi. Ayrimlari kalxat bo‘lib o‘tovlarning tevaragida o‘limtik poyladi... Oh! O‘shandan beri qancha-qancha zamonlar taxlandi. Cheksiz uzun yo‘lda qorabo‘g‘ra, oqbo‘g‘ralar yo‘lni chopchib[1], bo‘ynilaridagi junlarini selkillatib o‘tishdi. Qancha-qancha zo‘rlar, chopqirlar, alplarning bosh suyaklari sahroda quridi. Undan beri katta daryolarning suvi quridi... Oh! Buloq daryo bo‘ldi... Bularning nimasini aytayin!

Erkishi o‘zidan o‘zi so‘raganday bo‘ldi.

Qadimda o‘tgan Turk donishmand edi. Odobli edi. U o‘z yurtida odil podshoh bo‘lib turganida, Tangri unga shunqor bo‘lishini ayon berdi. Oh, sinmas temir, o‘lmas odam yo‘q. Bobo parvoz oldidan o‘z o‘rniga o‘g‘li Tutukni qo‘ydi. Tutukdan keyin To‘qqizuul podshoh bo‘ldi va o‘sha paytdan to hozirgacha bizda to‘qqiz soniga bog‘liq marosimlar saqlanib qoldi. To‘qqiz kishi birga yo‘lga chiqish, to‘qqiz kishi otlarini kerme[2]da bog‘lash, to‘qqiz daryoni kezish, to‘qqiz kun, to‘qqiz yilga qasam ichish... Qo‘ying-

[1] **Chopchimoq** — yilqi, tuyalarning oldingi oyoqlari bilan yerni tirnab urishi.

[2] **Kerme** — otlarni bog‘lash uchun tortilgan arqon.

ki, bolalar, yangi oyning to‘qqizinchi kunida urushga otlanish... Bu marosim qadim zamonlardan beri tabarruk hisoblanadi. Tutuk hoqon hokimiyatda uzoq davr o‘tirdi. U odamdagi yovuzlikni yo‘q qiladigan, yaxshilikka yo‘l ochadigan marosimlarni hayotga tatbiq qildi.

O‘o‘, keyingi bobolar ham yer kezib, el ko‘rishni vasiyat qilgan. Podshohlarning biri o‘zi Ko‘k tangriga itoat qilmadi. Yurt qonuni buzildi. Odamlarda ochko‘zlik paydo bo‘ldi. Xondan, bekdan odob qochdi ... El azob chekdi. Onasining qornidan ko‘zi ochiq tug‘ilgan O‘g‘uz otasi Qoraxondan xafa bo‘ldi... Otam qonunlarni buzib, boshqa dinni qabul qilibdi. Men bunga chidamayman, deb otasiga qarshilik ko‘rsatdi.

Otasi Qoraxon o‘g‘li O‘g‘uzning gapiga quloq solmadi, o‘zimdan chiqqan tikanni ildizi bilan yulib olaman, dedi. U bobolardan kelayotgan qoidalardan nafratlandi. Dono O‘g‘uz otasi qoidalarni buzib, elning qonini so‘radigan xon bo‘lib qolganiga afsuslandi.

— O‘limtik titgan kalxat ketsin. Uning o‘rnini burgut bossin. Ey, inson, jangchi, bir so‘zli, bir dalilli bo‘ladi. Ishongani — Ko‘k tangri. Tangri nimani buyursa, askar o‘shani o‘rinlatadi, — dedi O‘g‘uz.

Bir kuni u askarlariga shunday dedi:

— Hozir Ko‘k tangri: mingan otingga o‘q uz, dedi. Men Tangrining amriga bo‘ysunaman. Mingan otimni otaman. Otini kim otmasa, boshini chopaman, — dedi.

Keyin kamonini tortib, o‘z otiga o‘q uzdi. Unga ergashgan askarlar omon qolishdi. Otini ayagan askarlarning boshini O‘g‘uz chopib tashladi.

Shundan so‘ng el orasida gap tarqadi:

— E-ha, O‘g‘uz alp aytganidan qaytmadi! Qo‘rqoqlar uning yo‘lidan qoching!

O‘g‘uz yana bir kuni askarlariga dedi:

— Men qilganimni hamma qilsin, kim qilmasa, boshi kesiladi. O‘g‘uz alp shu so‘zni aytib, yoyni tortdi. Uning ko‘k o‘qi chiyillab borib, o‘zi yaxshi ko‘rgan xonimning ko‘ksiga qadaldi. Unga ergashgan askarlar omon. Oyimlarini ko‘zi qiymaganlarning hammasi o‘ldirildi.

Shundan so‘ng el orasida yana gap tarqadi:

— E-ha, O‘g‘uz alp aytganidan qaytmadi! Qo‘rqoqlar uning yo‘lidan qoching!

Bir kuni O‘g‘uz askarlari bilan ovga chiqdi. Ular taybas ovlashdi. Yo‘lbars otishdi. Rosa maza qilishdi. U ovda yurgan otasini ko‘rib qoldi. O‘shanda otasi Qoraxon ham ovga chiqqan edi. Ammo uning maqsadi ovda yurgan o‘g‘li O‘g‘uzni o‘ldirish edi ...

E, voh, odamga qabr qazisang, keng qazigin, degan gap o‘sha vaqtdan qolgan ekan-da. Otasi Qoraxonning iflos fikrini sezgan O‘g‘uz undan oldinroq harakat qildi. U askarlariga aytdi:

— Men xonning arg‘umog‘iga o‘q otaman. Kim menga ergashmasa, uning boshi kesiladi!

U shu gaplarni aytdi-da otasining arg‘umog‘ini otdi. Bu safar uning buyrug‘iga bo‘ysunmagan birorta askar qolmadi. Hammasi o‘z otalarining otlariga o‘q otdi.

— Ey, askarlarim, aniq qaytmas ish endi bo‘ldi, — dedi O‘g‘uz alp va o‘shandan keyin kalxatga aylangan otasini o‘limga buyurdi.

— Elni yo‘ldan ozdirgan qora kalxat tirik yurmasin, — dedi u.

Shundan keyin O‘g‘uzxon davri keladi.

— Eh-he — dedi Erkishi hayajonlanib. — Jasoratni ham, alpning alpligi donishmandlikning eng zo‘rlari ham o‘shalar. O‘g‘uzxon o‘z kuchini mustahkamlash uchun hunarga e’tibor berdi. Undan ilgari bizda yog‘och sovut kiygan askarlar temir sovut kiyishdi. Kigiz cho‘pqut kiyadiganlar o‘q o‘tmas to‘n kiyishdi. Keyin askar otlariga o‘q o‘tmas urtuk[1] kiydirildi. Keyin otganda chiyillab uchadigan yoy o‘qlarini O‘g‘uz alp o‘zi chiqardi. U ko‘p narsalarni kashf etdi. Otganda o‘t olib uchadigan o‘qni ham O‘g‘uz alp yasagan.

Ey, tabarruk O‘g‘uz bobo. Uning davrida juda ko‘p ajoyib narsalar kashf qilindi. Elimiz Ko‘k Tangriga sig‘indilar... O‘g‘uz alpning kuchiga ishongan askar katta janglardan omon chiqdi, ishonmaganlari qirildi.

Erkishi bilan qator ketayotgan Bars xursand bo‘ldi:

— O‘g‘uz boboning ishi haqiqatan ham alp ishi ekan, Er aka!

[1] **Urtuk** — otni o‘rab qo‘yadigan sovut.

“Ha, bu o‘g‘lon gapni tushunibdi. Elga, yerga g‘amxo‘rlik qilishni o‘zinglarga odat qilinglar”, — dedi Erkishi ichida. Keyin baland ovozda dedi:

— Ishonch — odam suyanadigan qoya. Ishonmas kishi — bu yel o‘pka. U qo‘rqoq...

Oquul bilan Bo‘zuul indamay ot bostirishardi. Yosh tegin gapga qiziqdi:

— Keyingi so‘zni davom ettiring, Er aka.

Ha, o‘g‘lon, “Ulug‘ so‘z”ni yolg‘on dema. “Ulug‘ so‘z” — bu o‘tgan umr. O‘g‘uz boboning ishini qancha kun aytsang ham, tugamaydi... Uni eshitgan nasl o‘zi ham armonsiz o‘tadi. U alp bobo kigizga yotmadi — toshda yotdi toshni yostiq qildi. Ozgina uyqu unga doim hamroh bo‘ldi. “Er kishiga uyqu yov”, — dedi O‘g‘uz. Oysiz zulmatda arg‘umoq choptirib, o‘q otdi.

U dushmanini ko‘rmadi. Mo‘ljal bilan sezdi, adashmadi. O‘ziday yoy tortolmagan askarni kishi qaroqchisi, dedi. Uni iylab, iylab qayish qildi. Qo‘rqmas jangchi qildi. Iylanmay yel o‘pka bo‘lganni ayiq terisining puchqog‘i, dedi. Jangda qo‘rqqanni, tinchlik vaqtida buzg‘unchilik qilganni o‘limga buyurdi. Yomon odam yerni iflos qilib yurguncha, tuproqqa borsin, deb aytdi.

Yigitlar gapirmadi. Erkishi ularni g‘ayratlantirib qo‘ydi:

— Ha, O‘g‘uz bobo, elga rizq yog‘sin, uyga baraka tushsin, yerga ko‘k chiqsin, dedi. Yurt o‘rdasi mustahkam bo‘lsin, chegara kengaysin, naslimiz qayg‘u chekmasin, dedi. U shu adolat uchun nafsi uchun kalxatga aylangan otasini yo‘ldan olgan edi. Sarijaziq[1]da ot o‘ynatdi. Hiylagar tabg‘achning hiylasiga yo‘l topdi. U bo‘ysundi. U qarg‘aday gij-gij ko‘p edi. Ot oshib o‘tolmaydigan qal’a barpo qildi. Yo‘lbars quvondi:

— E-ha, O‘g‘uz bobo o‘ljaga rosa botgan ekan-da, Er aka?

— E-e, bu o‘g‘lon o‘ljaxo‘r ekan-ku, — dedi ichida Erkishi. Yo‘lbarsni shu gapi uchun sal yoqtirmadi. Keyin baland ovozda dedi:

— E-e, o‘g‘lim, tushun. O‘g‘uz bobo u yerga o‘ljaga qiziqib bormadi. Ishonch olib bordi. O‘z kuchiga, mehnatiga ishonmasa,

[1] **Sarijaziq** — Shimoliy Xitoy.

O‘g‘uz bobo uyda qimirlamay yotardi. O‘zidan kuchli dushmanni qo‘yni bosgan bo‘riday yeb qo‘yardi. O‘g‘uz bobo ana shuning uchun uni yeydigan bo‘ridan saqlandi. Yurtini boqdi.

Urush natijasi har doim haq va adolatli bo‘lmasa, alp yolg‘iz qoladi. Shuni bilgin, bolam?!

Chegaraning u yoki bu tomonida qilichi qiniga botmay bizning yurtga suqlanib qaragan shoh, podshoh, xon, bek ko‘p edi o‘sha paytda. Ular suq ko‘zlarini hiylagarlarcha ochib-yumib, bug‘uni poylagan ilbirsday har tomonda bekinib yotgan. Endi irg‘ib, bossam, endi totib, yutsam, deb suqlanib turganlarni O‘g‘uz bobo o‘zi ularga sakrab, ularni o‘zi bosdi. Ular bizning yurtga yov edi, O‘g‘uz bobo bosganda ularning tizzalari yerga botdi, peshonasi yerni o‘pdi. O‘zlari alpning alpi O‘g‘uz boboga sig‘inishdi.

Katta to‘riq cho‘chib ketdi. Otning cho‘chishi bejiz emas. Erkishi o‘ng tomonga qaradi. Bir yoshlik bug‘uni naq belidan tishlagan yo‘lbars daryoning torroq joyidan sakradi. Bug‘u allaqachon o‘lgan ekan. Jonsiz uzun shiyroqlari yerni chizib ketar, uni yem qilgan yirtqich g‘azabi kelganday sakrab, uzoqlashib borardi.

Quyosh allaqachon qirni oshib, vodiy ichi ancha salqin bo‘lib qolgan edi. Salqinda terlari qotib tetiklashib qolgan otlar ham tizginini qoqsa bo‘ldi, sakrab jo‘naydiganday edi. Biroq Erkishi “o‘ljali” yo‘lbarsga tegmadi. “Bora bersin”, dedi.

Boyadan beri hikoyaga berilib, mardlikni qo‘msab kelayotgan Bars otiga qamchi bosib jo‘nadi:

— Vah, Er aka! Anovini qarang ... U gapini oxirigacha aytolmay, tepalikka yo‘nalib qolgan yo‘lbarsning orqasidan ketdi. Yosh tegin bilan Yo‘lbars ham qiziqib ketishdi, shekilli, ular ham Barsning ortidan jo‘nashdi:

— Er aka, anovi yo‘lbarsni qo‘ldan chiqarmaylik!

“Eh, bolalarda g‘ayrat bor. Ozgina narsadan qizib, dushman bilan chopishmasa, yaxshi edi. Bulardan qaysinisi qaytmas botir bo‘ladi? Qiziqib ketgani yo‘lbarsni tik chopaman, deb yo‘lbarsga oldirib qo‘ymasa edi. Tangrim, o‘zing saqla? “

Qolgan bolalar ham otga qamchi urib, ketganlarning orqasidan ergashganlarida Erkishi Katta to‘riqni tizginini silkib tortdi:

— Ie-vey, hammang shu kuchukning ortidan chopma, — dedi. Oquul, Bo'zuul, Buylash jo'nagan yerida otlarining boshini orqaga burishdi.

Erkishini to'xtatib qo'yganiga ular biroz xafa ham bo'lganday bo'lishdi. Bularning o'yiga qo'ysa, hayqirib, chopib borib kimisi yo'lbarsni otsa, o'shani maqtashardi. Biroq Erkishi yosh askarlarni ataylab to'xtatdi. — Bunaqa to'planib mardlik ko'rsatishning juda ko'p xavf-xatari bo'ladi... To'polon qilib chopishish otni ham charchatadi. Yirtqichni inson kuchi bilan yengmaydi, epi, hunari bilan oladi. Epini bilsa, bir yo'lbarsga uch askar ortiqcha. Epini bilmasa, bir yo'lbarsga yuz askar ham oz. Hamma birdan ot chopmanglar. Ehtiyot bo'linglar. Yo'lbarsdan ko'z uzmang. Sizlarni mayib qilib qo'ymasin... Xuddi kalamushni tishlagan mushukdek yo'lbars bug'uning belidan to'g'rilab, qattiq tishladi-da, qadamini tezlatdi. Bars qarag'ay siyrak o'sgan yonbag'irdan yo'lbarsning oldini to'sib chiqmoqchi bo'lib, yo'lbarsning og'zidagi bug'udan ham tezroq otni chopishga harakat qiladi. Payti kelsa, hozir yonbag'irni talashib ketayotgan yo'lbarsni bosib olmoqchiday. Biroq yo'lbars, yo'lbars-da. U yirtqichlarning kuchlisi, epchili, tezi, hech narsadan qo'rqmaydigani. Qo'qqisdan bug'uni tashlab, qayta tikka Barsga tashlansa, uni otning ustidan olib, bosib qo'yishi ham mumkin. Agar yo'lbars tikka tashlansa, hovliqqan o'g'lon nima qilishini bilmay qoladi, deb Erkishi endi o'zi o'sha tomonga otini surdi. Oraliqni ko'zi bilan chamalab ko'rdi. "O'q yetadigan yerda... Yo'lbars Barsga tashlansa, to'xtatib qolayin. Mo'ljaldan adashmasman"...

Erkishi hushyor, kamonni to'g'rilab, ikki ko'zi yo'lbarsda edi. Katta to'riq egasining fikrini sezgandek, boshini pasaytirib, qadamini tezlatdi. Oquul, Bo'zuul, To'quul, Buylashlar Erkishidan o'zib ketmay, tizginlarni tortishib Erkishining ortidan ketardilar. Shu paytda Yosh tegin bilan Yo'lbars katta jilg'aning pastki tomonini ko'zlab jilovni burdi. Ular nima bo'lsa ham, yo'lbarsni chap tomondagi kungayning toshli joyiga yetkazmasdan yonboshdan to'saylik, deyishdi, shekilli. Ikkovi jilg'aga tushib, undan kungay tomonga chiqquncha, yo'lbars ularning rejasini seza qo'ydimi, og'zidagi og'ir yukni sudraltirib jarlikdan tik chiqa olmadimi, o'ng

tomonga burilib, daryoning terskayidagi qalin o'rmonga yo'l oldi. Bars uni to'sish uchun otini tezlashtirdi. Oraliq yaqinlashdi. "Shu bug'uni senga bera qolayin" deganday yo'lbars endi yonboshdan Barsga qarab yura boshladi. Bars esa cho'chimasdan "Bug'uni beri olib kel", deganday turardi. Uning yo yo'lbarsga o'q uzgani, yo gurzini ushlab ko'targani sezilmaydi. Qaytanga tortinmay otini chopib bormoqda.

G'azablangan yirtqich bug'uni tashlab tikka tashlanmasa bo'ldi. "Shoshqaloq-yey", deb Erkishi aytguncha bo'lmasdan oraliq bir arg'amchi qolganda yo'lbars Barsga tashlandi. U bug'uni yerga tashlab, gavdasini yig'ib turib sakraganda qizg'ish ola narsa cho'zilib yerdan uzildi. Yo'lbars ot ustidagi Barsni naq bo'ynini mo'ljallab kelayotgan edi. Yirtqichning suridan cho'chigan ko'k sur ot chap berdi. Yoyini otolmasdan, gurzisini yo'lbarsga qaratib siltagan Bars gurzi unga yetmay, yo'lbarsning yerga gurs etib tushganini ko'rdi. Yerga tushgan yo'lbars qayta sakrayman, deb sakray olmay, yerni titib, g'azab bilan qayrilgan tirnoqlari bilan old tomonini chopchidi. U hayqirib, bo'kirgan sayin ko'ringan oziq tishlari qonga bo'yalardi. Yo'lbarsning bir qo'ltig'idan kirib, ikkinchi tomonidan chiqib ketgan o'qni ko'rib, Bars hayratlanib turganda boshqalar ham dupuratib yetib kelishdi.

Erkishi hech narsa sezmaganday so'rab qo'ydi:

— Ee, Barsjon... Yo'lbarsni sen urdingmi yoki men otdimmi? Qo'rqma! Endi otdan tushib, o'q tekkan joyini ko'r-chi...

Bars Erkishining o'qini tanib, xijolat bo'ldi va oriyatdan yig'lab yubordi.

— Otmaganingizda, gurzi bilan chopib olar edim. Erkishi Barsni xafa bo'lmasin, dedimi:

— Seni ko'zlab irg'iganda, shoshib qoldim-da, — dedi.

— Erkishi ham shoshadimi?

— Qiziqsan-a ... Seni olib, irg'itib yuboradimi, deb o'yladim-da ...

— Yana olib irg'itib yuboradimi, deb o'yladim deydi...

— Yo'lbars o'zi senga tikka tashlangan edi-da ...

— Tikka tashlansa, nima bo'lar edi?! Otamning xunini olardim...

— A-a, — dedi Erkishi endi tushungandek.

Bars og'zidan ko'pik aralash qoramtir qon oqayotgan chalajon yo'lbarsning boshini tepkiladi:

— Senga o'xshaganlarning yuztasi, mintasining qonini to'ksam ham, kekim ketmaydi. Oh, mening yaxshi otam! Mening mard otam! Shu yomon kuchukchaga qanday qilib oldirib qo'ydingiz? Yirtqichlarning yirtqichi ham odamdan qo'rqadi, demasmidingiz?! Oh, mening yaxshi otam!...

Yosh bola o'zini u yoq-bu yoqqa urib, ko'karib yig'laganday Bars ham kiyimlarini titib, yo'lbarsni, yerni tepkilardi.

— Oh, mening yaxshi otam. O'zim chopadigan vaqtimda Er akam uni otib qo'ydi...

Erkishi Barsning jasorati va qaytmasligini ko'rib, o'zicha minnatdor bo'ldi. Ammo u hali qilmagan ishi haqida aytib, ko'r-ko'rona afsuslanayotganiga g'ashi keldi.

— Qora kuch toshni talqon qiladi. Qora kuchni tariqday aql bog'lab qo'yadi. Ey, ahmoq o'g'lim, o'sha yo'lbars seni ancha oldin g'ajib qo'yardi. Biz hozir boshingni quchoqlab yig'lab o'tirgan bo'lardik...

Erkishi soqolini silagancha o'ylanib qoldi-da, so'ng gapini uladi:

— Yo'lbarsni mening o'qim o'ldirdi. Bu odamning hiylasi. Agar odam hayvondan dono bo'lmasa, o'qni o'ylab topmasa, u oybolta, gurzi kabi qurollarni yasab olmasa, u hiyla-nayrangni bilmasa, to'rt oyoqli yirtqichning qurboniga aylanardi. E, Barsjon, otang Tekesh mard odam edi. U aqlli va ayyor edi. Shu ayyorlik bilan u dushmanni yengdi, yirtqichlar ovladi. U mard degan nom oldi. O'shanda tong mahal tuyani izlayman, deb bexosdan yo'lbarsga oldirib qo'ydi. Bu ajal otangning o'sha kungi beparvoligidan keldi. Endi sen o'sha otangni o'ldirgan yo'lbarsga tikka borganingda uni yiqa choparmiding? Kim biladi? Balki sen o'ldirar eding, balki yo'lbars seni g'ajib tashlardi. Mard odam o'z taqdirini ana shunday "balki" ga bog'lab qo'yishi o'ta xavfli. U o'zining jasurligiga epchillikni, hiylani erish-arqoq qilishi kerak. Aks holda, u yovga oldirib qo'yadi. — Erkishi ikki tomoniga qaradi. — Biring emas, baring eshit: bo'rining hiylasi molga og'zini

ochib yuguradi. Ana shunda u adashmay molni yoradi. Shunday, faqat odam emas, hayvon ham hiyla ishlatadi. Terilari ajratildi, otlar ham o'tlab oldi, biz ozginadan ichimlik ichib olddik — jon orom oldi! Endi o'sha yetti kunning faqat bir kuni o'tdi.

Qani otlandik. O'lja seniki, Bars. Terini bo'ktar[1].

OLTIN ARAVA

Yelday suzib, qushday uchadi,
Bilintirmay kelib ketadi.
Ko'chmanchilar haqida
tabg'achning aytgani

Xitoy paxta bilan bo'g'izlaydi.
Maqol

Otlar yelib chopib, to'qqizovi daryo bo'yidan chiqa berganlarida, toqqa qorong'ilik tushib qolgan edi. Yulduzlar miltillaydi. Atrof qo'ng'ir tusda. Tog' qo'yni salqin va toza. Suvning sharillagan ovozi uzoqlashib bormoqda ...

Hali yo'lbars bilan ovora bo'lishib, uzilib qolgan hikoyani Erkishi qayta boshladi:

— U vaqtlarda bizning ajdodlarimiz ko'p azob chekkan. O't-gan safar yurgan yerimizda toshdan saroy qurib, yer ostiga zindon qazgan Fors podshosi ko'p marta chegaramizni buzgan. Uning toshyurak askarlari bizning qo'nishlarni bosib olib, bizni kigizga o'rangan, sut ichgan, kuchi kam deb xo'rladi. O'g'illarimiz qul bo'ldi, qizlarimiz cho'ri bo'ldi. Mollarimiz qirg'in topdi... Qancha-qancha mard o'g'lonlarimiz forslarning zindonida azob chekdi, chiridi. E, voh, o'sha vaqtda bizning asl qizlarimiz erkakcha kiyinib, yarog'ini oldi. Urishgani yovga bordi ... Urush ... Urush. Qirg'in. G'ordan katta badbo'y ilon chiqdi. Jin quturdi. El boshiga fojia keldi...

Erkishi zulmatda tamshanib, tamshanib yigitlarga qattiq tikildi.

[1] **Bo'ktarmoq** — turkiy elda biror narsani buklab, yoki yumaloqlab egarning orqasiga qo'yib, qanjig'adagi iplar bilan bog'lanishi shu so'z bilan ifodalangan.

“Kimisi mudrayapti? Kim zaif va chidamsiz, kimisi kuchli va xotirjam? Kimisi? Chegaraga yov kelsa, unga qo‘rqmasdan hayqirib, tashlanadigani bormi? Mard, qaytmas lashkarboshi bo‘ladigani qaysi? Yoki ovqat ichib, qaroqchilik qiladiganlarni ergashtirib yuribmanmi?”

Erkishi yosh askarlarni yashirincha sinovdan o‘tkazmoqda. U shu mehnatim zoye ketmasin, deb tilaydi.

Ro‘paradagi ko‘ringan dumpaygan qora-qura narsalardan ko‘zini uzmay maqollar aytadi:

— Molni yer boqadi. Elni er boqadi!.. Mard lashkarboshi yo‘q bo‘lsa, lashkar yetim. Oqil ajo yo‘q bo‘lsa, el yetim. Qancha-qancha alp el boqdi. Qancha-qancha bilimsiz, ojiz qo‘rqoq yo‘lboshchi lashkarni tashlab yovdan qochdi. Qancha-qancha bilimdon ajo, abo yurt boshqardi. Qancha-qancha aqli yo‘q sariq oltin, oq kumushga aldandi. Yurtini yig‘latdi... Buzuq ajo — yo‘lda turgan to‘nka. Kamtarlar yurti unda xor bo‘ladi. Chegarani saqlagan qo‘shin qahramonligini o‘sha paytda unutishadi... Unda avlodlarimiz tosh qazib, yo‘l qurib, dushman podshosiga qul bo‘ladi. O‘o‘, ot yolida tug‘ilib, ot yolida o‘sgan o‘g‘il-qizlar unday xo‘rlikka chiday olmaydi. Ular or-nomus uchun kurashib qiriladi. Men kamtar elimning qirilganini ko‘rgandan ko‘ra, o‘z otamning o‘limini ko‘raman, demadimi boya... O‘g‘uz alp.

Shundan so‘ng u yurt jilovini o‘z qo‘liga oldi-yu! Ey, el tutqasi, bilimdon bobo!

Erkishi oldidagilarga ko‘z qirini tashladi.

“Yigitlardan kimisi toliqdi, kimisi?

“Ulug‘ so‘z”ga bo‘lgan qiziqish bois ular charchoqqa zo‘rg‘a bardosh berayotganini his qildi. “E, egarda mudrab, gap eshitmayapti bu ahmoqlar”, dedi ichida afsus bilan. Keyin u nimagadir oshiqqanday bo‘ldi-da, Katta to‘riqni qamchiladi:

— E, ha, tagingda ot bo‘lsa, o‘g‘lim, to‘ng‘izni nega chopib olmaysan? Katta to‘riqning harakatidan berigi otlar ham sakrab yugurdi.

Uyqusirab ketayotgan Bars egardan tushib qolishiga sal qolib, arang qaddini rostladi. Avvaliga cho‘chib, keyin o‘ziga o‘zi kulib dedi:

Voy, ... dovdiragan-yey ...

Egardan og'ib borayotgan Bo'zuulni Yosh tegin otni chopib kelayotib, ko'tarib, egarga qayta o'tirg'izdi.

Zulmat. Otlarning pishqirgani, uzangilarning bir-biriga tegib chiqayotgan ovozlar. Hali old tomonda ko'ringan qora narsalar ko'payib ketdi. Shovqindan qo'rqib, har tomonga qochganday bo'ldi. Haqiqatan ham, ular bir yerda to'p bo'lib qimirlamay turgan to'ng'izlar edi. Uxlayotgan jonivorlar to'g'ri kelayotgan otlar dupuridan va odamlarning ovozidan qochgan.

— E, ey, qobonni qochirib yubormaylik, — dedi Erkishi. Yosh tegin qiziqchi Shapni esladi. Shapning qandaydir tulkiga taqlid qilgani, birda cho'nqayib kalxat bo'la qolgani, keyin tuya ekan, deb jinga mindim, deb, aytgani yodiga kela qoldi. Qimir-qimir qilib ko'rinib turgan to'ng'izlar Yosh teginga Shap aytgan jinga o'xshab ko'rindi. Yosh tegin piqillab, kulib dedi:

— Er aka! Anovi qorayib qochayotganlar boyagida Shap aytgan jinning urug'i bo'lib yurmasin tag'in?

— Ey, bolam! O'sha jin seni uyquga yo'ldan ozdirdi... Sassiq qo'ltig'iga qisib, g'origa olib ketadi. Otni dadil bostir!

Yosh tegin piqilladi:

— Bo'zuul o'zining egaridan tap etib tushib qolay deganida, men uni qalpoqday yerdan ko'tarib, egariga o'tirg'izdim.

Bars egardan qiyshayganini eslab, uyaldi va jim qoldi. Hushyor kelayotgan Yo'lbars hazilni davom ettirdi:

— Men Bo'zuulning yonida edim. Er aka "Chuh" deganda, Bo'zuulning oti handaqning ustidan irg'iganday sakradi. Uning jag'i to'shiga urildi. Men uning bo'yni uzilib ketarmikin, deb qo'rqdim ...

Kulgi, qahqaha, tevarak-atrofni yangratgan gap-so'zlar shovshuv ancha vaqtgacha tinmadi.

"Ha... esi yo'qlar. Uyqulari umochday ochildi. Qabr azobi o'limda, yo'l azobi nimada? Ko'zlaringga ko'rsataman, ey, yomonlar, — dedi-da, Erkishi "Ulug' so'z"ni davom ettirdi.

— Jarlikka, do'mga qaramay, qiyqirib chopib kuchga ishongan lashkarboshi o'ntani, yuztani sanchar, mingtani chopar, yovning bitta hiylagar kishisi uni aqli bilan yengadi... Lashkarboshi alp

bo‘lsa ham, u yalang qavat, uning har narsaga chidashga kuch beradigan bu elning qo‘llagani. Xaloyiq qo‘llagan alp — yurt egasi!

O‘g‘uz alp o‘z yurtiga ana shunday qo‘sh qavatli yo‘lboshchi bo‘ldi. Fors podshosining cho‘zgan qo‘lini O‘g‘uz alp qaytardi! Nima deysizlar-u, Fors podsholigi u vaqtida haybatli dushman edi! Dunyoning to‘rt burchiga gurzi urgan, cho‘lda tuya minganni, changalzorda fil minganni, issiqda yalang‘och yurganni, katta ko‘l ortida temir egganni — bu dunyoning qancha-qancha kuchli, eng qudratli hunarli yurtlarning chegarasini buzib, elini qul qilgan Fors podshosi bo‘z uy qurib, kigiz yoygan, asosiy hunari mol boqish bo‘lgan, yurtning qozonini pachaqlayman, kulini ko‘kka sovuraman, o‘g‘il-qizini qul, cho‘ri qilaman, deb harakat qildi... Keyin nima bo‘ladi? O‘g‘uz alpning qalqonida qilichini sindirdi. O‘g‘illarim! O‘g‘il onadan tug‘ilganda tizgin ushlab, ot yolini tortib tushmagan. “Men chegarani qaragan askarman, mol boqqan molchiman, yurtni qaragan soqchiman”, — deb tug‘iladi o‘g‘il bola. Uning uzun sochlari qirq o‘rim, qilig‘i bilan nozi o‘zgacha qiz o‘sha g‘alvali kunlarda o‘g‘il boladan kam qolmadi. O‘g‘il bola yovga janchar, gurzi ko‘tarib chiqqanda, qiz bola o‘qdan ham o‘tkir hiylasini qo‘lladi. Yoy tortishda erkakdan o‘tib ketdi. Hiylalarni qo‘llashda donishmandlardan o‘tdi. Ilgaridan o‘g‘il bola kuchdan toyib borayotgan paytda unga madad berib, qiz bolaning askar bo‘lib otlanish odati — yurtning kuchiga kuch qo‘shdi.

Hiylagar dushman O‘g‘uz alp jangchilari tomonidan tor-mor etildi!

O‘g‘uz alpning jasorati, kuchi va donoligi g‘arbda urum bilan purumga, o‘ng tomonda fors bilan hindlarga, tuputga va kun chiqishda tabg‘achga uqildi.

Undan qo‘rqmay, uning yurtini bosib olaman, deb ilgarigiday dushmanlarning hujumi ozaydi. Qirq yilga yaqin O‘g‘uz alpning yurti tinch bo‘ldi, chegarasi kengayib, qanoti yozildi. O‘zini kuchli hisoblagan tabg‘ach xoni bir necha bor lashkar yubordi. O‘hho‘, O‘g‘uz alp uning lashkarini qaytardi, yo‘lini to‘sdi. Yovga quyunday hujum qildi O‘g‘uz alp. Tabg‘ach qal’asini kengaytirib, qal’aga yashirindi! O‘g‘uz alpning lashkari qor bo‘rondagi quyunday harakat qildi. Kun chiqishning katta ko‘liga yetib keldi. Keyin

yana to‘kildi. Atroflarga yoyildi. Dushman yurtida bo‘ron bo‘lib ulidi.

O‘g‘uz alpning jasoratiga hayratda qolgan Bars otini Erkishiga yaqinlashtirib bostirdi. Yosh tegin, Yo‘lbars, Buylash, Oquul, Bo‘zuullarning hech biri ovoz chiqarmadi.

Ular: “O-o, Er aka! Keyin nima bo‘ldi?” — deganday qimirlamay kelishmoqda.

— Yana besh qish, besh bahor tinch o‘tdi, — dedi sekin Erkishi. Shoshilmay gapirdi. Oradan qirq besh yil o‘tib, tabg‘achning qirq tumani chegaraga keldi. Unga O‘g‘uz alp o‘ttiz ikki tuman askarni qarshi qo‘ydi. Unda men bu urushda bo‘lmaganman. Bu bizdan juda ko‘p vaqt oldin sodir bo‘lgan urush — alp maydoni. Bu aytganlarim rivoyatlardan eshitilgan so‘z, bilimdonlar bilgan so‘z. U davrda toshga, shoyiga, yog‘ochga va kigizga harf bo‘lib bosilgan deyishadi. O‘sha xatlarning bizga yetib kelgani ham oz. Buni chechan chertib aytadi, bilimdon bilib aytadi, qo‘shiqchi kuylab aytadi. Biri qo‘shib, biri eplab qo‘ygani ham bor. Yo‘lni chang bosadi, toshni engilchek[1] bosadi.

Ko‘pi yolg‘on, ko‘pi chin,
Buyuklarning ko‘ngli-chun,

deb gupillagan ashulachining tilini kesamanmi?! Bizga bu gapni er boboning arvohi ayttirdi. Yolg‘oni yo‘q, chini ko‘p, yamog‘i oz bo‘lgan ko‘p. Bu bizga bobodan qolgan “Ulug‘ so‘z”, deb aytyapman. Bundan necha yuz yil oldin bo‘lgan bo‘lsa ham, o‘sha jang hali ham ko‘z o‘ngimda. Ana! Oqbo‘z otga mingan O‘g‘uz alp o‘ttiz ikki tumanni lak-lak qilib: janchar sanchadiganlarni o‘ngga, gurzi bilan uradiganlarni chapga, hayqirib hujumga o‘tadiganlarni oldiga qo‘yib, o‘zi o‘ttiz ikki tumanni boshqardi. Hammasining oldida yoy tortib o‘q otadigan merganlar. Irg‘itilgan qalpoq yerga tushguncha yettidan o‘q sanchadigan kamonchilar. Do‘llar dupulladi, surnay, mis naylarning ovozi olamni tutdi. Oldinda qizg‘ish saman otlar mingan kamonchilar semurg‘ning qanotlariday yoyilib, sahroning bag‘rini qizilga bo‘yaydi.

[1] **Engilchek** — toshda o‘sadigan, bo‘yoq tayyorlash uchun ishlatiladigan o‘simlik.

O‘o‘, qadimgi yurt tabg‘achning askarlari son-sanoqsiz. U oldinda hammaga tikilib turibdi. Piyodalari o‘rtada. Kamon tortadiganlari o‘shalar. Ular o‘q otganlarida, yolg‘on emas, o‘qning ko‘pligidan o‘rta ko‘rinmay qoladi. Uzoqdan askarni nishonga oladi, yaqinlashganda esa otlarini nishonga oladi. Otsiz askar qanoti singan qushdir. Tabg‘achning xuddi o‘sha hiylasini esladi. Shuning uchun O‘g‘uzbobo kamonchilarni oldiga qo‘ygani ham shundan. Ular qanotday yoyilib, o‘q uzdilar. Endi kamonchilarimiz otgan o‘qdan quyosh ham ko‘rinmay qoldi. O‘rta yaqinlashib, yov otlarini mo‘ljallaydigan paytda, anovi kamonchilar shartta burildi. O‘hho‘, bu ularning qochgani emas, hiyla ishlatayotgani, ortga qaraganday bo‘lib, har birining kamon otishi xavfli. Yo‘l bo‘shadi. Atayin navbat kutgan gurzi, janchar ko‘targanlar hayqirib jangga aralashdi. Bahorda suv ustida qalqib kelgan muz bo‘laklariday toshdi. Janchar sanchilib, gurzilar boshda o‘ynadi. Haligi shartta orqaga qaytib yo‘l bo‘shatgan kamonchilar endi quyunday tezlik bilan yonboshdan hujum qildi. Ularning yurishi — itolgu[1]-ning uchishi. Yovning kamonchilari bu vaziyatda nochor ahvolga tushib qoldilar. Endi O‘g‘uz alpning tumanlari dushman ustiga selday yopirildi. Urush! Urush!

Ikki tarafdan minglab qo‘llar aralashib, qumli cho‘l maydoni qaynab ketdi. Bungacha inson farzandi ko‘rmagan dahshatli qirg‘in, urush, naqadar katta fojia!

O‘g‘uz alp besh marta otini o‘zgartirdi. Halok bo‘lgan askarning otini oti yurmay qolgan askar mindi. Chanqagan askar ot ustida suv ichdi. Suvi tugagan askar ot terini yaladi... Uxlagisi kelgan askar o‘zining boshiga o‘zi mushtladi. Dushman bilan yuzma-yuz kelganda, ikkala uzangini teng tepdi. Qo‘rqmasdan dushmanning yuziga tik qaradi, gurzini baland ko‘tarib mo‘ljalga aniq urdi. Dushman zarbasidan o‘lganlari yerga qarab yotmadi: tabarruk Ko‘kka qarab, chalqanchasiga yotib qoldi... Eh, o‘lgan egasini otlar chetga olib chiqib ketdi. Olib ketolmagan ot yerda yotgan egasini chir aylanib yer chopchip, o‘kranadi. O‘q yegan otlar qo‘shoyoqlab turmoqchi bo‘ladi, osmondan madad so‘rab kishnaydi.

O‘o‘, urush, urush!

[1] **Itolgu** — lochindan kichikroq ov qushi.

Qalqonlar bir-biriga urilib, yopishdi ... Gurzilar bir-birlariga urildi. Dubulg'alar yopishdi. Bosh yorildi. Yorilgan boshini qanjig'a bilan chirmab, tang'ib, qayta jangga kirganlar yana qatorda. U yuragidan qon ketguncha mardlar urushida solishadi. Sadoqda o'q tugadi, qo'ldagi janchar sindi. O'shanda O'g'uz alp otini o'zgartirdi. Uning jasur askarlari alpning yo'lidan borishdi ...

... Yetti kecha-yu kunduz askar uxlamadi. Alp mingen ot bitta ham cho'p tishlamadi.. Ot qadam tashlab ketayotib, uyqusiradi Eh! Bu qanday ot jasorati! Otning irodasi! Otning kuchi! Mard kishini ko'tarib ketayotib mudrab ketdi ... E, voh! Bu qanday jasorat? U jangchi! Bular yilqi nasli — ot! Tangrim, uni tabarruk osmon odamga qanot qilib berganmidi? Ustida hayqirib odam yurganda askar otining holsiz bo'lib qolganini urushda ko'rmaganman. Alpning oti — alpga qanot.

Alpga qanot bo'lgan tulporni dushmanga berish bu chegarani yovdan qo'riqlamay qo'yish degan gap. O'g'uz alpni alp qilgan uning Oqbo'z oti degan naql bor. Yettinchi kuni cho'p yeb, dam olgan o'sha Oqbo'zni minganida O'g'uz alpga mingta polvonning kuchi kirdi. Ulug' bobomiz "Ulug' so'z"ida shunday degan:

O'g'uz alp dushmanga hayqirib tashlandi, bahorda suv ustida qalqib kelgan muz bo'laklari kabi bir yerga to'pladi, deyishadi ...

Qirq ming askar bilan kelgan tabg'achning bosh lashkarboshisi jang qilishni istamay turganida ... qum qoplagan cho'l, bo'z adir yonbag'rida shu paytgacha inson bolasi ko'rib yoki eshitmagan dahshatli bo'ron ko'tarildi.

Ana! Kuchli quyun osmon bilan yerni birlashtirib yuborganday bo'ldi.. Chang orasida jang qilayotgan askar jahannamda jon talashayotganday bo'lib ko'rinardi. Mayda qum vizillab uchdi. Qalqon, sovut, cho'pqut to'nga qum tekkanidan "tars-turs" etib chiqayotgan ovozlarga quloqlar bitib qoldi. Bet-qo'lga qum tekkanda xuddi juvoldiz sanchilayotgandek tizillab og'irdi. "Zuv" etib uchgan qum askarlarni cho'chitdi. Otlarning qulog'i qumga to'ldi. To'zon shunday qalin ediki, hech kim ko'rinmay qoldi...

Bo'ron to'xtamadi. "Guv-guv" etib, battar kuchayib ketdi. Tinmay ulidi bo'ron. Otlarning yol, dumlari "viz-viz" etib hushtak chaldi. Askarlarning ko'zlaridan yosh tinmadi. Qishning qahra-

tonida temir ayozni ko'zga ilmaydigan qo'l-oyoqlar qotib qoldi. Go'yo olam ostin-ustun bo'lib, dunyo aylanib, yer yuzi maydalanib ketayotgandek edi.

Ikkala tomon ham birdek qo'rqib ketishdi:

— Bu osmonning g'azabi!

— Bu Tangrining g'azabi!

... Shundan keyin jang tugadi, aralashib ketgan askarlar bo'linib, o'z tomonlariga ketdi. Qurbonlarning soni olinmadi. Qolganlarining holi qurigan. Qushdek uchib, shamolda yelgan O'g'uz alpning qo'li toliqdi.... Tabg'achning qirq tumani aralash-quralash bo'lib, ko'pi cho'lda qirilib ketdi. Qolganlarini osmon saqladi. Katta bo'ron guvillab, uvilladi, askarlarni ot ustidan uchirib yubordi. Tiriklar zo'rg'a qutulishdi.

— Biz yengildik, — deb tabg'ach yig'lab ketdi.

O'ttiz ikki tumani askarlaridan anchasini yo'qotgan O'g'uz alp dushmanni qaytardim, deb quvonib qaytdi. Omon qolganlari hay-haylab baqirdi:

Tulporimni o'ynatdim
Qilich qini tul qolmadi.
Bo'ri qo'yga chopgandek,
Yovga qattiq tashlandim.
O'lar botir yolvordi ...

Askarlar bayram qilar. El esa to'yda yurar.

O'shandan keyin tabg'achning shashti qaytdi. Qimmatbaho narsalarini ayamadi, oltinlarini tuhfa qildi. Elchilarini yubordi. Yillar o'tdi. Oxir-oqibat, shu ko'p urug'li ko'chmanchi yurt bildirmasdan bosib ketadigan sel ekanligini bilgandan so'ng, tabg'ach podshosi donishmand va sarkardalari bilan maslahatlashdi.

O'sha paytda Tabg'achning podshosi oltin chopon Lyu Gin[1] edi. Uni yurtimizning eli uzun soqol podsho, deb qo'yishardi. Bu tabg'ach podshoning xazinasi ko'p janglarda keyin ozayib ketdi. Qo'shini ham ko'ngildagiday emas. Askarlari dangasa va tartibsiz edi. Buni bilgan uzun soqol Lyu Gin O'g'uz alpni kuch bilan yenga olmasligiga ko'zi yetdi.

[1] **Lyu Gin** — eramizdan avval 200-yillarda o'tgan xitoy imperatori.

— Mode[1] otasini o‘ldirdi. Yurish boshlab, kuch bilan tahdid qila boshladi. Xe, yovvoyi xon quyoshga sakragan arslon. U yaxshi so‘zlarni eshitmaydi. Qizim Lyuy-Xeuni unga ayollikka beray deyapman. Mening dono qizim malika bo‘ladi. Malikadan tug‘ilgan jiyan otasining taxtiga o‘tiradi. Xe! Jiyan tog‘asiga, qolaversa, onasining otasiga qarshi urishmaydi. Qushdek uchib yelday suzib yurgan bu el bizga bo‘ysunib qolganini o‘zi ham sezmay qoladi... Biz ularni Sarijaziqning qumiday elakdan o‘tkazib, gilo‘ta[2]ga o‘raganday qilib o‘rab, o‘z naslimizga qo‘shib olamiz! Xe!

Lyu Ginning yonida eng dono abosi, begi va eng botir sarkardasi o‘tirgan edi. Ular ko‘zlarini qisib, silliq soqollarini ko‘kragiga tegizib, podshosiga ta’zim etdilar.

— Osmon o‘g‘li yaxshi aytdi!

— Osmon o‘g‘li haqiqatni aytdi! Osmon o‘g‘li to‘g‘ri aytdi!

Podshoh ularni quvvatlab, katta qizini maqtab qo‘ydi. — Malika dushmanni qarindosh qiladi. Katta qizim Lyuy Xeu hujum qilib, bizni bezovta qiladigan xonning malikasi bo‘lsin!

Podshohning donishmandlari ta’zim qilishdi.

— Lyuy Xeu, malika, yovvoyi alpning barcha sirlarini bilib turadi ... Xe! Yog‘ochning qattig‘ini qurt yiqadi ...

— Nima deyapsiz? Podsho qizi cho‘ri emas-da. Men yovvoyi xonga tegmayman. Agar meni majburlasangiz, zahar ichib o‘laman, - deb podshohning qizi to‘polon qildi.

Uzun soqol podshoh katta qizini zo‘rlab uzatmadi. Uning o‘rniga shoh saroyida ishlaydigan katta abosining qizini uzatdi. Sariq oltin, oq kumush, mayin ipak, oq guruch, achchiq sharob, ko‘p shakar, sharbat, shirin taomlarni sovg‘a qilib yubordi va har yili shu narsalarni podshoh O‘g‘uz boboga jo‘natib turdi.

Ikki elning orasida elchi yurib qoldi...

Uzun soqol, tilla chopon podshohning bu hiylasi O‘g‘uz boboni tuzoqqa tushira olmadi. Rost, tabg‘achlar O‘g‘uzni qarindosh, deb atay boshladilar. O‘g‘iz alp ham qarindoshman, dedi. Shunday bo‘lsa ham, tabg‘ach podshohining hiylasi O‘g‘uz boboning fikrini bo‘ldi. Qish o‘tsa, bahorda, kun botsa, tunda tabg‘ach chegarani

[1] **Mode** — O‘g‘izxon. Xitoylar uni Mode Shanyu, deb atagan.

[2] **Gilo‘ta** — sementdek yopishqoq loy.

buzadi, u hiyla qilyapti, o‘g‘ri yelday bildirmay keladi, o‘g‘irlikni o‘ylab so‘ylagan[1] ilon qattiq chaqadi, men unga chaqtirmayman, deb O‘g‘uz bobo otdan to‘qim oldirmadi. Askarlarni to‘shakda uxlatmadi. Oh, agar sher qo‘lga tushsa. U hech qayerga ketmaydi, bolalar!

Shoh saroyidan tortiq qilingan tabg‘achning qizi O‘g‘uz alpga oyim bo‘ldi. Uni kuzatishardi. Doim shunday qilishardi. O‘g‘uz bobo hushyor. Ko‘k qilichni qayratdi. Askar otlariga yem berib semirtirdi. Askarlarga turli xil o‘q o‘tmas to‘nlarni tiktirdi. Vaqti-vaqti bilan tabg‘ach chegarasiga bo‘ri qo‘yni hurkitganday hujum qilib, ularni baland qal’asiga qamab, qo‘shinning o‘ljasini mo‘l qildi.

Oh, essiz, O‘g‘uz bobo!

Uning borligida bu yurtning chegarasi suyuqdan — bahorda suv ustida qalqib kelgan muz bo‘laklari bosolmaydigan, qattiqdan — qilich o‘tmaydigan mahkam edi-yu, Tangrim.

Erkishi bir zum gapirmadi. Katta to‘riq asta yo‘rtadi. Yashil ko‘ylakli bahor sarg‘ish sochiq taqib tog‘ tomonga yura boshlagan kez. Ko‘go‘n[2] ham toqqa yaqinlashib qolibdi. Halidan beri otlarning ho‘l bo‘yin-boshiga qo‘nib, qonini so‘rib, bezovta qildi. Hozir Katta to‘riq chidamasdan ko‘go‘n yopishgan qulog‘ini sabrsizlik bilan silkitdi. Yopishib qon so‘rayotgan ko‘go‘n qimirlab ham qo‘ymadi.

Erkishi qamchilab ko‘go‘nni tushirdi. To‘riq junning orasidan qon sizib chiqdi. Birozdan keyin u sichqonning ko‘ziday bo‘lib qurib qoldi.

“Quyosh issiq. Ertaga yomg‘ir yog‘adi, shekilli”, dedi Erkishi o‘zicha fikrlab.

Bars sabrsizlik bilan dedi:

— So‘zingizni davom ettiring, Er aka. Undan keyin nima bo‘ldi?

— E-ha, o‘g‘lim. Undan keyin nima bo‘lsin. Sug‘urilgan qilich qinga sig‘maydi. Qilich qinda bo‘lsa, yov ko‘payadi. O‘g‘uz alp dushmanni yong‘oqday chaqdi. Yong‘oq osonlik bilan chaqilmay-

[1] **So‘ylagan** — iloning yerda yurishi shu so‘z bilan ifodalanadi.

[2] **Ko‘go‘n** — chaqadigan bo‘z chivin.

di. U tishni sindiradi. Jang, hujum ado bo‘lmadi. Qilich qindan chiqdi. Qon oqdi. Otning tuyog‘i ezdi, yer ingradi. Shundan so‘ng, katta-katta urushlar bo‘lib o‘tdi. O‘g‘uz alpning qo‘shini kuchaydi. Yalovi hilpiradi.

Bu orada uzun soqol, oltin choponli shoh vafot etdi. Dono podshoh o‘tsa, orti to‘polon bo‘ladi. Bir lashkarboshi boshqasidan kuchliman, deydi, bir donishmand esa boshqasidan aqlliman, deb aytadi. Bir notiq ikkinchi notiqdan ko‘ra so‘zamolroqman, deydi. Ular hokimiyat talashdilar. Hokimiyat talashgan kishilar o‘limtik talashgan kalxatday ko‘rinadi. Bir-biridan nafratlanib, birini biri yumdalaydi. Oltin taxtni dog‘ bosdi. Oq saroy bo‘zardi. Olomon qayg‘uga botdi. Uzun soqol, oltin choponli shoh vafot etgandan keyin tabg‘ach shunday bo‘ldi. Malikani hovliqqan lashkarboshi ko‘zga ilmadi. Hiyla ko‘paysa, zahar bo‘ladi. Tabg‘achdan chiqqan yo‘lboshchi ko‘p askarlarini boshlab kelib, O‘g‘iz alpga qo‘shildi. U o‘z yerida Jan degan aymoqning xoni Lu Guan degan xon edi. Uni bizda Majik deyishardi.

O‘sha Majik katta qo‘shini bilan O‘g‘uz alpga kelganda, tabg‘achning ayol podshohi Buyuk xotin[1] bir tomondan xoindan g‘azablanibdi. Bir tomondan o‘zining ahvoli unchalik yaxshi emasligidan qo‘rqdi. O‘sha kezda O‘g‘uz alpning ko‘k yalovi ko‘klarga ko‘tarilib, hilpirab turgan vaqti edi.

Ey, yigitlar, manmansirashning kasri bir zumda bilinib qoladi-da... — dedi Erkishi va negadir xo‘rsinib, davom etdi: — O‘sha qut-baraka yog‘ib, rizq toshib turganda, tabg‘achning podshohi Buyuk xotinga O‘g‘uz alp yomonlik keltiradigan bir xat yozdi[2]... Ee, o‘g‘lonlarim, har safar uni eslaganimda, O‘g‘uz boboga nima deyishni bilmay qolaman. O‘o‘, arvohi tirik donishmand alp, nega bunday xat yozdi ekan?..

Yo‘lbars Erkishining og‘ziga tikilib qoldi.

— O‘g‘uz bobo unda nimani yozgan edi, Er aka?

— Vah, nimani yozardi? O‘sha paytda O‘g‘uz alp kuchga to‘lib turgan... U o‘zini ham, tabg‘ach podshohi Buyuk xotinni ham kalaka qilgan:

---

[1] **Buyuk xotin** — malika Gao-Xeu.

[2] **O‘sha xatni** O‘g‘iz alp eramizdan avvalgi 192-yilda yozgan.

"Aljiragan, yomon teriday iljiragan xon, bu xatni mendan deb biling. Men botqoqlikda tug'ilganman, sigir va otlar orasida tezakdan bolish qilib, terlikni tagimga to'shab ulg'aydim. Men Osmon o'g'lini yomon ko'rdim. Unga qarshi necha marta Sarijaziqda ot o'ynatdim.

Hozir o'sha menga o'xshab o'zicha nimalarnidir aytib, dardiga davo topmay turgan Buyuk xotin podshoh yolg'izlikdan taxtida kimnidir zoriqib kutadi.

Ikkovimizning ham, ko'ngil ocharimiz yo'q juda zerikib turgan vaqtimiz. O'zimda borini o'zimda yo'qqa alishtirayin, deyman va men yolg'iz podshoh Buyuk xotin seni xohlayman", — degan xat.

O'o', nima bo'ldi deysizlarmi? Tabg'ach podshohi Buyuk xotinning g'azabi keldi. U darhol o'zining abo, beklarini saroyga chaqirdi. Xat olib borgan O'g'uz boboning elchisining boshini tanasidan judo qilib, yurtimizga urush boshlashini aytdi. Shunda Pen I ismli lashkarboshi irg'ib turib, podshohdan o'tindi:

— Menga o'n tuman askar bering. Men Modeni mag'lub etaman! — dedi.

Shunda podshohning yana bir donishmandi Gi Bu bunday dedi:

— Ey, mening buyuk podshohim. Pen I yuz ming askar bilan nima qiladi? Ilgari uch yuz yigirma ming askar bilan hujum qilganmiz. O'shanda katta qo'shin boshlagan Pen I nima qila oldi? Go'sht yeb, qimiz ichgan yovvoyilarning suyaklari mustahkam, mushaklari qattiq. Ular bo'ri qo'yga tekkandek askarlarimizni oralab yuradi. Oldiga kelganni qornini yoradi. Qonini ichadi. Ular kuchdan toyadigan vaqtda yana kuchlarini tiklaydilar. Taomni ziravor cho'plarga aralashtirib yegan bizning askarlarimiz yetti kunlik ochlikka chiday olmadi. Ko'pchilik qochib qutula olmay cho'lda qolib ketdi. Tizginini yig'a olmadi. Kamon torta olmay, qochdi, qirildi...

Og'iz totgani ovqat yo'q.
Yetti kun, yetti tun och qoldik.

Kamon tortishga darmon yo'q,
Qumli cho'lda sandiroqladik,-

deb biz o'shanda qo'shiq aytganmiz. Agar biz shu boshimizdan o'tkazganlarimizni tezda unutsak, usiz ham holdan toyib turgan o'lkani battar holsizlantiramiz, degan qo'rqinch bor.

Biz qushday uchib, shamolday suzib, yirtqichlarcha olishadigan ko'chmanchi elni kuch bilan ko'ndira olmaymiz. Ularning iliq so'zlaridan xursand bo'lmaylik. Keling, ularga quloq solmaylik. Ularning iliq gaplariga quvonmaylik. Ularning achchiq so'zlariga xafa bo'lmaylik. Ularning yonboshiga paxta to'shaylik, boshiga ipak bolish qo'yaylik. Oldiga yoqimli sharob qo'yib, qalbini bildirmay, zaharli "dori" bilan "emlaylik"...

Ha, o'shanda tabg'ach podshohi Buyuk xotin donishmandi aytgan bu hikmatli gaplarni eshitdi. Bitikchisiga o'zi aytib xat yozdirdi:

"Shanyu, qiyrab, arang turgan o'rdani unutmabsan. Eslab, xat yuboribsan. Qiyragan o'rda joni chiqib, qo'rqib ketdi. U o'ladigan kunini ham hisoblatib yubordi... U kuchdan qoldi, sochlari tushib, tishlari ham qolmadi. Oyoqlarini ko'tarib bosolmaydi. Shanyu, yomon ko'rma, yomonotliq bo'lma. O'zing qurgan o'rdaga tayanch bo'l. Ko'z solib tur. Senga ikkita oltin yopiqli shoh arava va to'rtta quyosh oti[1]ni tortiq qilaman... Marhum Osmonning o'g'li senga o'rdadagi xizmatchisining qizini beradigan bo'ldi. Hozir men Osmon o'g'lining bir tuqqani oqsuyak Lay-Funu, yonidagi navkarlari unga, senga xizmat qiladigan qullari, katta sepi va enchisi bilan jo'nataman. Sen bilan hech ayrilmas qarindoshman."

U xatni ko'plab qimmatbaho sovg'alar bilan O'g'uzxon elchisiga berib, katta hurmat bilan qaytarib yuborishdi ...

Vah, makkor Buyuk xotin shunday bilinmas zahar tilini O'g'izxonning hayotiga soldi. E, voh, qancha ishonmayman desa ham, baribir, O'g'uz boboning ko'nglida kiri yo'q-da... Go'zal qizga, ipakdek mayin so'zlarga aldanganini sezmadi. U tabg'achning buyuk podshosi ilojsiz menga bo'ysundi, deb o'yladi. Yurishni to'xtatdi. Xat va sovg'alardan keyin tabg'achlar ham unga qarin-

[1] **Quyosh oti** — malla arg'umoq ilgari tabarruk va bebaho sanalgan.

doshday bo‘lib ko‘rina boshladi. Buyuk xotinga qayta elchi yuborib, xat jo‘natdi. Qarindosh bo‘ldi. O‘zining minnatdorchiligini bildirdi.

U zaharlana boshlaganini sezmadi. U ko‘k yalovni o‘rdaning tundugidan chiqardi va katta to‘y chaqirdi...

— Qinga sig‘mas ko‘k qilich qinda! Tabg‘ach podshohini bo‘ysundirdi! — dedi.

O‘g‘uzxonning askarlari kuyladi:

Yirtqichlarning eng zo‘ri,
Bo‘ri bilan emchakdosh.
O‘tib ketsa, oqinsuv
Biz bo‘lamiz yov yetmas.

Erkishi birovdan ranjigandek, Katta to‘riqning bo‘yniga urdi:

— Eh, o‘larman suv, bo‘ysunmas suv! Bir iz, bir o‘zanda oqqan toshqin, bo‘ysunmas suv eding. Hiylagar dushman seni hiyla bilan taram-taram katta ariqqa, keyin ariqchalarga, undan jilg‘alarga bo‘lib ketdi-yu! Sen bo‘ysunmas suv o‘shanda qurbaqa o‘ynaydigan ko‘lmakka aylanib qolding-ku.

Yosh teginning oriyati keldi:

— Voy, Er aka? O‘g‘uz bobo ko‘lmak bo‘lib qoldimi? ...

— E, e, o‘g‘lim, — dedi Erkishi qovog‘ini solib. — O‘g‘uz bobo alpning alpi edi. E, voh, sinmas qilich, o‘lmas alp qayda? O‘g‘izxon borida chegara mahkam edi. Biz uni ko‘lmak qilib kechamiz, degan qora yov oxiri tilagiga yetdi-da, ey, Tangrim! Qulon quduqqa tushsa, qurbaqa unga ayg‘ir bo‘ladi...

Erkishi yana jim otini bostirdi. Bars bilan Yo‘lbars poyma-poy so‘rashdi:

— Ayting, Er aka? Qanday fojia bo‘ldi?

— Fojia... fojia, — dedi Erkishi. — Haqiqatan ham, tabg‘ach bu safar bo‘ysundi...

Askar sirini sezgan ot odam qamchi soldirmadi. Yo‘rg‘alab, tezroq yurdi. “Xo‘sh, qani quvadigan yoving, quvsang, yetaman. Qani seni quvgan yov, qochsang, qutqaraman”, deganday Katta to‘riq o‘ziga mahkam, kuchli va bemalol Erkishini tebrantirib kelmoqda ...

Bolalarning uyqudan qolganlariga ikki kun-u ikkinchi kecha og'di. Erkishining o'zi ham biroz toliqqanday mudrab olsammikin degan, ehe, mudrash qayerda? Tuyani shamol uchirsa, echkini osmonda ko'r, deganday Er kishining ko'zi yumilsa, zo'rg'a kelayotgan o'g'lonlar sovuqda muzlagan zag'izg'on kabi otdan tap-tap etib tushadiganday.

"E-e, chunoqlar, men sizlarni besh kun, besh kecha uxlatmayman. Ikkinchi va uchinchi kechalar qiyin kechadi. Undan o'tsa, askar o'zi uyquga bo'ysunmaydigan bo'lib qoladi. Odam o'jar bo'lsa, nimaga intilsa, o'shangga erishadi. Shunday! Sabr qil, mard bo'lmoqchi bo'lgan yigit.

— Ha, haqiqatan ham, tabg'ach bu safar bo'ysundi... — dedi Erkishi otini tezlashtirib. Buyuk xotin o'shanda aytganini qildi: oqsuyak qiz Lay-Funi ko'p cho'ri, quli, ko'p sepi, tortig'i bilan tayyorladi. Elchidan elchi ikki orada xabar tashidi.

Qishda qilichdan qon tomizib, qor kechmaylik, dedi. Bahorda ot terlatib suv kechmaylik, dedi. "Bizning askarlarimiz bilan sening askarlaring yovlashib, jang qilganida, odam emas, uyadagi palapon otning tuyog'iga yanchildi, o'tib bo'lmas o'rmondagi elikning bolalari oyoq osti bo'ldi. Muqaddas Ko'k bilan hosildor yerning o'rtasi jin-shayton chopirgan changga to'ldi. Tuyoqdan chiqqan to'zon ko'kka o'rladi. Cho'lning qum, tuprog'i odam qoniga aralashib ketdi... Undan naf ko'rmadik... Ot bilan jangchining o'ligini kalxat titdi... Shamol atrofga yomon hidlarni taratdi... Urishgan biz jafo chekdik. Kalxat, quzg'un maza qildi. Sen endi yovlashma: men qilichimning tig'ini yerga qaratdim. Senga dushman emasman, qarindoshman", — dedi tabg'ach podshoh. Elchini uzatib qo'yishdi...

Ko'k toshga po'lat qayrab, otini toblab, endi chegaraga askarlarni jo'natmoqchi bo'lib turgan O'g'uz alp urishmay bo'ysungan podshohning mayin gapidan qilichini ko'tarmadi. Kecha ot yolidan qon oqizib urishgan yovlar bugun quda-anda. Tuman, tuman askarlar yurib, changi chiqib ketgan yo'llarga bugun ipak to'shaldi.

Kumushdan quyilib, g'ildiraklari oltinga bo'yalgan ajoyib arava quyoshdan tushgan tuxumga o'xshab, podshoh saroyining oltin

darvozasidan kapalakdek yengil yurib chiqdi. Oyoqlariga ipak kavush ilgan, o'zlari quyosh tusli ipakka o'ralgan erkaklar oltin aravalarni uzatib chiqishdi. Aravalar og'irlikni sezmaydiganday ipak yo'lda tebranib, tebranib, irg'ib-irig'ib o'yinga tushganday yurib keladi. Go'zal g'ildiraklarida harakat hech ham sezilmaydi. Oltin tuxumga o'xshash arava momoqaymoqning sariq guliday yengil, bilintirmay suzib kelayotganday. Yonida o'ziga o'xshash oqsuyak, toza kanizaklari bor Lay-Fu oltin arava ichida o'zicha ashula aytadi:

Qilichning tig'i —
Qora niyat boshin kesar
Dononing so'zi
Podshoh yuragini ezar..

Lay-Funing atrofidagi kanizaklar kuylashadi:

Bo'ron chiqdi, bo'ron chiqdi
- Sariq quyun cho'ldan uchdi.
Oti oriq, o'zi holsiz,
Alp yo'lboshchi adashdi.

G'amgin qizlar qichqirishadi:

Qanotimga kuch bergin, Budda.
Sanoqsizmiz, biz lak-lakmiz
Sariq quyun bizlarni aya,
Sanoqsizmiz, biz lak-lakmiz

Bahorda salqin, qishda iliq podshoh saroyini qoldirib, issiqda cho'miladigan ko'l, zerikish soyasida sayil qiladigan gulzor, bog'ni qoldirish, ko'ngil ochadigan qancha-qancha qalbga orom beruvchi o'yin-kulgi joylarini tashlab ketish, qadimgi afsonalarni aytib beradigan buvini, buyuk donishmand Konfutsiy ilmini miyaga tomchiday quyib qo'yadigan chechan ustozlarni qoldirish, ko'z ochganda o'yin maydonchasida, bog'da, sayillarda, to'y-to-

moshalarda kitob o'qiladigan muqaddas joylarda birga bo'lgan do'stlarini, raqqosalarini, qo'shiqchi va kashtachi chevar qizlarini tashlab ketish — hozir oltin aravada mung'ayib ketayotgan Lay-Funing, uning yonidagi kanizak qizlarning orzusidagi ish emas edi. Podshoh naslini yolg'iz o'g'il ulug'lamaydi. Qiz bola va undan tug'ilgan jiyan, podsho naslining eng savlatlisi, ko'zga ko'ringani ham ulug'laydi. Bo'lmasa, donishmand Lyu-Ginning singlisi Lay-Fu dinastiyaning sinmas ustunidek saroyning eng ko'zga ko'ringan siymolaridan biri edi. Albatta, hokimiyat bor joyda qarama-qarshilik to'xtamaydi. Taxtga egalik qilishga harakat opa-singilni, og'a-inini bir-biriga qarshi qo'yardi. Bu chin dinastiyasining davomchilarining yuragidan o'rin olgan. Kuch bilan birini biri bosolmay turganda ularning hiylagari yengib chiqardi. Hiylagari kuchlisini o'ldiradi. O'ldirganini yurtga bildirmaydi. O'lganning nomini sotib, o'zining ishini davom ettiradi. O'lganning nomidan foydalanib, o'z maqsadini ishga oshiradi. Kuchli bo'lib olgandan keyin merosxo'rni "o'ldi" deb e'lon qiladi. Keyin o'zi birdan-bir oltin taxtning sohibi bo'lib olib: "Butun el taxtga o'tirishimni talab qildi. Muqaddas Osmon buyurdi", degan so'zni ishlatadi. Voris kuchli bo'lsa, aytgani ro'yobga chiqsa, unday odamning harom o'yi amalga oshmaydi...

Shunday holatga taqdiri o'xshash Lay-Fu hozir O'g'uzxonga sovg'a sifatida kelayotganiga qayg'uradi, yig'lab, azoblanadi. Shunga qaramay, u o'z taqdiriga rozi. Alp O'g'uz xonga erka xotin bo'lib kelayotganining bir tomoni ilojsizlikdan tortiqqa kelayotganligidan emas. Hali aytilgan toshqin suvni taram-taram katta ariqlarga bo'ladigan to'g'on o'zi ekanini biladi. Yoki bo'lmasa, qadimiy Chin yurtining buyuk taxtini xuddi shu bosh egmas yovvoyi, lekin qo'rqmas mard O'g'uzxonning el doimiy yashamagan yerida, yovvoyi yurtida dinastiyani davom ettirish ekanini ham tushunadi. Ilgaridan dushman yurtni qarindosh qilish bu katta obro' va hurmat. Shu katta hurmatni amalga oshirish oq yuzi kun ko'rmagan, ipak ichida voyaga yetgan, o'zi ham o'sha ipakdan ham nozik xonoyim-qizga topshirildi. Xuddi shu uyasidan uchmagan oq tuklari endi chiqqan palapon tuman-tuman askar bilan kelib, maqsadiga yetmay, qirg'in topgan podshoh qo'shini qila

olmagan ishni yashirin amalga oshiradi. O‘g‘uz alpning yuragini o‘ziga bo‘ysundiradi. O‘g‘izning oqila oyimi, tabg‘ach qizi Lay-Fu endi yurt onasi Donishmand ayol nomini oladi.

O‘o‘, bu uzoq maqsadni ko‘zlagan dahshatli hiyla ot yolida umr o‘tkazib, hamma narsani ochiq-oydin qilib yurgan kamtar yurtning boshiga qanday kunlar tushishini oldindan hech kim bilmagan. Tabg‘achlar Lay-Fu qizini ko‘chmanchilarning Layfu malikasi deyishdi, ko‘chmanchilar esa uni Jo‘l ona deb atashdi.

O‘g‘uz alpga malika bo‘lib kelgan Layfu — Jo‘l ona ajoyib oltin aravasida yo‘l bo‘yi yurakni ezuvchi so‘zlarni aytib keladi:

Qanotimga kuch bergin, Budda.
Sanoqsizmiz, biz lak-lakmiz
Sariq quyun bizlarni aya,
Sanoqsizmiz, biz lak-lakmiz

Erkishi hikoyaning qayg‘uli qismini aytishdan oldin quyosh nurlari muzli, qorli cho‘qqilarda charaqlab turardi. Osmonni ola bulutlar qoplab, sharq tomon katta yong‘in chiqqanday qizarib ketgan edi. Tevarak atrof qon sachraganday qizara tushdi. Quyosh olisdagi qorayib turgan tog‘ ortidan yashiringanday bo‘lib chiqdi. Osmon unchalik ochiq bo‘lmaganlikdan quyosh o‘zi uyalganday bulutlar orasidan yumaloq idishday bo‘lib ko‘rindi. Ko‘zni ham qamashtirmadi. Go‘yo butun tobini, issig‘ini bepoyon koinotni qoplagan bulutlarga, osmonning, yeru suvning yuziga sepib yuborganday. Quyosh o‘zi esa so‘nayotganday...

Otlarning kokili, yollari qizarganday bo‘lib ko‘rindi.

Erkishi ikki qo‘lini ko‘ksiga qo‘yib, boshini egib quyoshga salom berdi.

— Qandaysan, Muqaddas Quyosh! Molga osoyishta yaylov, el-yurtga tinchlik ber, Quyosh?

Uyqudan qolgan bezovta o‘g‘illar Erkishiga ergashib, quyoshga salom berishdi. Hammaning ko‘zlari qizarib, yuzlari quvarib, charchaganligi bilinib turar edi.

— Uyquni shaytonga ber, Quyosh, — dedi Erkishi. — Kamtarlik bilan kuchni, aqlni odamga ber, ey, Quyosh!

Suvliqlar shildiradi, otlar o‘t chimdishdi. Ba’zilari yilqilar bormikin, deganday atrofni iskab ko‘rdi.

“Mayli, ... ot biroz damini olsin. Cho‘p yesin”, — dedi Erkishi. — Kunning chiqishidan bugun yog‘in-sochin bo‘lib, bo‘ron bo‘ladi, shekilli. Kuz qisqaroq bo‘ladimi, tog‘dan qorning hidi keldi... Molga ham qarashmadik, chegaradan xabar olmadik. Keyin u nimanidir eslab qolgan kishiday cho‘chib, otning bo‘yniga chopdi. Uxlamasa, er boshi cho‘yan, tinmay yo‘rtsa, ot tuyog‘i po‘lat bo‘ladi, — dedi ovozini chiqarib.

Qushni quvayotgan odamday Erkishi otini tezlatdi. Yelkalari yana ham kengaygandek, katta gavdasi yana ham katta ko‘rinar, o‘zi esa egarda to‘g‘ri o‘tirardi... Gurzining qayish bog‘ichi bilagida. Tez ola qo‘yishga qulay bo‘lishi uchun kamon otlanar tomon[1]da egar qoshiga ilingan. Ilbirsning terisi bilan qoplangan sadoq qamchilar tomonda. Asosan askar sadoqni o‘ng kanjig‘aga yaxshi qilib bog‘laydi. Erkishining an’anasi — kamon va sadoqni yonma-yon olib yurish. Ot chopsa ham, sakrasa ham, tushib ketmasligi uchun egarning qoshiga kamon va sadoqni mahkam qistiradigan mis ilgagi bor. Qisqasi, kamon o‘qi bilan qo‘lining oldida. O‘z askarlarini ham shunday qilishga o‘rgatgan. “E!” kamida ikkita o‘q otmasang, dushman senga nishon bo‘lib bermaydi! Uyatchanlik qiz-kelinga yarashadi, mehribonlik askarning qo‘lini bog‘laydi. Yov qurolini qo‘liga olganida, sening o‘qing unga borib tegsin. Epchillik askarning kuchini ikki hissaga ko‘paytiradi. Qiziqchi Shap epchilligidan avval tulki edi, birpasda kalxat bo‘lib oladi. Biz uni tanimay qolamiz. Ha, unga bu mahoratni Tangri bergan. Jangchiga ham chaqqonlikni Tangri beradi! Ivirsigan askar qo‘lga tushadi, uyquchi askar yutqazadi, qo‘rqoq askar xor bo‘ladi. Qo‘rqib yurib qo‘lga tushadi. Oyog‘i, qo‘li bog‘lanib, qul bo‘ladi. Insonga yov qo‘lida qul bo‘lishdan ko‘ra ko‘proq xorlik bormi?

Bu gaplarni har doim askarlarning qulog‘iga quyib turadigan Erkishi: “Ularni yaxshilab iylayin. Ko‘p iylangan teri suvda

[1] **Otlanar tomon** — otning chap tomoni, chunki chap oyoq uzangiga qo‘yilib, otga miniladi. U minar tomoni ham deyiladi, qamchilar tomoni esa o‘ng tomonidir.

namlanmaydi, quyoshda qotmaydi. Ko'p mashq qilgan jangchi chidamli bo'ladi", derdi Erkishi. U quyosh ancha ko'tarilguncha yong'inni o'chirishga shoshilgan odamdek katta to'riqni tindirmay chopdi.

"Uyqu so'ragan bu o'g'lonlar egarda ezilsin. Uyqusi qochsin!" Bir necha marta tuyoq ostidan quyon qochib chiqdi. Tulki ko'rindi. Oraliqdagi ochiq joyda qarqurlar yuribdi. Bir-ikki marta yo'lni to'g'ri kesib, olis-olis irg'ib bug'u o'tdi.

Erkishi ularning birortasiga ham e'tibor bermadi. Ularni ko'rmagan kishi bo'lib, tizgin qoqdi. Goh siyrak butalar, to'p-to'p qayinlar, qarag'ayzorlarni oralab yurar, goh sharqirab oqqan suvni kechib o'tib, adirga, ro'paradagi yonbag'irdagi so'qmoqqa solib, goh yo'lsiz baland o'sgan cho'plarni oralab keta berdi...

U shoshib ketayotgani bilan uning asosiy diqqati, fikri, qulog'i orqada kelayotgan yosh askarlarda edi. Albatta, oldinga qarab ketayotgan odam orqadagilarni ko'rmaydi. Lekin u o'zining hushyorligi, sezgirligi bilan ularni ko'rgandek bo'ladi. Bu hammaga ham xos sifat emas. Jangda, kuzatuvda ko'p yurib o'ta ehtiyotkor bo'lishga odatlangan, janglarda ko'p bo'lib pishgan mohir askargina shunday his qiladi. Aks holda, askar oldidagi dushman bilan urishayotganda, orqadan kelgan dushman uni tikkasidan chopib tashlaydi. Orqasidagi dushmanni seza bilgan askar yov qanday kelayotganini, unga yetishga qancha masofa qolganini orqaga qaramasdan ko'radi.

Hozir Erkishi orqadan kelayotgan yosh askarlarning kimisi qanday kelayotganini burilmay sezdi, qaramay "ko'rdi". Ana, ot ustida uxlab qolgan Yo'lbars ko'zigacha tushib qolgan qalpog'ini tushirib yuborayozib, ilib qoldi. Bo'zuul esa yerdan bir narsani ilib oladiganday ot yoliga engashib, keyin to'g'rilandi. Kecha uyalib qolgan Bars bugun mudramadi ham. Vaqti-vaqti bilan o'zining jag'iga o'zi mushtlab, yig'laguday bo'lib, jahli chiqib, qamchini havoda o'ynatadi. Yosh tegin egarda to'g'ri o'tirib, qo'noqda o'tirib uxlagan olg'ir qushday har zamonda ko'zi yumiladi, keyin o'zini to'g'rilab oladi. Faqat Oquulgina bir marta ortda qolib, otdan tushdi. U ataylab zarurat uchun otdan tushdimi, yo uyquga

chidamay uyquga yengdirdimi, nima bo'lsa ham, ancha ortda qolib, yo'ldoshlariga arang yetib oldi.

"Mayli, — dedi Erkishi. Yo'lning azobi bor-da. Bu yigitlar ko'rsin, sezsin. Sezsin. Jang bo'layotganda otdan tushsa, nima bo'ladi. Bog'lanib, qul bo'ladi".

Erkishi ularning har birini e'tiborsiz qoldirmadi. U o'zicha "Ha, oyboltaga sop bo'ladigan o'g'lonlar", — dedi.

Oyboltaga sop bo'lgan askar yurt haqini bo'yniga qarz qilmaydi. Hozir Erkishining yonida kelayotgan o'g'lonlar vaqti kelganda har biri mard askar, jasur sarkarda, notiq, hisobchi, donishmand, abo, bek bo'lishi kerak! "Bizning bir o'g'il yoningda yursin", deb Erkishiga bir bolasini qo'shgan ota-ona hammadan avval o'z bolasiga oq yo'l tilaydi. Ovqat yeyishnigina bilgan bolani ota-ona mol qarashga, o'tin-suvga jo'natadi. Bolani yo'lboshchiga qo'shish, degani — o'sha bola oyboltaga sop bo'ladi, degani. Yo'lboshchidan tarbiya olgan bola askarlarni qo'llab, chegarani qo'riqlaydi. Oriyatini saqlab, yurtning tayanchi bo'laman, deb orzu qiladi. Bu davrning o'ziga mos katta bir maktabi! Mard askarga, mard sarkardaga ergashmagan, undan tarbiya olmagan o'g'il o'z zamonining bilimsizi va ojizidir.

Erkishiga o'z o'g'lini qo'shgan urug' undan kelajakda katta ishlarni kutadi. O'z tarbiyasidagi askarlarni sabr-toqatli, ayyor, kuchli qilib tarbiyalash mening vazifam, deb hozir o'g'lonlarni katta sinovdan o'tkazib, yo'l azobini torttirmoqda. "Yo'l azobi — go'r azobidir. O'sha go'r azobini uch marta boshidagan o'tkazgan o'g'il bola to'rtinchi marta oldida o'lim xavfi paydo bo'lsa ham, omon qutuladi! Hatto ajalning qalqonini qo'lidan tushirib, o'zi katta yo'lda qah-qah urib kuladi... E, voh, bu o'g'illarning qaysinisi o'sha yo'l azobiga chidaydi? Alp odatini davom ettiradimi? Kimisi ... "

Erkishining fahmlashicha, bu o'g'lonlarning ichidan sir bermagani — Buylash! U boshqalarga o'xshab otning ustida mudramadi, egardan engashmadi. Uzangi tepinishi, egarda o'tirishi va qamchi ishlatishi dadil. Hozirgina ot minib jo'naganday o'zini tutadi. Erkishi undan chin dildan minnatdor.

Hatto Yosh teginga qaraganda, Buylashning bunday yo'lga chidamliligiga Erkishi biroz g'ashi ham kelganday bo'ldi. Er Kulchurning o'rnini bosib, jancharini soplaydigan o'z nasli Yosh tegin yo'lda qo'shilgan "begona" urug'ning bolasi Buylashday chidamli bo'la olmagani yaxshi emas. Buylash zo'r bo'lsa, Yosh tegin undan kam bo'lsa, kuchsizni kuchli boshqargan zamonda ertadir kechdir Buylash Yosh teginga qarshilik ko'rsatadi. Hatto uni bosib olar, xo'rlar. Erkishi bu borada juda ehtiyotkor. Bularning bir o'tga tushsa, biri uchun boshqasi o'limga borib, alplarning qadimiy odatini mahkam saqlarmikin? — degan o'y Erkishini xavotirga soldi.

"Taxt uchun otasini so'ygan ozmi? Dunyo uchun akasini o'ldirgan ozmi? Shon-sharaf uchun el-yurtini sotgan ozmi? Ey, zo'rman deganlar, ko'zingni och. Sening nasling uyadan yeganni endi izlab topadi. Eh, inson-yey, inson-yey. Sening nasling ko'rganini qiladi. Agar bir buzuqi o'z ovulini talon-taroj qilsa, uni ko'rgan yana bir buzuqi ikki ovulni talaydi...Odam naslini ana shunday buzuqilardan tozalasa bo'lmaydimi? Shularni o'ylab, Erkishi yigitlarning kimisi qandayligini hozirdan fahmlab bilgisi keldi. "Men bu er qullarni qiynayin, rosa ezib qiynayin...Qiynalganda odam o'zining kim ekanligini ko'rsatadi..."

Ot o't yeb, o'zlari ichimlik ichguncha to'xtab turishdi. Eng baland cho'qqidan ham quyoshning qizil nurlari so'nganda u hozirgina otga mingan odamday bemalol otni bostirdi. Hali tugamasdan uzilib qolgan "Ulug' so'z"ni davom ettirdi:

— So'zni bo'lganingni la'natlayman! — deb so'zini uladi Erkishi. — Hozirgi aytadiganlarim shunchaki so'z emas, og'ir so'z! Esi yo'q o'g'il bola yodida tutib, boshiga kelganda, eslaydigan so'z. Bungacha men mayda shoxdan tutangan o't yong'in bo'lishi haqida aytdim. Endi o'sha hech o'chmaydiganday avj olgan katta yong'inni qanday qilib kichrayishi va qanday o'chib, yo'q bo'lishi to'g'risida aytaman. Uni qaysi kuch, qanday hiyla o'chirdi, o'shani aytaman. Bu gapni hech qoldirmay eshiting.

"Dushmanni ayagan yarador bo'ladi." Bu qadimdan qolgan bobo so'zi, ehtimol, undan keyin qolganmi? Uni men ayta olmayman. Nima deyman, eng qimmatli sovg'alarni olib, tabg'ach pod-

shosining singlisi Jo'l ona — Lay-Fu qul, cho'ri oqsuyak navkarlari bilan oltin saroyni tashlab, yo'l azobini boshidan kechirib, ko'p kun, ko'p tunlar yo'l bosib, O'g'uz alpning bo'z uyiga kirdi. U ko'chmanchi yurtning Jo'l onasi bo'ldi!

O'sha paytda odatlar o'z zamonasiga yarasha edi.

Har bir zamonning o'z tartibi bor: dushmandan yengilgandan qolgan askarlar chuvalashib qaytib bo'riday ulib, g'ingshib, yer yuzini g'amga to'ldirib, ota soqolini yulib, hayqiradi:

— O'o', jangchi o'g'lim o'ldimi? Soqolim yulindimi?

Ona o'z boshiga o'zi urib, qozonini to'ntaradi:

— Qozonim sindi! Qornim ochdi! A-a-iy.. qulunim qaydasan?

Yor sochini yoyadi:

— Tul bo'lib qoldim, g'am meni titib tashladi! A-a-iy ... shunqorim qayerga uchding?

Katta-kichik, o'g'il-qiz g'am chekadi. Qayg'u uylarni va ovullarni to'ldiradi. It uliydi, sigir bo'kiradi, yilqi kishnaydi. Kechasi ham, kunduzi ham o't yoqilmaydi. Kechayu kunduz qozon osilmaydi.

Lashkar dushmanni mag'lub etsa, qayg'u tamom bo'ladi. Qozon to'la ovqat, uy to'la rizq ... Ota soqolini silaydi, ona qozonni o'choqqa ostiradi, xotin sochini taraydi. Bola kichkina kamonini olib, toyga minadi. Uyma-uy, qishloqma-qishloq xushxabar tarqaladi! Qo'nish yangilanadi: uylar yashil maydonlarga, yangi to'rga, daryo bo'ylariga quriladi. Biya iyib, qimiz beradi, yer iyib, tariq ko'klaydi. Nay nola qiladi, cho'o'r[1] ovozi eshitganlarni o'ylantiradi. Karnay-surnay kuch oladi, qo'ng'iroqlar tebranadi, do'llar dupullaydi. Ot o'yini, ot qulog'ida hunar ko'rsatadigan yigit o'yini, tuya poygasi, yo'lbars jangi, ayiqlar kurashi — elni o'ziga jalb qiladi! Qo'lga tushgan o'g'il bolalar qullikka, qiz bolalar cho'rilikka beriladi.

[1] **Cho'o'r** — puflab chalinadigan milliy musiqa asbobi.

DOSTONNING TUG‘ILISHI

Otaning so‘zi o‘g‘ilga em.
El so‘zi

O‘tda kuymas, suvda erimas,
Meros qoldirdim senga —
U bobong aytgan “Ulug‘ so‘z”.
Donolar so‘zi

Ajdodlarni hurmat qilmaslik o‘ta ketgan johillik va axloqsizlik belgisidir.
A S. Pushkin

“Alplarga yarasha alp o‘yin” ...

Buylashning ko‘z o‘ngida otlar ham, o‘zlari ham bahaybat yetti otliq chopib o‘tishdi. Lekin ular haqiqiy otliq emas, xayoliy edilar. Shunday qilib, yetti otliq xayoliy edi. Shuning uchun yetti otliqning timsoli havodan surilib chiqishdi. Ular uy turadigan joygacha ko‘rinib borib, yo‘qolib ketdi.

Avvaliga ularni chindan ham oldidan chopib o‘tgan askarlar, deb o‘ylagan Buylash cho‘chib dedi:

— Er aka! Yov!

Atrofni burgut ko‘zlari hushyorlik bilan kuzatib kelayotgan Erkishi Buylashning “yov”ini ko‘rmadi. Darhaqiqat, u yer-bu yerda shubhali otliq yursa, uni, avvalo, Erkishi sezgan bo‘lardi. Qancha-qancha ulkan yurishlarda iz quvib — dushmanning sonini, ularning shoshib, yoki shoshmay bemalol yurishganini, lashkarboshisi qanday — urushda mohir, aqlli, tajribali, hiylagarmi, yo o‘zining kuchiga ortiqcha baho bergan, maqtanchoq hovliqmami, chidamsiz, o‘ljani o‘ylagan, u yoq-bu yoqni qaramagan shoshqaloqmi aniqlar edi “Mardni ko‘nglingda hurmat qil. Dushmanni ko‘rmay bahola!” — degan boboning so‘zlarini qo‘llanma qilib, yovni ko‘rmasdan turib, ularni oshuvdan o‘tganligini, adirli yerda, tekislikda, dovonda qanday yurganiga qarab yovning kuchini, maqsadini bilgan Erkishi keyin o‘z xulosalarini haqiqatga solishtirganda unchalik yanglishmagani, mo‘ljali to‘g‘ri kelganini bi-

lardi. Bu avliyolik, yoki folbinlik emas, balki askarlikda oshirgan tajriba, davrning bergan sabog'i, turmush o'zi o'rgatgan ilmi edi. O'sha turmush sabog'idan to'liq ta'lim olgan Erkishi hushyor kelardi. Buylash: — Er aka! Yov! — deganda u miyig'ida kulib qo'ydi.

"Yurib-yurib yo'l azobini endi sezisha boshlabdi. Ha, sizlar! Hali erta. Hozircha bo'lgani yo'q. Qadimiy otalaringizning tirik arvohlarini ko'zinglarga yana uch marta ko'rsataman. Ha-a, o'shanda egarda uxlab borayotib, bexosdan yov chiqsa, har biring adashmasdan sanchadigan bo'lasan...

Erkishi hech narsani sezmagandek to'xtamay ketardi. Buylash uncha uzoq emas, ot bo'ynicha orqada edi. Uning aytganini eshitadiganday edi. Biroq Erkishi uning "yov" degan so'ziga e'tibor bermagani Buylashni xijolatga soldi. Hech narsadan hech narsa yo'q ko'zingga qandaydir otliqlar ko'rinib ketganidan "yov" deb cho'chib aytishi o'ziga ham g'alati tuyila boshladi. Atrofidagi yigitlar uqdimikin deganday alanglab qaradi. Yosh tegin, Yo'lbars va boshqalar Buylashning "yov" deganini eshitmaganday beparvo ketishardi. Ular askarlar kabi egarda mahkam o'tirishardi. Uyqusi umochday ochilib, bronza uzangilarni mahkam tepib, egarda qoziqdek chayqalmay ketishardi.

— Voy, iflos-yey ... Qaydagi arvoh ko'rina qoldi? — deb Buylash o'zini o'zi koyidi.

Katta to'riq tizgin silkittirmay, qamchi soldirmay yo'rtib borardi. Erkishi ovozini baland qilib, hikoyasini davom ettirdi:

— Oh, to'polon-to's, urush bo'lmasdan, qattiq yut kelmay, katta-kichikni o'rganday qilib olib ketadigan buyuk tumov qoplamay el-yurt o'sib-unsa, hozirgacha yer yuziga odam sig'armidi?

To'lib toshgan qozonning og'zidan ovqat to'kiladi. To'lib-toshgan vaqtda xon, bek xoin va uyati yo'q bo'lib ketadi. Oddiy el bo'linadi. O'g'uzxon uzoq umr ko'rib, shunqor bo'ldi. Ko'p yashab, Jo'l onamiz ham uchib ketdi ... yurt chegarasini qaragan alp ketganda yurt ichida bir-biri bilan yovlashish boshlanadi. Dushman ko'k toshda qilich qayraydi. U qonni qo'msaydi, o'lja olgisi keladi... O'g'uz alp uchib ketdi. Tabg'ach qayta yovlashdi. U qo'yniga bekitgan ilonni qo'njidan chiqardi. Janchar bo'yi

qor yog‘ib, otlar qor kavshab, terskay emas, kungayda ham yilqi nasli yurolmay qoldi. Bahor qor yana qalinlashdi. Erib-erimay atrofdagi qorlar muzladi. Dahshatli yut qo‘ra-qo‘ra qo‘ylarni qirdi. So‘qim go‘shti tugadi. Baytalning yoli, qo‘chqorlarning dumbasi shimildi. Qoramollar har qayerda o‘lib qola berdi. Qo‘y, yilqidan pichoqqa ilinadigan qolmadi. Yut elning qo‘lidagi mollarni xuddi o‘rganday yig‘ishtirib ketdi. Bo‘ri etakdan, yov yoqadan oldi. U yillarda zamonning issig‘i-yu sovug‘i odamlarni zor qaqshatdi. Yurtimizning chamg‘aragi yerga tushdi, qozoni to‘ntarildi. Yut bir kelib, to‘xtab qolmadi, har ikki yilda, har uch yilda, har olti yilda yutning muz tuyog‘i shu Ulug‘tog‘larni tepib turdi. Urush bir marta bo‘lib tugamadi. Askarning jag‘ eti shimilgan sayin dushmanlarimiz kuz kunlari bo‘ladigan quyunday tundasi tunda, kuzdagi kuzda tinimsiz hujum qilib turishdi. Bola ot ustida tug‘ilib, ot ustida katta bo‘ldi, qiz ot ustida sho‘kulo‘[1]sini oldirib, chimildig‘ini ochdi: qari-qartang bemor bo‘lsa, ot ustida yotdi, qabrga qo‘yildi: askar ot ustida sal-pal uxlaganday bo‘lib, ot ustida ichimlik yutdi. Yurtimizning ko‘rgan kuni kechirgan tirikchiligi bosqin, urush, urush! Katta urushda askarlarni hujumga uzatib turganday Erkishi qo‘lini olg‘a ko‘tardi. Qayish bog‘i bilakka ilingan irg‘ay sopli buldursun osilganday qimirlab turdi. Qamchining buzoq tishlariga o‘xshash o‘rimlari quyosh nurlarida yaltirab, xuddi kalta dumli yo‘g‘on ilonday qaltirardi.

Erkishining ko‘zlari chaqnab, siyrak mo‘ylovi dikkayib, qora sur rangi oqarganday bo‘lib, bodom qovog‘i uyilib, qoshlari chimirildi. Kuchga kirib, yosh askarlarning oldida bo‘yi o‘sganday bo‘ldi. Hozir hujumga otlanayotganday tayyorlangan holda hayqirdi:

— Ey, attang-a, attang! Anovi yerda katta dushman qo‘shini bosib kelishini bilgan bobom, hozir holdan toyib, qanotsiz qoldi[2], e, voh!

Hozir o‘tmishda bo‘lib o‘tgan katta urushning elasi Erkishining ko‘z oldiga keldi. Qirdan askarlarning boshi yumalagan, qon

[1] **Sho‘kulo‘** — bo‘yiga etgan qizlar kiyadigan usti uchli, o‘zi bezatilgan bosh kiyim.

[2] **Qanotsiz qoldi** - otsiz qoldi.

buloq bo‘lib oqqan qirg‘in urush bobodan otaga, otadan bolaga ertak bo‘lib qolgan. Jangchining mingan oti oriq, askar ushlaydigan oybolta o‘tmas, yurt kambag‘al bo‘lib turganda, uning ishongan alpi, donishmandi otidan ajraldi. Kuchdan toydi, aqli xiralashdi. U Tangri o‘zi quvvat bergan, Tangri o‘zi qo‘llab, oq yo‘lbars qo‘llab-quvvatlagan O‘g‘uz alpning nabirasi Tuman edi .... Tuman davrida yov kuch oldi. Ular damba-dam chegarani buzib, hujum qilishdi. Katta yut, qonli qirg‘inlar navbatma-navbat almashib turdi. Nihoyat, toliqqan ko‘chmanchilarning boshiga qora qozon to‘ntarildi.

Bechora elni osmon o‘zi qahriga oldi: kakku sayraydigan yoz chillasida tizzadan qor yog‘di. Oq qalpoq kiyib bolalar toy o‘ynatadigan chog‘da toy emas, askar minadigan ot oriq. Ona yog‘ quydirib, kelin qurt qaynatadigan vaqtda yurt och, ota-ona kulib o‘tiradigan chog‘da o‘g‘il-qizni qizil tumov[1] qopladi. “Chechakka oldirmagan chumchuqlarimni qizil tumovda qirib oldim” degan so‘z qoldi. E, voh, o‘shanday halokatli, qonli qirg‘in bo‘lganda, yer yuzini ko‘rinmas ofat qoplarkan.

— Odamning o‘g‘li pay bo‘lib qolarkan. Ko‘zdan yosh tommaydi, u o‘t yoqmasdan qorga isinadi. Nahor qilmay, shamolni xo‘plab to‘yinadi. Ey, inson o‘g‘li, inson o‘g‘li. Qahriga olar paytida u shunday kuchli bo‘lib ketadi. Shunday qilib, olov yoqmay qorga isingan, nahor qilmay, shamolga to‘yinib qolgan g‘azabnok lashkarni bobom Tuman yovga qarshi otlantirdi. Askarlarning mingani oddiy otlar edi. Ularning aksariyati yayov edi.

Hiylagar tabg‘achning o‘ttiz ming askari qorong‘ida sudralib kelgan ilondek buraldi. U bu tog‘ bilan narigi tog‘ni qurshovga oldi.

Erkishi yelib kelayotgan Katta to‘riqning jilovini tortib, to‘xtadi. O‘sha ilgarigi urush endi ko‘z oldida bo‘lib yotganday katta barmoqli kurakday kaftini peshonasiga qo‘yib ro‘paraga tikildi.

— E, voh, arvohi ulug‘ Tuman! U otasidek alp, otasidek saxovatli va mard sher ekan...

Erkishi lablari titrab, nimalarnidir aytganday bo‘lib, uzoqdan ko‘z uzmay turdi.

[1] **Qizil tumov** — qizilcha, qizamiq kabi yuqumli kasalliklar.

— Tugayotganini bildirmay hujumga tutab kirdi. Bale, bale! Tabg'achning temir kiygan lashkariga qarshi do'zaxdan chiqqan nasl yalang'och chopishdi, yana ne deyin?

O'kirib yig'lab yuboradiganday Erkishi chuqur xo'rsindi. Katta to'riqni oyog'i bilan shart niqtadi. Na Yosh tegin, na Bars, na Buylash, na Oquul, na Bo'zuul Erkishidan "Keyin nima bo'ldi?" deb so'rashga jur'at eta olmadilar. Anchagacha jilovlar yig'ilmadi, hech kim gapirmadi. Ikki tomonni ko'rgisi kelmagandek, ot yolidan ko'z uzmadi.

Soqoli ko'z yoshlariga yuvildi... Alp yig'lab ot yoliga ko'z yoshlari tomdi. Ancha-muncha tashvishni bildirmaydigan Er akaning ich-ichidan yig'laganini orqada kelayotganlar sezishdi. Botir g'am chekib, botir yig'lab turganda, hali burnidan qurti tushmagan bo'z o'g'lonlar chidab turarmidi?

Ular qattiq yomg'ir ostida qolgan yo'lovchilarday ivib ketishdi...

Bir payt g'azabidan dimiqib turgan Bars o'zini o'zi boshiga mushtlab, otini taqimiga bosib, niqtab, choptirib keldi-da, Erkishining chilviridan ushladi:

— To'xtang, Er aka!

Olisdagi aks-sadoni zo'rg'a eshitayotgan garangdan battar Erkishi Barsning hayqirganini zo'rg'a eshitdi. Sababi, u xayolan ilgari sodir bo'lgan katta jangda yurar edi. Butun hayoti va yuragi bilan xayolga botgan Erkishi hozir o'sha bo'lgan buyuk hujumni ko'z oldiga keltirib, o'zi ham o'sha hujumga aralashib ketgan.

— To'xtang, Er aka!

— Ha, ha. Mendan nima istaysan?

— Katta hujum nima bo'ldi? — dedi Bars.

— Tuman aka haqida gapirib bering?

— Lashkar nima bo'ldi? — deyishdi Yosh tegin bilan Buylash.

— A... — dedi Erkishi nimanidir eslagandek. So'ng qamchisi bilan atrofni ko'rsatdi. — Katta hujum yig'i bo'lganini, lashkar nima bo'lganini anovi tog' va tekisliklardan, yer-suvdan so'rab olinglar.

Yosh askarlar atrofga xavotir bilan qarab qolishdi. Erkishi o'ziga kelib, shartta dedi:

“Qaranglar! Yer-suv hamon bo‘zlab yig‘layapti. Anovi, do‘mpaygan yerlar hammasi qabrlar, olislarga cho‘zilgan toshlar — qirilgan lashkar. Ular tosh bo‘lib qolishgan. Qishda o‘lganlar bahorda zo‘rg‘a dafn qilingan. Bahorda o‘lganlarni och va yalang‘och tiriklar eplab ko‘mishgan... Ey, odam o‘g‘li, usti ochiq Ko‘k, bag‘ri keng yerda hayot kechirayotgandan buyon bu tomonda eng katta urush va eng dahshatli qirg‘in o‘shanda bo‘lgandir. O‘shanda tosh quchoqlab er o‘ldi, erini quchoqlab yori o‘ldi, onasining emchagi og‘zida go‘dak o‘ldi. Nimasini so‘raysiz, bolalar! O‘z yerida yashab, molini ko‘paytirib yurgan kamtarin yurt tog‘larni qazib, toshdan temir, oltin, kumush so‘rab olardi. Bo‘yiga yetgan qizlariga sho‘kulo‘ kiygizdi, yoriga chachpak[1] taqdi. Bizning yurt mehnatkash va kamtar edi. Ot ustida voyaga yetgan, hushyor edi. Yovga bo‘ysunmagan mard edi. Hiyladan, yolg‘ondan olis, to‘g‘ri gapirib, to‘g‘ri ko‘rgan el edi. Och qolganda nega och qolganini, qorni to‘yganda, nimadan to‘yganini ham bilmay o‘sgan. To‘g‘ri, jangda har biri oybolta bo‘lib yovga otilar edi. Jilovni ushlagancha o‘zi ot ustida Buyuk qal’a bilan Ulug‘tog‘ o‘rtasida quyundek kezib yurdi. Jangda dushmanni ayagan o‘zi yarador bo‘ladi. Dushman yumshog‘ining kulini ko‘kka sovurdi, qattig‘ining qozonini qiyratdi... O‘zi ham hech narsa ololgani yo‘q...Tangri ham qahriga oldi... boshiga katta ofat va falokatlarni uydi. Oxir-oqibat, o‘shandagi katta urushga bizning lashkarimiz yalang‘och otlandi ...

Ha, ha, o‘sha yalang‘och lashkar qirg‘in qilindi, toshga aylandi.Ularning tirik arvohi yalang‘och ko‘lanka bo‘lib yer kezib keldi. Yigit va qizning yosh umri soylarda yosh qayin bo‘lib o‘sdi. Ota-onalarning ko‘z yoshlari jilg‘alarda buloq bo‘lib oqdi...

Anovi tekis yerlarda do‘mpayib turgan tosh qabr, yumaloq tosh, tosh gumbaz, tosh tepa?! Ularning ichi yalang‘och jangchi, yalang‘och och odam bilan to‘la. Ajdoding dafn etilgan!

Erkishi tamshanib, so‘lagini yutguncha jim qoldi. Otlarini sekin yurgizib kelayotgan yosh askarlar hech narsa deyishmasdan boshi egik holda kelishardi. Endi adir va tepaliklardagi to‘plangan

[1] **Chachpak** — ayol kishining sochi uchiga taqiladigan ipakdan qilinib, turli qimmatbaho toshlar bilan bezatiladigan taqinchoq.

toshlarni va do‘mpaygan tepaliklarni nima uchun paydo bo‘lganini ular endi tushunib yetdilar. Bu qator qabrlar, bu to‘plangan toshlar, tepaliklar jonlanib kelayotganday. Toshgumbazlarning ichidan yalang‘och arvohlar emaklab chiqa qolganday ular bir seskanib, qo‘rqib ketishdi ...

— Bu bir chekkasi? — dedi Erkishi g‘amgin ovozda. — Ha, bu bir chekkasi! Boshqa tarafda, Boyko‘l[1]dan beri, gurkiragan Kam daryosigacha, narigi Oltintog‘ning adirliklari, kun chiqar tomonda tabg‘achning Sariqjazig‘igacha, bu dunyoning tog‘u dashtlariga o‘shanda yalang‘och jangchi otlandi, yalang‘och o‘lim sepildi. ...To‘plangan toshlar, tosh tepalik, tosh sharpa, tosh bobo — bari o‘sha katta urushda qurbon bo‘lgan bobolar?!.. Bobong jon talashib o‘lmadi, bobong yer-suvni himoya qilib halok bo‘lgan! Agar uning tagida oti ustida sovuti bo‘lganida o‘zi qirilmas edi. O‘ldirib yurgan, yengib yurgan dushmanni tog‘ cho‘piday yig‘ishtirib qo‘yardi. Ko‘lmakday tepalab tashlardi...

Yog‘inda qolgan yosh ko‘chatday yosh askarlar charchab, shalvirab turishardi. Ular jilov tortishmadi. Otlar bir qolipda yelib bosardilar. Egarda o‘tirgan odamning maqsadini sezganday jonivor otlar ham odamning harakatini, ovozini, vaznini, fikrlarini bilganday egasiga og‘irlik keltirmaydi... “Bo‘pti, bechora odam, sen o‘z xayollaring bilan bo‘l, qayg‘ur, o‘zingcha nima desang, de, yig‘la, xo‘rsin. Men senga xalaqit bermay seni olg‘a olib ketaberayin”, deganday bir qolipda yelib, onda-sonda chivindan o‘zini qo‘rish uchun quloqlarini silkitib, gohida pishqirib qo‘yib, askarning yukini ko‘tarib, otlar bir xilda to‘p-to‘p, bulk-bulk etib bosishmoqda.

Erkishi haligidan keyin qovog‘ini solmadi, boshidan tumog‘asi olingan burgut o‘ljaga tepinib qaraganday, biroz ko‘ngli ko‘tarilib, so‘zlarni kuyga solib, ayta boshladi:

Bobonglarning ertagi
Xuddi shunday bo‘lardi.
Buni —
Aytmay qo‘ysak bo‘larmi?

[1] **Boyko‘l** — hozirgi Baykal.

Uning ko‘p narsani ko‘rgan, o‘tkir qarashlarida endi qaytmas g‘ayrat bor. U qancha qattiq gapirsa, Katta to‘riq shuncha yurishini o‘zgartirib, quloqlarini qaychilashtirib, javdiragan katta ko‘zlarining oqi ko‘rinib ketadi. Badanlari taranglashib, tuyog‘i yerga mahkam sanchiladi: “Nima? Yov keldimi? Yelday uchayinmi? Suvdan suzib, qirdan oshayinmi?” deganday jonivor askar oti Katta to‘riq yo‘rg‘alab, boshini quyi solib, tizginni cho‘zdirib, qadamini tezlashtiradi. Erkishi ovozini ko‘tardi:

Qorinlari dardayib,
Ot jasadi yotgan joy.
Attang, qo‘li shalpayib
Er jasadi yotgan joy.
Chachpaq, shuru sochilib,
Yor jasadi yotgan joy.
Toza eti yalang‘och,
Bola jasadi yotgan joy.
Uzun sochi chuvalib,
Nurli yuzi quvarib,
Qiz jasadi yotgan joy.
Qorday sochi oqarib,
Qari jasadi yotgan joy.
Qora tosh qizil bo‘yalib
Qon buloqday oqqan joy.
Tabarruk Ko‘k ham yig‘lab,
Jon-jonivor churillab,
Keng bag‘irli ona yer.
Bag‘rini yong‘in qoplab,
Bo‘zlab, mungga botdi-yov, —

deb aytilgan “Ulug‘ so‘z”ni eshitgin, quloqqa quy, ko‘ngilga tug. Otaning qilganin davom ettirib odam bo‘laman, deganing, shundan keyin menga ergash. Bo‘lmasa, otda yurmas xomsemizing, yovga chopmas qo‘rqog‘ing, erta yorug‘da shu yerda qayt. “Men Er akaga ergashmadim, ustozligiga arzimadim, qo‘rqdim, degin. To‘g‘risini aytgan hamisha haq bo‘ladi. O‘z yurtingga bo-

rib, qo'rqdim, degin. Boshqa narsa aytsang, yolg'onchi bo'lasan. Yolg'onning yuzi qora. U safarda, qonli urushda o'zining jonini saqlayman, deb o'ziga ziyon keltiradi. Elning yuziga tupuradi... Bobolar so'zini u eshitmaydi. Eshitsa ham, unga yuqmaydi."

Erkishi gohida gaplarini ertakka o'xshatib aytadi, gohida ovozini ko'tarib, do'lning tovushini, askar otining yugurishini, surnayning nag'masini esga solib kuyga soladi.

O'tganda Er Qulchurning qabridan tuproq yalatgandan beri shu Er akaning ta'limini olib, yo'lidan boraman, degan Yosh tegin hozir uni endi ko'rayotganday unga tang qoldi. Uning nima bo'layotganini ham tushunmay "Er aka yo'l qarg'ishini olmasin, Er aka aynib qolmasin", deb cho'chidi. Er aka ayniydigan kishi emas, uning aytgan "Ulug' so'z" sabog'i o'g'lonlarga kuch, g'ayrat va aql beradiganday kuchga ega.

— Bu kuch — Er akamning bizga bergan ta'limi. "Ulug' so'z"ning kuchi, — dedi Yosh tegin. Hech biri Er akaning fikrini, gapini bo'lmadi.

— Qo'rqog'ing ketgin! Qo'rqmasing, yuraver! Dangasang ketgin! Pishig'ing yur! — dedi Er kishi. — Qo'rqoqqa tog'dagi yolg'iz tol ham dushman bo'lib ko'rinadi. Dangasaga ayirmachday qir ot oshib o'tolmaydigan dovon bo'lib ko'rinadi. Xuddi shu paytda qo'rqoq bilan dangasaning aql-esini harom yengadi. Buzuqi kishi o'zining rohatini ko'zlaydi. Biri adashtiradigan, biri qayg'uradigan bo'ladi. Qo'shinning orasini buzadi. Buzuqi kishi o'ziga og'a izlaydi. Elning ustida chang uyulsin, mening boshim toza bo'lsin, deydi. Mard askarni yer yutsin, uning otini men minayin, deydi. Donishmand xon o'lsa o'lsin, men g'orga yashirinayin, deydi.

U qo'rqoqlar, nima qildik, der edi
El ichiga vahima solib,
Butparast yo'lini tutardi.
U dangasa sal yelga ham uchardi,
Yov mergani yo'liqsa,
Nishon bo'lib berardi.

— Meni qo‘rqoq demang, Er aka! — dedi jahli kelgan Bars baqirib, yig‘lab yubordi. — Agar meni qo‘rqoq desangiz, sinovdan o‘tkazing. Sinab ko‘ring. Ustoz, bizni bir-birdan sinang.

Erkishi unga qaramadi ham. “E, essiz, seni allaqachon sinab bo‘lganman. Sinamasam, hammangni besh kecha-yu besh kunduz uxlatmay qo‘yarmidim? Bobomning arvohini ko‘rasan. Qornida ovqati, ustida to‘ni yo‘q qolguncha urishgan askarlarning yalang‘och bosib yurganini ko‘rasan. Ular ayyor dushmanni qancha yo‘q qilishdi. O‘zlari ham halok bo‘ldilar... Ular shunchalik ko‘p qirildiki, murdani yopishga tuproq yetmadi, qabrga qo‘yishga tosh yetmadi... Ular mardlik ko‘rsatdi — munosib o‘lim topdi. U askarlarni Ko‘k ayadi: hammasini yalang‘och arvoh qildi. Ular toshga o‘xshab qoldi. Oh, arvoh qanday tosh bo‘lsin. Ular qo‘rqoqlarga tosh bo‘lib ko‘rinadi. Qo‘rqmas odamni chilviridan jilovlab, dushmanga boshlaydi! Yo‘lovchiga yo‘l ko‘rsatib turibdi, u arvoh bo‘lgan er bobo! Anovi engilchak bosgan katta qabr toshi yorilib, ichidan yalang‘och bobom suri bilan chiqdi. Aytgancha, bizning kamtar elimizni shunchalik qirgan, yaxshi narsalarini talab, oq yuzli qizlarini cho‘ri, er o‘g‘illarini qul qilgan yovga uning g‘azabi juda kuchli. Rahmdil erkak toshday qattiq bo‘ldi. U er bobo yovga qarshi kurashda bor kuchini sarfladi. Yovni ayagan yarali bo‘ladi-da.

— Hye, — dedi dushman. Bu yurt tugadi. Biya bog‘lab, o‘rda tikkan qo‘nishida endi bo‘ri uliydi. Chopqir otlarni sug‘organ buloqlari endi ko‘lmak bo‘ladi. Oltintog‘ning oltinlari endi bizga qoldi. Ekinzorlariga endi biz ekin ekamiz. Hye, yelday uchgan alplarining qanotlari chopildi. Hammasi tamom. Bularni lashkarlarimizning janchari bilan yanchib bitmas edik. Ularni bizning yumshoq so‘zimiz ozg‘irdi. Mening yumshoq ipagim qiziqtirdi. Bu yurtning alpi, botiri ko‘p edi. Egnidagi kiygan zirhni o‘q teshib o‘tmas edi. Uni bizning yumshoq so‘zimiz teshdi. Uni bizning quyoshday toza qizimizning suzilgan ko‘zlari teshdi. Hye! Hozir bularning hech narsasi yo‘q. Endi bular ot o‘ynatishmaydi. Er boshlari endi qaqiragan suyak. Ha! Ha! Qirg‘indan qolgan nozik qizi bizning qulimizning cho‘risi. Otidan ayrilgan o‘g‘li esa bizning cho‘rimizning quli. Ha! Ha! — dedi yov.

U bizni shunday qilib qattiq xo‘rladi.

Erkishi qaytadan kuchadi:

— Ayt, chinakam yigit bo‘lganing ayt. Biz xo‘rlanamizmi? Bilganing ayt. E, voh, dushman naslni qirib tashladim, deb uch oy to‘y qildi. O‘shanda oltin chamg‘arakni tepib sindirishdi. To‘ng‘iz go‘ngidan olov yoqib, o‘sha olovda kuydirdi. O‘q yetmaydigan chopqir arg‘umoq otlarni mol boqqan podachiga mindirdi. Yuzlari oftobday go‘zal qizlarni munkillagan keksa quliga berdi. Har qanday yerdan jiparkindik va jayronlarni qochirmaydigan tayg‘onlarni quturgan itlarga talatdi. Balandlikdan yirtqich olgan burgutni patini yulib, xo‘rozga tepkilatdi...

Voy-yey... Voy-yey... U vaqtdagini men aytmayin, sizlar eshitmanglar. Hatto tabarruk yurtimizning tuprog‘ini kulga aylantirmoqchi bo‘lishdi, lekin qo‘lidan kelmadi. Toshbobo dushmanga taslim bo‘lmadi... "Tugadi" degan elning avlodlari har qirq yilda, har sakson yilda, har yuz yilda tobutni yorib chiqdi. Bexosdan kelgan bo‘ronday yov tanasini muzlatadi, tugadi, degan sayin kuchga kiryapti, qirilgan sayin qizib kelyapti, o‘lgan sayin ko‘payib kelyapti. O‘o‘, mardlar!

Erkishi o‘zi ko‘rib, o‘zi aralashib kelgan voqeani sho‘x musiqaga solib aytib bergandek bo‘ldi. Askarlar kiyimi, qurol-yarog‘i va tashqi ko‘rinishini birdan sanab, ko‘z oldiga suratini keltirdi. Katta lashkarning dupuri, otlarning pishqirig‘i, odamlarning hayqirig‘i eshitilganday bo‘ldi. Otning tuyog‘i toshga tegib, tuyoqning tagidan mayda toshlar, qumlar uchganday bo‘ldi. Quyushqon ot sag‘risida sirg‘alib, uzangi qoqishganday bo‘ldi. Surnay bilan misnayning ovozi kelib, do‘lning jangovar ovozi kelganday bo‘ldi. Tog‘ ko‘chganday dungiradi, suv toshganday sharilladi. Jilg‘a-jilg‘adan qizil-tazil ko‘ch chuvalanib jo‘naganday bo‘ldi..

Tog‘ va uning atrofi silkinib, jonlanib jaranglab ketdi.

Erkishining hikoyasi kecha-yu kunduz uxlamay kelayotgan yosh askarlarning ko‘ziga ana shunday shonli, jonli tasavvurni ko‘rsatdi. Yosh tegin, Bars, Yo‘lbars, Bo‘zuul, Buylash, Oquullar hozir ko‘zi ko‘rganlariga ishondilar.

"Tabarruk yer-suvni saqlab, jonini ayamay urishib, jonlari tirik arvohga aylangan er bobolarimiz hozir toshni yorib chiqishdi, deb

ishonishdi. Ko‘zga ko‘ringan tasavvurga astoydil sig‘inishdi. “Er bobo” bizni jilovimizdan yetakladi”, deb ishonishdi.

Erkishi odamning yuragini larzaga solgan “Ulug‘ so‘z”ni davom ettirdi:

Qangg‘ayning qora tog‘idan
G‘oz aylanmas qoyadan
Qora toshi yorilib:
Yarq-yurq, etib o‘t chiqdi.
O‘tdan odam uni chiqdi.
O‘q o‘tmas to‘nni kiy, — dedi
O‘q o‘tmas tulpor min, — dedi.
Chegarani qoplab yov keldi
Qiyqirib solib yur, — dedi.
Qo‘rqog‘ing qolib, qo‘y boqsin
Qo‘rqmasing janchar os, — dedi.
Dangasang qolib, mol boqsin,
Jasuring yovni to‘s, — dedi.
E, aylanayin, qulunlar,
Anovi yerda qiyqirib
Askar bobong turibdi.
Chegaraga kelgan dushmanni
Qirg‘iyday tegib, sur, — dedi.
Kulib, yayrab, shod bo‘lib,
Yovga qarab yur, — dedi.
Ana, ana oldida
Ko‘ktoshni mingan er bobong
Gurkirab yo‘lni boshladi.
Oq cho‘pqut to‘ni yarqirab,
Oqtosh oti sakradi.
Old tomonda er bobong —
Oqin suvday sharqirab,
Oldiga yo‘lni boshladi.

Bag‘ri keng yer gumburlab ketdi: yilqichi, tuyachi, molchi, cho‘pon yugurib yetishdi. Qulog‘ini bog‘lagan suvchidan tortib o‘roqchigacha orqadan ergashib olishdi. Bir paytlar zich o‘rmon-

dan ko'mir yuklagan temirchilar qo'shilishdi. Bir paytlar bog'da sayr qilishib yurgan katta bir guruh qariyalar qo'shilishdi.

Chegara tarafdan yer kezib kuzatuvdan kelayotgan bir to'da askarlar uchrab qoldi. Avvaliga ular nima bo'layotganini bilishmasdan hujum qilish uchun yaroqlarini hozirlagan edilar. Keyin o'z elini, o'z yurtining odamlari ekanligini tanib qolishdi, shekilli, otlarini to'xtatishdi. Ular ham qator bo'lishib, ketayotganlarga qo'shilishdi. Ular ham Boboning hikoyasiga erib, eshitgisi kelib, ergashdilar. Bir mahal yo'lda qizil-tazil ko'ch qo'shildi. Ular tantana bilan qiz uzatib, biri kelin olib kelayotganlar ekan. Yurtning tabarruk marosimlarini bilgan ishboshi ayol oldida, orqasidagi barakali qudalar ekan. Bular ham hikoyani eshitib, yo'li oq kelin keldi, shunday tabarruk odamga, kishilarga safardosh bo'ldik deyishdi, ichlaridan quvonib, ular ham er bobo hikoyasini diqqat bilan eshita boshladilar.

Bir payt hayqirib-qiyqirgan beboshlar ko'rindi: bir bosh bermas buqaga minibdi, biri yaydoq ayg'irga minibdi, biri boshini qizil bo'z bilan bog'lab, ko'k tolga ko'ylagini bog'lab, yalovdek hilpiratadi. Otga mingashgan ikkitasi otning yonboshlariga o'zlarini tashlab, kulishadi. Sog'in sigirga, cho'loq baytalga minganlari yalang'och, boshlarida ukki patlari qadalgan qalpoq, o'zlaricha shovqin-suron bilan bo'richa ulib, arsloncha hayqirib, ayiqqa o'xshab bo'kirib kelishardi.

Ular o'zlarining yovvoyi shovqin-suroniga botib, boshqa dunyo bilan hech qanday aloqasi yo'q, jin urganday uvillashib-chuvillashdi, tuproq to'plashib, o'rtalarida nimanidir talashib, janjallashganday bo'ladi. Ular xuddi suvni to'sgandek kelayotganlarni ham to'sib olishdi.

Shu payt osmonni ham yorguday hayqiriq keldi:

— Ey, jin-shayton! Yo'ldan qayt!

Bu shimalanib hayqirgan Bars edi. U ikki uzangini teng tepdi-da, egar ustida tura qolib, shovqin-suron qilganlarni savalay boshladi. Qamchining zahri o'tganlar qochdi, to'da tarqadi, shovqin ham bosildi.

O'rtada yoniga bo'rining, tepasiga yo'lbars terisini yopinib olgan qora "dev" shoxi katta ko'k buqaning ustida yotib olib, boshga

o‘xshash yumaloq narsani hech narsaga e’tibor bermay kemirardi. U eng g‘alati yirtqich hayvonga o‘xshab ko‘rindi. U Barsga otilmoqchiday tishini g‘ijirlatdi.

Ammo g‘azablangan Bars undan qo‘rqmadi. Otini choptirib kelib, uni beliga qamchi bilan urdi.

— Yo‘ldan chiq, it! Sen teri yopingan soxta yo‘lbars bo‘lsang, men haqiqiy yo‘lbars — Barsman. Odamman! Yo‘lni bo‘shat! Er akaga sajda qil!

Ko‘k buqaning ustida o‘tirgan Barsning so‘zlariga e’tibor bermadi. Qamchi zarbasidan qiynalish o‘rniga hech narsa bo‘lmagandek yo‘lbarsga o‘xshab bo‘kirdi-da, boshni kemira berdi... Barsning achchig‘i keldi:

— Yo‘ldan qoch, yirtqich! Qoch!

Erkishi maza qilib kuldi. Haqiqiy qahramonlik kulgisi. Quvonchning kulgisi. “Ha, o‘g‘illarim. Yetti kunu yetti kecha uxlatmay Er boboning tirik arvohlarini ko‘zinglarga ko‘rsatdimmi? Kishi boshini kemirgan yirtqichni ham ko‘rdingiz. Endi yong‘in bo‘lsa, o‘tga tushasan, suv toshsa, toshqinni to‘sib qo‘yasan. Bobo arvohi sizlarni tor yo‘lda qo‘llaydi. Sizlar endi hech narsdan toymaydigan bo‘ldingiz! Agar yirtqich ko‘rinsa, yirtqichni savalaysiz. Agar ajdaho ko‘rinsa, ajdahoni savalaysiz”...

Erkishi xoxolab kuldi:

“Vah-ha, savala, savala! Men sizlarni shunday qilsin, deb yetti kecha, yetti kunduz uxlatmadim. Tindirmadim. Endi har biring jinniday harakat qil. Jinniday harakat qilmaguncha alp qilichi o‘tkir bo‘lmaydi. Jinniga o‘xshab harakat qil, o‘g‘lim!

Jangchi bo‘ladigan o‘g‘il bolani iylab, yetiltirish, uni qahramonlikka o‘rgatishning eng og‘ir sabog‘i ham shu — Erkishi ustoz boshlagan yigitlar boshidan kechirgan mashaqqatdir. Ana shu uzoq yo‘ldagi mana shu hovliqib, o‘zini ko‘rsatmoqchi bo‘lgan o‘g‘lonlarning boshidan o‘tkazgani mardlikning mashqidir. Aslida, ularni hech qanday odam, na jin, na yirtqich o‘rab olmadi. Tasavvur paydo bo‘ldi. Bolalar bu xomxayol ekanligini bilishmadi. Ular uning haqiqiy yov va haqiqiy jin, deb ishonishdi.

Erkishi tilagiga yetgan alpday xursand bo‘lib ketdi. Unga hamroh bo‘lgan yigitlar haq ishni sotmaydigan, qo‘rqmaydigan

chinakam qahramon bo'lishiga ishondi. Orzusi amalga oshganidan quvondi:

"Va-ah, bular haqiqatan ham jinnilarga o'xshab harakat qilishib qolmasin. Tinchlantirayin. Haq yo'lga boshlayin, — dedi Erkishi. Keyin u Katta to'riqni taqimga niqtab, hayqirdi:

— Vah, jo'ralar! To'xtang! To'xtang! Dushman sizlardan qochib, qirildi! To'xtang! Tosh yorig'idan chiqqan yirtqichlar ham halok bo'ldi. To'xtang!

Bolalar tinchlanishdi... Erkishi ham biroz xotirjam dedi:

— Sabr qiling, jo'ralar. Sizning kuchingizga teng keladigan hech qanday dushman yo'q. Sizlarni bundan keyin shavkatli odam jilovingizda bo'ladi. Ko'k Tangri saqlaydi.

Halidan beri to'planib turgan qora bulut quyuqlashdi. Avvaliga yirik-yirik yomg'ir tomchisi "tip-tip" etib askar kiyimini savaladi, keyin esa paqirdan quyganday shiddatli yomg'ir yog'di.

Otlar ham, odamlar ham ivib ketishdi ...

Bars, Yosh tegin, Buylash, Yo'lbars, Oquul, Bo'zuul va boshqalar ham o'zlariga kelishdi. Halidan beri ko'zlariga uyqu qo'ngan o'g'lonlar ot ustida zo'rg'a kelishardi.

Erkishi o'zicha gapirib, xursand bo'lib dedi:

— Yomg'ir nam qilsa, quyosh uni quritadi. Yuraveringlar.

Qo'ng'ir bulut tog' boshini chulg'ab olgan. Osmonning tubi teshilganday sharros yomg'ir yog'moqda. Otlar bir qolipda yumshoq yeladi. Kiyimlar shalabbo bo'lib ketgan. Tevarak atrofda yog'indan o'zini saqlamagan hech bir jonzot yo'qdek.

— Egarda mudrab uxlayveringlar, — dedi Erkishi yigitlarga. — Dushman yo'q. Chegara tinch. Ot o'zi yelib, yo'rtib keta beradi.

Yumshoq yelib-yo'rtib ketayotgan ot usti yumshaganday bo'ldi. Bolalar egarda maza qilib uxladilar.

"Vah, bolalar, endi uxlang. Uxlang. Agar shunday qilmasak, haqiqatan ham jinni bo'lib ketish hech gap emas, — dedi Erkishi o'ziga o'zi ...

IKKINCHI QISM

Ginasi hech ketmagan,
Kelganini eplagan,
Ketganini cheklagan,
Nomusga aylangan,
Ajalga bog'langan,
Urushga shaylangan,
Qirq urug' qirg'iz edik,
Niyatimiz Egamga yoqib,
Har turli molni boqib,
Kenjamiz qalmoq bo'ldi,
Boshiga davlat qo'ndi.
Chumchuqlar tarqab ketdi,
Talabimiz anchaga yetdi.
To'qqiz urug' qirg'iz qoldi,
Ko'katoyning oshi deb,
To'polon yomon bo'ldi.
Qatorida qozoq bo'ldi,
Qolganlarga osh ham bir azob bo'ldi,
O'g'uz o'g'li Manasga mazax bo'ldi.

Manasdan

(Qirg'izlarning) — Aholisi, odatda, novcha bo'yli malla soch, malla soqol, rangi qizil, chaqir ko'zli ... Erkaklar ayollaridan ozroq ... Ular sabrli, o'zlarining qadrini biladigan odamlar bo'ladilar...

N. J. Bichurin

QUM CHAYQAGAN IZDAMIZ

Men odamning olovdan va suvdan o'lganini ko'rganman, lekin hech qachon oko'rukchilikdan o'lganini ko'rmadim.

Konfutsiy

Aqliy mehnatning eng muhimi va foydalisi o'tgan voqealarni tasvirlashdir.
Sallyustiy Gay Krisp

Safardami, katta yo'lda kelayotgani, ko'mir qazib, kon eritib tog'da mehnat qilganimi, dalada mol boqib, yer haydab, suv burib, o'roq o'rib, yer rizqini undirib olayotgan dehqonmi, toy mingan bolalar, chiyga jun o'rab, o'rmak to'qiyotgan ayollar, kashta qilib o'lpo'q[1] to'n tikkan kelin-qizlarmi, yana kimlar bo'lishidan qat'i nazar, bu vaqtda katta-kichikning qo'llari ishda, o'zlari suhbatda.

Odamlar ko'rpaning chekkasidan chiqmas so'zni, g'iybat gaplarni og'izga olmaydilar. Ular aytishga arzimaydigan mayda so'zlar. Bunday mayda gaplarga o'zaro ittifoqi ketgan yurt yaqin bo'ladi. Ichganiga xursand bo'ladigan, tumshug'idan nari narsalarni ko'ra olmaydigan bechoralar ana shunday mayda gaplarga xaridor bo'lishadi. "Bo'ri otar bolani bo'rkidan tani, yurtni boshlar yigitni so'zidan tani" degan maqol bejiz emas-da. Aytishlaricha, askarning jasoratini janchar sunganidan, kelinning shijoatini qadam tashlaganidan sinagan keksa kishilarning erta tongdan boshlab o'g'il bolaning qanday qilib yovga qarshi otlangani, urushda qanday mardlik ko'rsatgani, uni urushga uzatgan ayolning o'sha askar eriga qanday tayyorgarlik ko'rgani chin dildan gapiriladi.

Urushda janchar sinsa, unga er aybdor. Kurashda tugma uzilsa, bunga xotin aybdor. Chegaraga dushman kelgan g'ala-g'ovurli kunlarda chiroyli sochini tugib, erkak kiyimini kiyib, belbog'larni tortgan, erini askarlikka qanday otlantirgan bo'lsa, o'zi ham shunday tayyorgarlik ko'rgan dadil ayolning taqqan tugmasi bo'sh kelsinmi? Qilichning hammasi keskir bo'lmaganidek, hamma odamlar ham jasur bo'lavermaydi. Ulardan biri uyatchan, biri jasur, biri qo'rqoq, biri irodali, biri bo'sh, biri epchil ayyor, biri epsiz, biri qo'lidan ish kelmagan noshud bo'lishi tabiiy. Shunday bo'lsa ham, juda ko'p katta to'qnashuvlarni boshidan kechirgan bu ko'chmanchi elning xomsemizi tadbirli, noshudi ishbilarmon, pishiq bo'lishni bo'yinlariga olishgan. Unday bo'lolmagani tezda adashadi, xo'rlanadi va o'lib yo'qoladi.

[1] **O'lpo'q** — urushda kiyiladigan to'nning turi.

"Zaif edi, bechora", "Qo'rqoq edi, bechora", "Noshud edi, bechora" degan so'zlarni eshitgan odam yaxshi bo'lishga astoydil harakat qiladi, bo'lmasa, xorlanib, unutilgan eski kiyimdek qadrsiz bo'lib qoladi. Ular hujumga to'siq, yaqinlari uchun yuk va tirik murdadir. O'shanday holsiz bo'shang odamlar haqida masal-maqol, rivoyat-ertaklar juda ko'p ... ularni aytgan vaqtda aytuvchi ham, tinglovchi ham qalpog'ini boshidan olib, qamchi bilan yer savalagancha kuladi. Bu kulgisi kelganidan qizib masxarlab kulgani emas, balki u noshud o'zining urug'idan bo'lsa, orlanib, koyiganlik. Sababi, qalpoqni boshdan olish — bu "Aqldan adashding" degani. Qamchi bilan yerni savalash esa — "Ostonadan to'rga kelayotgan rizqni to'kding, dushmanga bosh egding; ota qo'nishini shunday qilib qamchi bilan savalatding", — degani.

Bu shunchaki kulgi emas, o'sha rivoyatda, masalda esga olingan bo'sh, yomon, qo'rqoqni so'kish, qarg'ash va yomon ko'rishdir.

— E-e, tuya tepsin, bu itni.

— Bu yomonning oshini it ichmasin.

— E-e, bu qo'rqoqning o'ligi cho'lda qolsin!

— Tfu, bu haromining qizini er olmasin!

"E-e!" degan sayin o'sha yomonni, o'sha qo'rqoqni, o'sha buzuqini o'z oralaridan "Ket! Yo'qol!" deb quvlab yotganday vaziyat paydo bo'ladi. Kulgi kuchayadi. "E-e!" balandlashadi. Uni eshitayotgan nimjon odam ham o'zining yomonligini, ojizligini, qo'rqoqligini hech kimga bildirmaslikka harakat qiladi.

Qo'rqoq, bo'sh, yomonlarni — "Holsiz, bo'shang" deb atalib, kamsitilishni askar bo'ladigan o'g'illar odat tusiga kiritgan. Zero, hayotning o'zi bu odatni odam oldiga majburiyat qatori qo'ygan bo'lsa kerak.

Har qanday yaxshi-yomon, foydali-foydasiz marosimlarni inson o'zi o'ylab topadi. Har bir odatni, yo'l-yo'riqni, marosimni kelib chiqish sababi bor. Hayotda bu marosimlarning foydasi ham, ziyoni ham mavjud. Bilimli odam ulardan foydalisini oladi va davom ettiradi. Uni odamlar foydalanishi uchun qoldiradi. Ularning zararlisi xirmonda dondan qolgan chiqindilarga o'xshaydi. Hayot o'z g'alvirida tozalab, tashlab yuboradi...

— E-ha, alp jangda, chechan so‘zda!

— Qo‘rqoqqa qo‘yning boshi qo‘sh ko‘rinadi.

— Ha, haqiqiy erkak — tayanch!

Og‘izdan og‘izga o‘tgan bu so‘z katta-kichikka ta’lim. Agar bu ta’limotni qabul qilmasa, nafaqat bir kishi, oila yoki bir urug‘, butun el zaif, bo‘shang bo‘ladi. U zaif va bo‘shang elni kuchli yurt xo‘rlaydi. Xo‘rlangan yurtning odatlari buziladi. Umid-tilaklari puchga chiqadi... Boshini ko‘tara olmaydi, yashashdan lazzatlanmaydi, to‘zadi.

— E-he, hiylang arslonni ushlaydi!

— Ha, toshqin suv kechuvsiz bo‘lmaydi!

— Ha, atan o‘lsa, toyloq bor, cho‘mi yerda qolmaydi! — degan ta’lim to‘zganlarni to‘playdi. Ular qaytadan kuchayadi... O‘hho‘, bu qachondir ilgarigi zamondani beri ot yoliga qozon osgan qancha-qancha chaqqon, qahramon askarlar o‘sgan el boshidan o‘tdi. Kechaning o‘rniga kunduz kelganidek, hayotda ham barcha katta-kichik narsalar almashadi. Har bir kishi bir safar xo‘p, deb bosh egsa, keyingisida unga qarshi kurashadi: o‘z kuchini, o‘z aqlini harakatdagi narsaning zo‘r kuchiga qarshi qo‘yadi. Albatta, bu odamning yengiltakligi yoki takabburligi emas, balki uning insoniy kuchi!

Xuddi mana shu ajoyib inson kuchi ota-bobolarimizda ham bor edi.

... Ular qadimdan doimo hayot uchun kurashdilar. Ular yaxshini yomondan, kuchlini zaifdan ajratib turadigan buyuk qoidadan chetda qolmagan. Ajdodlarning bosib o‘tgan murakkab yo‘llari, baland dovonlar, chuqur kechuvlar qahramonlikka yo‘l bermasdi. O‘sha paytda hech qanday kuch yenga olmaydigan qora qoya bo‘lib mahkam turdi. O‘sha paytlarda dovon orti keng tekislik bo‘lib, umr bo‘z yo‘rg‘aday yelib, ohista o‘tdi.

E, voh, muloyim va ohista o‘tgan hayot odamni tez hovliqtiradi. Inson o‘g‘li hovliqsa, u fojiaga duch keladi. Keyin odamning o‘zi falokatga qarshi kurash boshlaydi. U butun aqlini, mehnatini, kuchini sarflaydi. Mudhish musibat ildiziga bolta uradi, lekin bolta tekkan musibat to‘xtab qolmaydi, qaysar bo‘lib, yana kuchayadi. Shunda inson o‘g‘li uning yuragiga janchar uradi, biroq musibat

o‘shanda ham bira to‘la to‘xtamaydi. Musibat boshlangan tarafga yov tumanday qoplaydi.

O‘o‘, falokat, falokat. U, ko‘pincha, “kutilmaganda” yoki “tasodifan” boshlanadi. Hozir darrov bitadigan arzimas ishdek tuyiladi. Keyin u kuchaya boshlaydi. Aksariyat hollarda uni odam o‘zi kuchaytiradi. Uni shunchaki bir narsa, deb o‘ylashadi. Lekin uni tugatish o‘rniga, qaytanga kuchaytiradi. U rivojlanib olgandan so‘ng, ichki yara kabi tanani luqillatadi, chiritadi. Ha, u darrov tuzalmasligi, ko‘p qirrali kasofatligi, bir tugab, yana to‘lgani uchun — falokat-da.

Ana shuning uchun odam doimo tilanadi:

— O‘o‘, Tangrim. Tasodifiy qayg‘u-falokatingdan saqla!

— Falokat keldi deguncha qarg‘ish keldi de.

— Meni qirg‘indan saqla. Eshigingni och!

Inson shunday saqlanib, savob ishlarni qilib yurib, o‘sha o‘zi boshlagan falokat qora qanotini odamga solib turganda, odam zorlanadi, yig‘laydi. Holsizlanadi. Lekin...

Inson ... falokatga qarshi aql bovar qilmaydigan darajada kurash ochadi. Ayamasdan kuch ishlatadi. Butun aqlini, hiylasini, epini, kuchini o‘sha falokatga qarshi qo‘yadi.

Inson falokatga qarshi qilich ko‘taradi.

Inson falokatga qarshi so‘zini aytadi.

Inson falokatga qarshi qo‘shiq aytadi. Bu inson o‘g‘lining eng kuchli kurashi, shu uning eng so‘nggi qo‘shig‘i!

Uzoq va qayg‘uli qo‘shiq! To‘lqinlantiruvchi, ohanglari bir-biriga mos qo‘shiq! Bu tuyg‘ularni to‘lqinlantirib, yurakni hayajonga solgan, kuchga beqiyos kuch qo‘shgan qo‘shiq.

Ha, ha, inson o‘g‘lining qo‘shiqdan, kulgidan kuchli quroli nima?

Buni qarang, bobomiz kuy bastaladi. Hadsiz, hisobsiz qo‘shiqlarni yod oldi! Qon chiqarmay bosh kesar, degan maqolini aytdi. Qilich sug‘urmay yovni yengadigan so‘zni davom ettirdi.

Uning so‘zlari botir bosgan uzoq yo‘lda oltin kukunlariday sochilib turdi. U qumdan tog‘ undi. O‘sha tog‘da avlodlar umr surdi.

Oh, o‘sha qum tog‘idagi tilla zarralarni o‘rganib, yig‘ib, rivojlantirib, asrab-avaylaydigan avlod bormi?

Bor!

U hamisha musiqa chalib, kuylaydigan odam.

U har doim ham sovuqda muzlatmaydigan, issiqda kuydirmaydigan kiyim bichgan odam.

U har doim chorva boqib, nasl olgan odam.

U har doim ekin ekib, ko'chat o'tirg'izib, daraxt o'stirgan odam.

U aqlini peshlab, qum tog'dan tilla zarralarini izlagan odam.

U o'lim arafasida bo'lsa ham, ertangi kunga qayg'uradigan odam.

Yalt etgan chaqmoqday umr tugay deganda bobolar:

— Ey, farzandlar. Falokatdan ehtiyot bo'linglar. Ko'karinglar! —deb ketishgan.

Biz ularning qum chayqagan izidan bordik. Tubsizlikdan bo'g'iq ovoz keldi. Xotira va vasiyatlari eshitiladi. Keyin bitmas-tuganmas hujumlarda yurgan alp bobolarning qiyofalari ko'z oldida elas-elas ko'rinadi.

Ey, Tangrim, bizni bu safarda ham falokatdan saqla.

OSMON VA OLOV

"... Biz qirg'iz degan elga yetib keldik ..... Ularning o'zicha tutgan yo'li, o'y-fikrlari, yozuvlari va ibodat qiladigan joylari bor. Chiroq o'zi o'chmaguncha o'chirmaydilar. Ularning qofiyali so'zlari, ohangraboli qiroat bilan o'qiladigan so'zlari bor, oldilariga ipor hidli narsa qo'yib, sig'inishgan vaqtlarida uni qaytalab o'qishadi. Ularda yiliga bir nechta bayramlari bor. Nishoni, belgisi ko'k ... Cho'lpon, Oltin qoziq (Saturn) yulduzlarini hurmat qilishadi. Mirrix — kechki qizg'ish yulduzni yoqtirishmaydi, uni falokat, deb bilishadi ... Ularda tunni yoritish uchun bir tosh bor, shuning uchun chiroqqa muhtoj emas. Bu tosh ularning yurtidan boshqa joyda bo'lmaydi. Hammasi bo'ysungan bir podshosi bor. Uning yonida yoshi qirqdan o'tgan kishigina o'tiradi.

Abudulaf. Mujamul Buldon

O'timni o'chirganing, o'zimni o'ldirganing.

El so'zi

So‘nggi besh-o‘n yil ichida yurtda tinchlik o‘rnatildi. Urug‘ ichida keklashgan va bir-birlari bilan urishgan kishilar hovliqib qilich ko‘taradilar. Uni taraflarning sheriklari gij-gijlab, ichki urushlar bo‘lib turadi. Bunday o‘zaro talash-tortish bolalarning o‘yiniday gap. Qadimdan ot yolida qozon osib, suhbat qurib, ot yolida hamma muammolarini hal qilib o‘sgan askar bunday urushni xotin urush deydi. Shunday xotin urushlarda birining ovulini boshqasi talon-taroj qiladi. Birining erkaklarini biri qul qiladi... Chiroyli kelin-qizlarini cho‘ri qiladi. Bu go‘yoki mardlarning odati, askarlikning tutgan yo‘li: “Odamini qul qilmasang, molini o‘lja qilib olmasang, urushing boshingda qolsin!” — deyishadi.

Binobarin, bu qoida salbiy ish bo‘lsa ham, o‘ljani yaxshi ko‘rgan xonlar, qonxo‘r sarkardalar o‘zlarining yomon niyatlarini oqlash maqsadida “Falon urug‘ qasamga bo‘ysunmadi” degan bahona bilan o‘sha falon uruqqa, pistonchi naslga qarshi urush boshlashadi. Aybsizlar ayblanadi. Ularni talon-taroj qilishadi. Falonchi abo, pistonchi botir an’anaga yo‘l ko‘rsatdi, deb niyati qoralar maqtaladi.

— Yo‘ldan ozdirgan odamni qalin o‘rmonga haydab yuboring, u bo‘ysunmadi, yumshoq ipak, sariq oltindan ko‘proq olgisi keldi. Yovning yeriga yaqinlashtirib yaylovga yurtini joylashtirdi, ittifoqi buzildi. Kelsa, keldi, o‘zining rizqi, kelmasa, onti bo‘ynida. U yurti bilan qilich tig‘idan qirg‘in topsin, — deyishadi.

O‘lja olishni o‘ylab, hovliqqan xonni yoki lashkarboshini qilich bilan tartibga solish — urush emas, balki urug‘ning ichki tartiblarini, el-yurtni birlashtirib, ulus tuzilishini mustahkamlashdir! Bunday to‘qnashuvlar yurt buzgan urush hisoblanmasdan “Falonchi urug‘ning bezoriligi, pistonchi botirning yoki xonning, aboning, bekning yaramasligi, tentakligi”, deb atashadi.

Nima bo‘lsa ham, xaloyiqni qorong‘ilikka tiqib, el-yurtni qayg‘uga cho‘ktirgan janglar yo‘q. Bir yilchadan beri chegara tinch edi. Doim chegarada, kuzatuvda, jang maydonida yuradigan askarlar endi ovul o‘rtasida egarda mudrab, otini sekin bostiradi. Kecha-yu kunduz ko‘z nurini sarflab jang kiyimini tikuvchi ayollar, endi unday kiyimlarni goh-goh tikishadi. Ko‘pincha, ular kashta tikishga o‘tishdi. Oq o‘rdani, ko‘k chodirni bezash, bo‘yiga yet-

gan qizlariga sep tayyorlash, sho'kulo', takiya[1], kashtali kamzul, chachpak, tumor yasash onaning, kelin aya va opalarning vaqtini oladi. O'rmakchi bilan o'rmakchi musobaqalashadi. Bichuvchi bilan tikuvchi, o'ymakor bilan kashtachi bir-birlari bilan so'z o'yini qilishadi.

Sanchganing yaramas, ignang ham o'tmas,
Kashtang turi elda yo'q, hoy, qiz.
Zag'izg'on — qora ola,
Saspopishak — sarola.

Kashtangning o'xshashi yo'q, hoy, qiz, — deydi o'ymakor. Shunda kashtachi:

Sanchganim kashta, ignamdir ilma,
Kashtamga yangi gul tikaman kunda.
Zag'izg'on qushning inoq, soqchisi
Tojli popishak undan yaxshisi.
Kashtamni maqtab, saqla, yaxshisi.

Kelinchakning kuchli ovozi qizlarning bir maromda eshitilayotgan mayin ohangdagi ovozlarini bosib ketadi. Kelin-qizlar nozik barmoqlarini bukib, epchil qo'llarini tez-tez ishlatib, musobaqalashib kashta tikishyapti. Katta-kichik sokin kunlarning bitmas-tuganmas ro'zg'orini o'tkazish uchun tinmay mehnat qilishar, shu bilan hayot kechirishning mehribon va ulug' safarini davom ettirishar edi.

...Odiltoy ajoning avlodlari ham bu vaqtda tinch hayotning tashvishlari bilan ovora.

Uzoq umr ko'rgan soqol-mo'ylovlari oppoq Odiltoy ichidan nimalaridir aytib, allakimlar bilan sirlashganday o'tirardi. Qadimgi shajaradan gap ochadi... Odamlar jim o'tirib, bobo so'zini tinglaydilar. Odiltoy ajo hech qachon o'lmaydigan odamga o'xshab ko'rinadi. Janglarda oybolta o'tmagan, qilich kesmagan, kasal-

[1] **Takiya** — qizlarning boshi kiyimi. Odatda, boyo'g'li yoki ukkining pati bilan bezatiladi.

likdan sog‘ayib, uzoq umr surgan odamlar har bir uyda bo‘lmasa ham, ota naslida bor. Ular o‘z avlodining, har biri o‘z ovullarining tabarruk odami, qut-barakasi... Odiltoy ajoning “Bobo” deb atalishi ham ko‘p yashaganidan. Uning ota-bobolari ham uzoq umr ko‘rishgan. Ayniqsa, uning bobosi Edil ajoning haqiqiy yoshini birorta ham odam bilmagan. “Bir yuz qirq birning qiridan oshdi, Edil akamiz”, deyishib, o‘z avlodlari: “Otam qirg‘izning Edili bir yuz saksonning tuzini tatidi”, deb boshqa yurtning odamlarini hayratga solishardi.

Biroq Edil boboning haqiqiy yoshi yurtga sirligicha qolgan. Aytishlaricha, bu vaqtda Edil boboning tabarruk ruhi tirik deyiladi. O‘z avlodi Odiltoyni u bobo qo‘llaydi. U duo qilib, himoyalaydi. Endi Odiltoy ajo ham o‘tgan tabarruk Edil bobosiday ko‘p umr ko‘radi, degan ishonch bor...

— Vah, barcha tirik mavjudotlar ham o‘lmas bo‘lsaydi.

— Odiltoy bobomizga homilador vaqtida El bilgi-xotinni to‘lg‘oq tutmaydi. Tangri unga, ming quzg‘unning yuragini baliqning moyiga qovurib yesang, to‘lg‘oq keladi, deb tushida ayon beradi. Tushida aytilganlarni bajargandan so‘ng El bilgi-xotinning to‘lg‘og‘i kelgan, deyishadi. Ajo yuz yilning jilovini cho‘zib, zurriyotlarimizning quriganini ham, to‘kin-sochinlikda yashaganini ham ko‘radi... — Zurriyotlarimizning yerlari kengayib, el-yurt farovonlikda yashab, yalov baland ko‘tarilib, birlik buzilmasa, Odiltoy bobo o‘lmasdan o‘zining Oqbo‘ziga minib, quyoshni ko‘zlab safar tortadi, — degan gap bor.

“Bobo arvohi ajomni doim qo‘llaydi. Odil bobo o‘lmaydigan bo‘ladi!” degan ishonchni zurriyotlarga Tangri berayotganday seziladi...

E, voh, tug‘ilgan o‘lmay qolarmidi?

Shunga qaramay, inson fikri o‘lmaslikni orzu qildi.

...Uch yil ketma-ket qish iliq, bahor esa mehrli bo‘ldi. Qishdan mol semiz chiqib, to‘l ko‘p bo‘ldi. El-yurt bemalol yashay boshladi. Odamlarning fe’li kengaydi. To‘y-tomosha, qiz uzatishlar birin-ketin bo‘la boshladi. Ovul ahli ko‘paydi. Katta-katta oq o‘rdalarning yoniga kelinga atab qurilgan kichkina bo‘z uylar oppoq tuxumdek ko‘rinardi.

Yosh yigitchalar toy va g‘unonlarni choptirib, bellashdilar. Adir chekkasida qiz kelinlar chalgan chanqovuzning ovozi keladi. Tak teke[1] o‘yinini o‘ynashadi. Qo‘shiq, biri-birini ulagan ohang, jaranglagan qo‘muz, nola qilayotgan surnay, tantanavor misnay, qo‘shnay ovozlari ovul ustida tebranadi, ohanglarga to‘ldiradi. Quloq kuylarga to‘ladi, yurak to‘lqinlanadi, sezgilar orom oladi.

Dala-tuzdagi dehqon, mollarni qarayotgan molchi tinch mehnat qilishmoqda. Kuzatuvda yurgan askarlar chegarada yurgan bahor oyida Odiltoy ajo yashagan oq o‘rda katta suvning bo‘yidagi yashil qo‘nishga qo‘ndi. Oq o‘rdaning o‘ng tomoniga Yosh teginning, chap tomoniga Erkishining o‘rdalari tikildi. Ulardan bir toy chopim (2,5–3 km) olisroqqa bobo naslining oqsoqollari, ulardan sal nariroqqa urug‘ning ovullari qanot yozib qo‘nishdi.

Qirlarning eng baland joyidan qaragan ko‘zga o‘rtadagi ajo o‘rdasi eng katta tuxumday oqarib, ajoyib bo‘lib, aylanasidagi hamma tuxumlarni boqqan, qaragan onasiday bo‘lib ko‘rinadi. Aylanadagi qator-qator tizilgan ko‘p tuxumlar, mana hozir, o‘sha o‘rtadagi katta onasini ko‘zlab yurib, uni yaqindan qurshab aylanasiga turib oladiganday go‘zal ko‘rinish qaragan odamning ko‘z oldida gavdalanadi.

Odiltoy — qirg‘iz yurtining ajosi! Endi undan donishmand ham, sarkarda ham maslahat oladi. Mol, jonliq semirib junlari tebranib turgan kezda, yer-suv ko‘kka o‘ranib, moldan to‘l olinayotgan bahorda ajoning holin so‘rab, undan maslahat eshitamiz, deganlar ot izini sovitmaydi, ya’ni tinimsiz kelib turishadi. Har yili bo‘ladigan bunday uchrashuvlar yurt bo‘ynidagi farz.

Maslahat olgan kishi kam bo‘lmaydi. Kengashib kesgan barmoq og‘rimaydi. “Xon to‘g‘ri maslahat bersa, qul yaxshi bo‘ladi”, — derdi Odiltoy bahordan buyon nimadandir xavfsirab. Ko‘p narsani boshidan o‘tkazgan ajo falokat kuttirmay kelishini eslab: “So‘nggi yillarda yurt chegarasi tinch bo‘ldi. Oltin jom rizqqa to‘ldi. Yetim o‘g‘il voyaga yetdi. Yo Tangrim, yurtimni yomonlikdan saqla”, – deydi.

[1] **Tak teke** — tog‘ takasining shakli ikki tomondan ip bilan tortilib, qo‘miz ohanglari ostida uning ustidan irg‘ib o‘ynaladigan o‘yin.

Ajo hozir o'rda to'rida oltin taxtda o'tiribdi. Soqol, qoshlari oppoq. Qalpog'ining cheti oltin tusda sarg'ish, ustida ajo kiyadigan oq to'n. Bu dushmanga qarshi kiyadigan kiyim emas, balki o'rda kiyimi bo'lgani uchun keng, yarashiqli va chiroylik. Oyog'ida qo'nji keng, poshnasi baland ajo etigi. Naq oq kumush yopishtirilgan poshnasiga oltindan o'yma rasmlar solingan. Aytgancha, bo'yin terisidan iylangan qo'nji ravochdan olinadigan bo'yoqqa solinganligidanmi, sap-sariq rangda. Go'yoki oltinga o'xshaydi. Ko'njining qiriga kumush yopishtirilgan. U juda yarashiqli.

Ajoning o'ng tomonida Yosh tegin, chapda Erkishi. Ularni ulab tizilib o'tirganlar boboning yo'lini tutgan yoshi ulug', yo'li ulug' kishilar.

Azman abo Yosh teginning qatorida, Chekir biy Er kishining qatorida. Bu qoidalarni buzish emas. Yosh bo'lsa-da, ajolik taxtining bo'lajak egasi Yosh tegin endi ancha narsani boshidan kechirib, yetilib qolgan kezi. Er Kulchurning qilichiga ega Yosh tegin. Undan boshqa yoshi kichik odam yo'q. Bu donishmand boboga bo'lgan hurmatdir. Keksalarni e'zozlash faqat boboning o'rdasida emas, balki har bir xonadonda bor. Otaning gapi bolaga, akaning gapi ukaga, onaning gapi qiz-kelinga, opaning gapi singilga em.

Bugun Ajoning saroyida qirq urug'dan bo'lgan odamlar o'tiribdi. Bularning biri lashkarboshi botir, biri yurtni biladigan donishmand, biri ko'p yashagan oqsoqol-qariya. Odiltoy ajoni hamma hurmat qiladi!

O'rdaning tunduk[1]* qismidagi alqag'*i, chamg'arag*idagi uvuq* va keraga*si to'liq kumushdan quyilib, oltin suvi yuritilgan. Naqshlarda qoya, qir va oq cho'qqilar tasvirlangan. O'q singari sakragan taka, ilbirs, yoy tortgan merganlarning tasviri ingichka kumush chiziq vositasida tasvirlangan. Uvuq bog'laridagi uzun kumush chiziq uvuqning o'rtasiga yetganda uch taram bo'lib keraga boshiga to'kilib turadi. Keraga boshiga ilingan uvuqning ko'k ipak bog'lari o'sha uzun chiziqlarga juda yarashib turibdi. Keraga naqshlariga quyilgan oltin va kumush chiziqlarning o'rtasini bo'lib turgan osmon tusli ko'k chiziq jonliday jimirab

[1] ***** — bo'z uyning ichidagi jihozlarning qirg'izcha nomlari.

turadi. To‘rt burchli keraga ko‘zlarida ko‘ngilga yoqimli, qalbni to‘lqinlantiruvchi ajoyib bir go‘zallik ko‘zga tashlanadi. Ulardan ko‘z uzmay qaraging keladi. Bo‘z uyning ichidagi hamma bezaklari nuqra ipakdan qilingan. Hammasi ipakning tozasidan qilinib unga sarg‘ish, qo‘ng‘ir, ko‘k tus berilgan. Katta o‘rdalarning tundugi to‘rt bog‘li bo‘lgan iplarining tundukdan tushgan joyiga sochiqlar ilingan. Sochiq iplarining biri ipak, biri kumush, biri oltin. Ular xuddi to‘kilib turganday ajoyib ko‘rinish aks ettiradi. Taxtning orqasida, to‘rda tortilgan gulli kigizning naq o‘rtasiga dubulg‘aning shakli o‘ymalangan. Askarning boshi unchalik ochiq emas. Uni ingichka kumush chiziq bilan belganlanganini sezish mumkin. Dubulg‘aning o‘ng va so‘l tomonidan uchib kelayotgan ikki ajdar rasmi bor. Tepada cho‘zilgan oppoq bulut. Bular ko‘kish osmonga o‘xshash oq ipak matoga naqshlanganligidan, uni chevar kashta qilib tikmaganday, go‘yoki uchib kelayotgan ajdar, suzib ketayotgan bulut, chopib kelayotgan askarboshi jonliday tasavvur hosil qiladi. O‘sha gulli kigizning ikki tomonida ikki kumush ilgich. Ularga ajoning urushda kiyadigan kiyimi va qurollari ilingan. Boshqa ortiqcha bezak yo‘q. O‘rda toza, hech kim yo‘q, ko‘ngilga yoqimli va surli. Jiparkindikning ipori anqiydi. O‘rtada uch oyoqli kumush tulg‘a[1]ga qo‘yilgan oq idishda yongan archaning isi ipor hidini yanada yoqimli qiladi. Odamga rohat bag‘ishlab, ko‘nglini ochadi. Nima bo‘lsa ham, ipor hidi o‘rtada yonayotgan archa bilan aralash chiqayotganligi seziladi.

Odiltoy ajo o‘rtada gurkirab yongan o‘tdan ko‘z uzmay, qarigan kishiday to‘xtalib qolmasdan bir qolipda gapirib o‘tiribdi. Boboning ovozi ancha past, lekin eshitsa bo‘ladi:

— Inson bolasi yerga kelganiga ancha zamon bo‘ldi. Undan beri qancha yil o‘tdi? Uning soniga yetgan donishmand hozircha yo‘q. Tangri o‘zi biladi. Unga guvoh tog‘-tosh, hosildor yerimiz. O‘o‘, aqlli donishmand, askarlarni boshlagan botir, bu mening gapim — sizlarinng ajoingiz aytgan gap. Buni biring ham Odiltoy o‘zining aqli bilan aytdi dema. Unday deganing mening gapimni unutasan. Keyingi avlodlarga yetkazmaysan. Men aytgan so‘z — bobolarning so‘zi. Bag‘ri keng yerda shamol bilan qo‘sha yelib in-

[1] **Tulg‘a** — qozon osish, tagidan o‘t yoqish uchun moslashtirilgan buyum.

son o‘g‘lining aqliga aql qo‘shgan “Ulug‘ so‘z”. Eng katta bobom, mard donishmand Turkdan beri kelayotgan so‘z!

Odiltoy mana shu sirli so‘zlarni tasvirlab, ta’sirchan gapirdi. O‘tgan umrlardan xabar aytib, u zamonda inson o‘g‘li qanday yashab, qanday turmush o‘tkazganini. Necha marta el-yurt tovog‘i rizqqa to‘lib, qayta naslni ozib-to‘zib, kamayganini aytdi. Aytganda ham, o‘sha ko‘p asr ilgari o‘tgan odamlar bilan birga yurib, birga turib, birga ovga borib yonma-yon yashaganday, endi o‘shalardan o‘zi o‘lmay shu kungacha yashab kelayotgan kishiday, ilgarigi hayotni ko‘z oldiga keltirib gapirdi. Qarilikdanmi, aqlli ko‘zlarining o‘ti o‘chganday, lekin tingan quduqday tiniq. Tikilganda ham gurkirab yongan archaning alangasiga qaraydi. “Sen qadimdan yongan yolqinsan. Men naslni davom ettirgan kishiman. Ko‘p voqealar yodimdan ko‘tarilib ketdi. E, voh, yolqin, sen ilgari o‘tgan voqealarni unutganing yo‘q. O‘shalarni yodimga sol, tabarruk yolqin”, — degandek alangaga tikiladi.

Boboning past, sal titroq, lekin qo‘ng‘iroqdek ovozi qo‘-muzning shamol chertgan toridek tebranadi. O‘rdada pashsha uchsa, uqilgudek tinchlik hukmron. Odamlarning nafas olayotganini hisobga olmasa, qadim zamonlardan beri toshga o‘xshab qotib qolgan elaslarga o‘xshab qolgandi.

“...O‘o‘, mard bobo! O‘sha so‘zing, yashirin siring, to‘lib toshgan kuching bizni qo‘llasa, qani? Biz nima qilsak, ezgulikdan ajralmaymiz. Undan kuch olib, baquvvat bo‘lamiz. O‘o‘, essiz bobo.”

Hozir odamlar shuni o‘ylashayotganday. Sukunat, hamma xayolga berilgan.

O‘rtadagi kumush idishdagi archaning alangasi pastlab qolsa, Odiltoy bobo ham to‘xtalib qoladi. Ovozi bo‘g‘ilganday bo‘ladi. Tabarruk o‘t pasayganda, boboning joni qiynalganday, yelkasi bilan nafas ola boshlaydi. Holsizlanganday bo‘ladi. Alanga pasaysa, bobo so‘zi ham past eshitiladi...

Tabarruk olovni pastlashi kerak emas. Olov — kuch-quvvat. Olov — bu hayot! U yolqin qanotlarini qoqadi, yong‘in chiqaradi. Jin-shaytonni qochiradi.. Sovuqdan saqlaydi. Ammo uning g‘azabnok yong‘ini barcha jonlini o‘z damiga tortadi.

Inson o'g'lining o'chog'idan olov o'chmasligi kerak! O'choqdan olovni o'chishi bu inson xonadonidan rizq, baraka va iliqlik qochishidir. Rizq, baraka va iliqlik yo'qolsa, inson inson bo'la olmaydi...

Tabarruk olov o'chmasligi kerak!

Ostona tomonda o'tirgan malla soqol qizil yuzli kishi olovga o'tin tashlaydi. Yolqin pasaya boshlasa, u odamning yuzidagi qizili ozayib, o'ngi quvari borayotgandek bo'ladi. Alanga gurillab kuchaysa, haligi odamning yuzida alanganing aksi ko'rinayotigandek bo'ladi. Bu sehrli hodisa emas, yashirin kuch emas, ko'zbo'yamachilik ham emas, insondagi buyuk ishonch, buyuk sig'inish, butun qalb bilan olovga sadoqat!

Odamlar yengilmas kuch olovda, deb ishonishadi ...

O'tni o'chirgan kishi asosiy dushmandir. Chegaraga chetdan bostirib kelgan dushman ham sening o'tingni o'chiraman, deb keladi. Darhaqiqat, agar dushman seni jangda mag'lub etsa, oloving o'chadi. Boshingga yomonlik keladi. Sen zurriyoting bilan qullikka ketasan, qul bo'lmasang, hammang qirilasan. Mol-mulking o'lja qilinadi. Tarqatiladi. Avloding esa xunsiz qoladi.

Odiltoy ajo yurt chopilib-sochilmasin, deb tilak tilab odamlarga maslahat berayotgan paytda ajoning o'chog'idagi o'tning alangasini pasayishi yoki o'chib qolishi yomon alomat. Bu bobo so'zining odamlarga em bo'lmagani. Avlodlar qadr-qimmatini yo'qotib, odatlarni buzib, bir-biriga yov bo'lgani. O'zini o'zi talaganlik, o'zini o'zi o'lja qilib, bog'lab qul qilgani, xo'rlagani.

— Oh, avlodlarim! O'choqda o'ting o'chmasin! — dedi Odiltoy: — Agar o'choqda o'ting o'chsa, seni o'zingni o'zing g'ajiysan... O'ting yonsa, zuvalang ko'kda bo'ladi.

Po'lat tobladim —
Qilichim o'tkir bo'ldi.
Qulun tobladim —

Tulpor chiqdi! — deb o'zi o'g'ling quvonadi. Biz ham shunday, deb juda ko'p xursand bo'ldik. Oh, ko'p marta qilich sindi. Charchamas tulpor o'qqa uchdi. Yengilmas botirlar o'ksidi. Birikkan

el eding, birliging buzildi, o'ting o'chdi. Suluv qiz-kelining cho'ri bo'ldi, mard o'g'ling qul bo'ldi. Xazinalaring talon-taroj qilindi... Chorvang tarqab ketdi...

Urug'ingdagi odamlar halol bo'lsa, avloding hamjihat bo'lsa, chetdan kelgan dushman seni mag'lub eta olarmidi? Hamjihatliging yo'qolib, o'zaro janjallasha boshlaganingda, dushman seni mag'lub etdi, xo'rladi.

O'zakdan chiqqan o't meni kul qildi,
O'zimdan chiqqan dushman meni qul qildi,-

deb o'z o'g'ling aytdi:

O'z qo'lim bilan tikkan kashtani
Dushman uyiga ildim.
Dushman o'tini yoqdim,
Yig'ladim...

deb o'z qizing aytib, yig'ladi.

Kumush tulg'adagi archa alangasi pastladi. Ovozi bo'g'ilib qolgan ajo to'xtala qoldi...

Qizil kishi olovga archa tashladi. Odiltoy qo'lini cho'zdi, Yosh tegin engashib, marvarid bilan qoplangan taxtada turgan oltin kosani olib, bukilib ajoga sundi. Ajo kosadan qimiz ho'pladi. Yosh tegin kosani olib, yana taxtaga qo'ydi.

Ajo oppoq soqolini qo'llari bilan ushlab, bir zum jim qarab qoldi.

Kishilarning hech biri qimirlamadi. Hammalar tosh balballarday qotib turishdi. Odamlar: "Ey, tabarruk olov, o'chma! Ey, donishmand bobo, hikmatingni qulog'imizga quy! Bobo, senga ont beramiz. Ittifoqlik bo'lganda, olov o'chmaydi. O'g'il qul, qiz esa cho'ri bo'lmaydi", — deyayotganday jim o'tirishibdi.

Odiltoy qo'lini soqolidan olmadi. U ko'zlarini ochdi. Qoq o'rtasiga arslonning boshi o'rnatilgan shirdoq[1] oyog'i ostida yotardi. Ajo o'sha o'rnatilgan arslon boshidan ko'zini olmay, past ovozda dedi:

[1] **Shirdoq** — turli gullar solingan kigizning turi.

"O'ng yelkamda quvonchim — dono abo-beklarim, chap yelkamda mard alplarim, sarkardalarim. Bobo, so'zini eshitinglar! Qoya qulasa, qum bo'ladi. Ko'l qurisa, cho'l bo'ladi. Aqlli donishmandlar o'lsa, yurt nodon bo'ladi. Mard lashkarboshi o'lsa, lashkar yetim. Yetimni yomon ko'rgan xo'rlagan ko'p bo'ladi. Sen, elim, buni bil! Agar ahmoq yurtni boshqarsa, uning orqasidagi lashkar ham buzuqi talonchi bo'ladi. O'zi ham talanib xor bo'ladi. Bobong aytgan shu yo'ldan adashma. Rizqni yer-suvdan so'ra. Zulmatga yorug'lik sherik. Yaxshi bilan yomon yonma-yon. Och bilan to'q sherik, bir kun och qolsang, qayg'urma. Ertasi kuni qorning to'yadi. Bugun talangan bo'lsang, ertangi kundan umidingni uzma. Ertaga yo'qotganlaring qayta keladi. Bugun qirilsang, bari rasvo bo'ldi, dema. Tirik qolganing — bu zurriyot, urug'. O'chog'ingda tabarruk olov yonib turganda, urug'ing yo'qolmaydi!

O'zdan chiqqan dushmanni yarashtir. Yarashmasa, uning boshini ayama. Chetdan kelgan dushman bilan sulh tuzishga harakat qil, unamasa, qilichingni to's.

Odiltoy bobo gapini bo'lmay, olovga tikilib qaradi. Kumush tulg'adagi archa olovi alanga olib, jiparkindikning ipori bilan archa hidi aralashib, anqib turibdi.

Odiltoy qo'lini oldiga uzatdi. Yosh tegin oltin kosani bobosiga tutdi. Bobo kosani olib, qimiz yutdi. Qayta taxtaga qo'ydi.

Nimanidir eslagandek ajo iyagini ko'tardi:

— Menga qurolni bering!

Yosh tegin kumush tovoqni ajo oldiga ko'tardi. Erkishi unga qilich qo'ydi. Odiltoy ajo qilichni to'g'ri tutib tantanali ravishda dedi:

— Egilgan boshni kesma, bobo qilichi. To'ymas tog'ni chop!

Egri qilichning o'tkir tig'i tundukdan tushgan quyosh nurida yaltiradi. Yaltirashdan odamlar ko'zlarini yashirdi. Qilichning tig'i hayratlanarli va dahshatli. Ajo uni Yosh teginning qo'lidagi tovoqqa qo'ydi. Tovoqni qilich bilan endi Yosh tegin ikki qo'llab balandga ko'tardi:

— Otam qirg'iz, urug'im no'g'ay, ismim Odiltoy, shu yurtning ajosiman. Men shu yo'lda bobomning so'zini tonib, o'z yurtimga

ichim ola bo'lsa, oq po'lat qilichning tig'i ursin! Yuqorida ochiq Ko'k, pastda hosildor yer ursin! Tabarruk olov yondirsin meni!

Odiltoy ajo endi taxtdan dadil engashib, qilichning tig'ini o'pdi. Keyin u taxtga o'tirmadi. Ajo turganda donishmandlar, abobeklar, sarkardalar hammasi o'rinlaridan turishdi. Hammasi o'z urug'larining nomlarini aytib, qilichning tig'ini o'pishdi.

— Urug'im no'g'ay, ismim Erkishi. Usti ochiq Ko'k ursin!

— Urug'im to'lo's, ismim Azman. Bag'ri keng yer ursin!

— Urug'im az, ismim Chekir. Usti ochiq Ko'k ursin! O'rda tashqarisidan ovozlar chiqdi:

— Urug'im uysun, ismim Buylash. Usti ochiq Ko'k ursin!

— Urug'im az, ismim Yo'lbars. Bag'ri keng yer ursin!

— Urug'im to'lo's, ismim Bars. Tabarruk olov yondirsin meni!

Bu vaqtda o'rdaning sirti, undan narigi qalin oq bo'z uylarning oldi odamlar bilan to'liq edi. O'rdada aytilayotgan qasamyod endi ularga yetib kelayotgan edi. Erta tongdan yo'rg'a mingan jarchilar uyma-uy, ovulma-ovul yurib, jar chaqirib o'rdada aytilgan so'zlarni yetkazishardi.

Usiz ham bejirim kiyingan jarchilar o'zga dunyodan kelgan musofirlarday yo'rg'ani haydab, jar solib kelardilar. Ont so'zlarini shamol olib og'izdan yulib olib ketadi:

— Ko'k ursin!

— Tabarruk olov yondirsin.

Qasamyod qilish marosimi tugashi bilan qoziqlarning chetiga uyilgan archalarga o't qo'yildi. Moyli, yam-yashil archa charsillab yonib, alangasi osmonga ko'tarilishi bilan baxshilar o'tni aylana boshladilar. Ba'zilar boshiga ukki tulupini kiyib, qo'llariga ilon o'ralgan hassalarni olishgan. Gohilari boshiga burgut terisini qo'yib, g'alati bir tayoqni tishlab, dumalasa, xuddi tosh yumalaganday bo'ladi. Ba'zilari bo'g'ra minib kelayotgandek buk-buk etib yeladi. Ustiga kiyganlari ham kiyimga o'xshamaydi — tuya junlari, ayiq junlari yoki qandaydir ertakdagi sehrli jonivorga o'xshagisi kelganmi, har holda u buqullab, irg'ib, keyin olovning ustidan sakrab o'tadi. Ustidagi jun bo'lib ko'ringan kiyimi o'tda yonmaydi.

Ovulning chegarasi uzoqda. Buralib, mo'ltirab oqadigan daryo ko'zga zo'rg'a ko'rinib turgan zich o'rmonga qarab cho'zilib oqadi. Balki o'sha qalin o'rmonni oralab qo'ngan ovul bordir. Balki to'rt tomonga qanot yoygan qalin ovulning chegarasi — boshi, oxiri ko'rinmasdir... Ha, ko'z yetmaydi. Mana shu daryo bo'ylab, nafaqat shu atrofdagi tekisliklarda, o'rmonlar orasidagi ochiq joylarda, balki tog' etaklarida yashagan el shu yurtga bosh egadi. Marosim oqsoqollari, chopgani zoye ketmas kishilar, ibratli onaxonlar hozir o'sha hududdagi ovullarda oftobga qarashib, archalarga o't qo'yib, yoshu keksani ibodatga chorlab turgan kez. Edilning avlodi Odiltoy ajo qanoti ostidaman, degan el hozir qasamyod qilib quyoshga, olovga sajda qilib, sig'inishmoqda!

Mol-jonga qor va bo'ron-chopqin olib kelgan qish quturgan bo'g'rasini bukullatib, entikib oshiqib anovi Ulug'tog'ning muz cho'qqisiga, muz to'riga ketyapti. Adirlar, o'rmon va daryolar ko'kka qarab intilib, bahor kulib kelmoqda. O'zi keyingi yillarda qish bo'g'rasi quturgan yo'q. Qor vaqtida yog'ib, vaqtida eridi. Mollar qish qahrini sezishmadi. Baytal, biya yollik, bo'z to'qli dumbasi bilan, qiz o'ziga yarashgan bosh kiyimi bilan, kampir-chol kuchi bilan, kelin qizil yuzi bilan qishdan chiqishdi.

Oh, bu mol-jonga tinch, elga baraka urug'ini sepgan to'ylar ko'p bo'lgan yillarning orti ne bo'ldi? Qadimdan tinch va osoyishta yashab kelgan qirg'iz elining ota-bobolarining bundan keyingi ko'rar kuni qanday bo'lar ekan?.. Hozir tinchlik vaqtida ekin ekib, kon eritib, molini asrab, o'g'il-qizini katta qilgan, bu kamtar va yuvosh yurtning g'amini o'ylagan donishmand ajosi Odiltoy qirq urug'ni qirq tomonga tarqatmay birlashtirdi. O'z urug'i o'z zurriyoti bu yoqda qolib, Odiltoy ajoning odilligini, saxovatini, donishmandiligini uqqanda, boshqa yurtning, boshqa elning kishilari ham qiziqdilar: o'z begidan, o'z qarindoshlaridan zarba yegan bir qancha o'g'lonlar Odiltoyning ovuliga keldi.

Boyagida Yosh teginni yer-suv tanitish uchun aymoqdan aymoqqa, urug'dan uruqqa o'tib, yer qidirgan Erkishi bilan Yosh teginga o'g'illarini qo'shgan urug'lar ajoga qarshi bo'lsa, ginasini unutdilar

Bir paytlar G‘ozioqko‘lda yashagan qalin uysunlar anovi Oltintog‘ning qalin o‘rmonlarida istiqomat qilgan azlar, izgillar o‘zaro urush boshlanib, mol talanib, o‘g‘il-qiz qul, cho‘ri bo‘lib turganda ular keklashmasdan yov yurtiga qo‘shilib, qirg‘iz lashkarini qirib, qirg‘iz ovulini bosishgan.

Bu o‘zining qo‘lini o‘zi qiya chopgan, o‘z urug‘i, o‘z yurti o‘ziga hujum boshlagan yomon yo‘riq — odatsiz kunlar endi yo‘qday. Odiltoy boboni hurmat qilgan donishmandlar birlashib urug‘larni birlikka chaqirgandan keyin:

Bo‘linishni dushman xohlaydi,
Qirqi qirga ketsa, der.
Qirq bo‘lingan qirg‘izni
Qirib, bo‘lib bo‘ri yer.
Qirq urug‘ing biriksin-
Yalov tiklab bek[1] *tursin.*

Bu chaqiriq shiorga aylandi.

Bu birlik abadiy davom etadimi? Yo qaytadan yomon odamlarning yovuzligi, ochko‘zligi va buzuqiligi, hiylagarligi yana ko‘payadimi? Qaniydi, el birligi abadiy mustahkam bo‘lib qolsa. Yurt g‘amini o‘ylagan odamlarning tilagi ham shu. Lekin issiqning sovug‘i, oriqning semizi, to‘qning ochi bor.

Bunday o‘zgarishlarga odamlar o‘zlari sababchimi? Uni to‘xtatishga odamlarning kuchi kamlik qiladi. Qanday bo‘lsa ham, so‘nggi bir necha yil yurt boshidan kechirayotgan to‘kin-sochin yillarning orti qanday bo‘larkin?

Uzoq umr ko‘rgan Odiltoy ajo shu haqda o‘ylar ekan, el kelajagi haqida qayg‘urganini aytdi:

“Tug‘ilgan o‘lmay qoladimi? Yo, Tangrim, mening umrimni uzoq qilding. Oltin idish to‘la rizq berding. Rizqning ta’midan mast bo‘ldim... keyin qayg‘u berding. O‘z boshimning g‘ami emas, elning g‘ami. Mening elim necha marta dushmanga bosh egdi, necha marta qayg‘uga botdi? Keyin mard o‘g‘illarimiz elni qayg‘u-tashvishdan qutqardi. Ertaga ko‘radigan kunimni o‘ylar-

[1] **Bek** — mahkam, mustahkam.

kanman, meni qayg‘u bilan g‘am bosadi. Ey, kamtar elim, agar sening askarlik an’anang bo‘lmaganda, allaqachon tarqab, talanib, ko‘ringan yovga bosh egib, qul va cho‘ri bo‘lar eding. Sen shu yuvoshligingga yarasha askar bo‘lib qolding. Jangchi bo‘lganingga yarasha ayyor, hiylagar, zolim va qonxo‘r bo‘lmading. Oqko‘ngil va ishonuvchan bo‘lding. Boshqalarga yomonlik xohlamading. O‘zing ham yomonlikdan saqlanmading. Sen hamma narsani ko‘zing ko‘rganidek qabul qilding. Miyig‘ida kulib kelgan buzuqi aslida senga dushmanligini, senga o‘yi yomon ekanini sezmading. Sen uni o‘zing kabi odam deb bilding, ha, qarg‘aning yoshini, kishining ichi qorasini kim biladi? Sen o‘zimizniki deganing yov chiqdi. U o‘zining yomon ishlarini senga bildirmadi. U seni iliq so‘zlari bilan ishontirdi, yolg‘on ishi bilan aldadi. Sen o‘sha buzuqi yovga aldanib qolishingni bilmading, payqamading. Bemalol yurding. Aldanib, holing qurib, kuching qaytib qolganda, sen yovga qilich ko‘tarding. Agar aldanmay, chaqinday bo‘lib qilichingni ko‘targaningda, dushmanga mag‘lub bo‘lmas eding. Agar sening nasling bir yoqadan bosh va bir yengdan qo‘l chiqarib otlansa, senga Tangrim kuch beradi ...

Borning oxiri — ado. Alp oxiri xordir. Bu Tangrining ishi, Men bu qoidani buzolmayman. Ey, kamtar yurtim, senda mardlik ado bo‘lsa, nima qilar ekansan? Senda birlik tarqab ketsa, nima qilasan? Bu dunyo quyosh bo‘lsa yorug‘, quyosh bo‘lmasa, qorong‘i. U bahor kelsa, iliq, qish tushsa, sovuq. Ko‘k tangri o‘zi barini bir-biriga moslab, salmog‘ini tenglashtirib turadi. Bugun osh qo‘ygan tomoniga ertaga tosh qo‘yar. Bugun sovuq bergan tomoniga ertaga nur berar. Qara, mening tengdoshlarim, otam-qirg‘izning nasli, o‘zingdan xulosa chiqar! Adolatli va keng fe’lsan. Egilgan boshni qiliching kesmaydi. Kamtar va ishonuvchansan. Ana shuning uchun yeringni ichi qora, qilichi o‘tkir dushman necha marta qonga bo‘yadi. U o‘zi ham qirildi. Kamtarliging seni qo‘llab, sen omon bo‘larmikinsan? Yo qorabo‘g‘rang cho‘kib, qayg‘u bosib, qozoning to‘ntarilarmikin, kuling ko‘kka sovrilarmikin? Yuvosh bo‘lsang ham, mayli, lekin dushmaningni hiylasini bilganday bo‘l. Mardligingdan qaytma. Gunohi yo‘q odamning boshiga qilich urma, o‘zingning tinchligingni saqla!

Odiltoy ajoning shu so‘zlari o‘sha yerda o‘tga, quyoshga sig‘ingan odamlarga yetdi. Katta-kichik hamma o‘tga sig‘inib, hammasi qasamyod qilishardi.

— Yovga sotilganni tabarruk olov yondirsin, yer qahriga olsin.

Ona qizini, ota o‘g‘lini, og‘a inisini ko‘lidan yetaklab gulxanni aylanib yugurishdi. Kaftlarini yerga tekkizib, yerni o‘pishdi. Ko‘kka qarab Quyoshga iltijo qilishdi. Keyin hammasi bir-birining yelkalariga qo‘llarini qo‘yishib, o‘rtada olovlangan archa gulxanidan ko‘zlarini uzmay tilak tiladi:

— Qorani kuydir, oqni qo‘y, tabarruk olov!

— Yomonni kuydir, yaxshini qo‘y, tabarruk olov!

— Buzuqilarni qahringga ol, to‘g‘rilarni qo‘lla, tabarruk olov!

Oq sochi yoyilgan enalar:

— Tabarruk Umay, ipakka naqsh beruvchi qiz o‘stir! — desa, oq soqoli ko‘ksini to‘ldirgan otalar:

— O‘o‘, Dev aka, yurt qaraydigan o‘g‘il o‘stir, — deyishdi.

O‘tga sig‘inish kun botib, shafag‘i yo‘qolguncha davom etdi. Kun shafag‘i yo‘qolgandan keyin har bir ovulning donishmand qariyalari to‘rdagi katta bo‘z uylarga o‘tirishdi. Ular to‘rdan eshikka tomon yoshiga qarab joy egallashdi, o‘rtada o‘t yondi. Keyin “Ulug‘ so‘z” aytildi. Aytayotgan odam to‘rda o‘tiribdi. So‘zni eshitayotgan uyda yoshiga qarab uch qator bo‘lib jim o‘tirishardi. So‘zga quloq solmagan jon yo‘q. Erkaklarning qatorida ayollar ham o‘tirishibdi. Qisqasi, erkak-ayol demasdan o‘z tengi, o‘z qatori, o‘z-o‘z o‘rnini egallash ham o‘ziga xos odat. Bularning hech biri o‘z o‘rnidan yuqori yoki past o‘tirmaydi. Kimdir birov o‘z o‘rnini topmasa, aytilayotgan so‘zni buzsa, u odobsiz va odatni bilmaydigan odam hisoblanadi.

To‘rdagi uylarda qadrli kishilar gapni qizitib, odamlarga “Ulug‘ so‘z”ni aytayotgan paytida chekkadagi o‘choq boshidagi qul va cho‘rilar ehtiyot bo‘lib yurishadi. Shovqin-suron, hazil so‘z va qiy-chuv yo‘q. Qul, cho‘ri qozon osib, o‘tni ilgashtirib, kosov bilan cho‘g‘ini to‘plab, moy chiqarib, qo‘l chiroq ushlab yuradi. Tepadagi aytilayotgan “Ulug‘ so‘z”ning nafasini ular shu yerda xizmat qilib, sezishlari kerak. Chekkada yurib, o‘zaro bir-birlariga gap otib, hazil gap boshlab, ko‘ngillarini boshqa narsaga bursa,

unda bularning ko'nglini jin ozg'irgan, niyati yomon odamlar hisoblashadi. "Ulug' so'z"ni uqmaydigan gangirbosh odam falokatga yaqin bo'ladi. Shuning uchun bu odamlar o'zlari shunday qilib o't oldida qolgani oz bo'lganiday hamma inson o'g'liga falokat yetkazib, kasofat olib kelmayin, deydi. Yuvosh bo'lishib, asta bosishib, ish qilishadi. Bu kunda nafaqat qul va cho'ri, balki obro'li otalarning erka o'g'li, shoyi libos kiygan erka qizi ham jim yurishadi.

Boshqa kunlari kunning bu vaqtida to'rda yoyilgan shirdoqni bolalar egallashardi. Bola qizil, ko'k, sariq rangga bo'yalgan oshiqlarini to'plab sochib tashlardi. Keyin o'sha oshiqlarni ranglarga ajratadi: sariq "tabg'ach", qizil "turk", ko'k "qirg'iz" o'g'li, uch to'pni uch tarafga yoyib, g'ulja, taka oshiqlarini lashkarboshi qilib, oldiga qo'yib keyin esa "turk" bilan "tabg'ach"ni chopishtirib, "qirg'iz"ni hakamlikka qo'yib yoki "qirg'iz" va "tabg'ach"ni chopishtirib, "turk"ni hakamlikka qo'yishardi...

Hozir "Urush" o'yinini o'ynagan erka bolalar keragada ilingan tulupiga qarab, undagi oshig'ini sog'inib, yig'lagisi keladi. Bu kuni bola "Urush" o'yinini o'ynamaydi. "Meni donishmand qil, qo'rqmaydigan qil, muqaddas Tangri, deb tek o'tir", degan onasi o'g'illarini o't yonidan jildirmaydi.

Katta-kichik sig'inadigan muqaddas quyosh ham ertaga hisobsiz karvon tuzgan kunlarday oddiy quyoshga aylanadi. Bu oddiy kunlari kishilar nima qilarkin? Ular bugungi ibodatni, sig'inishni unutib, bugun aytilgan "Ulug' so'z"ni esdan chiqarib, ertaga bir-birlariga dushmanlik qilisharmikin? Ular bir-birlarini so'yil ko'tarishib, zo'rlik qilisharmikin? Bir-birlarini aldab-ozg'irib, yo'ldan urarmikin?..

Insonni hamisha yaxshilikka boshlash uchun o'tga topinib, quyoshga sig'inish kunini bir donishmand boshlab berdimi? Albatta, buni qadim zamonda bizning bir donishmand bobomiz, donishmand enamiz boshlagan! Bu odatni keyingi avlod muqaddas deb bildi, davom ettirdi, kuchaytirdi, yangiladi. Agar o'sha kishining zurriyoti uchun boshlagan ezgu ishi, adolatli yo'l shu tariqa davom etsa, ezgu ishlar yangilanib, kuchayib boraversa, keyingi avlod qamchi chopishmasdan, qirg'in topmay, xo'rlik tortmay, tinmay hunarini rivojlantirib, tinmay farovonlikka yetishi aniq-ku.

Oh, haromga halol, yomonga yaxshi, tabarrukka buzuqlik yonma-yon yaratilgan. Bu dunyoning achchiq haqiqati shunday.

Shularni o'ylagan Odiltoy ajo yillar o'tgan sayin el kelajagi haqida ko'p o'ylab, ko'p tashvish tortdi. So'nggi yillarda birlikni saqlab, ko'k yalovniing tagida ko'p urug' bir bo'ldi — bizning ulus tabg'ach, hindi, forsi bilan, urum, purum bilan chegaradosh bo'lib, elchi almashib, shartnomalar tuzib, aloqalar kuchayib, savdo yurgizdi. Oh, bu davom etarmikin? Yoki boshlangan ish to'xtab qolarmikin?

Boshidan ko'p narsani o'tkazgan yurt bundan keyin ham toptalmasin sochilmasin, xor bo'lmasin. Chegarasi kengayib, mustahkamlansin. Zurriyoti o'ssin. Hunari ko'payib, bilimi ziyoda bo'lsin. Ko'p urug'larning boshi bir yoqadan chiqsa, qo'li bir yengdan chiqsa, o'sha yurt kuchli bo'ladi. Ko'p urug'ni biriktirish uchun, oralaridagi aloqalarni mustahkamlash uchun Odiltoy ajo shu sig'inish kunini tantanali saltanatga aylantirdi:

"Tug'ilgan o'ladi. Men temir o'zak bo'lsam-da, yoshim yetdi. Bu kunni zurriyotlarimiz uzoq vaqt eslab tursin. Odiltoy ajo boshlab ketgan tabarruk kun deyishsin. Qo'rqoq o'g'il qo'nishini sotsa, bobosining so'zini eslasin. Seni tabarruk olov yondiradi, desin bilimdon zurriyotlarimiz. Uzoq safar hormanglar. Yurt tizgini donishmand qo'lida qolsa, ko'p urug' bir bosh. Yurtim qayg'uga botmaysan, kuchli bo'lasan.

LASHKAR UYQUDA YOTGANDA

O'zakda kuygan o't yomon,
O'zingdan chiqqan yot yomon.
El maqoli

Biz qirg'izni ko'zlab bosqinga yo'l oldik;
nayza bo'yi qor yotgan Kogmen tog'ini oshib o'tdik
va qirg'iz yurtini uxlab yotgan joyida bosdik.
Qul Tegin maqbarasidagi yozuv

Insonning asosiy dushmani — bu uyqu.
El maqoli

Oradan yillar o'tdi. Har o'tgan yil talon-taroj qilinmagan tuyaday bemalol chayqalib bosgan vaqtning o'zgachaligi ham, shodligi ham, barakasi-yu g'azabi ham aralash-quralash. Bir yili qishda qor yog'masa, bahori yomg'irli, bir yili qishi qorli bo'lsa, bahori sovuq, qisqasi, yillar ham sirli... Nima bo'lsa ham, yillar ketma-ket, iliq va barakali ... "Bunday yumshoq yaxshi yil ko'pdan beri bo'lmagan. Qadim zamonlarda shunday yil bo'lib, inson o'g'liga ko'p ne'mat kelgan ekan. Endi shu oxirgi avlodga baraka beryapti", deb odamlar quvonishgan...

Endi o'sha "janjalsiz" yillardan keyin talon-taroj qilinmagan tuyaday chayqalib bosgan yil karvonidagi o'tayotgan hamma voqealarning bir xilligi ham odamni zeriktiradi. "E,e, bunday yillar ko'pdan beri bo'lgan emas", deyishadi ulug'lar. Barakasi ham, kamchiligi ham o'zi bilan. Xiyonatchilarday bu yillarga ishonish ham qiyin. Gohi tif kasali avj olsa, keyin chechak odamlarni qiynaydi. Birda qo'yni qilqurt[1]* bosadi, birda tuyaga chivin* tegadi. Sigirga o'lat* tegsa, echkini qora o'pka* qiynaydi. Ba'zan qiz ko'p tug'iladi, ba'zida esa o'g'il bola ko'p tug'iladi. Tug'ilishi ko'p, o'sishi oz. O'o', hammasi yaxshi bo'lib, yil tinch o'tsa qaniydi...

Inson qancha umr ko'rmasin, tabiatning past-balandliklarini to'liq idrok yetishi qiyin. Ko'pchilik odamlar o'zi ko'rganiga yoki eshitganiga qanoat qilishadi. Yaxshilikka umid qilishi, zurriyoti

[1] **** — hayvonlarda uchraydigan kasalliklar nomlari.

haqida qayg'urishi, hayotidagi bo'shliqlarni to'ldirishi, kamchiliklarini yopishi bilan kifoyalanadi. Bir kuni yashirin ko'lankaday bilinmay kelgan ajalning etagini ushlab, indamasdan ketishga majbur. Ko'rgan-bilgani ham, hayotda ko'rib, o'rganib, qilaman, degan ishlari ham o'zi bilan ketadi. Bandaning kuchi ham, zaifligi ham uning hayotining qisqa davridadir. Yangi tug'ilganlarga bu dunyo yana bir boshqacha tarovat bilan ko'rina beradi. Dunyoning o'zgachaligini hamma odamlar emas, balki donishmandlar fahmlaydilar. Yaratilishning buyuk qudrati va murakkab sirini kashf etadilar. O'rganganlarini zurriyotiga vasiyat qiladi. Keyingi avlod unga o'z bilimini qo'shib, targ'ibot qiladi va keyingi avlodga yetkazadi. Shunday qilib, Ko'kdan Quyosh nuri olamga nur taratar ekan, avlodlardan meros bo'lib kelayotgan ilm-tajriba kelajak avlod yo'lini yoritib, chiroq bo'lib xizmat qiladi. Ko'zini ochib, ko'rar-bilarini ko'paytiradi.

Qirg'iz elidan tabiat hodisalarini kuzatib, ulardan o'ziga saboq olgan, keyin o'z kuzatishlarini oldingi ajdodlari aytgan belgilari bilan taqqoslagan holda hisoblagan — yil hisobchilari chiqdi. Shajara yodlab, el-yurt umrini kitoblarga naqshlagan ustozlar paydo bo'ldi. Chet ellarga sayohat qilib, boshqa podshohlar oldiga elchilikka borib, ularning tilini, dilini bilgan olim, notiq arboblari dunyoga keldi. Toshga harf yozib, yashirin sirlarni paykagan olim bitikchisi — yozuvchisi dunyoga dovruq qozondi. Qisqasi, hunar va bilimdan chetda qolmagan bu vaqtda ulus tuzgan qirg'izlarning o'ziga xos ovozi, boshqaradigan ajosi, abosi, biyi, begi oqsoqoli bor.

Askar yig'ib, ularni boshqargan o'nboshi, ellikboshi, yuzboshi, mingboshi va tumanboshi bor. Qirg'iz ulusida qo'shin ishi mukammal uyushilgan. Qancha katta urushlarda askarlar pishib, yetilgan. "Qirg'izlarning temiri ko'k, qilichlari o'tkir", degan so'z tabg'achlarning xavotirga solib, ular qirg'iz ajosi, abosi, biyi bilan hisoblashgan. Ajo dushman yurtiga sirni oshkor qilmaydi. Birikkan urug'lar bir-birini qo'llab-quvvatlab, chetdan keladigan yirik yovning hujumiga dosh berishadi.

— Ko'k yalov ostiga yig'ilinglar! Elni qo'riqlaydigan mardlar otlansin. Dushman kelyapti! Dushman kelyapti! Chegaraga! Chegaraga! — deyishib, mahalliy aholini safarbarlikka chaqiradi:

— Ko‘k turk! Ko‘k turk! — deyishadi.

O‘sha ko‘k yalov ostiga kelgan yurt: “Qarg‘a qarg‘aning ko‘zini cho‘qimaydi” degan fikrda birlashgan. Ammo bu birlik yana buziladi... Hali ham o‘zining ko‘machiga kul tortgan xoqonlar ko‘k yalovni har biri o‘z o‘rdalariga alohida o‘rnatgisi keladi. Yalpi yurtning bosh xoqoni o‘zim bo‘lsam, deydi. “Ikki qo‘chqorning boshi bir qozonga sig‘maydi. Yakka qo‘chqor menman, — deydi katta elning xoqonlari ... Qirg‘iz ajosi ham orqada qolgisi, kamigisi yo‘q. Ko‘p urug‘ ko‘k turklar bilan birlashgan lashkarda ham, ko‘k turkning ko‘p yurti bilan qasdlashib, yovlashib, urishgan vaqtda ham qirg‘iz ulusining alohida o‘rni bor.

— O‘n o‘qning, Uchsuv elining kelib chiqishi, to‘lo‘s, azning, chaaning, qarluq, naymanning ajdodi, o‘ttiz tatarning piri, izgilning pirlari hammasi yot emas, o‘z. Biz hammamiz aka-uka va opa-singilmiz. Osh-to‘yda to‘rda o‘tirib, ucha[1] oladigan, aql-kengash berarda tizzalab o‘tirib, maslahat beradigan, urushda hayqirib oldida yuradigan bizmiz, — deyishadi qirg‘izlar.

Bunga ayrimlari bo‘lmasa, ko‘pchilik hasad qilmaydi. Ajoning aytganlari haqiqat!

Bu haqiqat bilan hisoblashmaydiganlar kamdan-kam uchraydi. Hokimiyat tepasiga niyati qora odamlar kelib, o‘zining oriyatini qo‘riqlab, nomini chiqarish uchun kurashib, yo birov bilan qasdlasharda ajoning gapi em bo‘lmasdan urug‘lar ichidan buzilib, birlik yo‘qoladi.

El-yurtda birlik ketishini oldindan bilib, bashorat qilgan belgilar mavjud. Bunday yomon falokat yaqin ekanini anglagan donishmand ajo, elteber, xon, bek, abo, biy, lashkarboshi botir (agar faqat lashkarboshi askar bo‘lmasdan, donishmand lashkarboshi bo‘lsa) yurt birligi yo‘qola boshlaganini oldindan sezadi va oldini olib mojaroni bosish, yurt birligini mustahkamlashga harakat qilishadi. Bu endi ikki tarafning ishi. Bunda ko‘p harakat qilinadi, ko‘p kuch sarflanadi, bunga barcha el qo‘shiladi.

Yurt ittifoqi o‘zaro yaqin bo‘lgan bir otadan tarqagan urug‘lar orasida buzila boshladimi, yo unga chetdan kelayotgan katta dush-

[1] **Ucha** — eng hurmatli mehmonga beriladigan mucha.

man sabab chimi? Buning ahamiyati ham o'zgacha. Bunday el-yurt orasidagi to'qnashuvlar, o'zgarishlar, katta janglar, aytilgan talon-taroj qilingan, yoki qilinmagan tuyalarday chuvalgan yillarning mohiyati, o'sha yillardagi tabiat hodisalariga ham bog'liq. Buni bilimdon odamlar ko'ra biladi. "Yil og'ir, belgi yomon. Chegarada askar hushyor bo'lsin. Ovullarda odamlar dushmanga qarshi tayyorgarlik ko'rsin", — deb o'sha donishmand shajarachilar xabar beradi. Donishmandning bu xabariga ajo ham, elteber ham, abo, bek, xon ham, sarkarda ham bir xil e'tibor beradilar. Hovliqib, e'tibor bermay qo'ygani bo'lsa, yakka qoladi. U chopiladi, talanadi, oxir-oqibat o'ladi.

Qanday bo'lsa ham, shajarachi-donishmand o'z aql-zakovati orqali topganinigina aytmasdan tabiat hodisalariga qarab, dushmanning rejasini, makkorligini, g'arazli niyatini fahmlab, oldindan biladi. Darvoqe, bu yurt elining azaliy dushmani tabg'ach chegaraga hujum qilishda yilning qanday kelishini hisobga olgan. O'ziga ziyon bo'ladigan yillarda qimirlamay o'tirgan, o'ziga foydali, dushmaniga ziyon bo'lgan yillarda bostirib kelgani yolg'onmi? Darvoqe, asosiy kuchi otliq askarlar bo'lgan bizning yurt uchun og'ir yil ikki hissa qor tushgan, otlar oziqsiz, otliqlar piyoda qolgan yil bo'lgani yolg'onmi?

E, voh, ana shunday qiyin yilda chegarada turib, urush boshlash tabg'ach uchun foydali-ku. Ularda askarlarining ko'pchiligi piyoda. Ularning asosiy oziq-ovqatlari go'sht, sut emas, o't va sabzavotlar. Ular ovqatni, ko'pincha, yo'ldan topadilar. U dushman bilan to'g'ridan-to'g'ri jang qilishdan oldin uni ayyorlik, muttahamlik, hiyla va ozg'irish bilan mag'lub qiladi. Yilning og'irligi aldashga, askarni boshini aylantirib, yo'ldan ozdirishga yordam beradi ...

Bu safar yil yana o'zgardi. Hech qanday bayram va boshqa holatlar bo'lmasdan kech kuzda qalin qor yog'di. Mol o'tlagan adirlarda, o'rmonlarda otliqlar qor kechib yurolmasdi. Qor uzangidan keladi. Kungayni chopchib, o't topib yeydigan yilqi qor titib qoldi. Sigir qalin o'rmon oralab archa, qayin, tol, butalarning kurtak va shoxlarini yeydi. Hatto o'z ozig'iga unchalik e'tibor bermaydigan tuyalar ham odam ko'rinsa, uzoqdan:

“Hoy, xo‘jayin, sen meni talon-taroj qilasan. Iliq tivitimni olib o‘rmak orqali to‘qib, shim, to‘n tikasan. O‘zimga o‘tin ortasan. Minadigan ulovim deysan, turli yuklarni yuklaysan.. Endi qishning qahri keldi. Menga yantoqlarni ochib ber?” — deganday javdiraydi. Qolaversa, tuya odamga javdirab qarasa, uning qiyofasi juda ayanchli bo‘lib ko‘rinadi. Ich-ichidan qayg‘urgani egasining suyaklarini zirqiratib, rahmini keltiradiganday piyoladek qora ko‘zlari odamga yalinib-yolvorib tikiladi.... Qishda muz ustida ag‘nagan bo‘g‘ralarning oq yoki qora ekanligini bilib bo‘lmaydi. Ko‘kragi bilan qorni yirib, qorga iz qilib, atan[1]*ni, bo‘taloqni, qaymal*ni, ingen*ni anovi kungayning butalariga, chakandazoriga, hech bo‘lmaganda, daryo bo‘yidagi tollarga, yulg‘unga boshlaydi. To‘daning oldida qor yirib ketayotgan bo‘g‘ra qora bo‘lsa, uni tuya ekanligi bilinadi, lekin bo‘g‘ra oq bo‘lsa, u ko‘zga ko‘rinmas bir sehrli jonivorday, qandaydir bir alomat narsa qor yirib ketayoganday ko‘rinadi.

Nima bo‘lsa ham, qornini tikanli o‘simliklarni yeb, yaproq kavshab, buta boshidagi yumshoq novdalar bilan to‘ydiradigan jonivor hozir qorning qalinidan azob chekardi. O‘rmon oralab, daryo bo‘ylab daraxt uchlarini sidirib yegan tuyalar unchalik och emas. Boshqa molga qaraganda qulon sovuqni ko‘zga ilmay, cho‘lga ketib qolgan. Yilning og‘ir kelishini oldindan bilgan qulonlar kuzdayoq qulonchiga bosh bermay cho‘lga qochishib ketgan. Keyin birinchi qor tushishining oldin yerdan chiqqanday to‘planishib, bir-biri bilan yondosh bo‘lishib, bo‘linganini ayg‘iri uyurga qo‘shib, hammasi bir katta gala bo‘lib cho‘lni ko‘zlab yo‘l olishgan. Olisdan qaraganda, qulon uyuri katta bir tasavvurga sig‘maydigan hayvon ilon singari buralib ketayotganday ko‘rinadi. Yaqin atrofdagi kishilarga ularning qattiq tuyog‘idan chiqayotgan ovozlar past bo‘lsa ham, eshitiladi.

Nima bo‘lsa ham, qulonlarni qaytarib kelamiz, deb chiqqan qulonchilar tizgin cho‘zib, qamchi urib ularga yeta olishmayapti. “Biz haqimizda qayg‘urmang. Bunday qattiq qishda jon boqishni yaxshi bilamiz”, deganday jonivor qulonlar tezlikni pasaytir-

[1] *** — tuyaning jinsi va yoshidagi farqiga ko‘ra atalishi.

maydilar. Olisdagi tekislikning adirlarga yetganda qulonlar uyuri to'xtadi. "Kulon tinchlandi, o'zimiz ham yerto'laga kirdik", — deb qulonchilar xabar berib yuborishdi.

Ko'p yillar davomida el tashvishsiz yashagani uchun qishga tayyorgarlik unchalik yaxshi emasdi. O't ko'p, kungay ochiq, deb bahor odamlar ancha bemalol yurishgan. Tangri o'zi saqlar, deb cho'pni ham oz o'rishgan.

Sirasini aytganda, barcha o'roqchilar cho'p o'rishga chiqsa ham, qo'lga qaragan shuncha jonliqni to'ydirish qiyin. Shunga qaramasdan, o'ynab yurgan, o'g'il-qiz ham kurak olib dalaga chiqdi. Qor yuqa, cho'pi bor, degan kungay betlarining qori kuraldi.

Bet-betlarda, kungaylarda qor kuragan kishilarni ham, ularning izlariga tushib, cho'p izlagan qo'y-echkilarni ham qorda tanish qiyin.

Go'yo ko'zni charchatadigan oq to'nning o'ngarida chuvalgan chumoliday yonboshdagi qor kurandilari orasida qator qo'y-echkilar ko'zga tashlanadi.

Eplab o'lmaslikning ozig'i, qirilmaslikning chorasini izlagan jonivorlar. Bu orada mol-jon hech tinim bilmadi. Mayda jonliq esa kuralgan yerlarni titib o'lmaslikning o'tini topdi.

Mol-jonning boshiga shunday og'ir holat tushib turganda, mish-mish bir xabar keldi:

— Yov tabg'ach emas, Uchsuvning eli bizga janchar sunmoqchi. Erkishi takabbur. Meni kamsitdi. Men uning jancharini sindiraman, o'rdasini yakson qilaman, — debdi Uchsuv begi Elteres.

Bu mish-mishga qirg'iz askarlari ishonishni ham, ishonmaslikni ham bilmay qoldi. To'polon kunlarda, qish qahriga olganda, bo'ri etagingdan oladi, yov yoqalaydi. Nima bo'lsa ham, molga qarashga yordam berayotgan askarlar chegarada bo'lsin, — deb ajo buyruq berdi. Erkishi yo'q. U askarlar bilan yuzboshilarni ergashtirib, tabg'achning yo'liga, juda olisga kuzatuvga ketgan. Qasdlashgan katta yov keladigan tomonni ko'zsiz, quloqsiz qoldirib bo'lmaydi, axir. Ana shuning uchun mingta askar lashkarga o'xshab emas, balki yer kezgan, yurt oralagan odamlarga o'xshab tabg'ach keladigan yo'lni kuzatishmoqda

edi. Erkishini u yerdan chaqirtirish o'zi xavfli, uning ustiga uni topish o'zi qiyin.

Darvoqe, qish Uchsuv yurtini ham peshonasidan silamagandir. Qish ularni ham qaltiratdi. Bizga tushgan qor ularning ham cho'pini bosdi. Janchar bo'yi qor yotganda bu yoqqa kim keladi? Mish-mish bu ayollarning gapi. Yer-suv qordan bo'shamagunicha, dushman kelmaydi, deganlar xavotir olmay, bemalol yurishdi.

— Saqlanganni saqlaydi. Olovsiz tutun bo'lmaydi. O'qsiz qon chiqmaydi. El chetida askarlar yotsin! — degan ajoning buyrug'ini bir tuman askarlar bajardilar.

Bu askarlar hozir Ko'kmen o'rmonida qorning ustida yotibdi. Tuman boshlig'i Yosh tegin. Yosh tegin birinchi o'nboshi edi. Keyinroq yuzboshi, keyin mingboshi bo'lib uch yilga yaqin lashkarni kuzatuvda boshqardi. Shaxsan o'zi katta urushlarda kamroq qatnashdi. Chetdan kelgan ozroq askarlar bilan askarlar oldida haybat bilan chopishadi. G'ayrati bor, biroq yakkama-yakka qilich chopishganda haybati yov ko'ziga unchalik ko'ringani yo'q. Ular zurriyoti Yosh teginning qilichni baland ko'tara oladigan jasur jangchi ekanligini bilib oldilar. O'tgan yili kuzgi ovda o'rmondan chiqib o'ziga tikka sakragan yo'lbarsni janchar bilan sanchib o'ldirdi.

Unda: "Aniq ursang, olding. Ko'zingni yumsang, oldirding. Yov bilan yuzlashganda, ko'ziga qarab bolta ko'targin", — degan Erkishining nasihati shartta yodiga tushib, o'ziga qarab o'qdek cho'zilgan yo'lbarsga jancharning po'lat uchini to'sdi. Aniq to'silgan janchar yo'lbars ko'kragining qoq o'rtasiga kirganda, yo'lbars "Arr-qirrr" etib sakrashdan to'xtab, yerga quladi. Janchar yo'lbarsning og'irligidan sinib, Yosh teginning qo'lida bir qulochga yaqin sopi qoldi. Yo'lbarsning haybatidan dirillab qo'rqqan Oqsur pishqirib, o'zini orqaga tashladi.

Yosh tegin jilovni tortib, oybolta bilan yo'lbarsni chopayin desa, yirtqichning g'azabnok o'kirigi Oqsurni qo'rqitdi. Ayg'ir yo'lbarsga yaqinlashmay qaltirab, pishqirib, o'zini orqaga tashlab turdi. Yarador yirtqich endi o'ch oladiganday ko'kragiga sanchilgan jancharni sezmaganday irg'imoqchi bo'ladi. Biroq kuchi keta boshlagan yo'lbarsning irg'ishi ham ozaydi. Ayg'irga, Yosh tegin-

ga chopchiy olmay yotib qoldi. Xuddi shu vaqtda "shaq" etgan ovoz eshitildi. Yo'lbarsning peshonasiga qadalgan o'q tikandek oqarib ko'rindi. "Bu o'q qayerdan keldi?" deb Yosh tegin fikrini to'plaguncha, Bars xoxolab kulib, to'g'ridan chiqib keldi.

— Ey, yo'lbars senga tashlanib qolsa nima qilasan, Tegin?

— Yo'lbarsning tishi bo'lsa, mening jancharim bor ...

— Jancharing sinib bo'pti-yu..

— Sopi sinsa, o'tkir uchi uning qornida!

— Ha, har holda hushyorlik kerak ...

— Men ehtiyot bo'ldim. Aks holda, yo'lbars hozir meni g'ajiyotgan bo'lardi...

Yosh teginning o'shandagi mardligi va qo'rqmasligi uning dushmanga qarshi kurashda mard sarkarda bo'lishiga yo'l ochdi. "Yo'lbarsni o'ldirgan er dushmanni ham chopadi", degan qadimiy maqol bor. Yo'lbars chopish — erkak kishining dong'ini chiqaradi. Ana shu shuhratni qo'msab, yigit yo'lbarsni o'ldirishga otlanadi. Joni shirin uyda bo'ladi. Qanchadan-qancha yigitlar yo'lbars oviga otlanib, yo'lbarsga yem bo'lishgan. Yo'lbarsga to'qnash kelgan mardlardan biri yirtqichni chopsa, ikkinchisi yirtqichning changalida!

Biroq shunday bo'lsa ham, er g'ayrati uni yo'lbars oviga chiqaradi ...

Ovga chiqqan Yosh tegin qarorgohga qaytib kelgach, katta daryo bo'yida oqbo'z biya so'yilib, elga taom tarqatildi.

— Yo'lbarsni olgan odamning yo'li ochiq!

— Yo'li ochiq odamning jilovini oling, odamlar! Mardning jilovidan olib, uning tayanchi bo'lib, ortidan qo'llang.

Yurtidan qo'llov olgan mard yurtiga bosh-ko'z bo'ladi. Yer kezib, yer-suvni ko'rib, el-yurtni tanigan, mardning barcha hunarlarini egallagan Yosh tegin bu vaqtda so'zning egasi. So'zning egasi bo'lgan kishi yurtning ko'zi bo'ladi. U yo'lbarsni kurashda yengdi. Yo'lbarsni yenggan alp — alp lashkarboshi. Alp yo'lboshchining yoshiga qaralmaydi. U boshliq.

Umay ona barcha irimlarini aytib, xaloyiqqa eshittirdi:

— Boshiga qush qo'ngan Yosh tegin voyaga yetdi. U yurtga bugun bosh. Yosh tegin endi Bosh tegin! Bosh tegin! Bosh tegin!

— Xaloyiq Umay onani qo'llab-quvvatlashdi:
— Yosh tegin endi Bosh tegin!
— Bosh tegin!
— Bosh tegin!

Yer go'yo ovoz berib turdi. Shu kundan boshlab Yosh tegin Bosh tegin nomini oldi.

Bu yilgi og'ir qishda yurt chegarasiga bir tuman askar yuborildi. Albatta, bir tuman askar unchalik ko'p emas. Bo'lgani o'n ming, xolos. Atayin otlangan dushman lashkari o'n mingdan ko'p bo'lishi aniq. Biroq molni asrab qolish chegaraga kelgan dushmanni qaytarish bilan bir xil. Kuch beradigan yigitlar hozir molni qarashyapti. Kuzatuvdagi Bosh tegin boshliq askarlar hozir ovqat zaxiralarini saqlab, yangi so'yilgan go'sht yeyishmoqda. Undan qolsa, hozir og'ir qishda yut payti mol oriqlab qirilishi mumkin. Bekordan qirilguncha mol semiz paytida so'yilsin, deyishib bo'g'izlangan mol-qo'ylarning ichini olib, terisi bilan qotirib, qoziqlarga ilib, saqlashmoqda. Semirib, go'shti yetilgan biyalar, qisirlar so'yilib, go'shti hozir faqat askarlar qo'shinidagina emas, balki ovulda ham har bir oilaning bostirmasida it-qush yetmaydigan joylarga ilingan. Semiz go'shtlar odamlarga bir qish emas, yil bo'yi yetadiganday serob. Hozir muzlab turgani yaxshi. Qishning chillasi o'tib, bahorning yashil ro'molli kelinchagi kulib kelguncha, bu tayyorlangan turli jonivorlarning go'shti o'z sifati bilan saqlanib turadi. Sursiganini sursitib, qotirganini qotirib, buzilmaydigan qilib qo'ygandan keyin bu et ovuldagilarning zaxirasi. Endi semiz biyalar va qisirlarning go'shtlari ham askarga zaxira hisoblanadi. O'zining moyiga qovurilib, maydalab, qovurilgan unga sarimsoqning urug'i aralashtirilsa, bir biyaning go'shti bir sanochga joy bo'ladi, yoki yo'lovchi qopiga sig'adi. Bir qumg'on qaynagan suvga katta hovuchda o'sha go'shtdan solsang, o'nta askarga ovqat bo'ladi. Ko'p yilga buzilmaydigan bunday zaxira askarning eng yaxshi oziq-ovqatidir.

Ozig'i bor odam horimaydi, — degan maqol shundan kelib chiqqan bo'lsa kerak.

* * *

...Ovulda ham, chegarada ham el shunday pinhona tayyorgarlik ko'rayotgan paytda Uchsuvning elteresi qirg'izga hujum qilishi mish-mish emas, haqiqat ekanligi ayon bo'ldi.

— Ikki qilich bir qinga sig'maydi! — degan maqolni esda tutgan Elteres bosqin qilishni orzu qildi. Ko'p o'lja olishni o'yladi. Urush bu to's-to'polon dunyoda inson bolasi kashf qilgan qoidami? Yo tabiat yaratganmi bu qoidani? Ikki lashkarboshi yoki ikki xon, uni aytmang, ikki urug' "Elmiz, yurtmiz. Bundan keyin bir bo'lib ittifoqlikda yashaymiz", deb jar solishadi. Xuddi o'sha vaqtda qo'yniga tosh bekitib, narigi tomonni urishga payt poylaydi. Bu qadimdan beri kelayotgan odat. Qarg'aning yoshini, kishining ichini bilish qiyin. Kulib kirgan odamning otlanib ketayotganida ortidan orqasini qara, sen bilan kelishib, senga do'st bo'lib ketdimi, yo seni ustingdan kulib, senga yov bo'laman, deb ketyaptimi? Ko'radigan bo'lsang, uning sirini orqasidan payqab qol, deyishardi bobolar. O'sha aytganday, o'tgan bahor ko'k yalov tagida bosh qo'shdik, deb jar solishgan hamma urug'larning ichi oq, o'yi bir emasdir. Ko'piniki oq bo'lsa ham, biriniki qoradir. Ha, albatta, kishi olasi ichida. Uni sirtidan bilish qiyin. U rang-tusdan bilinmaydi. Odamning siri uning qilayotgan ishidan bilinadi. Ha, o'sha o'tgan safar bahorda yurt ittifoqini chaqirishgan azning bir kishisi Kergen degan odam bugun ko'k yalovning birligidan chiqdi. U o'zining manfaatini ko'zladimi, yo o'z eli azning obro'sini ko'tarmoqchimi, hozircha noma'lum. Nima bo'lsa ham, azning bir odami Kergen, Uchsuvning alpi Elteresga oldindan qo'lini sundi.

— Bu qahraton qishda Odiltoyning qo'shini kam bo'lib turganda ham qo'shin yana bo'lindi. Erkishi olisda, chegaradagi kuzatuvda. Yosh tegin bo'lsa, bir tuman askar bilan qorga ko'milib, o'tib bo'lmas o'rmon chetida. U anovi Ulug'tog'dan dushman kutmaydi, u tomondagi yo'lni qirg'iz bilmaydi. Qirg'izga qo'shni az biz ham bilmaymiz. Yo'lni shu tomondan boshlab, qirg'izning nozik yeridan yorib chiqaman, deb Kergen yo'l boshladi.

Alp sarkarda Elteres botirning uch tuman qo'shinini Kergen boshlab, qirg'izlar tomon yo'l oldi.

Elteresning maqsadi qirg‘izning oltin, kumush va qimmatbaho narsalarini qo‘lga kiritish. Mol haydab, itoatsiz botirini tiz cho‘ktirish... Uchsuvning obro‘sini ko‘tarish. Qolaversa, ko‘k yalovning obro‘sini tushirib, o‘z bobosining oq yalovini o‘rda oldida ko‘tarish.

Qishda u yoqda tursin, oftob charaqlab turgan bahorda ham, askarlar kamdan-kam oshib o‘tadigan bu shafqatsiz dovonga Elteresning qo‘shinini boshlab borayotgan Kergen ko‘p kundan beri uxlamagan edi. Daryoni, tizmani, qirni va tog‘ etaklarini birday bosgan qalin qor yo‘l bermaydi. Yuzday kishi chang‘i bilan ingichka yo‘l soldi. Qor tepalashdi. Ammo chang‘i qiyalikda va tekisda yuradi, balandlikka esa chang‘ida yurib bo‘lmaydi. Boqilib, sovitilgan ayg‘ir otlar qor yo‘lda tepalikka chiqishga harakat qiladi. Biroz qorni yirib, ozgina qorni og‘ziga solib, to‘xtab qoladi. Qattiq sovuq bo‘layotganiga qaramay, qattiq terlaydi. Quloqlarining tagidan oqayotgan ter junning uchiga yetguncha munchoq-munchoq muzga aylanadi. Kunduzi o‘rmonda yashiringan katta qo‘shin tun bo‘yi arang ozgina yo‘l bosadilar. Qolaversa, oy zulmatiga qaramay, oppoq to‘n kiygan dunyoda tunda ham qo‘shin yurganini payqash mumkin. Oldi ko‘rinmagan qo‘shinning oxiridan xabar olish qiyinlashdi. Uning ustiga havoda qichiragan temir ayoz qo‘l-betni ayamay achishtirar edi. Sovuq shunchalik kuchliki, u tirik mavjudotlarni muzlatib qo‘yguday ... Odamlar sarosimaga tusha boshladi...

Elteres alp qo‘shinini hali urushga kirmay turib, sarosimaga tushib dovdirab qolayotganin ko‘rib Kergendan shubhalana boshladi. Uni o‘ziga sherik, deb atamadi. Ayyor, hiylagar meni yo‘ldan ozdirib, yovga sotib yuboradigan ichi qora dushman kishi ekan, deb o‘yladi.

Shunda chakkasiga tirs-tirs etib urayotgan temir ayozni ham ko‘zga ilmay bosh yalang bo‘lgan Elteres chang‘i bilan solingan yangi yo‘lni yirib, oldindagi Kergenning yoniga yaqin keldi. Bu vaqtda Elteres sovuqdan emas, g‘azabdan qaltirardi:

— To‘xta, sen! — dedi jahd bilan.

Kergen Elteresdan hech qanday shubha qilmay uni sovqotib qolibdi, deb tushunib, hazil qildi.

— E-ha, Sher... Oqtermelning tabarruk dovoni muzlatib qo'ydimi? Qaltirama...

— Voy, iflos-yey, u hozirdan meni tavba qildirmoqchi, — deb o'ylagan Elteres jahl bilan dedi:

— Nima deding?

Tunning qorong'iligiga qaramay, Elteres ko'zining oqi Kergenga ko'rindi.

"Ee-e,... bu menga achchiq qilyapti, shekilli? Yo'q. Alpning g'azabidan ehtiyot bo'lish kerak, deb qo'rqib ketgan Kergen ohista dedi:

— Qor qalin, Sher. Baland-past tekis oq. Yo'l azobi og'ir, chalkash. Topish qiyin ... Elteresning shubhasi yanada ko'paydi:

— Yo'l azobi og'ir, chalkash degin?! Kimni aldayapsan?!

Kergenning jon-poni chiqib ketdi, qasam ichishga shoshildi:

— Niyatim yomon bo'lsa, meni Ko'k ursin...

Elteres yumshamadi. "Seni shu bilan bir ursam, ajaling tepangda chirillab turadi", deganday, buldursun qamchisini buklab ushlab, Kergenning burniga taqadi:

— Hid bilasanmi? Nimaning hidi kelyapti?

Kergen qaltiraganini sezdirmay, gapini hazilga burdi:

— Qonning hidi kelyapti, alp!

— Qonning hidi kelyaptimi? Kimsan, rostini ayt. Meni aldab yo'ldan adashtirgan dushmanning qonini ichaman. Meni aldamagan bo'lsang, nega bu yo'l shunchalik mashaqqatli?

Usiz ham yo'g'on sondan yuqori qorga botib turgan Kergen egilganida peshonasi qorga tegdi. U juda yalingan ovoz bilan Elteresni ishontirib aytdi:

— Buzuqiligim bo'lsa, qonimni emas, jinimni ham o'zimga ichiring, Sher! Agar ichim harom bo'lsa, o'z otimning taqasi peshonamga botib qolsin! O'z yurtimining rizqidan totmay qolayin... Ko'k ursin! Ko'k ursin! Ko'k ursin!

Shunday qilib uch marta takrorlash bu — eng kuchli qasamdir. Biroq Elteresning g'azab yozilmadi:

— Niyating to'g'ri bo'lsa, yo'l qani?! Yo'l yo'q tuyuqqa boshlab kelganing nimasi?!

Kergen boshini ko'tarmasdan tez-tez aytdi:

— Ha, bu teskari yo‘l. Undan biroz adashyapman... Yo‘lning yaxshisiga yurganimizda qirg‘iz qilichiga toqat berishga ko‘zing yetadimi? U tomonda ko‘p ovul, yurgan, turgan odamlar ko‘p, ko‘zi o‘tkirlar askarlarning kelayotganini ko‘rsa, bir-ikki kunda qirg‘izning qilich ko‘targan o‘g‘illari yo‘lni to‘sadi. O‘shanda uni yengishga ishonasanmi, Elteres sher? Yo‘q. Kuchli dushmanni yashirin bosaylik, deding. “Men yashirin yo‘lni bilaman”, dedim. To‘g‘ri, qiyin, xavfli bu yo‘l. Bu yo‘lning yomon joylari ko‘p. Biroq bu tomon xavfsiz. Chegaradagi yov qo‘shini uxlab yotganda bosib olasan, Sher...

Elteres biroz yumshab, buyurdi:

— Boshingni ko‘tar! Rostini aytgan bo‘lsang, elingning rizqi. Niyating yomon bo‘lsa, elingning sho‘ri. Unda yumshoqdan kuling ko‘kka sovurilar, qattiqdan qozoning parchalanar. Tabarruk degan xoningning boshiga qarg‘a qo‘nadi. Shuni unutma! Boshla yo‘lni!

...Bu vaqtda qirg‘iz qo‘shini kuzatuvda yotibmiz, degani bo‘lmasa, dushmandan mutlaqo bexabar edi. O‘nboshi, ellikboshilar o‘z askarlariga qorni teptirib, qor kuratib, o‘rta katta qo‘raday ochilib, uning aylanasini qotib qolgan qor kurandi[1]si bilan to‘sishgan edi, daldalanadigan hovliga aylandi. Kunduzi o‘rtaga o‘tin terib, o‘t yoqib, askarlar o‘zlari olib yuradigan qozonlarida ovqat pishirishadi. Barra go‘sht va issiq sho‘rva bilan ovqatlanishadi. Ichimligi bo‘za. Aytganlari er bayoni, qo‘shiqlar, ertaklar, topishmoqlar. Keyin kimning qanday sanchishgani, qanday qilib chopishgani, kimning qanday qilib adashib qolgani, qanday qilib otdan yiqilgani, shiddatli oqinga oti oqqanda, boshi aylangani, yo‘lda bexosdan ayiq chiqib qolganda “Ena” deb baqirgani.. qisqasi, masxara-mazax, tomosha, hazil-kulgilar osmonni yoradi. Askarlar bobodan qolgan “Ulug‘ so‘z”dagi “Bo‘zasini ichsa, to‘ymagan, o‘rdasini otib o‘ynagan” askarlar jon orom olgan tinch vaqtda shunday qilib hovliqib, ko‘ngil ochib, bemalol yotishardi. “Qiliching o‘tkir bo‘lsa, uni bo‘sh-bayovliging o‘tmas qiladi”, “G‘ayratlisan, lekin yuvoshligingdan aldanasan”, degan maqol-

[1] **Kurandi** — kuralgan qor uyumi.

larni o'zi aytib, qayta o'zi bayovlikka beriluvchi bu yurt ilgaridan butun zurriyoti shunday bemalol va boshqalarga ishonadigan mo'min el bo'lib qolganday.

Har bir insonning o'ziga xos fe'l-atvori, tasavvuri, sifati bo'lganidek, har bir elning ham o'ziga xos xususiyatlari, fe'l-atvori, tasavvuri, sifati bo'ladi, shekilli?

Shu qor tepalagan askarlar kech kirgandan boshlab, hulkar yonboshga oqqungacha, ayoz zahrini sochib, daraxtlarga oq muzdan kiyim kiydirib, tevarak-atrofni o'rab, qalin o'rmon orasiga yarim tundan keyin qahrini sochib, atrofni qichiratmaguncha askarlar tinmadi. Biri afsona aytdi. Biri avlodlari haqida gapirdi. Keyin hammalari "Ulug' so'z"ga o'tishib, mardlikni ulug'lashdi: "Uydagi o'lim — jo'n o'lim, yovdagi o'lim — muqaddas o'lim", deyishib, so'zni davom ettirib, maqol aytishdi. Bo'yin uzun qish tuni uzunligi bilan ham, qasiragan ayozi bilan ham hech zeriktira olmay, sovuqqa bo'ysundira olmay odamlar qilayotgan ishlarini qilgisi kelmay, chuqur xayolga tolganday dunyo dildirab, muzlab turganda, Bosh teginning askarlari kurandining tagini o'yib, qorini qotirib, uyquga ketishdi.

Qor, ayoz, tun zulmati, osmondagi yulduzlarning miltillashi, tunning qorong'iligi, eshitilayotgan turli ovozlar, qaydadir sharillagan suvning sasi, o'rmonning olis joyidan kelayotgan tovush; qor hidi, qator qilib bog'langan otlarning nafasi; og'izlik-suvluqlarning shildirashi, ter, nafas, teri, quvurning isi, o'rtadagi to'plangan cho'g'ning so'nishi, pishgan, yeyilgan ovqatdan qolgan yog' hidi, qisqasi, hamma narsaning aralash-quralash bo'lib ketgani qo'shin yotgan bu yerni o'ziga xos g'alati joyga aylantirgan, shu bilan birga qandaydir bir yashirin qayg'u hozir bularni bosib nafasini chiqarmay qo'yadigan bir soya bo'lib kezib yurganday vaziyat hukm surardi.

Bosh tegin o'nta mingboshisi bilan alohida ovqatlanishgan. Ajo bobosi Odiltoy o'ziday kuchga to'lib turganda dushmanga otlanganini aytishib, qancha-qancha mardlikni, yovni yengganlikni, yakkama-yakka chiqib, sayishgan mard askarlarni, qancha qofiyali so'zlar topib, yov elchisini so'z bilan mot qilgan donishmand notiqlarni gapirib o'tishdi.

Keyin:

— Agar dushman yoqangdan olsa, bo'ri etagingdan olar! Indamay yurgan ayol bexosdan ignasini sanchar! Hushyor yotinglar! — deyishib, mingboshilar o'zlarining qo'shinlariga ketishdi.

Yol, quyrug'i chiroyli qora ayg'irga irg'ib mingan Buylash hammaga eshittirib:

— Qilich kesadi, uyqu damingni chiqarmaydi! O'ng ko'zing uxlayotgan bo'lsa, chap ko'zing qorovul bo'lsin, ey, askarlar! — degan.

Buylashning bu gapi o'ziga ham, Bosh teginga ham, Barsga ham, mingboshilarga ham, umuman, yalpi askarlarga aytilgan gap edi.

Buylashlar o'z qarorgohiga jo'nab ketgach, Bosh tegin chodirga kirdi. Chodir oppoq kigiz bilan yopilgan yilqichilarning bo'z uyi kabi yengil. Yopinchig'ini hisobga olmaganda, ichkarida bezak yo'q, sovuq va shamoldan to'sadi. Uzoqdan qaraganda u chodir ekani ham bilinmaydi. Qorning ichida qandaydir oq tepalik turganday. Kechasi u ham sezilmaydi.

Bosh tegin yechinmadi. Askar kiyimlari bilan kigizga yotib uxlab qoldi. Hatto dubulg'asini ham yechmadi. Buylashning boyagi so'zlarini eslab, o'ng ko'zini yumdi, chap ko'zini ochib, bir zum turdi-da, kulib qo'ydi.

— Bunday uxlash qiyin ekan-da ...

Bosh tegin biroz uyqusiradi, u yoq-bu yoqqa ag'anadi, keyin uxlab qoldi,.

...Choy qaynashga yoki yoki go'sht pishishga ketadigan vaqt o'tdimi, kim biladi. Bosh teginni qandaydir "chak-chuk" degan g'alati ovoz uyg'otdi. U sakrab turdi-da, chodirdan yugurib chiqdi. Egasini ko'rib Oqsur o'kranib yubordi. U cho'p yemay, yer chopchib, aylanib turgan ekan. Oqsurning chilvirini beliga bog'lagan askar qor kurandisining o'yilgan joyida hech narsa sezmay xurrak otmoqda.

Dushman o'z qo'shinini bosib kirganini Bosh tegin aniq ko'rdi. Nima bo'lsa ham, avval sokin turgan osmondan pag'a-pag'a qor yoqqanday bilinmasdan kelgan bu yov avval ustin kelayotganday tuyildi. Haqiqatan ham, janchar bo'yi qor yotgan dovon oshib,

ayozda sovqotib, g‘azab to‘lib qolgan Elteresning qo‘shini endi tun o‘rtasida kelib, Bosh teginning qo‘shinini o‘ta ochko‘zlik, g‘azab to‘la kek va g‘ayrat bilan bosdi. Ko‘pdan beri o‘ljasining iziga tushib, yetolmay yurib ochiqib qolgan ilbirsday to‘p-to‘p, qo‘shin-qo‘shin bo‘lishib uyquda yotgan askarlarning anchasini uxlayotganda o‘ldirgan Elteresning qo‘shini quturib hujum boshladi.

Qor tagidan, to‘plangan qor ungurlarining ichidan shoshib-pishib askarlar turishmoqda. Anchasi uyqusi ochilmasdan o‘ziga urilgan oybolta zarbidan yumalanib ketgan. Anchasi beliga bog‘langan ot chilvirini ham yechmasdan uyqusirab irg‘ib otga minishmoqda.

“Qayerdan kelgan yov?”

“O‘zmi, yotmi?”

Shu savol hammaning ko‘nglini bo‘lib turibdi. Biroq bu savol bir zumda xayoldan chiqib ketadi. Kim bo‘lsa ham, iz yashirib, o‘g‘irlikcha kelib, bildirmasdan hujum qilgan bu yov bilan jonni ayamay urishish kerak. “Uyda o‘lguncha yov bilan urushda o‘lgin”, deb tarbiyalangan askarlar tinch uyqusini buzgan, an’analarga bo‘ysunmagan dushmanga qarshi jon-jahdi bilan tashlandi.

Qasira-qusur shiddatli jang boshlandi.

— Men o‘ldim! — deb hech kim nola qilmadi.

Jang dahshatli tus olgan. Atrofni “qars-qurs” “chak-chuk” kabi ovozlar bosib ketgan. Oyboltaga oybolta tekkanda, qilichlar bir-birlariga urilganda tig‘laridan yalt-yult qilib o‘tlar chaqnaydi. Osmonga qarab qancha-qancha yosh umrlar chirillab, bezib qochayotganday. Qalqonlar to‘qnashadi va dubulg‘alar bir-biriga tegadi. Askarlarning ayrimlari tishlarini bir-biriga bosib, qattiq nola qiladi. Ot galadan chiqadi...

Avvaliga uxlayotganlarning ko‘pchiligi otlarini yo‘qotib, yetib bora olmay qolgan. Endi ular piyoda jang qilishmoqda. Biroq selday bostirib kelayotgan otliqlar hujumiga bardosh berolmay, otlarning tuyog‘i ostida qoldi.

Ayrim askarlar ustlaridagi jang kiyimlarini yuk qilmay, yechib tashlab yov bilan chopishmoqda. Biroq egarga o‘rgan askarlar piyoda cho‘loq bo‘lishadi. O‘ksib, o‘kinib boshlari qonga belanib, sulayib yotib qoldi. O‘lganlarning mo‘ylovlari serrayib, qo‘l-oyo-

g‘i ikki tomonga ketib tezda muzlab qolardi. Tunda boshlangan jang yo ot damini olmay, yo askarlar og‘iz totinmay ertasi kechgacha tinmadi. Ikki tarafdan ham askarlar kamaydi. Aniqrog‘i, g‘aflatda qolgan qirg‘izlarning chiqimi ko‘p. Jonlarini ayamasdan urishgan askarlar qo‘li ishlamay, ko‘zlari ko‘rmay qolguncha bolta ko‘tarishdi, qilich siltashdi. Qachon qon ko‘p ketib, bilakdan kuch ketib, ko‘z oldini tuman bosib qolgandagina otidan ajralib, yoki qurolsiz holda sulayib qolardi. Mingboshi Yo‘lbars o‘zining ming askaridan qolganini ertasi tushdan keyin dushman oldiga tushib qochib borib, o‘rmon oralab, dushmanni adashtirib, qayta kutmagan joydan hayqirib kirib, yovga hujum qilib, ancha shoshtirdi. Shu jangda Yo‘lbars Elteres bilan ikki marta yuzma-yuz keldi. Jancharni tikka sunib, qo‘rqmasdan askarlarni sayishga mashq qilib ko‘nikkan Elteres, odaticha, Yo‘lbarsga yana tikka hujum qildi. Yo‘lbars otini burib qochganday bo‘ldi-da, Elteresning jancharini oybolta bilan qoqib yubordi. O‘sha zahoti Olovsamanni shart orqaga burdi-da, Yo‘lbars Elteresga hujum qildi. Ikkovi ot ustida tirashdi. Elteres bunday janglarda alplar bilan olishib, jangning yo‘lini bilib olgan botir bo‘lganligi uchun shu paytda Yo‘lbarsning haybatidan seskandi. “E-e, bu bilagida kuchi bor, yuragi yosh, o‘limdan qo‘rqmaydigan yomonga o‘xshaydi. Bu bilan kuch ishlatib urishsam, yutqazib qo‘yaman, shekilli”, dedi-da, hiyla qilishga o‘tdi. Otining boshini burib, qochdi. G‘azabga to‘lgan Yo‘lbars, odaticha, hayqirib quva ketdi. Uning mardlik bilan qilgan harakati va haybati Elteresni haqiqatan ham cho‘chitib yubordi. U qochdi. Biroq Elteresni sirtidan qarab turgan yuzboshi o‘zining tanlangan bolta uradiganlari bilan Yo‘lbarsning yo‘lini to‘sdi. Nari-beri qaraguncha bo‘lmay, uni dushman askarlari o‘rab oldi.

Qattiq chopishishdi. Qarsillagan chopishishdan quloq bitguday. Dubulg‘asi ko‘zini to‘sib qolgan, egardan qiyshayib, uzangidan oyog‘i toyib, yiqilayotganda uni kimdir qo‘ltig‘idan oldi:

— Ko‘zingni och, Yo‘lbars! — degan Bosh teginning ovozi qulog‘iga uqildi.

Baquvvat qomati egarda chayqalib, sarg‘ish yuzi quvarib borayotgan Yo‘lbars Bosh teginni ko‘rib, kulib yubordi. Unga

alpning bu kulgisi kulgiga o‘xshamadi. O‘kinch, yig‘iga o‘xshab eshitildi.

O‘zi ham qattiq g‘azablangan Bosh tegin o‘lar-tirilariga qaramay qolgan. Oqsur yura olmay qolganda, Erkishi minadigan Katta to‘riqni minib, o‘zi ayron yutib, yana urushga kirdi. Keyin qamalda hushidan ketayotgan Yo‘lbarsni ko‘rib, chetdan hujum qilib, dushmanni qochirdi. O‘rmon ochiqligida o‘zining to‘pidan ajralib qolgan Elteres guruhi endi Bosh teginga qarshi tura olmay, otlarini orqaga burib, o‘z qo‘shinining qarorgohini ko‘zlab qocha boshladi.

Bosh tegin nimalardir, deb ot yoliga yiqilay deb turgan Yo‘lbarsga tikilib to‘xtab qoldi. Hozir har doim oldinga intilib, g‘ayratli bo‘lib yurgan Yo‘lbarsni holdan toyib turganini ko‘rganda, tumanboshining yuragi siqildi. Ha, mardning o‘limi elning qayg‘usiga sabab bo‘ladi. Yolg‘iz o‘zi mingta askarga teng keladigan Yo‘lbars sher endi mana bunday holatda qonsirab turibdi.

Choshgohdan beri Bars bilan Buylashdan xabar yo‘q. Ular otlarining ustida chopishib, omonmikin? Yo biror joyda qorni shishib o‘lib yotibdimi? Xabar yo‘q.

Jang sal sekinlashdi. Qo‘shin ancha ozayib qolgan ekan. Qancha o‘jarlikka qaramay, jangda bir qismi halok bo‘lgan qirg‘iz qo‘shini ovulga qarab jo‘nadi.

SAYQAL ENANING KAMONI

Uzilganni ulagan,
Sochilganni to'plagan.
Baqay bobom ekan, deb
Ko'rganlar rohatlangan.
Manasdan

Elini sotganni dushman o'ldiradi.
Maqol

Tarixni ko'zguda ko'rganday ko'rib, o'zim bayon qilgan qahramonlik ishlardan o'rnak olib, hayotimni yaxshi tomonga boshlashga harakat qilaman.
Plutarx

Qarorgohdagilar u yoq-bu yog'ini yig'ishtirgunlaricha O'tuken etagida yashagan urug'lar qattiq bosqin ostida qoldi.

Uch tuman qo'shinni boshlab chiqqan Elteres bu gal qirg'izlarning hech narsasini qo'ymay yig'ishtirib, qattiqdan qozonini parchalab, yumshoqdan kulini ko'kka sovurar edi.

Bosh teginning qo'shinini bosgandan keyin Elteres qirg'iz xonining qo'shinini yakson qildim. Eli endi mening oyog'im ostida. Haydasam, — molim, pullasam — narsam, deb bo'yini ko'tarib, hovliqib qoldi. Qorning qalinligiga qaramay, qo'shinlari bilan Odiltoy ajoning Oq o'rdasiga o't qo'yib, qirg'iz yerlarida ot o'ynatib yurishni orzu qildi.

Elteres o'zining bejo xohishini amalga oshirish uchun hujumni kuchaytirdi. Bosh tegin taslim bo'lmadi. U qarorgohga qarab chekina boshladi. Ko'pi qirilib, ozi qolgan askarlar turli xil usullar bilan yovga qarshi turardilar. Keyingi vaqtda it urushi[1] usulini ko'proq qo'llay boshladilar.

Askarlar sonini ko'paytirish uchun lashkarboshi holdan toyib borayotgan askarlarni oldiga jo'natib, kuchli askarlarni orqaga olib

[1] **It urush** — tanlangan bir guruh askarlarning yov qo'shini oldiga tushib qochib, ularning diqqatini o'ziga tortib, ma'lum masofaga yetganda ularga qarshi hujum qilib, yana qochib urishish usuli.

almashtirib turdi. Bosh tegin, Bars, Bo'zuul va Oquullar otlarini tinmay almashtirishib, dushmanga qarshi jang qiladilar:

— Ha-a, alp bobo, qo'llang!

— Ha-a, Er aka, menga kuch bering.

— Ha-a, otam qirg'iz, yo'limni oching.

"Ha-a!" degan sayin har birining ortidan tuman askar qo'llaganday, ilgarigi toshqo'rg'on, ko'p qabrlar ochilib ketganday tasavvur hosil bo'ladi. Tosh yorilib, uning har bir yorig'idan alp hayqirib chiqayotganday.

— Zurriyotim, o'lganda o'sing.

— Avlodim, tugaganda qayta yoning! — degan hayqiriq Yosh teginning qulog'iga eshitilib turdi.

— Dushmandan olib qochgan jon harom!

— Yengilgan elning holiga voy!

— Qanjig'adan boshing, ko'ko'rda qoning ketsa ham, yurt chegarasida qal'a bo'l, o'g'lim! degan hayqiriq Barsning qulog'iga eshitilib turdi.

Ustoz Erkishining quloqqa quygan so'zlari. Ajdodlardan qolgan "Ulug' so'z"ning bir tabarruk so'zi. Jangda buni ko'nglida tutgan askarning kuchi toshni yoradi. O'zi dushmanga taslim bo'lmaydi, degan Erkishi.

Yov bilan olishgan alplarga tayanch bo'lgan, ularni charchatmagan kuch ham xuddi shu bobolarning so'zlari. Botirlar bir joyda turolmasdan tinmay kurashga yo'l olgan sayin ularning yonida hayqirib kuch bergan nimalardir borga o'xshaydi. Qora chipor qoplon, ko'kyol bo'ri, og'zidan o't sochgan ajdar ko'rinishida bobo ruhi qo'llaydi, degan ishonch har bir askarni qo'llab, o'rab, saqlab qolayotganga o'xshaydi.

Bosh-Tegin ham, Bars ham, Buylash ham o'limni bilmas edi. Ular hayqirib yovni qochirishdi ... Qo'rqmasdan tikka jang qilishdi ...

Elteresning askarlari ko'p edi, qirg'iz tumanini kuch bilan bosib oldi.

O'sha paytda Elteres qo'shinining o'ljani o'ylagan ko'plab boshchilari chekka qishloqlarni talon-taroj qilardilar. "Hayyo-huv! Qirg'izning burgutlari qarg'a bo'ldi. Endi ularning qiz-kelinlari

bizga cho‘ri” degan o‘sha lashkarboshilar allaqachon Elteresga bosh egmay qo‘ygan edilar. O‘ljani orzu qilgan askarlar boylikni ko‘rgan zahotiyoq och bo‘riday molga, qimmatbaho buyumlarga, dunyoga o‘zini otadi. Qo‘riqlanmayotgan qiz-kelinlarga tashlanadi.

Elining nomusni qo‘riqlayotgan Bosh teginning askarlari esa qirilgan sayin alvastining qoniday ko‘payib yovga qarshi kurashayotgandi.

Xuddi shu paytda uzoqdagi tuman bosib turgan qalin o‘rmonga jon kirganday bo‘ldi. O‘sha bo‘zrayib turgan o‘rmondan bo‘linib, o‘rmon yoqalab qo‘shin kelayotgan edi.

Jang qilayotgan ikki taraf ham buni hali payqashgani yo‘q. Jangdagi askarlar uzangini teng tepib, oyboltasini ko‘tarib, yo jancharini sunib, yoki kamonda aniq mo‘ljalga olish bilan ovora edilar.

Bosh teginning guruhi parcha-parcha bo‘ldi ... lekin matonat bilan kurashib, har qanday zarbaga dosh berdi. Ayrim paytlarda it urush usulini qo‘lladi. Elteresning askarlari ularni tinmay qisib, qirdi:

— Ey-a, endi yiqilding! — deb Elteres quvlasa:

— Ha-a! O‘ladigan joying shu yermidi, tosh bilak? — deb Bosh tegin undan qo‘rqmasdan yo‘lini to‘sadi. Yana urush. Bosh tegin mingan Esli to‘riqni oq ko‘pik bosib, tepasidan ko‘k bug‘ ko‘tarilib, ustidagi alp qalin tuman ichida ketayotganday Elteresga surli bo‘lib ko‘rindi-da, uning ortidan hay-haylagan katta qo‘shin ko‘rindi.

Bu shunday jangda charchagan botirlarning ko‘ziga ko‘ringan sarob, sur, arvoh emas. Bu haqiqiy sur, haqiqiy qo‘shin edi.

— Qarorgohdagi bir tumanni bexosdan yov bosdi. Qizil qirg‘in, shiddatli jangda botirlarning ko‘pchiligi shunqor bo‘ldi. Askarlar toshni yorib chiqqandek haybat bilan qattiq kurashmoqda. Ha-a, ajom! Dushmanlar ko‘p! Biz ozlik qilib yengilib qolyapmiz, — degan xabarni arang aytib hushini yo‘qotgan keksa askardan xabar eshitgan zahoti Odiltoy ajo Oqbo‘z otga mindi. Azman abo bilan Chekir biy ham yo‘q. Ular el kezib, urug‘ orasida yurishgan. Ajo o‘zi otga mingandan keyin oq o‘rda hududida

qalin qorda molni yutdan saqlab ovulda yurgan erkaklar ham otlandi. Ajoga ergashgan askarlar mingtaga yetmagan edi. U yoq-bu yoqdagi ovullarga xabar yetib, yo'lda qo'shilib, jang maydoniga yetib kelganda ajo boshlab kelayotgan qo'shin soni yetti mingga yaqinlashib qolgandi.

Ularning hammasi ham erkaklar emas. Bir ming besh yuztachasi sochini tepaga tugib, erkak kiyimini kiyib, kamon ko'tarib, yovga qarshi otlangan ayol zoti edi.

— Ey, aylanayin muqaddas Umay, bu qirg'indagi o'z avlodingni qo'lla? Tinchlik davrida ona bo'lib o'g'il-qiz o'stirdik. Dushman keldi. Kamon ushlab chegaraga ketyapmiz. Oq elechek[1] avlodga kuch-quvvat bergin Umay ona! — deb tilak tilab, uzangi tepmay, irg'ib otga mingan Sayqal ona bu safar ham yana ming besh yuz ayolning sarkardasi edi.

Ularda oybolta, gurzi kabi bilak kuchini sinaydigan qurollar juda kam. Hammasida kamon. Xuddi ovga chiqqan ovchilarday tez kelishardi. Ko'k yalovning yonida ajoning ikki tomonida yoyilgan keng qanot Sayqal onaning kamonchilari edi.

Taxtda o'tirganida ajoning oppoq to'ni yoqasidan tushib, yarashib turgan oppoq silliq soqoli hozir buralib o'ng yelkasini qoplab turibdi.

"Oh, qayg'udan hech qutulmading, elim. Qorong'ida bo'ri tegadi. Bexosdan dushman bosadi. Buni o'zimiz aytib, o'zimiz saqlana olmadik. Janchar bo'yi qor qoplab, hosildor yer dam olib uyquda yotganda dili qora yov keldi. Ey, Elteres alp, tosh yuraksan, qon icharsan, suqsan, ochko'zsan, boyish uchun shon-shuhrat uchun onangni ham bog'lab berasan. Ey, it. Oq chakmon alpning maqsadi tabarruk. Bobolarning qadr-qimmatiga tupurding. Yovga qarshi kurashadigan alpning haqiqiy odati shumi? Qorong'ida bo'ri bo'lib kim keladi? Urishadigan alp xabarlashadi. Eshik oldiga qalqonini qo'yadi. Urishishini bildiradi. Ey, dunyoning o'yinlari! Zamonning orti qozonning tagiday qorayib ketdi. Donishmand gapidan adashib, botir urush odatini buzib, g'ingshigan och bo'riday yo'ldan chiqarib, aldab-so'kib, qor yopinib, qorong'ida bosib... e, voh, bu etagi ochiq ayolning ishi-ku, Elteres.

[1] **Elechek** — o'rta yoshdan yuqori yoshdagi ayollar kiyadigan bosh kiyim.

Sening mard otang bilan tizgin qoqishgan odam edim... Otangda odat va uyat bor edi. E, voh, sen kimdan, qaysi quldan tug'ilding o'zi... Ho'kizning to'qimi ostidan topilgan o'g'il senga o'xshab buzuqi bo'ladi. Senday an'anani bilmas jon bo'ladi... "

Yo'l bo'yi nimanidir aytib kelayotgan Odiltoy ajo go'yo Elteres alpni qo'lga olib, tiz cho'ktirib, unga ichidagi gapni aytayotganday, shekilli. Urushdagi askarlarga nima bo'ldi? U qolgan askarlarning ahvoli qanday, deb o'ylanmadi. Faqat Elteres alpni qarg'adi. Tayyorlanishga imkon bermay kelgan qora dushmandan ranjidi.

Bu vaqtda endi jun chiqqan palaponday yumshoq ko'rpaga o'ranib, qimizdan olingan sharob ichib, qisir emdi qulunning o'rikday etini yeb yotardi. Ha, bunday g'ala-g'ovur kunlarda ajoning unday qilib yotishi oddiy fuqaroni azobga qo'yadi. Olisda yashirinib chegaraga kelgan dushman uning oq o'rdasiga o't qo'yadi. Ajolik taxtini bulg'aydi. Elining nomini qora qiladi. Ota-onalar va qiz-kelinlarni qayg'uga botiradi.

"Ko'p g'ozni boshlangan g'oz o'z naslini balodan qutqarib, qiyin yo'ldan olib chiqish yo'lini izlaydi. Chakalakzorga uya qo'ygan asalari ham o'z onasiga ergashib, birga uchib, onasidan adashmay uchadi.

Ha, bu Ko'k tangrining o'zi hamma jonzotga o'rgatgan ulug' odatdir. Qurt-qumursqadan tortib, o'rmonda ko'payadigan jonivorlar, suvdagi baliqlardan tortib, osmonda uchayotgan qushlar-u aqli bor odam o'g'ligacha Ko'k tangrining atab qo'ygan odati birday emasmi? Uni kim buzadi? Tun niqobi ostida hujum qiladigan, Elteresmi? Yo anovi ajdar zahrini qilichining tig'iga singdirib, begunohday ko'z qiri bilan qarab, yuvosh bo'lib o'tirib, paxta bilan mehmonini bo'g'izlagan tabg'achmi Tangri qonunini buzgan? Yo anovi tubutning Oyxon xonimi? Yo hindlarning oq o'rangan yalang'och boldir avliyo, pirimi? Yoki urum bilan purumning yoki undan nari tosh qal'asi, mustahkam temir dubulg'a kiygan shoxli alpi lashkar boshlagan chekkadagi yurt Ko'k Tangri yaratgan marosimni buzadimi? Ey, Tangri tuzgan odatni yerdagi nasllar buzolmaydi. Buzishga kuchi yetmaydi.

Biz, inson farzandlari, bir-birimizga el bo‘lmadik! Yot bo‘ldik! Birimiz g‘ingshigan tungi bo‘ri bo‘ldik. Birimiz tosh qo‘raga qamalgan begunoh qo‘y bo‘ldik. Ko‘k Tangri bizga to‘g‘ri yur, degan.

Yo, Tangrim, odam qanchalik semirgan sayin shunchalik zolim bo‘lishiga ko‘zimiz yetdi. Sen bizning avlodimizni qo‘lla. Yo, Tangrim, ularga aql ber, to‘g‘ri yo‘lga hidoyat qilgin. Semirgan kezda ham hovliqmasin...

Ey, hovliqqan Elteres, ildizi bir boy chinor edik. Sen endi boshqamisan, hovliqdingmi?! Seni Tangri o‘zi g‘azabiga olsin ...

Botmon temir ko‘targan alp qora jonini saqlay olmay o‘shanda shunqor bo‘ldi. O‘qday uchgan tulporlar qatorlashib yiqildilar. Yashil dalalarda suyaklar sochilib yotibdi. Sen o‘sha kunni ko‘rgin. Sherman, deb o‘zingcha maqtanma. Janchar bo‘yi qor yog‘ib, xaloyiq qor kurab, qor ostidan qolgan cho‘plarni yig‘ishtirib, molini boqib yotganda ayanchli uligan bo‘ri bo‘lding. Ey, halqumi buzuq. Bobomning ruhi tirik bo‘lsa, soqolimning oqi senga qilich bo‘lib uriladi”.

Yo‘l-yo‘lakay g‘azablanib, Elteresni la’natlab, ichida nimalarnidir aytib kelayotgan Odiltoy o‘zining holdan toygan qari ekanligini unutgan, uni go‘yo ko‘rinmas kuch qo‘llaganday bardam va g‘azabnok.

Qorni yirib kelayotgan otlar unda-bunda pishqiradi. Ularning burnidan chiqayotgan oq bug‘, ot terisi, odam nafasi go‘yo qirov bilan qoplanganday g‘alati bir manzara hosil bo‘lgan. Tun bo‘yi yurib kelayotgan yetti mingga yaqin qo‘shinning u chetidan bu chetigacha chiqayotgan bug‘, ko‘pik askar to‘ni, ot juniga o‘rnashib, go‘yo qirov tushib muzlaganday bo‘lib qoldi. Qo‘shin shoshilib yurishi, otlardan bug‘ chiqishini ko‘paytirdi, qaytadan iliq nafas purkab, Odiltoy boshlagan qo‘shin tezlab dushmanni qisib, kirib keldi.

O‘rtada ko‘k yalov hilpiraydi.

Hech qanday dupur-dupur yo‘q. Oldingi qatordagi otlar oldinga intilgan sayin quruq qor oq to‘lqin bo‘lib atrofga sochiladi.

Odiltoyning o‘ng yelkasini qoplagan oppoq soqoli birinchi bo‘lib Bosh teginga ko‘rindi. Hilpiragan ko‘k yalov ostida chayqa-

lib turgan oppoq soqol o'zi bir dasta oppoq qimmatbaho narsaday bo'lib ketdi-da, Bosh tegin ovozining boricha hayqirdi:

— E-he-hey! Bobomning oq soqoli qo'llasin!.. Elteres hayron bo'ldi...

Og'ir temirdek qo'zg'almas alpning tuyaday qora-qizil oti qorga tiqilib qoldi. Ko'zigacha qorga botib ketgan qora-qizil beli bukilib, yana o'rnidan turib ketdi. Hech narsadan qo'rqmaydigan Elteres alpning kuragiga nimadir sanchilganday bo'ldi. Xuddi shu payt dumli ikkita o'q qalqoniga tegdi.

O'q otganlar Sayqal onaning kamonchilari edi. Sayqal qiz bolaligidan ko'mirday qora otga minib, ot tepasida chalqanlagan holda kamondan o'q otib shug'ullangan.

— Kamonni qattiq tortinglar, baxtsizlarim! — dedi u atrofidagi mergan ayollarga. O'zi o'rgangan odatiga ko'ra, qora yo'rg'aning sag'risiga yotib, ustma-ust o'q uchiradi.

Hushtak chalib uchgan dumli o'qlar bir nafasda ustunlikni qo'lga oldi.

Ovuldan yordamga kelgan qo'shinni ko'rib, holsizlanib, qonsirab borayotgan askarlarga ham kuch kirdi.

Endi Elteres orqaga qocha boshladi. U ham it urushini boshladi ...

Ko'k yalov hilpirab olg'a jildi.

Shunday bo'lsa ham, jang tezda tugamadi. Ikkala qo'shin ham bir xil jang qilgan. Ikki qo'shinda qasoskor botir alplar bor. Ularni o'ksitgan qorning qalinligi. Otdan tushgan odam qorning ichiga kirib ketadi. Shunday bo'lsa ham, qanoti bilan yaratilgan yilqi nasli qorni kavshab, yana kuchga kiradi. Hamma jonivorlar ham bu mashaqqatga chidamadi. Jangchilar mingan otlarning ko'pchiligi bo'g'riqib, qorga tumshug'ini tirab, turolmay qoldi.

Jang kecha-yu kunduz davom etdi. Ko'p kishilar ajal topdi. Qorga ko'mildi. Har ikki tomonning ham holi quridi. Aslida bir tomon to'la qirg'in topmagunicha, bir taraf g'alaba qozonib, ikkinchi tomon to'liq mag'lub bo'lmaguncha jang to'xtamasdi. Lekin...

Bu safar ham ikki tomonni teng dovdiratib, birday zaiflashirib ikkiga bo'lgan Ko'k Tangrining buyuk qudrati bo'ldi, shekilli.

"Oh, odam bolasi. Aqlingni yig'. Men bir marta janchar bo'yi qor yog'dirgandim. Muzli dovonlarni oshib o'tadigan otlaring qorga tiqilib qoldi. Botmon temir ko'targan alping boltasini urolmay qoldi. Olti yil ketma-ket muz yog'sa, nima qilasan? O'n ikki yil qator qor to'ksam, qayerga borasan? Bir marta yuz yil davomida loyli to'lqinlar bilan qoplatdim. Anovi iliq tomonda shahar qurib, hunarni rivojlantirgan sening zurriyoting chiday olmadi. Ko'p tosh uylarini men to'kkan loy ichida qoldirib, o'zlari arang qochib qutulgan edi. Mening g'azabim kelsa, sen ojizsan, ey, maqtanchoq, bechora odam o'g'li", — deb Ko'k aytayotgandek.

Osmon tund edi ...

Urishayotgan ikki tomon ajralishga majbur bo'ldi.

Hovliqqan alplarning ko'ngli tinchidi. Kelgan yov olisdagi tabg'ach, quruy, tubut, olisdagi forsi, hindi bo'lsa boshqa edi...Unda boshqa yovga yengildik, deb odamlar qayg'uni bo'yniga olishardi. Azani astoydil kutishardi. Astoydil qayg'uga botib, bizning yurt katta yovga toqat berolmadi, otning tuyog'i sindi, yigitlarning qo'li qayishib qoldi. Keyin ilojsiz yengildik, chopildik, bo'zidik, to'zidik, — deb aytishardi.

Bularni yovlashishiga sendan men kammi, deb bir-biri bilan raqobatlashuvi sabab bo'ldi. Aslida, Elteres alp va donishmand yigit. Lekin u o'zini boshqalardan ustun qo'yadigan hasadgo'y alp. Quyosh nuri cho'qqiga erta tegadi. Alpga alp bo'ysunadi. Jazo bo'ronini men to'xtataman. Agar qilichimni qayrasam, meni kim to'xtatadi?! Mening orqamga o't. Ortimdan yur. Yov, yuzma-yuz chiq, boshingni olaman! — degan Elteres jang qo'msagan, qilichi o'tkir lashkarboshi. "Gapga ko'nmagan zo'rni qilich egadi", — degan shiori bor. Uning o'z otasi, katta bobosi ham lashkarboshi bo'lishgan. Katta janglarda qatnashgan. O'z yurtining dong'ini chiqargan alplar bo'lgan. Har doim, mana hozir qirni oshaman, deb kelayotib qirga yetolmay, yetsa ham, nari oshib ketolmay uxlab qolgan yo'lovchi kabi ular ko'zlagan katta maqsadlariga yetolmay o'ksib qolib yurishdi. U o'ksikka o'zlari aybdor. Nurli kundan keyin bexosdan chiqqan quyun kabi tinch yashagan yurtga yashirin hujum qiladi. U yerdagi odamlarni ayamasdan o'ldiradi, mulkini ayamasdan talaydi. Xuddi ana

shu yomon niyatlari borligi uchun o'ziga qo'shni ellardan tirak, tayanch topmadi. Atrofdagi ellarga o'zlarini yomon ko'rsatishdi. Qancha boy va kuchli ko'rinsa-da, yengilmaydiganday bo'lib kuchli hujum boshlashsa ham, oxirida ular ko'targan qilich o'zi sindi, tig'i qayrildi. Gohida esa, o'zlari zarba yeb, yengilib qolishardi. Qisqasi, bu askarlikning azaldan kelayotgan ko'rinishlari. Faqat Uchsuv yurti emas, boshqa yurtlarning boshidan o'tkazgan kurashlari shunga o'xshash. — "Yov bexosdan bosadi, o'lim so'ramay keladi", degan maqol shu atrofda yashagan ellarda har qachon aytiladi. Shu bir-biriga yaqin ellarning ichida qirg'iz otaning yurti chopishga o'ng'ay. O'g'il-qizi ot ustida askar bo'la turib, o'zi mo'min, yuvosh. Sababsiz urushni xohlamaydi. Tirikchilikni mehnat va hunar orqali o'tkazadi. "Ish qilsang — osh yeysan", deydi donishmand ajosi. Uchsuvning lashkarboshisi Elteres rizqni faqat tirikchilik bermaydi, deydi. Alpning katta boyligi bu — o'lja. Urushga otlanib, o'lja topib, xonning xazinasini oltin, kumushga to'ldirib turmagan lashkarboshi — uydagi xotinining ermagi. Ot bosqinda sovimasa, erkak jangda pishmasa, ikkovini ham moy bosadi. Moy bosgandan keyin ot kasallanadi, erkak zerikadigan bo'lib qoladi. Kasallangan ot chopolmaydi, zerikan erkak qilich ko'tara olmaydi. Chopmagan ot — so'qim, qilich ko'tarmagan erkakka o'lim... Elteresning bobolari bu hikmatli so'zlarni jo'n so'z sifatida gapirishmadi. Shu gaplarni aytib, erkaklarning oriyatini keltirib, ularni jangga tayyorlab, mashq qildirardi. Bobolarining xuddi shu odatini davom ettirib, ular yetolmay qolgan orzulariga men yetaman, degan Elteres qo'shinga bosh bo'lgandan beri qilgan janglarida yengilgan emas. Elteresning qo'shini jangdan doimo o'lja bilan qaytgan.

Bizning Elteres alp chiqdi,
Egilmaydigan arslon chiqdi.
Boshqa alplarni no'yon qilib, bukdi ...

O'ynab yurgan tentak bolalar shunday kuylashdi. Chevar qizlar Elteres alpning qahramonligiga atab sovg'a sifatida kashta tikishdi.

Bukchaygan kampirlar Elteresni olqishlashdi. Xonlari va beklari bo'lsa, Elteresni ichida ayblab, sirtida hurmat ko'rsatishdi. Jang maydonida doimo yo'lini ochgan ko'ktoshga qilichini qayradi.

— Agar men oldinroq harakat qilib uning boshini olmasam, boshi omon harakat qilib, mening boshimni oladi. Men o'zim yakka emasman, men g'azabman, elim, — deb aytgan Elteres haqiqatan ham, katta qo'shinini jangovar qilib tarbiyalagan.

— Bobom oshmagan dovonni men oshaman! Yolg'iz osha olmayman. Senga suyanib oshaman, elim!

Mard lashkarboshining bu chaqirig'i ot yolini tortgan yigitlarning e'tiborini jalb qildi. Unga ergashganlar jang qilishni xohlashdi ...

Ikki qilich bir qinga sig'maydi, deganday o'sha jangni xohlab, avjiga chiqqan Elteres endi o'ziga teng keladigan raqib izlay boshladi. Oxiri u ko'zi o'tgan Er Qulchurning o'g'li Bosh tegin va Erkishining qo'shini o'ziga mos keladigan raqib, deb mo'ljalladi. Ular bilan yo ittifoq bo'lishini, yoki yovlasharini bilmay, boshi garang bo'ldi.

Shu sababdan uning o'nboshilari, ellikboshilari chegaraning turli joylarida kuzatuvda, urinarga tog', urisharga yov topolmay, kuchini qayerga sarflashlarini bilmay yurishardi. Boshqa eldan kichikroq qo'shin uchrab qolsa, unga hujum qildi. Safarlarda uzoq yo'l yurib charchagan, uyqusirab zo'rg'a kelayotgan karvon uchrasa, uni ham talashdi.

Chegaraning u yoki bu joylarida bitta-yarimta botirni qo'lga tushirib, bog'lab olish Elteres alpning askarlari uchun odat bo'lib qoldi. Bu haqiqatan ham, odatdan tashqari holat, beboshlik. Bunday ishni eldan ketgan, qir kezib talonchilikni o'zlariga kasb qilib olgan qaroqchilar to'dasi qiladi. Yoki bo'lmasa, atayin urush chiqarishni xohlagan janjalkash lashkarboshining kuzatuvdagi askarlari qiladi.

To'g'risini aytganda, Elteres qir kezib yurgan talonchi emas. U ko'p qo'shin tuzib, ko'p marta lashkarga boshchilik qilib, urushda sinalgan alp lashkarboshi.

Uning maqsadi o'zining, yurtining obro'sini ko'tarish dong'ini chiqarishdir. O'z yurtiga boylik, yer va suv olib berish. Elteres alp

yillar davomida kuchayib bordi. U kuchaygan sari boshqalarga tegisha boshladi. Elteres dimog'dor tabg'achda bitmas-tuganmas boylik bor, oltin, kumush, yumshoq ipak va qimmatbaho toshlar hammasi o'sha tabg'achda, deb biladi. Uning qal'asi baland, ot oshib o'tolmaydi, uylarini esa bo'ron uchirolmaydi. O'qigani kitob, o'lganni tiriltira oladigan shifokorlari bor. Sehrgari ko'p, kun ochiq paytida yomg'ir yog'diradigan odamlari bor. O'sha qadimiy yurt tabg'ach faqat Elteresning emas, balki ot yoliga qozon osgan ko'chmanchi ellarning barchasining asosiy dushmani — shu tabg'ach. Unga qarshi borish barcha kuchli lashkarboshilarning Ko'kdan tilagani. Biroq ularning ko'p o'z orzulariga yetmay o'ksib qolishadi. Qanday bo'lsa ham, kuchli yovni unga teng keladigan qudratli lashkarboshi bo'ysundiradi. Hozir o'sha qudratli lashkar oq yalov ko'targan ko'p urug' Elteresmi? E, yo'q. Unda ko'k yalov ko'targan qirq urug' qirg'izmi? Yo'q. Unda aholisi ko'p qarluqmi, o'n o'q, turgashmi? Yo'q, yo'q. Bo'lmasa, hiylagar, kuchli yovning qonli qilichini kim to'sa oladi? Ular qanday qilib to'sishadi? Ha, ha. Ular qanday qilganda, yovning to'silishini o'sha har bir urug'ning donishmandlari har doim aytishadi. Hamma urug'lar birlashishi kerak. Bir shiorning ostida otlansak, yengamiz, deyishadi. Bu aytilgan dono so'zlarni qora niyatli hovliqmalarning harakatlari buzadi. Xuddi mana shu Elteres alp chegarani bosganday ko'p urug' bir-biriga tosh otadi. Qadimiy Koraxon o'g'li O'g'uzxon alpdan buyon shu ko'p urug' birlashgandagina tabg'ach ko'targan qilichni o'z qilichlari bilan to'sishga qudrati yetardi. Ot tuyog'i ostidan to'zon ko'tarilardi. Osmon bilan yer o'rtasini tuman bosib, dahshatli voqealar boshlanib ketardi. Tabg'achning chegarasigacha yetib borilardi. Ularning askarlari holdan toyib qolishganda ularning bosh xoni — osmon o'g'li oraga elchisini solardi. Sariq oltinini, momiq shoyisini tortiq qilib berardi. Yengilib qolish xavfi paydo bo'lsa, ko'p navkarlari, qullari, qimmatbaho seplari bilan suluv qizini botir lashkarboshiga berib qudalashardi. Bu har zamonda —ellik yildami, yuz yildami, ikki yuz yildami shunday katta jang va shunday obro'-e'tiborga ega bo'lish tarixda bor. O'sha katta janglardan keyingi bo'lgan obro'-e'tibor keyingi avlodlarga faxr bo'lib o'tib kelardi.

Keyingi yillarda ajdodlar chaqirig'ini bajarishga intilganlar: qirg'izdan Er Qulchur, qarluqdan alp Barsqan, Uchsuv yurtidan Elteres sher bo'ldi. Er Qulchur maqsadiga yetmay o'lib ketdi. Uning nasli Bosh tegin bobo yo'lidan ketadimi, yo'qmi, hozircha noma'lum. Barsqan botirning eli kambag'alroq, ozroq, qo'li qisqa. U ilojsizlikdan tishini tishiga qo'yib, katta yurtga yuzma-yuz chiqolmay zo'rg'a yurgan payti. Elteres kuchni mustahkamlab, tabg'achga qarshi otlansam, men otlanaman, bobolar dong'ini ko'tarib, tabg'ach qo'shinini to'ssam, men to'saman, deb o'zi-chasiga hovliqib, dambadan oshib tushadigan toshqinday chaypalib turganda, chegarada qo'lga tushgan azning Kergen degan odami Bosh teginni unga yomonladi. Kergenning aytishicha, Bosh tegin qo'shin to'plab, bahor kelishidan oldinroq Uchsuvni bosib olgani tayyorlanyapti. Uchsuvning tartibga bo'ysunmaydigan Elteresini bo'ysundirib, keyin tabg'achga yurish qilaman, der ekan, deb aytgan Kergen Elteresni ko'nglini Bosh teginga burdi. Fitnaga tez ishongan Elteres kuvga kirgan bo'g'raday quturdi:

— Mardning odati — yo'lini to'sgan yovning boshini tanasidan judo qilish! Bosh tegin mening yo'limni to'ssa, men uning boshini olaman, — deydi-da, tabg'achga qarshi qayragan qilichini Elteres endi qirg'iz tomonga qaratdi.

U qo'shinini yig'ib, yovga qarshi yo'lga chiqaman, deb turganda hamma yoqni qor bosdi. Qish sovug'i boshlandi. Qorninng qalin tushganidan Elteres qo'shini xavfsiradi. Bu yomon alomat. Ko'k Tangri bizni ogohlantiryapti. Tizginni qayta ilaylik, deb Salim donishmand Elteresga maslahat berdi. O'zi ham "Bu yomon alomat", deb ichidan xavfsirab turgan Elteres donishmandning maslahatiga kirib, qo'shinni qaytargisi keldi.

Biroq yo'lga boshlangan qo'shin hech qanday urushsiz qaytishi ham yaxshi narsa emas, deb o'ylanib turgan Elteresni o'zidan qo'rqqan Kergen gij-gijladi:

— Yurish boshlandi. Boshlangan yurishni hujumsiz qaytarish — bu kamonni o'qsiz otishga o'xshagan gap. O'qsiz kamon tortish esa alpning yulduzi o'chishidan darak beradi. Yulduzing o'chmasin, Eltetes alp. Qirg'izga boradigan yashirin yo'lni men bilaman. Yashirin yo'lni bilish bu yovni qo'rqitish bilan teng.

O‘g‘ri yo‘ldan borib, Oqtermel bilan yovning bo‘ynidan bosing, alp. Arslon aniq sakraganda atan jon talashib qoladi. Jon talashadi emas, u o‘rnida o‘ladi. Shunday qilganingda yoving qiriladi. Mening az yurtimga tayanch bo‘ling. O‘shanda azning begi bo‘lib orqangdan ergashib, chang chiqarib yursam edi, — degan Kergen.

Uning gapi ikkilanib turgan Elteresni yurishga boshlagan. Elteres yurishdan hech narsasiz qaytaman, deb o‘ylamagandi. Yovni to‘satdan bosaman, o‘ljani mo‘l olaman, kuchimni orttiraman, qirilgan dushman qo‘shinining qolgani oldimda tiz cho‘kadi, tiz cho‘kkani askarim, tiz cho‘kmagani chopiladi, Odiltoyning o‘g‘li — qul, qizi — cho‘ri, Uchsuvning har bir oilasi qul, cho‘ri ishlatadi, deb o‘ylagan. Elteres qancha kuch ishlatsa ham, o‘ylagan maqsadiga yeta olmadi. To‘satdan bostirib borganiga qaramay Bosh teginnning askari oz bo‘lsa ham, qattiq qarshilik ko‘rsatdi. Ular qirilgan sayin alvastining qoni kabi yana ko‘payishayotganday, kuchi yanada ko‘payayotganday tasavvur hosil bo‘lardi. Haybati kuchli pirli Odiltoy bobo askarlarini boshlab kelganda Elteres qo‘shinini vahima bosdi. Alp o‘z boshlab haybatda, kelgan kuchdan cho‘chidi. O‘shandan keyin Elteres it urush usulini qo‘llab orqaga chekina boshladi. Oziq tishlari bir-biriga kirishib ketgan yirtqichlarning bir-biridan ajrashishi qiyin bo‘lib, ajrashgandan keyin bir-biriga tashlana olmay turib qolgandek urishayotgan ikki taraf ham ilojsizlikdan hujumlarini to‘xtatishdi. Urushning natijasi shunday bo‘lishi Odiltoy uchun ancha yaxshi bo‘ldi. Chegara buzilib, chetdagi ovullar talangani bilan ko‘p urug‘ omon qolgan. Ajoning oq o‘rdasi omon. Sayqalning o‘qiga Elteres alpning yarador bo‘lgani ma’lum bo‘lganda, Bosh teginning martabasi oshdi.

— Er otasining yo‘qligini mergan onasi bildirmadi. Ha-ha, yesiri yovni otgan yurtga Elteres qo‘l solib, jinni bo‘lganmi?

Oq qorlarni yopinib,
Elteres alp dovon oshib,
Uyqudagi qo‘shinni
O‘g‘riday oldi bosib.

O‘g‘ri hech ham alp bo‘lmas.
Alp bo‘lsa ham, arslon emas.
Kamon o‘qtalsa onam
Qo‘rqib ketdi Elteres.

Qir oshguncha shoshdi u,
Dumin tugib qochdi u.
Alpligi ham chirmanda
Qochgan qulday sharmanda.

degan qo‘shiq el ichiga tarqaldi ...

Darhaqiqat, bu safar qochgan qo‘shini tog‘ tizmasini oshib, o‘zining osmonda charaqlab turgan yulduzday obro‘si tushib, ham yarador, ham g‘azablangan Elteres Qorato‘riq qorga botib bosolmay qolganda ot almashtirib minib bor qahrini o‘zini yo‘ldan adashtirgan Kergenga sochdi:

— E-ey, anovi eng katta yovni chopib tashla! —dedi Elteres o‘nboshiga Kergenni ko‘rsatib. Qahraton sovuqda Elteresning g‘azabli ovozi yaqinroqda borayotgan Kergenge aniq eshitildi. Yuzidan qoni qochib sarg‘ayib ketgan Kergenni o‘nboshining askarlari o‘rab oldi. Qo‘rqib ketgan Kergenning ovozi ayanchli chiqdi:

— Jo-on, alp, nima desang, qilay, orqangda eshing bo‘lay, uyingda o‘t yoqqan quling bo‘lay, meni o‘ldirma. Rahming kelsin, alpim.

Usiz ham kechagi jangda g‘azabi kelib qolgan o‘nboshi Kergenni chiqarmay qo‘ydi:

— Ey, iflos, alpning so‘zi bitta bo‘ladi. Tangriga yalin.

O‘nboshining oyboltasi Kergenning bo‘yniga aniq urildi. U otdan qulab tushdi. Uning boshi qorning ichiga kirib ketdi.

— O‘zining odatlarini tongan bosh mana shunday dalada qoladi, — dedi oybolta ko‘targan askar g‘ijinib.

Kelayotgandagi kuchli qo‘shin titilgan junday bo‘shashib ko‘rinar, kuchsizlanib qolgan otlar esa qorga botib, arang yurib, chuvashib ketishardi.

BOBONING ODATI

Boboning odati kelajak nasllarga namunadir.
Qadimgi maqol

Ularning (qirg'izlarning) qonunlari juda qattiq. Urush oldidan ishni buzayotganlarning, elchilik vazifalarini bajarmaganlarning, ajoga teskari maslahat berganlarning, shuningdek, o'g'rilarning boshlari olinadi. O'g'rining kesilgan boshini otasi o'lguncha bo'yniga osib yuradi.

N. Ya. Bichurin

"Oh, shamolim. Bu qonni qilichimdan artib tashla! Po'latda dog' qolmasin!" — deganlariday vaqt o'tishi bilan katta janglarda sodir bo'lgan qirg'in ertakka aylanadi. Tez orada o'sha janglardan qolgan g'azabli xotiralar ham unutiladi... Yer-suv hech narsa bo'lmaganday yashillikka burkanadi, atrof go'zallashadi, o'rmonlar chayqalib turadi.

Kecha qon ko'p to'kilgan jilg'alar, dala-tuzlarni bugun yashil o'tlar qoplagan. Tuproq unumdorligi oshib, unda ildiz otgan o'simliklarning avji boshqacha, ular buralib, shiddat bilan o'sayotganday tuyiladi.

Boychechaklar turli ranglarni ko'z-ko'z qiladi, chiroyli gullaydi, ko'zni qamashtiradi. Gulli, o'tloq yaylovlarda mollar bemalol o'tlab yuradi.

Ko'm-ko'k maysaga burkangan kichikroq tekislikda qiy-chuv qilib yurgan bolalarning qizargan boldirlariga o't-o'lanlar o'raladi, gullar tegadi. Qizlar chiroyli gullarni tomosha qilishadi.

O'o', xuddi shu falokat va ajal yonma-yon yuradigan bu toshbag'ir dunyoda kecha, Elteres qo'shinidan qirilgan qirg'izni yana bir falokat bosdi. Qayg'u ustiga qayg'u keldi. Usiz ham yoshi yetib qolgan Odiltoy ajo yurtning chegarasi buzilib, el bosqinda qolganda qiynaldi, ruhiy azob chekdi. Ajo o'rnidan turolmay, emaklab qolgan, o'limini kutib g'amga botgan kunlari ham bo'ldi. "Ey, Ko'k Tangri! Sen meni kuchdan ketib, holsiz bo'lib qolganida elning qayg'usiga botsin, deganmiding? Bunga chidayman. Qayg'uga cho'kib ketmayman. Ko'p yashab, ko'p kuchimni sarflab, ko'p taomlanib, ko'p ajoyib narsalarni ko'rib donishmand bo'ldim. Endi oq tilagimni aytib, yurtimga kuch berayin!"

Shu g‘ayrati bilan Odiltoy bobo o‘rdaga eng yaqin kishilarini chaqirtirdi. Ular — nevarasi Bosh tegin, Erkishi, Azman abo, Chekir biy, Umay ona, Sayqal ona, Yo‘lbars, Bars, Buylash.

O‘rdaning bezaklari ilgarigiday odamni o‘ziga tortadi. O‘rtadagi kumush tulg‘ada tabarruk o‘t yonib, o‘rdaning ichida hamon ipor hidi anqiydi.

To‘rda yengilmaslikning belgisi — alp dubulg‘asi bulutlar ostida, yer ustida uchib kelayotganday... Yagona o‘zgarish, yagona yangilik — ostona ustiga ilingan ko‘k bayroqcha. Bayroqchaning pastki chetida qora hoshiya yopishtirilgan. Sopi baland, bayroqcha esa pastga tushirilgan. Bu yurti qirilib, elga qayg‘u kelganda aza tutish belgisi. O‘sha yurt ajosining o‘rdasiga motam, qayg‘u belgisi bo‘lib, bo‘sag‘aga ilinadigan bayroq. Odam betob bo‘lsa, uning kasalligini olib ketsin, deb o‘sha betob kishiga o‘xshatib qo‘g‘irchoq yasab, uni ko‘chirib, keyin o‘rtab yuborish bu bir kishining o‘zi uchun qilinadigan irim hisoblanadi. Butun yurtga qilinadigan irim o‘sha yurtning boshchisi, ajosi, yoki xoni, donishmandi, lashkarboshisining uyiga yurt qayg‘usi falokatini ko‘chirish sifatida shunday motam belgisi bo‘sag‘aga ilinsa, qirg‘inga uchrab, qayg‘uga botgan bu yurt qaytadan kuch olib, askar to‘plab, yovdan o‘chini olar, deb shu motam bayroqchasini o‘rtadagi yallig‘langan archa oloviga tashlab, ajo keyin otlanadi. Hamma falokat shu motam bayrog‘i bilan birga kuyib ketdi. Endi navbat bizga keldi. Endi biz qilichni baland ko‘taramiz. Yovni qiramiz, yengamiz. Qayg‘u va motam bayrog‘i endi yovning eshiklariga ilinadi, degan irim.

Qizil kimxob to‘n kiyib, oltin kamarni tortib bog‘lab, taxtida o‘tirgan Odiltoy ajo bemalol o‘tirib, o‘ng qo‘lini yo‘g‘on soniga tayanib turadiganday oldiga to‘g‘ri qarab, o‘ktam ovozda yorlig‘ini aytdi:

— So‘zim haq — el-yurt g‘ami! Kechagina anovi Elteres hovliqib bizga qilich urdi. Bir shoxim og‘ridi, lekin singani yo‘q. Qahraton va qahrli qish ham o‘tdi. Oriq mol semirdi. Yov yulduzimni tushirmoqchi bo‘ldi, lekin o‘chira olmadi. Endi o‘ch oladigan vaqt keldi. Otam qirg‘iz o‘lgan ham tiriladi, qirilgan ham ko‘payadi, tugagan yana tutaydi, derdi. Elteresning qilichi ham sinadi. Men aytdim. Sinadi, deb sizlarning bobonglar aytdi, deb eshitinglar! El-

teresni men el qilayin, desam, u o‘zi yovlashdi. Endi unga qayg‘u o‘zi borsin. Mening qilichim unga urilsin. Aza bayrog‘i uning bo‘sag‘asiga ilinsin. Mening qilichim sizlarda. Motam bayrog‘ini yovning bo‘sag‘asiga ilinglar. Lashkar ertaga otlansin.

Erkishi boshlab Azman abo, Chekir biy hammasi ajoning taxtiga qarab ta’zim qilishdi.

— Yorliqni eshitdik, tabarruk bobo!

Yolg‘izgina Umay ona ta’zim qilmadi. U yurt onasi sifatida donishmand ajoga kuch berib turgan tasvirga o‘xshab, to‘g‘ri qarab turar, qimirlamasdi. Umay onaning oqish tortgan yuzi ham, kiygan kiyimi ham toza, ko‘zga tashlanadigan. O‘ng qo‘lini iyagigacha ko‘tarsa, sal bukilganroq barmoqlari qaltiraganday ko‘rinadi. Ozg‘inroq iriniari bilq-bilq etib qimirlab, ichida gapirganday tuyiladi. Biroq og‘zidan so‘z chiqmaydi. Odiltoy bobo gapini davom ettirdi:

— Qo‘rqmas er qilichini qo‘rqoq jonboqar o‘tmas qiladi. Bo‘ri tekkan mol yarador, yovni yenggan yurt mulkdor. Yarador jonni qayg‘u bosmasin. U kuch olish uchun katta-kichik, yaxshi-yomon hammasi g‘ing demay bosh egsin. Ajoni eshitmagan yovga bo‘ysunadi. — Odiltoy Umay onaga qaradi. — Ey, yurt onasi, men aytganlarni aniq eshitgin. Har bir gapni ko‘nglingga tugib ol. Keyin harf o‘qigan chevarlaringga aytib, ipakka kashta qilib tiktir. — Ajo Azmanga yuz burdi: — Sen abolarimning eng donishmandi Azman, men aytayotgan gaplarni aniq eshitgin. Birini ham buzmay yuragingga tug. Harf o‘qigan ustaga toshga yozdir. Abadiy qolsin.

Ajo Erkishiga va boshqa botirlarga umumiy qilib aytdi:

— Ey, yurtimining botir alplari, qo‘rqmas lashkarboshilari, sizlar men hozir aytadigan gaplarimni aniq eshitinglar. Bir so‘zini qoldirmasdan ko‘nglingizga tugib olinglar. Katta-kichik askarlarga yetkazinglar.

Odiltoy endi taxtdan turdi-da, tantanali ravishda qasam ichayotganday bosiqlik bilan dedi:

— Ilon yili o‘tdi. Inson farzandining qanoti bo‘lgan yilqi yili kishnab turgan kezda... bugun taka oyi[1]ning beshinchisida men sizlarga qadimgi bobolar bajargan marosimni eslatdim.

[1] **Taka oyi** —iyun oyi.

— Birinchi aytganim — yengilgan yurt sochilib ketmaydi. Yengilgan yurt tabarruk bobolarning qonunini qo'llasa, tezda o'ziga keladi. Tez o'chini oladi va tezda rivojlanadi.

— Ikkinchi aytganim — yengilgan yurtning yomon o'g'il-qizlari qo'rqoq bo'ladi. Qo'rqoq o'g'il-qiz bobolarning naslidan emas. Uni arvoh qahriga oladi.

— Uchinchi aytganim — yengilgan yurtning yaxshi o'g'il-qizlari qo'rqmas bo'ladi. Qo'rqmas o'g'il-qiz bobolar yo'lidan ketadi. Uni arvoh ham qo'llaydi.

— To'rtinchi aytganim — yengilgan yurtni boshqa el kamsitadi. Uning muqaddas yerlarini oyoq osti qiladi, suvini bulg'aydi.

— Beshinchi aytganim — yengilgan yurt kam bo'lib, xo'rlanmayin desa, qo'rqoq o'g'il-qizi qo'rqmas bo'lishi, tarqaganni to'plashi, muqaddas yerlariga, suviga o'zi ega bo'lishi kerak. Jangga minadigan otini bedaka cho'pini berib semirtiradi, oyboltasini toblaydi, qilichini ko'ktoshga qayraydi, yurishga otlanadi.

Biz, inson farzandi, yer yuziga kelgandan beri qancha og'ir kunlarni boshimizdan kechirdik. Inson o'ziga o'zi kuchli yov bo'ldi. O'zini o'zi qirdi, taladi, mol-mulkini o'lja qildi, farzandlarini qul qilib sotdi. Lekin inson nasli batamom qirilib qolmadi. Qayta to'plandi, qayta kuch oldi. Biz ham qayta kuch olamiz.

Uning uchun:

— Birinchi aytganim — bizning naslimiz betob bo'lib, uyda o'lishni xohlamagan. Qo'rqib yovdan qochib, so'yilib o'lganni yomon ko'rgan, la'natlagan. Mard o'g'il va mard qiz qochib o'lgan emas, otib o'lgan. Yolg'iz qolsang, holsizman, dema. Holdan toysang, o'laman, dema. Kurashib, yov qo'lida o'lsang, tabarruksan. Sening muqaddas ruhing bobongning muqaddas arvohiga yorug' yuz bilan qo'shiladi. Yovdan qochib, qo'rqib o'lsang, sening qo'rqoq arvohing surat bo'lib cho'lda kezadi, qayg'u bosib, yig'lab-siqtab yuradi.

— Ikkinchi aytganim — urushda askarlarning kuchiga ishonmay, yovni kuchli hisoblagan kishi, boshqaga elchilikka borib burchini bajarmay kelgan kishi, ajoga teskari maslahat berib marosimni buzgan kishi, lashkarboshining buyrug'idan bosh tortgan kishi, mol o'tlaydigan yaylovlarga, ovul turgan joylarga o't qo'ygan

kishi, yurishga tayyorgarlik ko‘rmay o‘zining qorni bilan ovora bo‘lgan kishi, yurish paytida ozuqa zaxirasini saqlay olmagan, otini boqa olmagan askar, birovning ovqatini o‘g‘irlagan o‘g‘ri — shular haromdir.

— Uchinchi aytganim — harom kishining tortadigan jazosi bitta — bo‘g‘izlanadi. Hozirgi aytadiganim bu alohida so‘z: o‘g‘irlik — kishiga to‘g‘ri kelmaydigan eng iflos ish. O‘g‘ri tabarruk yerda yurib, toza suvni ichib, odamlar bilan birga yursa, uning ochko‘zligi boshqalarga yuqadi. Uloq o‘g‘irlaganning ko‘rsatkich barmog‘i kesilsin, qo‘zi o‘g‘irlaganning barmog‘i kesilsin, qo‘y o‘g‘irlaganning qo‘li kesilsin, ot, tuya o‘g‘irlagan bo‘g‘izlansin. O‘g‘irlikdan qolmay, ayb ustiga ayb qilib, hunarini qo‘ymay o‘g‘irlik qila bersa, uning kesilgan boshi otasining bo‘yniga ilinsin. Bolasini o‘g‘ri qilib tarbiyalagan otaning jazosi shu.

Hozirgi aytadiganim bu yomon so‘z:

— Yolg‘on — elni buzadi. Og‘a-inining o‘rtasida ittifoqchilikni buzgan yolg‘onchining pastki labi kesilsin. Ajo, abo, botir, xon, bek va lashkarboshi haqida yolg‘on gap tarqatgan yolg‘onchining tili kesilsin, o‘z el-yurti haqida yolg‘on ma’lumotlarni tarqatgan haromxo‘r bo‘g‘izlansin.

Hozirgi aytadiganim bu harom so‘z:

— To‘polon kunlarda yomon odam iloj izlaydi. U o‘z harom jonini saqlayman, deydi, yovga sotiladi. O‘z yurtini tashlab, yovga sotilish inson farzandining qilgan hamma jinoyatlarining eng og‘iri va eng harom ishi. Unday harom ishni eng harom odam qiladi. El-yurtidan ketish bu onasini sotishdir. Ona bola uchun muqaddasdir.

Aytadiganim — shu harom ishni qilgan odam — bo‘g‘izlansin. Uning ota-onasi, og‘a-qarindoshlari butun huquqlaridan mahrum qilinib, o‘z el-yurtining oldida qul va cho‘ri bo‘ladi.

Tabarruk so‘z:

— Usti ochiq Ko‘k, hosildor, bag‘ri keng yer yaralib, odam bolasi yer yuziga kelib, boshqa jonivorlardan aqli bilan yuqori bo‘ldi, tabarruk bo‘ldi. Bo‘ri bo‘ri bo‘lganligi uchun titishadi, it

itligi uchun bir-birini qopadi. Inson bolasi titishmasligi va bir-biri bilan qopishmasligi kerak edi. Tabarruk yer inson farzandidan shuni kutgandi.

Yana bir aytganim — odam bolasi yer yuziga kelganda och-to'q bo'ldi. Ozdi, adashdi. Yolg'iz qolgan o'g'il-qiz bo'ri emchagini emdi. Yerga tushgan urug' tomir otib ketadi.

Odam bolasida ikki kishining janjali ham, ikki urug'ning jangi ham shu bo'ri tabiatidan kelib chiqdi. Bu odam farzandiga chetdan kelgan falokat. Inson farzandi bu falokatdan forig' bo'lsa, yaxshi edi. U yolg'on aytdi. Qo'rqoq bo'ldi, ochko'zlik qildi. Bu yomon ishlar odam farzandida avval yo'q edi.

Ikkinchi aytganim — o'sha yomon ishlarni muqaddas O'tga solib kuydirib tashlang. Odam bolasi muqaddas! Yomon ishlardan ehtiyot bo'ling, deb ayting.

Hammang eshit.

Bu men aytgan gap — bobo topshirgan an'ana!

Biz yomon ishga aldansak, boshimizga qayg'u uyamiz!

Ertaga tashvishli kunlar keladi, yurtim. O'sha paytda bir yengdan qo'l, bir yoqadan bosh chiqarmasang, qayg'uga botasan.

Bobo an'anasini chin dildan eshiting. Inson farzandining muqaddas ishlarini boshlang, hammang ertaga muqaddas yurishga bir bo'lib otlaning!

Uydagilar ajoga ta'zim qilishdi.

— Askar yarog'ini bering, o'g'lim!- dedi Odiltoy. Bosh tegin ajo qilichini olib bobosining ikki kaftiga qo'ydi. Ajo qilichni ushlab oldiga ko'tardi:

— Muqaddas bobo ruhi menga topshirdi. Men endi bu bag'ri keng yer ustida yurmayman! Meni shunqor bo'ldi, deb hammang muk tushib yotib olma. Tirik ruhim sizlarga bulut ostidan kuch beradi.

Erkishi bobo qilichini o'pdi:

— Fikrimga yomon o'y kelsa, qo'limdan yomon ish kelsa, unda Erkishi emasman. Qora bo'lsam, oq po'lat qilichning tig'i ursin. Bobolar qonunini aniq bajaraman.

Azman abo qilichni o'pdi:

— Men ajoning bosh abosi Azmanman. O‘rdada ajo oldida, yig‘inlarda odamlar orasida, yurt oldida qora bo‘lsam, yurtga abo emasman. Meni oq po‘lat qilichning tig‘i ursin. Bobolar qonunini aniq bajaraman.

Chekir biy qilichni o‘pdi:

— Men ajomning so‘l qo‘li Chekirbiy, o‘rdada ajo oldida, yig‘inlarda odamlar orasida, yurt oldida qora bo‘lsam, yurtning biyi emasman. Meni oq po‘lat qilichning tig‘i ursin. Bobolar qonunini aniq bajaraman.

Bars, Yo‘lbars va Buylash teng kelishib, bobo qilichini o‘pishdi.

— Biz yurishda, askarlarning oldida yurganda, kuzatuvda yurt chegarasida bo‘lganimizda, qora bo‘lsak, lashkarboshi emasmiz. Bizni bobo quroli oq po‘lat qilichning tig‘i ursin! Bobo an’anasini aniq bajaramiz.

Bosh tegin bobo qilichini o‘pdi:

— Men o‘z bobom ajomga qora bo‘lsam, ajoning avlodi emasman. Meni oq po‘lat qilichning tig‘i ursin! Bobo an’anasini aniq bajaraman.

Umay ona qilichning tig‘iga uch barmog‘ining uchini tegizdi:

— Yurtning egasi, mening arslonim, sen topshirgan an’anani eshitdim. Bu an’ana orqali o‘g‘il-qizim unib-o‘sishiga guvoh bo‘ldim.

Kim qora bo‘lsa, uni oq sutim uradi! ...Odiltoy ajoning ovozi zo‘rg‘a eshitildi:

— Xayr, yo‘ling ochilsin, o‘g‘lim...

Erkishining kipriklaridan achchiq ko‘z yoshlari oqdi. Sayqal ona burilib nariroqqa bordi. Yosh tegin bobolarning qurolini bobosi Odiltoy ajoning qo‘lidan oldi-da, po‘lat qilichni kumush qiniga soldi...

... O‘rdada sukunat hukm surmoqda. Bu qayg‘uni, afsus va nadomatni yo‘qotishga intilgan saltanatning tantanasi.

SAYQALNING O‘RDASIDA

Oltmish kelin, qirq qizga,
Olti qator o‘ratib,
Qirq bir kundan shiratib,
Yoqmaganin so‘kdirib,
Tovoq, tovoq po‘latga,
Albars[1] *qirib aralash*
Orasiga to‘kdirib.
Kiyganning ko‘nglin tindirgan,
Yovga loyiq qildirgan.
Shunday ishga yo‘llagan,
Barining orasiga
Xiyladan o‘qni joylagan.
Ichki-tashqi sakkiz to‘n,
Uni kiyib tursangiz.
Hay-haylagan dushmanning,
Ustiga tashlansangiz.
Oxiri sening o‘zingga,
Ajali yetgan yopishar.
Oybolta bilan bir solsa,
Oltmish joydan otilar.
Ajal-la o‘zi topishar.

Manasdan

Qadimgi qirg‘iz madaniyatining eng yaxshi yutug‘i uning o‘z yozuviga ega bo‘lganligidir.

Sibir tarixi

Sayqal onaning saroyi shu kunlarda chevarlar bilan gavjum. Sayqal ona o‘z taxtida. Uning o‘ng tomonida, chap tomonida qator o‘tirishib ilgari kashta tikishgan chevarlar hozir tinim bilmay kecha-yu kunduz askarlarning kiyimlarini bichib, askarlar uchun kiyim tikishmoqda. Guppi to‘n, o‘lpo‘q[2] to‘n, badana[3], qandag‘ay[4]

[1] **Albars** — toza po‘lat.

[2] **O‘lpo‘q to‘n** — junni qalin solib tikilgan to‘n.

[3] **Badana** — o‘q o‘tmas to‘n.

[4] **Qandag‘ay** — tog‘ takasi, bag‘ish kabi terisi qalin hayvonlarining terisidan tayyorlangan xalq o‘yinlarida kiyiladigan shim.

shim, shirima chakmon[1], qanday bo'lsa ham yengishda ham, sayishda ham yengil va pishiq kiyimlarni tikishmoqda. Sayqal o'zi taxtdan o'tirgani bilan ish bilan ovora, faqat ishlayotganlarga ko'z solib turadi. Yoshi o'tib qolganiga qaramay, hozir ham barmog'ida angishvona tushirmaydigan Sayqal ona chevarlarning, ignachilarning ustasi yoshligida ot ustida kamon tortgan askar, uyda igna sanchgan chevar bo'lgan qadimgi chevarlik san'atini davom ettirgan ustozdan ta'lim olgan. Sayqal tikkan kashta uzilmaydi, Sayqal chevar tikkan to'nning jiyagi eskirguncha chiqib ketmaydi, deb chevarlarga namuna bo'lib "Sayqal kashtachiday usta chevar bo'ling. Chevar qo'lida bitgan ish askarga yordam", degan so'zlar qiz-kelinlar orasida ko'p gapirilardi.

O'sha chevar hozir Sayqal ona, yurt oyimi bo'lib, Er Qulchurning o'rdasida ish yuritib turganda, uning onalik mas'uliyati ikki hissaga ko'paygan. O'rdaning egasi El Qulchur o'tib ketdi. Endi o'rda uning tul qolgan ayoliniki. O'rda o'zimniki ekan, deb har xil tantanalar, qo'shiq-kulgi, maishat uyushtirish shart emas. Albatta, Er Qulchur tirik paytida, o'zi yosh kezida bu yerda o'yin-kulgi, tantanalar bo'lib turardi. Hozir zamon tinch emas. Bir tomondan yov yoqalaydi, bir tomondan bo'ri yetaklaydi... O'zining odamlariga vasiyatini marosim odatlarini ajo aytdi.

Qo'qqisdan u dunyodan o'tib ketsa, bu voqeani o'zinikilardan boshqalar bilishlari kerak emas. Yov yoqadan olib turganda donishmand ajodan ayrilish og'ir narsa. Ko'p g'oz boshsiz uchmaydi, degan yurt og'ir yo'qotishdan holsizlanib, qiynalishi mumkin. Hozir tabarruk yurishga tayyorlanayotgan vaqtda odamlar ajodan ayrildik deyishsa, maqsadga to'siq bo'lishi ham, boshsizmiz, aql berib yo'l ko'rsatadigan ajomiz yo'q deyishib, katta-yu kichik o'zlarini yo'qotib qo'yishlari ham aniq. Hozir hamma ish ajo topshirgan yakuniy topshiriqni bajarish uchun amalga oshirilmoqda. Ignasiga ip o'tkazib tikish bilan shug'ullanayotgan ayollar bolalarini ovqatlantirib, bo'z uydagi o'ziga tegishli ishlarni bitirib, lashkar yurishga hozirlik ko'rayotgan paytda angishvona olib askar kiyimini tikmoqda. Qo'liga cho't[2] ushlagan qariya oyboltaga sop

[1] **Shirima chakmon** — qavilgan chakmon.

[2] **Cho't** — yog'och qirqadigan maxsus asbob.

tanlab to‘g‘ri yog‘ochlardan kesib yuribdi. Ko‘zining nuri ketmagan qariyalar esa hayvonlarning bo‘yin terisini pishitib, kamar uchun qayish tilib, buldursun qamchi o‘rib, qanjig‘aga qayish ip bog‘lab, ayil, yugan o‘rib, tinim bilmaydi.

Ot mingan bir guruh odamlar suvay mollarni to‘plab, minilmagan otlarga kamand tashlab ushlab, uni mingi qilib yurishgan bo‘lsa, bir guruh otliqlar molning semizini tanlab so‘yish bilan ovora. Ular etsiragani, yoki to‘y qilgani, osh bergani mol so‘yishgani yo‘q, balki so‘yilgan molning go‘shti ertaga yurishga ketayotgan askarlar uchun zaxira oziq-ovqat tayyorlash uchun kerak bo‘lganligi uchun shu ishni qilishmoqda. So‘yilgan so‘qimning go‘shti o‘z yog‘iga qovurilib, maydalab, qovurilgan unga aralashtirilsa, bir molning go‘shti bir idishga joy bo‘ladi va uni qarag‘ayning shoxiga ilib qo‘yadilar.

Sekin yurishgan boshqa otliqlarning ham tashvishi askarlar uchun, ertaga yurishga otlangan askar o‘g‘li, inisi yoki og‘asi uchun ko‘rilgan tayyorgarlik. Urush kuchaysa, u yong‘in bo‘lib hamma yoqni qamrab oladi. Bunday vaqtda tinch yotgan bitta ham jon qolmaydi. Beshikdagi bolagina kattalarga yuk bo‘lishi mumkin. Eplab yurgan bolani ham ayirmachga o‘tirg‘izib, bog‘lab qo‘liga tizginni berib qo‘yiladi. U ham kattalarning ortidan ot choptiradi. Katta-kichik “O‘o‘” deganlar, “Ha” deb ot ustida bo‘lsin. Piyoda qolgan erkak — qanoti singan qarg‘a. Uni kichikroq olg‘ir qush ham bosib oladi. Tulki ham titib qo‘yadi. Ha, ha, deb dadil ot bostirsa, ayirmachdagi g‘unon mingan uch yashar bola ham qalin o‘rmonga kirib ketmay, joni yo‘qmi?

Mana shu odat o‘g‘il-qizlarni pishiq, dadil va saranjomli qilib tarbiyalab qo‘ygan. Bu ishlarga katta-kichik hammasi tayyor. Piyoda qolgan, oshlig‘i yetarli bo‘lmagan odam ishi nochor odam hisoblanadi.

Ovulda uyquchi bola, urushda boshini soyga tashlaydi. Askarga to‘n tika olmagan yor yovning ostonasida cho‘ri, degan hikmatli so‘zni aytmagan ota-ona, eshitmagan o‘g‘il-qiz yurtda yo‘q. O‘g‘ilni ota tarbiyalasa, qizni ona o‘rgatadi...

Alqissa, ajo otaning vasiyatini bajarayotgan Sayqal oyim o‘zi bosh bu vaqtda yurishga tayyorgarlik ko‘rishyapti. Oyim o‘rdasi

ajo o'rdasidan kichkina bo'lsa ham, boshqa o'rda uylardan allaqancha keng. Umay onaning oq o'rdasiga tengday ko'rinadi. To'rdagi oyim taxtining chap tomoniga ham, o'ng tomoniga ham tizilib o'tirgan chevarlar ishiga qarab uch-to'rttasi o'zlaricha sigir shoxining suratini tortishib guppi to'n tikishayotgan bo'lsa, yana bir guruhi qator bo'lishib, qandag'ay tikishmoqda. To'rg'ay ko'z qilib kashtalab, ulangan joylarini buklaganda bilinmaydigan qilib tikib, bir chetini hoshiyalab, asosiysi, bexosdan janchar tegsa so'kilib, yirtilib ketmaguday qilib tikishmoqda. Yana bir uch-to'rttasi o'zlaricha boshlarini bir joyga to'plab, suhbatlashayotganday ko'rinadi, lekin ular bekor og'izlar emas. Aslida asosiy ishni shu chevarlar qilishyapti. Ular guppi, cho'pqutning qavig'iga po'lat qo'shib, keyin ularning choklarini qo'sh qavat ipak ip o'tkazilgan juvoldiz bilan mahkamlashyapti.

Kamonning o'qi yetmagan,
Oybolta tig'i o'tmagan,
Jiyagiga ipakni to'qib,
Qavig'iga po'latdan qo'shib,
Mahkam bo'lgan cho'pqut to'n.
Katta-katta janglarda
Alplar kiyadigan to'n, —

deb oqin maqtagan cho'pqut hozir oyim o'rdasida tikilmoqda. Cho'pqutni ko'ringan chevar tika bermaydi. Buni angishvona taqqanning eng chevari, ustasi tikadi. Cho'pqutni hamma askar ham kiya bermaydi. Uni lashkarboshilar, yakka sayish[1]ga chiqqan, qo'rqmasdan hujumga kirgan katta polvonlar, botirlar kiyadi. Afsus, bunday mustahkam, yovning yarog'i o'tmaydigan kiyim har bir askarda bo'lsa qani?! Bunday kiyimni qilib berish har bir askarning ota-onasining qo'lidan kelavermaydi. Shunday bo'lsa ham, ular o'z o'g'lini urushga yaxshi harbiy kiyimlar bilan jo'natishga harakat qiladi. Askar o'g'il yaxshi otlanib, yaxshi qurollanib jo'nasa, ota-onada tashvish ozroq bo'ladi. O'g'li bexosdan tekkan

[1] **Yakka sayish** — ikki otliq chavandozning bir-biri bilan nayzalar bilan urishishi.

o‘qdan halok bo‘lib, bu ota-onaga armon bo‘lib qolmas. To‘ni pishiq, janchari o‘tkir, oti kuchli bo‘lsa, qolgani askarning o‘zida, deyishadi. Askar o‘g‘il urushga puxta tayyorgarlik bilan ketmasa, uydagilarda tinchlik bo‘lmaydi.

— Janchari o‘tkir bo‘lsa ham, to‘ni yuqa, o‘zi chaqqon bo‘lsa ham, oti nochor, ketdi-da o‘g‘lim. Qanday qilarkin? O‘ksib, armonda qolarmikin? Yo yovning o‘qi sanchilib, ajal toparmikin?

Katta urushda urishib o‘lganlar maqtaladi. Uni yaxshi qurollantirib jo‘natgan ota-onaning yurt oldida yuzi yorug‘ “Askarni kerakli jabduqlar bilan ta’minlamagan eling yomon. Qora boshing qul bo‘lsin”, deydi askarni yaxshi qurollantirib jo‘natmagan otaga boshqalar.

Xuddi shunday mard o‘g‘il nomusini, yurt obro‘sini o‘ylagan Aruuke ko‘z oldiga Bosh teginni keltirdi. Bu vaqtda yoshi o‘ttizdan oshgan Bosh teginning gavdasi kelishgan, ikki yelkasi baquvvatligi yaqqol ko‘rinib turgan, ko‘kragi keng, ko‘zlaridan o‘t chaqnagan yigit edi.

Kuyovining savlatidan quvonib, unga ko‘zi to‘ymay, qiziqib uni yana ham yaxshi ko‘rib ketgan Aruuke o‘sha kelbatli Bosh tegini yovning alpi bilan yuzma-yuz kelganda yengilib qolmasaydi, deb nimagadir ichida cho‘chib ketdi. Keyin taxtdagi onasidan so‘radi:

— Oyim ona, alp o‘g‘ilga atalib tikilayotgan cho‘pqut to‘n qalin bo‘lsa ham, bo‘laveradimi?

Ko‘p narsani biladigan oyim kelinining nima demoqchiligini sezdi. Ichidan unga rozi bo‘ldi-da, tushuntirdi:

— Qalin kiyim urushda xalaqit beradi. Cho‘pqut puxta tikilsa, u qalindan yaxshi bo‘ladi. Po‘latning kukuni yopishtirilib, qayta-qayta tikishlar yetarli bo‘lsa, qalin-yuqa degan gap bo‘lmaydi.

— Qiziq. Har holda qalini yaxshi bo‘lsa kerak.

Aruukening bunday deyishining ham sababi bor. “Cho‘pqutning qalini, kemantayning yuqasi” degan gapni kichkina qiz vaqtida onasidan uqqan. O‘sha onasi aytgan maqol unga ta’sir qilgan edi. Endi oyim onasi bunday, deb tursa, yo o‘zining onasi-

ning gapiga, yo oyim onasining so'ziga ishonolmay qo'sh ko'ngil bo'lib o'ylanib qoldi. Kelinining ko'ngli og'rimasin, deb Sayqal ona sekin maqol aytdi:

— Yorning dami cho'pqutda, o'tning dami o'ttuq[1]da. Cho'pqut to'n qalin bo'lsa, erga janchar o'tmaydi, degan so'zning tuguni xuddi shu maqolda aks etgan. Erning ham, to'nning ham pishig'i yaxshi. To'n tikkan yor pishiq bo'lishi kerak. Cho'pqutning sirtidan qo'yiladigan matoga po'lat kukunlarini tig'iz yopishtiringlar, qo'sh qavat ipak ip bilan mayda qilib, ikki tomonlama qavilsin, deganimning sabab shu. Qalin to'n askarga xalaqit beradi. Shunday bo'lsa, askar oybolta chopishda chaqqonligini yo'qotadi. Ilgari yog'och sovut kiyishgan ekan. U vaqtda qalqon ham yog'ochdan bo'lgan ekan. Yog'och yuqa bo'lsa, chidamsiz, qalini og'ir, qo'pol, xalaqit beradigan bo'lar ekan. Og'ir to'nni ko'tarishga kuch kerak. U vaqtda hunar ham uncha rivojlanmagan ekan. Oila boshlig'i duradgor bo'lar ekan. Qorong'i tushguncha kerkisini taqillatib katta yo'g'on yog'ochdan yog'och sovut o'yganni kichkinaligimizda biz ham ko'rib qoldik, — deb bobomiz aytardi.

Nariroqda cho'pqut qavib turgan Jibek hayron bo'ldi:

— Voy, yog'och to'nni askar qanday kiyadi? Tuyuq-ku.

— Yog'och to'n tuyuq yasalmaydi, Jibek jan, — dedi Sayqal ona. Bo'yin va uning atrofini yopadigan, yelkani, yelkadan chig'anoqqacha, ko'krakni yopadigan, umuman, odamning ko'zga ko'ringan joylarini yog'ochdan o'xshashtirib yasaladi. Keyin biz hozir matolarni qurab, to'n qilayotganimizday, yasalgan yog'och shakllar bir-biriga quraladi. Qurama shakl bo'zday yumshoq bo'lgan, yozsa, yozilgan, egsa egilgan. Unday bo'lmasa, yog'och to'nni odam kiya olmaydi-ku.

Yog'och to'n[2]im to'zidi
Yog'och ot[3]im ham sindi.
Muzga suyanib er qoldi,

---

[1] **O'ttuq** — dazmol.

[2] **Yog'och to'n** — yog'och cho'pqut.

[3] **Yog'och ot** — chang'i.

Muzga cho‘kib tuya qoldi, — degan qo‘shiq o‘sha zamonda aytilgan.

U paytda yerni harsillatib qor bosgan mahalda bobolar chang‘ida tinchlik vaqtida ovga, to‘polon vaqtida urushga chiqar ekan. Yog‘och to‘n hozir yo‘q, chang‘i ham ahyonda bir uchraydi. Hozir urushga otlangan askar cho‘pqut kiyadi. Cho‘pqut to‘n issiq, odamning bo‘yiga xil keladigan chiroyli. Uni yov qilichi kesmaydi, janchari undan o‘tmaydi.

Sayqal onaning shu so‘zlaridan keyin g‘ala-g‘ovur boshlandi. Chevarlarning biri uni aytib, biri buni aytib o‘zaro suhbat boshlanib ketdi. Chevarlarning gaplari ham o‘zlari po‘lat yopishtirib, tikayotgan askar kiyimi haqida edi. Aruuke javdirab qaragan edi, jiyaklariga suv munchoq qadalgan tastar[1]i o‘ziga yarashib, oqish yuzi yana ham go‘zallashib ketdi.

— Tabg‘achning hunari bilan amali qirg‘izning g‘ayrati bilan shamoli, degan gap nima uchun aytilgan ekan-a, oyim ona?

Sayqal ona nimanidir olisdan ko‘rganday o‘rdaning jihozlariga qarab, o‘ng qo‘lini ko‘targancha turdi. Barmog‘idagi oltin angishvonaning gavhar ko‘zlari o‘rdaning tundugidan tushgan quyosh nurlarida turli rangda jilolandi. Uning angishvona ekanligi ham bilinmaydi, bezanish uchun taqilgan oltin uzukdan hech ayirmasi yo‘q. Lekin e’tibor berib qaragan odamga angishvonaning ichki tomonidagi mayda teshiklari ko‘zga chalinadi. Uzun ipak ip o‘tkazilgan juvoldiz tikilayotgan kiyimga sanchilgan...

— Tabg‘achning hunari... Ular shahar qurgan o‘troq yurt. Inson bolasi tushunmaydigan o‘zlari topgan yozuvi bor. Yashirin sirlar yozilgan kitoblari bor. Kitob o‘qigan donishmandlari turli hunarlarni biladi. Biri qizil ajdarning tilini o‘rganib, biri sehrgarning o‘quvini bilib olgan. Ular hunarlarini ko‘rsatgan ajdar tilini bilgani og‘zidan o‘t purkaydi, sehrgarning o‘quvini o‘qigani ochiq kunda havoni aylantirib, yomg‘ir yog‘diradi, degan so‘z bor. Uni ko‘rgan kishi yo‘q... Hunarli yurt hiylagar bo‘ladi. Tinchlik vaqtida tabg‘ach jim yuradi. Gapirsa, so‘zi muloyim, egilsa, o‘zi muloyim. Qo‘ynida oltini, qo‘lida ipagi bilan elchilari hurmat bilan keladi. Achchiq so‘zi ichida. Qilich uradigan vaqtida ipagini

[1] **Tastar** — kelinning, yosh ayolning bosh kiyimi.

teshadi. Qanchadan-qancha ko'ngli ochiq botirlar unga aldanadi. Qancha alp, urushda yengilmagan sher yigitlar ularning iliq so'ziga, yumshoq ipagiga aldanib, boshlaridan ayrilgan. Shuning uchun "Tabg'achning so'zi shirin, ko'ngli tor. Ipagi yumshoq, tilagi o'q" degan maqol kelib chiqqan.

Avval tabg'ach bizni odam o'rnida ko'rgan emas. Turadigan uyi, qo'nadigan qo'nishi yo'q yer kezgan urushqoq yovvoyi, der ekan. O'sha yovvoyi urishqoq degan urug' yurt ularga hujum qildi. O'g'uzxon hokimiyatga kelgandan keyin otliq lashkar yerdan chiqqan bo'ronday bo'lib, tabg'achni qopladi.

Bu o'zicha alohida so'z, uzun hikoya.

Sayqal ona endi nimanidir o'ylaganday angishvonasini silab, iyagiga olib bordi, biroq tayanmadi. Keyin gapini uladi:

— Qirg'izning g'ayrati — bu o'zaro hazillashib aytilgan so'z. Keyingi zurriyot "Ulug' so'z"ni maydalatib, katta ma'nosini yolg'onga aralashtirib yurmasin, degan ma'nida aytilgan. G'ayrat boshida mardlikdan chiqqan. Urushda qilichini tinmay chopganni g'ayratli deyiladi. Bizning naslimiz askar bo'lmaganda o'zini saqlab qolmasmidi? Askar yigitlar qilichini g'ayrat bilan chopganda, oldida dushman askari ko'payib unga hujum qilganda ham qochmagan.

Qirg'izning shamoli — bu qadimdan qolgan ibora. Eng ilgarigi zamonda tabarruk O'g'uz alpdan ham allaqancha vaqt avval bizning yurt bu tomonda emas ekan. U vaqtda odamlar zo'r, otlar arg'umoq bo'lardi, deyishadi. U vaqtda bizning el toshdan qal'a qurib, qal'a qurishga kuchi yetmagani ochiq joyda mol boqib, kun kechirar ekan. O'sha vaqtda bizning bobolar ko'rmagan ham, eshitmagan ham boshqa odamlar juda ko'p askar bilan bostirib keladi. Katta urush bo'ladi. Yov ko'p talofat ko'radi. Bizning yurt askarlari ham qiriladi. Qirilgan yov lashkarining o'rniga yangisi keladi. Qirg'indan omon qolgan kishilar tosh orasidan qaytadan bosh ko'taradi. Qayta urush, qayta qirg'in. Kim biladi, lekin bu "Ulug' so'z"da shunday rivoyat qilingan. Buni yolg'on, desak bobolar ruhi bizni qahriga oladi. O'shanda qirg'in qirq yil bo'libdi. Qor, muz eriganday jilg'a va o'zanlardan qon suv kabi oqibdi. O'shanda narigi tomoni qum, cho'l, berigi tomoni qorli

tog‘ orasida Qonko‘l paydo bo‘lgan, deyishadi. O‘sha Qonko‘l paydo bo‘lgan katta qirg‘inda, qal’adagi el batamom qirilib ketayozganda, bu tomonda ochiq joydagi el qo‘shin to‘plab hujumga o‘tishibdi. O‘sha urushdan keyin qir kezgan el oz qolgan, deyishadi. O‘sha qir kezgan oz el qadimiy bobo qo‘nishidan ketib, bu tomonga ko‘chib kelishgan, u vaqtda bu tomonning yurti ham yaydoq ekan, deb aytishadi. Urush elni ozaytiradi, qirg‘inga duchor qiladi. Tirik qolgani chiniqqan bo‘ladi. Oz qolgan zurriyot o‘tlog‘i keng va boy Oltintog‘ning bag‘ridan joy oladi. Bu alg‘ov-dalg‘ov dunyoda qirg‘indan qolgan zurriyotning ochlari to‘yib, yo‘qlari to‘lib, tinch kun o‘tkazib, tez ko‘payib, o‘sha yerda yashab qoladi. Arg‘umoq yilqining, malla soqol, qizil yuz kishining nasli Oltintog‘da deyishadi... O‘sha vaqtda quchoqlashgan do‘st yurt ham, qilich qayrashgan qasd yurt ham bor edi. Bobolar quchoqlashgani bilan do‘stlashdi, qilich qayrashgani bilan yovlashdi. O‘shanda bir cho‘pon sibizg‘aning teshigiga o‘xshatib kamon o‘qining tagidan teshik ochib, o‘q uzadi. O‘q hushtak chiqarib uchadi. Shundan keyin qirg‘iz kamonining o‘qlari hushtak chalib ucha boshladi. Men aytgan yog‘och sovut kiygan vaqt o‘sha vaqt. Bir katta urushda lashkar hiyla ishlatdi. Yov bilan qilich chopishayotgan bir paytda, otni orqaga burib qochdi. Yovni qiziqtirdi. Tekislikda boshlangan urush yonbag‘irga o‘tdi. O‘shanda endi yengdik, deb orqada qizib kelayotgan yov askarlariga katta qo‘rqinch paydo bo‘ldi. Oldidan osmonni to‘ldirib, hushtak ovozlari chiqdi. Hushtakning chiyillagan ovozi quloq teshib yuborgudek edi. Hujumga qiziqib, surib kelayotgan yov askarlari nima qilishini bilmay qoldi. Oldidagilar tizginlarini tortib to‘xtashdi. Hushtak bilan kelayotgan narsa kamonning ko‘p o‘qi edi. Bungacha bu askarlar hushtak chalib uchgan kamon o‘qini ko‘rmagan. Ular qo‘rqib ketishdi. O‘shanda bir xil saman otga mingan ko‘p askarlar oldingi pistirmadan otilib chiqishdi. Yo Ko‘k Tangri o‘zi qo‘llagandir, yo birdan chiqqan otlarning shiddatidir, kim bilsin, o‘shanda kamon o‘qi bilan birga uchib chiqqan saman ot mingan qilichbozlar, boltaliklar quvganda yov askarlarining oldidan quyun, shamol chiqqanday bo‘lib ketdimi, har holda yov askarlari ko‘pligiga qaramay qochishdi.

Sayqal o‘shandagi qochgan yovni hozir ko‘rib turganday quvondi:

— To‘g‘risi, qochgan yovni ayollar ham yengadi. Yovning askarlari qirildi. Ular yengildi. Chegarani soqqaday chertgan alplarim qirg‘izning shamoliga uchdi, deb o‘sha bosib kelgan qo‘shinning bosh xoni yig‘lab ketgan ekan, degan gap bor.

— Aruuke, bolam, o‘shandan keyin qirg‘izning shamolidan, tabg‘achning hiyla-amalidan saqla, degan maqol qoldi. Yurtimizning g‘ayrati va o‘sha shamoli bo‘lmaganda bosib kelgan o‘sha yurt bizni allaqachon yengib olardi. Go‘zal qizlarimiz cho‘ri, mard o‘g‘lonlarimiz qul bo‘lardi.

— Voy-ey, bu juda qiziq ertak ekan, oyim ona, — dedi chevarlardan biri.

— Ertak dema, qizim, — Sayqal ona. — Bu ilgarigi bobolardan kelayotgan "Ulug‘ so‘z". Men qisqartirib aytdim. Bu rivoyatlarni so‘zga usta donishmandlar aytganda, tinglaganlar yig‘laydigan vaqtda yig‘lab, kuladigan joyida kulib eshitadi.

Chevarlarning biri qo‘yib, biri gapirdi:

— Eng qiziq rivoyat ekan...

— Voy-ey, Tangrim, katta qirg‘in bo‘lmaganda, bizning yurt ham qal’ada yashar ekan-da.

— Yashasa, turib qolardi, — dedi Sayqal ona. — O‘sha urushda qal’adagi elning yalpi qirilib ketishi qolganlarning ko‘nglida ketmas dog‘ bo‘lib qoldi. Yov kelsa, odam o‘zini o‘zi qamab, matab beradimi? Qal’a bizga yoqmadi. Ko‘p askar bizni o‘rab oldi. Inni kalamush qaziydi, undan oshganini Tangri bo‘rsiq bilan sug‘urga bergan. Inson farzandi muqaddas. U osmon bilan yerning o‘rtasida shamolday yelib, qushday uchib yurishi kerak. Bizning zurriyotimiz ana shunday qilib uchishni afzal ko‘rdi.

Inson erur o‘z otim,
Otim esa — qanotim.
Ozig‘im yelkada,
Qilichim qo‘lda.
Ko‘k Tangrim, yo‘l oching!

Yurishga otlangan askar shuni ashula qilib aytardi.

— Voy-ey, shunday narsalarni uqsam, ko‘nglim ko‘tariladi, — dedi bir chevar.

— Qirni juda kezgan ekanmiz-da, — dedi ikkinchi chevar.

— Ha-ya, bir necha kunlab tog‘larni kezib, ochiq osmonda uhuhlab sovqotgan vaqtlar ham bo‘lganmi, opa.

— Singlim-yey. Ko‘p nasllar urushlarda qirildi. Ozi nasl qoldirdi. Bu alg‘ov-dalg‘ov dunyoda yer chekkasida bir to‘lib, bir kamimagan bir ko‘l bor, deyishadi.

Tashqaridan qo‘ng‘iroqning yoqimli ovozi eshitildi.

— Chevarlar, Umay ona kelyapti, — dedi Sayqal o‘ychan ko‘zlari javdirab. — Kutaylik. Aytgan gaplarini hammangiz ko‘nglingizga tugib oling.

Qo‘ng‘iroq ovozi yaqinlashdi. Umayni navkarlar emas, askarlar kuzatib kelardi. Ular ixcham va chaqqon. Ajoga qanday xizmat qilishsa, Umayga ham shunday hurmat va e’zoz bilan xizmat qilishadi. Ajo bor paytidami, yo‘q paytidami, baribir, Umayning aytgani farmon qatori qabul qilinadi. Umay oddiy ajoning oyimi — malikagina emas, balki yurt onasidir.

Odiltoy ajo marosimda o‘z vasiyatini aytgandan beri Umay ona ham o‘ychan, sabrli, o‘ta e’tiborli va g‘amxo‘r bo‘lib qoldi. Uxlagani ham, ovqatlangani ham bilinmaydi. O‘zi o‘rdada o‘tirsa ham, qulog‘i sirtda. O‘yi ustalar ishlayotgan ustaxonada, qiz-kelinlar o‘tirgan chevarxonada edi. Yaylovdagi yilqi, tekislikdagi qulon uyurlari tarqab ketmasin. Yuzboshi, mingboshi minadigan uchqur otlar uzoqlashmasin. Toblansin. Askarlar ola ketadigan zaxira ovqatlar idishlarda tayyor tursin, degan gapni Umay ona Erkishidan boshlab nevarasi Bosh tegindan — hammasidan talab qilardi.

— Bo‘ri tunda kuchayadi, yov tayyorgarliging yo‘q paytida hujum qiladi. Hammang ajoning so‘nggi eshittirgan vasiyatini esda tuting.

Umay onaning bu yorlig‘ini Sayqal ham eshitgan. Umayning ishongan o‘ng qo‘li ham mard o‘g‘li Qulchurning o‘rdasini boshqarib turgan kelini — Sayqal. Shu kunlarda Umay ona Sayqalning o‘rdasiga har kuni keladi. Lashkarboshilarga askar kiyimini tikkan chevarlarning ishi bilan tanishadi.

Ikki askar o‘rdaning eshigini ochdi. O‘rdaga Umay ona kirdi.

Sayqal taxtdan turib, yon tomonga o‘tdi, chevarlar o‘rnidan turib, ulug‘ malikaga ta’zim qilishdi.

— Hormang, aziz ona.

— Hammangiz bor bo‘ling! — dedi Umay ona. — Sizlarga qayg‘uni Tangri ko‘rsatmasin.

Shartta to‘rga o‘tdi-da, Sayqal kelinining taxtiga o‘tirdi:

— Ishda kamchilik bo‘lmasin. Hammangiz o‘tiring. Ishlayveringlar. Sayqaljon bolam, Teginjon kiyadigan o‘lpo‘qni qavib bo‘ldinglarmi?

— Qaviyapmiz, ona, — dedi Sayqal.

— Qo‘sh qatmi, yo to‘rt qatmi?

— To‘rt qat.

— Ha, yaxshi bitayin deb qolibdi. Qavishi yaxshi bo‘lsa, yopishtirilgan po‘lat kukuni u yoq-bu yoqqa surilmaydi. Ha, to‘ni mustahkam alp yovga oldirsa, o‘zining sho‘ri.

Chevarlar indamasdan Umay onaning gapini tinglashmoqda.

Odiltoy ajoga oyim bo‘lib kelgan Umay Odiltoyga erka malika emas, balki bir tomoni yori, bir tomoni maslahatgo‘yi bo‘lib, katta obro‘ga ega bo‘lgan. Umay qiz vaqtida otasi To‘lo‘sxon Inonchi xattotni uch yil o‘rdada ushlab turdi. Inonchi xattot yosh paytida lashkarboshi bo‘laman, deb orzu qiladi. Biroq uning katta otasi tabg‘ach podshosining saroyida o‘n yil qizlarning kiyimini kiyib, kanizak bo‘lib xizmat qilib yurib, tabg‘achning odatini, hunarini, qolaversa, harfini ham tanib qaytadi. O‘sha bobodan tarqagan o‘g‘il-qizlarning hunar bilmaydigani yo‘q hisobida.

Mening naslimdan bo‘lgan o‘g‘il bolalar va aqlli qizlar hunar o‘rgansin. Qiz bolaning rizqi boshqa yerdan. Qiz — nozik, asl va tabarruk. Uni ota uyining to‘riga o‘tirg‘izing, hurmat qilib, eslik qilib uzating, — deb vasiyat qoldiribdi.

O‘sha aqlli otaning o‘g‘li Inonchi hozir xattot donishmand. Undan harf o‘rganish, ta’lim olish hurmatli otaning o‘g‘illariga vazifa. U vazifani ajo ham, xon ham, abo, bek, lashkarboshi-yu, yurtning qadrli oqsoqollari ham bajarilishiga mas’uliyatli. Umayning otasi To‘lo‘s Inonchini o‘rdaga qo‘ydi. Inonchi faqat

o‘g‘il bolalarga harf o‘rgatib, ta’lim berib qolmasdan, To‘lo‘s xonning qizi Umayga ham ustozlik qildi.

Qiz vaqtida o‘sha Inonchi xattotni ko‘rib, o‘sha donishmand ustozdan ta’lim olgan Umay keyin o‘z o‘rdasida ham aqlli kishilardan qo‘l uzmadi. Odiltoy ajoning o‘rdasida toshga yozgan, ipakka yozuvni kashta qilib tikkan, kelajak haqida fikr aytuvchi, qadimiy hayotdan so‘zlagan shajarachi, zamonaviy an’analar va kelajakni talqin etgan donishmandlar ko‘p bo‘lgan. Umay oyim o‘sha donishmandlarning hurmatni joyiga qo‘ydi. Mehmondorchiliklarda birga o‘tirib, qancha aqlli fikrlarga ega bo‘ldi. “Ulug‘ so‘z”ni eshitdi. Bilimi ortib, salobatli bo‘la borgan sari Umay oyim o‘z donishmandligini yurtga bildirdi. Umay ona degan hurmatga sazovor bo‘ldi.

Umay ona hozir o‘zining tinchligini o‘ylab, o‘zining rohatini qo‘msasa, “O‘sarim bitdi, o‘larim qoldi. O‘rdamda pashsha uchmasin. Tagimga momiq to‘shab, og‘zimga shirin osh tutib, meni yosh boladay qilib boqinglar”, “Uchib ketguncha mazza qilib qolay”, deb oyimligini ko‘rsatib, qimirlamay yotib olsa ham bo‘lardi.

O‘o‘, yurt onasiga bunday qiliq yarashmaydi. Bu yoshligida suluvman, deb kerilgan, qariganda qadrini osmonga chiqarmoqchi bo‘lgan oddiy oyimlarning hunari, aqli yo‘q oyimning qilig‘i — bu.

Umay ona unday yo‘l tutib, o‘z naslining qadrini, botir ajo nomini pastga tushirish malika qiladigan ish emas, deb biladi. Umay onaning yashirin siri hozir yurtga belgisiz. Uni hozir xaloyiq bilishga erta. Agar hozir Umay ona bilgan qayg‘uni yurt biladigan bo‘lsa, qayg‘udan bosh ko‘tara olmay qoladi. Balki g‘ayrat so‘nib, elning harakati susayib, yurishga astoydil otlanayotgan askarlarning hafsalasi pir bo‘lib, yengilib qolishi ham mumkin. Shuning uchun bu katta qayg‘uni Umay, Erkishi, Bosh tegin, Sayqal ona, Azman abo, Chekii biy... keyin ishonchli lashkarboshilar, o‘zlaridan tarqalganlargina bilishadi.

Boshsiz yurt — bosholomon ko‘ch, — degan maqol hozir o‘sha qayg‘uni bilgan kishilarning xayolini g‘ajib turgan kez. “Yurtimiz boshsiz emas, yer-suvimiz egasiz emas... Yovdan o‘ch olamiz”. Shu maqsadni amalga oshirishga astoydil intilayotgan

kishilar — Umay ona, Sayqal ona, Erkishi, bobo ishini davom ettiradigan o‘z nasli — Bosh tegin.

Umay ona chevarlarga aytadiganini aytib bo‘lgandan so‘ng ularni qo‘llab qo‘ydi:

— Suhbatlashib ishlanglar, yaxshi so‘z odamni ishdan toliqtirmaydi.

— Ha, bu rost, ona, — dedi bir chevar.

— “Ulug‘ so‘z”ni aytib ishlating, bolam, — dedi Umay ona.

— Ha, Sayqal onam rivoyatlarni aytdi, — dedi chevar. Umay ona xo‘rsinib qo‘ydi:

— Rivoyatlarning so‘zlari eshitadigan. Ta’lim beradi.

— Bizning yurtning tagi qayerga boradi?

— Eh-ha, qizim, biz juda qadimiy yurtdanmiz, — dedi Umay ona ishonch bilan.

— Aytmoqchi, nima uchun qirg‘iz ota atalib qolgan ekanmiz? Umay ona chevarning savoliga javob bermay, Sayqalni ogohlantirdi:

— Kun botguncha quyosh yorug‘i sep. Kun botgandan keyin o‘rdaning kumush tulg‘asiga asl tosh qo‘ydiring, sham yoqib qo‘ying, bolam. Chevarlarning ko‘zlari toladi, barmog‘iga igna sanchilib, qonaydi. Chidashsin. Askar kiyimi ko‘p kerak. Kuni kecha o‘zinglar eshitganday qilib yov yoqamizdan olib ketdi. Hech narsa qilmay yotaversak, qora qozon to‘shimizga to‘ntariladi. Ha, tinch vaqtda mehribonlik odatini hozirgiday qilib davom ettirsak, “Ulug‘ so‘z”ni kashtaga ipak bilan tikar edik. Sizlar ipakka tikkan so‘z keyingi avlodlarga kitob bo‘lardi.

Umay ona esladi, shekilli, haligi savol bergan chevarga qaradi:

— Darvoqe, bolam, sen biz nima uchun qirg‘iz atalib qoldik, deb so‘rading. Ko‘p so‘zni terib aytgan shajarachilar, rivoyatlarni ulab aytgan ulamolarning aytishicha, ilgarigi bir katta jangda qirilgan ko‘p yurtdan qolgan oz askarning lashkarboshisining ismi Qirg‘iz ekan, desa, ko‘p so‘zni ulab aytadigan ulamoning biri, o‘sha qirg‘indan qolgan oz askarning urug‘i qirg‘iz ekan, deydi. Yana bir rivoyatda qirg‘izning bobosi bo‘ri bo‘lgan degan rivoyat-afsona ham bor. Biz donishmandlar vasiyat qilib aytib ketgan “Ulug‘ so‘z”ga ishonamiz. Bizning tub otamiz — qirg‘iz. U

Turkka borib taqaladi. O'sha otam qirg'izdan qolgan vasiyat "Har turli ko'p mollarimiz oriq bo'lmasin, deb yerning qaymog'ini tanladim. Zurriyotim g'arib bo'lmasin, deb qilichimni ko'k toshga qayradim. Men qo'nish qilgan yer qaymog'i elsiz qolmas. Tog' ko'k toshsiz emas, zurriyotim boshsiz emas. Bilimlidan aql oling, kuchlidan kuch oling, zurriyotim.

Qilichingni ko'k toshda o'tkirla, oting — qanoting, otingni suv bo'yida terlatib, ayozda soviting, iriningni egarga tekkizib, uxlashni o'rgan, shunda yering elsiz qolmas, — degan ekan. Har yuz yilda bir kichik vaziyat, har ming yilda bir katta holat yuz beradi, mening avlodlarim. O'shanda kichiging kattaday chidamli, ayoling doim oldinda g'ayratli bo'lsin, zurriyotim, degan ekan qirg'iz ota. O'sha yuz yilda bir keladigan kichik vaziyat qirg'iz ota farzandlarining boshiga tushib turibdi, chevarlarim. Tabarruk ishda ko'z charchamaydi, suluvlarim. Askarlar yurishga otlanishiga oz qoldi. Ot tizgini qo'lda, uzangiga oyoq qo'yishga tayyorlanib turibdi.

O'tkir po'lat edi haybatim —
Ayamay urdim, tosh kesdi.
O'tkir albars edi qilichim —
Avaylab chopsam, bosh kesdi.
Yov jancharin to'smadi
O'lpo'g'im nega mo'rt bo'ldi?

deb kuch sinashayotgan askar o'ksib qolsa, bizga la'nat bo'ladi, chevarlar. Umay onaning shu so'zlaridan keyin Aruukening ko'zi yoshlandi. Ona ko'zi yosh to'la kelinni o'rgilib, erkalatdi:

— Ko'z yoshi to'kmang, erkam. Askar kiyimini tikayotgan paytda chevar ko'z yoshini ko'rsatmaydi. Yig'i — qayg'uning jarchisi. Yig'i — yoshlikniing belgisi. Rahmdil kishi ham yig'loqi bo'ladi. Shunday bo'lsa-da, askar yori ko'z yoshini ko'rsatmaydi.

Umay ona taxtdan turdi:

— Sayqal, bolam, chevarlaring uxlamasin. Odam zerikkanda uyquchi bo'ladi. "Ulug' so'z"ni davom ettiringlar. Ishinglar ilgari bo'lsin.

Bo'sag'ada turgan askarlar eshikni ochishdi. Poshnadagi yapaloq qo'ng'iroqcha mayin shildiradi. Umay ona qanday kelsa,

o‘shanday bosib ajo o‘rdasiga ketdi. Ta’zim etib malikani uzatgan chevarlar o‘zlarining o‘rinlariga o‘tirishdi. Qandaydir bir kuch ko‘rinmay kirib, ko‘rinmay chiqib ketganday bo‘ldi. Chevarlar yengil tin olishdi.

Aruukening ko‘z yoshini ko‘rib, Sayqal ona gumonsiradi. “Aruuke nimaga yig‘lamsiradi? Teginjon ayoliga yashirin sirni ochib qo‘ymadimikin? O‘o‘, aqlli ayol erning kamib borayotgan ko‘lini to‘ldiradi. Aqlsiz ayol to‘lig‘ini kamaytirar. Yaxshilik qilaman, deb yomonlik qiladi. Yordam beraman, deb ziyon yetkazadi. Aqlsiz ayolning orzusi tushovi yo‘q molday tentiraydi. U yaxshi-yomonni ajratmay eriga ham, eliga ham ziyon keltiradi. Aruukega o‘g‘lim sir aytib qo‘ydimikin? Aqlli kelin yurtning og‘ir tashvishini eslab, ko‘ziga yosh oldimikin?”

Qanday bo‘lsa ham, afsuslantiradigan, qayg‘uli gap-so‘zni kulgi yengadi. Chevarlar yayrab ishlashsin, degan Sayqal endi so‘z mavzusini yangiladi:

— Er — tirak, ayol — uning joni. Ayol bo‘lmasa, erkak tomiridan ayrilgan daraxtga o‘xshab qurib qoladi. Er bizdan quvvat oladi. Quvvatdan tomir ko‘klaydi. Tomirlab, nasl unadi. Bu muqaddas Ko‘k Tangrining buyrug‘i. Yakka inson farzandi emas, Ko‘k Tangri yerni, suvni shunday ko‘klatar. Tosh — ota, tuproq — ona. Ikkovining nafasidan suv ko‘k bug‘ chiqardi. Ko‘k bug‘ osmonga bulut yig‘adi. Bulutni shamol haydaydi. U u yoq-bu yoqqa yelib yurib, yerdan adashadi. Uni sog‘inib ko‘z yoshi to‘kadi. Tuproq yog‘inni sog‘inib kutadi. O‘o‘, bu Ko‘k Tangrining buyurgani toza uruqqa em. Ko‘k kulgisi — yig‘i. Ko‘k yig‘lasa, yomg‘ir yog‘adi. Hosildor yer ko‘karishdan oldin ko‘kning yig‘isini kutadi. Inson farzandining kulgisi — quvonch. Inson farzandi kurtak chiqarishda ayolning kulgisini kutar.

O‘o‘, go‘zal chevarlar, men sizlarga bu so‘zni masal sifatida aytdim. Aqlliging tushunding, aqlsizing og‘zingni ochib eshitding. So‘zning tub mazmunini tushunganing tushunmaganingga aytib, bir maza qilib, ko‘ngil ochib, kulib olinglar. Men so‘zinglarga xalaqit bermay, katta o‘rdaga borayin.

Bu — ertalabdan beri chevarlar bilan ishlab charchagan Sayqal onaning dam olayin degani. Tashqariga chiqib, u yoq-bu yoqqa

yurib, biroz charchog‘imni yozayin, degani. Mening ko‘zimcha emin-erkin gapirolmay, uyalib o‘tirgan chevarlar men ketgandan keyin o‘zaro mazaxlashib, tomoshalashsin, qo‘shiqchisi qo‘shiq aytsin, gapirolmay turgani gapirsin. Yoshlarning gapi o‘zlariga xos. Ular aytadiganini aytib, kulishib olmasa, cheri yozilmaydi. Cherini yozib kulib olishsa, charchaganini bilmay qolishadi, degani.

Sayqal aytganlarining ma’nosi yoshlikning sirlari, albatta.

Kimxob choponini yelkasiga solib Sayqal ona g‘oz yurib chiqib ketgandan keyin o‘rda ichi bo‘shab qolganday bo‘ldi. Halidan beri qimtinib, qisinib o‘tirgan chevarlar bir-birlariga qarab, erkin gap-so‘z boshlashdi:

— Oyim yashirin so‘zlarni aytdi, unchalik fahmlamay qoldim, — dedi qizil yuzli chevar.

— Ona ochiq aytishdan o‘zi tortindi, — dedi o‘rta yoshli ayol. Oyimning so‘zi bilganga saboq.

Oqish yuzli chevar bir nimani tushungan odamday kulimsiradi:

— Ajabo! Ko‘k bug‘ yerni sog‘inib yig‘laydi, deganda, o‘z askarimni esladim.

— Qiziqsan-a o‘zining askarini kim eslamadi, deysan?

— Yurishdan rizqi bori omon qaytadi-da.

— Ipor sepib uzatgan qozonni o‘choqqa to‘ntarib qolmasang bo‘ldi...

— Unday gaplarni aytma. Oq tilak tilab turganda, o‘yga yomonlikni keltirish gunoh.

Chevarlar biroz indamay qolishdi. Qaydadir olis-olisda yilqi qaytargan yilqichilarnimi, yo asov mingi qilayotganlarnimi “Qayt-qayt” “Jang-jung” degan ovozlari eshitildi. Bu haqiqatan ham bir toy chopimday uzoqlikda ko‘k burchak yerga suvay mollarni, asov otlarni qamayotgan o‘g‘lonlar edi. Ularning ovozlari o‘rdadagi ayollarga yetmasdi. Yetmasa ham, askarlar taqdirini o‘ylayotgan ayollarga olisdan kelayotgan yangroq ovozga o‘xshab kelib turdi. Bu sog‘inchga to‘liq nozik tuyg‘u edi.

Aruuke o‘zidan yoshi katta ayolga kulib qaradi. Qirra burni atayin odam xohlab ko‘rayin deguday chiroyli oq sarg‘ish yuziga yarashib turibdi. Mo‘ltirab turgan qo‘y ko‘zlarining qarashida

aql-esi, fe'l-atvori, insoniy sifati ko'rinib turganday. Uzun qora kiprigida qosh-qovog'ida yulduzi yonib turibdi. Umuman olganda, Aruukeda odamni o'ziga tortadigan ichki bir go'zallik, yashirin bir suluvlik bor. Yosh oyimning tiniq aqli, oko'rukchiligi yorqin yuzi sutning betidagi qaymoqday bo'lib qadimgi xatga yozganday, toshga bosilgan harfday dona-dona o'qilib, dona-dona ko'rinib kishini o'ziga tortadi. Yoshi ulug' odam ham Aruukening yulduzidan tortinadi.

Aruukening otasi unchalik katta urug'dan emas. Bargi urug'ining oddiy odami. Qilich ko'tarib, yovga qarshi otlangan emas, balki hiyla-nayrangi, aqli bilan yovga qilich ko'targan favqulodda hushyor inson bo'lgan. Uning ismi Sher edi, o'zi ham sher bo'lgan. O'n to'rt yoshida tizgin tortib, askar bo'ldi. Tizgin tortgandagi Sher mingan ulov olg'a intilgan askar oti emas, shoxlari katta targ'il ho'kiz edi. Sher boshqalarga o'xshab urushga ot minib chiqqanda, bunchalik dovruq qozonmagan bo'lardi.

Falokat oyoq ostida bo'lganiday baxt ham ayttirib kelmaydi. Shoxlari katta targ'il ho'kizga minib yovga qarshi otlangan Sher bu safar o'zga ham, yovga ham juda g'alati bo'lib ko'rindi. Ustida o'zini saqlagan askar kiyimi yo'q, takaning terisidan qilingan shimni kindigigacha yetkazib kiygan, ko'kragi yalang'och, boshiga yog'ochni o'yib, do'ppi qilib kiyib olgan, o'sha yog'och do'ppining qoq tepasiga jiparkindikning shoxini yopishtirib olgan. O'sha shoxlari katta ho'kiz mingan yalang'och askar bolaning bo'lgan quroli qinsiz siniq qora qilich. Uni tayoqqa o'xshatib ushlab olib qiyqirib kuladi. Ho'kizi esa otdan qolmay yuguradi. Ko'rganlar uni sog' bo'lmasa kerak, yo jinni, yo qo'llagani Zangi bobo bo'lsa kerak, deb o'ylashdi. O'sha qurolsiz targ'il ho'kiz mingan bolani o'z ayadi, yov ko'zga ilmadi. Biroq ikki taraf qilichlarini bir-birlariga o'qtalishgan qonli urushda shu ho'kizchan Sher hunar ko'rsatdi.

Chap tomondagi tepalikda urushni nazorat qilib, ko'rsatmalar berib o'tirgan yovning bosh xoniga Sher tikka bordi. Ho'kizi sigirning bolasiga o'xshab biqinlarini bilq-bilq etkizib yugurmasdan, suzadiganday boshini quyi solib yelday yugurdi. Sher

esa bolalarga o‘xshab qilichini tepaga ko‘tarib, u yoq-bu yoqqa shiltab:

— Zangi! Zangi! Zangi! —deb hayqirib, yetib keldi.

Ho‘kizi qobon singari otlarni yorib tashlaydiganday oldinga intiladi. Yalang‘och bolaga qilich ko‘targan, bolta urgan hech kim bo‘lmadi. “Ha, Tangrim! Bu bir aqldan ozgan kimsa ekan”, deguncha bo‘lmay ho‘kiz mingan bola otliqlar galasini yorib kirib, yalov ko‘tarib turgan yo‘g‘on yalovchining otini ho‘kizi bilan yonboshidan suzdirdi. Qiyqirib kulib turgan Sher katta tezlikda siniq qora qilichi bilan yalovning sopini chopdi. Sop ushlagan yeridan qiyilib tushdi.

— Zangi! Zangi! Zangi! —degan bo‘yicha Sher u yerdan chiqib, g‘oyib bo‘ldi.

Bu hech kim o‘ylamagan g‘alati voqeadan, ko‘z ochib-yumguncha bo‘lib o‘tgan falokatdan yov askarlari vahimaga tushib qolishdi. Askarlar orasidan “Voy-voy, yalov yiqildi. Yengildik”, degan baqiriqlar chiqa boshladi. Ho‘kiz mingan askarni quvishga hech kim botina olmadi. Ilgari ko‘z ko‘rib, quloq eshitmagan bunday voqeadan yov askarlari qo‘rqdi: “Tirik ruh... Tangri bizni qahriga oldi. Tirik ruh kelib bizning yalovimizni yiqitdi”, deyishdi.

Yovnining yalovi yiqilgandan keyin yov lashkarlari xavfsirab, qo‘rqib qolishdi va bir chetdan qocha boshladi. Bargi urug‘ining askarlari ularni quvib borib qira boshladi. Shunday qilib, o‘shanda yov yengildi. Kelgan yovning yengilishiga targ‘il ho‘kiz mingan yalang‘och bola sababchi bo‘ldi. U hech kutmagan paytda paydo bo‘lib, qiladigan ishini qilib, qayerdan kelgan bo‘lsa, yana o‘rmon oralab yo‘q bo‘lib ketdi. Bu holat bargi urug‘ini qo‘llagan bir xosiyatli jonivorlar nasliday bo‘lib ko‘rindi. Nima bo‘lsa ham, yalang‘och bolaning o‘zi ham, u mingan shoxlari katta ho‘kizi ham, boshidagi shox yopishtirilgan yog‘och do‘ppisi ham ancha vaqtlargacha sirli narsalarday bo‘lib qoldi. Bargi yurti uni bizning bobomizning arvohi, qiyin paytida bizni qo‘llab ketdi, bu tabarruk deb yurishdi. Lashkarning yalovi yiqilib, urushda yengilib qaytgan izgil yurtining odamlari, bizni Zangi bobo qahriga oldi.

Askarlarimiz astoydil dushman bilan chopishayotgan paytda haligi yalang'och arvohning kelib chiqishi bargi yurtining boshiga baxt berdi. Tangri bizni qahriga oldi. Bizning qilayotgan ishlarimizga jin-shayton uya solib oldimi? Bizning molimizda kishi bilmas yuqumli kasallik bormi? Yo odamlarimizning kelajagi yo'qmi? — deb qayg'uga botishdi. Izgil yurti bu ko'zlariga ko'rinib kelgan falokatdan juda cho'chishdi. Qo'rqishdi, yer-suvga sig'inishdi. Quyoshga ibodat qilishdi.

Izgil yurti o'zlaridan kuchsiz bo'lgan bargi urug'iga yengilib qolganidan qattiq qayg'urishdi. Hafta bo'yi uylariga o't yoqmay, qozonlarini to'ntarib qo'yishdi. Keyin ovul-ovulga, suv bo'ylariga archa tutatib, isiriq solishdi. Yog'och qo'g'irchoqlar qilib, uni boshqa tomonga ko'chirish marosimlarini o'tkazishdi. Archa olovi gurillab yonayotganda gulxan aylanib baxshi o'ynadi. Odamlar Ko'k Tangriga yolvorishdi. Baxshi yog'och qo'g'irchoqlarni olovga tashlagandan keyin katta-kichik Ko'kka qarab qo'llarini ko'tarib, kaftlarini yozishdi:

— Usti ochiq Ko'k, muqaddas Tangrim, biz yo'ldan adashib ketgan bo'lsak, kechir! Molimizda yomon kasallik bo'lsa, undan saqla. Odamlarimizda adashuvchilik, falokat bo'lsa, undan tozala. O'o', muqaddas Ko'k Tangri, biz yuvosh, rahmdil, o'z o'tini o'zi yoqqan, o'z qozonida halol ovqat pishirgan gunohsiz yurtmiz. Bizga yordam ber, bizni qo'lla, ey, Tangrim!

Shu marosim, shu yolvorish va yig'idan keyin izgil yurti uylariga kulib qaytishdi. Kelinlar yopiq tunduklarini kulib tortishdi. Onalar to'ntarilgan qozonni kulib ochishdi. Otalar to'rga kulib o'tirishib, qadimiy bobolar gapini boshlashdi. O'rtada o't yoqilib, qozon osilib, barcha uylarda go'sht pishirildi. Yurt to'y nishonlashdi:

— Ko'k Tangri endi bizni qo'llar? Mol yomon kasallikdan sog'. Odamlar yomon ishlardan olis. Ovullarda tinch yotgan paytimizda ko'nglimiz to'q. Yurishga otlansak, yo'limiz ochiq, qilichimiz o'tkir. Endi bizni Zangi bobo qahriga olmaydi, — deyishdi.

Izgil yurti o'shandan keyingina tinchib qolishdi. Mol boqqani molning orqasida, dehqoni o'roqda. Duradgori o'rmonda, konchisi konda, sayohatchisi yo'lda, askari kuzatuvda.

Yurishni, urushni xohlagan izgil yurtiga qaraganda berigi bargi yurti urushni xohlamagan. Ular o‘z chegarasida tirikchiligini qilib, kun kechirishardi. O‘sha tinch yotgan kezida ularning hayotini buzib, chegaradan kirib kelgan izgil lashkari bosib olaman, deb kelib, o‘zi tarqalib, yengilib qochgandan keyin bargi urug‘i o‘zlarining taqdirini to‘g‘ri baholab, o‘zlaricha xulosa chiqarishdi:

— Biz oz edik, izgildan kuchsiz edik. Bizning o‘sha kuchimiz yo‘qligini, yuvoshligimizni Ko‘k Tangri o‘zi ko‘rdi. O‘zi bizga yordam berdi. Bizning asli tagimiz Bag‘ish[1], tabarruk bag‘ish. Boshimizga qiyinchilik tushganda bizga o‘sha Bag‘ish bobomizning tirik ruhi yordam beradi. Bu safar ham Bag‘ish bobomizning tirik ruhini bizga Ko‘k Tangri o‘zi yubordi. U o‘shanda katta shoxli ho‘kiz minib kelgan yalang‘och bola ko‘rinishida keldi. O‘sha yalang‘och bola — bobomizning tirik ruhi, yurtimizning eng buyuk qo‘llovchisi.

Bargi yurtining boyidan kambag‘aligacha katta suvning bo‘yiga qo‘nishdi. Bobo ruhiga yolvorishdi. Muqaddas Ko‘k Tangriga sig‘inishdi. Oqbo‘z biya so‘yishdi. Tosh o‘choqlarga qator-qator qozonlar osildi. Uylarning oralariga archadan gulxan qilib yoqishdi. Biroq bular yog‘och qo‘g‘irchoq qilib, uni ko‘chirib, o‘tga tashlashmadi. Unday qilish qayg‘uning nishonasi hisoblanadi. “Ko‘k Tangri bizni qayg‘udan qutqar”, deydigan holatda emas, balki bargi yurti qayg‘uli emas, g‘alabaga ega, baxtli. Baxshining o‘yinidan boshlab, o‘t aylangan odamlarning hammasi xursand. Qator bo‘lib turgan o‘g‘il bolalar va qizlar bir-birlariga qarab qo‘shiq aytishdi:

O‘g‘il bolalar:

Chegaradan er keldi,
Oti terlab, o‘zi sho‘x.
Uning sirin kim ochar?

Qizlar:

Oq o‘rgo[2]dan qiz kuldi,
Erni ko‘rib, ko‘ngli sho‘x.
Sirini men bilaman.

[1] **Bag‘ish** — bug‘uning bir turi. Bu yerda, urug‘ nomi.

[2] **Oq o‘rgo‘** — yangi kelin-kuyov uchun qurilgan kichikroq bo‘z uy.

deyishib, yigit-qizlar bir-birlariga tegajoqlik qilib kuylashdi. Qariyalar unga maza qilib kulishdi. Yoshlik kezlarini eslashdi. Rohat qilishdi. Yoshlarga olqish aytishdi. Xursand bo'lishib, o'sha kunga taalluqli bo'lgan marosimlarni bajarishdi. Biroq...

Bargi yurti shunday qilib Ko'k Tangriga sig'inishib, qadimgi Bag'ish boboning tirik ruhi bizni qo'lladi, deyishib hammasi to'y qilishayotganda g'alati bir ish bo'ldi. Nima bo'ldi deng? O'sha qadimgi Bag'ish boboning tirik "ruhi" yalang'och bola o'zi to'yga kirib keldi. Kirib kelganda ham u o'zining kim ekanligini aytib, ruh emasligini, uni Tangri yubormaganligini, o'zi shu bargi elining bir kambag'al kishisining bolasi ekanligini odamlarga bildirdi.

— Otim — Sher, otamning oti — Chaki. Onamning ismi — Tuyg'un. O'zim es tortgandan beri sigir boqaman.

Sher hech narsadan xabarsiz, xoxolab kulib yurardi. Katta shoxli ho'kizini tepinib qo'ysa, otdan tez harakat qilib, o'ynoqlaydi. Ko'p elni ko'ziga ham ilmay, ularni oralab yura beradi. O'zi molning bolasiga goh o'xshab, goh o'xshamaydi.

Sher tepinib-tepinib qo'yadi, o'zi qiyqirib kuladi:

— Qimirlama, tez yurish shartmas.

— Qimirlama, deyman, Shudungqut[1]!

Shudungqut tek turmaydi. U katta shoxli boshini pastga qilib, xuddi suzib yubormoqchiday intilib-intilib pishqiradi. Sher esa ilgarigiday yalang'och. Qinsiz siniq qora qilichining orqasi bilan ho'kizining shoxiga sekin ursa, "ding-ding", deb ovoz beradi. O'zi xoxolab kuladi:

— Sekin, sekin, Shudungqut. Otang buqa, enang maral, Shudungqut. Ayri tuyoq tosh kezib, Shudungqutim, uch. Muguzi xanjar, yurgani shamol, Shudungqut.

Odamlar gumon qila boshlashdi. Sherning rost aytganiga ham ishonganday bo'lishmadi. "Bu tirik ruh bizni sinayapti", deb bir xillari ichidan sig'inishdi. "Tangri yuborgan muqaddas ruh", deyishdi. Odamlar Sherning inson farzandi, bo'lganda ham o'zlarining yurti bargining bir nasli ekanligiga gumon qilishdi. Nima bo'lsa ham, bu yalang'och sher bola inson farzandi bo'lganda

[1] **Shudungqut** — molning uchquri shu so'z bilan ta'riflanadi. Bu yerda ho'kizga qo'yilgan laqab.

ham, o'zlarining bargi naslining bolasi bo'lganda ham, oddiy ona tug'ib, oddiy ona tarbiyalab, oddiy bola bo'lib o'sganda ham, bu yalang'och bola xosiyatli yaralib, xosiyatli voyaga yetgan toza va tabarruk inson. Agarda bu toza va tabarruk inson bo'lmasa, o'tgan urushda yalang'och odam emas, sovut kiyganlar qilichga chopilib, jancharga sanchilib turganda, omon qolarmidi? Ehhe, aksincha, undan yov qo'rqdi. Nimaga qo'rqdi? Xuddi shu jumboq yalang'och Sherni odamlarga tabarruk va g'ayritabiiy qilib ko'rsatdi.

Inson farzandi ekanligiga ishonmay odamlar ho'kiz mingan Sherga ta'zim qila boshlashdi:

— Sen inson farzandi bo'lsang ham, ulug'san, muqaddassan, Sher! Biz senga sig'inamiz. Biz seni baland ko'taramiz.

— Ha, ha. Ruh bo'lsang, bobomizsan. Bizni qo'llab yur.

— Inson farzandi bo'lsang, sening qo'rqmas yuraging tog'day ekan. Bizning farzandlarimizga lashkarboshi bo'l.

— Sen yovning yalovini yiqitding. Yaylovga mol, haydov yerga qut-baraka sochding.

Yurt Sherni tabarruk, deb hisobladi. Uning obro'sini ko'tardi. Yaxshi mingizishdi, chiroyli qilib yasantirishdi. Yillar o'tgan sayin Sher sherday qo'rqmas botir bo'ldi. U oyboltani bekordan bekor baland ko'tarmadi. Hiyla-nayrangi oshib, yovning ichki sirlarini biladigan bo'ldi. O'zi ham, so'zi ham o'tkir Sher bargi yurtini boshqardi. Urushlarda qirilmadi, yovni yengdi. Keyingi vaqtda qirg'iz otaning yurtiga qarluq qo'l solganda, bargi yurtidan to'plangan askarlarning tumanboshlig'i bo'lib Sher dushmanga qarshi otlandi. O'shanda sakkiz tuman lashkar otlangan edi. Shu sakkiz tumanning yettitasini boshidan ko'p urushlarni o'tkazgan, tajribali lashkarboshilar boshqarardi. Faqat Shergina bunday katta urushga birinchi marta ketayotgan tumanboshi edi. Avvallari u urug' orasida bo'lgan urushdarda qatnashgan. Qanchalik yovlashsa ham, qanchalik urishsa ham, bunday urushlarda askarlarni oxirigacha qirib yuborilmaydi. Bir-birlarini sal ayaydi. Lashkar boshlab chiqqan Sher (yurt uni g'ayritabiiy nasldan degani uchunmi u o'z yoviga ham rahmdil edi.) yurtning chegarasiga bostirib kelgan chet dushmanga g'azab bilan otlangan, unga nisbatan beshafqat.

"Chegarani buzib, uyquni bo'lib menga sen kelding. Kuchsiz bo'lsam, o'laman. Kuchim bo'lsa, seni quritaman", dedi bu safar Sher g'azablanib.

Bu urushda Sher ishongan botirlardan biri Tekesh edi. Ha, o'sha Barsning otasi Tekesh, u paytda o'z urug'ining eng zo'r odamlaridan biri edi. Tekesh ham aslzoda emas, otasi oddiy fuqaro bo'lgan. Biroq u Sherga o'xshab yurtga tanilmagan. U o'zining g'ayrati va kuchi bilan urushda tanildi. Sayqal ona aytganday, qilichini kuch bilan chopgan mard askar Tekesh o'zining mardligi va qahramonligi bilan yurt olqishini olgan. Endi o'sha Tekesh bu safargi katta urushda Sherning tumanida mingboshi, mingboshi bo'lganda ham boshqalardan haybatli, qo'rqmas, boshqalardan hiylagar va boshqalardan rahmdil ham.

Nima bo'lsa ham, qarluqlar bilan bo'lgan katta urush ikki qish, uch yozga cho'zildi. Ovullarning yonidagi yaylovlarda mollar so'yildi, qo'nishlarda ovullar ozaydi. Jangda askar qatorlari ham siyraklashdi. Urushda goh bir tomonning, goh ikkinchi tomonning qo'li baland kelib, o'rtada ko'p askar halok bo'ldi. Urush avj olib, taraflar "Yo hayot, yo mamot", deb bir-birlariga tashlandilar.

Qirg'izning sakkiz tumani ham suyulib, eng oz degan tumanda olti ming, ko'p deganda, yetti ming askar qoldi. O'lganlarning o'rnini to'ldirish uchun ovullarda qolgan qari-yoshlar askarlarga qo'shildilar. Qirg'iz lashkarining bosh xoni Er Qulchurning kuchi ozayib turganda, bargi lashkarining tumanboshchisi Sher o'zining askarlaridan bir qismini urush maydonida qoldirib, ikki qismini o'zi boshlab, qarluq askarlarining yotgan yeriga, ovuliga qo'l soladi. Qarluqlarning askarlari ancha holdan toygan edi. Ular hujumga bardosh berolmaydi. Qarorgohni yov bosib olibdi, degan xabarni eshitib, urush maydonidagi qarluq lashkarboshilari shoshib qolishadi. Ular o'z askarlarini bo'linib qolishdan cho'chib, otlarini orqaga qayirib qochishadi. Qirg'izning qolgan tumanlari yovni orqasidan dam oldirmay quvib borganda Sher qarluq askarlarini qarorgohda to'sib oladi. Oldida yovni kutmagan qarluqlarning shashti ketadi. O'zining qarorgohida shunday ahvol bo'lganini ko'rib, kuchdan toygan qarluqlar yalovini tushirishadi. Lashkarboshilari otdan tushib, tiz cho'kishadi.

— Yengildik, qulingmiz.

Bu jangning dong'ini taratgan tumanboshchisi Sher edi. Hiylagar Sherga qarluq xoni Yorug' tegin qizi Gulxayrni berdi. Ham aqlli, ham botir Sherning bunday taqdirlanishiga Er Qulchur ham xursand bo'ldi. "El dong'ini er chiqarar. Er dong'ini xonning qizi chiqarar. Qarluq yurtining donishmand xonining qizi bizga kelin bo'ldi. Azamat Sher, sening nasling o'zingning yo'lingdan ketsin", — deb Er Qulchur Sherni tabriklab, oq lochin va to'qqiz chopqir ot yuboradi.

— Biz endi bir-birimizga yov emasmiz, qudalashdik. Bundan keyin tutgan yo'limiz bir, — deyishib qarluq bilan qirg'iz do'stlashadi.

Xuddi ana shu bargi yurtining dongdor botiri Sherning Gulxayridan tug'ilgan qiz mana shu Aruuke bo'ladi. Aruuke degani bu — sevimli, kelishgan, jozibali, nihoyatda suluv, ayolning tozasi degani. Bosh tegindan ikki yosh kichik. Er Qulchur qazo topgan tabg'ach bilan bo'lgan katta jangda Sherni yov o'rab oldi. Kunitуni chopishgan Sherning oti o'ldi, o'zi holdan toydi. Oybolta ushlashga ham kuch yetmay qoldi. O'shanda ham yovga taslim bo'lmadi, unga oxirgi kuchini to'plab tashlandi. Kelgan ajaldan qutula olmagan Sher shunqor bo'lib uchib ketdi. Sherning ko'zi o'tib ketganini bilganda yarador Er Qulchurning ko'zlaridan qon tomguday bo'lib, o'ksidi.

— Alp Sherni yo'qlab, alp Qulchur yosh to'kkanda, toshdan ham yosh tomdi, — degan so'z qoldi.

O'sha bahodir alp zamondoshini yo'qlab qattiq koyigan Er Qulchur:

— Alp Sherim uchdi. U mening qanotim edi. Qanotimning g'ayrati naslimga kuch bersin. Ikkovimiz qush ovida birga yurganimizda va'dalashganmiz, tomirlarimiz birlashsin, nasllarimiz abadiy birga bo'lsin, deganmiz. Menda o'g'il bor, undan qiz qoldi. Ikkovini unashtirib qo'yinglar.

Er Qulchurning bu vasiyati amalga oshdi. Bargining bir botiri Tekeshning o'g'li Bars bu kezda Bosh teginnning o'ng qo'li. Bargining tabarruk o'g'li Sherning asl qizi Aruuke Bosh teginning sevimli yori. Hozir Aruuke Sayqalning oq o'rdasining quti bo'lib

chevarlarni yig'di. Balki Aruuke bo'lmaganda Sayqal ona o'z o'rdasiga bunday qilib chevar ayollarni to'plamas edi. Oddiygina qilib, ota naslidagi kelinlarga:

— Boboning kelinlari askarlarga kiyim tikishsin, — deb buyruq berib qo'yib, o'zi goh-goh kelib xabar olib ketardi.

Aruukeni bosh qilib hunarli ayollarni to'plagani, ularga o'zi bosh-qosh bo'lib ish o'rgatgani, qadimgi bobo so'zi — "Ulug' so'z"dan rivoyatlar aytganining sababi, Sayqal ona kelini Aruukening boshqalarning oldida odatlarni yaxshi bilgan, tengdoshlariga ta'lim beradigan, chiniqqan, puxta-pishiq, donishmand va aqlli bo'lishini xohlardi. O'rdada ish qilayotgan ayollar Sayqal onani nihoyatda hurmat qilishadi. O'rda chamg'aragining egasi Er Qulchurning ko'zi o'tmaganda, u ajo bo'lardi. Odiltoy otaning xon taxtida o'tirardi. Sayqal o'rda quti — yurt onasi atalardi. Ko'zi o'tsa ham, yurtni qo'riqlagan Er Qulchurning oyimi Sayqalning oq o'rdasiga odamlar ta'zim qilib, keyin kirishadi. Chiqayotganda ham o'rdada Sayqal ona bormi, yo'qmi, baribir, to'rga ta'zim qilgan holda eshikka orti bilan yurib, sekin chiqadi. Bu — Sayqal onaning o'zigagina bo'lgan hurmat emas, balki barcha yoshi ulug'larga, el uchun kurashgan mard lashkarboshining arvohiga bo'lgan hurmat. Bunday hurmatni har bir oilaning yoshi o'zining ota-onasiga, qariyalarga qilish majburiy hisoblangan. Albatta, boshqa uylarda bu odat oddiyroq bajariladi. Bu — uydagi yoshlarga zo'ravonlik emas, balki bobolarning odati, qadimdan kelayotgan elning tabarruk va qat'iy qoidasi. Har bir urug', har bir nasl va har bir uyning o'ziga xos xosiyati shu qari-yosh orasidagi, o'lik bilan tirik o'rtasidagi hurmat bilan baholanadi. Ulug'ining hurmatni joyiga qo'ymagan yosh uyatsizdir. Unday beboshni og'a-ini tezdan tartibga soladi. Arvohlarning qadriga yetmagan yurtda odat bo'lmaydi. O'tganlarining ruhlarini unutgan odati yo'q yurtni chetdan kelgan yov darrov bosib oladi. Darrov talon-taroj qiladi. Bu bo'yicha alohida bir qoidalar ham bor:

O'z ota-onasini hurmat qilmagan bolani onasining oq suti, otasining haqi ursin;

Hamma ulug'larni hurmatlamagan bolani yurtning tuzi ursin;

Bobosining ruhini unutgan nasl ajdodlardan ayrilib, yolg‘iz qolib, tentirab, qul bo‘lib o‘tsin;

Bobo omonat topshirgan “Ulug‘ so‘z”da bu qoida “Uch so‘z” deb ataladi. Shu “Uch so‘z” qoidasini buzgan kim bo‘lsa ham, u yalpi urug‘ oqsoqollarining oldida tiz cho‘kib qasam ichadi:

— Men shu urug‘ning bolasi “Uch so‘z” talabini unutsam, meni yurtimizning tuzi ursin. Meni haromi qatori oranglardan chiqarib, sotsanglar, qul bo‘layin. O‘ldirsanglar, xunsiz bo‘layin. O‘o‘, tuzi muqaddas yurtim, sizlarga qulman! Qulman! Qulman!

Shunday qilib uch marta qulman, deb aytganlar ham, aytmaganlar ham “Uch so‘z” qoidasiga bosh egadi.

...Sayqal ona o‘rdadan chiqib ketgandan keyin chevarlar bemalol o‘tirishib, o‘zlarini erkin sezib qolishdi. Ayol bo‘lsa ham, erkak bo‘lsa ham, yosh kezda yoshlikdan gapirgisi keladi. Sayqal onani hurmat qilgan, asl, deb sanagan kelinlar ham shu asl oyimning yoshlik chog‘i qanday o‘tganini bilgilari keladi. Biroq hech kim og‘iz ochib so‘ray olmaydi. So‘rash u yoqda tursin, u o‘tirib turganda ta’zim qilishadi. Hali Sayqal ona o‘rdadan chiqib ketib, uning ovozi eshitilmay qolguncha egilib, keyin o‘tirishgan. Erka Aruuke o‘zini erkin tutib, o‘zidan yoshi kattaroq ayoldan kulib so‘radi:

— Chevar opa, sizni biladi, deyishyapti. Oyim onamning boshidan o‘tkazgan eski gaplarni bir yangilab qo‘yarmikinsiz? Chevarlar ham eshitib olishsin.

O‘rta yoshlardagi bo‘yi uncha baland bo‘lmagan qora to‘ri ayol avvaliga gapga e’tibor bermaganday dedi:

— U alohida uzoq gap. Aytsam, aytib berayin. Diqqat bilan eshitinglar. Qiz-kelinga foydasi bor gaplar.

Chevar opa Sayqal onaning qiz vaqti, keyin qanday qilib Er Qulchurga oyim bo‘lganini aytishdan oldin bizning yurtda bo‘lgan qadimgi bir voqeani esga soldi. U shunday bo‘lgan ekan...

UCHINCHI YUTUQ

Saxiy Manas, qoplonim,
Qattiq xo'rlik ko'rdi, deb
Xabarchidan gap uqib,
Kuyib, yonib cho'g' bo'lib.
Dono onang Qanikey
Qanday tursin to'xtalib.
— Janchar sunib, yoy tortib,
Men urishib ko'rayin,
Ajal yetib, kun bitsa,
Afsus, jonni berayin.
Nomusi yo'qning ori yo'q,
Ori yo'qda bari yo'q.
Qiyshaymay janchar sanchayin,
Polvonim azob tortguncha
Aziz jondan kechayin.

Qanikey

Tarixning asosiy vazifasi — rost gapirish. Kelajak avlod yomon so'zlardan, yomon ishlardan va obro' to'kilishdan qochsin, yaxshiligi bilan tilga olinsin, deyman.

Tatsit

Hozir qiz-kelin bo'z uyda o'zlariga ajratilgan alohida joyda ishlab, qozon-tovoqqa yaqin bo'lib boryapti. Bobolarning vaqtida bizning yurtda ayollar uyda ish qilmas edi. O'g'il bola oshlagan boltani qiz bola ham oshlaydi, er chopgan qilichni ayol ham chopadi, degan qadimiy gap bor. U zamon shunday zamon bo'lgan ekan. Arg'umoq uchqur, tuyaning uchquri ham qushday uchgan zamon bo'libdi. Ot — arg'umoq, er novcha, oddiy kishidan alpi ko'p. Inson farzandi hozirgidan ham tinchi ketib, tinim bilmay, tug'ilgandan boshlab umri ot ustida o'tgan, odam umri urush bilan o'tgan qadimgi vaqt — ulug' zamon bo'lgan ekan. O'sha ulug' zamonda bizning yurtning o'g'il bolasidan qizi, eridan ayoli qolishmagan hammasi askar, hammasi bolta chopadigan, qilichboz, janchar sanchadigan va hammasi dubulg'ali bo'larkan. Hozir yov kunduzi kelsa kunduzi, tunda kelsa, tunda hamma birvarakayiga faqat erkaklar otga minib, ko'kragini to'sib, qilichini o'qtalib,

yo‘l to‘sishga tayyor turishadi. Ilgari hamma chiqqan. Erkaklar hozirgidan kichkina bo‘lmagan, hammasi zo‘r, hammasi polvon bo‘lishgan.

Rivoyatlarga ko‘ra, bobolar omonat qoldirgan “Ulug‘ so‘z”da naslimiz o‘sha vaqtdagi yaxshilarni unutmasin, deb shajara berilgan. Keyingi avlodalr ota tagi kim ekanligini bilsin, kelib chiqishini unutmasin, yoqmaganini tashlab, yaxshisini ulab, xil kelmaganini sinab, xil kelganini hurmat qilib bobolar yo‘li, bobolar ishi, deb aniqlab yursin, degan-da bobolar. Biz hozir o‘sha bobolar topshirgan omonatni saqlay oldikmi yo yo‘qmi? Uni Tangri biladi.

Arqonni teskari pishiqlab, o‘ng eshadi. Suv sepib pishirilgan kigiz odamni suvdan ham, sovuqdan ham saqlaydi. Yorug‘ Quyosh ostida hosildor yer ustida kun o‘tkazgan inson farzandining ko‘rgan kuni ham ana shu o‘ng teskarisi bilan qiziq. Ha, endi, chevarlar, donishmandlar aytishadi:

Bugun ko‘rgan ertaga yo‘q.
Bugun ochsan, ertaga to‘q.
To‘yganingda tavfiq qil
To‘lg‘ab solar dunyo sho‘x.

Odam bolasini to‘lg‘ab-to‘lg‘ab tartibga soladigan quyun yo‘qmi? To‘g‘risi, qancha-qancha katta evrilishlar boshdan o‘tdi. Yaxshilik kunlar juda oz. Qiyragan kunlarimiz esa mo‘l. Gullagan bog‘larimiz oz, tepalangan maysazorlar ko‘p. Gul anqigan bepoyon dalalarimizda tez-tez qon hidi qo‘shilib qoladi. Ehhe, bu dahshat qadimdan buyon biz bilan kelayotibdi-yu. Ko‘ziga nimadir ko‘ringanday bo‘ldimi, ayol o‘rdaning tepasiga bir qarab oldi-da, so‘zini uladi:

— Ana, chevarlar, eshitinglar. Olisdan nimanidir dupuri kelyapti.

Askarlarning kiyimini tikayotgan qiz-kelinlar gapirayotgan ayolning so‘ziga chindan ishonishib, hech narsa qilmay quloq solib qolishdi. Bir qiz cho‘chib, o‘zini saqlaganday qo‘y ko‘zlari javdiray tushdi:

— Qo‘rqib ketyapman, chevar opa!

— Qo‘rqma, singlim, — dedi Aruuke. — Nimadan qo‘rqasan?

— Qo‘rqma, qizim, — dedi chevar opa. — Qo‘rqmanglar. Bobosining dupurini eshitib, elasini ko‘rib yurgan zurriyotni Tangri qo‘llaydi. Bobosini unutgan zurriyotning niyati qora. U yo‘ldan ozib, jin-shaytonning yo‘liga tushib qolgani uchun shunday bo‘ladi. Bobo omonat qoldirgan “Ulug‘ so‘z” aytilayotgan paytda tabarruk elas ko‘zga ko‘rinib, sirli dupur-dupur quloqqa eshitilib turgani yaxshi. Undan qo‘rqish emas, quvonish kerak. Quvonganda ham boboning ruhini ko‘rgan zurriyotday quvonish kerak.

Sizlar mendan oyim onaning qiz vaqtini so‘radinglar. Men oyim onaning qiz kezini aytishdan oldin qadimda o‘tgan Talmiz qiz haqida aytayin. O‘sha qadimgi Talmiz qizning ruhi keyingi yashagan singillariga kuch berib yurdi-da. Bizning oyim onamiz ham qiz vaqtida o‘sha Talmiz opaday bo‘laman, degan bo‘lsa kerak. To‘xtang, chevar qizlarim, avval o‘sha Talmiz opa haqida aytaylik, keyin oyim onaning qiz kezi haqida eshitasizlar. Buni bizga shu chevarlikni o‘rgatgan ustoz opamiz aytib bergan, deb eshitinglar. Eshitgan tabarruk so‘zning har birini ko‘nglingizga mahkam tuging. Umr inson farzandiga o‘lchovli berilgan. Qari qari, yosh yosh bo‘yicha yurmasligi ham aniq. Bugungi qari ertaga oq tog‘ni ko‘zlab uchib ketar. Bugungi yosh ertaga qarib, o‘sha oq tog‘ning cho‘qqisiga qarab qolar. O‘sha paytida o‘sha qarilarning etak-yengiga yopishgan nasli bo‘ladi. O‘sha naslga “Ulug‘ so‘z” qoladi.

Kecha o‘sha oq tog‘ning cho‘qqisiga qarab turgan qari onamiz bizga shunday, deb aytgan. “Mening aytganimni ko‘nglingga tugib ol, qizim. Tabarruk onam, o‘zimning onam Jarqin aytdi, deb eshit”, — degan. Hozir men sizlarga o‘sha Jarqin onamdan eshitgan “Ulug‘ so‘z”ni aytaman. Shunday qilsa, oyim onaning asl ishi davom etadi. “Ulug‘ so‘z”ning qoidasi shunday. Yaxshi eshiting, ko‘ngilga tuging!

Boboning bizga aytib qoldirgan omonati — ota-onaning ishini davom ettirish. Yetti otasini bilmagan o‘g‘il — qul. Yetti onasini bilmagan qiz — cho‘ri. Bu oddiy talab. Inson farzandi o‘zining kelib chiqishini to oxirigacha bilishi bu — vazifasi. Bizning naslimizning qadimiy kelib chiqishi — o‘g‘il-qizi birday

askar el ekan. O'sha askar vaqtida elini qo'riqlagan qirq o'g'il bo'lgan. Qirqovining ham mingan oti qizg'ish saman, hammasining kiygani qizil kamzul bo'lgan ekan. Hammasi yoniga beshtadan askar ergashtiradi. Ergashtirgan askarlari ham ko'zga otar merganlar. Shunday bo'lsa ham, ular qirq o'g'ilning oldida mergan emas. Qirqi otda chopib borayotib oldidagini adashmay otsa, berigi beshtasi chopib borayotib to'g'ridagi mo'ljalga yanglishmay tekkizadi. Qirqi chopib ketayotib ustidagini adashmay otsa, berigi beshtasi chopib borayotib orqadagini adashmay uradi. O'sha qirq merganga merganchilikdan qirq qiz raqib ekan. U qizlar qirq yigit merganlarni musobaqaga chaqirdi. "Sizlar mergan yigitsizlar, biz qiz merganmiz. Musobaqalashaylik", — dedi qizlar. "Qiz chaqirgan musobaqadan yigit qochadimi, yigit otganni qiz otadimi?" — deyishadi yigitlar. "Yigit otganni qiz otmay kam qoladimi? Ulug'tog'ning oviga birga boraylik",- dedi qizlar. "Ulug' tog'da bo'ri uliydi, tishi o'tkir. Otolmasang qorningni yorib tashlar", — dedi yigitlar. "Ulug'tog'da och bo'ri qo'rqib uliydi. Shartimiz shuki, kamon o'qi yetgan yerdagi uligan bo'rining ko'ziga otish, yigitlar", — dedi qizlar. "Qiz atagan shartdan yigit qochadimi? Ko'ziga desang, mayli, ko'ziga otamiz", — dedi yigitlar. Shunday shartlashib, qirq qiz, qirq yigit Ulug'toqqa chiqishdi. Silovsin ko'p, ilbirs ko'p Ulug'tog'da. Merganlarning musobaqasi bo'ri otishdan. Hech biri silovsinga ilbirsga o'q uzmaydi. Ko'zga ilashgan bo'ri omon ketmadi. Yaqindan chiqib qolgan bo'rini mo'ljallash yo'q. U uzoqlashguncha kutib turish kerak. Qachon kamon o'qi yetadigan masofaga borganda ko'ziga mo'ljallab otish. Bitta ham qiz mergan, bitta ham yigit mergan o'z navbatini bermadi. Qirq mergan qiz qirq bo'ri otishdi. Bari bo'rilarning ko'zini chiqarishdi. Qirq mergan yigit qirq bo'ri otdi. O'ttiz to'qqizi ko'zga otdi, biri ko'zga tekkiza olmadi. Bo'ri otishdan yutuq qiz merganlarniki bo'ldi. Shunda yigit merganlar juda izzalandi. Ular o'zlarini tuta olmay yangi shart aytishdi: "Bo'ri otishda qizlar yutdi. Sababi, qizlar bo'rini otmasa, u qizlarni yorib qo'yardi. Endi bunday qilaylik. Sizlarga ham, bizga ham teng: oqqush otamiz, qizlar. Oqqushni ham osmonda ko'ziga otishdan o'ynaymiz", — dedi yigitlar.

Oqqushni ko'ziga otishga qizlar ko'nadi: "Qiz aytgan shartga yigitlar ma'qul bo'lishdi. Biz ham yigitlar aytgan shartdan qochmaymiz", — deydi qizlar.

Shundan keyin qirq o'g'il, qirq qiz merganlar o'z jo'rlari bilan Yashilko'lning bo'yiga qarab jo'nashdi. Erta bahor mavsumi bo'lganligi uchun boshqa tomonlardan oqqushlar to'p-to'p bo'lib uchib kelayotgan edi. Oqqush birovga zarari yo'q, tabarruk qush. Qiz merganlar qiziqishda va'da berib qo'yganliklarini osmonda qatorlashib, "giv-giv"lagan oqqushlar uchib borayotganini ko'rganda bilishdi. Otaylik desa, oqqushlar qayg'uli ovoz chiqarishadi. Qiz merganlar oqqushlarni otmasdan to'xtab qolishdi. Shunda yigit merganlar quvonishdi:

"Qizlar yutqazishdi. Qizlar yutqazishdi". Qizlar nima uchun otmayotganliklarni aytishdi. "Bu oqqushlar uya solgani ketishyapti. Bizning otgimiz kelmadi". Yigitlar oxirini o'ylamay o'z fikrlarini aytishdi: "Oqqushni ayaganinglar yo'q. Osmondagi oqqushga tegiza olmaymiz, deb qo'rqdinglar". Shunda qizlar irinlarini tishlashdi. "Mayli, unday desanglar, shartni bajarish uchun oqqushni otsak, otaylik, lekin uvoli bizga emas".

Qirq mergan qiz, qirq mergan yigit osmondagi oqqushlarni otishdi. Qirq mergan qiz qirq oqqush otdi. Hammasi oqqushlarning ko'ziga otdi. Qirq mergan yigit qirq oqqush otdi. O'ttiz to'qqiz o'q oqqushning ko'zini teshdi, bittasi bo'yniga tegdi. Bu safar ham mergan yigitlar mergan qizlarga yutuqni oldirishdi. Mergan yigitlar mingan otlariday, kiygan kiyimlariday o'zlari ham uyatdan qizarishdi. Ikki marta yutuqni oldirgandan so'ng uchinchisiga yo'l yo'q. Bo'lsa ham, uning bajarish sharti juda murakkab. Uchinchi shartni o'ylash uchun yigit merganlar Yashil ko'lning bo'yida qolishdi. Qirq mergan qiz har biri beshdan sherigini ergashtirib, yutug'i bor, obro'si yuqori holda uy-uylariga qaytishdi. Qaytadigan vaqtda kulib aytishdi:

"Yigitlar atagan shartni qizlar bajarib, yutuqqa ega bo'lishdi. Uyatidan qizarib yigitlar qoldi. Ha, bechora yigitlar. Navbatdagi yutuqdan quruq qolma, ey, qirq bola". Eldan elga qiz merganlarning dong'i ketdi. Yutuqni oldirgan qirq mergan yigit uyatidan qizarib, har biri beshdan sherigi bilan Yashilko'lning bo'yida qolib-

di, degan xabarni to‘rt tarafga aytadigan aytib yetkazib bo‘libdi. Qirg‘izning qirq mergani beshdan sherigi bilan Yashilko‘lning bo‘yida ekan, degan xabar tezdan yetti tog‘ning ortidagi fors podshosiga yetib bordi. Azaldan qirg‘iz yurtiga ginasi bor fors podshosi qirg‘izning o‘sha qirq merganini tutib, bog‘lab olib kelinglar, deb askar jo‘natdi.

O‘sha vaqtda mergan yigitlar Yashilko‘lning bo‘yida kunduzi aylanib sayr qilib, ancha-muncha ov qilib, kechasi dam olib, qirq kecha-yu qirq kunni o‘tkazishdi. “Ertaga qirq birinchi kuni katta o‘lja bilan elga qaytamiz. Yoy tortish bo‘yicha rosa mashq qildik. Mergan qizlarga yangi shart aytamiz”, deyishib, kechasi yotishganda, fors podshosining yuborgan askarlarni ularni bexosdan bosib, matab, otlarga tang‘ib olib ketishdi. Bu xabarni eshitib, o‘sha vaqtdagi bizning qirq urug‘ qayg‘uga botdi. “O‘o‘, Ulug‘tog‘dan ular[1] uchirmas, yashil to‘rdan kiyik qochirmas bizning mergan yigitlarni yov bog‘lab olib ketdi. Endi lashkar boshlab chegaraga kim boradi?” — deyishib, kishilar xafa bo‘lishdi. “Merganlarini tutdik. Endi el-yurtini bosib olamiz, — deb fors podshosi lashkar boshlab kelsa, nima qilamiz? O‘tda qozon sinib, o‘choqda kul sovurilib, to‘rda hurmat ko‘radigan ota-ona bo‘g‘ilib, asl qizlar cho‘ri bo‘ladimi, yo, Tangrim”, — deb boshlari gangidi.

Yigitlar shunday, deb qayg‘urishdi. O‘shanda qirq mergan qiz bir joyga to‘planib, kengash o‘tkazdi. “Tinch sayr qilib, aylanib yurgan yigitlarga borib shart qo‘ygan biz bo‘ldik. To‘g‘ri, biz ularga yomonlik xohlaganimiz yo‘q. Mahoratini sinashdik. Shunday bo‘lsa ham, miqti yigitlarni o‘sha falokatga biz boshlab borganday bo‘ldik... Endi buyog‘iga ko‘nglimiz tinchimaydi. Forslar bizning mergan yigitlarimizni bog‘lab olib ketdi. Qiz merganlar biz nima deymiz?” — deb bir mergan qiz boshqalariga javdirab qaradi. U uzun bo‘yli, ozg‘indan kelgan, oqish yuzli chiroyli qiz edi. Chiroyli qizning so‘zini eshitgan boshqa bir suluv qiz javob berdi:

“Qiz matalib, cho‘ri bo‘lib, yov qo‘lida yursa, uni yoy tortgan askar yigit cho‘rilikdan qutqaradi. Hozir teskarisi bo‘ldi, yigitlar matalib, yov qo‘liga qul bo‘lib ketdi. Ularni yoy tortgan hunarli

[1] **Ular** — kurkaning yovvoyisi.

qizlar qutqarmaydimi? Yo o‘g‘il bolaning g‘ayrati qiz bolada bo‘lmaydimi?”

Bu gapni eshitgan boshqa mergan qizlar o‘zlarining fikrlarini aytishdi:

“Shartlarni bajarishda qolishmadik. Endi yigitlarni qullikdan qutqarishdan qochamizmi? Uning ustiga biz yigitlarsiz yolg‘iz o‘zimiz ota yerimizga nasl tarqatib, yurt chegarasini yovdan qo‘riqlaydigan o‘g‘il-qiz tug‘ib bera olamizmi? Yo‘q, albatta. Yarmimiz yo‘q bo‘lsa, biz jonsizmiz. Jonsiz bo‘lib hayot kechirguncha, o‘sha yov qo‘liga tushib, cho‘ri bo‘lganimiz afzal emasmi? Yo yigitlarni yov qo‘lidan qutqarib kelaylik”.

Mergan qizlar qiz kiyimarini xurjunga solishdi. Erkakcha kiyinishdi. Erkaklarning yarog‘ini taqinishdi. Har biri olti oyga yetadigan guloziq olishib, yo‘lga chiqishdi. Mergan qizlar yo‘lga chiqishdan oldin yurtning hammasi — katta-kichik, qari-yoshi duo qilishdi:

“Yo‘linglar ochiq bo‘lsin, chiroqlarim. Uyda o‘t o‘chmasin, qozon qaynab, rizq kamaymasin. Yo‘qolgan yigitlar topilsin. Esi yo‘q yigitlarni aqlli qizlar qutqarib qaytsin. Yolg‘iz ketgan chiroqlar juft bo‘lib qaytsin. Ko‘k osmondan tushgan qut-baraka bo‘lib qaytinglar. Juft bo‘lmay yo‘q bo‘lsanglar, yurt boshiga qorong‘ilik tushadi. Hammang shuni yodingizdan chiqarmang. Oltin, kumush, ipakka qiziqib ketmang. Oqsaroydagi bekzoda mo‘ylovini burasa, aldanib qolmang. Qo‘nishda ota-ona qolayotganligini unutmang”.

Mergan qizlar Quyoshga qarab ont berishdi:

“Asil narsalarga sotilsak, bekzodaga aldansak, bizni tabarruk yer ustida yurgizmay muqaddas Quyosh kuydirsin.

Shu ontni berib mergan qizlar har biri yoniga beshdan qizni ergashtirib, hammasi ikki yuz qiz, ikki yuz askar yo‘lga chiqishdi. Eldagi eng tajribali va eng aqlli qariya yilqichini o‘zlariga yo‘l ko‘rsatuvchi qilib olishdi.

U paytda inson farzandiga faqat odam, yoki yirtqich, bo‘ri, ilon yoki cho‘lda shuvoq cho‘pning tagida bekinib yotgan buzoqboshi, chayon emas, hozirgi zamonda mutlaqo yo‘q bo‘lib ketgan juda vahshiy, tirnoqlari dahshatli, tiriklayin yutadigan yeltovon, yolg‘izoyoq kabi hayvonlar odamlarga xavf tug‘dirardi. Uzoq

yo‘l yurib, baland tog‘larni oshib kelayotgan askar-mergan qizlar qancha qalin o‘rmonlarni oralab, qancha baland dovonlarni oshib o‘tishadi. Yo‘l yurib, yo‘l yursa ham mo‘l yurib, bir kuni bir tomoni oq qayin bilan qizil chetan qoplagan, bir tomonida yashil archa bilan uzun qarag‘aylar o‘sgan, o‘rtasida tiniq suv oq ko‘pik hosil qilib toshqinlab oqayotgan ertakdagiday so‘lim bir o‘zanga kelishdi. O‘zan suvi tip-tiniq, tagida o‘ynab yurgan oq baliqlar yalt-yult etib askar qizlarni qiziqtirdi.

Bularning o‘nboshi, yuzboshisi yo‘q. Yo‘l ko‘rsatgan qariya yilqichi. Qizlarni boshlab kelayotgan endi o‘n to‘qqiz yoshga to‘lgan Talmiz qiz. O‘n to‘qqiz qiz bolaga katta yosh. O‘n to‘qqizdan oshgan qiz erga tegishi kerak, erga tega olmasa, yerga ketishi aniq. Askar qizlarning eng kenjasi Oyqiz edi. Oyqiz o‘sha vaqtda o‘n beshga to‘lgan. O‘n besh yosh qiz bolaning oltin bo‘sag‘aga oyoq qo‘yadigan payti. Qiz bola o‘n besh yoshida o‘ynoqi, o‘tday issiq, suvday suyuq bo‘ladi. Uning suyuq qoni o‘n beshida qo‘yilayin, to‘xtalayin, deya boshlaydi. O‘sha suvday suyuq Oyqiz otga qamchi bosib, Talmizga yetib keldi:

— Cho‘ldan o‘tdik, dovon oshdik. Endi yerning qaymog‘iga keldik, opajon. Ot o‘t iskasin, o‘zimiz qurut ezib, ozgina tamaddi qilaylik. Shu go‘zal yerda biroz dam olvolaylik, — dedi Oyqiz. Shunda Talmiz tizginini burdi-da, boshqalardan so‘radi:

— Otlar biroz o‘tlab olishsin, o‘zimiz ham tamaddi qilib olaylik, deyapti Oyqiz. Sizlar nima deysizlar?

— Biz aytolmay kelayotgandik. Shu go‘zal o‘zanda bir-ikki kun yotib, dam olsak, anovi suvdan baliq tutib, archa o‘tinida pishirib yesak, yomon bo‘lmasdi.

O‘sha kezda tepadan sibizg‘aning yoqimli ovozi eshitildi. Talmiz ham, Oyqiz ham, boshqa askar qizlarning hammasi ovoz kelgan tomonga qarashdi. O‘sha vaqtda o‘zanning qayin qoplagan tomonidan qarag‘ay o‘sgan tomonga g‘alati bir go‘zal qush uchib o‘tayotgandi. Haligi sibizg‘adan kelayotganga o‘xshagan ovoz uning qanotlari orasidan chiqayotgan ekan. U qarag‘ayning orasiga kirib g‘oyib bo‘ldi. Ovoz ham bosildi. Askar qizlar bu holatga juda qiziqishdi.

"Yaxshi, dedi Talmiz. Lekin tunamaymiz, ovqatlanamiz. Otlardan tushinglar".

Hammasi otidan tushib, otlarning suvliqlarini chiqarib, ayilini bo'shatib, har biri o'z otlarini o'tga qo'ydi. Hash-pash deguncha bo'lmay, archa o'ti olovlanib, o'rtadagi sayohat qozonidagi suv burqullab qaynab chiqdi. Tutilgan baliqlar qozonda tez pishdi, qizlar baliq etini yeb, baliq sho'rvasini maza qilib ichishdi. Keyin hammasi charchagan emasmi, ovqatdan keyin uyquga ketishdi. Cho'p qalin o'sganligidan otlar atrofda o'tlab yurishardi. Yurishlarga minilib, askar sirini bilib qolgan jonivorlar ko'k o'tni chaynash asnosida boshini ko'tarib, u yoq- buyoqqa qarab qo'yardilar.

Otlarning o't chaynagani, suvning sharqirab oqqan ovozlari qo'shilib ta'sir qildimi, yo charchaganimi Talmiz uxlab qoldi va uyqusida tush ko'rdi. Tushida: "Shu so'lim o'zanning bo'yida haligi g'aroyib qushning uchganiga qarab turgan emish. G'aroyib qush uchib borib qarag'ayning uchiga borib qo'nibdi. Qarag'ay uch marta egilib, uchi uch marta yerga tegdi. To'rtinchi marta egilganda, qarag'ayning uchi uni qarab turgan Talmizning qo'liga yetdi. Voy-ey, bu tabarruk narsaga o'xshaydi. Juda tez uzun bo'lib ketarkan-a, deguncha bo'lmay chiroyli qanotli qush odamga o'xshab gapira boshlar emish. U so'zida shunday debdi. "Shu go'zal o'zanning suvini ichding, oq balig'idan totding. Endi hammang uxlab qolding. Uyqu — dushman. Tez uyg'onib, tez otlanib, bu o'zandan tez ketib qolinglar. Kech qolsang, maqsadingga yetmaysan. O'zing jeztumshuqqa yem bo'lasan. Tushingda senga ayon berib, senga bu so'zni aytgan, Talmiz qizim, sening yettinchi katta buving Boy opangman." Egilib turgan qarag'ayning uchi ko'tarilib ketdi. Talmizning yuziga salqin shamol tegib, uyg'onib ketdi. Qandaydir bir tabarruk sir ochgan quvonchmi, o'kinchmi, qo'rquvmi Talmizning yuragini titratib yubordi. U irg'ib turib, qizlarni uyg'otdi. Tezlik bilan otlanishdi. Tez yurib, yerning qaymog'i bo'lgan o'zandan ancha uzoqlashib ketdi.

Bu vaqtda mergan yigitlar unchalik yomonlik ko'rishgani yo'q. Yomonlikning ostonasini bosib qolishgan. Tutqunlikdagi askar — qanoti singan qush. Tagida oti yo'q, ustida askar kiyimini yechib olishgan. Qo'l-oyog'ida kishan, ikki ko'zi ilojsizlikdan u

yoq-bu yoqqa qaraydi, tiliga so‘z kelmaydi. Tutqunlikdagi askarning nafas olishini hisobga olmaganda o‘likdan ortiqchiligi yo‘q. O‘lik — o‘lik. U hech narsani sezmaydi, hech narsani bilmaydi. Tutqun xo‘rlik tortib, nomusi toptalib, g‘azabga to‘lib turadi. Kuchlisi g‘azabga to‘lgan holda chidaydi. Kuchsizi yovning oyog‘iga yiqiladi. Bu esa dushman uchun katta yutuq. Dushmani oyog‘i ostida yotganida uning obro‘si oshadi. Odamlar shunday qilib o‘z obro‘sini ko‘tarish uchun urushga kiradi. Bu odamning eng teskari, yomon tomoni...

Matalgan yigitlarni fors askarlari o‘z podshosining oldiga haydab kelishdi. Fors podshosi o‘sha vaqtida boshqa elning podsholaridan kuchli, eli ham hunarli edi. Temir darvozali qal’alari toshdan mustahkam qurilgan. O‘sha qal’ada podsho yashardi. Oq saroyi bor. Uning darvozasi oltindan. U yerda oltin, kumush bilan to‘ldirilgan xazina bor. Usta ishlayotgan tabarruk joylar ham bor. Ular o‘z askarlariga qurol-yaroq, temir sovut yasashadi. Forsning askarlari sonsiz, hammasi qurollangan, bari sovut kiygan. Ularning otdan boshqa fil, uchqur tuyalar mingani son-sanoqsiz, piyoda askarlari ham juda ko‘p. Qisqasi, o‘sha paytda yer yuzida yaxshi qurollangan eng ko‘p askari bor, lashkarini yaxshi tayyorlagan podsho shu fors podshosi edi. U quyosh chiqadigan tomondagi fil minadigan hindni, quyosh o‘tgan tomondagi tuya mingan arabni bosib olgan. Kun botish tomondagi ko‘lning qirg‘og‘iga chiqib, u elning o‘zini bosib, kemalarini cho‘ktirib, muguzlik alplarini asir qilib, dunyodagi ishlarni yakka o‘zim bilaman, deb takabburlik qilib turgan podsho fors podshosi edi. Cho‘l, dala bilan qorli tog‘lar o‘rtasida mol boqib, dehqonchilik qilib yurgan bizning yuvosh elimiz u paytda tinch o‘zining kunini o‘tkazib, urush-janjal bilan ishi yo‘q payti bo‘lgan. Mergani tog‘da, dehqoni dalada, yilqichisi qirda, qariyasi to‘rda, donishmandlari aytgan so‘zni katta-kichik qulog‘iga olib, tinch kun o‘tkazgan mo‘min yurt qadimgi bobolardan beri o‘zi boshqa yurtga qilich o‘qtalib bormagan, qon to‘kishga aralashmagan. Lekin chegarasiga bostirib kelgan qonxo‘r yovga bosh egmagan. O‘z chegarasini, orini, o‘z erkinligini mudofaa qilganda bizning elning kuchiga kuch qo‘shilib ketardi. Bu uning qadimiy odati. “Yotning qonini orzu qilma. O‘z

naslingning qonini to‘ktirma, ey, zurriyot”, degan boboning omonat so‘zini katta-kichik yodida saqlaydi.

O‘sha lashkari kuchli fors podshosi necha marta lashkar yuborib bo‘ysundiraman, deb harakat qilib, maqsadi amalga oshmagan yurt bizning mo‘min yurtimiz edi. Kuchli podsho o‘zining qonli qilichiga tayansa, bizning mo‘min yurtimiz o‘zining odil ishiga tayandi. “Mo‘minni Ko‘k Tangri o‘zi qo‘llaydi”. Katta kuch bilan bostirib kelganda, bizning mo‘min bobolar forsga bo‘ysunmadi, oldiga tushib, qul, cho‘ri bo‘lib ketmadi. Bizning mo‘min bobolar fil minib kelgan yov askarini qamishzorga haydadi. Keyin o‘zlari qamishzorda arslon bo‘lib hayqirishdi. Fil minganlarni qamishzorda qoldirdi. Bizning bobolar yovning otliq askarlarini cho‘lga haydadi. Cho‘lda o‘zlari ko‘k tuyoq[1] qulon bo‘lib chang-to‘zon ko‘tardi. Forsning otliq askarlari cho‘lda qirib yuborildi. Shunday qildi. Tog‘dagisi tog‘da, cho‘ldagisi cho‘lda sovqotdi, adashdi, keyin qirg‘in topdi. Bizning mo‘min bobolarimiz esa urushda o‘lganlarini qayg‘u va alam bilan yerga berib, qabr ustiga tosh uyib, yig‘lab, yo‘qlab, qayta yana tinch yashay berdilar.

Fors podshosining g‘azabi keldi. O‘zini qo‘yarga joy topolmay qoldi. “Bu bo‘ysunmas yurtning o‘g‘lini qul, qizini cho‘ri qilaman. Yer-suvini olib, undagi asl boylik bilan xazinamni to‘ldiraman”, — dedi. Biz tomonga tinmay lashkar yuborib turdi. Eplab chatoq chiqarib, urush boshlasam, dedi.

“Xuddi shu chatog‘imning chaqmog‘i chaqilar, harakatlarimizga o‘t ham tutashar. Tutashgan o‘tdan yong‘in kelib chiqar. O‘sha yong‘in mana shu tishli itlarni quyqalar. Ularning barcha konlarini, yer-suvini men egallarman. Oq kumush, sariq oltinga xazinani to‘ldirib, mardligim va tashigan boyligim bilan dunyoga dong‘im ketar”, degan podsho yurtimizning qirk mergani va ikki yuz askar yigitlarini matab ketishdi. E, voh, u ikki yuz qulun — ikki yuz sher edi. O‘sha ikki yuzning qirqi qirq katta otaning bolasi. Otalarning qirqovi ham oddiy fuqaro emas, qirq urug‘ning tiragi — biri faylasufi, biri notig‘i, biri yo‘l ko‘rsatkichi, biri lashkarboshi, biri qadrli oqsoqoli, biri mohir ustasi. Ularning hammasi birday o‘sha kezdagi yurtimizning eng qadrli bolalari.

[1] **Ko‘k tuyoq** — po‘lat tuyoq ma’nosida. (Muallif sharhi)

Fors podshosi ularni qo'lga tushirganda xuddi shuni hisobga olgan. "Ularni asirlikka olsam, otalari qirq o'g'ilni o'lib ketishini xohlamaydi. O'g'illarining o'lishini bilib, u, itlar, tepalikda it ulishini qilib, Quyoshga sig'inib, yig'lashadi. Xuddi ana shu vaqtda men yuborgan elchilar g'ingshigan itlarning oldiga borib, otni to'g'ri tortadi:

— Biz podsholar podshosining oldidan keldik. Sizlarga o'g'lingizning joni qimmat bo'lsa, peshonangizni yerga qo'yib, podsholar podshosiga taslim bo'ling. Yo'q, taslim bo'lmasang, yurtni qo'riqlaydigan sher bo'laman, deb qizil kiygan o'g'illaringni it o'limida g'ingshib, terisi sidirilganini ko'z oldingga keltir. Undan keyin yurtingni xonavayron bo'lganini ko'r. Yumshoq kuling sovuriladi, qattiq qozoning pachaqlanadi", — deydi.

Qizg'ish saman ot minib, qizil kamzul kiyib, shamol bilan musobaqalashib, qirda, tuzda erkin yurgan, chanqasa, qimiz ichgan, asl o'g'illar hozir zindonda. Zindon chuqur, tagi zax, iflos. Quloq uqib, ko'z ko'rmagan xo'rlikni tortib, yigitlar o'sha yerda yotishibdi. Ularning nazdida ipor hidli keng dunyo nurab, yo'q bo'lganday. Qandaydir bir zo'r kuch o'sha keng dunyoni gilamga o'xshatib chekkasidan ko'tarib, silkib-silkib, keyin changini qoqib, chiqqan axlatini to'plab shu zindonning ichiga tashlab yuborganday. Qirg'iyday erkin uchib yurgan yigitlar endi shu axlat bilan changning ichida o'tirishibdi. Oz vaqt o'tganiga qaramay, holsizlanib, ko'rinishi qadrsiz chiriyotgan terining rangiga, kigizning kesindisiga o'xshab ketganday tuyildi. Bu o'ta xavfli sezimni ko'ngildan chiqarib yuborish uchun ulardan biri: "Men odamman, men ot o'ynatib ovga chiqqan merganman. Men chegarani kuzatgan askarman", — deb qiyqiradi, buraladi, umid qiladi. Ko'kka qaraydi. Olis-olisda osmon ko'rinadi. Lekin u keng dunyoga miltillagan yulduz ko'zlari, yorishtiradigan quyosh ko'zlari bilan qaragan chiroyli osmonga emas, ko'kish bo'yoq surtilgan kaftday bo'zga o'xshaydi. Endi askarni yer o'zi shimib, so'rib qurtga aylantirib borayotganday seziladi. "Rostdan ham men qurt bo'lib qoldimmi? — deydi yigit. — Men odam edim. Men ot o'ynatgan askar yigit edim. Yo'o', yo'o'q! Men hech vaqt qurt bo'lmayman. Vaaa, berahm, jallod. Tort meni, bu zindonga qanday tushirsang,

o‘shanday qayta tortib ol. Men dala-qirda erkin o‘sgan elning quluniman. Men sizlarning oldingizda hech qanday jinoyat qilganim yo‘q. Men sizlarning bunday qurgan tosh uylaring bor ekanligini ko‘rgan emasman, sizlar qurgan go‘zal imorat, sizlar o‘stirgan yaxshi mevalar bor ekanligin bilgan emasman. Bilsam ham, ko‘rsam ham, bu boyligingga, bu yashashingga qiziqmas edim. Menga o‘zimning erkinligim va rohatim yetarli. Nima uchun sizlar hiyla bilan o‘g‘irlab meni matab, bu yerga olib kelishding? Nima uchun meni bu chuqur, sassiq zindoningga solding”. Tepada bo‘zga o‘xshagan Ko‘kning chetida odamning boshiga o‘xshagan ko‘lanka ko‘rindi.

— Baqirma, it, — dedi o‘sha ko‘lanka. Uning ovozi arang eshitildi. — Sen shu qorong‘i, sassiq yerda yotib, qurtga aylanasan.

— Men odam bolasiman, — dedi tutqun. — Odamni qurt bo‘lsin, degan odat bizning elda yo‘q. Meni yorug‘likka chiqaring.

— Sening qoidalaring bizga o‘tmaydi, — dedi soqchi.

— Sening qoidang menga o‘tmaydi, — dedi tutqun askar.

— Og‘zingni yop, — dedi soqchi. Cho‘lning zaharli ilonini tashlayman. U sening og‘zingni yopadi.

Mergan yigit shu zax zindonda yotganda, mergan qiz yashirincha fors yurtiga kirib keldi. Ikki yuz kishi, har birining mingani zaxira ot bo‘lib to‘rt yuz otni payqamay qolish mumkin emas. Dala-tuzdagi molchi, dehqon, yer kezgan askar bularni ko‘rib qolishi, ehtimol. Ko‘ringandan keyin mergan qizlar ham asirlikka tushib qolishi mumkin. Unda bularning yurtiga ilgarigidan ham battar qayg‘u tushadi. O‘zlari yorug‘ ko‘rmay cho‘ri bo‘lishadi. Shularni o‘ylab, mergan qizlar maslahat qilishdi:

— Tekislikka tushmaylik. Tog‘dan bir yashirinadigan joy topaylik. Tog‘dan qarasang, balanddan olisni ko‘rasan. Tog‘dan o‘tloq joy topsak, otlarga ham yaxshi bo‘ladi. U yerda otlarimiz dam olsin. Biz o‘zimiz yigitlarni qanday qilib qutqarishni chorasini ko‘raylik.

Talmiz qizning bu maslahati boshqalarga ma’qul bo‘ldi. Mergan qizlar tog‘dan yashirinadigan joy topishdi. Kechasi emas, kunduzi atay izlab kelgan kishi ham zo‘rg‘a topadi. Bir tomoni jarlik, bir tomonida toshlar atayin to‘plab qo‘ra qilinganday o‘tloq,

u yerga otlarni qo'yishdi. O'zlari dam olishdi. Ikkitadan uchtadan bo'lishib, mol izlab yurganday yo'lni kuzatib, atrofdagi xabarlarni to'plab biroz vaqtni o'tkazishdi. Kunlardan bir kuni xachir minib, tuya yetaklab kelayotgan ikki dehqonni yo'liqtirishdi. Ular olisdan ko'ringandayoq qiz kiyimini kiygan Talmiz qiz o'g'il bolacha kiyingan Oyqizni ergashtirib, haligi ikki odamning oldidan chiqishdi.

— Tuyanglar qo'mli bo'lsin, akalar, — dedi Talmiz ularga.

Dehqonlar quvonib ketishdi:

— Ee, rahmat, rahmat! O'zing horma, qizim. Hech kim yo'q yerda nima qilib yuribsan?

— Podsholar podshosiga arz bilan ketyapman, — dedi Talmiz.

Dehqonlar Talmizning gapiga ishonqirashmadi. Bir-biriga qarab olishdi-da, qora soqolligi: "U qanday arz ekan, qizim?" — dedi.

— Odati yomon kishilar mening oshig'imni o'g'irlab ketishdi.

Qorasoqol dehqon sergak va rahmdil kishiga o'xshadi:

— Oshig'ing kim edi, uni qayerdan o'g'irlashdi?

— Yashilko'lning bo'yidan. U bizning yurtning qirq o'g'li, qirq mergani. Ularning boshlig'i mening oshig'im edi. Forslar oshiqni hurmat qilishadi, deb eshitganman. Men o'sha oshig'imni izlab yuribman. Bilsangiz, yordam qiling.

Dehqonlarning biri yosh ko'ringan edi. Ko'rsa, u ko'sa ekan. U miyig'ida kuldi-da, dedi:

— Biz fors emasmiz, yaxshi qiz. Biz fors bo'lganimizda seni shu turgan yeringdan matab, olib ketardik. Biz forslarning qal'asiga savdo-sotiq qilib yurgan anovi tomonning elidanmiz. Anovi tomon, deb u tog'ning orqa tomonini qo'li bilan ko'rsatdi.

— Podsholarning podshosiga arz bilan boraman, deb aqlingdan adashma, suluv qiz. Podsho sening arzingni eshitmaydi. O'zining saroyga cho'ri qilib qo'yadi. Xor bo'lmay turib, elingga qaytib ket.

Talmiz yig'lamsiradi:

— Oshig'im ko'rgan xo'rlikni men ko'raman.

— Ey, g'arib, — dedi qorasoqol. — Oshig'ing zindonda. O'g'illarining o'limini xohlamas, dalaning itlari taslim bo'lsin,

deb podsholarning podshosi sizlarning yurtingizga elchi yuboribdi. Sizlarning yurtboshchilaringiz aqlidan adashsa, podsholarning podshosiga aldanib, taslim bo'ladi. Aqlidan adashmasa, o'zlarining erkinligini qo'riqlaydi. Senday suluv qizlarini cho'ri bo'lishidan saqlar. Sen qaytib ket, elingga shuni aytgin.

Ko'sa o'ylanganday dedi:

— Yana bir gap. Sen tez qaytmasang, kech qolasan. Podsholarning podshosi elchi yuborganiga bir oycha bo'ldi.

Qorasoqol o'zicha achinganday bo'ldi:

— Gunohsiz yurt xor bo'lmasaydi.

Ular jo'nayotganda Talmiz so'radi:

— Yo'lni aytib bering, aka. Podsholarning podshosiga qanday boradi? Men unga arzimni aytmay qaytmayman.

— Podshoga boradigan yo'l bitta, xolos, — dedi qorasoqol ajablanib, ichidan Talmizni ayab. — Kim yo'liqsa, podshoga boraman, desang, u senga yo'lni ko'rsatib beradi.

Ikkovi orqaga qarab, qarab ketishdi. Biroz yurgandan keyin ko'sa xachirini qaytarib yeldirib keldi-da, maslahat berdi:

— Ey, tentak qiz. Bizning so'zimizga kirgin. Podshoning oldiga borma. Unda ko'ra yo'lni poyla. Ertaga podshoning o'g'li shahzoda o'zining do'stlari bilan anovi toqqa ovga keladigan kuni. Shahzodani donishmand va rahmdil, deyishadi. Sen o'sha shahzodaga arzingni aytgin. Podsho shahzodani qadrlaydi. O'g'lini juda yaxshi ko'radi, deb eshitganmiz. Shahzoda esa otasini qonxo'r, deb yoqtirmaydi deyishadi. Senga foydasi tegsa, o'sha shahzodadan tegadi, — dedi-yu, xachirini yeldirib jo'nab ketdi.

Qorong'ida teshikdan yorug' ko'ringanday bo'lib, Talmiz o'z sheriklarining oldiga quvonib qaytdi. Dom-daraksiz ketgan yigitlarning hozir tirik ekanligini uqdi. Podsho yigitlarning boshini oldirmabdi, ularni xor qilib, qo'rqitib keyin ularning boshidan ko'prik qurib, shu yigitlarning elini bo'ysundirmoqchi bo'lgan podshoning maqsadini bilgandan so'ng, Talmiz endi ishni kechiktirmaslikni o'yladi. Qizlar:

— Ovga kelgan shahzoda va bekzodalarning oldiga qiz kiyimimizni kiyib yig'lab boramiz, — deyishdi. Shunda yilqichi qariya qarshi fikr aytdi:

— E-e, kunduzi yongan chiroqlar, sizlar qiz kiyimini kiyib shahzodaga ko'rinar zahoti boshga balo yig'iladi. Shahzoda sizlarni ayashi mumkin. Yonidagi bekzodalari ayamaydi. Qirqingni qirqi, yuzingni yuzi sizlarni o'lja xotin qilib olib ketadi. Unday bo'lganda bizning yurt ikki hissa qayg'uga botadi. Unday qilmanglar, chiroqlarim. Sizlar qiz kiyimini kiyib hammang ko'rinma. Shahzoda ovda bir kun bo'lsa, ko'p kun sayr qilib yuradi. Tog'dan ular ovlamay, daladan qirg'ovul ovlamaguncha shahzodaning xumori bosilmaydi. Keyin suvning bo'yidagi maysazorga qo'shini to'xtar. Ovdan keyin qo'nishga qaytganda o'yin-kulgi uyushtirib, dam olar. Mumkin ularning ko'ngilochar qizlari birga kelgandir. O'shanda bizning ish o'ng tomonga surilar edi. Kim biladi yana. Ehtimol yigitlar o'zlari kelishgandir.

Qariya yilqichi qarisa ham, yonib turgan ko'zlarini ma'noli ochib yumdi, siyrak soqolini siladi. "Tavakkal. Hiylaga — hiyla, kuchga — kuch. Bir boshda bir o'lim", — dedi-da, o'z fikrini qizlarga aytdi:

— Talmiz sen chiroylisan, shuning uchun sen qiz kiyimingni kiyasan. Yoningda yolg'iz men bo'laman. Shahzodaning qo'nishida u qirg'ovul kabobni shimib, sharob ichib, sarxush bo'lib turgan paytda, ikkovimiz yashirincha borib, oldiga tura qolamiz. Aytadigan so'zni unga, Talmiz chirog'im, o'shanda aytasan. Qolganlar askar kiyimini kiyib, askar yarog'ini mahkam tutasiz. Askarlar yoylarini yovga qaratib, tayyor turishadi. Birortangiz ham ko'rinmaysiz, boshqalarga bildirib qo'ymaysiz. Shahzoda o'ng javob bersa yaxshi, agar u bizning da'voga achchig'i kelib, bizni bog'lab, o'ljaga olishga harakat qilsa, Talmiz chirog'im, o'shanda belgi berasan. Bobolarimizning ruhi sizlarni qo'llab, yoylardan o'q uzasizlar. Dumi bor qizil o'q shahzodaning bo'rkiga sanchilsin. Yoyni tortganda Oyqiz mo'ljaldan adashmagin. O'q shahzodaning bosh terisiga yetmasin, qunduz bo'rkining tepasini tepchisin. Gapga ko'nmasa, odam bolasi kuchga ko'nadi. Undan keyingisi ko'rib yotarmiz.

Hamma qariya yilqichining rejasiga rozi bo'ldi.

Dehqonlarning eshitganlari rost ekan. Do'stlari va jo'ralari bilan ovga chiqqan shahzoda mergan qizlar yashiringan tog'ning

etagida ko'rindi. Ular tantana bilan kelishardi. O'zlari ham oz emas, bular ikki yuzday bor. Yovga emas, ovga chiqqan yigitlar yengil kiyinishgan. Otlari semiz, o'zlari o'ynoqi. Qo'llarida tuyg'un, lochin qo'ndirganlari bor. Do'l qoqib, otdan orqada qolmay yurgan piyodalar ham bor. Otda chopib kelayotib yoydan o'q otib o'zlarini sinayotganlar bor.

Ha, ha, shahzoda va bekzodalar tongdan kechgacha tomoshaning ichida yurdi. Qirg'ovul tikka uchsa ham, ko'z ochib-yumguncha qo'ng'ir qanotlari shalpaya tushadi. O'q yetmay qolganlarini lochin olib tushadi. Birorta elik, kiyik qochsa, o'q uni tinch qo'ymaydi, o'pkasiga borib qadaladi. Umuman olganda, bu yerda parrandalarning ham, ov hayvonlarining ham tinchi ketdi. Yirtqich quvganda tuyoqlining ajali yetgani o'sha, yaroqli quvganda yaroqsizning kuni bitgani o'sha degan gap bekor aytilmagan-da. O'rdada zerikib qolgan zo'r merganlar bu vodiyda, tekislikda rosa maza qilishdi. Otlarning tovoni qizib, taqimlari cho'zildi. Kechki salqinda merganchilik ham qizidi. Quyosh qizili o'chib, qora ko'rpa dala-tuzni yopib qolganda, shahzoda va bekzodalar qarorgohiga kelishdi. Tog'dan tushgan tiniq suvning keng hovliday burilib o'tgan joyiga shahzodaning qizil chodiri tikilgan. Suv burilib oqqan joydagi yonbag'ir ham egilganday, tol va qamishlar bilan qoplangan ovloq joy. Bu kun botish tomon. Kun chiqish tomoni tekis yonbag'ir. Tekis bo'lgani bilan har qayer-har qayerlarda uzala tushib yotgan sigirlarday to'p-to'p toshlar bor. Bu toshlarni yorib chiqqan na'matak, shilvi, tobulg'a, chakanda va altigana[1] butalarining suvga yaqin joylari qalin va egilganroq. Narigi tog' tomonga ketgan tomoni esa chala tozalangan tuyaning yonboshiday budur-budur. Butalar orasida birorta jonivor qimirlamay tursa, uni hayvon ekanligini ham, tosh yoki butaning o'zi ekanligini ham aniqlab bo'lmaydi. Kunduzi o'sha butazorning qalin joyiga yashrinib, qarorgoh tomonni kuzatib o'tirgan qariya yilqichi shahzoda qarorgohining quyon yotadigan chuqurigacha o'rganib, ko'zdan qochirmadi. "E-e, tabarruk Ko'k, bizning rejamizga to'g'ri keladigan yer berding, endi bizday qul-cho'ringning tilagini ham ber".

[1] **Altigana** — sariq gullaydigan tikanakli buta.

O‘rtada yoqilgan katta gulxan atrofida tun oqquncha shahzodaning odamlari sayr qilib, o‘ynab yurishdi. O‘tning, cho‘qqa pishirilgan parranda va kiyik go‘sht-moylarining xushbo‘y hidi qariya yilqichi bilan Talmizning, mergan qizlarning burunlarini qitiqlab turdi.

— Bizning mergan yigitlarimiz zindonda azoblanib yotishibdi. Bularning rohatlanishini qara, — dedi Talmiz achchig‘ini yashirolmay.

Qarorgoh tomondan ko‘z uzmay kuzatib turgan yilqichi: "Koyimang, Talmiz chirog‘im, qayg‘u bilan xursandchilik bir-birini ergashib yuradi", — dedi Talmizga dalda berib.

— Bizga kuch bergan ham o‘sha tilak, aka.

— Yovning yerida bizni Ko‘k Tangri o‘zi qo‘llasin. Qizlar cho‘chimanglar!

— Cho‘chigan qiz mergan bo‘lmaydi, bo‘lsa ham, bu tomonlarga kelmaydi.

— Inson farzandining eng asosiy dushmani bu — uyqu, — deb er bobo aytgan. Yovdan javob olaman, deb yo‘lga chiqqan naslimiz uyqusiga hushyor bo‘lsin, degan. Qizlar biroz mizg‘ib olsin. Qattiq uxlab qolishmasin. Yerga yorug‘ tushmay qarorgohga kiramiz. Quyosh chiqqanda bular tangrisiga sig‘inishadi. Keyin boyagiday hammasi ovqatlangani o‘tirishadi. Ey, Ko‘k Tangri, ishimizni o‘zing o‘ngla.

Yilqichi shoshmay u yoq-bu yoqqa qaradi, sekin yerga tupurdi, soqolini siladi. Xuddi o‘zining uyida o‘tirganday bemalol dedi:

— Talmiz, chirog‘im, biz ikkovimiz shahzoda o‘tirgan joyning yonidagi qalin butazor ichiga yashirinamiz.

Talmizning ovozi past, lekin ishonchli chiqdi:

— Yaxshi tilak aytgan og‘zingizga moy to‘lsin, aka.

Ertasi quyosh nuri tog‘ cho‘qqilariga sochila boshlaganda shahzoda oldida, keyin bekzodalar, keyin navkarlar, yordamchilar, oshpazlar tizilishib, Quyoshga ta’zim qilishdi. Tangriga sig‘inishdi. Undan keyin o‘rtaga katta maydonga dasturxon yozildi. To‘p-to‘p mevalar, sharob, cho‘g‘da pishirilgan parranda va kiyiklarning etlari dasturxonga qo‘yildi. Shahzoda va bekzodalar bir qultumdan sharob xo‘plab, kabob qilingan go‘shtdan endi tish-

layman, deb turganda, Talmiz bilan qariya yilqichi shahzodaning ro'parasida paydo bo'lishdi. U yurtning odatiga ko'ra kim bo'lsa ham, shahzodaning oldiga kelganda ta'zim qilib, bosh egib turadi. Talmiz unday qilmadi. Talmiz u yurtning odami emas, u bizning yurtning mergan qizi. U qiz kiyimida yana ham go'zallashgan, to'ladan kelgan gavdasi odamni o'ziga tortadigan bir ko'rinishda shahzodaning manglayiga keldi-da, so'rashdi:

— Taoming shirin, qanjig'ang o'ljali bo'lsin, shahzoda, — dedi Talmiz.

Aytganini ham unchalik tushunmay, kim ekanini ham bilmay, biroq Talmizning go'zal qiz ekanini ko'rgan shahzoda og'zidagi go'shtni ham chaynamay, ag'rayib qoldi, bekzodalar ham hangumang. Bir nafas hech kimdan so'z chiqmadi. "O'o', Tangrim, bizga jin-pari keldimi yo dev-pari keldimi? Yo bu adashgan cho'rimi?" — deb o'yladi. Shunday savol shahzodadan boshlab, dasturxon atrofida o'tirgan barchalarining xayolida turganda, Talmiz shartta aytdi:

— Sen fors yurtining shahzodasisan. Sening otang podsholarning podshosi bizning mergan yigitlarimizni o'zining zindoniga soldi. Shu yo'l bilan sening qonxo'r otang bizning yurtni bo'ysundiraman, deydi. Yo'q, bizning yurt unga bo'ysunmaydi.

Voqeani tushungan shahzoda o'ng qo'lini biqiniga qo'yib, chap qo'li bilan moylangan silliq mo'ylovini siladi. Bu uning bekzodalarga: "Hushyor bo'linglar, yana asirlikka tushib qolmaylik", — deb bildirgan yashirin belgisi edi. Xuddi shuni kutganday Talmiz o'ng qo'lini qoshidan yuqori ko'tardi. Yoyning shaq-shaq ovozi chiqqan zaxotiyoq to'rda o'tirgan shahzoda va bekzodalarning to'rttasining bosh kiyimlariga dumli o'qlar "shap-shap" sanchildi. O'tirganlar cho'chib ketishdi. Ikki-uchtasi po'lat xanjarlarining sopini ushlab, o'rnidan hovliqib tura berganda, Talmiz buyruq ohangida aytdi:

— Shahzoda, taslim bo'l. Sening otang yuborgan askarlar bizning yigitlarimizni uxlab yotganda, matagan. Bu askarlikning muqaddas odatlariga teskari. Biz o'chimizi olamiz, degan odamlar emasmiz. Sizlarni dasturxon ustida o'rab oldik. Kim o'lishini xohlasa, mayli, qarshilik qilsin. Sizlarni sharob bilan mehmon

qilgan shu yorug' dunyo sizlarga qanchalik shirin bo'lsa, bizning yigitlarga ham shunchalik shirin. Odam farzandi o'z kunini o'zi ko'rishi uchun tug'iladi. Biri sayr qilib, sharob ichib maza qilib yursa, boshqasi uning zindonida azob chekishi bu xo'rlik.

Xanjarning sopini ushlaganlar gezarib, arang turishganda, shahzoda o'ng qo'lini oldinga sundi. Barmog'idagi oltin uzukning asltosh o'rnatilgan ko'zi quyosh nurida yaltirab ketdi. Biroq shahzodaning kayfiyati buzilgan, nimadandir xijolat holatda. Shunday bo'lsa ham, buyruqomuz ohangda so'radi:

— Arzing nima, ey, qiz?

Talmiz tushunmaganday qayta so'radi:

— Arz degani nima?

Shahzoda Talmizga hayron bo'lib qaradi. — Bu jin meni quyunga o'rab, ko'rinmas tomonga olib ketarmikin? — degan fikrga kelib, sekin aytdi:

— Mendan nima so'raysan? Talmiz mug'ombirona jilmaydi:

— Sendan so'ramayman, buyuraman. Bu bekzodalaring, narigi merganlaring, yordamchilaring, navkarlaring birini biri matasin. Hammang bizga asir bo'lding.

Xanjarining sopini ushlab turgan bekzodalarning biri achchig'iga chidamay, g'azab bilan dedi:

— Shahzoda, bu kim? Shohlar shohi baxt bergan bizning forsning er yigitlari kimga asir bo'lyapmiz? Bular bilan olishaman, so'yishaman.

Talmiz ko'rsatkich barmog'ini ko'tarib, kuldi:

— Olishadigan holing qani?

Dumli yoy o'qi hovliqqan bekzodaning bo'rkiga sanchildi. U o'zini orqaga tashladi.

Talmiz g'azab bilan dedi:

— Shahzoda, buyruqni bajar. Ha, bekzoda, xanjaringni qinidan sug'urguningcha peshonangga o'q qadaladi. Anovi qimirlab turgan qamishzor qamishzor emas, sizlarni uch qator o'rab turgan askarlar.

Xanjarining sopini ushlagan bekzoda dovdirab qoldi-da, xanjardan qo'lini tez tortib oldi. Aslida u qo'lini atayin tortib olmadi,

qo‘li o‘zidan o‘zi tortilib ketdi. Uning qora qoshlari chimirildi, qovog‘ini solib, ich-ichdan o‘kindi:

— Bu ko‘rinib turgan qiz emas, jin-pari. Bunga qarshilik ko‘rsatish boshingni kesib, oltin tovoqqa solib qo‘yish degani.

O‘zining qiynalayotganini shahzoda bildirmadi. Xotirjamlik bilan buyruq berdi:

— Bekzodalar, men bu farishtaga bosh egdim. Sizlar ham taslim bo‘linglar.

— Bu bizga o‘lim, shahzoda. Chopishib, o‘laylik.

— Chopishib... — shahzoda g‘alati jilmaydi. — Qo‘l ko‘taradigan fursat qani, bekzodam? O‘t qo‘ysang, yonib ketadigan qamish hozir bizga o‘q otib, yov bo‘lib turganini sezyapsanmi? Ikki o‘q bo‘rkingga tepchildi. Uchinchisi boshingni teshadi. Boshsiz qo‘ling qilich ko‘tara oladimi?

— O‘o‘, bu qanday qo‘rqinch, qanday dahshat?

— O‘kinma, bekzodam. Aziz boshing omon qolsa, o‘shangga quvon. Go‘zal qiz, men senga taslim bo‘ldim, mening qo‘limni o‘zing bog‘la.

Shahzoda ikki qo‘lini qaychilashtirib, oldiga cho‘zdi.

* * *

Bizning yurtga yuborgan elchisi yaqindagina qaytib, shoh oldida hisobot berib turgan bir paytda saroy darvozasini kuzatayotgan askarlar boshlig‘i shohning oddiga shoshib kirdi. U quyuq jingalak qora soqol, suzmoqchi bo‘lgan qo‘chqorday boshi egik, doim g‘azab bilan yuradigan kishi edi. U shoshib shohga ta’zim qilib, tez-tez aytdi:

— Olampanoh, saroy oldiga ikki odam kelib turibdi. Ikkovi ham yot. Narigi qorli tog‘lar ortidagi bizga... sizga, u gapirolmay qoldi.

— To‘xta. Mening saroyimni qo‘riqlagan askarlar boshlig‘i sen bo‘lsang, nimaga shoshilib kelding? Bilganingni aniq qilib ayt. Aytolmasang, orqangga qayt.

Podsholar podshosining g‘azabli ovozi askar boshchisini qo‘rqitib yubordi. U shoh oldida bosh egib turish qoidasini ham unutib, bilganini tez-tez aytdi:

— Biri chiroyli qiz, biri qari kishi. Shohlar shohining yolg'iz o'ziga aytadigan javobimiz bor, deyapti.

— Javobimiz bor, deydi?!

— Shunday, janobi oliylari.

— Bor. Ikkovining ham boshini olib tashla.

— Uni men ham aytdim. Shohlar shohi sizlarday itlarni ko'rgisi kelmaydi. Qaytinglar. Qaytmasanglar, boshinglarni oldiraman, desam, haligi chiroyli qiz parvo qilmay kuldi: — Bizning boshimizni kesish sizlarga qovun tilganday oson ekanini bilamiz. Chopsanglar, chopinglar. Bizning boshni chopishdan oldin sizlarning baland martabali shahzoda bilan anovi biz bog'lab tashlagan bekzodalarning boshini ham o'ylab qo'yinglar, — deb kuldi. Men uning gapiga quloq solmay, xanjarimni sug'urmoqchi bo'ldim. Qiz yonidagi qariyaga qoshini uchirdi. U qo'ltig'iga qistirilgan tugunni ochgandi, ichidan shahzodaning bo'rki ko'rindi. Unda dumli o'q sanchilib turibdi. Janobi oliylari sizga gapimni aytolmayotganimning sabab ham shu edi.

Shohlar shohi qo'li bilan saroy eshigini shoshib ko'rsatdi. Uning harakatida g'azab ham, "Bu nimasi, nima bo'lyapti o'zi" degan xavotir ham, o'zini yo'qotish ham bor edi. Taxtning o'ng va chap tomoniga qator o'tirgan vazirlar shohning qo'li ko'rsatgan eshikka qaradilar. Shohning qo'li eshikni ko'rsatdi:

— Olib kir, u itlarni.

Usiz ham shohlar shohi o'zi yuborgan elchining aytgan xabarini eshitib, g'azabi kelib turgan edi. Bir oydan oshiq yurib, yo'l azobini xo'p tortib, otlari oriqlab, o'zlari ham ozib qaytgan shoh elchisi shoh kutgan javobni olib kelmadi.

Ko'chmanchilarning bosh xoni urug' boshliqlarini, hamma lashkarboshilarni katta bir tepalikka yig'ib, ochiq joyda kengash o'tkazib, shoshilmay fikr almashib, o'zaro ma'qullashib, keyin shohning elchisiga quyidagi javobni yo'llashibdi:

— Biz bahorda mollarni ko'paytirib, kuzda ekinlarimizni o'rib, o'z kunimizni o'zimiz ko'rib yurgan oddiy elmiz. Muqaddas Tangri bizning naslga bergan tabarruk yer-suvida bizning o'g'il-qizlarmiz o'zlaricha sayr qilib yurgan yurtmiz. Bizga shohlar shohi hukmini o'tkazmasin. Bizning yigitlarimizni zindondan

chiqarib, oti bilan to‘nini berib erkinlikka qo‘yib yuborsin. Osmon biln yer o‘rtasida qushday uchib yurgan yigitlarimizning sizlarga hech ziyoni yo‘q. Keyin hammasi bir ovozdan:

— Shohlar shohi, janobi oliylari, bizning bu gaplarimizga ko‘nsin. Farzandlarimizni bo‘shatsin. Agar o‘g‘illarimizni bo‘shatmas ekan, biz ham yerda qolgan yurt emasmiz. Urishamiz. Urishadigan joyimiz Ulug‘tog‘ning qiri, katta suvning tog‘ tomondagi qirg‘og‘i. Yashirin kelib o‘g‘ri mol o‘g‘irlaydi. Lashkarboshining odati askarni ko‘rsatib olib chiqib, jang maydonida ochiq urishishdir. Shohlar shohi bizning yigitlarimizni uxlab yotgan yeridan bog‘lab olib ketishi o‘g‘irlikdir, — deyishdi.

Kigiz yopilgan uyda teridan kiyim kiyib, biyaning sutini ichgan yurt taslim bo‘lish u yoqda tursin, qaytanga shohning o‘ziga da’vo qo‘yishi shoh kutmagan bosh egmaslik, shoh cho‘chigan mardlik va g‘ayrat edi. Shohlar shohi qancha-qancha hiylagar, kuchli podsholarni g‘ing etgizmay o‘ziga qaratib turganda, bu kigiz uyda bemalol o‘tirgan hech narsasi yo‘q yurtning bosh egish u yoqda tursin, urishadigan yerini ochiq aytib, qo‘rqmasligi shohni ko‘zga ilmasdan uyat qilganlik edi.

Hozir hamma dono vazirlari, donishmandlarini saroyga chaqirib, biz bosh egmagan qora yurtni qanday qilib qirib tashlaymiz, qanday qilib tiz cho‘ktiramiz, deb maslahat qilib turganda qorovullar boshlig‘i aytib kelgan hozirgi xabar shohning ham, vazirlarning ham g‘azabini keltirdi. Bir tomondan ularning hushini uchirdi, shahzodaning bo‘rkiga dumli o‘q sanchilib turibdi, degan so‘z bu yerda o‘tirganlarning kimisini cho‘chitmaydi? Shohlar shohining suyukli shahzodasi, ertaga otasi o‘tsa, uning o‘rnini bosib, taxtni egallaydigan kelgusidagi shoh kiygan bo‘rkka o‘q sanchilgan bo‘lsa, unda qolgan bekzodalar qanday kunga qoldi? Shahzoda matalsa, ular ham mataldi-da. Shahzoda bo‘g‘izlansa, ular ham bo‘g‘izlanadi-da. Ha, endi hurmatli bekzodalarning shu o‘tirgan otalari ana shuni o‘ylab qolishdi. Eshikka chiqib ketgan askar boshlig‘i haligi ikki yot odamni ergashtirib kelishib, ular nima xohlashlarini bilishga hozir hammasi juda oshiqdi. “O‘o‘, bizning farzandlarimiz qanday dahshatli narsaga uchradi?” — hammasining xayolida shu fikr edi.

Eshik ochildi. Avval Talmiz, keyin yilqichi kirdi. Bular shohlar shohining oldiga kirgan boshqa odalarga o'xshab, bukilib, yukunib, ta'zim qilib, o'zlarini pastga urmadi. Osmon bilan tabarruk yer o'rtasida erkin bosib yurgan o'z odati bo'yicha bosh silkidi-da avval shohga, keyin vazirlarga o'z so'zlarini aytdi:

— Taxtingiz tul qolmasin, janobi oliylari. Yulduzingiz o'chmasin dono vazirlar.

Shoh go'zal Talmizni ko'rganda sal yumshadimi yo qiz bolaga achchiq qilgisi kelmadimi, har holda avvalgidan sal o'zgardi. Shartta so'radi:

— Arzingni ayt. Talmiz ham shart javob berdi:

— Arz aytmayman. Da'voimni aytaman.

Shoh achchig'iga chidamay baqirib yuboray dedi. Uning oldiga qancha-qancha ulug' darajali odamlar kelgan bo'lsa ham, unga bunday qilib hech kim so'z aytmagandi. Uni ilgari ko'rmagan bo'lsa ham, Talmiz aqli bilan sezdi. Shohning qizarib, bo'zarganini ko'rib, qiz ichidan g'azabi keldi. "So'zga chidamaysan, shoh. Sening zindoningda yotgan bizning yigitlar qanday chidashayaptiykin?"

— ... eshittir, — dedi shoh.

— Forslarning yuragi oshiqlikni muqaddas biladi, deyishadi bizning elimiz. Ko'rsa, bu yolg'on ekan. Shohlar shohi, siz mening oshig'imni hech sababsiz o'g'irlatib kelib, zindonga soldirdingiz. Mening da'voim shu. Oshiqlikni o'g'irlash, bizning odatimiz bo'yicha, Ko'k Tangrining ulug' tilagiga bolta chopish bilan teng bo'ladi.

Shoh qaltirab ketdi:

— Tilingni tiy, ey, jin. Hozir bolta sening boshingga chopilar. Sizlarda oshiqlik yo'q. Sening oshig'ing mening zindonimda chiriydi.

Talmiz ham achchiq bilan dedi:

— Hozir mening boshimga boltang ko'tarilganida, sening shahzodangning boshi yerga yumalaydi. Ishonmasang, ana, unga guvoh!

Qariya yilqichi qo'lidagi tugunga yopilgan ro'molni oldi. Dumli o'q sanchilgan shahzodaning bo'rkini ko'rgan shoh ham, vazirlar ham o'zlarini yo'qotayozdi.

Talmiz oldiga bir-ikki qadam qo'ydi-da, keyin:

— Mening oshig'im sening zindoningda chiriganda, sening shahzodang o'z erkicha ovda yuradi, dema, ey, shoh. Uni miqti bekzodalari bilan biz asirga olganmiz. Men er yigitga oshiq qizman. Bu kishi menga yo'l ko'rsatib kelgan dono yilqichi bobo. Biz shohlar shohi taxtini qo'ygan oltin saroyni o'rtaylik, degan yovuz maqsaddagi yov emasmiz. O'zimizning mergan yigitlarni asirlikdan bo'shatgani kelgan gunohsiz oddiy odamlarmiz. Hozir bizning mergan yigitlarimiz o'z oti, o'z kiyimlari bilan bizga qo'shib berilsa, sizlarning shahzoda va beklaringiz ham o'z oti, o'z kiyimlari bilan uylariga qaytadi. Agar... biz qaytmasak, ular ham qaytmaydi.

Talmizning gapiga ishonar-ishonmasligini bilmasdan, bu jinning aytgani chinmi, yo yolg'ondan hiyla ishlatib kelgan hiylagarmi? deb o'ylagan shoh qattiq achchiqlandi:

— Ey, jin, sen qaytmaysan. Boshing chopiladi. Sening oshig'ing esa zindonda chiriydi.

— Yaxshi. Unday bo'lsa, boshga bosh. Bobo bo'rklarni tashlab qo'ying, — dedi Talmiz qiz yilqichiga.

Qariya yilqichi tugunni ochib, o'rtaga tashlab qo'ydi. Ko'rsa, o'q sanchilgan bo'rk beshta ekan. Biri shahzodaniki, qolgan to'rttasi uning to'rt bekzodasiniki. O'qlar bo'rkka tepchilib sanchilgan holda turibdi. Besh bo'rk o'rtada turibdi. Hushi uchgan vazirlar o'zlarining farzandlarining bo'rklarini ko'rishlari bilan tanidi. Barining kayfi uchib ketdi. "O'o', osmon tangrisi, bu hiyla emas, bu chin". Bosh vazir shohga yukunib, yalinib yubordi:

— G'azabingizni bosing, janobi oliylari! Bu rost, rost. Bu turgan qiz emas, bu jin. Uning talabini bajaring. Zindondagi itlarga o'z oti va o'z to'nini berib, yo'lga soldiring. Bizning yerdan bu falokat uzoqroq ketsin. Bunday qilmasak, shahzoda va bekzodalarimizdan ajralib qolamiz.

Talmiz ham vazirni qo'lladi:

— Bu vazir dono kishi ekan. Haqiqatni ko'rdi. Bizning mergan yigitlar o'z oti va o'z kiyimi bilan qaytmasa, sizlarning o'g'illaringizning boshini narigi tomondagi askarlar qanjig'aga bog'lab olib ketadilar. Boshga — bosh. O'z o'g'lini tirik ko'rmagan ota-

ona yovning boshini ko'rganda qayg'usi ariydi. Bu — bizning bobomiz omonat qoldirgan odat.

Nima qilishini bilmay qolgan shoh past ovozda dedi:

— Aytganing bo'lsin, jin. O'g'illarimizning omon qaytishini biz qanday bilamiz.

— Mening tabarruk ruhimni hurmat qilsang, so'zing aniq, va'dang mahkam bo'lsin, zurriyotim, — deb bizga bobomiz omonat qoldirgan. Biz o'lsak ham, boboning omonatini bajarmay qo'ymaymiz. Aldash, hiyla ishlatish va zo'rlashni bizning yurt yoqtirmaydi. Zindondagi mergan yigitlar o'z oti, o'z kiyimi bilan Ulug'toqqa yetganda, sizlarning farzandlaringiz o'z oti, o'z kiyimlari bilan o'z uylariga jo'naydi.

Qirq mergan qiz o'zlarining beshdan sheriklar bilan hammasi ikki yuz askar zindondagi ikki yuz mergan yigitlarni asirlikdan qutqardi. Shoh ularning orqasida askar yubora olmadi. Bizning o'g'il-qizlarimiz juft-jufti bilan elga eson-omon qaytganida bizning yurt katta to'y berdi, deyishadi. To'yga u yoq-bu yoqdan, qo'shni ellardan juda ko'p mehmonlar keldi, deb aytishadi. O'shanda, bizning o'g'il-qizlarimiz yoy tortishib, otda yengishib, kurashib, uloq tortishib katta ko'ngilochar, charchoq yozar tomosha bo'ldi, deyishadi.

To'y oxirlab, tomosha bitay deganda, Talmiz qiz ota-ona, katta-kichikning oldida tabarruk yerni uch marta o'pib, kechirim so'radi:

— Biz — o'g'il, qiz shart qo'yib musobaqalashgan edik. Birinchi bo'ri otishdik. Bu to'g'ri edi, chunki yirtqichlarni otdik. Ikkinchi oqqush otishdik. Bu noto'g'ri bo'ldi. Gunohi yo'q qushlar uvol bo'ldi. Shuning hisobidan yigitlar zindonda yotishdi. Bu uchun ularni musobaqaga chorlagan biz aybdormiz. Ey, yurt, biz o'sha aybimizni bo'ynimizga olib, o'limga bordik. Ko'k Tangri bizni qo'llab, yo'limizni ochdi. Yigitlarni o'limdan qutqardik. Xato qildik, ota-onalar bizni kechiringlar.

Ota-onalar chuvillashib, qizlarni qo'llashdi:

— Sizlarda xato ham va ayb ham bo'lgani yo'q. Sizlar bizning ilgaridan beri haqiqat uchun bo'lgan kurashimizda yengib keldinglar. Bu sizlarning uchinchi yutug'ingiz. Ey, odamlar! Uchinchi

yutuq ham mergan qizlarniki bo'lsin, — deyishdi ota-onalar. Xaloyiq chuvillashdi, ota-onalar aytganini qo'llashdi. Mergan qizlarni olqishladi.

* * *

Chevar opa asta xo'rsindi:

— Ha, chevarjonlar! Yurtimizning ilgarigi qizlari ana shunday mard, aqlli botir bo'lar ekanlar. Keyin bu holat o'zgarib boryapti. O'shandagi Talmiz opaga o'xshab mergan qizlarni yovga qarshi boshlab borish hozir yo'qday ko'rinadi. Qizlar hozir qozon-tovoqqa, uy ishlariga yaqin bo'lib qolishdi. Biri oshpaz, biri hunarmand, biri chevar kashtasi, yana biri oddiy qiz bo'lib, noziklashib ketdik.

Chevar opaning hikoyasini boshqa chevarlar qunt bilan qiziqib eshitishdi. Jibek bu aytilgan hikoya aslida bo'lgan ish emas, uni odamlar o'zlari o'ylab aytgan ertak dedimi, har holda yosh bolaga o'xshab ishonqiramadi:

— To'g'risini aytganda, chevar opa, aytganlaringiz rost emas, ertakka o'xshaydi-da.

— Ey, tentak qiz, unday gumonsiramagin, — dedi chevar opa. —Bobolar aytib kelayotgan "Ulug' so'z"ning bir bo'lagi bu. Buni yolg'on deyish bobo omonatini yolg'on deyish bilan barobar. U zamon bizdan uzoqda qoldi. U vaqtda bo'lgan ishlar bizga ertakka o'xshab eshitilishi tabiiy. Bizning hozirgi kunimiz ham kelajak avlodga shunday ertakka o'xshab tuyiladi. O'shanda bizdan keyingi nasllar shu biz boshimizdan kechirayotgan tabarruk ishlarni ertak, deb qadriga yetmasa, ularni bizning ruhlarimiz qahriga oladi. Bo'pti, tentak qiz. Sen qadimgi ishlarni ertak desang, unda men senga yaqinda o'tganlarni aytib berayin. Buni ertak demassan. Bu kecha yaqindagina bizning yerda bo'lgan ish. Hozirgina shu o'rdadan chiqib ketgan, o'rda taxtining egasi Sayqal onaning, mening tabarruk onam Jarqinning va Aruukening tabarruk onasi Gulxayrning qiz vaqtida bo'lgan voqealarni endi aytayin. Bu ertak bo'lsa, unda Talmiz qizning mergan yigitlarni zindondan qutqarib kelgani ham ertak. Chevar opa endi o'sha yaqinda bo'lgan katta voqeani hikoya qila boshladi...

EDIL AJO OSHIDA

Sariq no'g'ay bolasi,
Yoyma kokil yosh Aydar,
Maanikerni mina ko'r —
Qaragin-a , ko'p no'g'ay,
Boshidan elni to'la ko'r.
Uysunlarni Umo'tga ayt,
Umo't o'g'li Jaysinga ayt.
Malla soqol, tik mo'ylov,
Ayri soqol, ker[1] *mo'ylov.*
Bariga birday ayta ko'r.
Ey, men yuz to'qson to'qqiz yoshdaman,
Jag'im biroz bo'shashdi...
Ey, boyning o'g'li Boymirza,
Beri qarab quloq sol.
Telekaday qush soldim.
Tentakni yig'ib el qildim.
Mening ko'zim o'tsa ham,
Tele qushni qaratmay,
Tentaklarning barisin.
El-eliga tarqatmay,
Yaxshi boqib ola ko'r.
Ko'katoyning vasiyatidan.
Qizil kokil xitoy keldi
Qora kokil qalmoq keldi.
Yupungina yapon keldi
O'yrot bari to'liq keldi.
Ulug' yurt urum keldi,
Qirg'iz oshga yig'di yuzta elni.

Manasdan

Bayramlarda va tantanali voqealarga bog'liq bo'lgan katta yig'inlarda tuyalar va o'rgatilgan arslonlarning musobaqasini, tulpor otlarning poygasini tomosha qilishardi.

Sibir tarixi

[1] **Ker** — qoramtir jigar rang.

Bu yaqinda onamiz kelin, otamiz yigit vaqtida o‘tgan ishlar. Buni ertak deganning og‘zi qiyshayar.

Xon yo‘lni ot bosadi, eshak toptaydi. Ko‘k Tangri haromni halol qilmaganda edi, inson farzandi birini biri talab ketardi. Shunday bo‘lsa ham, butun chatnamay, to‘liq to‘kilmay qolgan yeri yo‘q. Bobolar omonat qoldirgan “Ulug‘ so‘z” bayonini anglab ko‘rsak, qadimgi zamondan beri umrning ola arqoni eshilib, tugilib, uzilib, qayta ulanib kelayotganday seziladi. Bu aniq. O‘zimiz arqon pishirsak, bir tomonini oq, bir tomonini qora jundan eshamiz. Faqat oq, yoki faqat qora odamga yoqmaydi. Ola arqon ko‘zga chiroyli ko‘rinadi. Ajoyib, lekin buning sirini ochib berolmayman. Bunda bir yashirin sir bormi, deb o‘ylayman. Buni ham ochiq aytolmayman. Odam olisni ko‘ra oladi, qariya qalin o‘zanga chiyir[1] soladi. Qalin o‘rmondan yog‘och qirqib, chaqmoq toshga kuch berib, o‘t yondiradi. Osmoni falakda uchib ketayotgan oqqushni otib tushiradi. Yaxshi narsalar bilan shug‘ullansa, odam bolasi tabarruk bo‘lardi. Ular gohida bir qorinda talashib tushgan jigarbandi bilan qasdlashadi. Urush boshlab qattiqdan qozonni qiyratadi, yumshoqdan kulni ko‘kka sovuradi. Birining qonini biri ichadi, quturishadi. Kuchi ketib, qarib qolganda, aql-esiga kelib, bir-birini yo‘qlab, bir-biriga e’tibor berishadi, qayg‘uga botishadi. yer ustida qiynalib mol boqib, ekin ekib, ovchilik qilib, azob tortib uy qurib, bolalarni katta qiladi. Xo‘p, shundan keyin ham aqli kirib, tinch umr o‘tkazsa-chi, halol mehnat qilib, kun ko‘rsa-chi. Yo‘q, yo‘q! Qorni to‘q qorni ochni oldiga solib molga o‘xshatib haydab yuradi...

Chevar opaning aytganlariga og‘zini ochib turgan Jibek:

— Chevar opa, qo‘rqib ketyapman.

Chevarlar tikish bilan ovora.

Chevar opa hech narsaga e’tibor bermasdan gapini davom ettirdi.

— Erkalik odamni ham yig‘loqi, ham qo‘rqoq qiladi. Erkalikni qo‘y. So‘zni ko‘ngilga tug. Sizlarga boboning “Ulug‘ so‘z”ini aytdim. Gap eshitganning bilgani ko‘p bo‘ladi. Oltin, kumushni boy-

[1] **Chiyir** — qor bosgan yerga solingan yo‘l. “Boburnoma” da ham shu so‘z shu ma’noda qo‘llanilgan.

lik, deb bilgan odam boshini yo'lda qoldiradi, bobo so'zini davom ettirgan kishining o'rni to'rda bo'ladi, degan. Aqlli gap umrga eshik ochadi. Gapda xun yo'q. Nasl gapni davom ettirsa, yurtning yulduzi yorug' bo'ladi, debdi oqil bobo. Bobo omonati o'g'il-qizning bo'ynidagi bajarilishi kerak bo'lgan vazifadir. Men o'sha burchni bilaman, Jibek.

Chevarlarning hech biri indamadi. Chevar opa ovozini biroz ko'tardi:

— Ha, men gapning uchini burib ketdimmi? Aytayin deganim, biz kechagina qizaloq paytimizda yurt ittifoqda bo'lib turganida, katta otamiz qulab tushsa, yonidagi yoshlar yig'laydi. Ajo uchdi. O'zimiznikilar ham harom qo'yniga tosh yashirdi. G'irrom fikrini saqlab, har kim o'z manfaatini ko'zladi. Saxiy otani (Odiltoyni) sekin yo'ldan olib, o'rniga ajo bo'lsak, degani u yerdan, o'ljadan ko'proq ulush olsam, degani bu yerdan, o'z nomimni chiqarsam, degani o'rtadan chiqib, yurt birligi nurab turgan bir paytda ko'zi o'tgan ajoga osh berib qo'yishni o'z nasli o'zlariga ep ko'rishdi.

Ko'zi o'tgandan so'ng ajo ham, abo ham, bek, alp ham, aqlli donishmandu oddiy fuqaro ham hammasi birday kuchsiz. Arvoh tirikning qo'lini qaraydi. Tiriklarga hech narsa bo'lmaydi, avvalgiday yura berishadi, lekin o'lganga qiyin. Suyagi yerga, joni Ko'kka ketgan kishi asl buyumlaru topganlarini ko'tarib keta olmaydi. Arvohga atab ehson qilinadi. Tirik qolgan nasl arvohga atab taom yeb, naslga yaxshi tilaklarini tilaydi. Qadimgi odat o'zi shunday: tiriklar arvoh qarzidan qutulishlari kerak. Ko'ngli oq qarindoshga o'sha arvoh roziligini olish — tabarruk ish. Ko'ngli qora odamning o'sha arvohi hurmatiga yig'lashi — bu quvonch. Buni o'z ham, yot ham yaxshi tushunadi. Bizning zurriyot o'sha ajoning oshini katta qilib o'tkazishga bor kuchini sarfladi. Narigi tomoni tabg'ach, quruy, o'rtada qarluq, uyg'ur, bu tomoni to'lo's, arg'in, tat, olaguv, mungul, izgil, chigil, olisdagi tubut xoni, urum, purum xonlari, qo'yingki, ot yetgan yerdagi ko'p yurt ajoning oshiga taklif qilindi. Avval qirg'izlar mayda-mayda qirq xonlikka bo'lingan edi. Ajo ota ularni yig'di. Bir bosh, bir qo'l bo'ldi. Hammasi ajoga bo'ysunib, o'n ikki xon, o'n ikki abo, o'n ikki kenja biy, bir bosh biy, qirq urug' begi bo'lib, ulardan yovga qarshi uri-

shadigan lashkarlarini har bir urug'dan tumanboshi, mingboshilari boshqarib qolgan. "Ajosi yo'q el — serkasi yo'q qo'y. Biri jarlikka qamalsa, hammasi qamaladi. Biri jardan sakrasa, hammasi sakraydi. Falokat kelsa, hammasi qirilib ketadi". Ko'zi o'tgan Edil ajo otaning o'z o'g'li Odiltoyni qimizga cho'miltirishdi, oq kigizga solib, o'ng tomon bilan so'l tomonni o'ttiz marta aylanib chiqishdi:

— Ajoga bo'ysunamiz! Bo'ysunamiz! Bo'ysunamiz! Ajoning buyruqlarini aniq bajaramiz! Aniq bajaramiz! Aniq bajaramiz! — deyishib xaloyiq ovoz berishdi. Edilday ajoga ilojsizlikdan bosh egib yurgan urug' xonlarining ayrimlari Odiltoyga tizgin bermaylik, deb maslahatlashib yurgan kezda ajo otaga osh berildi. Oshni Odiltoyning o'zi boshqarmadi. Uning ajo bo'lib turib oshni boshqargani odatga unchalik to'g'ri kelmaydi. Yurtning bosh ajosi hokimiyatning hammasidan ustun turib, lochin osmonda sekin uchib, olisdan hujum qilganday ajo ham yuqorida turib yurt tizginini mahkam tutadi. Xuddi shu mahkam kuchli hokimiyatni xohlagan Odiltoy shu ajo otasining oshida o'zi o'tirgan taxtning ulug'ligini, mustahkamligini ko'rsatib, qadrini ko'tarib olishni rejasini tuzdi. U boshqarishni kuchli urug'larning botirlariga topshirdi. Botirlarda kuch ham, obro' ham bor. Qo'qqisdan ko'ngilda g'irromligi bor tentak birlikni buzsa, uni naq yelkasidan olib, baqirtirib yerga niqtab qo'yuvchi kuch o'sha lashkarboshilarda. Faqat ular emas, xolis hisoblangan qarindosh eldan to'lo's, arg'in, o'n o'q, chaa, eshtek kabi besh elning besh obro'li botirlari katta oshning asosiy boshqaruvchilari — biyi bo'lishdi. Mayli, o'z yurtidan, mayli, boshqa yurtning birortasidan ichi qora yomon odam biror nomaqbul ish qilsa, uning kim ekaniga qaramasdan o'sha besh biyning oldida javob beradi. Qilgan ishiga yarasha jazo oladi. Jazo uchta: hovliqib, beboshlik qilgan odam shaxsan o'zi yosh xonining oldida tiz bukib, to'qqizta jazo oladi; ajoning oshiga ichi torlik qilib, ajoning nasliga yomonlik qilgan odam o'z nasli bilan butun oilaga uch to'qqiz jazo tortadi. Uni qilgan aybdor urug' xoni bo'lsa, xonligidan, abo bo'lsa, aboligidan, bek bo'lsa, bekligidan bo'shatiladi. Lashkarboshi bo'lsa, qurollarini topshirib, "eldan chiqqan rasvo odam" atalib, oddiy askar bo'ladi, ajoning oshiga

atayin yomonlik xohlab, o‘zi ajo bo‘lishni xohlab, ajoning ishiga xalaqit berib, yovga sotilib, shu oshda urush chiqargisi kelgan kim bo‘lsa ham, o‘lim jazosiga tortiladi. Uning urug‘ining eri — qul, ayoli cho‘ri bo‘ladi. Barcha qimmatbaho boyliklari, moli o‘ljaga ketadi.

Ot boradigan yerdan oshga chaqirilgan kishilar to‘liq yetib kelguncha olti oy vaqt o‘tdi. Oshga kelgan obro‘li mehmonlar uchun bo‘z uylar tikildi. Ajo otaning urug‘i ming bo‘z uy, boshqa yaqin urug‘lar ming bo‘z uy, qarindosh ellar besh yuz bo‘z uy, bulardan boshqa ajoning quda-andalari, do‘st-yorlari, tog‘a-jiyanlari va boshqa ko‘ngli yaqin ellarning xonlaridan ham besh yuz uy keldi. O‘z naslidagi odamlar majburiyat qatori har kim o‘zi tikkan uyga tushadigan mehmonga ketadigan xarajatni o‘z bo‘yniga oldi. Bu uylarda uzoqdan kelgan mehmonlar emas, qirg‘iz urug‘larining obro‘li kishilari bo‘lishadi. Bu yerdagi hurmat “O‘zini hurmat qilish” deb ataladi.

To‘qqizning oyi yangilangan kuni osh tadbirlari boshlandi. O‘rtada ko‘k tepaga tikilgan o‘n ikki qanotli oq o‘rda sova[1]si ilingan uy. Otam qirg‘izning ko‘k yalovi o‘rdaning ikki bo‘sag‘asida. Qarindosh besh urug‘ning saylab chiqargan besh obro‘li kishisi: to‘lo‘sdan —Qorachur, arg‘indan — Agush botir, o‘n o‘qdan — Mitabar, chaadan — Jariq tegin, eshtekdan — Oltinxon ajoning besh bosh xonining oldida qilichlarini oltin tovoqqa qo‘yib, o‘sha oq o‘rdadan chiqishdi. Oshga kelgan barcha odamlar bari o‘sha o‘rdani qarab, tizzalab o‘tirishibdi. Shundan keyin qirg‘iz urug‘larining xonlari, keyin qarindosh elning xonlari, keyin oshni boshqaradigan lashkarboshi botirlar biridan keyin biri ont berishdi.

— Biz otam qirg‘izning o‘z naslimiz. Yurtimizning bosh ajosi Edil otaning ruhiga atalgan oshni tabarruk, deb hisoblaymiz. Uni buzsak, unga ko‘nglimizda yomon fikr paydo bo‘lsa, dono bobomning ko‘k yalovi ursin!

— Biz ko‘zi o‘tgan ajo ruhini xotirlab kelgan qarindosh yurtmiz. Qarindosh yurtning bosh ajosi Edil botirning ruhiga atalgan

[1] **Sova** — qimiz tayyorlash uchun tuyaning yoki molning terisidan tayyorlangan, islangan idish, eng katta sanoch, mesh.

oshni tabarruk deymiz. Uni buzsak, ko‘nglimizda g‘ubor qolsa, bizni Ko‘k ursin.

— Biz Edil ajoning oshini boshqargan har bir urug‘ning lashkarboshilari, osh tadbirlari boshlangandan tortib, mehmonlar o‘z yurtiga ketguncha, tikilgan uy yig‘ilguncha, o‘zimizni yurishga chiqqan tumanboshi, deb bilamiz. Bu muqaddas yurishga yomonlikni xohlagan ichi qora odam bo‘lsa, uning kim ekan, qaysi eldan ekaniga qaramay yov qatori bog‘lab, xolis biylarning ixtiyoriga beramiz. Shu tabarruk ishni aniq qilib bajarmasdan, ko‘nglimizda boshqa niyat bo‘lsa, bizni Tangri ursin!

Ipak to‘n kiygan qo‘shiqchilar (irchi[1]lar) erta tongdan kechgacha yo‘rg‘a yo‘rttirib xaloyiqqa jar soldi:

Ulug‘ yilning kuzida,
Ko‘kish tog‘ning tuzida.
Ajo ota oshida,
Xon, abo, biy boshida.
Aziz mehmon ko‘p keldi.
Totli oshi og‘zida,
Uch kun orom olishar,
Hurmatlarga botishar.
To‘rtinchi kun zo‘r o‘yin.
*Yoy mo‘ljallab[2], yombi otish**
Surnay, jeznay kuy chalish.*
Polvon kurash, tol chopish*.*
Bir-birini yigitlar,
*Ag‘darish*ar ayamay.*
Chopishadi tuyalar,*
Hayyo huvga qaramay.
Piyodalar yugurar,*
Katta sovrin pakkada.

[1] **Irchi** — qo‘shiqchi. Qirg‘izchada she’r ir deyiladi. Ir yozgan odam esa akin deb ataladi. Akin ikki xil bo‘ladi: to‘kma akin, yozma akin. To‘kma akin qo‘miz chertib, she’rni to‘g‘ridan to‘g‘ri, tayyorlanmasdan ichidan chiqarib, ashula qilib aytadi. Yozma akin she’rni yozadi.

[2] **Yoy mo‘ljallash********** — milliy o‘yinlarning nomi.

Ho‘kiz kurash, er sayish,*
O‘tar yakka-yakka-da.
Bular uch kun bo‘ladi,
yettinchi kun tomosha
Salt[1] *bo‘yicha bo‘ladi.*
Hamma uchun rohatbaxsh —
Arslonlar kimo‘zari,
Ayiq, polvon kurashi.
Yalang‘och erkaklarning
Qizil qamchi chopishi.*
*Dev-jinlarning qoqishi**
Och bo‘rining qopishi,*
Qo‘chqor, taka suzishi,*
Ayg‘ir, bo‘g‘ra olishi.*
Bular uch kun bo‘ladi.
Undan keyin erlarga,
Salt o‘yin boshlanar.
Saltning boshi qadimiy,
Ot o‘yini boshlanar.*
Biri yigit, biri qiz,
Biri dushman, biri o‘z,
Ikki taraf raqibmish,
Chopayotib er yengish,*
Chopayotib er kurash,*
Chopayotib er sayish.*
Chopayotgan otlarning,
Qulog‘idan o‘ynagan,
Yigit, qizni ko‘ramiz.
Qulon o‘zar, yo‘rg‘a haydash*,*
*Oxirida ot chopish**
Uch kun qiziq bo‘ladi.
Aziz mehmon, eshiting!
Totli oshi og‘zida,
Qayg‘u-g‘amsiz o‘tirib,
Bobo aytgan omonat —

[1] **Salt** — qirg‘izcha odatlar majmuasi.

"Ulug' so'z"in eshiting.
Ichingizda o'ylanib,
O'y yugurtib, to'lg'anib,
Qiyoq[1]*, qo'muz*[2] *eshiting.*
Shunda yigirma kun o'tmoqchi,
Osh oxiriga yetmoqchi.
Ajo atoning arvohi,
Hammaga bo'lar rozi!
Oshga kelgan xaloyiq,
Elning bo'lgin e'zozi.
Qiz berishib, qiz olib,
O't olishib, o't yoqib,
Totli oshi og'zida,
Hurmat, qadri o'zida.
Qut mehmonlar kun bilan,
Uyda o'ynab, kulinglar.
Otam qirg'iz yurtining
Ayg'ir, bo'g'ra olishi...

Jarchilar xabarlarini tarqatib bo'lgandan keyin aziz mehmonlarga osh tortildi. Uzoqdan kelgan mehmonlarga uch kun hurmat bilan xizmat qilindi. Ular so'z eshitdi, kuy eshitdi, dam olishdi.

To'rtinchi kuni oshning tomoshasi boshlandi. To'qqiz marta yombi otildi. Ajo otaning oshini bergan paytda Sayqal ona o'n beshga qadam qo'ygan tashvishi yo'q, o'ynab yurgan qiz edi. U to'lo's yurtining botir xoni Qorachurning qizi. Qorachur botir botirlik odatini rivojlantirib, o'g'il-qiziga yoshligidan askar kiyimini kiydirib, egarda katta qilgan. Er — bu er. U matalib ketsa — qul. O'zi tirik bo'lgan yigit qul bo'lsa ham, xor emas. Yo'lini topsa, qochib qutuladi. Qullikdan qutula olmagani o'zining sho'ri, o'zining bo'shligi, yomonligi. Qiz matalsa, u cho'ri bo'ladi. Yov eshigida cho'ri bo'lish qiz bolaga xorlik keltiradi. Qiz bola yigitlardan ortiq yoy tortganini Talmizdan ko'rdik. Qullikka ketgan yigitlarni qiz bo'shatib kelganini ham Talmizdan ko'rdik. Hozirgi

[1] **Qiyoq** — qirg'izlaming g'ijjaksimon musiqa asbobi.

[2] **Qo'muz** —qirg'izlaring asosiy milliy musiqa asbobi.

qizlar qozon-tovoqqa aralashib ketdi. Ey, yurt, qizing bo‘sh qolmasin, — degan Qorachur Sayqalni o‘g‘il bolaga o‘xshatib o‘stirdi. Kamon tortishi merganday Sayqal ayollar to‘pida emas, askarlar qatorida. Qarorgohda yilqi boqdi. Yurishda yovga qarshi otlandi. Tinch vaqtida qirga chiqib, kamondan o‘q uzdi. Mergan qiz degan nom oldi.

Chevarlar bir nafas bir-birlari bilan gaplasha qolishdi:

— Voy, chevar opa, Sayqal onaning o‘qi anovi o‘tgan qishda Elteres alpni qaltiratganmidi?

— Ha, Sayqal ona o‘qni yomg‘irday yog‘dirib yuboradi, deyishadi-ya.

— To‘lo‘sdan mergan qiz keldi. Mergan qiz juda mergan ekanda.

— O‘sha mergan qiz Sayqal otasi Qorachurga ergashib, oshga keldi.

— Ha, o‘shanda ko‘zga otar merganlar ko‘p bo‘lgan, deyishadi. Sayqal ona ko‘mirday qora yo‘rg‘a mingan ekan oshga kelganda.

— Askarday kelishgan, yuzi nurlanib, oqi oq, qizili qizil bo‘lib nur taratib turdi, deyishadi.

— Kiygani keng qandag‘ay, qalin guppi to‘n emas, yengil tuya junidan qilingan chakmoncha, tuyaning junidan qilingan yuqa kashtali shim.

Suhbatlashayotgan chevarlar Sayqal onaning o‘sha qiz vaqtidagi ko‘rinishini ko‘z oldilariga keltirishdi.

Ikki ko‘krakda ko‘k, yashil ipak ip bilan ingichka qilib to‘qilgan kashtada sakrayotgan taka, uchgan o‘q va kamon ipini tortayotgan qo‘lning tasviri ko‘zga tashlanadi. Shakllarning hammasi ingichka ipak ip bilan tikilgan, go‘yo chizilganday. Boshida tepasi sal ko‘tarilgan bo‘rk. Otga to‘qigani aylana qosh qirg‘iz egari, egar qoshini jiyaklab kumush suvi yugurtirilgani hisobga olmasa, jihozlar oddiy: oddiy kigiz terlik[1], kigiz jazlik[2]. Quyushqon, o‘malduruk[3] yaxshilab pishitilib, tekis tilingan mayda qayishdan pishiq

[1] **Terlik** — otga birinchi solinadigan to‘qimning qismi.

[2] **Jazlik** — terlikning ustiga, egarning tagiga qo‘yiladigan jihoz.

[3] **O‘malduruk** — otning o‘mganiga tortiladigan, bir tomoni egarga, bir tomoni ayilga mahkamlanadigan jihoz.

qilib o‘rilgan. Qora yo‘rg‘aning sag‘risiga yarashgan quyushqon va o‘mganidagi o‘maldurukning mayda o‘rimi tekis, shunchalik chiroyliki, u qayishdan o‘rilgan emas, go‘yoki yo‘rg‘aning sag‘risida, to‘shida ilonlar buralib, bir-biriga chirmashib ketayotganga o‘xshaydi.

Biri oqbo‘z, biri oqsur, biri to‘riq, biri olov rang saman, biri qulon chipor, biri saman, biri dumi bilan yoli qora, o‘zi qizg‘ish, biri chavkar, biri Qorato‘riq, biri malla, biri sariq ola, qo‘ying-chi, har biri o‘zi yaxshi ko‘rgan otini mingan merganlar o‘ndan-o‘ndan bo‘lib saflanishib, o‘zlaricha yovga hujum qiladigan askarlarday surli bo‘lib turishdi. Bularning orasida faqat Sayqal emas, har qaysi eldan va nasllardan kelgan mergan qizlar bir qancha edi. Shu paytda yombini qizlar o‘zlari alohida otishsin, degan taklif bo‘ldi. Biroq bu taklifga mergan qizlar ko‘nishmadi:

— Yigit otganni qiz otadi. Musobaqamiz ham bir xil bo‘ladi, — deyishdi.

Qolaversa, yiqitish, kurashda yigitlar bilan yuzma-yuz tortishgan qizlar yoy tortishga kelganda alohida bo‘ladimi? Erkaklar va ayollar yombini birga otishdi.

Odamlar ko‘radigan joyga o‘rnatilgan o‘n ikki qulochli oq xodaning naq uchiga yog‘och qo‘yib, yetti ipak bog‘ bilan ilingan yombini kim o‘q bilan uzsa, yutuq o‘shaniki. Sovrin toy tuyoq[1] va to‘qqizta atan. Yutuqdan ham falon elning falonchi mergani yombi otdi, degan xabar merganning o‘zigagina emas, yurtiga ham katta obro‘ keltiradi. Yombi otishning qoidalari ham juda murakkab:

Otliq mergan yo‘rg‘asini yo‘rttirib borayotib, yombining bog‘ini otadi. Har bir mergan uch marta otishga haqli. Uch otganda bir marta bog‘ uzgani bir otoq[2] — yutug‘i yombisiz uch atan. Ikkita bog‘ini uzgan ikki otoq — yutug‘i yombisiz olti ingen, yombini otib tushirgan merganga to‘liq otoq va yutug‘i ham to‘liq beriladi.

Yombini to‘qqiz mergan o‘q otgandan keyin o‘ninchi bo‘lib Sayqalning qora yo‘rg‘asi yo‘rtishni boshladi. Tepasi ko‘rinib turgan bo‘rk kiygan kelishgan askarni el mergan yigit ekan, deb

[1] **Toy tuyoq** — toyning tuyog‘i shaklida quyilgan kumush yombi.

[2] **Otoq** — ochko. Bu so‘zni qadim turkiy *ənak* so‘zi bilan ifodalasa ham bo‘ladi.

turishgan. Qora yo'rg'aning qo'ltig'i yozilib, to'rt oyog'i ko'zga ilashmay cho'zilib ketayotganda, Sayqal bo'rkini olib, egarning qoshiga bosdi, bronza uzangini yo'rg'aning qulog'iga qaratib tepib, bo'yini ot sag'risiga tashladi. Chalqancha yotib kamonni tortganda qizning tepaga tugib qo'ygan o'rilgan sochlari yo'rg'aning sag'risiga yoyilib tushdi. El chuvillab yubordi.:

— Voo, bu mergan qiz ekan, qara!

— Muqaddas Umay onaning arvohiga sig'in.

— Bu yaxshi qizning kamoni yo'lli bo'lsin.

Yombi silkindi-yu, lekin bog' uzilmadi. Yoylar birin-ketin otila boshladi. Dumli o'q hushtak chalib uchib turibdi. Sayqaldan keyingi merganlar ham otini chopib, yo'rg'alarini yo'rttirib, yombini otishyapti. Ko'pchiligining o'qlari zoye ketdi. Beshta bog'ni besh mergan otib uzdi va o'z yutuqlarini oldi. Endi yombini ikkita bog' ushlab turardi. Sayqalga ikkinchi navbat keldi. U qora yo'rg'aning tizginini tortmadi ham, qoqmadi ham. Tizginni egar qoshiga ilgan holda ilgarigiday yo'rg'aning sag'risiga chalqancha yotib, o'q uzdi. Qanday bo'lsa ham, qolgan ikki bog'ning biri shartta uzildi, ikkinchisi chala uzildimi, har holda biroz qimirlab turdi-da, u ham yerga uzilib tushdi. Xaloyiq chuv ko'tarishib, Sayqalga olqish aytishdi:

— Ee, bor bo'l, qo'ling dard ko'rmasin.

— Ko'zingdan yurt aylansin.

— Senday qizni tuqqan onangdan yurt aylansin.

— Senday qizning yulduzi ko'kda.

— Umring doim yaxshilikda o'tsin.

— Zuvalasi ulug' malika bo'lib o'tgin, yaxshi qiz.

Ajo otaning katta oshida yombi otishning suri ham, quvonchi ham, shoni ham Sayqalniki bo'ldi. Boshqa merganlar qancha o'zini ko'rsatib, ot choptirib, o'zlaricha merganligini ko'rsatib, qanchalik mo'ljallagan bo'lishmasin, ularning yoyning tortishi, shoni, epchilligi, harakatlari Sayqalnikiga yetmadi. Sayqalning kamon tortishi xaloyiqqa juda yoqdi. Donishmand, aqlli botirlar, xon, abo, biy va lashkarboshidan tortib, oddiy fuqarogacha Sayqalning yoy tortishidan zavq oldi. Tomoshani ko'rganlarning qalbida Sayqal ajoyib bir mergan sifatida qoldi.

— Qizimiz tilagiga yetsin!

Qancha-qancha kekkaygan erkaklarning og‘izlari yumildi. O‘kinchini ichiga yutishdi. “Asl bo‘lsa ham, qiz. Qizning erkaksiz kuni o‘tmaydi. Aslning yovi kuchli bo‘ladi. Qo‘lga tushsa, o‘lja, cho‘ri”... “Bu epchil qiz bilan yoy otishib, yengib olsa, nima bo‘ladi? Baxtini ham, o‘zini ham oladi”, degan erkaklar mo‘ylovini uchini tishladi. Ichida o‘zicha hovliqqanday bo‘ldi. Go‘zal va kelishgan botir, mergan qiz Sayqalga xaridor ham ko‘payib qoldi. Ana shunday xaridorlardan biri oddiy odam, oddiy xon, botir abo yoki biy emas, qirg‘iz yurtining ajosi Odiltoy ajo o‘zicha bir havas qilib, o‘ylab qoldi:

— Anovi mergan qiz xotinim bo‘lganda, ittifoq va obro‘li to‘lo‘s eli tiragim bo‘lar edi.

O‘zi hozir hamma tomoni o‘xshashib turgan Odiltoy ajo bir kamtigi qora yo‘rg‘ani yo‘rttirib, yombi otgan Sayqal qizni yor qilib olsa, to‘ladiganday, agar unga erisha olmasa, ajoning ham armoni ichida qolib, kamtigi ochiq qoladiganday bo‘lib tuyilardi.

Har zamonning o‘z odati bor. Yurtning ajosimi, boshqasimi ikkita ayol olmaydi. Bir boshda ikki ko‘z, bir to‘shakda ikki bosh sherik. Ikki bosh juftini buzish odatga teskari, to‘g‘ri kelmaydi. “Osh pishgan qozonda tosh pishmaydi”, degan maqol bor. Osh pishsa shirin. Orzu bu nafsni boshvoqsiz qo‘yib yuborish emas. Ikki juftning teng kelishida. Erkakning o‘zidan ancha kichik qizga ko‘z ortishi ham mumkin emas. Bu aslga qarab suqlanish bo‘ladi.

Odiltoy ajo Sayqal qizga oshiq bo‘lib bo‘ldi. Biroq u qiz bilan o‘zining qozoni boshqa-boshqa bo‘lishini o‘ylab, ichidan ezildi. Shu ko‘p yurt hurmatlab, undan qolsa, qo‘rqib, undan saqlanib turgan zo‘r Odiltoy qatoridagi hamma katta odamlar, hamma donishmandlar, lashkarboshi botirlardan darajasi ulug‘ bo‘la turib, o‘zini hammadan baxtsiz odamday sezardi. Ha, ko‘ngli tushgan aslga ishqi ortib tursa-yu, unga yetolmay turgan odamdan ham baxtsiz kishi bo‘ladimi? Kayfiyati tushib ketgan Odiltoy ajo oqbo‘zning oq yolini silay boshladi, ichidan o‘kindi, yosh bolaga o‘xshab tamshandi:

— Ha, bir kam dunyo. Xon ham bir tatim tuzga muhtoj bo‘ladi, degani shumidi, asl bobo!

Katta yutuqlar o‘z navbati, o‘z tartibi bilan o‘ta berdi. Keyingi katta yutuqlarning deyarli hammasi tartibli va qoidasi bilan o‘tdi. Polvon kurashi, er ag‘darishi, ho‘kiz kurashi bo‘ladiganda xaloyiq aylana shaklida o‘tirishib, o‘rtadagi bedakali ko‘k maydonni ochiq qoldirishdi. Musobaqa o‘tkaziladigan joy ham atayin tomosha o‘tkazish uchun qilinganday. O‘rtada tovoqqa o‘xshash tekis joy bor, atrofi asta ko‘tarila boraveradi. Oldinda o‘tirganlar aylana shaklida bir-birlariga tizzalarini tekkizib o‘tirishdi. Orqadagilar ham oldidagilar o‘xshab o‘tirishadi, hamma tomoshani ko‘radi. Ilgari odam oz paytida odamlar otning ustida tomosha ko‘rishardi. Hozir odam juda ko‘p, ot bilan odam aralashib ketishining iloji yo‘q. Bunday katta musobaqalarda bir qiziqqon “A” desa, ikkinchisi “O‘” deb janjal chiqishi ham mumkin. Shunday bo‘lishidan xavfsiragan osh tadbirining boshqaruvchisi Qorachur “Bu musobaqa paytida xaloyiq yerda o‘tirsin. Unday qilmasak, tartib saqlanmay, izi-chuv chiqib janjal bo‘lishi mumkin” dedi. Boshqalarga bu taklif ma’qul keldi. Bir chekkasidan ikkinchi chekkasiga ovoz yetadigan darajada davra qurib o‘tirgan xaloyiq tomoshaning boshlanishini kutib jim o‘tirishibdi. Birortasi tinchimay o‘rnidan tura qolsa, hamma unga qaraydi. Shuning uchun qayta o‘tirishga shoshadi. Qiyqiriq, shovqin-suron, umuman, yo‘q. Doim ot ustida yurib, qilich, chopib, janchar sanchib, hayqirib ko‘ngan yurt endi, yerda o‘tirganda boshqa muhitga kelib qolganday tinch o‘tirishibdi.

O‘rtaga u yoq-bu yoqdan kelgan polvonlar polvon bosish qilib chiqib kelishadi. Har bir polvonning yonida ikkitadan odami bor. Ular polvonning ustidagi kimxobni olib qo‘ygandan so‘ng, polvon bir necha qadam polvon yurishda yurtga ko‘rinadi, keyin sajdaga yiqiladigan taqvodorga o‘xshab cho‘kkalab, turib, ikki kafti bilan yer tayanib uch marta peshonasini yerga tekkizib, yerni o‘padi. Keyin shart turadi-da, quyoshga yukunadi, keyin polvon bosish bilan raqib polvonning oldiga tikka yurib boradi. Polvonlar kurashganda, birini biri to‘sib, poylab, bilak to‘sib, narigi tomon usul qo‘llaganda, o‘zini tortib qolib, kurash qoidalarini, kurash odatini bajarishlari shart.

Polvonlarning bir-birin silkishganidan, yonboshga olganidan ham, shu kurash odatini bajarishlari tomoshabinlarga rohat

bag‘ishlaydi. Ko‘pni ko‘rgan, yurakli, epchil polvon o‘zining o‘sha tayyorgarligi yetarli bo‘lsa, raqibi usullarni ko‘p bilgan epchilroq bo‘lsa, haqiqiy “sichqon-mushuk o‘yini” o‘shanda boshlanadi. Chaqqon va epchil polvon epsizrog‘ini turli usullar qo‘llashi bilan shashtini oladi, esankiratib qo‘yadi. Agar xil kelib qolsa, yonboshga olib chopib, yo boshdan oshirib irg‘itganda, birining yiqilgani-yu, ikkkinchisining yiqqani ham ko‘zga ilashmay qoladi. Go‘yoki, biri qarmoqdagi baliqday yerda buralib, biri o‘yinga tushib turganday bo‘ladi. Polvoni yiqqan tarafning quvonganidan ko‘ziga yosh keladi, polvoni yiqilgan tarafning uyatdan, nomusdan yuzlari quvaradi. O‘rtada so‘z talashilib qolsa, ikki taraf mushtlashib ketadi. Bu safar mushtlashishga yo‘l qo‘yilmadi. Unday qilishga sabab ham yo‘q. Polvoni yiqqan taraf xursandchilikdan o‘tirgan joyida yerni yorib yuborguday qiy-chuv ko‘targanda, polvoni yiqilgan taraf or-nomusi to‘kilganiga chidamay, ranglari o‘zgarib, tishlarini g‘ijirlatib, yerga kirib ketguday bo‘lishadi.

Kelgan mehmonlar olti jamoaga bo‘lindi. Har bir urug‘, har bir el o‘z jamoasini chiqarsa, ularning o‘rtasidagi musobaqalar vaqtni olib, musobaqada bosholomonlik bo‘lib, janjal chiqib ketishi mumkinligi hisobga olindi. Shuni hisobga olib jamoa urug‘ yalovining ostida emas, umumiy yoki bir urug‘dan tarqagan urug‘larning yoki bir yerlik ellarning katta yalovining ostida tuzildi.

Qirg‘iz otadan tarqaganlar ko‘k yalov ostida, eshtek, chaa yashil yalov ostida, chigil, nayman ko‘k jiyakli oq yalov ostida, tabg‘ach osmon o‘g‘lining belgisi ostida, o‘n o‘q yurti qizil jiyak yalov, Uchsuv yurti oq yalov, qut, tot, qurixonga qo‘shni urug‘lar oy rangli yalov ostida — hammasi olti jamoa musobaqaga chiqishgan. Olti jamoa o‘zaro yana ikkidan uchta guruh tuzdi. O‘shanda har bir jamoadan uchtadan guruh chiqadi. Biroq bu son barcha musobaqalarda birday emas: polvon kurash, tosh yorish, er ag‘darish, ho‘kiz kurash kabi musobaqalarda o‘sha guruhlar saqlandi. Bularda har bir musobaqa o‘n sakkiz juftlikda o‘tkazildi. Er sayishda olti jamoadan ikkitadan o‘n ikki guruh chiqdi. Mardlikka, kuchga, hiyla va qo‘rqmaslikka asoslangan er sayish musobaqasining o‘n ikki juftligi qo‘rqmaydigan odamning ham yuragini titratdi. Chidamliman deganning bo‘g‘inini qaltiratdi. Yol, dumlari kelishgan

kuchli polvon otlarni taqimga bosib, jancharni bir-biriga to‘g‘ri sanchmoqchi bo‘lgan botirlar yuzlashganda, qo‘rqmaslar ko‘zini yumib olgan paytlar oz bo‘lgani yo‘q. Er sayishda o‘n ikki juftdan ikkitasi olishmadi. Bular bir tomoni eshtek, chaa, bir tomoni chigil, nayman. Ular yutuqni teng bo‘lishdi. Sayishda ikki askar o‘ldi. Ularning biri tabg‘ach botiri, bir o‘n o‘q yurtining botiri. Boshqalarniki esa ochiq-oydin natijalar bilan tugadi. Bir sanchdirdi, bir sanchdi. Askari sanchilgan tomonning yalovi pastga egildi. Sanchib, yutuq olgan tomonning yalovi osmonga ko‘tarilib, yurti obro‘ oldi.

Musobaqalarning eng ozi qizil qamchi bo‘ldi. Bu musobaqa hozir kam bo‘ladi, qolib ketyapti. Sababi, o‘ta berahmlik bilan bir-birini ayamaydigan o‘yin. Bunda beligacha yalang‘och ikki botir bir-birini qamchi bilan savalaydi. Yorilib ketgan etlaridan qon sachrayotganinini ham sezmaydi. Bu yurak titratadigan og‘ir musobaqa bu safar o‘tkazildi. Qolaversa, allaqachon esdan chiqib ketgan arslon musobaqasi ham bo‘ldi. Qizil qamchidan keyin xaloyiqni shu arslonlar jangi qiziqtirdi. Bu qolib ketayotgan musobaqa bo‘lgani uchun shuncha ko‘p eldan qirq ikkitagina arslon tayyorlangan ekan. Ulardan biri ikki kun avval kasal bo‘lib qolib, qirq bir arslon musobaqaga qo‘shildi.

Arslon musobaqasining mashaqqati boshqa musobaqalarnikidan oshib tushdi. Uning sababi aniq. Bu qahrli, yirtqich jonivorni qadimgi bobolar qanday toblab, qanday musobaqaga qatnashtirdi? U “Ulug‘ so‘z”da, rivoyatlarda aytilgan bo‘lmasa, arslon musobaqasini ko‘rgan kishi juda oz. Ajo otaday qadrli kishining arvohi rozi bo‘lsin, deyishib zurriyot o‘sha qadimgi bobolar ishini davom ettirishgandi.

Ey, bobolardan qolgan odat,
Arslonlar hayqirar endi.
Biridan biri kammas,
Tomosha ko‘rsatar endi, — deb qo‘shiqchi jar solganda, odamlar o‘tirolmay qolishdi. Juda ko‘p alplar jancharini qo‘liga olib, mahkam tutdi.

— Bu ish oqillardan qolgan. Ilgarigilar o‘zlarining mardliklarini ko‘rsatish uchun arslonni o‘rgatib, hunar ko‘rsatishardi.

Qancha-qancha odamlarga bu gap ta'sir qilib ko'zidagi yoshini artdi:

— Qancha yaxshi ishlarimiz unutilib ketyapti...

— Ikki tomonda faqat askarlar turadi, degan. O'rtadan yo'l ochadi, degan. Tirik tayg'onni arslonga ko'rsatib qo'yilsa, arslon o'sha tayg'onni quvlaydi, degan.

— Ey, oqil, mard yurt, o'yining ham ajoyib.

Xaloyiq u yoq-bu yoqqa surilib, chuvillashib arslon musobaqasi ham boshlandi. Hammasi el og'zida aytilganday uyushtirildi. Katta-kichik hamma ot ustida ikki tomon bir-biriga qarab turganda o'rtalik xuddi jarlikdagi yo'lga o'xshab qoldi. Tizilgan otliqlarning oldida faqat askarlar. Hammasi jancharning mustahkam sopini qo'ltiqlariga qisib, o'tkir uchini otning qulog'idan o'tkazib, mahkam ushlab turishibdi. Yo'lga qarab sunilgan jancharlarning uchi bir xil turganligi uchun po'lat tasmaday ko'rinadi. Otliq askarlar ikki tomonni to'sib, o'zlari qalqon bo'lib turgan yo'l bir toy chopim, ya'ni ikki yarim, uch chaqirimcha keladi. Yo'l tugagan joy — pakka. Pakkada Odiltoy ajo bosh bo'lgan barcha obro'li kishilar, donishmandlar, botir lashkarboshilar, qariyalar va hurmatli mehmonlarga joy qilingan. Har bir arslonga ipak no'xta qilinib, no'xta tepasining naq o'rtasiga bayroqcha o'rnatilgan. Bu bayroqcha o'sha arslonni musobaqaga qo'shgan elning jamoasi yalovi bilan bir xil rangda.

Qirq bir arslonnning har birini no'xtaning ikki jamajoyiga bog'langan qil chilvir bilan ikkitadan polvon ushlab kelib qatorga turishdi. Atrof odamlarning yuragiga g'ulg'ula solgan bo'kirishga to'ldi. Nima bo'lsa ham, shuncha ko'p otliq qatorlashib turganini ko'rgan yirtqichning bir tomoni g'azabi kelsa, bir tomoni odam suridan qo'rqqanligi uchun, qo'qqisdan biror kishiga intilsa, unga qaratilgan jancharlarning sanchilishini sezganday, "Sizlarga biz tegmaymiz. Bizga nimaga jancharlaringni sunib turibsizlar? Sizlarning manavi biz uchun atayin qilgan yo'llaringdan eson-omon ketaylik", — deyaptimi, har holda arslonlar bo'kirishi tinmas edi.

Orqa tomonni otliq askarlar to'sdi. Arslonlar tirik to'siqlar orasida qolganday bo'ldi. Oldiga qarab ketgan yolg'iz yo'l bor, xolos. Arslonlar o'sha yo'lni qarab, hayqirib, g'azablanib, oldiga

intilib turishganida, oldi tomondan uzun oyoq ozg'in tayg'on pakkaga qarab, g'izillab jo'nadi. Polvonlar chilvirlarni bog'langan joyidan bo'shatishib, arslonlarni qo'yib yuborishdi. Orqadan do'llar "Dump-dump" urildi. Xuddi shuni kutganday arslonlar xaligi o'qday uchib ketayotgan tayg'onning orqasidan otilganday jo'nashdi. Sarg'ish junlari bo'zarib, quyruqlari so'yilday cho'zilib, biridan biri o'zib ketayotir. Bu yirtqichlarning musobaqasi bungacha bo'lgan barcha musobaqadan qiziq, surli, ajoyib, qo'rqinchli va obro'li bo'ldi. Hozir har bir urug', har bir el o'zlarining jamoasini chaqirib, sovrin olishini unutib qo'yishdi. Qadimgi bobolar boshlagan bu tabarruk musobaqaga ham qiziqib, ham tang qolib qarashdi. Ko'pining badani jimiradi, ko'zidan yosh chiqdi.

— O'o', essiz bobo! Sening shu sharafli musobaqangni biz nimaga unutib borayotirmiz?

— Ey, yurt! Shu ajoyib odatingni unutib qo'yma!

— Biz bobolarni tortmay, kim bo'lib boryapmiz?

— O'rmonda, tog'da uchrab qolsa, tuyani olib irg'itgan yirtqich aytganga ko'nib yugurib ketayotganini qara.

— E, afsus! Bu musobaqani unutgan zurriyot boboning shiorini chaqirishdan uyalsin.

Arslonlar musobaqasi takrorlanmas qahramonlikni esga soldi. Odamlar bir tomoni qadimgi mardlikka faxrlanishdi, quvonishdi. Bir tomoni shu ajoyib musobaqa unutilib borayotganiga o'kinishdi. O'zlarini oriyatli va el obro'sini qo'riqlaydigan inson hisoblagan kishilarni boshqa ko'ngil ochar musobaqa bo'lmasa, ular hozir or-nomusni qo'riqlashga yana ham intiladigan va qalblarida bu tuyg'uning mustahkamlanayotganiga o'zlari ham guvoh bo'lib turgan vaqti. Agar hozir qo'qqisdan nomusga tegadigan gap bo'lib qolsa, urush chiqib ketishi ham ehtimoldan holi emas.

Yurt ko'nglini alahsitib, kishilarni kuldirib, ko'nglini ochadigan musobaqa bu ayiq kurashidir. Arslon musobaqasidan keyin ayiq kurashi boshlandi. Bu musobaqaga ayiq polvonlarni olib kelganlar ham oz emas ekan. Sababi, bu musobaqa hozircha to'y-tomoshalarda tez-tez o'tkazilib turiladi. Ana shuning uchun ham tadbirga ayig'ini yetaklab kelganlar ancha ko'p ko'zga tashlanadi. Biroq ularning hammasiga navbat tegmadi. Katta olti jamoa har

biri ikkitadan juft chiqarishdi. Unday qilmasa, boshqa musobaqalarga vaqt yetadigan emas. O'n ikki juft ayiq polvonlar kurashdi. Kulgi eshigi endi ochildi, shekilli. Boshlanishida ipak no'xta solingan ayiqlar dordayib tura qolishib, hayqirib, gurkirab birini biri quvladi. Tillari chiqib, burnilari qoqishib, har xil ovozlar chiqarishdi. Uning ustiga ayiqlarga yarashtirib sariq teridan qandag'ay shim, tog'ardan yengi yo'q kamzul kiygizishib qo'yibdi. Biri-biriga tashlanib, surishib, turtishib turganda ayrimlari odamlarga o'xshab shimning ishtonbog'idan ushlaydi. Surishadi, tishlashadi, yumalanib ketib, qayta turib, olisha boshlaydilar. Ayiq polvonlarning yiqilishi, yutuq olib berishidan ham bularning kurashi ajoyib. Odamlarning qiyqirib kulishlari toshni yorgudek bo'ldi. Kishilar ayrim ayiqlarni o'zlarining odamlariga o'xshatishadi.

— Vah, anovi xuddi bizning Kerstenning o'zi ekan-a.

— O'o', bunisi xuddi Bag'ish.

— Bir-biriga gapirayaptimi bular?

— Odamga o'xshab chalganini qara.

— Chaynashgani ayiqcha..

— Lekin odamga o'xshab quchoqlashib kurashar ekan.

— Ee, uni egasi o'rgatgan-da...

Xullas, ayiq kurashi tugagandan keyin ham odamlarning ko'z oldidan ayiq polvonlarning kepatasi ketmadi. Arslon musobaqasidan keyin paydo bo'lgan odamlardagi zo'riqish, jangovar kayfiyat tarqab ketdi. Endi ancha-muncha gapga janjal chiqmasligi aniq.

Biroq dev-jinlarning urushi oldidan katta-kichik oldida qandaydir bir sirli yashirin, odam erkidan tashqari bo'lgan zo'r kuchlar olishadiganday xavotirlanib, o'zlarini ehtiyotlab, ayrimlari esa cho'chisha boshladi. Ko'pi ichlarida Tangriga ibodat qilib olishardi. Qandaydir bir irimlarni qilib, yer-suvga, Quyoshga sig'inganlar ham bo'ldi. Keyin katta-kichik hammasi jimjit o'tirishib, Ko'k Tangridan so'ranishdi:

— Muqaddas Tangri, o'zing qo'lla!

— Muqaddas Tangri, o'zing qo'lla!

— Muqaddas Tangri, o'zing qo'lla! — deb xaloyiq shivirlashadi. Dunyo qandaydir bir sehrli shivirga to'lganday bo'ldi.

Odamlarning ko‘ziga qandaydir bir shoxli, tanasi tuk bilan qoplangan g‘alati narsalar ko‘ringanday, vahshiy, qo‘rqinchli tasvirlar yer-suvni qoplab kelayotganday sezildi. Xuddi shu asnoda o‘rtaga dev-jinlar chiqishdi. Bular dev-jinlarning qiyofasiga o‘xshatib kiyingan baxshi odamlar edi. Ularning orasida qo‘rqoq, kuchsizi yo‘q. Eng irodali va eng kuchli kishilar. Bular o‘zlarini chindan ham dev va jinlarmiz, deb bilishadi. Dev-jinning qiyofasiga kirib, ularning tasavvurini yaratyapmiz, deb hech birining o‘yiga ham kelmaydi. Shunday o‘ylagani Tangriga ishonmagan qora jon — qora jin bo‘lib qolishiga ishonadi. Dev-jinlar o‘rtaga chiqqanda, xaloyiq o‘rtasida shivir-shivir ko‘paydi:

— Qora kuyib ketsin, yorug‘ porlasin!

— Qora kuyib ketsin, yorug‘ porlasin!

— Qora kuyib ketsin, yorug‘ porlasin!

Dev-jinlarning olishuvida jamoaga bo‘linmaydi. Shior bitta: odamzodning shiori — yer yuzida qora bo‘lmasin, oq rivojlansin, degan shior. Bu maqsad shunday ulug‘ saltanatda ko‘p xaloyiq yig‘ilgan katta yig‘inda umumiy inson farzandinining Ko‘k Tangridan tilagan maqsadi:

— Dev-jindan — qora dunyodan, iflos va yomon narsalardan yer yuzi toza bo‘lsin!

Dev-jinlarning kurashuvida oqqa qora atayin yengilib bermaydi. Bunda oq ham, qora ham jon-jahdi bilan kurashadi. Ikkovi ham birday kuchli, ikkovi ham birday o‘z ishiga ishonadigan. Bunda, ko‘pincha, yorug‘likning yengishi, qanday bo‘lsa ham, xaloyiqning oq tilagi unga suyangan oq niyatlilarning kuch olishi, ilhom olishiga quvvat bersa kerak. Oq tomon yengganda, katta quvonch bo‘ladi. Qo‘qqisdan qora tomon yengsa, chuqur qayg‘urish yuz beradi. Bu qayg‘urishning qorong‘iligini, mungliligini so‘z bilan bayon qilish qiyin. Oq-qora bu olishuvi bilan yurtning ertangi kunidan fol ochadi. Qoraning yengishi bu ertangi katta yurtga og‘ir qayg‘u, qirg‘in, mung olib kelishini xabar qiladi. Ana shundan bo‘lsa kerak, oqni talashgan kuch o‘lguncha, yuragi yorilib, qaltirab, tolib yiqilguncha qoraga bo‘ysunmaydi. Qorani taslim qilishga bor kuchini sarflaydi.

Bu safargi dev-jinlarning olishuvida qora bilan oq it yiqilish[1] bo'lib qoldi. Birov yiqilmadi ham, birov yengmadi ham. Oq tomon yengmasa ham, qoradan biroz ustunlik qildi. Xaloyiq pishirilmagan moy yegandek qorni dam bo'lib qoldi. "O'o', Ko'k Tangri, bizni yomon falokatlardan saqla!"

— Ko'k Tangri bizni sinadi. Oq bilan qora yonma-yon bu dunyoda qora qat'iy yengilib qolmaydi, oq ham doim yengavermaydi-da. Shundaymi, odamlar buni tushunishlari, o'z ahvolini baholay bilishlari zarur. O'zingning kamingni o'zing to'g'rila. Kuchingga, ishingga, o'z mehnatingga ishon, demoqda bu safar Ko'k Tangri, — deyishdi donishmandlar.

— Kurashsiz nasl rivojlangan emas. Olaqanot dunyoning musobaqasi bu!

— Hushyor bo'l, inson farzandi, deb Tangri qoraga tosh ortdi, oqni g'olib qilib, kishi tomonga yon bosdi.

— Shu oq, qora urushida o'zing oq tomonda bo'lding. Bundan keyin ham yomon bo'lma, toza bo'l. O'shanda seni qora bosmaydi, — deyishdi donishmandlar.

Keyingi kunlari qulon chopish, yo'rg'a yo'rttirish, ot chopish kabi musobaqalar o'tkazildi. Ayniqsa, ot chopish jamoa bayrog'iga qancha obro', yoki tashvish olib keladigan eng katta musobaqa ekanligi o'sha kuni ko'rindi. Qadimdan askarlikni o'zlariga asosiy hunar hisoblagan yurt — katta-kichik, o'g'il-qiz demay egarda ulg'ayib, yilqini inson qanoti, deb bilganidan ot chopish bu yurt uchun eng zo'r musobaqa bo'lishi tabiiy.

Kuchga to'lgan chopqir ot bilan er yigitning taqdiri bir bo'ladi. Yilqisi kuchli, chopqiri va ayg'ir otlari ko'p bo'lgan yurtning lashkari qanotli bo'ladi. Otning poygada g'olib bo'lishi faqat o'sha otninggina chopqirligi emas, o'sha oti poygada g'olib bo'lgan yurtning kuchli qanotga ega ekanligi, kuchliligi, chopqirligidir.

Dev-jinlarning olishuvida odamlarning hammasi oq tomonga tarafdor bo'lishgan bo'lsa, ot chopishda har biri o'z jamoasining muxlisi bo'ldi.

[1] **It yiqilish** — durang. Qadim turkiy tilda kurashlarning natijasida hech kim g'olib bo'lmasa, it yiqilish, it chalish kabi iboralar bilan ifodalangan.

— Bu ot chopishning natijasi chiqqanda ketmas kek, o'chmas o'ch qolardi, — deb o'zicha o'ylangan Odiltoy ajo o'tayotgan oshning xoni Qorachurga eslatdi:

— Qorachur botir, ko'p kundan buyon o'tayotgan musobaqalarni halol boshlab, yaxshi yakunlading. Bunga men ham, el-yurtim ham xursand bo'ldik. Oldimizda katta musobaqa turibdi. Bu ham tinch o'tsin. Oq-qora musobaqasi it yiqilish bo'ldi. Xaloyiq o'sha holatga ham to'g'ri munosabatda bo'lsin. Oqni o'chirib, qorani yondiruvchilar bo'lmasin. Xonlik yorlig'ing bilan shuni tasdiqlatib qo'y. Xaloyiq hozirgi bo'ladigan musobaqaga ham halol munosabatda bo'lsin.

Odiltoyning gapini donishmandlar, abo-biylar, botir lashkarboshilar quvvatlashdi.

— Oq yoqlanadi, qoraga qilich uriladi.

— Shuni yurt esga olsin.

— Jarchilar xonning yorlig'ini xaloyiqqa aytsin.

Shundan keyin chiroyli kiyingan qo'shiqchi-jarchilar yo'rg'alarini yo'rttirdi. Katta yig'inning u chetidan bu chetigacha kelishib, elning oldida bir-bir to'xtashib, ularga xon yorlig'ini eshittirdi. Ularning chiroyli ovozlari eshitgan odamlar xon yorlig'ining mohiyatiga tushunadilar. Lekin goh-goh bitta-ikkita odam qarshi chiqqanday bo'lishdi. Yorliq eshitish bu maza qilib qo'shiq tinglash emas, bu buyruq. Xaloyiq qo'shiqchilar aytgan yorliqni xon buyrug'i qatori qabul qilishdi.

— Birlikni buzganni, janjal chiqarganni Ko'k Tangri jazosini bersin. Bobo arvohi ursin.

Uch yuz sakson chopqir otlar poygaga qo'yildi. G'olibga o'ttiz ot sovringa beriladigan bo'ldi.

Pakkaga ketgan yo'lga poygachilarga yordam beradiganlar yuborilmaydigan bo'ldi. Har bir chopqir otning tizgini o'ziga ishongan yigitning qo'lida. Chopqir g'olib bo'lsa, o'z baxti, qolgan bo'lsa, o'z sho'ri. Pakkagacha chopqir ot o'zi kelsin. Birov yordam bermasin. Yashirincha yordam berishga chiqqan odamga o'lim jazosi beriladi. Qarindosh-urug'lariga to'qqizdan jarima,- deb qo'shiqchilar jar solib, hammaga eshittirdi. Albatta, bu jazo og'ir, lekin sharoit talab qilgan eng xolis jazo.

Uch yuz sakson chopqirning hammasi katta sinovlardan o'tgan, yurtga atog'i chiqqan miqti chopqirlar. Har birining xuni - ming yilqi, besh yuz tuya, yoki bo'lmasa, bir er yigitning xuni.

Chopqir otlar poygasi uchun yarim kunlik masofa tanlandi. Otlarning narigi pakkaga borib qaytishi uchun bir kun vaqt ketadi. Shuning uchun poygachilar xaloyiqning oldidan quyosh o'ng chekkada turganda jo'nashdi. Otning sinchisi — soyibkorlar otlarni o'sha zahoti sinab ko'rishmoqda. Qaysi chopqir ot tobga yaxshi keltirilgan, qaysinisiniki yetmagan, yo tobidan oshib ketgan. Uni bilish ham ko'ngilga to'g'ri keladi. Ot ko'zining moyi, peshonasidagi kokili, bo'ynidan tortib junining yotishi, yaltirashi, ko'rinishi, bosishi, ichki nafas olishi hamma rangi — yulduzi uning tobiga yetgan-yetmaganligi yoki oshib ketganligini bildiradi. Albatta, buni hamma sinchi ham bilavermaydi. Chopqir otni toblash bo'yicha tajriba orttirgan sinchi — soyibkor, miqti donishmand kishilar fahmlaydi.

— Anovi chopqir otning rosa chopadigan vaqti ekan-u, soyibkori buzib qo'yibdi. U bu safar poygada g'olib bo'lolmaydi, falon chopqir uchinchidan keyin, falonchi to'qqizinchidan keyin, pismadoni ikkinchining ortidan keladi, poyganing g'olibi falon akaning Oqsuri bo'ladi, deb otlar qatorlashib o'tgandan keyin ochiq aytadigan soyibkorlar bor. O'sha vaqtda yurtda chopqir otning sirini xato qilmay biladigan ikkita bo'lsa, hozir ular to'rtta edi.

Nima bo'lsa ham, otlar qatorlashib o'tgandan so'ng, tomosha qilib o'tirganlarning bir qanchasi ichidan jim deganday quvonchini bildirmadi, ayrimlar zahar ichib olganday ichidan ezilib, mo'ylovini chaynaydi. Otlarning qaytib kelishini kutishadi. Biroq chopqir otlar pakkaga erta kelmaydi. Ular tobini buzmay kun oqquncha yurishadi. Mo'ljallangan yerga borganda chavandozlar qaytadan tizginlarini qo'yadi. O'o', Ko'k Tangri, chopqir otlarni qo'llasang, o'shanda qo'llagin.

Chopqir otlar qaytib kelguncha, yo'rg'a yo'rttirish, qulon poygasi o'tdi. Bu musobaqalar ham o'ziga xos qiziq va qadrli. Shunday bo'lsa ham, elning diqqat-e'tibori ot chopishda — katta poygada. Otlarning keladigan vaqti yaqinlashgan sari odamlarning tinchi keta boshladi. Go'yo yer qo'zg'aldi, dunyo dungirab bora-

yotganday tuyiladi. Kechki payt ko‘z ilg‘amas bo‘zarib turgan tekislikda kelayotgan chopqir ot ko‘rindi. Avvaliga u uyuridan bo‘linib qolgan jayronday bilinar-bilinmas ko‘ringan edi. Tezdan uning orqasidan biridan keyin biri oldinga intilgan otlar chiqib keldi. Jonivorlar qanchalik chopqir, qanchalik qanotli bo‘lishsa ham, ter bosib, qo‘ltiqlari cho‘zilib qolganday. E, voh, chopqirlarning odatlari ham o‘zgacha: biridan biri qolmaslikka harakat qilishib, jon-jahdi bilan oldinga qarab intilishmoqda.

Poyganing natijasini orziqib kutayotgan xaloyiq bir kishiday jimjit bo‘lib, otlar kelayotgan olis tekislik tomonga tikilib, qarab qolishdi.

— Qaysi chopqir ekan, jonivor?

— Qaysi jamoaning yalovi ko‘tarilar ekan, ey, Tangrim? — degan fikrlar hammaning ko‘zidan bilinib turardi. Soyibkorlar juda uzoqda bo‘lsa ham, mening otim emasmikin, deb oldida kelayotgan chopqir otning oyoq tashlashini sinaydi. O‘zi toblagan chopqirga o‘xshamasa, achchiq narsa xo‘plaganday sarg‘aya tushadi, o‘zi toblagan otga o‘xshashtirsa, boshini sal ko‘tarib, peshonasidagi terini artadi. Odamlar hozir go‘yoki o‘t ichida. Urug‘ning shoni, elining oriyati badanini qizitib, odamlarni kuydirib borayotganday vaziyat yuzaga kelgan.

Oldida kelayotgan chopqir otlar yonma-yon emas, siyrak. Kuchlisi oldinga chiqib, kuchsizi orqada qolgan ekan. Nima bo‘lsa ham, hozir ko‘zga ko‘ringanlari sovringa ilinadi.

— Tangrim, o‘zing qo‘lla!

— Azmen akaning Oqsurimi? — Onda-sonda sag‘risi kunning nurlarida yaltirab, elikka o‘xshab sakragan Oqbo‘z bir to‘p otlarning ortidan ko‘rindi. Jonivor endigina poygaga qo‘shilib yugurayotganday uchib-kuyib kelyapti. U shunday yuguryaptiki, otlar birin-sirin ortda qoladi. Mana, yettinchi otdan keyin ketyapti. Hash-pash deguncha, avval oltinchi, endi to‘rtinchi bo‘ldi.

Qalin o‘sib chiqqan qamishday turgan ko‘pchilik endi fikrlarini ayta boshladi:

— Jonivor..

— Jonivor..

— Oqsur ikkinchidan keyin...

— Ikkinchi ot bilan quyruqdosh... endi tizginlash...
— Oldingi ot juda kuchli ekan, yetkazmasa kerak..
— O‘o‘, yo‘q.
— Jonivor Oqsur...
— O‘o‘, u oldingi otning sag‘risiga yetdi...
— Vah, undan o‘zdi...

Xaloyiq bir nafas jimjit bo‘lib qoldi. To‘xtab qolgan suvday, yaqin kishisi jon taslim qilayotganiga qarab turgan odamday birovdan sas chiqmaydi. Nafas olishni unutib qo‘ygan katta-kichik chuqur nafas oldi, xaloyiq qo‘zg‘alib, qiy-chuv boshlandi:

— Odiltoy ajoning Oqbo‘zi! O‘zining oshida o‘zining chopqiri poygada yengishi bu yaxshilikdan nishona. Oqqa nishona!

— Ko‘k yalov osmonda! Jamoang obro‘ingni ko‘tardi, qirg‘iz otamning yurti!

Avval Azman aboning Oqsuri deyishgandi. Odiltoy ajoning Oqbo‘zi ekan. Oqbo‘zni aniq tanigan Odiltoy buklab ushlagan buldursunni tagiga bosib, soniga tayangan holda uzoqda kelayotgan otdan ko‘z uzmay qotib o‘tirib qoldi. U so‘z ham aytmadi, qo‘zg‘alib ham qo‘ymadi. Jonsiz odamday qimirlamaydi. Oq oralagan chiroyli malla soqolini ko‘z yoshlari yuvib turibdi. Ajo endi ko‘z yoshini ham artmay qo‘ydi.

— Obro‘im! Obro‘im! Bu mening otimning sovrin olgani emas, yurtim obro‘sining ko‘tarilganidir. Obro‘im! Obro‘im!

Uchinchi bo‘lib Azmanning Oqsuri keldi. O‘ttiz ot sovrin oldi. Chaaning Sariq to‘rig‘i pakkaga yetay deb qolganda, yiqilib, qoni kuyib, yuragi yorilib, jonivor, o‘sha yerning o‘zida o‘ldi. O‘zi aslida yilqiday chidamli, qanotli asl hayvon bormi? Yo‘q!

Oshni boshqargan kishilar Sari to‘riqni poygada chiqqanga hisoblab, sovrin berdi. Besh ot kelmadi. Ular yuragi yorilib, yo‘lda qoldi. Bunchalik ko‘p chopqir otdan poygada olti otning o‘lishi unchalik ko‘p emas. Shunday bo‘lsa ham, yo‘lda o‘lgan chopqir otlarda kamchilik yo‘q, ularni toblagan soyibkorlar adashgan. Qoni kuyib, yuragi yorilgan chopqir otlarni odamlar shunday, deb oqlashdi:

— Yilqi bolasi tabarruk, u qanotli hayvon. U chopqir otlarning toblashi buzilgan. Soyibkorlari yomon...

Ot chopish musobaqasi ham poyoniga yetdi.

Hurmatli mehmonlar bu musobaqa o'tgan maydondan oshga kelgandan beri mehmon bo'lib turgan o'z uylariga o'z guruhlaridan adashmay kelishdi. Lazzatli taomlar tarqatildi. Aytilayotgan "Ulug' so'z"ning davomi aytildi. Bungacha har kuni kechqurun o'rtaga asl tosh qo'yilib, ipor hidlarini chiqarib, allamahalgacha bobolar umrining bayoni — "Ulug' so'z" aytilardi. Bu alohida ajo ota tengdoshlari yurt otasi, yo yurt botiri, yoxud donishmandlarini arvohini rozi qilgan "Ulug' so'z". Bu bobodan qolgan omonat — mardlik, birlik, yo'lboshchilik, mehnat, ulug' xosiyat va qorong'ini tugatib, yorug'likning yondiruvchi so'z. Bu so'z shajara sifatida aytiladi, qo'shiq qatori jangovar kuyga solinib, ixcham va shiddatli harakat bilan aytilayotgan voqeani ko'z oldingdan o'tkazadi. Bir-biriga qofiyalashgan qo'shiq qatorlari ajoyib ohang bilan aytiladi. U eng kuchli voqealarni ochib, ajoyib zo'r alplarning tasavvurini hosil qilib, qonli urushlarni ko'z oldingga keltiradi. O'shanda inson farzandi yengilmas kuchga aylanadi. Biri temir sovut kiyib, suvga oqmas, o'tga kuymas bo'lsa, birini qilich kesmas, janchar sanchmas bo'ladi. Biri jonivorlarning sirini ochib, tilini bilsa, biri cho'pning, daraxtning shivirini sezadi. Biri arslonga aylanib hayqirsa, biri semurg'ga aylanib osmonga uchadi. Uning qanotining chiqqan shamoldan barcha yirtqichlar, barcha yomon narsalar yo'qoladi, sovuriladi.

"Ulug' so'z"da ajoyib afsonaviy ertaklar aytilsa ham, eshitganlar uni haqiqiy o'tgan hayot, tarixda bo'lgan haqiqiy voqea, unda qatnashgan odamlar o'zlarining bobolari, deb bilishadi. Lof voqealarni ham yolg'on, degan bir odam bo'lmaydi. Sababi, odam bolasining tilagi, uni haqiqat uchun bo'lgan kurashi o'tga ham kuymas, suvga ham oqmas, o'lmas va o'chmasdir.

O'sha o'lmas, o'chmas "Ulug' so'z" aytilishidan oldin uni tinglash uchun odamlar atayin yuvinib, fikridagi yomon niyatlarini chiqarib tashlab, tozalanib o'tiradi. Qo'qqisdan kimdir birovning ko'nglida yomon, iflos narsa bo'la bersa, hammasidan avval u o'zidan qo'rqadi. O'zini o'zi yomon ko'radi. "Meni ergashgan jin bormikin? Meni ozg'irgan shayton bormi?" deb o'ylaydi. O'zini o'zi qiynaydi, cho'chiydi, lekin "Ulug' so'z"ga ishonadi.

"Ulug' so'z"ga ishonar zahoti u o'sha yomon shubhadan, kasaldan sog'ayishiga ham ishonadi.

"Ulug' so'z" aytilgan uyning o'chog'ida kumush yoki temir tulg'ada, kumush yoki oltin tovoqda asl tosh yonadi, ipor isi anqiydi.

"Ulug' so'z"ning xosiyati, uning kuchi shunday.

Hozir qadimgi katta suv bo'ylab tog' tomondagi keng joylarga o'z tartibi bilan qator tikilgan qalin uylarda aziz mehmonlar har kuni aytilgan "Ulug' so'z"ning yakunini tinglashyapti. Qalin uylarning yonboshlariga tikilgan osh uylar[1] alohida to'p-to'p. O'sha osh uylarning yonida tosh o'choqlar bor. Katta qozonlarda pishayotgan ovqatlarning bug'i chiqib turibdi. Oshpazlar, tovoqlarga etni qo'yadigan maxsus kishilar hozir astoydil ishlayotgan payti. Tovoqlarga go'shtlar chiroyli qilib qo'yilmoqda. Boshlarini ko'k, qizil, oq tasma bilan bog'lagan, yengil kiyingan otliq yigitlar uyning oldida qo'liga tovoq tegishi bilan yo'rg'asini yo'rttirib, aziz mehmonlar o'tirgan uylarga yetib kelishadi. Eshik oldida o'tirgan kishilar tovoqlarni olishi bilan yana qayta jo'naydi. Mehmonlarni bunday qabul olish bu yerdagi odamlarga odat tusiga kirib qolgan. Tosh o'choqqa o't yoqqan, o'tin tashib, uy-uylarga suvdan tortib kerakli narsalarni yetkazib bergan qul, cho'ridan boshlab, xizmat ko'rsatgan oddiy fuqaro, har bir uyda aziz mehmonlarning tovog'iga go'shtni yeydigan qilib to'g'rab o'tirgan to'g'ramchilargacha har bir kishi o'z majburiyatini kamchiliksiz bajarishar, xatoga yo'l qo'ygani qamchi yer edi. Aziz mehmonlar bemalol o'tirishib, "Ulug' so'z"ning davomini ulab aytganlarni eshitib, hurmat ustida o'tirishibdi. Taom tamom bo'lganda, "Ulug' so'z" ham yakuniga yetadi. Odamlar zerikmay diqqat bilan eshitgan "Ulug' so'z"ning ma'nolarini ko'ngilga tugadilar. Har birida nasl bor, nasli borda kelajak bor. Ular ham "Ulug' so'z"ni o'z nasllariga yetkazadilar.

Oshning hamma talablari bajarilgandan so'ng to'rda o'tirgan ulug'lar arvohni esga olib, osh bergan yurtga olqishlar aytdi.

— Ruhi tirik ajo otaning el-yurti qayg'u bilmasin. Yer-suvi egasiz qolmasin. Ko'chib yuradigan joylari kengaysin, tundugidan

[1] **Osh uy** — ovqat pishiriladigan bo'z uy, oshxona.

Quyosh tushsin. Zurriyotlari bir-biriga ulansin. Yo, Ko'k Tangri o'zing qo'lla!

Osh tadbiri oxiriga yetdi. Jamoalarining dong'i chiqib, musobaqada g'olib bo'lganlar sovrinlarini olishdi. Jamoalari musobaqada yutqazganlarning kayfiyati yo'q qaytishdi. Aziz mehmonlar turli tarafga, o'zlarining yurtiga qarab tizgin tortishdi. Ulug' hurmatga sazovor bo'lganlar yo'l bo'yi osh haqida gapirib ketishdi. "Ulug' so'z" dan so'zlashib, uni davom ettirishdi. O'zlariga ko'rsatilgan hurmatdan qoniqmaganlar, ichi torlik qilganlar bu yurt bilan qanday qilib urishishni, yovlashishni, chopishishni tishlarini g'ijirlatib, ranglari bir ahvol kelishardi.

— Voy-yey, chevarlarim, — dedi Chevar opa. Bu eshitganlaringiz kechagining gapi. Bugungining gapi ertaga aytiladi. Angish-vonanglar o'ynasin, chiroqlarim. Chevar opa gapni davom ettirdi.

KUCH VA SOG'INCH

Botir — urushda, aql — achchiq kelganda,
do'st — zaruriyatda sinaladi.
Sharq xalqlarining hikmatlaridan

Urishsa ikki kishi,
Yarashtirar bir kishi.
Maqol

Ikki tosh uchrashgan joyda kukun qoladi,
Ikki kishi kelishgan joy butun qoladi.
Maqol

Tengini topgan odam dengizday to'lib yashaydi.
Esxil

Ajo otaning oshi 592-sichqon yili erta kuzda o'tdi. Bir yil o'tar-o'tmas qo'shni ellarda yana qonli urushlar boshlandi.

Chaqmoq tosh tutantiriqni o't oldirganday urush bo'lar-bo'lmas sababdan chiqdi. Hayron qolasan: bu qo'qqisdan bo'ladigan ishmi, yo qadimiy qoidami? Nima bo'lsa ham, gunohsiz yurt qayg'uga cho'kdi.

Bultur katta ot poygasida oti o'lgan xon o'shandan keyin Odiltoyga qiyg'och qarab qoldi. Chopqir otning yo'lda o'lgani — o'z ajali. Uning o'limiga birov sababchi emas. Biroq oti yo'lda qolgan xonning qadri singan, qayg'urib ketgan. Qipchoq xoni Sazan o'z qadriga qayg'urganda, eshtek xoni Yomg'irchi meni yaxshi hurmat qilmadi, deb xafa.

— Eshtek bilan qirg'iz bir otadan tarqagan. Men kenja bo'lib, izgil ulug' emas. Hurmatga, o'ljaga izgilning ayiq o'rgatuvchisidan ham kam qoldim, — deydi Yomg'irchi xon. U Odiltoyga qasdlashdi.

Kirgan o'qni otgan o'q topadi, deganday shunday qilib urug' xonlari o'zaro bir-biriga qarshi bo'la boshlaganda, ularga qirg'iz urug'larining bir-ikki xoni ham qo'shildi. Qirg'iz xonlarida ham anchagina araz bor edi: o'zimizning oshimizni o'zimiz boshqara olmadik. Osh boshqarib o'ljali bo'lish o'rniga o'zimiz ziyon tortdik. Odiltoy ajo bizni boshqalarga teng ko'rmay, kamsitdi. Bir narsa deydigan bo'lsak, men ajoman, deb ko'p elning oldiga solib haydab oladiganday. Yog'ochning bo'shini qurt yeydi, deyishadi. Yomg'irchi, sen bo'shlik qilma. To'lo'sning Qorachuri pakkaga yetmay yiqilgan otga sovrin berdi. Sening chopqir otingni o'sha oti pakkaga yetmay o'lgan azning begi bir narsa qilgan, degan mish-mish bor. Az bilan to'lo's oshiqni bir xil tashlaydi. Oshiqni soqqa[1] chiziqdan surib chiqarib qo'yadi. Sening bilan biz soqqamiz. Askarlaringni boshla, Yomg'irchi. To'lo'sning to'rida o'ynasang, Odiltoy do'sti Qorachurga yordam beradi. O'z askarlarini senga qarshi yo'naltiradi. U bormayman, desa ham, biz majbur qilamiz. Keyin uning ortidan chang chiqarmay qaytmaymiz, ya'ni senga qo'shilamiz. Az bilan to'lo'sning ovullari bosib olinadi, o'g'illari — qul, qizlari — cho'ri bo'ladi. Moli, boyliklari o'lja bo'ladi. Odiltoyning yulduzi o'chadi. Ikki tizgin, bir chilvir bizga o'tadi, ya'ni har ikki yurtni biz boshqarib qolamiz. Qirg'iz yurtini biz boshqarsak, eshtek bilan qipchoqni sizlar boshqarib, narigi tomoni qora qarg'aday tabg'achni, bu tomoni chigildi bosib, olib tursak, bizning xazinamiz doim to'lib turishi aniq-ku!

[1] **Soqqa** — oshiq o'yinida oshiqlarni uradigan kattaroq oshiq. U takaniki, elikniki bo'lishi mumkin.

Xayolning shunday qitmir mazmuniga semirgan urug‘ xonlari Urbu bilan Arg‘i ishni oldindan buzishib qo‘yib, o‘zlari soqollarini silab, Odiltoy ajoning oldida ta’zim qilib, kelib-ketib yurishdi. Ularning ajoning oldiga kelishi maslahat berish uchun emas, balki oldindan sirlarni bilish va oldindan ajoga yomonlik qilish edi. Shunday qilib o‘zdan yot chiqib, o‘zakdan o‘t tutab turganda to‘lo‘sning chegarasiga qipchoq bilan eshtekning askarlari bostirib kirdilar. To‘lo‘s yurti usiz ham og‘ir qayg‘uga uchrab, vafot etgan tumanboshi botirni yerga qo‘yayotganda Sazan bilan Yomg‘irchining askarlari bexosdan qo‘l soldilar. To‘lo‘sning xonlari, beklari va lashkarboshilari — hammasi olisroqdagi uch yo‘lning ayrilishidagi katta qabristonda asl botirni yerga berib, o‘ksib, yig‘lab, cho‘kib o‘tirishganda bosib olindi.

Bu otalar odatiga xos bo‘lmagan og‘ir jinoyatni boshqa xolis urug‘larning eli sovuq xabar sifatida qabul qilishdi. Xolis xonlarning g‘azabi keldi. Sazan bilan Yomg‘irchining qora niyatliligiga la’nat aytishdi.

Odiltoy bu xabarni eshitib, qattiq achchig‘i keldi. Biroq yo urushga chiqishini, yo chiqmasligini hal qilolmay abo, biy, botirlarini maslahatga chaqirdi. Ular “Askarlarni otlantirib, kiyintirib, urushga kirmay, kutib turaylik. To‘lo‘s bilan azga Uchsuvning yurti yordam berar”, deyishdi. Odliltoy ajo ularning gapini kesib qo‘ydi:

— Tinch elni urushga boshlamayman. Qarindoshga qarindosh dushman kabi qo‘l solganda, qarab turolmayman.

Xon Urbu ta’zim qildi:

— So‘zing to‘g‘ri, saxovatli ajo. Orqangdan chang chiqarmay qaytolmayman. Elim oz. Mening changim yaxshi chiqmasa, achchig‘ingiz kelmasin.

Urbudan keyin xon Arg‘i ta’zim qildi:

— Elimni oz demayman. Yovning ta’zirini beradigan botir lashkarboshilarimiz bor. Bu telba-teskari dunyo teng emas ekan. O‘tgan qishda bizning molga yut keldi. Askar minadigan otlar kuchsiz. Oilalarimiz bahordan boshlab tinmay mashaqqat tortyapti. Bizning yurt urushni xohlamaydi. Shunday bo‘lsa ham, yalov ostida bizning askarlarimiz bo‘ladi.

Bexosdan bosib olingan to‘lo‘s yurti bira to‘la tushkunlikka tushib qolmadi. Hadeganda askar to‘play olmay, Sazan bilan Yomg‘irchining tumanlarini to‘sa olmay, to‘lo‘s yurti sochilib qolgan. Bosib olindi, yengildi, deb hisoblangan. To‘lo‘sdan besh mingga yaqin yilqini haydab, bir necha o‘g‘il-qizni o‘lja qilib ketishgan. Sazan bilan Yomg‘irchi olisdagi yov tabg‘achni, yo forsni, yoki tubut yurtini bosib qaytganday, o‘z qarindoshiga qo‘l solganini bilmadi. Yovni yenggan lashkarboshilarning odatini davom ettirib, Sazan bilan Yomg‘irchi do‘llarni urdirib, askarlarni boshlab jo‘nadi. O‘z yurtiga yaqinlashgan sayin askarlari o‘ynab, shodlanib, qo‘shiq aytib qaytishdi. Qarorgohdagi yurt urug‘ yalovini ko‘tarib, hilpiratib, urug‘ shiorini aytishdi:

— Oq g‘oz! Oq g‘oz! Oq g‘oz!

— Boshingni ko‘tar! Boshingni ko‘tar! Boshingni ko‘tar!

— Qipchoq! Qipchoq! Qipchoq!

— Bargi! Bargi! Bargi!

Katta to‘y o‘tkazishdi. Qimiz, sharob suv bo‘lib oqdi. Qo‘shiq, raqs, baxshi o‘yini kun-tun cho‘zildi. Biroq matab kelingan o‘g‘il-qizni, haydab kelingan yilqini o‘lja qatori bo‘lishtirishda botirlarning orasidan janjal chiqdi. Sazanning mingboshisi Kerk botir:

— Mening qilichim to‘lo‘s rizqini qirqdi. Men ot boshini bursam, to‘lo‘s elini bosib olish sizlarning qo‘lingizdan kelarmidi? — deb eshtekning tumanboshisiga do‘q qildi. Eshtekning tumanboshisi O‘roq botir unga gap qaytardi:

— Kerk botir, o‘zingni er sanab, bizni kamsitmoqchimisan? Bizning qilichimiz senikidan o‘tmas bo‘lsa, men uni toshga chopar edim. Xon bilan xon, tumanboshi bilan tumanboshi teng. Sen o‘ljani butun olasan-u, men yarmiga ko‘namanmi?

— Ko‘nmasang, ko‘nma, O‘roq. Isming O‘roq bo‘lgani bilan qiliching yaxshi o‘rmadi. Sen yovni men surganday surolmading. O‘lja meniki.

O‘roq botir hayqirdi:

— E, ha, shundaymi? Unday bo‘lsa, seni yakkama-yakka kurashga chaqiraman. Urishadigan yeringni ayt!

Intilib turgan Kerk botir O‘roqqa ko‘kragini tiradi:

— Ey, shirin oshga qorning to‘yganda, xovliqma. Urushda sening tizgining bo‘sh, oshda g‘ayrating juda yaxshi-yu!

— Pastga urma! Qalqonimni qilichingga to‘sdim.

— To‘ssang, chiq. Seni ham o‘lja qatoriga qo‘shaman.

— E, ha, — O‘roq qilichini sug‘urib, tig‘ini o‘pdi. — Qilichning tig‘i ursin.

Kerk qilichini sug‘urib, tig‘ini o‘pdi:

— Qilichning tig‘i ursin.

Ikkovi chopisha ketganda ikki urug‘ning xonlari Sazan bilan Yomg‘irchi o‘rtaga tushdi.

— O‘zga urgan qilich qinga sig‘maydi, — dedi Yomg‘irchi xon. Uning uzun malla soqoli ko‘kragiga yoyilib, baquvvat tanasi yana ham kattaroq ko‘rinib, kimxob choponining ikki etagi ikki tomonga ketdi. Qoramtir rangi yana ham qorayib, qattiq g‘azablandi: — Birga bo‘lamiz, degan odamlar sizlarday ishni buzmaydi.

— Xonim, — dedi O‘roq. — Xafa bo‘lma-yu, botiringning oriyati yo‘q ekan. Men birlashganimiz haqida gap aytmadim. O‘lja teng. O‘z ulushimni olaman, keyin ketaman.

Sazan xon O‘roq botirga olayib qaradi, qovog‘ini solib, qizarib ketdi. Nafasi chiqmay qolganidan bo‘g‘ilib, so‘z aytolmadi. Uning achchig‘i qattiq kelganda, shunaqa nafasi chiqmay qoladigan odati bor. Ana shundanmi, uning beklari, botirlari, xonimizning kelib chiqishi ko‘k tosh ekan, uning to‘qqizinchi katta enasi ko‘k toshning yog‘ini yalagan ekan. Shundan bo‘yida bo‘lib o‘g‘il tug‘ibdi. O‘sha o‘g‘ildan tarqaganlarning bari shunday: achchig‘lansa, ko‘k toshday ko‘karib qoladi. Agar u achchig‘ini to‘xtatmasa, yomon bo‘ladi. Qo‘l ostidagilarni quritadi, ko‘k toshday yanchadi, deyishardi.

Chindan ham Sazan xon ko‘k toshday ko‘karib qolganda yo birortasini asovga sudratib, yo birortasini qattiq jazolab, yo birovlarni qul, cho‘ri qilib tinchirdi. Hozir Sazan xonning ko‘k toshday ko‘karganini ko‘rgan O‘roq botir jahli tushdimi, har holda, qilichini qayta shiltadi-da, o‘kinib, o‘ksib bilagini tishlagancha nari ketdi. Bu ham jahli chiqqan botirning odati hisoblanadi. Bu bilan ko‘k toshday ko‘kargan Sazan xon hisoblashmay qo‘yishga haqi yo‘q. Nima bo‘lsa ham, o‘tda qaynab toshgan suvga muzdek suvni

qo‘shganda toshgan suv to‘xtab qolganday, xonning jahlini botirning jahli, botirning jahlini xonning jahli bosdi.

Ikki botirning janjali bosildi. Biroq ichlarida gina qoldi. Botirlarning qiyg‘och qarashgani — botirlik tig‘ning qayrilgani. Lashkar boshlagan odamlarning bir-biriga gina saqlagani — birlikning ketgani. Urug‘ning xolis oqsoqol donishmandlari ikki botirning o‘lja talashib, ginalashib qolganini yomon belgi, teskari ish deyishdi. Bu faqat ikki botirning oriyati qo‘zg‘ab chiqargan janjal emas, bu oqqa qora surkab, qoraning o‘tini tutashtirgan, ozg‘iriq qora jinning ishi. Kechagina yalpi elning ulug‘ kishilari Odiltoy ajoning oldida ko‘k yalov ostida birikamiz, deb ont ichdik. Muqaddas Ko‘k Tangriga, bag‘ri keng yerga sig‘indik. Bir bosh, bir qo‘l bo‘lamiz, deb xon, abo, biy, bek, donishmand, notiq, oqsoqol, botir lashkarboshi — hammasi ko‘k temirni o‘pdi. Endi ichdan ola chiqdi. Bizning xonlar ko‘k yalovga qarshi. Bir boshni ikkiga bo‘ldi, bir qo‘lni ikkiga ajratdi. Bobo ruhi bizni qahriga oldi. Endi botirlarning o‘zlari ikkiga ajraldi. Endi bizga yov kelsa, nima qilamiz?

Urug‘ donishmandlari o‘zaro shunday xavf borligini aytishdi. Chindan ham ularning bu xavflanishiga to‘liq asos bor. Oraga kelishmovchilik tushsa, urishaman, deb yurganlar ko‘payadi. Kecha yengilgan yurt tayyorlanadi. Bugun u kuchga kiradi. Kecha yengan el bugun mana bunday bo‘lib ichidan janjal chiqib, kuchini yo‘qotadi. O‘zini o‘zi mudofaa qilolmay sochiladi.

To‘lo‘sning donishmand xoni Qorachur yurt boshqargan oddiy xon emas. U po‘lat qilichini yovga tik ko‘targan botirlardan biri. U kecha yengilgan bo‘lsa, uning sababi bor. Ko‘zi o‘tgan mard lashkarboshini dafn qilishib, yurt aza tutib turganda, yengildi. Yov keladi, degan o‘yda yo‘q yerdan to‘lo‘s eli g‘aflatda qoldi. Erkaklar qurolsiz edi. Yigitlar-qizlar yig‘lashib, botirni yo‘qlab, dafn marosimini o‘tkazishayotgan edi. O‘sha qayg‘u ustiga qayg‘u, mung qo‘shgan Sazan xon bilan Yomg‘irchi xonga Qorachurda qattiq adovat paydo bo‘ldi. U qora niyatli ikki xonning askarlariga kuchi yetmasligiga aqli yetib, o‘z askarlarini qirg‘inga uchratib olmaslik uchun otini teskari burib, tog‘ tarafga ketgan. Yurtini bosib olgan yov askarlari o‘ljalarni olib qaytgandan so‘ng uyi qarovsiz qolgan

qo‘nishga, molsiz qolgan yaylovga Qorachur o‘kinib, o‘ksib qaytib keldi:

— O‘o‘, muqaddas ota qo‘nish, seni qarovsiz qoldirdim. O‘o‘, ko‘k maysali yaylovim, seni molsiz qoldirdim. Men xon emas, oddiy fuqaro bo‘ldim. Muqaddas yer-suvim sen zorlanib qolding, ayol — tul, o‘g‘il — qul, qiz — cho‘ri bo‘lib ketdi. Uzoqdan kelgan yov emas, bizni azobga solgan bir otadan tarqagan qipchoq bilan eshtek. Kechagina men bilan tizzalarimiz bir-biriga tegib o‘tirgan xonlar.

— O‘o‘, qasamni unutgan buzuqilar...Bugun menga yopilgan qora ertaga sizlarga yopiladi, — deb adovatini yashirmagan Qorachur botir o‘ksidi.

O‘chgan yulduzini yondirish uchun bor kuchini sarfladi. Bo‘ladigan yurishga yigitlargina emas, qizlar ham tayyorgarlik ko‘rishdi. Yigit tortgan kamonni qiz ham tortadi. Yigit chopgan qilichni qiz ham chopadi. Bu — qadimgi bobo va enaning tutgan yo‘li. “Ulug‘ so‘z”ni chin dildan eshitgan yigit, qiz qadimgi zamonda yov qo‘liga asir tushib qolgan askar yigitning ortidan borgan askar qiz qutqarib qaytganini qulog‘iga quyib olgan to‘lo‘sning qizlari er nomusini talashamiz, deyishdi.

— Otasi Qorachur, onasi Qorasoch malikaning oldiga Sayqal qiz to‘g‘ri kirib bordi. Askarcha kiyingan qizini ko‘rganda ota-ona hayron bo‘lib qarashsa ham, ichlarida quvonishdi. “Barakalla, bobo yo‘lini tutgan oriyatli farzandim! Dilingdagi yaxshi maqsadlaringdan, shiddatingdan aylanayin!” deb ota-ona qizining bu ishiga rozi bo‘lib turganda, askarchasiga tiz bukib, o‘tira qolgan Sayqal qo‘lini ko‘ksiga qo‘yib, o‘tindi:

— Yurting qora yopinib qoldi, xon ota. Buzuqi xonlar to‘kkan rizqni qaytarib olib, matalib ketgan o‘g‘il-qizni qullikdan, cho‘rilikdan qutqarish hammamizning ishimiz. Lashkar xoniga buyruq ayting, ota. To‘lo‘s yurtining qizlari askar kiyimini kiyishdi. Orasida kamon tortar merganlari, qilich chopar burgutlari bor. Lashkar xoni menga ishonsa men o‘shalarga mingboshi bo‘layin. Yo‘q, ishonch bo‘lmasa, oddiy askaringman.

Qorachur botirning soqoliga ko‘z yoshi tomdi:

— Shiddatingga otang rozi, chirog‘im. Maqsadingga yetgin.

Ajo otaning oshida kamondan o‘q otishini ko‘rib, attang, Qorachur botirning bu bolasi o‘g‘il bo‘lib qolsa, nima bo‘lardi, degan yurt endi o‘sha qiz mingboshi bo‘libdi degan xabarni uqqanda, ko‘pchiligi ko‘ziga yosh oldi.

Qadimgi ulug‘ marosim to‘xtab qolgani yo‘q, yurtim! Qolaversa, yigit yurtni mudofaa qilgan mard bo‘lib, qiz yurtda qolgan po‘stakmidi? U olg‘ir burgut. Qorachur bexosdan yengilib qoldi. Haqiqiy botirning yulduzi endi yerda qolmaydi. O‘g‘li yo‘q bo‘lsa ham, qizi askarlarga bosh bo‘ldi.

— Bu o‘sadigan elning odati, marosimi!

Tugagan sayin tutagan,
Tulagan sayin tuklangan.
Bu taglik yurtning belgisi.
O‘lgan sayin ko‘payar,
O‘ksisa, chaqqon bo‘lar,
Bu o‘sar yurtning belgisi.

Yurtning orasida shunday shon-shavkatli xabar tarqaldi. Bosib olingan to‘lo‘s yurtining ginasi achchiq ekan. O‘g‘li emas, qizi askar kiyimini kiyib, lashkar tuzyapti ekan. Qorachur botirning mergan qizi askar qizlarga mingboshi bo‘libdi. To‘lo‘s bosqinchilardan o‘chini olsin. Qorachur botiring singani butun bo‘lsin!

Shu xabar Odiltoy ajoga yetganda, o‘z qizi askar kiyimini kiyganday quvondi. Abo-biylarini, beklarini, botirlarini, lashkarboshilarini maslahatga chaqirdi. Ajoning o‘rdasiga kelganlar harbiy kiyimi va qurol-yarog‘i bilan kelib tushdi. O‘rda aylanasi askarlar bilan to‘ldi. Kelgan abo, biy, botir bari chekkadagi ot bog‘laydigan joyga otlarini qoldirib, o‘zlari o‘rdaga piyoda kelishdi. Biroq ajo chaqirmaguncha hech kimisi o‘rdaga kirmadi.

Odiltoy ajo abo, biylarni uncha kuttirgani yo‘q. Kelganlar o‘rdaga kirsin, — degan buyruq berildi. Gurs! Gurs! Gurs! Uch marta do‘l urildi-da halidan beri oyboltalarini bir-biriga tekkizib ikki bo‘sag‘ada turgan askarlar tikka qotib turishdi. Ular oyboltalarini tik tutishdi. O‘rda eshigi ochildi. Bosh abo, biy, manap, keyin yoshi ulug‘lar birin-ketin o‘rdaga kirishdi. Odiltoy taxtda o‘tiribdi.

Kirganlar ajoga ta'zim qilib, qo'llarini ko'ksiga qo'yib, asta bosh egib, keyin abo, beklar taxtning o'ng tomoniga, botir lashkarboshilar taxtning chap tomoniga qator bo'lib o'tirishdi.

Odiltoy ortiqcha dabdabalarsiz fikrini shartta aytdi:

— O'ng tomonda abo, biylarim, so'l tomonda botir lashkarboshilarim, diqqat bilan eshiting. Ko'k Tangri ajo taxtini menga buyurganda, to'g'ri, saxiy, hushyor yurtingga nazoratchi bo'lgin, deb topshirgan. Bu omonatning birini chala bajarsam, yo birini yodimdan chiqarsam, unda ajoning taxti menga harom bo'ladi. Bobolar ruhi meni jazolaydi. Men emas, hammamizni jazoga mubtalo qiladi. O'ng qo'limda abo, biy beklarim, so'l qo'limda botir lashkarboshilarim, sizlar menga to'g'ri so'zimni, maslahatimni aytaman, deb alohida-alohida ko'k tig'ini yalab turib, ont bergansiz. Ichi qoraning boshini o'sha ko'k tig'i kessin. Iching oq, omonatni oq saqlaganing hozir menga to'g'ri fikrlaringizni ayting.

O'rdada o'tirgan hamma o'rda ahli bir kishiday boshlarini ma'qul deganday qimirlatishdi.

— Ichimiz oq, omonatga xiyonat qilmaymiz, ajom!

— Rahmat! Maslahatimni eshiting!

— Maslahatingizni ayting, ajom!

— Bir sigirning shoxi sinsa, mingta sigirning shoxi og'riydi. Bizga qardosh bo'lgan to'lo's yurtining shoxi sindi. Mening shoxim og'ridi. Buni nima qilamiz?

Azman abo darrov maslahat berdi:

— Kosov uzun bo'lsa, qo'l kuymaydi. Bizning bir tuman lashkarimiz Qorachur botirga yordam bersin. To'lo's yurtining qo'li uzaysa, u o'chgan yulduzini yondirib oladi.

Ostona tomonda o'tirgan Cho'g'ultur askar odati bilan tiz cho'kkan holda dedi:

— Azman aboning aytgani to'g'ri, ajom. Bir tuman lashkar bering. Men lashkarga boshchi bo'lishga tayyorman.

— Tilaging ro'yobga chiqsin, askar. Mayli, lashkarga bosh bo'l. Arpasiz ot dovon osholmaydi, orqasida hech kimi yo'q alp yovni yengolmaydi. Shuni esda tut. O'zingchasiga botirlik ko'rsataman, demagin. Qorachurga orqa bo'l, tayanch bo'l!

— Aytganingizni bajaraman, ajom!

— Bizga qardosh to'lo's eli mung ko'rmas edi, — dedi Odiltoy. — Anovi urug' xoni Urbu bilan Arg'ining fikri buzildi. Sazan xon bilan Yomg'irchi o'z yurtlarining betiga go'ng yopdi. Ularni nima qilamiz?

— Tutunni puflaganning o'zini is bosadi, ajom. Ular tutun pufladi. Endi o'zlari islansin, — dedi Azman abo.

Kimlardir kuldi, shivir-shivir boshlandi.

Odiltoy ajo kulmadi. Qovog'ini solib biroz o'tirdi-da, keyin:

— Aniq aytding, Azmanim! Tutun puflaganni islasin. O'zining bo'yniga o'zlari tavqi la'nat ilganlarni nima qilamiz?

Azman bilan Chekir biy teng fikr bildirishdi:

— O'zining bo'yniga o'zlari tavqi la'nat ilganlarga tegishli jazolar berilsin. Odiltoy ajo o'ng qo'lini oldiga cho'zib, dedi:

— Shu maslahatga roziman. Har biringiz nimani xohlaysizlar?

O'rda ahli qo'llarini ko'ksiga qo'yib bosh egishdi:

— Bobo saqlasin. Birlikni buzganni ko'k tig'i kessin.

— Lashkar otlansin, — dedi Odiltoy.

Bu vaqtda Qorachurning lashkari eshtekning chegarasida turgan edi. Harbiy odatlariga to'liq bo'ysunadigan Qorachur, men tunda o'g'irlik qiladigan odam emasman. Uxlayotgan ovulga bostirib kirmayman. Qayg'uga botgan elim yomon nom olishini istamayman. Dalada bo'ri uxlasa, uyda itning rahmi keladi, degan gap bor. Men bir zabardast lashkarboshimdan ajrab, ko'zi o'tgan jigarimni yo'qlab, yig'lab turganimda menga qardosh bo'lgan anovi iflos xonlar itchalik ham bo'lishmadi. Menga yuragi achishmadi. Jigarimga tepdi. Bu botirlar odati emas, qaroqchilarning ishi. Men botirlarning odatini saqlagan lashkarboshiman. Men ularning chegarasiga keldim. Eshtek qipchoq bilan qo'shilgan bo'lsa, birga chiqsin. Yo'q, biz boshqamiz, chetdamiz, desa, Sazan xonning lashkari o'zi urushga chiqsin, — deb elchidan ayttirdi.

Chegaraga hushyor kishilarni qo'yib, askarlar otlarni dam oldirib, tevarak-atrofdagi holatlar muntazam kuzatib borilmoqda. Bir qarashda tinchlik hukm surayotganday. Lekin bu hushyorlikni talab qiladigan tinchlik. "Ha" deganda, "Xo'p" deb o'n ikki ming askar tezlik bilan otlanadi. Hozir chegarada o'sha o'n ikki minga otliq askar borligi bilinmaydi. O'rmon orasi, adirdagi bulung-bur-

chaklar otga, odamlarga to'liq, lekin uzoqdan qaraganga bu tomonda birorta ham tirik jon borday ko'rinmaydi.

Bir necha kun eshtekdan javob bo'lmadi. Eshtekning obro'li kishilari davrasida Sazan xonni yomon ko'rgani yoki yoqlagani haqida birorta xabar yo'q. Eshtek, qipchoq birligini mustahkamlab, kuchli lashkar tuzayaptimikin yoki Sazan xonga qo'shilgan Yomg'irchini yoqtirmay, eshtek, qipchoqning boshqa xonlari, botirlari bu urushdan o'zlarini olib qochyaptimikin? Nima bo'lsa ham, chegarada joylashgan Qorachurga qarshi askar otlangani yo'q. Qorachur mingboshilarining sabri tugadi. To'lo's yurtining yigitlari bu urushga astoydil otlanishgan. Endi Qorachur botirning oldiga eng yosh botirlar kelishdi:

— Botir aka, kutamiz degandingiz, kutdik. Botirlik odatini bajardik.

— Ha, biz hujumni boshlaymiz.

— Ruxsat bering, sher aka.

Talablarini to'g'ri aytgan yosh botirlariga chin dildan rozi bo'lgan Qorachur, men anovi yovlashgan it xonlarning askarlari bilan urishishim kerak, oddiy odamlarda nima ayb, deb ikkilanib turganda qizi Sayqal ot yoliga bosh egib, qo'lini ko'ksiga qo'ydi:

— Yovni ayagan o'zi yarador bo'ladi, deb o'zingiz aytgansiz, ota. Biz kimni ayab o'tiribmiz?

— To'g'ri aytasan, bolam! — dedi Qorachur. — Urishmoqchi bo'lganimiz, biz o'ylagan qora yov bo'lganida ayab o'tirmas edik. Bu chegara bizga qardosh yurtning chegarasi. Sayqal qaddini tikladi-da, shartta dedi:

— Qardosh yurt bizni ayamadi-ku! Sher akaning jasadini yerga berayotganimizda bizga qayg'u ustiga qayg'u keltirgan bu yurt.

— Sayqal opa to'g'ri aytdi, sher aka. Biz bu yurtga qarshimiz, — dedi yosh botir. Qorachurning salmoqli va ishonchli ovozi boshqalarni ham o'ylantirib qo'ydi:

— Bizni qardosh yurt bosib olgani yo'q. Ko'nglini qora bosgan iflos xonlar bosdi. Ularga aldangan kishilar ergashdi.

— Ie, sher aka, ular ikki tuman askar bilan kelmaganmidi? Ikki tuman oz odam emasdir, axir...

— Ha, to‘g‘ri, ikki tuman ko‘p askar. Hovliqqan serka qoyadan sakrasa, ortidagi qo‘ylar toshga yanchiladi. Anovi xonlar o‘sha hovliqqan serka bo‘ldi, deb biz qo‘ylarni toshga yanchaylikmi? Yo‘q! Qarg‘a qarg‘aning ko‘zini cho‘qimaydi. Oddiy odamlarda hech qanday gunoh yo‘q. Men o‘sha ikki tuman askarni boshlab kelgan xonlar, beklar va botirlari bilan betlashaman.

— Yo, Tangrim, ular maydonga chiqmasa, qaytib ketamizmi?

— Kelishadi. Chegaraga urishaman, deb lashkar kelganda, urushga askar to‘plab, chiqadigan odat bor.

Sayqal jilmayib, erkalaganday otasidan yana o‘tindi:

— O‘sha askarlar bormikin? Bir bilib kelaylik, ruxsat bering, ota!

Qorachur, bilib kelishga yigitlar borsin, demoqchi bo‘ldi, biroq qizining gapini qaytarmadi. “Meni o‘g‘il boladan kam ko‘radi, otam”, deb Sayqalimning ko‘nglida gina qolmasin dedi-da, ahvolni bilib kelishga ruxsat berar ekan, ularni ogohlantirdi:

— Ovulni oralamanglar. Chetdan qaytinglar.

Ayg‘oqchilikka borishga yosh botirlar tunda otlanishdi. “To‘planib yurishma, ko‘zga tashlanmaslikka harakat qilinglar. Otlangan lashkar ko‘rinadimi? Lashkar jo‘natishga tayyorgarlik bormi? Yoki yurt urushni xohlamay, nima qilishni bilmay qolgan xonlar o‘zlarining iloji yo‘qmi? Hushyor yurib, diqqat bilan atrofni o‘rganib, ahvolni bilib kelgin, chirog‘im”, — degan Qorachur botir Sayqalga.

Sayqal o‘zining ming askaridan ikki yuzini ayg‘oqchilikka boshladi. Bu lashkarboshi qizning o‘zi topgan belgisi, foli. Qadimda Talmiz qiz ham ikki yuz qiz askarlarini boshlab, shohning qo‘lida tutqun bo‘lib qolgan mergan yigitlarni qutqarib kelmaganmidi? Nima, biz o‘sha tabarruk Talmiz opaning yo‘lidan bora olmaymizmi?

— Ey, Tangrim! Yo o‘lim, yo g‘alaba!

Sayqal o‘zining ikki yuz askari bilan ayg‘oqchilikka otlanganida yosh botir Senek ham ikki yuz askar oldi. Bular birga yurishmadi. Yuzta-yuztadan bo‘lib, yonma-yon xabarlashib turishga kelishib, tunda eshtek yeriga o‘tib ketishdi.

Xuddi shu vaqtda Odiltoy ajo Qorachurga ko'makka yuborgan bir tuman lashkarni boshlab, Cho'g'ultur chegaraga keldi. Olisdan katta lashkar ko'ringanda, Qorachur bu kelayotganlarning kim ekanligini bilolmay, do'l urdirdi. O'z askarlarini tartibga keltirib, otlansin, deb buyruq berdi. Biroq yovni kutgan tomondan emas, o'ng tomondan chiqqan lashkarning tizilish odati, yurish tartiblari, boshqacha ko'rindi. Nima bo'lsa ham, bir xabar olish kerak. Yov bo'lsa, bizga kelsin. Jang maydoni oraliqda turibdi. O'z bo'lsa, bizga qo'shilsin. Bobomning tabarruk ruhi qo'llasin, dilim oq, niyatlarim ham yaxshi. Borib bilib kelinglar, kim bular? — deb uch askarni choptirdi-da, Qorachur o'zi yuzga yaqin otliqlar bilan atrofdan yaqqol ko'rinib turgan tepalikka chiqib turishdi.

Yuborilgan uch askar kelganlarga qo'shilib ketdi. Qo'shin esa u yoq-bu yoqqa burilmasdan to'g'ri kelishdi. Yaqin kelganda ularning ko'k yalovi aniq ko'rindi.

Olovday saman ayg'irga mingan Qorachur botir ko'k yalovni taniganda quvonganidan yig'lab yubordi. Kecha shu yerdan ayg'oqchilikka ketgan qizi yodiga keldi. O'tganda bosqinga uchragan ovuli ko'z oldiga keldi. Hozir ko'k yalov ko'tarib, urushga kelayotgan lashkarning oldida Odiltoy ajoning ishonchli sarkardasi Cho'g'ultur, ajoning mard o'g'li Qulchur bor ekanligiga shubha qilmay, samanning taqimiga qamchi bosdi. Chavandozning oyog'i tanasiga tegar-tegmas oldinga sakraydigan saman bexosdan taqimga urilgan buldursunning zarbidan sakrab, oldiga qarab uchib ketdi. Qorachur bir arg'amchi uzunlikda oldinda, uning donishmand oqillari, botir sarkardalari tepalikdan to'kilganday tushib kelishardi. Narigi tomondan Oqbo'zni mingan yosh Qorachur, Qorato'riqni mingan Cho'g'ultur qatorlashib, oldida yo'rtib kelishardi. Do'l urilmadi. Surnay chalishdi. Bu urush belgisi emas, saltanatning shoni-shavkati. Lashkarga lashkarning bergan salomi, uchrashuvi. Surnayning ovozi ko'tarilgan sayin Qorachurning baquvvat tanasi jimirlaydi. U hayajonlanib yaqin kelganda, Cho'g'ultur undan oldinroq uchrashdi:

— Horma, sher! — O'ng qo'lini ko'ksiga qo'yib, bosh egdi. — To'lo's otaning shiorini birga chaqirgani qirg'iz otadan bir tuman askar oldingga keldi, botir.

Qorachur o‘ng qo‘lini ko‘ksiga qo‘ydi:

— Bor bo‘ling, sher! Ajoning oq niyatiga bobomning ruhi, o‘zimning dilim rozi.

Doim urushga minilgan, pishgan otlar pishqirib, bir joyda turolmasdi. Endi botirlar qilichni qinidan chiqarmay, botirlar odati bo‘yicha uchrasha boshlaganda Olovsaman qulog‘ini qaychilashtirib, tizginga bosh bermay, boshini silkib, oldiga intilib-intilib arang to‘xtadi. Oqsur bilan Qorato‘riq unchalik hovliqmay, jim turishdi. Otlar elikday kerilib, tik qaraydi. Odamlarning harakatini, kayfiyatini payqaydimi, har holda erkakning oti uning qanoti, degan gapning haqiqat ekanligini shu yerdagi holatdan bilsa ham bo‘ladi. Erkakning oti qushning qanoti, degan gapda haqiqat borday. Qushning qanoti uchishga belgi berganday askarning oti ham urushdan olgan ta’lim va tajribasidan pishib, nima qilish kerakligini oldindan bilishga o‘rganganday, kishilarning harakatidan, yuzidagi o‘zgarishlardan bilib oladi. Ko‘zlarinnng oqi aylanib, tepinmoqchimi, qilichini sug‘urmoqchimi, deb egasining harakatini tuyib turadi.

Jonivor askar otlarining gapiradigan tili bo‘lganida, ehtimol gapirib ham yuborardi. “Bu nima harakatsiz turish, qilichingni ko‘tar, ketdik”, deb aytadiganday. Sarkardalar uchrashgandan so‘ng Qorachur urishadigan yovdan javob kutib o‘tirganini, bexosdan hujum qilmay harbiy odat bilan lashkarga yuzlasharini bildirdi. Yov tomondagi ahvolni bilish uchun yuborilgan ayg‘oqchilardan ham, mana, uch kun bo‘ldi xabar yo‘qligini aytdi.

Qorachur botirning gapini Cho‘g‘ultur oddiy so‘z qatori chidam bilan eshitdi. Biroq ayg‘oqchilikka Sayqal qiz ketganini eshitganda Qulchur chidamadi:

— Qorachur aka, qiz askarni ayg‘oqchilikka yuborish noto‘g‘ri bo‘lmadimi?

— Ie, qanday noto‘g‘ri ish?

— Qo‘lga tushsa, xor bo‘ladi-ku!

— Yo‘q, Qulchur, — dedi Cho‘g‘ultur. — Qiz askarni qo‘lga tushirgan botir o‘z holini o‘ylanadi. O‘zining ahvolini o‘ylamasa, obro‘si tepalandi bo‘ladi.

— Yo, Tangrim! — dedi Kulchur achchiqlanib. — Men bunday holatda tek turolmayman. Aqlli qizni bir ahmoq xor qilsa... tabarruk Umay onaning arvohi bo'zlaydi. Sazan bilan Yomg'irchini matab, keyin tizgin yig'armiz.

— Anovi buzuqi itlar javob bermasa, bu yaxshilikning belgisi, — dedi Cho'g'ultur. — Mening eshitishimga qaraganda, boshqa xonlar anovi ikkovini ham yomon ko'rishyapti. Ularning qilgan ishi ko'pchilikka yoqmadi. Ular hozir o'zlarining g'amini yeb yotishibdi.

— Ie, botirlar — dedi tumanboshi. —Unda biz chegaraga nega keldik? Joyimizga qaytaylik.

— Bu chegaraga qon to'kkani, ovulni bosib olgani kelganimiz yo'q, — dedi Kulchur. — Qon to'kib, ovullarni talaganlarni bo'ysundirgani keldik. Ayg'oqchilarning ma'lumotlarini kutaylik.

— Ha, — dedi Qorachur. —Javob kechiksa, askarlar hujum qilishadi.

— Yana bir gap, hujum qilinganda, ovul talanmasin, mol o'ljaga olinmasin. Buzuqi xonlarning yulduzi o'chsin.

Maslahat shu bilan to'xtadi.

Yo'l bosib kelgan askarlar otdan tushib, otlarini o'tga qo'ydi, o'zlari ovqatlanishdi.

Bugun ayg'oqchilardan xabar bo'lmasa, erta tongdan ikki tuman askar chegarani buzadi. Qo'shindagi askarlar sahar turadi, shuning uchun erta uxlashsin, degan buyruq berildi.

Qorong'i tushishi bilan kiyimi bilan yotgan askarlar to'qilgan otlarining chilvirini bosib yotishdi. Do'l tars etishi bilan darrov otlanish kerak.

Oy tevarak-atrofni nursiz yoritadi. Osmonni ola bulut qoplagan. Olisdagi cho'qqilar elas-elas ko'rinadi. Tungi ko'rinishda odatdagiday mavhumlik bor, jimjit. Titilgan qo'ng'ir bulutlarning yirtiq-teshigidan yulduzlar miltiraydi. Yulduz atayin berkinib, teshikdan mo'ralaganday tuyiladi.

Hali uylanmagan yosh Kulchurning maqsadi — botirlik ko'rsatish. O'tgan kuzda uydagilar, o'g'il kelinchak olsin, yoshi ham yetib qoldi, deganda men qush yostiqni boshimga qo'yib oq o'rgo'da uxlagim kelmaydi. Men toshni boshimga qo'yib che-

garada bo‘laman. Toshni boshiga qo‘ygan qiz menga kelinchak bo‘ladi. Yurtda o‘q otgan mergan qiz, so‘zni o‘ynatgan chechan qiz, botirga qarshi pichoq sug‘urgan botir qiz oz emas. Mening yulduzim o‘shanday botir qizning yulduzini topadi, deb ajo otaning tilagini Kulchur qabul qilmagan.

Edil ajoga berilgan katta oshda Sayqal qizning kamondan o‘q uzganini ko‘rganda Odiltoy ajo qizni o‘ziga mo‘ljallamay, shu botir bo‘lib kelayotgan Kulchur o‘g‘lini eslaganda, balki o‘sha vaqtda mergan qizning yulduzini o‘g‘lining yulduziga to‘g‘ri keltirarmidi? Odiltoy ajo o‘sha kunlari bandada bo‘ladigan nafsga berilgan. Keyin o‘g‘lidan yuqoridagi javobni olganda:

— Uhh, eslik boshim, o‘shanda adashgan ekanman. Bu yoqda yetilgan o‘g‘lim Kulchur turganda... — E, nafsimga o‘t tushsin, meni kechir, Tangri, — degan.

O‘shani eslagan Odiltoy soqolini silab, o‘tirib qolgan. Endi Qorachur botirga tayanch bo‘lib, bir tuman lashkar jo‘natganining sababi ham shu.

“Sayqal yo‘lbars askar kiyimini kiyibdi, deydi. Aqli, uddaburonligi bo‘lsa, Kulchur Sayqal yo‘lbarsga yoqadi, uning erkiga ega bo‘ladi. Bo‘lmasa-chi? O‘g‘il ko‘kragiga urib maqtanib yurgan xomsemiz bo‘lsa, Sayqalday qizning yoniga ham borolmaydi. O‘g‘ildan qiz sergak bo‘ladi. U erta ko‘z ochadi. O‘q otib, qilich ko‘targan botir qizga sovchi yuborib, qalin pulini aytish — bu zo‘rlik. Botirga uyat. Sayqal erkini bermaydi. Uddaburonligi, aqli bo‘lsa, Kulchur o‘zi ko‘rishsin. Botir qiz bilan o‘zi topishsin. Qo‘shadigan bo‘lsa, yulduzini o‘zi qo‘shsin...”

Lashkar yo‘lga chiqishdan oldin Odiltoy Cho‘g‘ulturga o‘z fikrining bir chetini aytgan:

— Yo‘li ochiq botir, men seni tumanboshi qilib yuborayotganimning sababini bilgin. Anovi lochinni qo‘lingga qo‘ndirdim.

— Tushundim, ajom, — deb Cho‘g‘ultur boshini egdi.

— Lochinning odati, jim boshini egib turish, — deb Odiltoy ovozini pasaytirdi. Yomon itolguni o‘rdak suvga olib kiradi, qirg‘ovul aldab ketadi. Lochining adashmas bo‘lsin.

Cho‘g‘ultur qo‘lini ko‘ksiga qo‘yib, ishonch bilan dedi:

— Buni ham tushundim, ajom.

— Qon to‘kilmay qora orqaga surilsin. Urush bo‘lmay, yo‘-linglar ochiq bo‘lsin.

Cho‘g‘ultur botir tizzalab turib, qilich tig‘ini o‘pdi:

— Birlik bo‘ladi, ajom.

— Ifloslar esiga kelsin.

— Oldingizga olib kelamiz, ajom.

Ajoga ana shunday botirlik va’dasini berib, lashkarni boshlab kelgan Cho‘g‘ultur yo‘l bo‘yi Kulchurni kuzatib keldi. Yosh askarning otda o‘tirishi, kelbati, askarlik odatlarini bajarishi, suri hammasi bir-biriga mutanosib kelgan. Ko‘p urushga qatnashib, pishgan botirday. Bu vaqtda Cho‘g‘ultur o‘zi ham yosh, o‘zi ham juda ko‘pni hali ko‘rmagan. Bundan ilgari bir necha urushda o‘zi alohida qahramonlik ko‘rsatdi. Uning alp kuchi hali me’yoriga yetmagan. O‘zi ham mardligi, donishmandligi bilan ko‘pchilik-ka tanilmagan. Shunday bo‘lsa ham, hozir tumanni boshqarib, qo‘shindagilarning orasida qadrga ega. Cho‘g‘ultur Kulchurni sinashni davom ettiradi. Kulchur Cho‘g‘ulturdan roppa-rosa to‘qqiz yosh kichik. Alohida lashkar boshlab, mardlik ko‘rsatadi-gan payti ham bo‘lay deb qoldi. Lekin bu davrning talabi bo‘yi-cha hali u temir qanot, to‘liq yetilgani yo‘q. U bu davrda o‘ziga dog‘ tushirmay yetilishi kerak. Botirning yulduzi yosh paytida o‘chmasin. Yosh tol egiluvchan bo‘ladi. Ustozi yaxshi bo‘lmasa, yosh yigitning yuragi urushda o‘lib qoladi. Xom teri rosa iylani-shi, lekin yirtilmasligi kerak. Yosh tol egilsin, lekin sinmaydigan bo‘lib qotsin.

Otning egasi yilqichi bo‘ladi. Yilqichi aldamchi, mutaxassis bo‘lmasa, askar minadigan ot yo‘q deyavering. Elning egasi — botir. Botirni lashkar boshlagan, hamma narsani bilgan va kuchli botir tarbiyalaydi. Unday botiri yo‘q el — kuchsiz. Ko‘ringan yovning talonida qoladi.

— Ha, yaxshi bo‘ldi, Odiltoy o‘g‘il ko‘rdi. El-yurtning tilagini Tangri o‘zi berdi.

Odiltoy ajo o‘g‘lim oddiy odamlardan bo‘lib qolmasin, deb o‘g‘liga Kulchur, deb ism qo‘ydi. Kul — g‘am-tashvishsiz, chur — botirlikning xufiya nomi. O‘g‘liga bergan ismida, o‘g‘il el-yurtni tashvishga solmaydigan sher bo‘lsin, degan ajoning

tilagi aks etgan. Ajo tilagining barcha mazmunini o'g'lining ismiga yashirgan. O'sha oq tilak Kulchurga oq yo'l ochish uchun, uni qancha-qancha sinovdan o'tkazib, yaxshi yo'lga boshlash va davrining eng yaxshi bilimlarini hamda hunarlarini egallash uchun yo'lchi yulduz bo'ldi. Hozir Kulchurni sinovdan o'tkazib, ko'ngli to'lib, Kulchurni yurtni qo'riqlay oladigan sher bo'lib yetilishiga ko'zi yetib, ichidan quvonib kelayotgan Cho'g'ultur kechqurun atayin toshning ustiga yonboshladi:

— Urushga borganda askarning eng asosiy dushmani — bu uyqu. Toshga yonboshlab, biroz mizg'ib ol. Tosh tekis bo'lmasin. Budur[1] toshni topib yotgin.

Cho'g'ulturning ana shu ko'rsatmasidan keyin Kulchur beti umalanib ketgan budur toshning ustiga yonboshlab yotgan. Toshning buduri Kulchurning yonboshiga bota boshladi, Kulchur e'tibor bermadi. "Chida, it, chida, ayiq", dedi u o'ziga o'zi. Biroz o'tgandan keyin tosh botgan yonboshi achishib, og'riy boshladi. "Chida, it, chida, to'ng'iz", dedi Kulchur yana o'ziga o'zi. Yonboshi zirqiray boshladi. Og'riqdan ko'zlarini yumdi. Qandaydir bir jonga orom beradigan sezim paydo bo'ldi. Yodiga Sayqal tushdi. Sayqalning egarda o'tirishi, ot sag'risiga chalqancha yotib, yo'rg'ani yo'rttirib borayotib, yoyni tortishi ko'z oldidan qatorlashib o'tdi. Qorong'ida ko'ringan yorug'day, uchgan yulduzday bo'lib Sayqalning tasviri ko'z oldida aniq tortildi. Kulchurning yuragi to'lqinladi. Jilmaydi: "Sayqal hozir qayerdaykin? Yov qo'liga tushib qolmadimikin? Yo kuzatuvda yuribdimi? Shu qiz bilan bir sinashaman." Tuyg'ulari tarqab ketganday bo'ldi. Kulchur qush uyquga cho'mdi. Uyqu bosib kelayotganda o'yladi: "Bir tush ko'rsam edi... Sayqal qayerda ekanligi ko'rinsaydi...", deb o'zicha iltijo qildi. Biroq charchagan ekan, tush ko'rmadi. Yonboshiga botgan toshni ham sezmay, qattiq uxladi. Kulchur salqin shabada yuziga tekkanda uyg'onib ketdi. Uxlashga yotganda bulutning yirtig'idan miltillab qarab turgan qo'sh yulduz yonboshga o'tib qolibdi. Hozir bu ikki yulduz ko'kning jiyagiga yumalanib ketadiganday sezildi. Kulchur tunda shu ikki yulduzning birini o'ziniki, ikkinchisini Sayqalniki, deb qo'ygan. Uyqudan ko'zi ochilganda

[1] **Budur** — o'ydim-chuqur, tekis emas.

qo‘sh yulduz bir-biriga yana ham yaqinlashib qolganday tuyildi. Kulchur ashulasini aytdi:

— Yulduzim...

Toshni ham yoradigan xurrak otib uxlayotgan Cho‘g‘ulturning xurragi shart bosildi-da, sekin dedi:

— Dam ol! Yulduzinglar birga bo‘ladi!

Cho‘g‘ulturning uxlayotib, ahvolni sezganiga Kulchur tang qoldi. U “Yulduzim, deb kimni aytayotganimni ham bilib oldi, Cho‘g‘ultur”, — deb uyalib ketdi.

Birozdan keyin Cho‘g‘ultur yana sekin dedi:

— Uyalma, odam yulduzi uchun urushga boradi. Dam ol.

O‘shandan keyin Kulchur uxlay olmadi. Dam ham ololmay qoldi. Uning fikrini bo‘lgan oldingi sezim emas, balki Cho‘g‘ulturning hushyorligi, ajoyib seza bilishligi, fahmining o‘tkirligi edi. “Qoyil, — dedi u ichida. Tangri bu kishini boshqacha yaratganmikin? Bu sherning o‘zi. Sher bo‘lganda ham o‘q teshmas, o‘t kuydirmas, suv oqizmas sher.” Ilgarigi mard bobo haqida aytilgan rivoyat ertak emas, haqiqat ekan. Inson farzandining shunday xosiyatlilari bo‘lar ekan-da. Cho‘g‘ultur bo‘lsa, biz yovga yengilmaymiz. Hech kimga, hech qachon. Men erkishi bo‘laman, yo bo‘lolmasmikinman... Uyquchiman. Odamning ichki fikrlarini oldindan seza olmayman. Bu yog‘ini aytma, gohida qo‘rqoqlik ham qilaman. O‘zim erkishi bo‘lolmasam ham, o‘g‘lim erkishi bo‘lsaydi. Voy, ahmoq-yey, hali men o‘g‘il ko‘ramanmi, yo‘qmi.... to‘g‘ri-da. Sayqal qiz meni xohlamasa, zo‘rlab olamanmi? Unda bizning qilayotgan ishlarimiz to‘g‘ri bo‘lmay qoladi. Xosiyatsiz ish bo‘ladi. Kishi bo‘lg‘usi jufti haloliga zo‘rlik qilishi bu katta jinoyat hisoblanadi. Zo‘rlik bo‘lsa, u qiz bola zo‘rlikka chidamaydi, o‘ladi. Tabarruk, botir Sayqal qiz o‘lmasin. O‘z erkicha, xohlaganiday o‘ynab, kulsin. Tulpor minib, shamol bilan chopishsin. “Eh... Sayqal tuqqan o‘g‘il bola erkishi bo‘lardi-da.”

Do‘lning qattiq ovozi Kulchurning fikrini bo‘ldi. Kulchur irg‘ib turdi-da, sakrab otiga mindi. “Ey, Er aka, otlaning”, deb aytishga burilib qarab, Cho‘g‘ulturni o‘zidan oldin egarda o‘tirganini ko‘rib, uning hushyorligiga, tezligiga, chaqqonligiga og‘zi ochilib qoldi.

— Ie, Er aka, otga qachon mindingiz?

— Xavf bor paytida harakatsiz turish bu o'zini o'zi boshqara olmaslik hisoblanadi. Otni yurgiz, Kulchur, — dedi Cho'g'ultur. — Urushdan oldingi so'z hujumning kuchini qaytaradi.

Cho'g'ultur otni oldiga yurgizdi.

Kulchur dakki yeganligiga uyaldimi, otiga qamchi bosdi. Cho'g'ultur unga shartta qaradi:

— Otda nima ayb? Hozir otga qamchi uradigan payt emas. Askar qanotli do'stining tanasini og'ritmaydi. Ot jonivor askarning fikrini uning tizgin ushlashidan biladi. Tizginni qattiq ushla. Sening oting juda yaxshi ot. Egarda mahkam o'tir. Oting chiniqqan. Qamchi otning ko'nglini qoldiradi. Yilqi bolasi sezgir bo'ladi. Sen unga o'zing nima xohlashingni sezdir.

Cho'g'ulturning so'zi Kulchurga shogirdga aytilgan dakkiday bo'lib eshitildi. U otasidan dakki eshitgan boladay bo'ynini qisdi. Izza bo'ldi, ori keldi, biroq indamasdan otini yurgizib ketaverdi.

"Ha, erkakning oti — uning qanoti. Qolaversa miqti yigitlar qanotini har doim tarab, asraydi".

Bu vaqtda yayov yurgan bitta ham askar yo'q edi. Tumanning hamma askarlari tizginni bir kishiday kun botish tomonga burib, shitob bilan jo'nadi. Kelayotgan otliqlarning yurishi shamol uvillaganday ovoz berardi.

Hali kuzatuvda turgan soqchi olisda bir narsalar qimirlaganini ko'rganday bo'lib, bu nima, kiyiklarmi, yo bostirib kelayotgan lashkarmi bilolmay biroz turdi. Astoydil tikilib qaragan soqchi kelayotganlar askarlar ekanini bildi. Biroq lashkar bo'lsa ham, tartibli lashkarga o'xshamadi. Bunday vaqtda, albatta, do'l qoqiladi. Do'l qoqilishi bilan askar otning ustida tayyor turadi. Lashkar to'liq otlanganda uzoqdan ko'ringan sharpalar yerga kirganday ko'rinmay qoldi. Biroz vaqt o'tgandan keyingina oldi tomondagi g'ovdan otliq, yayov odamlarning bo'yi ko'rindi.

* * *

Ayg'oqchilikka ketishgan Sayqal bilan Senek ancha yurgandan keyin maslahat qilishdi:

— Nima, deb qaytamiz? — dedi Senek.

— Qaytamiz, deganing nimasi? — dedi Sayqal.

Senek qamchini yoniga tashlab, piqillab kuldi:

— Ayg'oqchilikni qanday bajaramiz, deganim-da.

— E-ha, sen bunday gapingni aniq qilib aytgin. Yovning lashkari yo'lda yo'liqadi. Sazan bilan Yomg'irchi xon ekanligi chin bo'lsa, lashkar tuzsa kerak.

— Yov lashkari ko'rinsa, qaytvoramizmi?

— Yo'q, urishamiz.

— Biz ozmiz. Qirilib ketmaymizmi?

— Erkak bo'la turib, qirg'indan qo'rqsang, shu yerdan qayt. Men yolg'iz boraman.

— Ie, meni qo'rqoq dema.

— Rost, ozmiz, — dedi Sayqal qiz. Lekin biz jabr ko'rganmiz. Shuni esla. Bizni bu yerga or-nomus olib keldi. Kecha Er akaning jasadini yerga berib, yurt qayg'uga botib turganda... o'lganning ustiga ko'mgan bo'ldik. U iflos, qaroqchi xonga ochiq boramiz.

Senek o'zichasiga Sayqalni hushyorlikka chaqirmoqchi bo'ldi:

— Unday qilsak, Qorachur aka bizni jazolaydi.

— Yovga borish bu mardlik. Mardlikni hech kim jazolamaydi.

Senek indamadi. "Ayg'oqchi hamma yo'llarni bilib qaytishi yaxshi. O'zi sir oldirib qo'yishi qanday bo'larkin?" — deb Senek fikrini aytganda, Sayqal otini taqimiga niqtadi-da, zuvillab jo'nadi. U tinchlik paytlarda ot chopishgan, qush uchirgan yosh beklarday bemalol va erkin ketardi.

Mingani ko'mirday qora otning qo'sh qulog'i old tomonga shamday bo'lib dikkaygan, yo'rtishi bilan sakrab qadam tashlashi birdayligi odamni hayratga soladi. Ustida odam yo'qday yengil harakat qiladi. Junlari quruq, sag'risi yaltiraydi. Qadami tez.

Senek yonidagi yosh askarlarga qaradi. Ular Senekka qarashdi. Hech kim indamadi. Bular ham otga qamchi bosib, Sayqalning yo'lidan jo'nashdi. Ayg'oqchilikka chiqqan to'rt yuz askar hammasi qanot yozib, shuvillab kelishardi. To'rt yuz otliq unchalik kichik ham, katta ham guruh emas. Qurolli kishilarning yer kezib, yo'llarni ko'rib, yoki el oralab yurishi odatdagiday ko'rinish. Shunday bo'lsa ham, boshqa yurtning yerida boshqa bir lashkar-

ning askarlari bunday qilib ot chopib yurishi bekor emas. Shubhali. Biroq shubhali, deb Sayqal qiz tortinmadi. Uning otasidan ruxsat olib ayg'oqchilikka chiqishidan maqsadi yov bilan urishish, ajali yetsa, jon berish, azob bo'lsa, ko'rish.. yo'l ochilsa, eshtekning xoni Yomg'irchining to's-to'polonini chiqarib qaytishni o'ylagan. Hozir otining tizginini tortmay tez ketishining sababi ham o'sha tilagini amalga oshirish edi. "Kelganini ko'rdim. Yomg'irchi ajdar emas. U to'rt yuz askarni xo'p etib, damiga tortib ketmasa kerak. Bo'lgani urug'ning xoni. Tomirida odam qoni, yuragida bobolar oriyati bo'lsa, ovuliga kelgan qizni matab ko'rsin? Chidarmikin? Chidamasa kerak?"

Shunday degan Sayqal otini tezlatdi. Senek uni to'xtataman, deb otini chopgan bilan yetolmadi. Ungacha... Tangri o'zing saqla... oldinda ko'p odam ko'rina qolib, qayta yer yutib ketganday ko'rinmay qoldi.

"Mayli, bizni to'sgan yovning lashkari bo'lsa, yaxshi..." Sayqal qiz shunday fikrga keldi-da, o'zini sal chetga olib, odamlar ko'rinmay qolgan yashirin joyni ko'zlab kelayotgandi, yerdan unib chiqqanday oldidan odamlar tura qolishdi. Ularning orasida qarilari ham bor. Askarlar ozroq, ko'pi oddiy fuqarolar. Oldidagi guruh 15–20 qadam yugurib keldi-da, yerni quchoqlab yotib qoldi. Bu "Biz yov emasmiz. Biz aybsiz oddiy odamlarmiz. Biz sizlarga bosh egib, oldinglardan chiqdik", deganni bildiradi.

Qadimiy odat bo'yicha bosh egib, oldidan xaloyiq chiqqanda Sayqaldagi o'ch olish niyati biroz tarqadi. Qora otini tortib to'xtatdi-da, shartta so'radi:

— Kimsizlar?

Yerni o'pgancha turgan odamlar orasidan soqoliga oq oralagan, gavdali qariya yerdan bosh ko'tardi:

— Yomg'irchi xonning yurtimiz. Sen o'zing kimsan, yosh botir?

— Biz Qorachur botirning askarlarimiz. O'tganda bizning el talon-taroj qilingan. Bugun sizlarning chegarangizga bizning lashkarimiz keldi.

Qariya ikki qo'lini ko'ksiga qo'yib, tura qoldi:

— Qorachur botirga qulluq! Biz o'zimizga o'zimiz yomonlik tiladik. Chegaramizga lashkar kelganini eshitdik. Yo'lini to'sib chiqdik.

— Maqsadinglar urushmi? Yoki boshqami, nima?

— Elchilik, yosh botir.

— Elchilik? Sizlar elimizni bosib olib, o'g'il-qizlarimizni matab ketsanglar, biz elchilikka kelarmidik?

— Achchiq — shayton, aql — do'st, yosh botir. Aytganing rost. U ayb bizda. O'sha kuni bizning dilimiz qora edi. Aqlimiz kirdi. Xonimiz qora niyat ekan. Uni o'zining lashkari jazoladi.

Sayqalning qoshlari chimirildi.

— Xonni qanday jazoladinglar?

— Boshi kesildi. Qorachur botirga tortig'imiz shu.

Sayqal nima deyishini bilmay, o'ylanib qoldi. Haligi gavdali kishi aytganlarini tushuntirdi:

— Men O'roq botirman. Aqlim endi kirdi. Dilim tozalandi. O'limdan qochmayman. Bo'lib o'tgan ishda bu yurt aybdor emas.

O'roq yerni o'pib turgan xaloyiqni ko'rsatdi. Odamlar yerdan boshini ko'tarishmay jim turishardi.

— Hammangiz boshingizni ko'taring, — dedi Sayqal.

Odamlar boshlarini ko'tarishdi.

— Hammangiz turing.

Turishdi. O'z xonlari Yomg'irchining boshini olib, Qorachurning yo'lini to'sib kelayotgan odamlar unchalik oz emas, bir kichikroq qo'shinday bor edi. Endi ularni boshlab ayg'oqchilikdan qaytgan Sayqal tong otar-otmas tumanga yaqinlashgan edi. Soqchiga uzoqdan ko'ringanlar shular edi.

Ikki guruhdan bo'linib chiqqan Sayqal qora otini choptirib kelib, otasi bilan uchrashgandan keyin topishmoq aytdi:

— Dovon baland, el qayg'uli. Teshikdan chiqqan ajdar bor ekan. Uni nima qilamiz, ota?

Qorachurning atrofidagi odamlar "Bu qanday xabar bo'ldi?"-deb ag'rayib qolishdi.

Qorachur shartta javob berdi:

— Baland dovondan otni oshir, bolam, — dedi. — Botir er ajdar boshini kesar. Yurt qayg'usiz bo'lar.

— Ha, ota. Ajdar boshi kesilibdi. Unda yurt qayg‘uda xalos bo‘lsin.

Hozirgina yetib kelgan O‘roq ot ustidan qulaganday bo‘lib tushdi-da, yugurib kelib Qorachur botirning uzangisini o‘pdi:

— Yo‘lingga boshim qurbon, sher! Aybimni kechgin, deb yig‘lab kelmadim. Jazoimni olayin, deb o‘zim keldim. Jo‘n kelganim yo‘q: sening yurtingni bosgan o‘z xonimizning boshini kesa keldim. Shu bilan jazoimni kecharmikin, demadim. O‘z jazoimni bo‘ynimga ilib keldim. Botirlik odatini buzib, qaroqchi bo‘lganimni keyin bildim. Bosqindan kelayotib, ot o‘t yeguncha toshda yotib, biroz uxlagandim. Tushimga bobom kirdi. “Yog‘och sovut kiygan katta kishi meni mushukning bolasiday bo‘ynimdan ushlab, dast ko‘tardi. Yuzi qizg‘ish, malla soqoli ko‘kragiga tushgan bu odam o‘tli ko‘zi meni teshib yuborguday qarab: — Seni botir bo‘lib tug‘ilgan bo‘lsang, yovga qarshi kurashmay, o‘zni bosganingni qanday tushunsa bo‘ladi? Aqlingni yig‘, to‘g‘ri yo‘lga tush. Agar qonxo‘r xonning yuvindisini yalasang, qarg‘ab yuboraman. Nasling qirilib ketadi”, dedi. Cho‘chib uyg‘onib, irg‘ib turdim. Otim o‘tlamay turgan ekan. O‘zidan o‘zi terlab, bug‘i chiqib yotibdi. O‘zimning ikki qo‘lim ko‘tarilmay qoldi. O‘zimni bosolmay baqirib yig‘lab, bobom ruhiga sig‘indim. Yurtga qaytgandan keyin oqin suvining bo‘yida oqbo‘z biya so‘yib, arvohga sig‘indim. Urug‘imizning hammasi xonga qarshi chiqdik. Men u bilan urishib, so‘ydim.

O‘roq gap aytolmay qaltirab ketdi. Tutqalog‘i bor kishiday ovozi bo‘g‘ilib, zo‘rg‘a gapirdi:

— Men elni qo‘riqlaydigan botir edim. Boylik istab, xon ozg‘irgan erkak it bo‘ldim. Menga qanday jazo buyursang, u sening erking, sher. Urug‘imda ayb yo‘q. Naslimizda ham ayb yo‘q.

— Sen botirsan, O‘roq, — dedi Qorachur keskin. — Botir botirga yalinmaydi. Uzangini o‘pma. O‘rningdan tur.

O‘roq boshdagiday dadil emas, suvdan chiqqan mushukday shalviraydi.

Ergashib kelgan oddiy odamlar yer o‘pib, boshini ko‘tarmay turishibdi.

— Qul emassizlar! Hammang boshingni ko‘tar, — dedi Qorachur ularga.

Odamlar turishdi. Biroq tik qarasha olmay, hammasi yer qarab turishdi.

— Men yurtning oddiy odamlarini yov hisoblamayman. Qon yutar xonni, xonni qo‘llagan askarni jazolayman.

Oddiy odamlarning orasidan ovozlar chiqdi:

— To‘lo‘s yurtini bosganda men ham borganman, jazoingni olaman.

— Meni ham jazolang.

— Meni ham jazolang.

— Ona-bola omon qolsin. Urug‘imizdan nasl qolsin.

— Uni xolis yurtning donishmandiga qo‘ydim. Sizlar jazo oladigan, biz jazo beradiganmiz. — Qorachur qamchisini buklab, narigi tomonda turgan katta qo‘shin tomonni ko‘rsatdi: — Anovi qirg‘iz otaning lashkari. Elga el tayanch, tirgak. Tumanboshi Cho‘g‘ultur boshida. Aqlli donishmandi yonida. Men o‘sha saxovatli sherni xolislikka qo‘yaman. Ko‘nmasang, O‘roq, sen o‘z xolisingni ayt. Sizlarni oqlasa ham, jazolasa ham shu xolis bilsin.

Cho‘g‘ultur ismini eshitganda, O‘roq bir seskanganday bo‘ldi:

— Yaxshi! Yomonning qo‘lidan totli taom yegandan ko‘ra yaxshining tayog‘ini yegin, degan gap bor. Qorachur botir, qirg‘iz otaning Cho‘g‘ulturi bizga ham xolis.

Orqadagi oddiy odamlar ham chuvillashdi:

— Cho‘g‘ultur bizga ham xolis.

— Bizga ham xolis.

— Xolis kishi o‘l desa, o‘lamiz, tiril desa, tirilamiz.

* * *

Ha, chevarlar, — dedi chevar opa. — Er akanglar qardosh elni qirg‘in qilishmadi. Bu safar to‘lo‘s yurtini bosqin qilgan O‘roq botir ham, boshqalari ham jazolanmadi. Qul va cho‘rilikka olib ketilgan o‘g‘il-qizlar o‘z yurtiga qaytishdi. Shundan keyin O‘roq botirning yulduzi porladi. Boshqa yurt Er akaning xolisligini, Qorachur alpning saxovatini maqtashdi.

O‘shandan beri qirq yil asl toshday yorug‘ berib, ipak ipga tizilib o‘tib ketdi. Qardosh yurtlar bir qo‘l, bir bosh bo‘ldilar. Ular uzoqdan kelgan yovga birga qarshi bo‘ldilar. Yengilmadi, yengib yurdi bizning yurt...

O‘tgan qishda o‘zdan chiqqan Kergen elini sotdi. Elteres bizni bosib oldi. Yurt tinch emas. Botirlar o‘ch olishni xohlaydi. Biz mana bunday qilib ko‘zimizning nurini to‘kib, askar kiyimini tikib o‘tiribmiz.

— Ha-ya, chevar opa, siz Oyim ona haqida aytmoqchi edingiz, — dedi chevarlardan biri.

— Ha, aytmoqchi, men u haqda aytmabman. O‘shanda bizning Kul aka haligi mergan qizga astoydil xaridor bo‘ldi. O‘ziga juft istamay yurgan Kul aka o‘shanda hozirgi Oyim onamizga ko‘ngli tushdi. O‘o‘, bu o‘zicha bir “Ulug‘ so‘z”. Qiz vaqtida botir odati bilan o‘sgan Oyim onamiz o‘ziga qalin to‘latib, qiz marosimi bilan uzatilishini xohlamadi. Yigit o‘zini arslonman, desa, men o‘zimni yo‘lbarsman, deyman. Menga uylanadigan yigit kurashga chiqsin. Kurashda yengsa, men uning ayoliman, yengilsa, oldimda uning bo‘yni qisiq.

Qizning g‘ayratini sinab ko‘rgan Er aka kurashda qiz botir oldirmasligini sezdi. Obbo, kurashda qiz bola yengsa, yigitga uyatku. “Qiz bolaga yengilgan bechoradan o‘limtik poylagan qarg‘a yaxshi” degan gapni yot emas, qarindoshlar ham aytadi. Kul akaga ana shunday so‘z bo‘lishini xohlamagan Er aka bu ishni kurashsiz bitiraylik, degan ekan. O‘yinga qiziq askarlar ularni sal hovliqtirib qo‘yishganmi, yo o‘zlarida boshqa bir o‘y bormi, har holda biri:

— Kurashga chaqiraman, — debdi. Biri:

— Bo‘ldi, chiqaman, — debdi.

Ikkovi qilich tig‘ini o‘pishib, ont ichib qo‘yishibdi. Endi ontni buzgan tomon yutqazgan hisoblanadi. Kattalarga bildirmay, o‘zlariga yaqin yosh askarlardan hakam qo‘yishib, askar qiz bilan askar yigit musobaqaga chiqadi. Musobaqaning birinchi sharti — kamondan o‘q uzish, ikkinchisi — notiqlik, uchinchisi — ag‘darish.

Ikkovi kamondan o‘q uzishda bir xil natijaga erishdi. So‘zni bir-biridan kam aytishmadi. Bobolar odati, mardlik omonati, botirlik xislati, katta-kichik o‘rtasidagi izzat-hurmat, namuna bo‘lish,

qo‘shiq saboqlarini aytishuvida goh Sayqal qiz, goh Kulchur o‘zlarini ko‘rsatishdi. Ikki musobaqada ikkovi bir xil natijaga erishishdi. Musobaqaning uchinchisi — bu ag‘darish. Bunda ham ayash yo‘q. Oxirigacha borish. Sayqalning sirini bilmagan askar yigitlar “Endi bu musobaqada Kulchur yengadi”, — deyishdi. Sayqalning hunaridan xabardor qizlar “Yigit, mahkam bo‘ling, yana toshni quchoqlab qolmang!” — deyishdi.

Hazil-mazax so‘zlar ko‘payib, askarlar o‘zlarini bosolmay, hovliqib turishdi. Qora otni o‘ynatib, birinchi Sayqal chiqdi. Undan biroz keyin Kulchur chiqdi. Uning mingani sag‘risi yumaloqdan kelgan oqbo‘z. Ikkovi bir-biriga kulib qarashdi. Oddiygina uchrashganday bo‘lib, bir-biriga qo‘l berishdi. Ikkovi otlariga qamchi bosib, etlarini qizitib olishdi. Biri bu chetga, ikkinchisi u chetga chiqib, keyin yaqin kelishib tortishishdi. Tangri, o‘zing saqla. Ikkovi tortisholmay, umidi puchga chiqqanday, otlarini ikki tomonga chopib kelib, yana olishishdi. Otlar bir yerda aylanib qoldi. Egarda o‘tirishi, bo‘ynini tik tutib, qo‘lini cho‘zishi, ushlashi va silkishiga qarab, Sayqalni qiz bola, deb aytish qiyin. Uning ustiga u Kulchurdan sal chaqqonroq, epchilroq bo‘lib ko‘rinadi.

Qizlar bilan yigitlar ham ikki taraf. Qizlar Sayqalning, yigitlar Kulchurning tarafini olishmoqda:

— Egar qoshga bos, Sayqal!

— O‘zingga tort, Kulchur!

— Qizni qo‘ldan chiqarma!

— Ha-a, qizdan polvon chiqqanda, yigit iniga kirib ketadi. Sudra bolani!

— Nima deyapsan, yigit polvonni qiz ololmaydi. Qizni tushir egardan!

Askarlarning to‘lqini qamishzorning shovullashiga o‘xshab ovoz beradi. Polvonlar olisholmay anchagacha tortishishdi. Shu vaqt orqa tomondan hayqirgan bir yo‘g‘on un keldi. Bu yonida botirlari va Qorachur bilan kelayotgan Cho‘g‘ulturning ovozi edi. Xuddi shu paytda Sayqal qiz Qulchurni ot yoligacha engashtirib olgan. Tangri, o‘zing saqla. Kulchurning ko‘chigi egardan ko‘tarilib qolgan. Oqbo‘z Sayqalning otiga yopishib, oldinga intiladi. Shunda Kulchur egarga to‘g‘ri o‘tirib qoldi. Zardasi

qaynagan Kulchurga Cho‘g‘ulturning ovozini eshitib, kuch kirdimi, shart burilib Sayqalning bilagidan shartta ushlab, siltagan edi, Sayqalni sudrab ketishga oz qoldi. Lekin Sayqal ham egarga to‘g‘rilanib oldi.

O‘sha paytda Cho‘g‘ultur tikka kelib, o‘rtaga tushdi:

— Ikkoving ham kurashda teng bo‘lding. Endi ikkovingning nasling yurt tutqasi bo‘lsin.

— Bo‘lsin!

— Bo‘lsin!

— Er akaning tilagi to‘g‘ri!

— Ikkalasi turmush qurishsin.

Shunday qilib, Kul aka bilan Sayqal onamiz qirq yil avval bosh qo‘shishgan ekan. Qul aka yurt egasi bo‘lib qolgan vaqtda chegaramizga kelgan tabg‘ach askarlarini to‘sib chiqdi. Katta urushda yarador bo‘lib olamdan o‘tdi. E-voh, akamiz qilichdan emas, tabg‘achning hiylasidan, qilich tig‘idagi zahardan shunqor bo‘ldi. Atan o‘lsa, toyloq bor, qo‘mi yerda qolarmi? Qul akaning chilviri momida bog‘langan bo‘yi qolmadi. Kumush momidagi Oqbo‘ziga yigit bo‘lgan Bosh tegin mindi. Chevar opa nimanidir o‘ylagansib, angishvonalik barmog‘ini qulog‘ining tagigacha ko‘tarib, atrofga quloq solganday bo‘ldi:

— U vaqtdagi kamondan o‘q uzgan mergan qiz hozir shu oq o‘rdaning quti-barakasi, yurt onasi.

Tashqarida ovoz chiqqanga o‘xshadi. Chevar quvonib dedi:

— Ha-ya, qishki urushda onamiz otgan o‘q Elteres sherni hovuridan tushirdi.

— U iflos o‘lmadiyam, — dedi bir chevar.

— U o‘lsa, biz ko‘z nurimizni to‘kib, kecha-yu kunduz to‘n tikmas edik, — dedi ikkinchi chevar.

— Unday emas, chevarlarim, — dedi chevar opa. — Oziqlik horimaydi. Tayyorlangan kamimaydi. Biz usiz ham askarga to‘n tikar edik.

Ungacha ovoz yaqinlashib, eshik ochildi. O‘rdaga Sayqal ona kirdi. U o‘ychan va qandaydir tashvishli. “Yo, Ko‘k Tangri! Mol boqib, yer titgan naslga yana qanday yomonliklar kelar ekan?” — deb yo‘l bo‘yi o‘ylab kelgan tashvishining natijasi bu. Nimadir

yaxshi emasligi Sayqal onaning rang-ro'yidan bilinib turardi. Buni payqagan chevar opa:

— Dono onamiz yana nimani eshitdiykin? — deb indamay qoldi.

— Chevarlarim zerikmadimi, Jibekjon? — dedi Sayqal atrofga qarab.

— Zerikishmadi, ona... Chevar qizlar chug'urlashdi:

— Zerikkanimiz yo'q, ona.

— Zerikkanimiz yo'q, ona.

— Chevar opa bizga juda qiziq voqealarni aytib berdi...

— Men chevarlarga qadimiy Talmiz qizning mardligini hikoya qilib berdim, ona, — dedi Chevar opa.

— Ha, yaxshi, yaxshi. Uni chevarlar qanday eshitdi?

— Yaxshi eshitdik, ona, — deyishdi chevarlar.

— Talmiz qiz voqeasini ertak, deb eshitishdi, — dedi chevar opa.

— Ha, — dedi Sayqal ona. — Talmiz qiz ertak emas, bo'lgan voqea. Juda qadimiy rivoyat. Rivoyat bo'lganda ham saxiy yerning yetti qatiga singib, o'sha singgan joydan kumush qo'ng'iroqday jaranglab, quloqqa eshitilib turadigan xosiyatli rivoyat.

— Men uni ham aytdim, — dedi chevar opa. Talmiz qiz haqidagi gaplar rost ekanligini chevarlarga yetkazish uchun kecha yaqinda bo'lib o'tgan, siz qiz paytingizdagi qilgan mardligingizni ham aytdim.. buni ham ertak demanglar, — dedim chevarlarga. Bu keyingi naslimizga omonat gaplar. "Ulug' so'z" sabog'i shunday. Buni hech biring ertak demagin. Ko'nglingizga yashiring, — dedim.

Sayqal ona o'yidagini ochiq aytmay, xo'rsinib qo'ydi:

— Ertaga yana yigitlar otga minishlari kerak bo'lyapti. Katta urush bo'ladiganga o'xshaydi. Rizq kosasi goh to'liq, goho yarim. Nima deymiz, chamg'arakta o't o'ynab, biz kulishimizni, o'choqqa qora qozonimiz to'ntarilib, yig'lashimizni bir Ko'k Tangri o'zi bilarkan-da. O'rda ichi qorong'ilashib, unga tashvishli bir his to'layotganday bo'ldi.

Sayqal navkarga:

— Ey, — dedi, — asil toshni qo'y o'rtaga. Yorug' bo'lsin. — Keyin hamma chevarlarga eslatdi. — Aylanayin chevarlarim! Biring ham charchadik, dema. Tinmay ishla. Askar to'ni ko'p va pishiq bo'lsin.

UZATISH

Er yigit el chetida yovni to'sar.
Askarning oti — alp qanoti.
Qirg'izning qilichi keskir.
"Ulug' so'z"dan

Yerto'laga o'xshash, lekin unchalik past emas, tomonlari bir qaruuday olinib, yerdan ko'tarilgan tomoniga yo'g'on-yo'g'on ustun oshlanib, uch qaruu ko'tarilgan oshlama uy[1]da temirchilik ustaxonasi joylashgan. Tashqaridan qaraganda, pastak yog'och uylar yerdan unib chiqqanga o'xshaydi. Ichiga kirganda, keng, katta va baland. Katta-katta ko'ruklar tinmay kuch bilan puflagan sayin cho'g' qizarib, olov kuchayadi. Suyri[2] yog'och jomlarda suv bor. Yumaloq, yapaloq temirlar cho'g'da qizarib ketgan. Jargakdan etak taqqan polvon kishi qisqichi bilan mahkam qisib, qizil temirni sandonga qo'yadi.

Bosqon o'rtacha, unchalik og'ir ham, yengil ham emas. Hali shakl berilmagan temirlarga ishlov berishda bosqonchi ustani ko'rsatgan joyiga uradi. Usta temirni ustalik bilan sandonning ustida aylantirib turadi. Har bir urishda o'zicha chevarlik bor. Temirga urilayotgan bosqon goh qattiq urilib, gohida sekinroq urilib qolsa, qattiq urilgan joyi yalpayib, sekin urilgan joyi esa cho'zilmay qoladi. Usta tayyor bo'lgan temirni o'lchab, kesadi:

— Mana, bitta qilich tayyor.

Usta kesilgan bo'lakni jomdagi suvga botiradi. "Pishsh" etib ko'k bug' ko'tariladi.

---

[1] **Oshlama uy** — qadimgi qirg'izlar yog'ochlarni bir-biriga oshlab, uy qurishgan.(Muallif izohi)

[2] **Suyri** — ellips.

— Ha, o'tkir qilich bo'l, deydi u. Boshqa bo'lakni qo'rga tiqadi.

Ikki qilich bir qinga sig'mas.
Qirovi tushmay, qilich tig'i kesmas.

Usta shu maqolni aytadi. Keyin o'zicha nimalarnidir kuyga solib qo'shiq aytganday bo'ladi. Uning ovozi qay bir vaqtda sandonga tekkanda chiqadigan qilichning tovushiga o'xshab ketadi. O'zi cho'zib, o'zi kesib, o'zi sug'orib, o'tkirlab, toblayotgan qilich tig'i sandonda jaranglaydi. Qanday bo'lsa ham, usta temirga ishlov berib, undan o'ziga kerakli musiqani yaratib olganday tuyiladi. Tayyor bo'lgan po'latning jarangi unga kuch-g'ayrat berayotganday. U o'zining qo'shig'ini aytmay qo'ysa, po'latning toblanishi to'xtab, boshqa ustalar ham ishlamay qo'yadiganday. Shu ishlayotgan ustalarni qo'llab turgan Dovud ota xafa bo'ladiganday.

Usta tinmay xirgoyi qiladi. Yodiga kelib qolganday onda-sonda ashulani ovoz chiqarib aytadi:

Ikki qilich bir qinga sig'mas.
Qirovli qilich tig'i kesmas.

Zeriktirmaydi. Qilayotgan xirgoyisi suvning sharillab oqayotganiga qo'shilganday, quloqqa quyilib, ko'ngilga joylanib olganday o'ziga xos rohat bag'ishlaydi. Jildirash suv nafasi, xirgoyi usta nafasi ekanligiga qari usta o'zi ham, boshqa ustalar ham ishonadilar.

"Ha, ustam, tinmang!

Barakalla, ustam, tinmang" , — deb

Dovud ota ustaning qulog'iga aytganday bo'ladi.

Usta tinmaydi, xirgoyi qiladi. Dovud otadan quvvat olib, gohgoh o'zi qo'shiq aytadi:

Ikki qilich bir qinga sig'mas.
Qirovli qilich tig'i kesmas.

Qarib qolgan ustaning xirgoyisi hamon davom etadi. Oldidagi sariq jargak etagi biroz qorayib qolgan. Ustaning bilagi poy va mushakli. Qoramtir terisi pishib, eshilib qurib qolganday terla-

maydi. Ustaning bilagi temirga o'xshash. "Temir ustaning qo'lini kesmaydi. Ustaning qo'li temirni iylaydi", deb aytilgan maqol bekordan aytilmagan. Bu — ishonch.

Ustaning qo'lida Ko'k Tangri bergan yashirin sir bor. O'sha yashirin siri bor usta bir ajoyib qilich yasadi:

Yosh askar otga mindi,
Qilich bering qo'liga.

O'rmonli tog' etagida, sharillab oqqan suv bo'yida yerto'laga o'xshash uylarda usta ana shunday xirgoyi qilib ishlardi. Tongdan to kechgacha ko'ruklar havo purkaydi, bosqon uriladi, sandon ingraydi... Suvda po'lat jon talashadi.

Tuyaga ko'mir ortib o'rmon tomondan kelayotgan tozni qirdagi yilqichi mazax qiladi:

Ko'mir qazib, qora bo'lding, tozim,
Ko'p o'rmonga ega bo'lding, tozim...

Do'ppaytirib qop yuklangan atanning chulug'ini silkib, toz javob beradi:

Ey, yilqichi, yilqichi,
Ot minmasa, uyquchi,
Eshitib ol o'yinni
Ko'rugiga chidamay
Ko'k buqalar so'yildi.
Ko'miriga chidamay
Ko'hna o'rmon yo'yildi[1].
Eh! Eh! Gurs! Gurs!
Bosqon urdi so'yilni
Yassi sandon o'yildi.
Po'lat ingrab cho'zilib,
Keskir qilich quyildi.
Eh! Eh! Gurs! Gurs!

[1] **Yo'yilmoq** — tugamoq, yo'qolmoq.

Yilqichi xoxolab kulib, qir-adirda yo'rtadi. Ko'mirchi toz atanni yetaklab suv bo'ylab ketadi. Bu yilqichi bilan ko'mirchi uchrashganda bo'ladigan doimiy ko'rinish. Bir tomoni bir-birini mazaxlash bo'lsa, bir tomoni uchrashgandagi xursandchiligi.

Katta ishga tayyorgarlik ko'rishayotganiday daladagisi dalada, uydagisi uyda odamlar tinmay mehnat qilishmoqda. Boshqa yillarga qaraganda xo'jalik ishlaridan tashqari yana bir katta ishga yashirin tayyorgarlik bo'layotganday harakat bor. Qariyalar ham o't atrofida tek o'tirishmaydi. Ular qayish iylaydi, bo'yin terilarini tiladi. Mayda-mayda qayish chilvirlarni qisqichga tishlatib qo'yib, o'rim[1] o'rishadi. Qo'llari tez-tez ishlaydi, irinlari qimirlaydi, soqollari titraydi. O'rimchining o'zicha aytadigan xufiya so'zi bormi, qo'llari lepillagan sayin irinlari bilqillab, ko'zlari javdiraydi. Lekin o'rimchining xufiya so'zini eshitgan birorta jon yo'q. O'rimchining siri ichida saqlanadi. Qolaversa, yovga otlanayotgan askarning yugani, kuyushqoni, askarning buldursuni, ayili qutsiz bo'ladimi? Yo'q! Ular hech uzilmas, hech qo'ldan chiqmas, pishiq qilib yasaladi. Askarning qanjig'asi uzun, qayishi mahkam bo'ladi. Terligi chiroyli, jazligi qalin bo'ladi askarning. Terlik bichib, jazlik o'ygan ayol ichida bir narsalarni aytib, xufiya sir chaqirib ish qiladi. Oq yo'li ochiq, dushmani qochiq bo'lsin deydi. Askar yigitga yaxshilik tilaydi ona.

Nima bo'lsa ham, qattiq yashirin tayyorgarlik — yurishga tayyorgarlik ketmoqda edi.

Yurtda ittifoq bo'lib, tinch yashagan paytda urush ozaygan. Talonchilik to'xtab, el orasida tinchlik hukm surib qolgandi. Biroq bu yaxshilik nishonasini Elteres alp buzdi. Bu tinch yashagan elga atoq emas, nomus. Bunday kuchsiz yurt bugun Elteresga yengilsa, ertaga qarluqqa bosh egadi. Shunday qilib bir kuchli el uni bosib, talab, o'ziga qaram qilib oladi. Kuchga tayangan yirtqich zamonning qonuni shunday.

Boshqalarga talanmasliging, yem bo'lmasliging uchun o'zing baquvvat, askarlaring tayyor, boshqa yurtlarga yurish qiladigan bo'l.

[1] **O'rim** — yugan, quyushqon, qamchi uchun qayishdan o'rilgan tasma.

— Ey, elim, o‘zingni boshqalarga yem qilmayman desang, boshingni ko‘tar. Saxiy yer ko‘pib, suv ko‘piklasha boshlaganda anovi Uchsuv tomonga ot boshini buramiz.

Bu so‘z o‘tgan yili bo‘lgan katta yig‘ilishda yashirin aytilgan. Bu sirni yotga bildirmaslik uchun yig‘ilishga qatnashgan xaloyiq qilich tig‘ini o‘pib, ont bergan:

— Tiling sezganni tishing chiqarmaydi.

Yashirin qilinayotgan tayyorgarlikning sababi shu. Tashqaridagi elga sir ochilgani yo‘q. Boshqa xonlardan bir-ikki marta elchilar keldi. Ajo-abolar kelgan elchilarni hurmat bilan qabul olishib, kelishdan maqsadlarini bajo keltirishdi. Ularning biri eng katta dushman tabg‘ach podshosidan kelgan kumush chopon Pen I ekan. Pen I bu tomonlarda ko‘p bo‘lgan. O‘zi tabg‘achman demaydi. O‘tgan bir vaqtda tabg‘ach botiri o‘ljalab ketgan qirg‘iz qizining o‘g‘liman, tog‘alarimga dilim oq, tilagim amalga oshmasa, zahar ichib o‘laman...Tilagimga yetganda shon-shavkat bilan ajo otaning qo‘nalg‘asiga qo‘naman... O‘sha kun tabarruk kun bo‘lar, — deb aytadi.

O‘shani aytgan “jiyan” Pen Iga ham ajoning oq o‘rdasi sir ochmadi.

— Qarg‘aning qarisini kim biladi, kishining olasini kim biladi. Silliq mo‘ylovli “jiyan”imiz juda silliq muomala qilardi.

— Hushyor bo‘linglar, — deb hammani ogohlantirdi Umay ona.

Pen I “jiyan”ga Odiltoy ajo ko‘rinmadi. Uni bosh abo Azman qabul qildi. Chekir biy suhbatlashdi. Pen Ining iliq so‘zlariga Chekir biy ham iliq so‘zlar bilan javob qildi.

Pen I qaytib ketguncha, o‘rda atrofida odat bo‘yicha faqat kuzatuvchi askarlar yurishdi. Xaloyiq o‘zining g‘amida, molini boqib, bahorning kelishiga tayyorgarlik ko‘rishmoqda. Dehqonlar buurusun[1]ini oshlab, molasini tayyorlamoqda. Ovchilar o‘zlariing guruhlari bilan ovga otlanishgan. Sirtdan qaraganda ovga otlangani bilan nariroq borib qalin o‘rmonning ichida urush ko‘nikmalarini mashq qilib, tayyogarlik ko‘rishadi. Erkishi o‘sha askarlarning orasida. Yoshlarga kurash sirlarini o‘rgatadi. Biri bilan olishib, ot ustida kuchini sinaydi. Biriga janchar sunib, tekkizib, kuladi:

[1] **Buurusun** — qadimiy omoch, musulmon omochga o‘xshash.

— Hiylang arslonni qochiradi, kuching sichqonni qochiradi.

Faqat kuchiga ishonib manmansiragan askar bu gapga ko‘nmaganday bo‘ladi:

— Ee, botir aka, kuch — kuch-da.

— To‘g‘ri, kuch — kuch... Biroq kuch qobonda ham bor. Uning imkoniyati chegaralangan. Bo‘ynini burolmaydi. Ayiq uni tosh bilan urib, o‘ldiradi. Faqat kuchga ishonish — bu yalang‘och mardlik: katta qisqichsiz cho‘g‘dan temirni ololmaysan. Kuchga hiyla ko‘mak bersa, seni alp ham yengolmaydi.

Askar Erkishining aytganiga ishonadi. “To‘g‘ri aytyapti. Hadeb kuchni ishlata bersang, tez charchaysan.” Askar o‘z hayotida boshidan kechirganlarini eslaydi. Aytmoqchi, faqat kuch ishlatib, nima ishni bitirdi? Ha, asovga uqruq irg‘itdi. Uqruq to‘g‘ri tashlangan ekan, asovning bo‘yniga tushdi. Asov uni sudradi. O‘shanda u hiyla qo‘lladi: yerdagi ko‘p ildizlarning birini tepib, arqonni to‘nkaga o‘radi. Asov ikki oyog‘i bilan tikka turdi, o‘zini u yoq-bu yoqqa tashladi. Holdan toyib, bo‘g‘ilib, titradi. Majbur bo‘ysundi. O‘shanda hiyla qo‘llamaganda, kuchga to‘lgan asov uni sudrab ketardi. Askar o‘shani esladi. Keyin Elteresning lashkari ularni tunda bosganda, qanday qilib o‘limdan qolganini esladi. Tundagi bosqin kutilmaganda bo‘lganligi uchun, hamma har qayoqqa tirqirab qochdi. Ularni ham bir to‘p dushman otliqlari quvlay boshladi. O‘shanda u otining yonboshiga yotib, sudralib qoldi. Uni o‘lgan ekan, deb dushmanlar undan o‘tib ketdi. Payti kelishi bilan otga to‘g‘ri minib, ketayotgan dushmanlarning birini otdan tushira chopdi. Ha, shunday qildi. O‘sha vaqtda topgan hiylasi bilan faqat o‘zining boshini saqlab qoldi, yovni chopib tashlab, mard ekan degan nom oldi. “Ha, o‘shanda hiyla ishlatmaganimda, hozir yerda yotardim. Mening o‘rnimga o‘ch olishga kim chiqardi.”

Askar shuni eslab, Erkishining aytganiga qo‘shildi. “Bilmaganni eshitsang, donishmand bo‘lasan”, — dedi yosh askar o‘ziga o‘zi ovozini chiqarib.

Qoramtir mo‘ylovli yigit uni qo‘lladi:

— Ha-ya, ko‘p g‘oz boshsiz uchmaydi.

— Ey, yigit, — dedi qariya askar. — Kattani hurmat qilsang, qut qo‘nadi.

— Ha-ya, bu bor gap, — deb qo'ydi yosh askar ichida.

— Er akaning ta'limini olgin. Zo'r bo'lasan, o'g'lim, — dedi qariya askar.

— Ha, bu ham rost gap, — dedi yosh askar yana.

— Elteres bizning chegarani yomon paytda buzdi. Mol va boyligimizni o'ljaladi. O'g'il-qizni matadi. Ajo ota tinch yotadigan paytda otga mindi. Er Edilning quluni elim, dedi. Qarigan vaqtda yovga qarshi chiqdi. O'sha vaqtda ajo otga minmaganda bizning ahvolimiz juda yomon bo'lardi. Qozon qiyrardi, kulimiz ko'kka sovurilar edi. Ajo otga minganda uni tirik arvohlar qo'lladi. Sen unda yo'q eding. Men singan bilagimga shaqshaq qo'yib, bog'lab urushga kirganman. Kunu tun tuz totmay, urishib yurganmiz. O'shanda oq soqolini shamol o'ynab, ajo ota kelayotganda o'ng yelkasida oq yo'lbars, chap yelkasida ham oq yo'lbars yetaklab kelgan. Sayqal oyim otgan o'q hushtak chalib, dumi o't bo'lib uchgan. Shuni ko'rganda Elteresning lashkari talvasaga tushib qolib, orqaga qarab qochib qolishdi.

Agar o'shanda ajo ota lashkarni boshlab kelmaganda biz nima qilardik?

— Ha, rost aytasiz, — dedi yosh askar.

Azob bergandan o'ch olmasa, yurt yulduzi o'chadi. Boshi qora, oyog'i ayri bo'lganki zot nomus uchun kurashadi. Yovga qarshi kurashadi. Shunday urushda biljiragan o'g'il bola pishmasa, uning o'zi qul bo'ladi. Botirni qo'llamagan yigit odamning yomoni bo'ladi. Yo'q deganda, orqada chang chiqarib yurmagan o'g'il bolani ot tepsin. Uning boridan yo'g'i.

— Ha, bu ham haqiqat, — dedi yosh askar.

Qariya askar yoshiga tikilib qaradi:

— Ey, sen qo'rqoqmisan?

— Yo'q, aka... — dedi yosh askar.

— Unda nega indamayapsan?

— Gapiryapman-u.

— Ovozingni eshitmadim.

— O'zim eshitaman.

Qariya askar yoshiga qarab xoxolab kuldi:

— O'zidan boshqaga eshitilmaydigan ovozdan yov qo'rqmaydi.

— Men o‘zimga o‘zim ichimda aytaman, — dedi yosh askar uyalib.

— Ie, zo‘r ekansan-u, ichida aytgan gapning g‘ayrati bo‘lmaydi. Askar kuch bilan qilich urganda, hayqiradi. Hayqiriqsiz g‘alaba bo‘lmaydi. Hayqiriqsiz qirg‘in yo‘q. Sen ichingda gapirib yurib, qilich chopolmaysan. Chopsang ham, qiliching bo‘sh tegadi. Qo‘y, o‘g‘lim. Qilichni kuch bilan chopmagan kishi — oyog‘i ayrining yomoni. Unday yomonni ota-onasi ham yoqtirmaydi. It uyalsa, moy yemaydi. Sen menga inisan. Bizning naslimiz itchalik emasmi? Sen qilichni hayqirib chopgin. Bizni elning oldida gapga sindirma. Hayqirgan ovozingni quloq eshitsin.

Toy ot bo‘lsa, ot dam olar,
O‘g‘il yigit bo‘lsa, ota dam olar.

Ini qilichni hayqirib chopsa, og‘aga tirgak. Og‘aga tayanch bo‘lolmagan inining boridan yo‘g‘i. Qilichni qattiq urolmagan yomonni bizning bobo yurishdan oldin o‘z qo‘li bilan tuproqqa yashirib qo‘yardi. Unday qilmasa, u daydi itday xor bo‘ladi. Ota nasliga dog‘ tushiradi.

Indamas yosh askarni urushda pishgan qariya og‘asi shunday qilib ta’lim berib ketardi. Bu yurish oldidan botirlik odat talab qilgan qoida. Yovdan hayiqmay urushga kirishda talab qilinadigan bobo odati. Har bir ota o‘z o‘g‘lini sinaydi. “Inim boltaga sop bo‘la oladimi? Meni uyat qilmaydimi”, — deydi og‘a.

Qo‘rqoq og‘aning inisi ham qo‘rqoq degan gap bu o‘lim bilan teng.

— Oldingisi qiyqim edi, bunisi achchiq ichagi bo‘libdi, — deyishadi boshqalar. Qo‘rqoq otaning o‘g‘li qo‘rqoq chiqsa, bu haqiqiy o‘lim:

— Mushukning bolasi mushukcha miyovlaydi, — deyishadi. Boshqalar emas, otalash qarindoshlar ham kuladi.

Mardlikka, qo‘rqmaslikka o‘rgatgan yurishning bu ta’limini katta-kichik birday yaxshi qabul qilishadi.

Yurish tayyorgarligi oxiriga yetay, deb qoldi. Daraxtning eng tepasidagi qizil olmani qachon “to‘p” etib tushar ekan, deb kutganday, odamlar do‘lning ovozini kuta boshlashdi.

Do‘lning urilishi tayyorgarlikning kamchiligidan emas, balki yurishning vaqtini kutish edi. Yurish saxiy yer yumshab, ko‘k maysa ko‘rpaday ko‘klab turganda boshlanishi kerak edi. Yilning shu vaqti urush qilishga juda qulay hisoblanadi. Maysa bilan qoplangan yerga otning tuyog‘iga botmaydi. Boshi yorilib, mo‘ylovlari shalpayib, u dunyoga yo‘l olgan askar ham yumshoq yerda yotadi. Yovning botirini chopib tashlab, g‘alabaga erishgan sher ham ko‘k ko‘rpaga tayanib dam oladi.

Saxiy yerdan maysalarning hidi kela boshladi. Hammayoq maysa bilan qoplandi, otning tuyog‘iga yumshoq yer ham tayyor bo‘ldi. Urush qilishning ayni vaqti keldi.

Katta ovullardan ham, kichik ovullardan ham askar uzatish boshlandi.

— O‘g‘lim, otingni olib kel, — dedi ota.

O‘g‘li urushga minadigan otini no‘xtalab, eshik oldiga yetaklab keldi. Uydan chiqqan ota otga o‘zi o‘rgan yuganni soldi. Ona o‘zi tikkan terlikni soldi. Otaning oq oralagan soqoli titradi. U qo‘lini ko‘tarib otning kokilini siladi:

— Jonivorim, o‘g‘limning oti! Halol o‘stirgan birinchi biyamning quluni eding. O‘g‘limga qanot bo‘l. Tikka yo‘lda daming qaytmasin, pastga yurganda, surilib ketma.

Onaning qo‘li titradi. U otning tuyog‘ini siladi:

— Jonivorim, o‘g‘limning oti! Enangning yelinini qattiq so‘rib emadigan qulun eding. Mening qulunimga qanot bo‘l. Quvganda yetgin, urushda o‘zingni orqaga tashlama.

Ota-ona birgalikda tilak aytishdi:

— Sening po‘lat tuyog‘ing sinmasin!

Shundan so‘ng askar otiga to‘qim soldi. Singlisi qanjig‘aga guloziq bog‘ladi. Ayoli askar eriga cho‘pqut to‘n kiygizdi. Sho‘x inisi yoki dastyor o‘g‘li buldursun qamchisini berdi. Harbiy kiyimlarini kiyib, yaroqlarini taqingandan so‘ng askar otiga irg‘ib mindi.

Ona ko‘ko‘rdan katta oyoqqa qimiz quydi. Oyoqni qariya askar eriga uzatdi.

— Urushda chanqamas bo‘l, o‘g‘lim! — dedi ona.

— Urushda charchamas bo‘l, o‘g‘lim! — dedi ota.

Askar katta oyoqdagi qimizni olib otning yoliga tekkizdi. Oyoqning labini o‘pdi. Dast sipqordi. Yori bo‘sh oyoqni oldi.

Ota qinsiz qilichini ikki kaftiga qo‘ydi. Ikki qo‘lini yuqoriga ko‘tardi. Yalang‘och qilichning po‘lat tig‘i kunning nurida yaltiradi.

Ota nasihatini aytdi:

— Qo‘rqoq to‘rt marta o‘ladi, dovyurakka o‘lim yo‘q, o‘g‘lim. Kulib otlan, kulib qayt.

Ona ham o‘z nasihatini aytdi:

— Qozoning to‘ntarilmasin, kuling sovurilmasin, onangning sochi yoyilmasin. O‘ynab borib, o‘ynab kelgin, qulunim!

Singlisi nasihatini aytdi:

— To‘yga borsam, ipak kiygizarim! Kuyovga chiqsam, otni to‘qimlab beradiganim. Omon keling, aka!

Ayoli nasihatini aytdi:

— Yuzim tirnalmasin. Ko‘nglim qora bo‘lmasin. Bolalaring otasiz, uying chamg‘araksiz qolmasin, Tangrim qo‘shgan, yolg‘izim!

Askar egardan engashib, otaning po‘lat qilichining tig‘ini o‘pdi.

— Chopishib o‘lsam, alqang, ota. Qochib o‘lsam, qarg‘ang, ona!

— O‘nboshing kutib qoldi. Jo‘na, o‘g‘lim, — dedi ota. — Biz bu yerda senga yaxshilik tiladik. Urushda bizni yodda tut. Arvohlar senga kuch qo‘shsin.

Askar otini shart burib, jo‘nab ketdi. Qolganlar eshik oldida askardan ko‘z olmay g‘amgin qarab turishibdi. Ota ham, ona ham, ayoli, singlisi va bolasi ham ko‘zidan yosh chiqarmadi. Yig‘lab jo‘natish yomon odat, teskari fol. O‘likni yig‘lab uzatadi. Tirik odamni boshqa yerga kuzatganda yoki askarni yurishga jo‘natganda yig‘lab uzatish o‘sha ketgan odamga yoki askarga yomonlik xohlash bilan teng. Ketgan askarning qorasi ko‘rinmay qolguncha tek qarab turish va unga omonlik tilab: “Urushda mardlik ko‘rsatgin, o‘g‘lim. Otaning nasli g‘ayratli bo‘ladi. Oti pishiq, o‘zi qo‘rqmas ekan, tuqqan onasiga, yo‘l ko‘rsatgan otasiga olqish, — degan maqtovga sazovor qil bizni, o‘g‘lim. Ko‘rib, qo‘rqib o‘zingni xor qilma, bizni ham yomonotga qoldirma, o‘g‘lim”. Askar ko‘rinmay

qolgandan keyin ayoli oshiqib uyga kiradi. O‘choqqa archa o‘tin solib tutashtirdi. O‘t gurkirab yonganda hammasi o‘tning aylanasida turishdi. Ota “Ulug‘ so‘z”dagi aytiladigan bobo omonatini aytib, soqolini siladi. Ona o‘tga sariyog‘ tashladi.

— Qozon moyli, o‘t yolqinli bo‘lib, to‘r qutga to‘lsin. Qo‘raga to‘rt tuluk to‘lsin.

Keyin hammasi o‘tirishdi. Taom yeyishdi. Har kungi gaplar gapirildi. Keyin har kim o‘zi ishi bilan ovora bo‘ldi. Askarni yurishga jo‘natgan kun har doim ko‘ngilda. Yurishdan askar omon qaytsa, o‘sha kuni to‘y, lashkar yengilib, askar o‘lsa, qayg‘u-alam bu uyga ham keladi.

Bu safar ham askarlar o‘sha odat bilan otga minib, yurishga jo‘nashdi. O‘g‘ilni urushga jo‘natish hamma ota-onaga birday. Oddiy askar otlanishi bilan o‘zining o‘nboshisining oldiga keldi. O‘nboshi o‘zi boshqaradigan o‘n askar to‘liq kelishi bilan otidan shartta tushdi-da, Quyoshga yukundi:

— Ey, muqaddas Quyosh! Bizni isitding! Bizni isitding! Bizni isitding! Quyoshga uch marta yukungandan so‘ng, u ovul tomonga burildi:

— Ey, ota-ona! Bizga yaxshilik tilang! Bizga yaxshilik tilang! Bizga yaxshilik tilang!

Keyin u toqqa, suvga yalindi:

— Ey, yer-suv! Bizni qo‘llang! Bizni qo‘llang! Bizni qo‘llang!

O‘nboshi yerni uch marta o‘pdi. Tez turib, otga minib, hech qayoqqa qaramay jo‘nadi. O‘n askari ortida bir saf bo‘lib ketmoqda. Keyin ular ellikboshiga ergashdi. Besh saf. Keyin yuzboshining ortidan o‘n saf bo‘lib ketishdi. Keyin ular mingboshining oldiga to‘planishib, o‘n guruhdan o‘n saf bo‘lib jo‘nashdi.

Bu yurishga ketayogan lashkarning qadimgi qoidasi edi.

Har bir mingboshi o‘z-o‘z mingining oldida. O‘nmingboshi o‘n guruh tuzib, o‘n guruh o‘ndan saf bo‘lib kelayotganda bir tuman lashkarning bu chetidan narigi chetigacha odam ovozi arang yetadi. Ot dupuridan yer titraydi. Ko‘p tuyoq bosilganidan yer haydalganday ahvolga keldi. Bu dupur-dupurni eshitib, saflangan askarlar qatorida kelayotgan qo‘rqoq ham qo‘rqmas bo‘lib ketdi.

Lashkarning xoni — Azman abo.

Lashkarning ayg'oqchilar bo'limining boshlig'i — Chekir biy. Erkishi xon guruhida. Qo'shinning kuchi va uning shiorini o'ziga biriktirgan ko'k yalov Erkishining guruhida. Yalovni olib yurganlar bir xil oqbo'z ot mingan soqoliga oq oralagan askarlar. Ularning biri o'ng qo'li bilan, biri chap qo'li bilan yalovning dastasini ushlagan, dastaning uchi ularning uzangilarga biriktirilgan moslamaga tiqilgan.

Bu ikki askar o'lsa o'ladiki, lekin tutamlaridan yalovning dastasi chiqmaydi. Yana Tangri biladi! Bu ikki askar o'lsa o'ladiki, lekin mingan oqbo'z otlari ajralib ketmaydi. Otlar bir xilda yurib yo'rg'asini buzmadi. Yalov tutganlar bu yurishga mashq qilib, ko'nikib ketganmi, hech yurishni o'zgartirmadi. Ko'k yalov hilpiraydi, hilpirayveradi.

Bosh tegin hozir ko'k yalovning hilpirashidan ko'zini uzolmay qarab turdi.

Bosh ajo o'rdasida otlanishdan oldin Umay ona bo'sag'ada ilinib turadigan aza bayroqchasini olib, archa o'tin yonayotgan olovga tashladi:

— Biz tortgan azani bizga qayg'u olib kelgan, bizni yig'latgan dushman tortsin. Ha, zurriyotim, nomimizni o'chirmang. Yovdan bizning o'chimizni oling. Ajoning oq o'rdasi qayg'u bilmasin. Ortingdagi katta lashkar senga tirgak bo'lsin. Yovni yengib qayt! — degan Umay onasi.

— Ha, tabarruk Umay ona, — dedi hozir Bosh tegin o'ziga. Men boshlagan tuman yov yo'lini to'sadi. O'lsam, jasadim, tirik bo'lsam, kuchim yovning lashkarini to'sadi. Menga ishongin, tabarruk ona! Ishongin, maqtab, qo'llab tur bolangni.

Bosh tegin mingan oqbo'z boshini silkib, silkib yelib ketmoqda. Surnay va do'lning ovozi lashkarning u cheti bilan bu chetiga eshitilguday bo'lib yangramoqda.

Janub tomondagi adir maydoni lashkarga to'ldi. Ko'm-ko'k maysa qoplagan yumshoq yer ichidan ovoz kelganday atrofni otning dupuri bosdi. Osmonda keng yoyilgan ulkan bir qush qanotining ko'lankasiday bo'lib, goh uzarib, goh qisqarib sakkiz tuman lashkar asta yurib ketyapti. Ketib boryapti.

UCHINCHI QISM

Har tarafdan jo'sh urgan
El ko'rmadik hali biz.
Oqib — toshib pishqirgan
Sel ko'rmadik hali biz.
Aytganidan qaytmagan,
Ajaldan hayiqmagan
El ko'rmadik hali biz.
O'pka chayqab, qon ichib,
O't ko'rmadik hali ham.
Daryo kuyib tutashgan.
O'rt ko'rmadik hali biz.
Boshdan o'tar har savdo
Lek ko'rmadik hali biz.
Ot ko'tarmay fil mingan
Yov ko'rmadik hali biz.
Ko'k temirdan kiyingan
Dev ko'rmadik hali biz.
Minoradek qad cho'zgan
Bo'y ko'rmadik hali biz.
Soqol bilan mo'ylovin
Terarmi deb o'ylayman.
Adabingni qo'lingga
Berarmi deb o'ylayman.
O'q joylangan kamonin
Tortarmi, deb o'ylayman.
Ortimizdan tez kunda
Kelarmi, deb o'ylayman.

(Sari ayyorning qirg'izlar haqida aytgani. "Manas" dan)

Tabg'ach qoni yovimiz edi,
O'n o'q xoni yovimiz edi,
Hammasidan ham kuchlisi -
Qirg'iz xoni yovimiz bo'ldi.
To'niko'k gumbazidagi yozuv

Hamisha chinmochinlar bilan ot solishib kelgan xunlarga qarshi chiqmoq — xarbiy ishlar a'lo darajada bajarilib, birdamlik bilan uyushtirilgandagina zafarga olib kelishi mumkin.Chunonchi, Janubiy Sibirdagi dindin urug'lari shunday boshqaruvni — balki xunlarning boshqaruv tizimini ishlab chiqqan, yoki ular tarafidan kuchga kiritilgan shakllarini yo'lga qo'yishgan. Bularning hammasi — Markaziy Osiyoga navbatdagi zo'ravonlik qiluvchilariga hamisha qarshi turgan yeniseylik qirg'izlarning keyingi holatini esga solgani muhim ishdir.

S. V. Kiselev

URUSH ARAFASIDA

Iqtidorli, ziyrak muarrix o'zi tasvirlagan voqea oqimiga tushib oladi, ko'z oldida jonli tasavvur etadi. Aksincha, qobiliyatsiz muarrix tasvirda ayrim zaruriyatsiz o'rinlarga o'ralashib qolib, ahamiyatga molik nuqtalarni ko'zdan qochiradi.

Gegel

Tarixchi qay bir vaqtda o'z fikri bilan tarixning unutilgan so'qmoqlarini ochib tashlaydi.

M. Logodin

El hayotidan namuna olgan inson zulmatni yorituvchi chiroqni topibdi.

El maqoli

Uchsuv yurti o'zaro ko'p urug'li, chetdan qaraganda olg'ir va abjir el. Eli — jangovar. O'sha urug'lar bir bosh, bir qo'l bo'lib olganlarida, ularning kuchi, botiri Elteres aytganidek "Uchsuv toshganida jilg'a va buloqlarning xirgoyisi to'xtaydi"...

Qarluq, to'lo's, tatabi, tardush, quriqan, o'ttiz tatar, o'n o'q deganday ko'k turk urug'larining aksariyatini Elteres "jilg'a" deb atadi. Shuncha elat ichida unga qarshilik ko'rsatishga yaroqlisi — qirg'iz edi. Az, arg'in, chaa, izgil kabi yurtlarning eli soniga ham e'tibor bermagan Elteres kuch jihatdan ularni o'ziga teng ko'rmadi. Ammo vaziyat u o'ylagandek emas. O'sha zaif elning yarim tuman askari yovuz dushmandan o'z chegarasini asramoqqa kuchlari yetadi. Ularning bir talayi kuchli raqibga yakkama-yakka chiqishga kuchi yetadi, yana bir talayi raqibni yelkadan oshirib yerga ura oladilar. Birda yutqazadi, birda esa ketganiin qaytarib oladi.

Bu o‘zaro kurashlar azaldan to‘xtamasdan davom etib kelmoqda.

Yurishga otlanish — o‘zini qayoqqa urishini bilmay yotgan qora kuchlar quyunini tentakona hujumga boshlash emas (Albatta, qaysidir bir jini qo‘zigan lashkarboshi shunday qilishi ham mumkin). Ko‘pincha, yurishdan maqsad — o‘z yurtining tinchligini asrash. Botirlarning jangovar harakati tufayli qo‘shinni katta o‘ljaga ega qilish. O‘lja esa nafaqat boylik, balki oziq, tirikchilik va kun ko‘rish manbai hamdir.

Askarlikda qonli qirg‘inlarni oqlovchi shafqatsiz dalil mana shu edi. Biroq shijoati taniga sig‘may hujumni qo‘msagan nene lashkarboshilar — hech yengilmas sherlar ham deyarli ko‘pga bormaydilar.

“Qilich ko‘tarib kelgan qilichdan boshlari kesilur”.

Bu g‘aroyib saboqni hayot o‘zi bergan: qonsiragan eranlarni ajal chaqiraveradi. Ularning bilagiga mador bo‘lib yurgan elning

— Zo‘rlikning oxiri — xo‘rlik, Boylikning oxiri — sho‘xlik,- degan maqoli ham bor.

Ayovsiz talanib, qul bo‘lib kelganlar qaytadan bosh ko‘taradilar:

— Biz ham bir ozod elning avlodi edik! Qul, cho‘ri bo‘lib, yov ostonasida tepalangandan ko‘ra urushda boshim kesilsin! — deyishadi qullar.

— Otlandik! — deydi bir ishbilarmoni.

Berigilar ortidan jo‘naydilar. Yana urush... Ko‘k temir boshni kessa, jonni askarchasiga yerga topshiradi. Suyakni teshib o‘tgan kamon o‘qi qurbon bilan birga ko‘miladi. Bu qullikdan qutulish uchun bo‘lgan urushda qazo topgan jangchining o‘limi.

Nima bo‘lganda ham “g‘ozlar galasi to‘da boshisiz uchmaydi”. Qilichi o‘tkir donishmand botir yo‘l boshlasa, qolganlari unga tirgak. Qator-qator qo‘shin bo‘lishib, hammasi yurishga chiqqan. Maqsadlari urush. Rejaga qarshi chiqishsa, yoxud bo‘yin tovlashsa, boshqalar emas, bo‘lmaganda, o‘zlarining qon-qarindoshlari talanadi, qul qilinadi. O‘z tug‘ishganlari o‘zlariga yov bo‘ladi...

O‘sha Uchsuv yurti bilan berigi ko‘p urug‘li ellar bir-biriga begona emas. U yoqdagi qirg‘iz, teles, az, arg‘in, chaa, nayman,

izgil, qatag'an; bu yog'i quriqan, o'n o'q...shu Uchsuv yurti — hammasining kelib chiqishi bir, hammasi bir-biriga qondosh. Hozir esa urug'-uruqqa bo'linishib, bora-bora bir-biridan olislashib, har kimisi o'zicha alohida elmiz, deb qolishgan.

Ellik yilda el yangilanadi. Har yuz yilda yangilangan el to'lib, to'lqinlanib, yana qaytadan cho'kib, ozayib turdi. Ana o'shanda ularning bir butog'i bor bo'yi kesilib, chirib yo'qoldi. Biri suv to'lqinlari bilan oqib keldi. Keyin o'sha yerda unib, o'sgan yerining nomini oldi. O'sha o'zan ularning Ota yurti. U, o'sha Ota yurtini ulug'lab, dong'ini dunyoga yoymoqchi bo'ldi.

Uchsuv yurti ham o'shalardan biri.

Bu yurtning hozirgi yo'lboshchisi — Elteres. Jasurligi tomondan alp bobolari izidan borgan, bilimdonlikda birmuncha no'noq, ishongani — kuchi. O'zining qondosh elini ahillikka chaqirish o'rniga ularni qurol bilan bo'ysundirishni ko'zladi.

Qizil chipor otiga minib, Uchsuvning eng baland cho'qqisiga chiqib, pastga nazar tashlaganida Elteresga uch katta elning xoni, ajosi, podshohlari uch yuksak cho'qqiday tuyilib ketdi. O'sha uch cho'qqining biri — o'zi. Hamisha chaqirig'iga "labbay" deguvchi eli uchsuvliklar.

U uch cho'qqilarning ikkinchisi — Odiltoy ajo va u boshchilik qiluvchi jangchi el.

"Eha?! — dedi Elteres ichki bir g'urur bilan o'ziga-o'zi, — shu Odiltoy ajo tovush chiqarmay kelib menga bo'ysunsa, nima bo'ladi? O'shanda Uchsuvdan toshib, tabg'achni bosib olardim."

Shunday deb o'zicha mag'rurlangan Elteres Odiltoyga do'stona kelishni o'ziga or bildi. "Cho'qqi cho'qqidan baland emasmi? Hamjihatlik so'rab borganim, Odiltoyni o'zimga teng ko'rganim nimasi? Ehey, bu qanday qo'rqoqlik? Yo'o'o'q...Cho'qqi cho'qqiga tenglasholmaydi. Men kuch bilan borib Odiltoyning cho'qqisini zabt etaman. Keyin yana-da yuksalaman. O'sha tabg'ach podshohidan ham yuqori ko'tarilaman!"

Elteres sherni vasvasaga solayotgan xayol xudbin kuchi bilan o'z cho'qqisining sha'ni-shavkati edi. Ana shu sharafni xayol qila turib, askar to'pladi. Elteres tinch yashayotgan qirg'iz yurtini bosib, ularni ko'ziga o'zini bir ko'rsatdi.

Ot tuyoqlari ostiga zamin yashil ko'rpa yozayotgan ko'klam pallasida qirg'iz qo'shini Uchsuv yurtining chegarasiga kelib to'xtadi. Qo'shin xoni Erkishi Elteres kabi tun qorong'iligini kutib, o'g'rincha hujum qilishni xohlamadi. U sakkiz tuman qo'shinni yurishga ochiq boshladi. Chopar yuborib, Elteresga xabar berdi:

— Eey, biz olisdan kelishi kutilgan yovni poylab chegarada turaverdik. Aynan Elteres bizga yov bo'ladi, deb kutmagan edik. O'zakdan tutashgan o'tga o'xshab, o'g'rincha qishda borib bizni bosdi. Emizikli bolalarimiz, bukchaygan qariyalarimiz ayozda qoldi, ularni sovuq muzlatdi. Biz Uchsuvning elini qiynamoqchi emasmiz. Bizning kekimiz Elteresda, xolos. Tinch elga yomonligimiz yo'q. Jangda qilich ko'targan botirlar yuzlashadi. Biz to'rg'aylar kuyin kuylab, bo'z yerga yashillik to'shalganda, ko'rina keldik! Elteres sher lashkarini boshlab kelib, jang maydonida bizni kutib olsin!

— Elteresga elchilikka kim boradi? — deganda, Yo'lbars hovliqib turdi:

— Er aka, ruxsat bering? Kalta quyruq Ko'k olani o'ynoqlatib, o'zim bosh bo'lgan ming askar bilan boray. Elteres sherga xatni beray. U olishsa, olishayin, chopishsa, chopishayin. Kuchim yetsa, Elteres sherning boshini olib kelayin. Kuchim yetmasa, qonimni to'kib, suyagimdan ko'prik solib, qurbon bo'lib beray. Abo, donishmand, botir og'alar, elchilikni menga beringlar.

Saman ot mingan Bars shart otidan tushib, tizzalab, qo'lini ko'ksiga qo'ydi:

— Er aka, elchilikni menga bering? Yolg'iz o'zim boraman. O'lsam, yurishning qurboni bo'laman. Tirik qolsam, Elteres sherning javobini olib qaytaman.

Qo'shin sarkardalaridan o'tinib Bars ruxsat so'rayotgan mahal Buylash ohista otidan tushdi. Buylash mingan Katta bo'z ot bir chetda mudragandek, katta qo'shin suron solib borayotganda ham shu mudroq holatini buzmaydigandek yuvosh, tinch turardi. "Ey, odam bolasining donishmand sarkardalari, sizlar bir qarorga kelguningizgacha men uxlab olayin", deyotgandek...Ustidan Buylashning tushganini ham bilmay mudraydi.

Buylashning o'zi ham yuvosh. U shu ko'yi asta kengashga aralashganday bo'ldi. Qo'lini ko'ksidan olmay, abo-beklarga, xo'mraygan Erkishiga ta'zim qilib, bosh egdi:

— Yo'lbars mard yigit, Bars botir — ikkovi ham sarkarda. Otam qirg'izning jangga otlangan sakkiz tuman qo'shinining yosh arslonlari! Bularning vazifasi — qo'shinni boshlab, yovni to'sish. Qilichi o'tkir botirlarni elchilikka yuborish, fikrimcha, to'g'ri bo'lmaydi. Men Elteresning qo'lida matalib, tutqun bo'lganman. Men u sherning kuchini ko'rganman, sirini ham bilaman. U po'lat qilichini qinidan shart sug'uradigan shoshqaloq botir. Yomon xabar olib borganni ayab o'tirmaydi. So'zim yetsa, omon qolarman. Boshim ketsa, qurbon bo'larman. Elchilikni menga bering?

Buylash shunday deb, o'ng qo'lini ko'ksiga qo'ydi, qaddini egdi. Huv, moviy osmonda adashgan tayloqqa o'xshash bo'yraday oq bulut quyosh yuzini to'sdi. Yosh botirlardan rozi bo'lib turgan Azman abo fikrini aytmay to'xtalib qoldi:

"Ko'lanka surilsin, yorug'likni bulut to'sib turganda fikrimni aytmay", degunicha, bulut surilib, quyosh charaqladi. Azman so'z boshlagani bo'lmay, qalin malla soqoliga oq oralagan Bag'ir yoldor to'riq otini niqtab oldinga chiqdi-da, ta'zim qilmay qo'lini ko'tardi. Yo'g'on ovozi karnay misoli yangrab hammaga eshitildi:

— Botirlar! Elchilikni menga beringlar! Nima sababdan ekanligini men aytmayin, hammasi o'zingizga ma'lum. Azlarning boshiga iflos Kergen soya tashlab ketgan. O'sha mash'um ko'lankani azlarning boshidan surib tashlayin. Yuzimiz yorug' bo'lsin!

Az elining ham donishmandi, ham botiri Bag'irning aytganlari haqiqat edi. O'shanda Elteres qo'shinini qirg'izlar hududiga boshlab kirgan Kergen shu az yurtining kishisi edi. "Bola suv to'ksa, undan kattasi toyib yiqiladi", deb el aytganidek, u xoin o'z ontidan tonib, ikki qondosh elning nizosiga sabab bo'lib, o'zinigina emas, o'zi tug'ilib o'sgan elini ham yomonotliq qilgan.

Azlarning bir yurtbuzari qorong'ilikda qor betiga suv quydi. Suv ko'karib muzladi. Muzda qirg'iz qo'shini toyib yiqildi...

— Haa... az — azligini ko'rsatdi. Sut ichishda ahdlashib, qon to'kishdi, pand berdi.

— Ehhe.... Mushuk bolasi mushukchasiga miyovladi....

Ha, el orasida shunday so'z bo'ldi. Kergen iflosning shu tarzda barcha az yurtiga soya tashlagani hali unutilgani yo'q. Qaysi yurtdan xoin chiqsa, o'sha yurtning boshi egiladi. Kergenning sotqinligi o'zigagina ziyon qilmadi. Og'a-ini, qon-qarindosh butun urug' jafo chekdi. Bir talayi begunoh jazolandi. Boshlari kesildi.

Hozir esa alamzada Bag'ir o'z elining o'chgan yulduzini yondirib kelish uchun elchilikni so'rayotgan edi.

Azman abo ham, Erkishi ham, o'sha kengashda turgan boshqa lashkarboshilar ham Bag'irning maxfiy rejasi borligini payqadilar. "Ee, Bag'irning elchilikni so'ragani yaxshi. Sababi bor", deb o'yladi bari.

Yana Bag'irning ovozi yangradi:

— Botirlar! Elchilikni menga beringlar?

— Berdik! — dedi Azman abo.

— Berdik! — dedi Erkishi.

— Berdik! Berdik! —deb qichqirishdi boshqalar ham bir ovozdan.

Yo'lbars, Bars, Buylashlar otiga minishdi.

Darhaqiqat, harbiy udumga ko'ra yosh botirlarning (Buylash bo'lmasa ham, Yo'lbars bilan Bars) elchilikni so'rashi noo'rin edi.

Ular nima qilganda ham qo'shin sardorlari edilar.

"Botir jangda, notiq so'zda".

Yo'lbars bilan Barsning elchilikka oshiqqanlari bir ishtiyoq edi. Bag'ir elchilikni so'ramaganda ham Azman bilan Erkishi bu qo'mondonlarni elchilikka yuborish niyatlari yo'q edi. Bag'ir yo'lga otlandi. U yolg'iz jo'namoqchi edi, unga lashkarboshilar ko'nmadi.

— Tinchlik davri emas, katta lashkar Uchsuvning chegarasida turibmiz. Elteres sher oldingga tizzalab keluvchi qo'rqoqlardan emas. U ko'kyol bir xezlansa, elchi deb o'tirmay, boshingni chopadi. Tuyqus bexabar qolmaylik. yetti kishi bo'lib borasizlar! — dedi Azman bobo.

Shunday deya turib qo'shib qo'ydi:

— Yettovi yetti urug'dan bo'lsin! Elteres o'zi otam qirg'iz urug'idan edi, demasligi mumkin. Yetti ota — yetti el o'g'lining

qonini to‘kib, o‘sha yetti urug‘ bilan yovlashib qolishni xohlamasa kerak, Elteres sher.

Boshqalar uni quvvatladilar:

— Abo akaning qarorida jon bor.

— Haq gap!

— Yetti urug‘dan chiqinglar elchilikka!

Bag‘ir boshliq yetti kishi Elteresga topshiriladigan xatni olib jo‘nab ketishdi. Minganlari terlab-pishib, yurishi og‘irlasha boshlaganda chetlarini barra o‘t qoplagan buloqlar bo‘yida to‘xtardilar. Yuz-qo‘llarini yuvib, suzma ezib, chalob ichgunlaricha, harb otlari ham maysa chimdib, tin olib, yengil tortib qolardilar. Otlar mayda yo‘rtib, sag‘rilari titrab, oldinga intiladilar. Holdan toymay yeladigan shamolga qiyoslasa bo‘lardi ularni.

— Ha, jonivor, askar oti — er qanoti deganlari shu-da! Tepaga ham, pastga ham yo‘rg‘asini buzmay chopyapti. Bir qancha yergacha o‘ydim-chuqur dalalarni, tekislikni bosib o‘tdi. Keyin o‘rmonzor tog‘dan o‘tdi. Toshqin suv mavjlangan chuqur daryodan o‘tdi. O‘ydim-chuqur yerlaridan hali qori ketmagan yalang‘och adirlar bilan yurdi. Keyin qor qoplagan dovondan o‘tishdi. Keyin yana daryo. Biroq bu safar daryodan o‘tishmadi, nishablikdan tushishdi. Yana qarag‘ayzor, tol, qayinli to‘qay...Inidan yangi chiqqan qo‘ng‘ir ayiq ulardan qochmadi ham, quvlamadi ham. “Aah!”, deb ovoz chiqardi g‘azablanganday. So‘ng lapanglab borib chakalakzorga kirib ketdi. Maysa qoplagan kungay betlarda o‘tlayotgan kiyiklar odamlarni ko‘rib, seskanib bosh ko‘tarishadi. Ba’zilari hurkib gurillab qochishsa, ba’zilari xotirjam o‘tlayverishdi. “O‘tla, o‘tlayveringlar. Usiz ham qishdan arang chiqdik. Etimiz ustixonimizga yopishgan. Odamlar bizni nima ham qilishardi”, deganday katta muguzli takasi qarab turadi va sekin yuradi. Echkilari irg‘ishlab, yana o‘tlay ketishadi.

Bag‘ir yo‘lda uchragan barcha narsani tomosha qilib ketadi. Uning burchi — elchilik. O‘rdadan yo‘lga chiqib, o‘rdadagi taxtda o‘tirgan xonga ketayotgani yo‘q. Qonli qilich tutgan alp oldiga ketyapti. Haqiqatan ham, bunday elchilikning qanday yakunlanishining o‘zi bir jumboq. Qurol ko‘tarib chegarasiga kelib olganmiz. “Tizzangni buk, boshingni eg, aks holda qirilasanlar!” —

degan kabi. Elchining bu tarzda kelishi, bir cheti, biz to‘satdan bosib, seni g‘aflatda qoldirgimiz kelmadi. Qo‘shiningni sozla! Bu senga imkoniyat, degani bo‘lsa, bir cheti ogohlantirish, g‘ulg‘ula solish. Chegaraga kelgan sarkarda o‘zini ustun qo‘ydi, degani edi bu.

Hamiyatli Elteres qo‘rqib-pisib o‘tiradiganlardan emas. Olishsa olishguday askarlari bor. Uchsuv eli hozir to‘lib-toshib turgan kezi. Rostini aytganda, bularda sakkiz-o‘n tuman askar yig‘iladigan imkoniyati bor. Olishuvlarda pishgan lashkarboshilari bor. Askarlari mingulik ot, askarlari tutadigan qilich, merganlari otadigan kamon o‘qi, polvonlari ko‘taradigan oybolta gurzi va janchar — er kishilar tutgudek barcha qurol-aslaha bularda istaganicha topilar, taxt va bekam-u ko‘st edi.

Elteresning basavlat jussasini ko‘z oldiga keltirib, uning qo‘shinidagi tartib va ta’minotni yana bir xayoldan o‘tkazib: “Tavakkal, olsa, kallamni oladi. Onadan tug‘ilgan har bir erga bir o‘lim muqarrar. Mening so‘nggi nafasim Kergen itning xiyonatini yuvsa bo‘ldi”, deb o‘ylagan Bag‘ir Elteresning yoniga yetishga yana-da oshiqdi.

Bosqindan keyin uning javobini kutgan Elteresning barcha mudofaa tadorigi pishiq edi. Janchar o‘qtalib, qilich serpib, hali yovga yengilmagan Elteres o‘ziga juda bino qo‘ygan, manmanligi qiyofasidan bilinib turuvchi vajohatli inson edi.

Mingboshi mazkur xabarni keltirganda, qah-qah otib kuldi:

Ha! Ha! O‘lgisi kelgan sichqon mushuk bilan o‘ynashay debdi-da. Qirg‘iz chegaraga kelib qolgan bo‘lsa, men ajdarman-ku! O‘ng-u so‘lini to‘sib, bir bo‘g‘ib tashlayki!

Elteres shunday deya besh tuman lashkarni olib chegaraga jo‘nadi. Uchsuvning donishmandi va botiri Salim hali yo‘lga otlanmadi. U qo‘shimcha askar yig‘ish maqsadida ovulga ketgan edi. Bu safar yov qo‘shini qanchalik shiddat bilan kelishini fahmlagan Salim besh tuman askar ozlik qilishini taxmin qilayotgan edi. Uning mo‘ljalicha, tuman soni o‘nga chiqsagina kuch jihatdan ustun kelishlari mumkin edi. Lekin o‘tgan qishda Uchsuvning cho‘l taraflariga qor qalin yog‘ib, qish uzayib, chet xonlikdagi mollar yutga uchradi. Jang otlari esa qishdan oriq chiqishdi. Elteres manmanlik qilib bu xabarni nazarga ilmadi.

— Haa! Qo‘rqqan erning boshi yoriq, qoqilgan otning oyog‘i siniq?! Bizga kelgan qish boshqalarni ham besaranjom qildi. Salim bashoratgo‘y, zag‘izg‘ondan ham hushyor bo‘laman deyapsanmi! Mayli, hushyorliging o‘zingga! Qo‘rqsang kelma, yo ortimdan borarsan...

Qo‘shin sardorlaridan hech biri so‘z qotmadi. Yana Elteresning ovozi yangradi:

— Yalovdor, olg‘a yur. Qo‘shin tartib bilan yurishni boshlasin!

Shundan so‘ng endigina yashillik yugurgan yerga iz solganicha besh tuman qo‘shin gurillab jo‘nadi. Elteres qo‘shini kunbo‘yi yo‘l yurdi. Quyosh ufqqa yonboshlaganda, tuman-tumanga xabar berildi.

— Chet suvga yetganda otlar o‘tga qo‘yilsin, askarlar suv ichishib olsin. Fursatni boy bermay, qorong‘ilatib yo‘lga tushamiz. Oti oqsagan yoki o‘zi tobi ayniganlar mingboshini ogohlantirib qo‘ysin, mingboshi yuzboshiga yetkazsin. Kim dardisar bo‘lib yo‘lga to‘g‘anoq bo‘lsa, boshi kesiladi!

Sarkardaning bu eslatmasi bir necha marta aytilgan, uni har bir jangchi yodida tutar edi.

Shunday bo‘lsa ham, yana bir bor ogohlantirildi.

Kim dardisar bo‘lib tashvish keltirsa, boshi kesiladi. Kasal bo‘lganlar, tuzalinglar!

Ko‘k yuziga yulduz to‘lganda, besh tuman lashkar yoppasiga yo‘lga tushdi. O‘sha vaqtdan to tonggacha tin olmay yo‘l bosdilar. Yulduz siyraklashib, yerga yorug‘lik ina boshlaganida qo‘shin to‘xtadi.

Tuni bilan muz dovonni oshib o‘tib, qora tog‘ darasiga yetib kelgan qo‘shin yovni to‘sish uchun qulay bo‘lgan kenglikka yaqin kelib qolgan edi. Otlarga dam berilsin, askarlar kun chiqqungacha qush uyqusi qilib mizg‘ib olishsin, deb amr bergan Elteres o‘zining ko‘k chodirini negadir baland bo‘z tepalik ustiga tiktirdi. U yoq-bu yoqdan kelayotganlarning ko‘ziga chalinib tursin. Ko‘kyol bahodir hammaning ko‘z o‘ngida! Tepalik ham oddiy tepalik emas. Ikki tomonida suv hayqirib oqayotgan tepalik o‘zicha bir ma’niga egaday. Suv oqayotgan tekislik va o‘ydim-chuqur joylar qo‘shinning joylashishiga qulay manzil edi. Ikki o‘zan o‘rtasidagi

bo‘z tepalik bosh-quyrug‘i kesilgan zog‘orabaliq kabi yalt etib ko‘zga tashlanadi. Tepalik ham, tepalikdan turib qaraganda tevarak ham xuddi kaftdagidek yaqqol ko‘zga chalinardi. Hash-pash deguncha, ko‘k chodir ham ko‘tarildi. Elteres chodirga kirib, tosh yuzasiga boshini qo‘ydi. Boshi toshga tegar-tegmas xurrak otganicha uyquga ketdi.

Botirning tosh ustida uxlashi:

“Uyqu—dushman. Botirning bamaylixotir uxlashga haqqi yo‘q. Jag‘ingga tosh botguncha joningga orom ber, askar!”— degan qasamyodi edi bu.

Bu qasamyod sarkardaning o‘zidan ham ko‘ra mana bu katta lashkarga — har bir jangchining bardam, shijoatli, sog‘lom va hushyor bo‘lishi uchun kerak edi.

Lashkarboshining hozir toshga bosh qo‘yib pinakka ketganidan har bir askar xabardor. Askarlar ham ot chilvirini tagiga qo‘yib yotishdi. Har biri toshga boshini qo‘ydi. Tun-u kun tik yo‘llarni bosib o‘tgan otlar o‘tga qo‘yilgan. Tun-u kun egar ustida kelgan och askarlar hozir biroz mizg‘ish umidida yonboshlashgan. Yulduzlar siyraklashib, ko‘m-ko‘k osmon oqara boshladi. Go‘yoki olam sharq tomondan kengayib kelayotgandek. Yerga yopishib olguday o‘t chimdiyotgan otlarning iliq nafasi atrofni ilitdi, bug‘ladi. Tong shabadasi qattiq uyquga ketgan jangchilar ustida aylanib, ko‘zga ko‘rinmas yumshoq, mayin yel choyshabini yoyganday bo‘ldi. Uyqudagi bahodirlarni erkalatdi, ayadi...

Bugun yoki ertaga ikki qo‘shin yuzlashadi. Bir-biriga qilich sanchib, birining boshini biri kesadi. Mana shu uyqudagi yosh yigitlarning qanchasi toshga yastanadi. O, bu yastanish orom olish emas, mangulikka yastanish. Issiq tafti asta muzlab, abadiy sovuq tuproqqa qo‘shilish u. O, o‘sha mudhish qirg‘inning och qiyofasi, hozirda tosh ustida pinakka ketgan uyqudagi askarlar ustidan sharpasiz uchib o‘tdi. Borliq o‘lim xabarini aytib, qayg‘uga cho‘mdi.

Yer-suv ko‘pchib, rohatlanib, tepada to‘rg‘aylar qo‘shiq aytadi. Qalin qo‘shin orasidan ingichka bir tutun chiqmay, askarlar tamaddi qilib bo‘lishdi. Hozir ko‘k chodir yig‘iladi, endi yo‘lga tushamiz, deb o‘nboshi, yuzboshilar shoshtira boshladi. Biroq bo‘z tepadagi ko‘k chodir yig‘ilmadi. Otlarining ayilini tarang tortish-

gan o'nboshi, yuzboshilar tinchsizlandi. Chodir yig'ilmaganining sababi, chegara yoqdan bir guruh otliq ko'ringan. Ular shu tomonga, aynan shu ko'k chodirga kelishayotgan edi. Ana, mingan otlari kiygan kiyimlari yaqqol ko'rina boshladi.

O'n chog'li askar kuzatuvda yurgan o'z kishilari, yana yettisi begona kishilar ekanligi ilg'andi. Ana, yetar-yetmas hammasi otidan tushdi. Yot askarlar qo'lga tushgan asirlarday emas, tik qarab shaxdam bosib kelardilar. Elteresning kuzatuvdagi posbonlari oldinda edilar. Nima, ular yot kishilarga po'pisa ham qilib qo'ymadilarmi ekan?! Otdan tushgan zahoti Bag'ir ko'k chodirga qarab tikka yurib ketdi. Sheriklari ortidan ergashdi. Qo'yib bersa, Bag'ir shu ketishda chodirning ichigacha kirib boradigan. Elchilarni bu yerga boshlab kelgan qorasoqol o'nboshi ildam oldinga o'tib, Bag'irning yo'lini to'sib to'xtatdi:

— To'xtang!

Boyadan beri hammasidan boxabar Elteres chodir tashqarisiga chiqib o'tirardi. U elchilarni ko'rib qo'zg'almadi, o'nboshining so'zini kutib tek qotdi.

Bag'ir to'xtadi. O'nboshi esa besh-o'n qadam oldinga yurib, ikki qo'lini ko'ksiga qo'yib bukildi.

— Qirg'iz xonidan elchi keldi, sher!

Elteres qo'zg'almadi. Hech so'z eshitmagandek oldinga tik qaradi. "Hm.. Qirg'iz xonidan elchi...U menga elchi yuborib, haybat ko'rsatmoqchimi? Haah, qiliching singur!"

O'nboshi yana ta'zimga bukildi:

— Huzuringizga elchi keldi, sher!

— Ha! — dedi Elteres yuziga quvongandek tus berib. — Elchi keldimi?

Bag'ir to'g'riga yurdi:

— Elchimiz, Elteres botir. Qush tiliday xat olib kelganmiz. Mana, salomat bo'ling!

— Yo'q bo'ling! — dedi Elteres.

Bag'ir bu so'zni eshitmaganga olib, andak odob saqlab turdi. Bir egilib qo'ydi-da, Elteresga yaqinlashdi.

— Oliyhimmat juvonmarddan kelgan elchimiz.

Elteres cho'rt kesdi:

— Men oliyhimmat juvonmardni bilmayman. Undan elchi kutganim yo‘q!

— Bilmasliging ham, kutmasliging ham rost, — dedi Bag‘ir bosiqlik bilan, — Bobolar omonat qoldirgan harbiy udumni buzmayman, dedi sardorim. Dovonni qor qoplab, lashkar uyquda yotganida Elteres bizga qo‘l soldi. Men unday ish tutmayman, dedi. To‘satdan hujum qilish jasurlik emas, qaroqchilik. Xat yubordim! Urishadigan yerim — Sayg‘oqli maydoni! — dedi. Xolis yurtning yetti vakili kelganmiz. Mening ismim — Bag‘ir. Az elidanman. Qirg‘iz bobomning ko‘k bayrog‘iga qasamyod qilganman!

— Haa... — Elteres qovog‘ini uydi. — Dushmanimning g‘oyalarini tarqatuvchisi ekansan, unga ko‘p quvonaverma. Kallang mening qo‘limda!

— Ixtiyor o‘zingda, Elteres botir! Mening boshimni olishdan avval oliyhimmat juvonmardning xatini ol!

Bag‘ir ko‘k matoga o‘ralgan xatni uzatdi...

“Elteres sher, sen ham, senga xat jo‘natayotgan men ham oq kiygiz ustida o‘sgan qondosh yurt qulunlari edik. Ikkovimiz birlashib, chetdan kelgan yovni birga bartaraf etsak, elimiz boshidan urush xavfini ko‘targan bo‘lardik. Mollar yaylovda bolalab, askar oti bemalol o‘tlab, qo‘shchi omochini haydab, shudgorga don sepgan bo‘lar edik.

Birdamlikni men emas, sen to‘zg‘itding. Tinch elni talading. Alamzadaman. O‘ch olishga keldim. Sayg‘oqli maydonida yuzlashamiz. Yo‘q. Aybingga iqror bo‘lsang, kechiramiz. Olishsang, yo‘lga otlan. Armonda qolmaylik.”

G‘azab bilan o‘tirgan Elteresning ko‘zlari qizardi. Yonidagi lashkarboshilar gapirgani ulgurmay turib, kesib soldi:

— Elteresning tizzasi bukilgan emas! O‘ng tomonda Oltintog‘, Qangg‘ay, chap tomonda Ulug‘tog‘, tubutda mendan baland cho‘qqi bor bo‘lsa, yuksalib ko‘rsin!

Elteres o‘rnidan turib, qilichini havolatdi:

— Mana, sening o‘sha jo‘mardingga mening javobim! Elchilarni suv bo‘yida bo‘g‘izlang, mingboshi! Bular mening jang ma’rakamning qurboni bo‘lsin!

Bag‘irning yo‘g‘on ovozi qaltiradi:

— Bobolar udumini unutma, Elteres sher? Elchiga o'lim yo'q! Biz yettitamiz. Yettovimiz yetti urug' vakilimiz.

— Ie, yetti urug'dan kelgan bo'lsang, kimga qasamyod qilgansan?!

— Adolatga! Ko'k yalov — bobolarim qasamyodi. Azdan chiqqan ablah Kergen senga tayanib, ko'k yalovga xiyonat qildi. Qondosh qo'shni ellar bizga ters qarab, elim boshiga qora bulut yig'ilib qoldi. Men o'sha soyani yurtim boshidan aritay, deb keldim huzuringga! Elchiman!

Elteres yumshamadi. Battar g'azabi keldi. Ovozi balandladi:

— Elchisan, tonmayman! Yaxshilik elchisiga yaxshiligim bisyor. Yomonlik elchisiga yomonligim bisyor! Men ko'targan yarim oyli yalovning ham o'z onti bor. Sovuq xabar keltirgan kim bo'lsa ham, jang yo'lida qatl qilaman. Azning sariq itiga ishonib, oriyatim singan. Endi qora itiga ishonib, o'limga boraymi?! Yettovini yetti yerda chopib tashlanglar! Ketdik!

Shunday qilib, kechda elchilarni chopishdi. Otlar xushsizlanib, erlar o'lim topib, suv o'rnida qon oqdi. Tosh o'rnida bosh yotdi.

SAYG'OQLI MAYDONIDA

Xayrli manzil qulay topiladi.
Qo'shin sardorining aytgani

Ko'z o'ngimizda past-balandlik, o'ydim-chuqurlikdan iborat bo'lgan bepoyon Sayg'oqli maydoni!

Turfa hodisalar, qonli qirg'inlar o'tgan tekislik!

Bu manzil haqida aytilgan taajjub mish-mishlar talay haqiqatlar bilan yo'g'rilib ketgan.

Sayg'oq, sayg'oq, sayg'oqli,
Shabadasi qaymoqli.
Kanora yo'li bitmagan
Adir yo'lin ochmagan,
Oltmish tyman qo'l kelib

Bir necha kun chopishgan.
Odam, ot ham sulayib,
Suv o'rnida qon oqqan,
Tosh o'rnida bosh yotgan.

Mashhur Sayg'oqli maydoni har bir askarning ko'z o'ngida. Bu yalanglikdan sharqqa qarab yurganda yakka otli chavandoz o'n besh kunda, qo'sh otli chavandoz o'n kunda tabg'ach hududiga kirib boradi. U yoqlarda ot kechib o'tolmaydigan daryolar bor. O'rtada tuprog'i to'zg'igan, sarob qoplagan Kapacho'li bor. Undan naridagi bo'z tuproqdan tiklangan uzun qal'aning boshuchi ko'rinmaydi. Bir cheti Ulug'toqqa tutashsa, bir cheti yerning narigi burchagidagi ulkan dengizlarga borib tutashadigan bu qal'a devori yil sayin mustahkamlanib, balandlatib turilgan, deydilar.

Hozir ikki taraf bo'lishib, bir-biriga qilich o'qtalib, yovlashib yurgan ikki qo'shinning qadim ota-bobolari quyunday hamla qilib, qushday uchib, qaydan kelib, qayga ketganini jumboq qilib suronli qirg'in boshlab, o'sha tabg'ach elini tor-mor etib yurishganida, tinib-tinchimagan tabg'achning uch yuz ming kishisi tun-u kun mehnat qilib, shu buyuk qal'ani tiklagan, deb rivoyat qilishadi.

U zamonlar o'zicha bir ertak, nihoyasiz qissa. Shuningdek, o'sha uch yuz ming kishi talay fursat mashaqqat tortib, uzun qal'ani qurganlaridan keyin oradan roppa-rosa o'n besh yil o'tib, O'g'uz alp tabg'achga hujum boshladi.

Botir egarda qaridi, ot yo'lda horidi. Qirg'in-barot to'xtamadi. Tabg'achning nayrangi ortdi. Berigi O'rta kenglikda qo'shini tor-mor etilib, siyraklashib borayotganda qal'alariga yashirindilar. Ko'k darvozali qoraygan qal'a g'oyat mustahkam va mahobatli edi. Suron solib kelayotgan otliqlar o'tishga imkonsiz g'ovga uchraydilar. Qal'a devori baland. Askarlar ko'rinmaydi. Paydar-pay kamon o'qi yog'iladi. Behuda o'lim topmaylik, deganlar tizgin tortib, qal'adan uzoqlashadilar...

Tabg'achning qal'aga berkingani ham, ko'chmanchilarning qal'adan uzoqlashganlari ham o'ziga xos bir qissa.

O'g'uz alpning qashqirdek alp yurakli Quyon botiri o'n yillik urushda biror marta ortga chekinmadi. Yengilish nima ekanligini

bilmadi. Tabg‘achning qilich serpigan qahramonlarini yakkama-yakka janglarda yengdi. Ko‘p sonli dushman qo‘shinini jang maydonida mag‘lub qildi. Yumshoqdan — ipagini, qimmatdan — oltinini, suluv qizlarini o‘lja qilib oldi.

Shunday qilib Quyon alp o‘n yil bo‘yi tabg‘ach yerlarini quyunday sovurdi. Tabg‘achga ajal yog‘dirdi, elini tahlikaga botirdi. Quyon o‘zi yengilmadi. Bir safar Quyon botirning bir tuman lashkariga tabg‘achning uch tumani yuzlandi. Shu Sayg‘oqlining kunchiqar tomoni — O‘rta kenglikda jang boshlandi. Uch kun-uch tun tinimsiz jang bo‘ldi.

Tabg‘ach qo‘shini son jihatdan ustunligini qildi, Quyon botirning qo‘shini qurshab olindi. Tabg‘ach Quyon va uning askarlarini bahaybat ilon misoli qisib kela boshladi. Oo, asl alpning tepasida ajal chirillay boshladi. Endi qo‘shin yoppasiga qirg‘in topadi, deguncha bo‘lmay....! O‘rtadan quyun ko‘tarilganday, yer teshilib, guvillab bo‘ron otilib chiqqanday — qandaydir sirli kuch tabg‘ach qo‘shinini to‘zg‘itib yubordi, ortga chekintirdi. Surib, qisib kelayotgan uch tuman qo‘shin parokanda bo‘lib ketdi. Sanoqsiz zag‘chalar qarchig‘aydan hurkkani kabi, uch tuman lashkar sochilib, yalanglikda otliq-piyoda askarlar qumursqaday uymalab qolishdi. Maydon yuzi qorayib, g‘imir-g‘imirga to‘ldi.

O‘qlar uzluksiz vizilladi. O‘qdan ko‘ra Quyon alpning otliq botirlari uchqur. O‘q yetmaganni otliq ta’qib etar, qilich serpiydigani, janchar sanchadigani, oybolta uradigani — bari tabg‘achning sillasini quritdi.

Quyon botirning qo‘shini ustun kelib, yana tabg‘ach qo‘shinini uloqtirib tashladi. Ayovsiz qirildilar. Quyon askarlarining ajali yetganlari ham shunqor bo‘lib uchdi...

To‘rtinchi kuni tongda O‘g‘uz alpdan uch tuman lashkar Quyon botirga ko‘makka keldi. Otlari hali toliqmagan, o‘zlari bardam uch tuman lashkar tabg‘achni sirtdan chambardek qisib kela boshladi. Qochganning yo‘li to‘sildi. Qocholmagani turgan yerida ajal topdi. Uch tuman tabg‘ach qo‘shinidan biror jangchi tirik qolmadi. Jang maydonda o‘ttiz ming tabg‘ach askari qirildi, o‘liklari maydonda qoldi. Biroq jang maydonidagi askarlar jasadi o‘ttiz mingdan ortiq edi. Sababi, Quyon lashkaridan ham ozmunchasi

qirilmadi. Quyon alpning askarlari tabg'ach qo'shinidagi otlarni o'lja olib, minib-yetaklab ketgan kunning ertasi tabg'achdan yana besh tuman qo'shin jang maydoniga keldi.

Bu vaqtda O'rta maydonning bepoyon hududi ot va inson o'ligiga to'lib, badbo'y hid anqib yotardi. Jangga ketgan o'ttiz ming qo'shin dom-daraksiz ketganligidan, Vey Xu ellik ming qo'shinni boshlab kelgan edi. U ot arang ko'targan alp bahodir edi. Kelbati haybatli, qalin qora qoshlari yig'ilgan qanotchalardek, ko'zlari porlab turadigan bu sardor kimsaga tik qaraganida nigohi teshib yuborgudek o'tli, qirra burunli, ixcham qora soqolli qaddi-basti kelishgan odam edi. Hujumda chekinmay, qilichni tikka chopadigan alp, raqib tomon urush rejasini tez payqab oladigan makkor Vey Xu ko'z oldidagi yalanglikda qorayib-bo'zarib, yerning past-u balandini tig'iz qoplab yotgan o'z askarlarini ko'rganda...qo'shin bemalol uxlab yotibdi, deb o'ylab, lashkarboshilardan g'azablandi.

— Oftob ostida, to'rt tomondan ko'zga tashlanadigan sayhonlikda ham uxlaydimi odam?! Nima balo, hammasi qirilib bitganday sulayishadi... — deb achchiqlangan.

Shundan so'ng Vey Xu boshchiligidagi ellik ming qo'shin yalanglikka yaqinlashib kelishdi. Uzoqdan dam olayotgan bo'lib ko'ringan qo'shin qirg'inga uchrab, mangu uyquga ketganini ko'rgan alp Vey Xuning hushi boshidan uchdi.

Lashkarboshilar ham, askarlar ham yer betini qoplagan jasadlarni ko'rib seskanib ketishdi:

— Ha, bu shunchaki qirg'in emas, bizni Osmon jazolagan..

— Qilich tutib, jangga kirib, bunday qirg'inni ko'rmaganman.

— Bu gunoh!

— Oltinga ko'z to'yavermasa, qo'shin qiriladi, deganlar.

Chuqur o'rlarga jasadlar uyilib qolgan. Go'yoki u yerda yovning bir botiri qurshab olinib, hammani o'ldirib, so'ng o'zi o'lganday... Bir necha tabg'ach askarlarining jasadi o'rtasida cho'pqut kiygan basavlat odamning jasadi chalqancha yotardi. Boshidan dubulg'asi tushib ketgan. Tabg'ach askarining ustiga bosh qo'yib uxlab qolganday go'yo...Basharasining ko'karib ketgani, quloq-burniga qo'nib olgan ko'k chivinlarni demasa, sokin uxlab yotganday edi.

Vey Xu bu noma'lum jangchini ko'rgan zahoti o'tgan yili O'g'uz alp bilan yuzlashganini esladi. "Quyunday hamla qiladigan bu yurtning quturgan qashqiri Mode emasmi bu?! Yo'q, u quturgan Mode emas, uning lashkari safidagi biror dovyurak jangchi!"

Vey Xuning yuragi shuv etib ketdi. Ellik ming qo'shinni boshlab kelgan sardor o'lib yotgan botirdan emas, ko'z o'ngidagi manzaradan qo'rqdi. O'ttiz ming qo'shindan biror jon omonlik topmagan jangning suroni, haybati, vahshati ko'z o'ngida jonlandi.

"Haa, ajdarning qarg'ishi urdi bizlarni.. Dushmanning yulduzi yorug', bizniki esa qorong'i. Bu yilgi janglarda qirilamiz, g'alaba yo'q endi."

Vey Xuning ko'z o'ngidan allaqanday zo'r-zo'r oqbo'z otga mingan vallomat kishilar chopib o'tganday bo'ldi.

Vey Xu chindan qo'rqib ketdi. G'azabini yutib, oshig'ich amr berdi:

— Jang tugadi, qo'shin ortga qaytsin!!!

Dasht yuzini qoplab, to'dalanib cho'zilib yotgan o'liklarni ko'rgandayoq esxonasi chiqib ketgan ellik ming askardan biron kishi "g'ing" demadi. Botirlarning yulduzi so'ndi. Piyoda askarlar dahshatga tushdi. Katta qo'shin chayqalib yana harakatga keldi.

Urushlar tamom bo'lmadi. Ba'zada do'piratib do'l yog'ib, ba'zida qor aralash yomg'ir shivalaganidek, yurish, urushlar birda kuch olib, qirg'in qirg'inga ulanib, qayta bosilib, pasayib turdi. Qang-g'ayning Qoratog'i, Oltintog', O'rta maydon oralig'ida alp O'g'uz bilan tabg'ach podshohining qo'shini olishuvini to'xtatmadi.

Yildan yilga jang ham, talon-taroj ham ulana berdi.

Oradan yillar o'tib, katta jang bo'ldi. O'g'uz alp qirq tumanni boshladi — ko'p yillik janglarda chiniqqan dovyurak alp-botirlar, tumanboshi, mingboshi, o'nboshilar...

Bu safar ham tabg'ach qo'shini maydonda O'g'uz alpning hujumiga dosh berolmadi.Ular ortga chekinib-chekinib, hiyla bilan jang qilishdi. O'g'uzning qo'shinini qiziqtirib, o'ljaga chalg'itib, g'azabini qaynatishdi. To'satdan tabg'achning otliq-yayov sonsiz askari O'g'uzni qurshab olib, shashtini pasaytirib qo'ydi. Qo'shinini qirg'inga uchratdi. Qilichini sindirdi. O'zlari yengilgan, chopilganday bo'lib...qal'aga chekina bordilar.

O‘g‘uz alpning norozi qo‘shini yaralangan arslonday o‘kirdi. Tabg‘achning behisob qo‘shinini qirib, o‘zlari ham qirilib, yovni ta’qib etaverishdi. Kuz fasli yaqinlab qolgan, osmonni qora bulut qoplagan edi. Bir necha kundan beri yomg‘ir ham yog‘may, quyosh ham ko‘rinmay, osmon va yer o‘rtasida qora bulutlar quyuqlashaverdi.

Boyadan beri janub tomonda quloq-miyani yeguday chirillayotgan sug‘ur iniga yashiringanday, bir necha kundan beri yo‘llarni to‘sib, suron solib, chopishib yurgan tabg‘ach qo‘shini tayinsiz yo‘q bo‘ldi. Ular tund qoraygan osmondan qo‘rqib ketishdimi? Yoki uzluksiz jang holdan toydirdimi? Dom-daraksiz. Ko‘kka singib ketgan tutun misoli qayga yo‘qolgani tayinsiz. O‘g‘uzxon qo‘shini Buyuk Qal’aga yetib bordilar. Lashkarboshilar bu safar g‘azabga mindilar:

— Inson qurgan bo‘z tuproqni inson oshib o‘ta oladi.

— Biz tabg‘achning tomidan qaytib keta berib, bularni qutirdirdik.

— Darvozasini sindiramiz.

— Qal’asini qulatamiz.

— Bu safar yovni yoppasiga yanchib tashlaymiz. Talon-taroj qilamiz.

Qo‘shin qal’ani qamal qildi.

Quyon botir besh tuman askar bilan qal’aga kirdi. Biroq...

Bu safar Quyon alpning askarlaridan birontasi qal’adan qaytib chiqmadi. Jodu urib, shamol uchirib ketganday, ellik ming qo‘shin dom-daraksiz qirg‘inga uchrab ketdi. Qal’ani qamal qilgan tashqi qo‘shin ham holdan toyib, qatori siyraklashib bordi. Hammasidan dahshatlisi — tabg‘achni yengib, bo‘ysundirib kelayotgan O‘g‘uz alp qo‘shini o‘zlari qironga uchrab, bo‘ysunib borayotganlarini dastlab payqashmadi.

Keyinchalik qirg‘indan omon qolgan lashkar O‘rta maydonni, Qudanlining dalasini, shu Sayg‘oqli maydonini ohifig‘oni falakka o‘rlab, yig‘lab-siqtab bosib o‘tishdi.

O‘o‘, hisobli dunyo! Qanchalar murakkab, qanchalar chigal, qanchalar huzurbaxsh, qanchalar ayanchli va g‘amnoksan!

Evoh, sening siring nimada o‘zi?...

Qadim zamonda shu ko‘chmanchi yurtda yashagan bir donishmand nabirasiga nasihat qildi:

— Qush uyada, kiyik o‘rmonda o‘sadi. Inson esa uyda ulg‘ayadi. Biz tikkan bo‘z uy — sharaf uyi. Bo‘z yer yashnab-yashillanib, to‘rg‘ay navosi atrofga taralib qolgan paytda yashil qo‘nishlarga ko‘rk bo‘lib qo‘nadi bu uy! Yashil to‘rda, yashil tuzda, daryo bo‘ylarida bo‘z uy oqarsa, osmon quvonadi. Uvuz qimiz[1] ichib, alp keragaga oyoq bosadi.

Ehhe, u huzur-halovati yozida bor-u, qishida bo‘lmagan yurtim! O‘sha yozdagiday, belbog‘ni yechib, oyoq artgudayin issiq go‘sha bu — qal’a shahri!

— Qani bolalarim, bir shahar-qal’a quramiz! — dedi o‘sha bobo.

Boboning so‘zini eshitganlar tuproq ivitib, loy qorib, uy tiklashni o‘rgandilar.

Buyuk Qal’a qurishdi. Tog‘-toshga, dala-dashtga chiqib ketganlar shaharchaga yaqinlashdi.

Ehh, falokat! Bu falokat degani qosh bilan qovoq o‘rtasida turadi..

O‘sha zamonda qo‘shin boshqarib yurgan bir alp uxlab yotsa, tushida g‘oyibdan nido eshitildi:

“Makoningda qiyomat qo‘padi. Tez otlan! Ochiq joyga ket!” — dedi haligi ovoz.

Alp apil-tapil kiyinib, otiga mindi...

O‘sha zahoti yer guvilladi. Shiddat bilan qattiq-qattiq silkindi. Shahardagi uylar to‘zg‘ib, tuproqqa aylandi. Tosh qal’a maydalanib, qumga aylandi. Yig‘lagan bola, faryod urgan onaning ovozi kelmadi. Botirning oti chang-to‘zondan hurkib ketdi. Alp toqqa qarab yo‘l soldi. Toqqa yetib kelib qarasa, yilqichi tikkan bo‘z uy omon, kishilar shirin uyquda. Botir u yerda qimiz ichdi, biroz qayg‘usini bosdi. Sal o‘ziga kelib olib, yana otlanib, yo‘lida davom etdi.

Botir podachining bo‘z uyiga keldi. Podachining o‘g‘li yog‘och oyoqda qatiq ichib o‘tirardi. Hech so‘z demay, yana yo‘lida davom etdi.

[1] **Uvuz qimiz** — qulun tug‘ilgandan keyin 10 kungacha biyadan sog‘ib olingan sutdan tayyorlangan qimiz.

Botir cho‘ponning uyiga keldi. Cho‘ponning qizi piyolada qo‘y suti ichib o‘tirardi. Botir qo‘y suti ichib, kuyukkanini bosdi. Biroz qayg‘uga cho‘mib o‘tirdi. Yana hech kimga indamadi. Otiga minib, yo‘lida davom etdi.

Botir yo‘ldi yolg‘iz borardi. Yo‘lda unga begona odamlar yo‘liqdi. Ular botirga yolvorib, tikilib turishardi. Lekin botir ularning tilini tushunmadi. Botirning gapiga ular ham tushunmadilar. Botir bu xil tushunmovchilikdan bezor bo‘lib, nima qilishini bilmay turganida, bu begona kishilarning musofir ekanini payqadi. Ular hamon botirga iltijo bilan tikilib turishardi. Hammasi ozg‘in, aftodahol. Faqat tillashadigan bir odam yo‘q oralarida. Shu payt botir mingan ot kokiliga bir g‘aroyib chumchuq uchib kelib qo‘ndi. Chumchuqning kattaligi besh yashar qizaloqning bosh barmog‘iday kelardi. Chumchuq botirga talpinib chug‘urladi. Rostakamiga inson tilida so‘zlay boshladi. Gapini botir ham, narigilar ham tushundi.

Chumchuq botir haqida bu musofirlarga bayon etdi. Ular yer o‘pdi. Ko‘kka boqib, kaftini yozdilar. Sevindi, desa, sevinch emas, yig‘lashdi, desa, yig‘iga o‘xshamaydi, o‘z tillarida chuldurab, ko‘p so‘zladilar. Keyin o‘sha ozg‘in, muztar kishilar haqida chumchuq botirga shunday bayon etdi:

“Ayo botir, sen bir qal’adan yolg‘iz o‘zim qoldim, deb kuyinma. Ko‘z oldingda turgan shu och-nahor odamlar janub tomondan dovdirab kelishyapti. Bular qo‘li gul usta, tilsim ochgan hakim, bichik[1] yozgan donishmand kishilar. Bularning bobolari g‘aroyib shahar-qal’a qurishgan. Ko‘chalari oynaday, uylari oq qoyaday, chorbog‘larida turfa ekin-tikin yetilgan. Ajdoddan-avlodgacha bu rohat-farog‘at davom etgan. Lekin bu dorilomon kunlar uzoqqa cho‘zilmagan. Falokat kuttirmaydi, botirim.

Bu elning o‘sha go‘zal shahar-qal’asi qish bo‘lmaydigan o‘lkalarning iliq suvli dengizi bo‘yida gullab-yashnab, yildan-yilga rivojlanib borayotganda...O‘sha issiq yurtning dengizi notinchlana boshladi. Uzluksiz bo‘ron turib, qal’a tomonga to‘lqinlar kelib urila boshladi. Tog‘day to‘lqin shaharga loyqa suv surib kelib purkadi. Bo‘tana suv to‘lqinlari har tomonga urila boshladi.

[1] **Bichik** — qalmiqlarning muqaddas kitobi.

Qal'ani suv qopladi. Hammasidan yomoni bu loyqa to'lqinlar tajovuzi yildan-yilga ortaverdi. Quturgan to'lqinlar go'zal shaharni loyqa suvga qorib tashladi. Shundan keyin shahar aholisi to'lqinlarni to'sib qoladigan baland istehkom qurishdi. Istehkom o'q yetmas baland, qalinligi po'lat tesholmaydigan darajada mustahkam bo'ldi.

Oo, loyli to'lqinlar u qal'a-istehkomni oshib o'tolmadi, deysizlarmi? Bo'ron yildan-yilga cho'zildi. Dovul yildan-yilga kuch oldi. Ehh, guvillab-shovullab to'lqinlar oxiri shaharni bosdi. Oo, u g'aroyib shahar-qal'a hozir yer ostida qolgan. Qal'a aholisining ko'pchiligi uy-joyi bilan suv ostida qolib ketdi. Ozchiligi duch kelgan tarafga qarab tentirab ketdilar. Shulardan bir guruhi hozir oldingda, senga yolvorib qarab turishibdi, botir.

G'aroyib chumchuq chirqillab qo'ydi. Keyin yana inson kabi so'zlab dedi:

— Botir, yolg'iz qoldim, dema. Shu g'ariblarning bag'rini ilit. Qizi yoring bo'lsa, o'g'li ining bo'lsin. Qarisini ota de. Huv anavi dala-dashtda mol asrab, ekin ekib, omon qolgan elatlarga qo'shib, avlodingni davom ettir, botir!

Sirli chumchuq shunday deb bir silkindi, keyin talpinib "pir"-etib uchib ketdi.

Botir adashgan-uloqqan kishilarni boshlab, bo'z uyda yayrab yashayotgan urug'lari oldiga keldi. Shundan keyin bizning yurt uylarini ta'mir qilish, bezashni o'rgandi.

O, odamzotning qo'l hunarida nihoya yo'q ekan.

Shuning uchun bizning ajdodlar tirikligida yer ustida tosh uy qurishmadi. Ular boqiy dunyoga safar qilishganida ...ortida qolgan avlod unga bag'ishlab yer tubiga qulay uy qilishadi. O'sha uyga mayitning jasadini, tulpor otini, po'lat qilichini, oltin va kumush idishini, harbiy kiyimini, taomini — barcha kerakli anjomlarini batamom sig'diradilar. U uy deganlari yosh qarag'ay, hech qachon chirimaydigan archa daraxti va tosh gumbazdan iborat. U uy sovuqda yorilmaydi, issiqda to'kilmaydi, zilzilada silkinmaydi, loy to'lqinlar bosolmaydigan — bu uyda bobolarning ruhi bor!

Qon to‘kilgan qirg‘inbarot janglardan so‘ng bo‘z yer betida shunday gumbazlar ko‘tariladi. Ular bugun bizning tengqurlar bo‘lsa, keyingi nasllarga bobo!

Shu muqaddas e’tiqodga qat’iy ishonib kelgan kishilar jang borayotgan paytda ham, o‘zlari bo‘ysundirgan qal’a ichida ham uzoq qolib ketishmas edi.

“Qal’a bizga yoqmadi, biz erkin qushmiz!” degan botirlar o‘zlari bo‘ysundirgan yurtni ham tashlab chiqib ketardilar. Rost, qal’a aholisi tizza bukib, bosh egib, tez bo‘yin sunsa, jonlari omon qolar edi. Yo‘q, el bo‘ysunmay, katta-kichik barobar qurol ko‘tarib olsa, tosh qal’alarga berkinib, qo‘shinni ko‘p ovora qilsa, unda u qal’a bo‘ysunmayoq o‘zini yakson etgan bo‘ladi. Unday ham bo‘lmasa, O‘g‘uz xon lashkari ularni yakson etadi.

Besh tuman qo‘shini bilan Quyon botirning qal’aga kirib g‘oyib bo‘lgani sababini O‘g‘uz xonning odamlari bu mash’um qal’aning o‘sha o‘zlarini cho‘chitgan noma’lum siridan, deb bilishdi.

Dono hakimlar shunday vasiyat qoldirishgan:

— Tabg‘ach qurgan tosh qal’ada qora jinning joni jo bo‘lgan. Qal’ani olsangiz, sinchisini yo‘qoting. Kuychisini o‘ldiring. O‘zinglar qal’ada turmanglar. Qal’ada o‘sgan dushman qo‘shinini dashtga hayda. Qal’adan olisda, tog‘-toshda ularning qo‘llaydigan qora kuchlarning holi quriydi.

Qal’adan chiqqan qora yov qancha ko‘p bo‘lsa bo‘lsin, ular ochiq maydonda ojiz. Qilichingni tikka chop, jancharingni zarb bilan ur, mening askarim!

Dala-tuzda senga haybat ko‘rsatadigan holi bo‘lmaydi u qora yovning!

Xuddi shu o‘gitni yodida tutgan Quyon botir ham huv o‘sha jangda o‘zining bir tuman askari bilan tabg‘achning uch tumanini yenggan. Shu o‘gitga amal qilmay, qal’aga kirib... besh tumanni qora kuchlar hamlasiga tutib berdi. Quyon botir o‘zi ham o‘ldi. Uning aziz joni qora kuchlar olovida kul bo‘ldi. Asl erning jasadi oyoqostida betayin yo‘q bo‘ldi.

Alp Quyonning qahramonliklari turli-tuman misollarda el ichida zarbulmasal namuna bo‘lib qoldi. Uning qal’aga kirib g‘oyib bo‘lgani ham el ichida naql bo‘lib qoldi.

Shundan keyin qaysi lashkarboshi qal'ani qamal qilsa, uni ayovsiz qaqshatdi. Chopsa, qattiq chopdi, o't qo'ydi, qiyratdi, biror jonga omonlik bermay qirdi. Askarlar emas, el zoye qirilmasin, degan lashkarboshi qo'shinni boshlab, kenglikka chiqib ketadigan bo'ldi.

Bo'z yer betida yalanglikdan ko'pi bormi?

Qulonli tekisligi, Qulunli tekisligi, Sol dala, Quyonli tekisliklari, Katta tekislik, O'rta tekislik...Qo'yingki, aytib o'tilgan buyuk tekisliklar so'nggi asrlarda qanchadan-qancha ulug' janglarning guvohi bo'lgan.

Bu tekisliklarda qon buruqsidi, shaytonlar bazm qildi.

So'ng katta sulola necha bor siyraklashib, katta-yu kichik qayg'uga cho'mdi.

O! Ola qanotli burgutni tong chog'ida qirqiratgan alp zamon! Uning tolmas mirishkori alp-bobo!

Sening tabarruk qadriyatlaringga qoyil qolaman...hozir. Huv o'shanda, Sayg'oqli maydoniga jangga kelganlar urug'idanman, deyman. Alqissa...Bu buyuk jang, qonli urush "Ulug' so'z" aytmishida o'zicha bir doston...

YAKKAMA-YAKKA JANGDA

Qo'rqib yurib birovdan
Qo'raga mol yig'madim,
Yalinib yurib birovga
Yaylovga mol yig'madim.
Ovulni to'ldirib yig'ayin.
Omonat jonga bir o'lim.
Nomus uchun qiyayin...

Manas

Dushman qanchalik ko'p bo'lmasin, hayiqmay, tog'dan qulagan tosh misoli sirg'alib kelib yovni quvib, kun-tun demay, o'pqon-jarlikka qaramay yov safini yorib o'tib, tit-pitini chiqarib tashlaydi. Yo o'zi o'ladi, yo dushmanni quvlab chiqadi. Bunday botirlarni — "Shavkatli kishi" — deb atashgan. Bunday botirlar qirg'izlarda ko'p bo'lgan. Eng zo'r botirlar o'shalardir.

B. Soltonoy o'g'li yig'gan ma'lumotdan

Qo‘shin Sayg‘oqli maydonining g‘arb tomoniga siqilib keldi-da, yuzma-yuz to‘xtadi. Ikki qo‘shin o‘rtasidagi yashil o‘t qoplagan kenglikning o‘rtasi biroz chuqur tortgan, maydonda biror buta yoki to‘nka ko‘rinmasdi. Onda-sonda oppoq toshlar ko‘zga tashlanadi. Mayda-mayda do‘ngliklar turtib chiqqan, ular do‘nglikmi, o‘t siyrak o‘sgan yermi — aniq ilg‘anmaydi. Maydonning boshdan-oyog‘i g‘unon chopim masofa — 7–8 chaqirim keladi. Qo‘shin yuzlashgan oraliq qichqirsa, ovoz yetguday.

Ikki qo‘shin ham yalpi otliq. Otlar tinch, askarlar xotirjam. Xo‘mrayib, hissiz, bir-birlariga ro‘para turishardi. Olisdan xezlanishib, olisdan adovatini sochishardi. Biri-biriga tashlanguday bari nafrat va xusumatga to‘la. Olishadigan g‘animiga olisdan tikilib, kekini bildirib, unga g‘azabini qaynatib, o‘z harbiy salohiyatini namoyish qilib qo‘r to‘kishar, kuchiga kuch qo‘shilgandek o‘limdan ham toyishmas edi. Qo‘rquvni yengish askarni g‘anim bilan tap tortmay urushishiga sabab bo‘ladi. G‘animga jang paytida makkor, abjir, uddaburon bo‘lishning o‘zi kamlik qiladi. Askar jangga kirishdan oldin g‘animidan nafratlanishi, o‘zining qilich ko‘tarishini adolatdan deb bilishi, dushmanni el baxt-saodatiga chovut solayotgan qora niyat, balo deb bilishi zarur. Anashu oq niyat uchun qilich sug‘urgan jangchi yovni yengmagunicha charchoq bilmasligi kerak. O‘limdan qo‘rqib, ot tizginini burib, ortga qochmasligi kerak. Askar qochish uyoqda tursin, alp bilan yuzlashsa ham, botir bilan yuzlashsa ham, unga tik boqib, janchar o‘qtalishi, qilich serpishi kerak.

Tobiga kelib, chiniqqan askar hech qachon qo‘rqmaydi, charchamaydi, qochmaydi. U qo‘lini ko‘tara olmay qolguncha chopishadi. Agar yov tomonidan boshi kesilayotganda ham haqiqat uchun qurbon bo‘ldim, deb o‘z o‘limiga rozi bo‘lib, yiqiladi.

O‘q orqasiga sanchilsa, janchar ortiga urilsa, o‘sha jangchi qochoq qatoriga kirib, o‘zining ko‘lankasidan ajal topgan qo‘rqoq qatori qarg‘ish topadi. Jasadi ko‘milmaydi. Shu holicha qoldirishni xohlamagan biron yaqini eplab yerga topshirmasa, boshqalar undan nafratlanadi. Marhumning ko‘milmay qolishi — cheksiz xo‘rlik, nomusni toptaydigan odat, bunda butun qavm-qarindoshning boshi nomusdan egilib, yulduzi so‘nadi.

Marhumlaring ko‘milmagan?! — deb xo‘rlashadi ularni boshqalar.

Azman abo, Chekir biy, Erkishi Bag‘irni elchilikka yuborganlarida, bir tarafi harbiylikning tabarruk udumiga rioya qilishsa, yana bir tarafi o‘z askarlarining oriyatini ko‘tarish uchun harakat qilishdi.

Elteres oldiga kelgan elchining aytganini qabul qilib, qilich sug‘urmay, bosh egmasligi Azmanlarga ma’lum edi. To‘g‘ridan-to‘g‘ri chegarasiga kirib borsak, Uchsuv yurtini g‘aflatda qoldirgan bo‘lamiz. Bizga tavqi la’nat ilinadi. Undan ko‘ra chopar yuboraylik. Boshlagan ishimizning haqligi askarlarga ham ochiq-oydin ma’lum bo‘ladi. Ular haqiqat uchun ayamay savashadi, deb qaror qilishgan edi.

Lashkarboshilar bu fikri bilan juda oqilona qaror qilgan edilar. Qahrli Elteres huzuriga borgan chöparni so‘ydirib tashlashi bilan o‘zining hech qachon murosaga kelmaydigan naqadar yovuz qora kuch ekanligini yana bir bor ma’lum qildi. Begunoh Bag‘irning elchilikka ketib, qaytmay qolishi sarkardalarninggina emas, askarlarning ham g‘azabini qo‘zg‘atdi.

— Elchiga o‘lim bormi?

Elchini o‘ldirish — elni bosib olish.

— Urishar ekanmiz endi. Qirilishar ekanmiz... Askarlar shu taxlit so‘zlashardilar. Hozir huv qarshilarida turgan Elteres qo‘shini bilan yuzlashib turgan qirg‘iz askarlarining har biri qalbida shu intiqom bilan turardilar:

“Elimizni talading, elchimizni o‘ldirding. Urishamiz, qirilishamiz sen bilan!”

Qo‘shin shunday g‘azabnok edi.

Elteres botirning ham keki bor edi. Uning ham o‘zicha adovat qilishga, o‘chakishga haqi bor edi. “Men mo‘r-malahday tabg‘achga qarab yo‘l olsam, ortimdan janchar sanchadigan dushmanimsan, sen, Odiltoy. Mendan baland cho‘qqi bo‘lging kelyapti. Hammadan o‘zging kelyapti. O, yo‘q! Uchsuv yurtida qut bor, kuch bor. Uning sarkardasi — sher. Hali hammangizni o‘ziga yem qiladi”.

Shunday deya Elteres lashkarboshilarini ham, askarlarini ham hammadan balandga qo‘yar, “Biz kuchlimiz, kuchliga yov taslim

bo‘ladi. Atrof-javonibdagi qondosh yurtlar ham bizning tasarrufimizda bo‘ladi. Rozi bo‘lishmasa, kuch bilan bo‘ysundiramiz. Tik turgani tizza bukadi, boshi balandi bosh egadi. Unday qilmasa, qiramiz”, — der edi.

Elteres sher elchini nazar-pisand qilmay, o‘z askarlarining ko‘z o‘ngida Bag‘irni sheriklari bilan so‘ydirib yuborgani sababi ham shu edi.

“Buni ko‘rgan askarlarimga shijoat kirsin. Elchisi o‘ldirilgan g‘animimning esa kuchi sinsin”, — deb o‘ylagan edi Elteres. Biroq ish Elteresning o‘ylaganiday bo‘lmadi.

Uch tuman askar yig‘ib keyin ortidan yetib kelgan Salim qattiq tashvishga tushdi:

— Elteres sher, elchiga o‘lim yo‘q-ku! Elchisi o‘ldirilgan el endi elchilikka kelmaydi. Yetti kishi o‘ldirilgan, so‘zi yerda qolgan. U tomonda ko‘p tuman lashkar qasos o‘tida yonyapti-ku! Eh, bu shoshma-shosharlik, mardlik emas, sharmandalik. Sarkarda bunday ish qilsa, o‘z qo‘shiniga ziyon keltiradi..

Salimning noroziligi Elteresga yoqmadi. U old oyoqlarini ko‘tarib sapchiyotgan katta burul otida o‘tirgancha qahrlanib dedi:

— Men o‘z qilichimni o‘tkirladim. Raqibning qilichi menga desa, toshga urilsin. Salim botir, sen askarlarni tergayverma, ularni tergasang, qilichimni o‘tmaslashtirgan bo‘lasan!

Shu tortishuvdan keyin Elteres bilan Salim orasiga sovuqlik tushdi. Ammo bu sovuqlik bu ikki botirni ajratib yuboradigan sovuqchilik emas, aksincha, yana-da yaqinlashtiradigan sabab edi. Ikkovi ham o‘z fahmicha g‘alaba rejasini tuzishardi. Salimni xafa qilgan narsa o‘sha elchining o‘ldirilishi edi. Hech unutilmaydigan o‘ch oladigan ish edi bu. G‘alabani faqat qilichning tig‘iga oyboltaning salmog‘iga qarab belgilash xavfli. Urush faqat qon to‘kish yoki nafrat sochish emas. Urushda, “Tosh yorgan bolta kengashda bosh yormas”, degan shiorni Salim ko‘p qo‘llardi. Sarkarda aqlli bo‘lsa, qon to‘kmayoq dushmanni taslim qiladi. Tangri qon to‘kishni yirtqichlarga bergan. Inson bolasiga esa aql, makr va bag‘rikenglikni bergan. “Qilich tig‘i bir boshni kesar, o‘n boshni kesar, so‘ng dami qaytadi. So‘zning o‘tkiri aytgan sayin o‘tkirlashadi. Oybolta kesa olmagan boshni jo‘yali

so‘z egadi. Dushman bilan urishavermay, avval tillash, fikr almash”.

Shu qoidaga amal qilgan Salim bilan qurolning salmog‘iga ko‘ra ish tutadigan Elteres ko‘pincha kelisholmay qoladilar. Vaziyat esa Elteres tusmollaganday emas, Salim aytganday bo‘lib chiqardi. Elteres noiloj Salimga yon berardi. Hozir ham Elteres o‘z ishi Salimga yoqmaganidan hushyor tortdi.

Avvalgi katta janglarda Elteres yengilsa, mag‘lubiyatni dushmanning kuchidan emas, o‘zi yo‘l qo‘ygan yanglish rejalardan ko‘rardi. O‘zini raqib sirini bilmaydigan no‘noq sardor, aqlsiz, nodon rahbar qatori hisoblar edi. O‘zidan-o‘zi nafratlanib, o‘zini-o‘zi yozg‘irardi. Hatto o‘zini-o‘zi jazolashdan ham qaytmas edi. Elteres sherning boshqa sarkardalardan afzalligi shunda edi. Lekin bu sifat Salimda yo‘q. Elteresdan Salim faqat shu jihati bilan ortda. U o‘ziga g‘oyatda ishonadi, o‘z kamchiliklarini ko‘ra olmaydi. Ikki bahodirni yoqalashtirgan sabab ham har birining o‘ziga tegishli bo‘lgan, o‘zlari to‘g‘ri deb bilgan aqidasi edi.

Salim: “Men haq so‘zladim, mening aytganim bo‘ladi”, — desa, Elteres: “Men to‘g‘ri o‘yladim. Aksi bo‘lsa, o‘zim jazo olaman”, — derdi.

Ikki sarkarda, biri qo‘rquv bilmas alp, alp bo‘lganda ham shu vaqtgacha yengilib ko‘rmagan alp. Biri esa faqat botir sarkardagina emas, donishmand va makkor qo‘mondon. Qilich tig‘i, oybolta salmog‘i bilan birga aqlni, xiyla-nayrangni ham qurol darajasiga qo‘ya olgan purfahm va bashoratgo‘y lashkarboshi. Hozir ikkalasi ham qator tikilgan oq chodirlar oldida otliq turardilar. Elteresning lashkari o‘ng qanotda. Faqat qora ot minib olgan askarlari oldingi safda. Ular “Qora sel” tumani. Undan keyingi qator yaxlit qizil jiyron ot minganlar. “Yolqin sel” tumani. Undan keyingilari oq-bo‘z, sur ot minganlar — “Oq to‘lqin” tumani. Bu Elteres qo‘shinining azaldan davom etib kelayotgan udumi. “Qora sel” lashkari hayqirib, suron solib kirishganida, qora kuchlar bosh ko‘targanday bo‘ladi. Uning ortidan “Yolqin sel” surilib kelaverganda, oldindagi qora kuchlarni olov haydab, qo‘llab kelayotganday, qalin to‘qayni alanga qamrab olganday bo‘ladi. Ularning ortidan oq bo‘zning jangga kirishi oldindagi qora kuchni ham, yolqinlagan alangani

ham haqiqat qo'llaganiga ishora. Hammasini bu mo'tabar jangga shu oq kuchlar olib kelayotganga mengzaladi. G'animga hujum boshlaganida Elteres qo'shini shu taxlit ajoyib, jilvalanib, turlanib ko'rinar edi.

O, o'sha ajib salobat. Ajib haybat, yengilmas kuch!

Hozir Elteres lashkari oq chodirning o'ng qanotida o'sha tartibni saqlab turgan mahali. Yakkama-yakka sayishga chiqqan botirlar olishuvi tugab, do'l chalingani zahoti Elteres qo'shini yoppasiga harakatga keladi. Oldinga siljiydi.

Salimning lashkari so'l qanotda. Biroq Salim askarlarining otlari yaxlit bir tusda emas, to'riq bilan saman, Qorato'riq bilan qora, oqbo'z bilan qulon chavkar, ola to'riq, sur bilan burul aralash. Shunday bo'lsa ham, sirtdan yaqqol ko'zga tashlanib, haybati sezilib turardi.

Yelkalari dikkaygan, dubulg'alari do'mpaygan, jancharlari cho'qqaygan askarlar ko'k toshlar kabi tek qotib turishardi. Yerdan maysa o'rniga otliq askarlar unib chiqqanday, to'shalgan chiyday. Tekis payvandlangan temir tikandek bo'lib ketishgan...

Tek qotib turgan askar kiyimi, qurol-yarog'lar, ot jabduqlari ufqdan endigina bosh ko'targan quyosh nurini o'zida aks ettiradi. Janchar tig'i yalt-yult etib yalang'ochlanadi. Zirhli kiyim, cho'pkut to'n, kamarlar yarqiraydi, oqaradi. Gurzi egar qoshiga osilgan, oybolta dastasi bilakka ilingan. Sadoq qopchiqlariga o'qlar tiralgan.

Askarlar jim. Hech kim qo'zg'almaydi. Salim:

"Biz kuchlimiz. Bizdan Odiltoy kuchli. Uning qo'shini bizning qo'shindan ko'p emas. Boshqa sarkardalarining jasorati biznikidan ortiq emas, Alp Qulchur uchib ketdi. Keyingilari yoshlar. Tegini, Barsi, Yo'lbarsi hali olishuvlarda pishmagan. O, ular toshbilak, abjir, shoshqaloq. Tangri saqlasin? Ular jang qoidasini, dushman usullarini uncha bilishmas? O'o', Odiltoy ajoning qo'shinini jangga boshlab kelgan Azman, Chekir, Erkishilar — ana o'shalar dono! Baridan Erkishida qora yol qoplon haybati bor. O'z yurtining yalovi u. U yengilmaydi. Ha, Erkishining o'sha saodati chaqirdi bugun. Az, arg'in, nayman, eshtek, to'lo's — bari biriksa, bitta qirg'iz eliga aylanadi. Ko'p biriksa, sel bo'ladi. Elteres buni

tushungisi kelmayapti. Tajangligi tutib birgina sherligiga ishonyapti. Arpasiz ot yurolmas, orqasiz er yengolmas, Elteres sherim!

Bu so'zlarni Salim botir Elteresga necha bor aytgan. Elteres sher Salimning so'zlaridagi haqiqatni tuyib tursa-da, takabburlik qilib, tan olgisi kelmas edi. Uning botirlik o'jarligi, ichki bir ovoz bilan der edi: — "Ey, sher Elteres, sen Elteres boshing bilan kimga yukunyapsan? Alp qilichi o'tkir bo'lsa, g'anim uning oldiga tushgan qoramol. Gala-gala zag'chani, qarg'ani bitta lochin to'zg'itadi!"

Demak, bir lochin zag'cha va qarg'aga otilib, chuvillatib hayday oladi. Qiradi. Elteres botir ham otga qo'nib, g'animini o'shanday haydab, aylantirib, qirib yurmadimi?!

Nima, bugunga kelib u kuchsiz, jasoratsiz bo'lib qoldimi? O'sha Erkishining qo'shini Elteres qo'shinidan ustun bo'lib qoldimi? Lashkarboshisining haybati Elteresnikidan ustunmi? Bular Elteresdan bir marta zarba yegan yurt. Shunday ekan, Elteres sher nimadan qo'rqadi? Nimani kutib turibdi? Mag'rurlanib ketgan Elteres keskin qat'iy buyruq berdi.

— Nimani kutyapsizlar! Yakkama-yakka jangga chiqing!

— Chiqsin! — dedi Salim.

— Chiqsin! — dedi boshqa lashkarboshilar ham. Do'l uch marta gumburlab urildi.

Bu — yakka olishuvga botirlarni chorlash belgisi edi.

Zulukday qora otga mingan ajoyib bir kishi otilib chiqdi. Davangirday zo'r askar, atoqli bahodir, alp Sorun Elteres botirning ishongan botiri edi. Sorun yoshi qirqdan o'tib qolgan tajribali askar. Avvallari ham yakka olishuvlarda necha bor ishtirok etib kelgan alp Sorunning mingani ham, kiyimi ham qop-qora. Chunki Sorun botirning rangiro'yi o'zi qora. Shuning uchun u boshiga qora dubulg'a, ustiga qora sovut, qo'liga qora qo'lqop kiyib... boshdan-oyoq qop-qora bo'lib hayqirib hamla qilganda, g'anim vahimaga tushib, hurkib ketardi. Og'iz ochganda oppoq tishlari yaltirab, ko'z olmasi aylanib, inson emas, inson qiyofasidagi qora jin kabi ko'rinardi. O'z qo'shini ichidagina emas, yotlar orasida ham dong taratgan, Elteres sherning yengilmagan — sinmagan qora cho'qqisi edi Sorun qora.

— Sorun qora borligida Elteres hech kimga yengilmaydi! — degan ishonch odamlarga allaqachon singib ketgan edi.

Odiltoy ajoning ko'k chodiri boyagi yashil tepalikka tikilgan edi. Ko'k yalov tovlanib, qirg'iz lashkarboshilari ham qo'shinni hujumga shaylab, otliqlar tekis saf tortishdi. Jang muqaddimasi bo'lmish yakkama-yakka jang eng muhim ahamiyatga ega.

Qo'shinning botiri yakkama-yakka jangda yengib chiqsa, bu — o'sha taraf jangda ham g'alaba qozonadi, deganday gap. Qo'shinning omadi kuladi. Shiori ko'kka parvoz qiladi. Yulduzi porlaydi. Qo'shin bo'lg'usi g'alaba ishonchi bilan jangga kiradi.

Qirg'izlar tomonda ham yakka olishuvga manaman deb chiqadigan botirlar oz emas: uysun botiri — Argush, konchi Dev aka, chaa botiri — Bertebeslar yakkama-yakka jangga chiqishga rag'bat bildirishdi.

Erkishining fahmicha, yakkama-yakka jangga Dev aka munosib edi. Dev akaning salobati, kuchi, jasoratini Erkishi o'sha kon yonida uchrashganidayoq payqagan edi. Tap tortmay Sorun qoraga chiqa oladigan polvon jangchi shu Dev aka. Dev akaga kuchli ot tanlansin, yakkama-yakka jangga chiqadi, deb avvaldan tayinlab qo'ygan. Erkishining o'ziga nisbatan bo'lgan e'tibori va ishonchiga minnatdorchilik bildirganicha Dev aka alpang-talpang bosib oldinga chiqdi — qiyofasi oldidan chiqqanni yiqitguday surli. Boshidagi ko'k dubulg'asi ko'k toshdek, ustidagi sovuti muzdek, egarda odam emas, hayhotdek azamat o'tirganday go'yo. Malla soqoli har bir tuki alohida tikka sanchilganday changal-zordagi ignaday dikkaygan, ko'zlari qip-qizil, lunjida oqargan ko'pik, halitdan ichi qizib, g'azabi toshib chiqib kelayotganday... Ajabo!

Dev aka ikki o'rtadagi yalanglikka qarab sapchiguday arang o'zini tutib turardi.

Yakkama-yakka jangga Dev akaning chiqishi aniq bo'lganidan keyin, yo'lbars yo'lli chavkar ayg'irga mingan mingboshi Yo'lbars ot o'ynatib Erkishining oldiga keldi. Qiyofasida norozilik ifodasi, shashti past. Ko'z yoshlari munchoqday oqib, yuzini yuvyapti. Yo'lbarsning bu ahvolini ko'rib, Azman abo ham, Chekir biy ham, Erkishi ham seskanib ketdilar. Hammasining dilida bitta savol:

"Yosh botirga nima bo'ldi?" Boshqa botirlar, yon-verida turgan askarlar ham tashvishlanib qaradilar.

Yo'lbars boshidagi ko'k dubulg'asini olib yerga chopdi-da, Erkishiga bo'ynini cho'zdi:

— Er aka, mardlik nazaridan chetda qolgan boshimni kesib tashlang, tez kesib tashlang!

Bu uning yakkama-yakka jangga meni chiqarmadinglar, degani edi. Yo'lbars battar kuyinib, boshini yana-da engashtirdi:

— Chopib tashlang, o'z qo'lingiz bilan choping, Er aka. Bunday xunsiz boshni yelkamda ko'tarib yurmayin. Sizdan usul o'rganib, e'tibor qozongan askaringiz edim. Jang paytida unutilganimdan ko'ra kallam ketishi afzal menga!

— Shoshilma, tirrancha... — dedi ichida Erkishi. Yo'lbarsning bu ishiga dil-dilidan rozi bo'lib o'tirgan qari botir yumshoq ovozda dedi:

— Oshiqma, polvon. Sen hayqirib chiqadigan fursat hali oldinda!

Yo'lbars yosh boladay yulqindi:

— Fursatim shu! Yoki yakkaga chiqaman, yo boshimni choptiraman!

Azman Yo'lbarsni yupatib, qah-qah kuldi:

— Eha! Bobomning haqiqiy o'g'loni. Ana yovqurlik! El sendan rozi, o'g'lim!

Shu vaqt yana do'l urildi. Sorun qora otilib o'rtaga chiqdi. Odiltoyning qo'shini bir qalqidi.

— Kim? Bizdan yakkama-yakka jangga kim chiqadi? — degan besaranjomlik boshlandi. Yo'lbars yerdagi dubulg'asini shart engashib ilib olib, botirlardan ruxsat so'rab o'tirmay, yakka olishuvga chiqib ketdi. Hash-pash deguncha chavkar ayg'ir qo'shindan ajralib chiqdi-da, old oyoqlarini ko'tarib kishnab yubordi. So'ng og'irligini orqa oyoqlariga tashlab, otilganicha maydonga chiqib bordi. Yo'lbarsning yakkama-yakka jangga chiqishi o'z qo'shini uchun ham, narigi tarafdagi yov qo'shini uchun ham kutilmagan hodisa bo'ldi. Ikki tomondan teng xitoblar kela boshladi:

— Tangrim, o'zing saqla!

— Yosh askarning chiqib kelishi boshqa!

O‘z qo‘shini quvonib, to‘lqinlanib ketdi. Dushman qo‘shini esa seskanib ketdi:

— Tangrim, o‘zing saqla!

Yakkama-yakka jangga chiqishga tayyorlanib turgan Dev aka alamiga chidolmay g‘azab bilan qichqirib, yulqinib, otdan tushib, yana otga minib, o‘zini qo‘yarga joy topa olmas edi. O‘sha zahoti chipor xoli ko‘z oldida o‘ynab, shiddat bilan chopib chiqqan ayg‘irni ko‘rib, egarda adil o‘tirgan Yo‘lbarsdan minnatdor bo‘ldimi? Ko‘z oldidagi eng tez, eng sirli, qaltis to‘qnashuvga chalg‘ib, Dev aka beixtiyor Yo‘lbarsga oq fotiha bera boshladi. Soniga urib qichqirdi:

— Dev akangning galini so‘ramay olding-a, ovsar! Endi yengilma, deyman! yengilsang, g‘animdan burun o‘zim chopib tashlayman seni!

Dev akaning xitobini Yo‘lbars eshitmadi. Bu vaqtda u Sorun qora bilan yuzlashib ulgurgan edi. Yakkama-yakka jangga chiqqan ikki botir bir-biriga yaqin kelishib, ta’qib eta boshlashdi. Sorun qoraning oldida Yo‘lbars yosh boladay bo‘lib ko‘rindi. Azman aboning yuragi shuv etib, Tangriga yolvordi:

— Tangrim! O, aziz bobomning tirik ruhi, bu bolaning otini o‘zing yetakla! — Yo‘lbars yetilgan alp botir, shunday bo‘lsa ham, shoshib qolgan Azman uni “bola” deb atadi.

Sorun qora bilan Yo‘lbars to‘qnashib, aylana boshlashdi. Sorun Yo‘lbarsni ot-poti bilan bosib tashlaguday tikka kelaverdi. Yakka askarni emas, butun qo‘shinni yanchib tashlagudek shashti bor edi. U deyarli sarosimaga tushmadi. Biroq negadir tugilgan arqonning tugunini yecha olmayotgandek munkib ketdi.

Shu payt yo‘lbars yo‘lli chavkar boyagiday qo‘sh oyoqda turib kishnab yubordi. Yo‘lbars so‘qqan oybolta Sorunning dubulg‘asini selpib o‘tdi. Sorun gandiraklab ketayozdi. O‘sha zahoti tizginning ikki tomonidan teng siltab, otini ortga tortdi. Yo‘lbarsga janchar o‘qtaldi. Lekin u bu harakatni shoshqaloqlik bilan qildi. Unchalik qattiq bo‘lmagan bu hujumni Yo‘lbars osongina qaytardi. Bu safar Yo‘lbarsning janchari osmonga ko‘tarildi.

Erkishi sir bermagandek tursa ham, ich-ichidan bo‘g‘ilib hayajonlanardi:

"Sorun qoraga tap tortmay tik borishning o'zi Yo'lbarsning kuchidan, jasurligidan... O, Tangrim bu botirimizni o'zing saqla! Botirimizni o'zing saqla! Yoshligi, tajribasizligi pand bermasa, marra bizniki! Ojizlik qilmaydi. Faqat ko'rinishi haqiqatdan yoshroq...."

Yakkama-yakka jangdagi ikkovi botir mingan otlar bu vaqtda bir tomonni aylanib, ikkinchi tomonga yonlab surila boshladilar. Sorun bilan Yo'lbars endi engashib borayotgandek tizginni tashlab, otlarni o'z holiga qo'yishib, olishib kelishardi. Bu olishuv usuli "Bo'ri titish" deb atalgan erlar olishuvi edi. Bunda kim o'ng qo'li bilan zarba bersa, o'sha botirning zarbasi bexato va kuchli bo'ladi. Biroq turli olishuv — to'qnashuvlarda pishib, tajribasi ortgan askar uchun "o'ng", "chap" degan so'zning o'zi yo'q. Asosiysi, tajriba, ep, kuch, tap tortmay g'anim yuziga tik qarash. Faqat oybolta chopishga zo'r bermay, yuzlashgan g'animini o'z o'tkir nigohi bilan mahv etish, mardlik haybati, botirlik suri bilan taslim etish...

Ayniqsa, shu botirlik suri deganiga Sorun qora chippa-chin ishonadi. Shuning uchun qo'l ko'targani sayin ko'zini vahimali o'ynatib, raqibiga ruhiy ta'sir o'tkazishga harakat qilardi. Ko'pikka botgan qora bo'g'radan battar "bo'hraydi". "Ah" desa, inson emas, qandaydir qora kuch o'rlagan yovvoyi hayvon kabi. "Ah!" degani sayin oyboltasi mo'ljalga aniq tegadi.

— Yeyman! yeyman! Mishiqi. Yamlayman! Yamlayman seni, sichqon!

Biroq g'azabga mingan Yo'lbars Sorun qoraning surini ham, haqoratini ham mensimadi. Ko'zidan oqayotgan shashqator yoshini artib ham qo'ymadi. Yo'lbarsning yig'lashi Sorunga erish tuyilib, nochorlikdan, holsizlikdan, deb o'ylagan edi. Shuning uchun u Yo'lbarsni "bola", "chumchuq" deb atadi...

Olishgani sayin Yo'lbarsning yig'isi ko'z yoshi emas, yog'ilgan kuch o'laroq payqaldi. Yo'lbarsning ko'z yoshi endi Sorunni qo'rqita boshladi. Sababi, Yo'lbars mo'ltirab ko'z yoshi tomadigan paytida qattiq hayqiradi. Oyboltani mo'ljalga uradi. Sorun gandiraklab ketadi. Bahaybat bo'g'ra va ko'kyol qarishqir suvrati Sorunning ko'z oldida aniq gavdalana boshladi. Sorun hayqirib,

oyboltasini azot ko‘targanda yo‘lbars xolli chavkar qo‘sh oyoqlab turgancha kishnay qolib, bir necha bor Sorunni dog‘da qoldirdi. “Tangrim, Tangrim! — dedi u. — Bu inson emas, insonlik qiyofasidagi dev”...

Sorun endi chindan qo‘rqa boshladi.

Ikkovi urishgan ko‘yi boya ta’qib etishib ketgan yo‘lidan endi qaytib kelishardi. Bu safar ularda avvalgiday shiddat sezilmadi. Kuymalanib, to‘xtab-to‘xtab solishardi.

— Mana senga, qora to‘ng‘iz!

— Mana senga, chichqoq!..

— Aha! Boshingni kesaman, boshingni ...

Hozir bular oybolta bilan so‘qishyapti. Xuddi temir temirga urilganday, “chak-chuk!” Bolta boltaga kiyishadi. Chaqmoq chaqqanday yalt-yult etadi. Sorunning o‘ng yelkasi toliqib, nomigagina qo‘l ko‘tarib qoldi. Yo‘lbarsning ko‘z yoshi to‘xtab, rangi quv o‘chib, to‘rsayib qolgan edi. Achchig‘i ko‘z yoshi bilan tomib bitganday. Bir maromda chopishar, go‘yo bu doim qilib yurgan ishi kabi ko‘nika qoldi. Yo‘lbarsning yig‘isi to‘xtaganiga Sorun quvonib ketdi...

“Eya...mishiqi... suring qochdimi?...”

Sorun nafas rostlagunicha Yo‘lbars yana hayqirdi. Qirovday yalt etgan ko‘z yoshi yonog‘iga yumaladi.

“Bu yana quturdi. Tangrim, o‘zing saqla!” — dedi Sorun...

Junbushga kelib hayqirgan Yo‘lbarsning oyboltasi bu safar Sorunning qoq peshonasiga urildi. Sorun alp munkayib ot yoliga yopishdi. Qora ot pishqirib, qaltirab turib qoldi.

Ikki tarafda teng do‘l sadolari yangradi. Qo‘shin g‘ayqirib yubordi:

— Ura!

— Ura!

— Ura!

Bo‘z yer larzaga keldi. Maydonda urushning bo‘ronli oqimi girdob yasab o‘rlay boshladi — g‘uuv, dang, qars, tars etgancha...

URUSH

Tug'imiz tikka tursin deb
Quvvat bilan urishib,
Yovlashgan ikki qo'shin,
Oq bo'riday yulishib,
Jahldan qo'ltiq cho'zilib,
Qanotlar bari qayrilib,
Qalqonlar bari mayrilib,
Barlarning bari so'kilib,
Egarning qoshi to'kilib,
Lablarning bari kesilib,
Ko'krakning bari ezilib,
Tizzaning bari to'silib,
Tizginning bari uzilib,
To'p to'zg'idi elakday.
Barchasiga chidar kichik bosh,
Qizilga bo'yalgan chelakday.

Manasdan

Qo'li sinsa, bo'yniga ilib olib, oyog'i sinsa, qanjig'asiga bog'lab olib urishishgan. Oqqan qoni yuzini yuvsa-da, sidirib tashlab urisha berishgan. Suvsasa, otining terini yalagan. Bunday botirlarni "qora ko'k, yoki ko'kyol" deyishgan

Belek Soltonoy o'g'li yig'gan ma'lumotdan

Uch qanot bo'lib tiralib turgan uch tuman lashkar ot qo'ydi. Dastlab katta jarlik qulab ketgandek, barcha shiddat bilan surilib kelib, shu o'pqonga tushgandek bo'ldi-da... bir ozdan so'ng o'sha guvillagan qalin to'lqin yoyila boshladi. Jancharning yalang'och uchlari yaltiray boshladi. Dubulg'alarda quyosh nuri chaqnadi. Shior, hujum na'rasi yer-u ko'kni tutdi:

— Ur — e-e-e!
— Ur — e-e-e!
— Chop — a-a-a!
— Chop — a-a-a!

Hisobsiz otliqlar aralashib ketdi. Xuddi ikki qo'chqor suzishayotgandek "qars! qars!" tovushlaridan quloq tinguday bo'ldi. Urush bo'roni qutura berdi.

Birin-ketin egasiz qolayotgan otlar bu baloyi izdihomdan hurkib-sapchib o'zlarini ochiqqa urardilar, yo'qsa, birinchi jangda nobud bo'lganlar yo'q hisobida. Yarador bo'lganlar hushini yo'qotib, dovdirab ot yoliga tayanib qolishdi. Biroq otdan yiqilganlar ozroq. Qars-qurs jang suroniga hayqiriq, qichqiriqlar ulana berdi. Ingrash, faryod chekishlar boshlandi. Bu ohlar bir kishiniki emas, ko'pning ingrog'i, ko'pning fig'oni edi. To'qnashuvdan, kuch sinashdan, olishuvdan, siquvga olishdan chiqqan ohifig'onlar. Odam bolasining bir-biriga bo'lgan xunrezligi, bir-biriga qilayotgan shafqatsizligiga chidolmasdan to'lg'ongan Ona yerning ho'ngrashi, qulqullashi, koyishi...

"Ey, sen inson bolalari, ey. Sen nega bir-biringga bunchalik qasdlashasan? Bir-biringni ayamaysan?! Buncha to'qnashuvning, buncha qon to'kishning sababi ne? Ey, inson bolasi, shu yoqalashishdan senga ne naf bor", deganday guvillash.

Darhaqiqat, bu beomon qirg'inbarotning sababini eslaydigan hech bir jon yo'q hozir. Duch kelgan duch kelganni yer tishlatadi. Jon tomirini poylab, oybolta so'qadi. Jonchiqar yerini mo'ljallab, janchar sanchadi. To'g'ridan-to'g'ri qilich chopadi.

O'lganni ko'rib, o'ldirgan quvondi. Yiqilganni ko'rib, yiqitgan quvondi. Qirg'inbarot jang ulana berdi. Qizigandan qizidi. Jang davom etgani sayin o'ldirishning soni ham ortaverdi: mahorat bilan bolta urish, uchiga chiqqan qutqu, yovuzlik bilan yuzlashish; yiqilishning yo'li bitta: yo ot yolini quchoqlab qolish, yoki shilq etib yerga qulab tushish.

Bunda lohas bo'lib, asta hushini yo'qotishlar... qon o'hchib, ko'zlari olayib, og'ib tushishlar... Uzangiga oyog'i ilinib qolganlarni otlar sudrab yuribdi. Hozirgina hayqirib suron solgan, kuch-quvvat timsoli mengzalgan askar murdasi shu tariqa chorasiz, yarimjon, otda sudralib, betayin jasadga aylanadi.

Halok bo'lgan askarlarga yerning joni sirqiradi. Odam bolasining adovat tashuvchi o'jarligidan o'kindi. Aqlli, kuchli bo'la turib, sarkashlik, xusumat ma'siyatlarini tutib olib — qirg'inbarot jangda shunday odamkush, yirtqich, toshbag'ir bo'lib ketganiga koyindi. Shunday holsizligidan qiynalib, ona yerning bag'ri sizladi.

...O, ikki tarafning birida jangni to'xtatgulik biror ishora yo'q!

Jang qizigandan-qizib, kuchaya berdi. Ba'zida ikki qo'shin teng alg'ov-dalg'ov arosatga aylangan jang maydoniga to'lib ketadi. Ba'zida janggoh jim tortib, suronlar pasayadi. Shovullagan kuchli to'lqin ikki tomonga borib-kelib, bir maromda chayqaladi. So'qishdi. Chopishdi. Har yer-har yerdagi turtib chiqqan oppoq toshlardan bo'lak narsa ko'zga tashlanmaydigan, namiqqan, ko'pchigan, maysa hidi kelib turgan yobon er o'ligi, ot o'ligiga to'ldi.

Jang boshidayoq yov kuchini qirqib, tinkasini quritish uchun Elteres uch guruh qo'shinni janggohga kiritgan edi. Old safdagi qora otliqlar faqat siquvga oluvchilar — yov bo'rilari, qo'shinning manglayidagi yulduzlar edi. Ular qurshaganda suv to'g'oni buzilgandek kuch bilan keladigan "Qora sel" hujumi hozir qoplab kela boshladi.

Yalov tagida viqor bilan qarab turgan Elteres qiyqirdi:

— Qurshang, qora sel, qurshab oling! Qora toshlarni shaldiratib oqiz, selim!

Biroq "Qora sel" siyrak yoyildi. Uning ortidan "Yolqin sel" qurshab kelayotganda, Elteres to'q sariq yalovni silkitdi. Do'l "gum! gum!" deb urildi. Karnay varangladi. Elteres olov rangli-larni yana-da ruhlantirdi.

— Qurshang, Yolqin sel! Yovning qora kuchini kuydiring!

Erkishi qo'shini chindan ham o't tutashganday, yolqin ichida qoldi. Sababi, Erkishi jang boshida hujumga uch tumandan ortiq qo'shin chiqarmadi. Elteres qo'shinni selday oqizish bilan g'alabani ko'zlasa, Erkishi qo'shinini shu sel ofatidan chetlatish, selni daf etish usulini qo'lladi. U butun lashkarni jangga birdaniga kirgizmas edi. Ot bilan ot to'qnashib, askar bilan askar yuzlashganda, gap oz-ko'pga emas, qurol ishlatish hadisiga bog'liq! To'qnashuvda sarosimaga tushgan askarning qilich serpishida ham ikkilanish bo'ladi.

— Esankiramang, qurolni bir sanching! Qancha uddalasangiz, shuncha sanching, jonli yeriga mo'ljallab sanching! Buning uchun so'qishar yering birmuncha holi, dushmaning yonginangda bo'lmog'i kerak! — deb o'rgatgan edi Erkishi askarlariga.

Ayni chog'da chetdan qaragan odamga qirg'iz askarlari otidan ajrab, hammasi yiqilib qolganday, qarshidagi kuchli qo'shinga taslim bo'lib, birdan yitib ketganday... Aslida hozir bularning jang san'ati oqilona edi.

Ko'k chodir yaqinidagi ko'k yalov tagida Katta to'riq oti mudrab, o'zi tek turgan Erkishi hozir shunday sokin turgan ko'yi har bir o'nboshi, yuzboshi, mingboshilarining oybolta so'qishini ko'rib ko'ngli to'ldi.

Otidan yiqilib, jon berganni ko'rsa, "Eh, ruhing barhayot bo'lsin, botir!" — deydi.

Oyboltani bexato urganni ko'rsa:

"Ha, bor bo'l, botir! Orqangda eling senga tayanch", — deydi. Har bir askarining kuchini, ruhini, jasoratini sinovdan o'tkazayotgani kabi jang maydonidan ko'zini uzmaydi. O, minglagan askarning qattiq to'qnashuvi, to'qnashuv bo'lganida ham ayovsiz savash, olatasir to's-to'polonda iskanjaga olishlar-u ikki qo'shin jangchilari bir-biriga ajal sochib turgan vaqtda ...shu tepalikdan qarab, har bir askarning qurol ishlatishini kuzatib, anglab turish mumkin emas, albatta.

Albatta, mumkin emas!

Biroq uni ko'ra olish, anglay olish bizga — boshqalarga mumkin emas. Ko'rmagan tog'ni ko'rmaydi. Sezmagan azobni ham sezmaydi. Hayotdagi zarur ilmlar bilimdoni bo'lmish oqil va dono odam bir og'iz gapi orqali kishi saviyasini aniqlay olganidek, bu dono sarkarda ham askarlarning kuchi va mahoratini jangning borishidan his qilib, anglab turardi. Vah, ularning esankirab shoshib qolgani, qo'rqqani yoxud qochgani bormi? Yo'q! Unda ularning sarosimaga tushib, oyboltani aniq urolmay, yanglishib qolgani bormi? Sezilmadi! Eh, ot yoliga og'ib yiqilib tushayotganlari qancha! Ko'pmi, ozmi? Binobarin, shunday ayovsiz jangda yetgan ajalga chap bera olarmidi askar? Qoq peshonaga oybolta so'qilsa, qo'ltiqqa janchar botsa yoki gurzi tegsa, kamon o'qi sanchilsa, ajaldan kim ham qochib qutulardi? Qo'shin orasida ham joni qirqilganlar oz emas. Shunday bo'lsa ham, qirg'inbarot pasaymadi, aksincha, kuchaydi, qizidi. Jangning shu sur'atiga solishtirganda, yo'qotishlar ko'p emasdek.

"Tangrim, saqla! Qo'shin holdan toygulik emas. Askarlar sobit!"

Elteresning "Qora sel"i ham, "Yolqin o't"i ham Erkishi lashkariga zarba berolmadi.

Rost, Elteres qo'shiniga qaraganda, Erkishi qo'shininig soni oz. Qay bir yerda bitta askar ikki, hatto uch oyboltaning hujumiga dosh berib, yolg'izlanib qolgan edi.

Erkishi aynan o'sha askariga shu tepadan turib madad berganday:

— Ur! Ur, botir! Yov ko'ziga ko'zing o'tsin! Shoshma, oyboltani bexato so'q! Alanglama!

Askar gandiraklab ketsa, Erkishi hayqirib yuboradi:

— O'zingni yo'qotma, dedim. Qo'rqqanni quyon bosadi. Qochganni ayol kishi ham yengadi, demaganmidim. Qochmang!

Askar qo'rqmay, shoshmay, oybolta ursa, Erkishi uni olqishlardi.

— Ay, botir! Uzangiga oyoq tirab tur! Otingni erkin qo'y! Askar oti askarning ishini uning vaznidan, harakatidan biladi.

Albatta, yerni larzaga keltirgan to'qnashuvda, ur-surda, shiddatli olishuvda Erkishining ovozi askarga eshitilmaydi. Hozir bu tepalikda, ko'k yalov ostida qo'r to'kib sarkarda har bir jangchiga shunday dalda berib turishini askarlar bilardi. Ovozini, gapini eshitmasa-da, sal narida ko'z uzmay o'zini kuzatib turgan sarkardasi kuch-quvvat tilab, shijoatlantirib, tayanch bo'lib turgani aniq. Yov qurshovida yakkalanib qolgan askar mening haybatimni bilsin, — deydi Erkishi. Er aka qara, ko'rib tur, sinab tur, desa, urishayotgan askar Erkishinig daldasini his qiladi.

"Kuch — quvvat! Kuchingdan aylanay, Er aka! Sening askaring qochib o'lgan emas. Ishon bizga!" deganday o'z to'pidan bo'linib, yakkalanib qolgani ham o'zini yo'qotmas, tanasiga yangidan kuch kirganday, yovga tashlanadi...

Erkishi askarining bolta so'qishiga qanoat hosil qiladi:

Ay, bor bo'l, botir! Seni tuqqan onangga rahmat! Otangga sharaf!

Azman abo, Chekir biy Erkishining olqishini tinglab, jim turishardi. Ko'zlari janggohda. Quloqlari Erkishining so'zlarida. Sar-

kardaning guldiragan yo‘g‘on ovozi eshitilmay qolsa, bu yoqdagi abo-biy barobar xavotirga tushdilar.

“Nima bo‘ldi, botir? Bizning qo‘shin siquvda qoldimi?”

Jimlik. yerni titratgan, yig‘latgan qattiq jang.

— Ana! Qarang! — dedi Erkishi. Dev og‘ani ko‘ring. Yov askarlari ichida yakka o‘zi qoldi!

Azman abo cho‘chib tushdi:

— Tangrim, saqla botirni! Uchib ketmasa ekan!

Chekir biy yovning boltasi o‘ziga so‘qilayotganday joni og‘rib ketdi:

— Oye... Choptirib olmadimi, Dev!..

Dev og‘a ko‘pchilik dushman o‘rtasida yakkalanib qolgani g‘alaba chaqirayotganday Erkishi quvonib ketdi.

— Bor bo‘l, Dev og‘a! Bor bo‘l, sher! Ortingda el-yurt turibdi. Bor bo‘l, ko‘kyol!

Yakka o‘zi qurshovda qolgan Dev aka o‘limni xayoliga ham keltirmas edi. Na’ra tortib, boshqalarnikiga qaraganda sopi uch qaruu uzun bo‘lgan oyboltasini boshi uzra havolatib to‘lg‘adi.

Odatda, kuch-quvvatda tengi bo‘lmagan Dev aka jangda telbalarcha jazava bilan urishardi. Lekin hech qachon oyboltani hato urgan emas. Bo‘lmadi deganda, oybolta sopini uchidan mahkam tutib aylantirar, oyboltaning “Zuu! Zuu! Duu! Duu!” epkini o‘zi bilan chopishayotgan yovning jur’atini sindirardi.

Dev aka o‘zining bu taxlit oyboltani silkitib aylantirishini “Otam qirg‘izning tegirmon yurgizishi”, der edi.

— Dev aka tegirmon aylantirishni boshlaganida yoniga kelgan yovning boshi yoriladi, deng-chi. Tegirmon toshi tegib yanchilmagan bosh qayda ekan?! — der edi taniganlar.

Bugungi jangda Dev aka shu bilan uchinchi marta sher bobo-ning tegirmonini aylantirdi. Uchovida ham uning tegirmonida talay dushmanning boshi yorildi. Buni ko‘rgan Erkishi Dev akaning yolg‘iz qolganiga suyundi. Gavdasini silkitib-silkitib kulganining sababi ham shu edi. Zero, qadim bobolar aylantirgan tegirmon ayni chog‘da, ayni jangda “Zuu! Zuu!” etib aylanib turishi botirlarga katta madad edi.

Yakkama-yakka jangda olishayotgan jangchi yolg‘iz Dev aka edimi? Ana, oq sur otga mingan Agush botir. Ana, bo‘g‘ra mingan tuyakash Tarpang. Ana, chaa botiri Bertebes. U botir o‘zi jimjiloqday bo‘la turib, tog‘day samanga minib olgan edi. Suvorilarcha, egar ustida jimitday bo‘lib o‘tirgani bilan o‘z atrofini allaqanday sehrli kuch o‘rab olganday, yoniga yovni yo‘latmas edi. Nima bo‘lganda ham, Bertebesning zaharxandasi, shovvozligi, boladay kichik, boladay yoqimtoy bo‘lishiga qaramay, tap tortmaydigan shijoati allaqanday ko‘zga ko‘rinmas kuchni jilovlab turgan o‘laroq zo‘r salobati — yoniga yo‘lagan yovning sho‘rini quritib, ko‘ngliga vahm soldi. Cho‘chitdi. Bertebes botir ham yakka olishuvdan omon chiqdi. O‘z qo‘shini safiga qo‘shildi. O‘z askarlariga rag‘bat bildirib, tirgak bo‘lib, yana kamida elliktachasi qurshovga tushib qoldi. Shu elliktani Salimning mingboshisi qurshab olgan ko‘rinadi. Bertebeslar bir-biriga ko‘mak berib, bir-biriga kuch, tirgak bo‘lib aylana boshladilar. Hammalari o‘rtada tinim bilmay aylangan yorg‘ichoq misoli chiyralib turib qolishdi. Qalqonlarini betiga to‘sishib, siqilib kelaverishdi. Ularni qurshagan askarlar soni yana orta boshladi.Chelakni temir chambar qisgandek, qisib, himarib, siqib boraverdilar. Tangrim, saqla! Hozir, qurshalgan Bertebeslar guruhi ana hozir qirib tashlanadi, deb turishganida, ularni o‘rab olgan mingboshining askarlaridan bir nechtasi otdan qulab tushdi. Yana ayrimlarining oti ag‘darilib tushib, o‘zlari yayov qoldi. Ko‘rsa, yuzboshi Elchur qo‘shini bilan Bertebesga ko‘makka kelibdi. Ular narida jangdan bo‘shab kelishayotganda, bunda Bertebeslarning qurshovga olingan guruhini ko‘rib, pusib kelishib, merganlari kamondan o‘q ota boshlagan. Boya qulagan askarlar, yiqilgan otlar shu o‘qlardan ajal topishdi.

Hozir Elchur qo‘shini Salim mingboshining qo‘shinini qurshovga oldi. Yakkama-yakka jangda qolganda Bertebeslar guruhi siyraklab qolgan edi. Elchurdan ko‘mak kelgach, qurshovdan chiqqan lashkar yana kuchga kirdi. Bertebesga Erkishining yangroq qichqirig‘i aniq eshitildi:

— Bor bo‘l! Bertebes sher!

Bertebes tin olib, boshqatdan yovga hujum qilgandek mag‘rurlanib ketdi.

O, bir kam dunyo! Hisobli dunyo! Bu ko'hna dunyoning qayg'usiga kulgisi hamohang. Hattoki, shunday qon to'kilib, jinlar bazm qilayotgan, dahshatli jang borayotgan maydonda, odamlar bir nafas olib-chiqargulik umr uchun jon olib-jon berayotgan paytda ham, shu suronli, olatasir hujum, shu oqayotgan qonlar ichida, shunday qo'rqinch, shunday vahshatning ichida ham kulgi potirayotganiga nima deysiz?

O'sha qiziq kechmish o'zimiz tanigan tuyachi Tarpang bilan bog'liq. U bo'ynidagi junlari qora bulutday ko'pchigan bo'g'rasini minib olgandi. Faqat otliqlardan iborat qo'shin o'rtasidagi Tarpang sho'ppayib, bir o'zi balandroqda ko'zga tashlanardi. Buning ustiga qo'lida Dev akaning oyboltasidan ham uzunroq sopli oyboltani mahkam tutgan. Chetdan qaraganda uning oybolta ekanligi ham sezilmas, shunchaki so'yil yoki to'qmoq ushlab olgandek. Maydonga tushishlari bilan qora bo'g'ra xuddi tegirmonga ketayotganlaridek o'hrab jo'naydi. Jangga kirganlaridan so'ng tuyaning jini qo'zib, pishqira boshlaydi. Yaqiniga kelgan dushman askarining bet-boshiga ko'pik socha boshlaydi. G'azablangan askar Tarpangni qo'yib, bo'g'raga bolta so'qadi. Biroq bo'g'ra uning boltasini ko'zga iladi, deysizmi?

— Aah! — deb na ko'pik purkaydi.

Norozi bo'lgandek boshini chayqab qo'yadi. Boshiga bolta tegsa ham, yiqilmaydi bo'g'ra. Aslida jarohat yemasligining sababi boshqa edi. Burgutga "tumoq" kiygizilganday, tuyaning ham "tumog'i" bor. Biroq qora bo'g'raning "tumog'i"da afzalliklar ko'p, u temirdan yasalgan. Ikki ko'zining oralig'i botiq bo'lgani bilan u yer janchar tig'i o'tmaydigan to'rli "ko'zoynak". Bo'yni bilan birinchi o'rkachining pastigacha bo'g'ra bo'yniga ingichka, egiluvchan "temir to'r" o'ralgan. Chopgan bilan bo'g'ra bo'ynini qilich kesmaydi. Qanday ham noyob himoyalanish!

Binobarin, qilich chopsa, qilich kesmay, bolta so'qsa, bolta o'tmaganidan, bo'g'rani dushman qo'shini "Sirli mo'jiza" deya boshladi. Qora bo'g'ra pishqirib, og'zidan ko'pik sochib kirgan yerdan dushman qo'shini gurra qochyapti. Quroli ham g'aroyib, ulovi ham g'aroyib... Tarpangga xuddi boladek, tuyaning ikki o'rkachi suyanchiq edi. O'rkachlar ham temir to'r bilan himo-

yalangan. Na charchashni, na suvsashni bilmagan qora bo‘g‘ra-ning kezi kelganda g‘ayrioddiy sakrab-sakrab qo‘yishi esa uni tuya qiyofasidagi dajjolga aylantirardi — qo‘yardi.

Alqissa, shu tuya qiyofali dajjolga mingan Tarpang botirning jang qilish yo‘rig‘i kulgiga zarbulmasal bo‘ldi.

Yer yuzida ko‘zimizga notanish ko‘ringan ajabtovur, g‘ayri-oddiy narsa yoki hodisotlar ko‘p uchrab turadi. Qizig‘i, ana o‘sha ajoyibot (nima bo‘lsa ham)dan saqlanish, qo‘rqishdan burun qiziqsinish, hayratlanish tuyg‘usi tug‘iladi.

Oybolta tepaga ko‘tarilgani sayin, yiqilish uyoqda tursin, nari borsa, boshini chayqab qo‘yib, jazavasi tutayotgan bo‘g‘ra ham dastlab askarlarni qiziqtirgan bo‘lsa, keyin ularni qo‘rqita boshla-di. Tuya bulkillaydi. Tarpang qahqaha otadi.

— Bu odam bolasi emas, O‘ysul otani mingan jin! Jin! Jin! Yaqin yo‘lay ko‘rmang!

— Voy, jindan qoching!

— Ha, bo‘g‘rani minib olgan jin o‘lmaydi! Qochinglar!

Askarlarning shu tarzda bekinishi, qochishi hammalarining yuragiga vahima solib qo‘ydi. O‘ysul otaga mingan “jin” yaqin-lashganida... yilqi bolasiga mingan odamlar apil-tapil qochib qo-lishadi. Qochgan g‘animga Tarpangning uzun boltasi yetar, boltasi yetmasa, tuyasi yetadi. Tuya yetmasa, kamon o‘qi yetadi. Tarpang-ning jangdagi bu g‘ayriodatiy usuli o‘zlari ichida hazil-mutoyiba-ga sabab bo‘ldi. Yov tarafning esa kapalagini uchirib, yuragiga g‘ulg‘ula soldi...

Berigi tepada, ko‘k yalov ostida turgan Erkishi dildan qah-qah otib kulardi:

— Bor bo‘ling, Tarpang sher! Ha, ha, kuchingga sadag‘a bo‘-lay! Amalingdan aylanay! Qora bo‘g‘ra aniq O‘ysul ota ekan, Az-man!

Erkishining bunchalik quvonganini ko‘rgan Azman ham, Chekir biy ham jangga kirishni xohlab qolishdi.

Ko‘z oldilaridagi jang maydonida qora bo‘g‘ra mingan ba-haybat dev bilan behisob otliqlar ep, kuch, amal talashayotganga o‘xshash manzara gavdalandi.

— Bor bo‘lsin, eran!

— Yo, Tangrim, agar u jangda halok bo‘lsa, boshiga nechta balbal qo‘yilar ekan?

Ular shu tarzda kayfi chog‘ bo‘lib turishganida, qarshi tepalikdagi oq yalov ostida turgan Elteresning zardasi qaynadi:

— Ey, bu nima maynavozchilik?! Nima bo‘ldi o‘zi? Anovi bo‘g‘ra mingan jin tamom qildi-yu hammasini. Nima, qo‘shinimizning kuchi ketdimi shu bilan? Qurshab olinglar uni! Chopib tashlang u jinni! Tiriklayin ushlab, matab kelinglar uni! Qonini ichaman!

Jini qo‘zigan Elteres sher yonidagi yalovni qo‘riqlagan askarlardan yuztasini o‘sha yoqqa jo‘natdi. Ular boshqa hech narsaga e’tibor bermay, o‘sha qora bo‘g‘radagi jinni qo‘lga tushirib bog‘lab kelish uchun jo‘nashdi...

To‘riq jiyron otga mingan katta guruh otliq boshqa yerga burilmay, to‘g‘ri Tarpangni ko‘zlab jo‘nashganida, berigi tepalikdagi ko‘k yalov tagida turgan Erkishi o‘z qo‘shinidan qulon sur mingan yuz askarni ularga qarshi yubordi. Bular yuzboshisidan tortib hammasi teng mohir chavandozlar edi. Minganlari charchoqni, xorishni bilmaydigan qulon zotidan! Qulonning yovvoyisi to‘qmoqni, kamonni nazarga ilmay, yoniga kimsani yo‘latmaganiday, bu xonakilashgan avlodi ham jangda ortga tisarilmaydigan, bosh-ko‘ziga qamchi, so‘yil tegsa-da, qochmaydigan ajabtovur jonivor.

Bir abjir yuzboshi boshliq askarlar anovi Tarpangga ko‘z tikkan to‘riq jiyron otliqlarni to‘sib chiqishdi...

Kun peshindan oqqanda urishayotgan taraflar to‘qnashuvida shiddat pasayib, qo‘shinlar soni siyrak torta bordi. Yerda sulayib yotganlar ham serob. Ot yoliga tayanib, ko‘zi kosasidan chiqib, qo‘lidan quroli tushib ketganlar ham oz emas. Ertalabdan beri vaqirlab qaynagan qozon dimlanganday, atrofga jimlik cho‘kdi. Ertalabdan beri “rang-barang” hujumlar to‘lqinini ko‘z oldiga keltirib, haliyam mag‘rurlanayotgan Elteres jang buncha uzoqqa cho‘ziladi, deb o‘ylamagan edi. U hujum boshlanishi bilan “Qora sel”ni, so‘ng ketma-ket “Yolqin sel”ni jo‘natgandan keyin mening qaqshatqich zarbamga yov turish bermaydi, deb ishongan edi. Ikki sel ham dushmanni “oqizolmasa”, uning ketidan “Oq to‘lqin”ni yuboraman. Buyuk ko‘lning oq to‘lqini — bo‘z yerning betidan

dushmanni yuvib tashlaydi, deb ishongan Elteres mana endi o'sha hammasidan kuchli "Oq to'lqin"ni maydonga tashladi. Hammasi oq bo'z ot minib, oq sovut kiygan "Oq to'lqin" tumani ot qo'yganda, soviy boshlagan janggoh qayta jonlandi. Yer boshqatdan gumburlab, jang qaytadan avj oldi.

Azman bilan Chekir "Oq to'lqin" qoplay boshlaganda qo'rqib ketishdi. Chekir otidan tusha solib, yana otiga mindi. Azman egar qoshiga tayanib, maydonga umidsiz ko'z tikdi.

Ikkovi teng Erkishini shoshtirdi:

— Botir, qo'shin qirilib ketmasin, yordam kuchini tashlash kerak!

— Ular ko'payib ketdi...

— Yanchib tashlashadi...

— Qurshab olishyapti...

Bo'ynidagi doim oqarib ko'rinadigan oq tirtiqqacha qizarib ketgan Erkishi pinagini buzmay javob berdi:

— E, sarosimaga tushmang, abo!

Ular gapirolmay jim qotishdi.

— Qo'shini ko'p bo'lgan dushman doim ham yengavermaydi!..

Erkishi nimagadir chalg'idimi, gapini tugatmay, jim qoldi. Tik qaraganda odamning surini oladigan o'tli ko'zlari qisildi, maydonga tikilib qoldi.

"Oz....Bizning lashkar qirilib ketmasin...Ular ko'payib ketishdi... O, kuch yig'ish kerak... Ha, to'g'ri. Zag'chalar to'dasiday yopirilib keladigan tabg'ach soni ko'pligiga borib, tor-mor keltirib yurdi. Faqat biznimi? Faqat qirg'iz avlodimi tabg'achdan qirg'in topgan? O...shu maydondan biz bilan urishayotgan Uchsuv yurti ham tabg'achdan qirg'in topgan. Kechagina bir-biri bilan urishayotgan to'lo's bilan eshtek, qipchoq bilan qarluq, izgil bilan chaa, o'n o'q... hammasi tabg'achdan aziyat chekkan. Kam sonli urug' vakillari mutlaqo qirilib ketdi. Bir-biriga orqa bo'lganlarining nasli davom etib kelmoqda. Qirq xivich bir donadan yotsa, bitta yosh bola hammasini sindirib tashlaydi. Hammasini yig'ib qo'ysa, bir bog' bo'ladi. Uni esa tog' ko'targan alp ham sindirolmaydi.

Ey, qasam urgur Elteres sher, ikkimiz nega birika olmadik? Bir-birimizga tayanch bo'lolmaymiz, a?! Biz shior tashlasak, qondosh el borki, kelar edi..." — deb Erkishi Elteresdan g'azablandi.

Bu vaqtda janggohda jang yana qizg'in tus oldi. Erkishining qo'shini ozlik qildimi, qurshala, boshladi. Biroq qochishmadi. Tirashib, chopishib, kuch bilan surib tashlanganida, kuch bilan to'xtashib, yo'llari to'silib,...yiqilgani yana turib ketayotib mayishib to'xtab...qo'shin bir-birini suyab, bir-biriga tirgak bo'ldi. Shundoqqina maydon o'rtasida ko'k chodir ro'parasiga kelib panalashdi. Yov ko'ziga qirg'iz qo'shini holdan toygandek nochor ko'rinib ketdi.

Elteres endi o'zi ot qo'yib, holdan toygan lashkarni birato'la yanchib tashlamoqchi bo'ldi. Ko'k chodir oldida sir bermay turgan Erkishini Elteres o'z qo'li bilan chopib tashlagisi keldi. Yalang'ochlangan qilichini qo'lida tutib endigina:

"Uraa-ha!" — deb hayqirib jo'namoqchi bo'lib turganida...

Ho'v, ko'k chodir yonida, ko'k yalov ostida boyadan beri ot ustida turgan Erkishi boshliq lashkarboshilar otdan tushishdi.

Buni ko'rgan Elteres ajablanib ularni kuzatdi:

— Ey, Salim bek! Anavilar nima qilishmoqchi, yo, Tangrim!

Shuncha olisdan Erkishining fikrini o'qiganday, Salim o'ylanib o'tirmay javob berdi:

— Bek, u qirg'izning Erkishisi! Oldiga dasturxon yozdirib, bemalol ovqatlangani o'tirdi.

Elteres ishonchsizlik bilan kulganday bo'ldi. Bu kulgi emas, norozilik ifodasi edi.

— Hozir o'laman, ovqat yeb olay, degandir-da u, Salim bek?!

— O, yo'q...

Salim so'zini tugatmay to'xtadi.

"Ey, Elteres sher! Jasurlikda tenging yo'q. Oyboltang o'tkir. Lekin biliming nuqsonli. Sherligingni mana shu nuqson yuvib yuboryapti", deb aytgisi keldi Salim Elteresga.

Aytmadi. Salimning bu gapidan keyin Elteres qattiq o'chakishib qolishi aniq. "Ey-a, sen dono, mening kuchimni ko'rolmayapsan. G'alabani mendan qizg'anyapsan", deyishi aniq.

Erkishilar bu vaqtda haqiqatan ham dasturxon yozdirishdi. Yozdirganda ham qarshisidagi Elteres to'pi bilan ko'radigan, maydondagi urishayotgan botirlarga yaqin yerga o'tirishdi.

— Botir, qo'shin holdan toydi, kuch qo'shaylik, — dedi Azman.

Erkishi farmon berdi:

— O'z tumanimdan uch mingini chiqaring!

O'ng-so'l qanotda shay bo'lib turgan uch ming lashkarning mingboshilari apil-tapil otlanishdi. Erkishining maydonga chiqargan uch ming askari "Oq to'lqin"dan uch barobar oz edi. Shunga yarasha, hech qanday tantanasiz maydonga kirib kelishdi. Ulovlari bir xil saman, yoshlari barobar g'unon kelbat, ushoqqina otlar. Biroq yugurganda charchamaydigan, asov va chopqir otlar. Chavandozlarining kiyganlari ham minganlariga uyg'un — kulrang sovut. O'zlari odmi, otlari kichik, kiyimlari nimrang — bu askarlarning maydonga kirib kelgani ham sezilmadi. Elteres endi rostakamiga kuldi:

— A-a! Er aka! Makring shumi hali! O'n samantoyga mingan o'spirinlarni chiqaribsan. "Oq to'lqin"im bu o'spirinlarni oqizib ketganida ko'rasan!

Endi Salim rostakamiga koyidi:

— Ey-a... Elteres sher! Kuching bor-u, mulohazang yo'q. Biz o'ylaganday, Erkishi qo'shini qonsiraganda, hammasi g'unon mingan o'spirinlarni jo'natib, o'zi qilichga boshini tutib beradigan sarkarda emas!

— E... Zaxiradagi tumani ko'rinmadi-ku?

— Bu yuborganlari g'unon emas, qulon mingan chavandoz erlar...

— Ie, Salim bek, unday chavandoz erlar "Oq to'lqin"da ozmi? O'n mingtaning hammasi abjir chavandozlar.

— E-ha! O'n mingtaning hammasi teng chavandoz... Biroq bizning tumanlar hammasi maydonda. U Erkishining lashkaridan maydonga chiqqani besh tumandan oshmadi.

Elteres o'ziga kelib, xavotirlanib so'radi:

— E... pistirmada qo'shini bor, deysizmi?

— Bor!

— Ko‘rinmayapti...

— Bor, Erkishining yana uch tumani otlarni to‘ydirib, o‘zlari dam olib galini kutib yotishibdi...

— Bo‘lsa bo‘lar...bo‘lganda ular yalanglikning qaysi kunjiga g‘oyib bo‘ldi? Otlari, harbiy kiyimlari, aslahalari bilan uncha askar bir chuqurga yashirinolmaydi. Uch tuman sig‘adigan o‘sha chuqurning o‘zi yo‘q bu yerda!

— Men ham shunga hayronman. Uch tumanning borligi aniq. Elchi yolg‘on aytgani yo‘q...

Bu vaqtda jang oqimi yana Elteres o‘tirgan tepalik etagiga qarab og‘a boshladi. Elteres qo‘shinining qo‘li baland kelib, qo‘shin harakati avj olgandek edi. Jangning borishi esa butunlay aksi. Oqbo‘z ot minib, oq sovut kiygan askarlar ko‘proq yaralanib, ko‘proq aziyat chekayotganday. Otdan yiqilganlar ham ko‘payib bormoqda.

Salim qamchisining sopi bilan maydonga ishora qildi:

— Ana, “Oq to‘lqin”ga tosh otila boshladi. Uni savagan toshlar haligi ko‘zga chalinmas... qulon mingan “o‘smirlar”!

Elteres indamay kuzatdi. Botirning cho‘zinchoq iyagi osilib, tishlari g‘ijirlay boshladi. Xo‘mraygan basharasi battar tund tortib, ko‘zlari qaynab chiqdi.

“Nima qilsam ekan? To‘lqinga qo‘shadigan qo‘shinim qolmadi. Yoki o‘zim ot qo‘yaymi? Unda yalov nima bo‘ladi? Belgim yiqilib, belim sinadi-ya... Erkishining pistirmada rostdan ham askari bo‘lsa, qo‘shinim turish beradimi? “Qora sel”, “Yolqin sel”, “Oq to‘lqin”, sizlarga nima bo‘ldi? Sizlar qoplaganda yov toqat qila olmas edi-ya! Yoki chindan ham qirg‘iz eliga qut berdingmi! Tangrim? Elteres alpingning yulduzi so‘nadimi? Nahotki! Endi oq yalovning shiori o‘chib qoladimi? Voy-yey...!”

Elteres qichqirib yubordi:

— Yo‘q! Oq yalovning shiori cho‘qqiga ko‘tariladi!

Ayni shu paytda yana bir kulgili hodisa ro‘y berdi.

Qandaydir bir ko‘lankaga o‘xshash otliq g‘o‘dayib chiqib keladi-da, oq otli Elteres askarlaridan birining jig‘iga tega boshlaydi. Oq otliq uni haydamoqchi bo‘lsa, to‘g‘ri ko‘k yalovni ko‘zlab qocha boshlaydi. Ana yetaman, mana yiqitaman, degancha, quvlab

ketayotgan askar hiyla yerga borib qoladi. Maydondan uzoqlashib ketgan otliq na "ko'lanka"ga yetmay, na hayday olmay, olislab ketmaslik uchun ortga qaytadi. O'sha zahoti "ko'lanka" ham ortga qaytadi. U ortga burilishi bilan tasir-tusir kelib, oq otliqqa tashlanadi.

Bu olisdan ko'zga tashlangan manzara. Bu "ko'lanka" — yilqichilarning qiziqchisi Shap edi! Hatto harbiycha kiyimi ham yo'q. Ustida bo'z kementay, uning ham etagi va yengi osilib qolgan. Boshida kulrang qalpoq, qalpoqning ham qirg'og'i shalviragan, tepa qismi yo'q. O'zi ozg'in, ustiga-ustak ozg'in qo'l-oyog'ini battar ramaqijon qilib ko'rsatuvchi tor jargak shim kiyib olgan. Qo'lida uqruqning siniq uchidan boshqa quroli yo'q. Tishlarini irjaytirib sharaq-sharaq kuladi. Uni chopib tashlamoqchi bo'lgan askar ham g'ayrioddiy qiyofasini ko'rib, tegmay o'taverardi. Shap akang burgutcha qiyqillab qo'yib, dushman askarining qo'ltig'iga uqruqning uchi bilan nuqib qo'yadi. O'zi esa sug'urcha chirillaydi, yoki yovvoyi mushukdek chinqiradi. Uni chopmoqchi bo'lgan dushman esa Shapni jin urgan, deb o'ylab, undan qochadi. Ayrimlari jin bo'lsa ham, chopib tashlayman, deb quvlaydi. Tutolmaydi. "Jin" ura qochadi. Biroq baribir bu "jinni"ga "sog'"lar yetolmaydi. Sababi — qiziqchi Shapning mingani ajoyib bedov tulpor! Ot bo'lganda ham u Qorato'riq chunoq[1]. O'rgatilgan Qorato'riq chunoq. Shapning o'zidan Qorato'riq chunoq qanday ot, deb so'rasang:

— Oo! Akangning chunog'i yilqining piri Qambarning duosini olgan. Oysiz tunda chunog'imni chu, desam, biron butog'i bo'lmagan qarag'ayga chiqib ketadi-yu!

— Jim, lofning dumi bo'ladi, — deydi yilqichi.

— E, dumi bo'lsa, ushlab oling lofimni, — deydi Shap qilt etmay.

— Qani, oysiz tunda qarag'ayga chiqqan chunog'ing kunduzi ham chiqishi kerak. Yugur, chunog'ingni qarag'ayga olib bor-chi! Huv, ana, butog'i yo'q qarag'ay.

— Ee, jinnilar, — deydi Shap yilqichilarga . — Kunduzi Qora to'rig'im chiqolmaydi.

— Nega tunda chiqqan kunduzi chiqolmas ekan?

[1] **Chunoq** — qulog'i kichkina, yoki kesilgan

— Boshi aylanadi...

— Tunda aylanmaydimi?

— Tunda ko‘rmaydi...

Yilqichilar qiyqirishadi. Shap bir tuki qilt etmay, rost so‘zlayotgandek xo‘mrayib qo‘yadi.

O‘sha hazilkash Shapning hujumi ham o‘zicha bir ajoyib hujum. Uning hazilkash ekanini bilgunlaricha, ko‘k chodir yonidagi ko‘k yalov tagida o‘tirgan Erkishilarning g‘azabi qaynadi. Dushmanga orqa o‘girib chekinish qo‘shinga xoinlik qilish bilan barobar. Manovi “ko‘lanka” bo‘lsa, chekinish uyoqda tursin, zing‘illab, ko‘k yalovni ko‘zlab jo‘nashi qo‘shinni ham, sarkardani ham oyoqosti qilish degani edi.

Shuning uchun Erkishi tasirlatib qochib kelayotgan “ko‘lanka”ni ko‘rishi bilan farmon berdi:

— Anovi it yovdan omon qolsa, yetib borib boshini chopib tashlang. Bu qaysi qo‘rqoq bo‘ldi?

Erkishi gapini tugatmasidan quvib kelayotgan askar ortga qaytdi. Shart burilgan “ko‘lanka” uni quvlab, ortidan yetib bordi.

Mana, endi yov askari “ko‘lanka”ni otdan tushirib, chopib tashlaydi, deguncha bo‘lmay, u askar o‘zi otidan qulab tushadi. “Ko‘lanka” bo‘lsa, oqbo‘z otni ham qo‘shib yetaklab, chopib Erkishining oldiga keldi. Askarcha kiyimi bo‘lmagan, aqli noqis, deb shubha qilingan bu qiziq kishi burgutcha qiyqillagandi, berigilar hayratdan qotib qolishdi. Shap oqbo‘z otning chilvirini oldinga irg‘itdi.

— Er aka! Mana mendan bitta o‘lja! Ko‘k yalov tagida erlar ichimligini sipqarib, bahuzur o‘tiring. Men borib yana o‘lja olib kelaman, eh-hey!

Shap tulkicha chiyillab, arsloncha do‘rillab qo‘ydi-da, Erkishi og‘zini ochguncha bo‘lmay, jo‘nab ketdi...

Aytarli, qiziqchi Shapning hujumi shu choqqacha ko‘rilmagan g‘ayrioddiy usul bo‘ldi. Shapni tanmigan Azman abo bilan Chekir biy nima deyishlarini ham bilmay qolishdi. Shapni sog‘ emas, jin chalgan tentak deb o‘ylashgan edi. Shapning kim ekanini bilgan Erkishi dastlab yayrab kuldi. Keyin o‘zini koyidi:

— E, Tangrim! Odam bolasini sen shunday aziz, shunday ijodkor qilib yaratibsan! Cho'pqut kiymay, qurol olmay, hazil-huzili bilan yovni otidan ajratgan shu hazilkashimni ham ajal oladi-ya! Ayamaydi-ya! Ey, asl Shap! Mardligingga tasanno!

Kun g'arbga og'a boshladi.

Jang hozirgina boshlangandek. Kun bo'yi davom etgan tinimsiz olishuvning suroni vaqt qanday o'tganini bildirmadi. "Oq to'lqin" tumani ham jangni tugata olmadi. Shunda qirg'iz qo'shini tinkasi qurib, holdan toyib, ortga surila boshladi. Ertalabdan beri qurollarini baland ko'tarib, jang qilgan askarlar orasida endi qo'llarini ko'taraman, deb ot yoliga tayanib qolayotganlari ko'paya bordi. Charchagan jangchilargina emas, ularning otlari ham oq ko'pik ichida qoldi. Jonivor, er qanoti — ot, boshini likillatib, chanqoqdan, charchoqdan suvlig'ini shiqirlatishga ham holi kelmay, hujumga intiladi. Dovdirab yer suzadi.

Aytarli, jangga oxiri kirgan "Oq to'lqin" tumani yopirilib, surib kirdi. Qirg'iz qo'shini chindan surildi. Qancha harakat qilishsa ham, "Oq to'lqin"ga dosh berolmay, chekinishga majbur bo'laverdilar. Sarosimaga tushgan qo'shinning oldi yovga taqalsa, orti ko'k yalovdan o'ta boshladi. Yov qo'li ustun kelib, ko'k yalovga ko'z tika boshladi, asta-asta yaqinlasha boshladi.

Azman chiday olmay turib ketdi:

— Botir, kechikdik... Do'l urdiring...

— Shoshmang, xon abo! — dedi Erkishi pinagini buzmay. — Dushman qo'shini hozir kuchga kirib turibdi, sal avjidan tushsin.

— Avjidan tushgunicha yanchib tashlaydi...

— Yalovni qulatishadi!..

Erkishi yosh yigitday mag'rur turdi.

— Qo'rqmang. Yalov tagida biz turibmiz-ku, beklar!

Yov mo'r-malahday yopirilib, qurshab oldi-ku oxiri...

— Ee, kiraverishsin. Ajali yetgan o'ziga zeb beradi. Yengiladigan yov oldi-ortiga qaramaydi.

Jang davom etardi. Qandaydir daydi o'q kelib Erkishining etagiga sanchildi. Erkishi mazax qilib kuldi:

— Eya. adashgan mergan! O'qing nishonga tegmagach, yoy tortib nima qilarding?!

— Botir, buyuring?

— Ayillar tortilsin! — dedi Erkishi. Uning ovozi qat'iy yangradi: — Do'l uring!!!

Qo'shinning katta do'li urilishi kamgakdagi tumanlarga ishora edi.

Ikki qo'shin uchrashadigan maydonning butun belgi-manzillariga ko'proq e'tibor beradigan Erkishi Bag'irni elchilikka yuborganidayoq shu yerni jang maydoni uchun mo'ljallagan edi. Qonli jang uchun pistirmabop yerni tanlash — g'alabaning asosiy garovi. Hammasidan ham maydon kaftdagiday aniq ko'rinib, uning pana-pastqamlari dushmanga aniq payqalmasa, bu — qo'shinga pistirma topish uchun qulay bo'lishini bilgan Erkishi Sayg'oqlining shu kanorasida jang qilishni ma'qul ko'rgan edi. Sababi, Sayg'oqlining bu qismi olisdan tep-tekis ko'rinsa ham, uning o'y-qir, muyulish, jarliklari talaygina. Ayni vaqtda xonning ko'k chodiri tikilgan tepalik bahaybat zog'orabaliqqa o'xshab ketadigan oddiy do'nglik bo'lib ko'ringani bilan, ortida katta jarlik bor edi. O'sha jarlikka Erkishi uch tuman qo'shinni pistirmaga qo'ygan edi. U qo'shinning tumanboshilari: biri — Bosh tegin, biri — Bars, biri — Buylash. Uch botir ertalabdan beri otlarni sovitib, askarlarni shaylab, hushyorlik bilan xonning do'l sadosini kutishayotgan edi. Hozir o'sha kutilayotgan belgi berildi.

Uch tuman askar yaxlit bitta odamdek shartta otga mindi.

Bu vaqtda narigi qirg'oqdagi Elteres "Oq to'lqin"ning seliga quvonib, "Mana, ko'k yalov endi yiqiladi. Qilichni sug'uring, bek"! — qichqirayotgan pallada Tangri yomonlik ko'rsatmasinmi?! Huv, yiqilay deb qolgan yalov ortidan yer harakatga kelganday otilib lashkar chiqib keldi. Lashkar o'zini kutmagan emas, kutib turganlarga ham yerdan unib chiqqanday bo'lib, bodrab, salobat bilan chiqib keldi.

URUSH TAMOM BO‘LMADI

Tugagan sayin tutagan,
Tubidan beri kuchaygan,
Ildizli yurtning belgisi.
Ozaygani sari intilgan,
Oq yo‘lbarsdek sakragan
Ulug‘vor yurtning belgisi.
“Ulug‘ so‘z”dan

Alp yigitlar urishdi,
Qing‘ir ko‘zin sezishdi.
Yaroqlarin so‘qishdi,
Qilichni qinga kuch sig‘dirdi.
Mahmud Koshg‘ariy
“Devonu lug‘otit turk”

“Ha,ha! Mendan baland bo‘laman, degan cho‘qqi hozir qulaydi. Parcha-parcha bo‘ladi. Uni parchalagan men bo‘laman. Men bugun qirg‘iz qo‘shinini qiyratdim. Ertaga tabg‘achni. Keyin olamni.

Shunday da’volari bilan havolanib ketayotgan Elteres hayqirdi:

— Erkishi qochib ketmasin. Uni ushladik, Salim sher! — Elteres katta burulga qamchi bosdi...

Xuddi shu payt o‘sha ko‘k yalov o‘rnatilgan baliqsimon tepaning narigi yog‘idan yerdan unib chiqqanday bir xil qizil kiyingan beadad askar ot qo‘yishdi. Hayqiriqdan yer larzaga keldi.

O‘t ketib, alanga qoplaganday bo‘ldi. Chunonchi, “Qora sel”, “Yolqin o‘t”, “Oq to‘lqin” tumanlari faqat Elteresdagina emas, dushmanga hujum qiladigan tumanlarga maxsus nom berish qirg‘iz sarkardalarining taomili edi. Mazkur tartibdan bitta farqi qirg‘izlar “qora” degan nomni ishlatmagan. Qora — qayg‘uning, falokatning nishonasi. Oqlik uchun hujumga otlangan qo‘shinning yo‘li ochiq, qutlug‘ bo‘lmog‘i lozim. Qutni ko‘k, oq, qizil, yashil ranglar olib keladi. Ilk ko‘klamda yer yashillanadi. Atrof-muhit yangilanishi barobarida qir-adirlar ko‘karadi, yam-yashil libosga burkanadi. Aks holda, hujumga otlangan lashkar qirish, talash uchun otlanmaydi. U Ota yurtni yovdan qo‘riqlash, elga tinch-

lik, farovonlik olib kelish uchun kurashadi. Katta jangda g'alaba qozonish — ko'k, yashil hayot garovi. O'g'il-qiz tinch yurtda tug'iladi. O'g'il-qiz o'ynab-kulib ulg'ayadi. Shu bilan el ko'karadi. Shuning uchun yam-yashil rang — umr ramzi. Ko'klam ko'klaganda sabza rangga Quyosh nur sepadi. Insonning sepgan nuri esa — qizil qon. Binobarin, oltin nur bilan qizil qonda ikkovi uyg'un kelganda, hech tuganmas kuch-quvvatga aylanadi, oq esa uni yuzaga chiqaradi.

Pistirmada yotgan uch tumanning biri — Bars tumani edi. Askarlari qip-qizil kiyingan, oq otlarga mingan — "Olov tumani". Biri — Bosh tegin tumani. To'q yashil kiyingan, jiyron otlarga mingan "Ko'k tuman" (bu yerda ko'k yashashga qiyos). Yana biri — Buylash tumani. Uning askarlari bir xil oq dubulg'a kiyishgan, biroq kiyimlari va mingan otlarida u rangni saqlashmagan. Har xil. Bu oq yo'l, oq safar nishonasi. Yo'l har qancha yengil bo'lsa ham, uning mashaqqati, azobi bor, albatta. "Yo'l azobi — go'r azobi" deb bejiz aytilmagan. Yo'l azobi ham turlicha bo'ladi. Shunday turfa yo'l mashaqqatlaridan qo'shinni omon-eson olib o'tish lashkarboshining salohiyatiga bog'liq. Buylash — mana shunday lashkarboshilardan biri.

Hozir shu tumanlar biri ketidan biri yopirilib chiqib keldi. Dastlab Bars yetagidagi "Olov tumani" kelayotganda do'nglikka aniq o't tutashganday qip-qizil bo'lib alangalandi. Ortidan Bosh teginning "Ko'k tumani" chiqib keldi. Bu tuman xuddi oldindagi olovni alangalatayotgandek tuyilardi. Shunda... ko'k yalovni ag'dargani turgan Elteres qo'shini asov to'lqin surib tashlagandek shitob bilan ortga chekindi.

Ko'z ochib-yumguncha Elteres qo'shini yerga kirgandek ozayib, siyraklasha boshladi. Bitta o'q bilan dushman bayrog'ini yiqitaman, deb mo'ljallab turgan Elteres lashkarning hammasini birdaniga jangga kiritib yanglishgan edi. Jangda askarlar holdan toyib, otlari kuchdan qoldi. Hozir yangi kiritilgan qo'shinga charchagan yov turish bermay surilgandan surildi.

Bu jang san'ati — "Erkishi pistirmasi" deb atalardi.

Bundan ko'p yillar avval, u paytda Erkishi yosh yigit, Bosh teginning hozirgi yoshida edi — tabg'ach bilan bo'lib o'tgan

katta jangda ikki taraf qattiq to'qnashgan. Jang uzoq cho'zilgan. Tabg'ach qo'shini yengilganday bo'lib, qirg'iz qo'shinini ortidan ergashtirib chekingan... G'ururlanib ketgan lashkarboshilar yoyilib qochayotgan dushman qo'shinini ta'qib eta boshlaydilar. O'shanda tabg'achning hech qanday sarosimasiz, g'ulg'ulasiz chekinishlari shubhali bo'lib tuyilganidan, yosh botir Cho'g'ultur (unda Erkishi nomini olmagan edi) o'z tumanini belgilangan masofada pistirmaga oldi.

Ko'p o'tmay paydar-pay ortlaridan quvib kelayotgan qirg'iz qo'shiniga tabg'ach yana hujum qildi. Yovni yengdik, deb hovliqib borayotgan lashkarboshilar g'aflatda qoldi. Ular qanchalik mardonavor turib, hujumni qaytarishmasin, hiyla bilan qaqshatqich zarba bergan tabg'ach hujumiga dosh berolmay parokanda bo'la boshladilar. Qo'shin qirila boshladi. Xuddi shu asnoda pistirmada qolib, otlari ham, askarlari ham tiniqib olgan Cho'g'ultur tumani maydonga chiqdi. Yangi kuchni kutmagan tabg'ach yo'li to'silgach, ortga qaytishga majbur bo'lgan...

Shundan buyon o'sha yosh Cho'g'ultur — hozirgi Erkishining pistirmasi deyarli jang taqdirini hal etib kelmoqda.

Zotan, Elteres burul otiga qamchi urib, hayqirib borayotganida, u, men yovni bir hamla bilan yengdim, yovning ko'k bayrog'ini o'zim yiqitaman, Erkishi boshliq Azman abo, Chekir biylarni ushlab, o'zim asir olaman, deb reja qilgan edi. Ertalabdan beri tizgini tortilayotgan burul tepadan pastga tosh qulagandek uchib tushdi. Na'ra tortib, yovga tashlanish Elteres ota-bobolarining harbiy udumi. Xususan, alpning hayqirig'i o'zgacha yangraydi. Uning odatiy past ovozi ham guldirab, salobatli eshitilsin, hayqirig'i esa yerni yorsin! Agar qo'shin noxos yovdan chekinib, orqa-oldiga qaramay qochib, parokanda bo'la boshlasa, alp sarkardaning o'sha tanish hayqirig'ini eshitib, bor kuchini yig'ib, ortga qaytib, dushmanga tahdid solib, mardonavor sobit turishi, so'nggi tomchi qoni qolguncha kurashishi — Elteres qo'shinining udumi edi.

Ertalabdan beri askarlar kutayotgan hayqiriq yangrashi bilan zo'rg'a oyoqda turgan askarlar sergak tortdi:

"I! Tangrim! Alp aka hayqirdi... Endi yov qochadi"

"O, ko'tarilmay qolgan qurolimiz yana kuchga kiradi"! Elteresning hayqirig'i askarlarning kuchiga kuch qo'shdi. O'zlarini qisib, surib, qirib kelayotgan kuchga dosh berishga urindilar.

Uch tuman qo'shin ochilgan to'g'onday bosgan bo'lsa-da, Elteres hayqirig'ini to'xtatmadi. O'z g'alabasiga shaksiz ishongan sher, og'zidan o'ljasini oldirgan bo'ri singari... mag'lub bo'lib, yanchilib, oyoqosti bo'lgisi kelmas edi. Hozir u bo'g'radan battar jazavaga tushdi, quturgan buqadan battar bo'kirdi. O'q yegan ayiqdan battar hayqirdi. Hozir u yaralangan arslonday g'azabnok, ayanchli, alamzada...

Hali u mag'lubiyatni, taslim bo'lishni bo'yniga olgani yo'q. Paydar-pay yopirilib, tor-mor keltirayotgan tumanlar unga o'ynoqlab toy minib yurgan bolalarday tuyildi...

Haqiqatan, chetdan kuzatgan kishi alangaday qip-qizil bo'lib aylangan katta qo'shinning qoq o'rtasida hayqirayotgan Elteresdan ko'z ololmas edi. U chirsillab kuyib, ho'l-u quruqni yamlayotgan alanganing o'rtasida kuymay turgan suvterakday azim, ulug'vor, mudhish edi. Chindan ham janggohni to'ldirgan lashkarning Elteresga jur'ati yetmayotgandek — haqir, mayda, arzimasdek manzara kasb etdi. Zero, alpning qarshisida alp tursin! Olovni o'chiradigan kuch bu — suv!

Alalxusus, Elteres sher bilan bellashadigan kuch — Erkishi.

Biroq Erkishi Elteres ustidan tantana qila boshladi. Yuzlashgani chiqmadi.

"Sen kim eding, Elteres?! Befoyda qichqiraverma! Holing shu endi. Jazavang tutsa, tutaversin, parvo qilmayman. Seni telpakday serpib tashlaydigan yosh pahlavonlarim bor", — degani edi bu.

Erkishi Katta to'riq otini bostirib borib, ro'parada savlat to'kib, namoyishkorona qarab turdi. U jo'sh urgan kuchidan mamnun, g'animining domangir faryodidan quvonchda edi. Qaddini g'oz tutib, sof po'latdan bo'lgan sovutini yaraqlatib, bepisand, g'olibona qarab turardi.

Erkishining bu bepisandligi, mensimasligi ham alplar udumi edi. Udum bo'lganda ham dushmanni oyoq ostida toptab, o'z mavqyeini temirdek mustahkamlovchi mardlik va jasorat udumi.

Ko‘z oldidagi janggohda yotgan er boshlarini, to‘kilgan er qonlarini orqalab turgan, hech barbod bo‘lmaydigan zo‘r kuch!

Son-sanoqsiz lashkar o‘rtasida jazavaga tushib urishib yotgan Elteres Erkishining bunda mensimay, bepisand qarab turganini ko‘rganda, alam achchig‘idan yorilib ketay dedi. Aldanib qolganini bilib dono lashkarboshisi Salimning pistirmada askar qoldiraylik, alp degan maslahatiga kirmay katta xato qilganiga endi pushaymon bo‘ldi. Elteres yolg‘iz boshi, shaxsiy or-nomusi uchungina javobgar bo‘lganida hozir alam achchig‘ida kuymay, o‘z-o‘ziga jazo bergan, ya’ni o‘z jonini nomus uchun qurbon qilgan bo‘lardi. Biroq bunga haqqi yo‘q. Shu buyuk urushga o‘zi boshlab kelgan to‘qqiz tuman lashkarning taqdiriga javobgar edi u. Shuningdek, Uchsuvda yashagan ko‘p urug‘li yurt taqdiri uchun qayg‘urishi kerak edi. Elteres sherga suyangan el oz emas. U ba’zida yovlashib, ba’zida do‘stlashib yurishgan qondosh urug‘larning, ko‘p urug‘li ellarning ichida eng ko‘p, eng kuchli deb hisoblangan eldan edi.

Uning Ota yurtini makon tutgan, o‘choq egasi tutun burqiratgan tunduk sohibi — besh yuz mingdan oshiq. Har uydan bittadan qurol tutgulik er chiqqanda ham, besh yuz mingdan ortiq askar bor! Bugungi hujumga ularning beshdan birigina otlangan edi. Eng abjir, eng mohirlarigina kelishgan. Hammasi bo‘lib to‘qqiz tuman qo‘shini jangga kirdi. Shu to‘qqiz tuman qo‘shin qirg‘iz qo‘shinini tutday to‘kadi, deb ishongan edi. Hozir o‘sha tilagi amalga oshmay qolganini Elteres sher hech bo‘yniga olgisi kelmayotgan edi...

U jazavaga tushdi, quturdi. Qahr-g‘azabi benihoya junbushga kelib hayqirdi:

— Ey! Erkishi, bu yoqqa kel! So‘yishamiz!

Erkishi tepadan turib gumburlatib dedi:

— Ha,ha! Sher! Jangni to‘xtat! yengilding.

— Iya... qiy-chuvlashayotgan bolalaringga talatma, alp alp bilan yuzlashadi. O‘zing chiq! yengsang, taslim bo‘laman. Yengsam, taslim bo‘l!

Elteresning chorlovi botirlik udumi edi. Erkishi buni ma’qul topib, Elteres bilan yuzlashmoqchi bo‘ldi.

— Sher chin aytyapti. Men u bilan urishgani chiqmoqchiman,- dedi.

— Yakkama-yakka jangda botiri o'ldi. Qo'shini olomonda parokanda bo'ldi. Bu olishuv yana nimasi? Yo'q, botir.Chiqmaysan! — dedi Azman abo.

— Elteres alp alplik udumi bilan chaqirmoqda!

— Yo'q! Hamma udum tamom bo'ldi. "O'ladigan tayg'on qayish chaynaydi", deyishadi..

Bu yoqda Chekir biy Azmanni quvvatladi:

— E, u shunchalik zo'r bo'lsa, avval bizning qurshovdan chiqib olsin!

Shu asnoda janggohdan chinqiriq eshitildi. Erkishining oriyatini qo'zg'atmoqchi bo'lgan Elteres o'zini qurshab olgan askarlardan birini janchar uchiga ilib olib, boshi uzra ko'tarib olisroqqa uloqtirib yubordi. Uni o'rab turgan qo'shin seskanib, ortga siljiy tushdi.

— Yo'l bering, bek! — dedi Erkishi bostirib borishga shaylanib. Azman Erkishi mingan otning tizginidan tutdi:

— E, alp degani yengilgan dushmanini chopmaydi. Ana, askarlar o'rab kelishyapti uni. Gapimni eshit. Pinagingni buzma! Oshiqma! Shuning o'zi Elteresning yulduzini tushiradi.

— Azman abo xolis gapni aytdi, — dedi Chekir biy. — Elteres hozir yaralangan arslon. Uni, yaxshisi Bars bilan Bosh teginga qo'yib ber. O'shalar matab kelishadi.

— Elteres sinmaydigan po'latdek alp. Yosh botirlarimizni mayib qiladi...

Bu vaqtda Elteres davangirdek katta askarni janchariga ilib ko'tarib olgan edi. U askar janchar uchida hayqirardi:

— ... sen meni jancharga sanchding. Men seni yeyman!

Janchar uchidagi Dev aka edi. U tik kelib chopishaman, deb Elteresning janchariga chap berolmay qolgan edi. Elteres Dev akaga janchar urishga urib, boshi uzra ko'tarishga ko'tarib, biroq oshirib olisga tashlay olmay, gandiraklab ketdi. Dev aka janchar uchida ilinib turgani bilan, tig' uning badaniga o'tmadi. Jancharning po'lat uchi qalin guppi to'nga tepchib, kira boshlaganda, Dev aka jancharni mahkam ushlab, o'zidan qaytardi. Janchar

guppi to'ndan ajradi. Biroq Elteres kuch bilan yana bir suqqanda, janchari qandaydir qattiq narsaga taqaldi. Elteres buni qo'li bilan his qildi.

"E-e, it! Suyagingni teshdimmi?" — deb jancharini ko'tardi. Biroq janchar ustidagi darozning suyagi teshilganga o'xshamas, sog'-salomat edi. Chindan ham Dev aka janchar uchini sop kabi mahkam tutib, sal bo'shatishi uchun bag'ridagi zirhga taqagan edi. Sal tayangulik tayanch bo'lsa, Elteresdan jancharni tortib olish fikrida edi. Afsuski, iloji yo'q. Tayanch topolmagan Dev aka uzun xodaning uchiga o'zi chiqib olgan yosh boladay tebranib, "eyman seni!" deb hayqirardi.

Janchari uchidagi darozning sog' ekanini ko'rib Elteres qo'rqib ketdi.

"Tangrim! — dedi u. — Buncha menga qahr qilding? Bu inson emas, shayton-ku! Po'lat ham badanini tesholmasa-ya"!

Dev aka tepada turib qichqirardi:

— Yeyman! yeyman!

Elteres jancharini qattiq-qattiq buradi. Janchar noxosdan qoq o'rtasidan sinib ketdi. Osmondan tushib kelgan jinday alpang-talpang ustidan tushgan Dev aka Katta burulning sag'risiga tovoni bilan urildi. Gandiraklab yiqilib ketayozdi-da...Elteresning yelkasiga tarmashdi. Sher atalgan alplar bilan necha bor yuzlashgan Elteres bunday xo'rlikni endi ko'rayotgan edi. U har doim g'olib bo'lib kelgan. Har doim hayqirib chiqqan alpni avval otidan tushirib, keyin janchar suqqan. Kuchi tosh yorgan botirlarni bir hamlada qochirib, tig' sanchgan. Lekin bunday xo'rlikni ko'rmagan... O... hisobli dunyo! Bu dunyoning shafqatsiz adolati, achchiq hasrati ko'p. Ayniqsa, xayolingga kelmagan mana bunday mazaxi, tomoshasi o'tadi joningdan!

Jancharga sanchdim, deb tepasiga azot ko'targan g'animi o'ziga chang solib tursa, qanday haqorat bu Elteresga?!

Hozir uning ayamay jazavasi tuta boshladi. Gardaniga yopishgan darozni jin deb xayol qila boshlagan edi.

"Inson bolasi bo'lsang, o'tingni ichaman, it"!..

Hozir Elteresning xayolidan Erkishi ko'tarilib ketdi. Gardaniga osilgan manovi nusxa kim o'zi?! Elteres hozir shundan boshqasini

o‘ylay olmasdi. Shu nusxaga o‘chakishib, g‘azabi qaynayverdi. Agar bu darozni inson qiyofasidagi jin deb gumonsiramaganida, agar bu darozning inson bolasi ekanini bilsa, hamma tanigan, Dev aka degan oddiy konchi ekanini, jaydari, odmi, avom inson ekanligini bilsa, unda Elteres bu darozni yelkasidan bir tortib, tortganda ham, kiyimiga yopishib qolgan chakamug‘ni olib tashlaganday olib jazosini bermasmidi... Biroq gardaniga yopishib olgan Dev akaning o‘zi oddiy odam emas. U o‘zini Ko‘hiqofdan chiqqan qora devning naslidanman, deydi. Badaniga tig‘ o‘tmay qolishi, o‘zi otidan ajrab, janchar uchida ko‘kka ko‘tarilib, yana omon-eson yerga tushishi, tushganda ham o‘zi bilan yoqalashayotgan dushmanning oti sag‘risiga oyog‘i bilan tik tushishini Dev aka tasodif demadi. U Elteresga tarmashib hayqirdi:

— E! Sher! Men akang dev! Hozir seni tiriklayin yeyman! yeyman seni!

Elteres endi rostakamiga qo‘rqib ketdi. Lekin sir boy bermadi. Holdan toya boshlaganini sezdi. Oh, qo‘rquv, yengilmas alpning ham holini quritib, madorini oldi-ya!..

Elteres yengilganini endi sezdi. “Bir amalla, sher. Amallab maydondan omon chiqib ket. Boshqatdan askar yig‘. Boshqatdan urush och. Qasos ol, bu dushmandan”, — shunday bir ichki ovoz Elteresga maslahat berganday bo‘ldi.

Elteres Katta burulga qamchi urdi. Katta burul otildi. Yo‘lidagilarni bosib ketayozdi. Balki kimlardir ot oyoqlari ostida qolgandir ham? Bo‘lsa ne?...

* * *

Tun kirib, qorong‘ilik quyuqlasha boshladi. Jang suroni pasayib qolganday. Ammo Elteresning qulog‘iga do‘piragan ot tuyoqlarining ovozigina eshitilardi. Nima bo‘ldi-yu, haligi daroz, naynov jin gardanidan kemirib kelayotganday, ensasi jizilladi. Ko‘z oldi qorong‘ilashib, hushini yo‘qotib, yiqilayozdi. Katta burul esa yelib ketardi. Elteres otdan yiqilmadi. U sher otdan yiqilmasdi ham.

Tun kirib, urush suroni bosilgani bilan, jang to‘xtamadi. Urush bir necha kunga cho‘zildi.

Keyingi kungi janglarda qirg‘iz qo‘shinlari Elteres tumanlarini uloqtirib tashladi. Ikki tarafda ham yo‘qotishlar talay. To‘qqiz tuman qo‘shinning yarmidan ko‘pi holdan toydi. Bir talayi otsiz, och-nahor tentirab yuribdi. Qirg‘inga uchraganlari ham oz emas. Namxush, ko‘pchib turgan yer ot va odam qonlarini to‘ygunicha shimdi. Sayg‘oqli maydonidagi qir-o‘r, past-baland, kamgak-kanoralar odamni seskantiradigan dahshatli manzara kasb etdi — hamma yerda tig‘iz ot va odam o‘ligi.

Huv, tog‘ boshiga uya solib ketgan qarg‘a, quzg‘unlar o‘liklar qoplagan tekislikka kelib qo‘nishdi. Hayot tarzlariga ko‘ra tekislikda yashamaydigan — qoyalardan balandda, oq cho‘qqilardan balandda aylana parvoz qilib yuradigan kalxat, tasqara, boltayutar kabi o‘limtikxo‘rlar yalanglikka yopirildi. Ular ziyofatga maxsus taklif etilgan mehmonlar kabi — osoyishta, beparvo, kayflari chog‘.

Ne tongki, odam bolalari bir-birlariga bolta so‘qib, biri-biriga janchar sanchayotganda,... kechagina dunyoning ustuni kabi qad kerib turgan botir askarlar bugun qirg‘in topib, o‘liklari uzala tushib yotsa... Bugun u er o‘liklari xunsiz, chirkin, murdor bir losh. Oradan bir-ikki kun o‘tib, bu o‘limgohdan o‘tib bo‘lmay qoldi. Tarvaygan beso‘naqay kalxatlar, boltayutarlar, kalxat, tasqaralarning vazifasi dasht yuzini murdalardan tozalash bo‘ldi. Mohiyatan, o‘laksaxo‘rga bu murda molnikimi, qayvarannikimi, insonnikimi... farqi yo‘q. O‘z toifasi doirasida o‘zlaricha qudratli, zo‘r bo‘lgan bu parrandalar uchun yemishning, o‘ljaning saragi — puchagi bo‘larmidi? Hayvon o‘ligini talab, inson jasadini ayab qo‘yarmidi ular?!

Bu yirik-yirik qanotlilar yer yuzidagi iflos narsalarni yebyutib yo‘qotishni ko‘zlaydilar. Kechagina tiriklik chog‘ida aziz-u mukarram bo‘lgan inson farzandi qirg‘in topdi — iflos murdaga aylandi. Iflosliklardan yer beti poklanishi kerak. O‘sha boltayutar, kalxatlar oziqlanaversin — yer-suv tozaradi. O, murakkab dunyo, vahshiy dunyo, ay! Bu dunyoning haqiqati nimada? Zo‘ri kim? Xori kim? Kami nima? Anglashning o‘zi bo‘lmadi, ay!

Kecha ot o‘ynatayotgan botir jangchilar birining qo‘lidan biri qirg‘in topib, bu dunyoning sho‘rishidan ajal topdilar. Murdalari-

dan bugun zamin irganmoqda. Yerni jirkantirmaslik uchun, bu iriy boshlagan jasadlar shu tarzda o'laksaxo'rlarga rizq bo'ldi.

Yana bir kun o'tsa, Sayg'oqli maydonida tirik jon tura olmas edi. Badbo'y hid anqib, nafas olish imkonsiz edi. Cho'zilib yotgan ot va odam o'liklari o'laksaga aylandi.

Janggoh vazifasini o'tagan maydonni o'laksadan tozalash kerak. Lekin bunga inson farzandi qodir emas.

TOSH BOBOLAR

O'zim Ishgin — Alp — Turgan.
O'n uch yoshimda olti urug' eldan ajraldim.
Yerdagi mag'rur Bars o'g'illariga to'ymay ketdim.
O'n oy ko'tardi onam meni. So'ng elimga olib keldi (dunyoga keltirdi).
G'ururim uchun yerda yurdim (umrguzaronlik qildim)...
Elimga, qonimga to'ymadim... Og'a-inimning mehriga to'ymadim...
Qayg'u-tashvishingizni birodarlaringiz bilan baham ko'ring.

Toshdagi yozuvlar. S.Y. Malovdan

Odam bolalari kecha jang bo'lib o'tgan maydonni bugun o'likdan tozalamoqqa kirishdi.

Insonni inson o'ldirganidan ham, qirganidan ham qirg'inda qiyragan jasadlarni yerga topshirish mashaqqati, ovorasi kuch — eng og'ir ish ekan. Har tarafdan o'z-o'z kishisi jasadini yerga qo'yishayotgan paytda kecha dushman bo'lib urishgan askarlar bugun bir-birlariga adovat qilishmas, yovvosh tortishgan edi. Jimgina o'z qayg'usiga mashg'ul bo'lish, o'z hasratini chekish bilan o'zlariga qarashli askarlar jasadini izlashmoqda. O'zlariga qarashli o'lik tanani yerga topshirishmoqda.

Go'r qazish...

Go'r qazish...

O, qancha-qancha go'r qazimoq kerak bo'ldi. Qancha cho't sindi. Kerki o'tmaslashdi, uchi sindi. Kurak egildi. O, qonga bo'yalgan qancha chim yer ag'darildi, tosh ko'chirildi. Bu yer qazishlarning oxiri hali ko'rinmadi. Har kim o'ziga qarashli askar o'ligini yerga berish uchun ikki tarafda teng ming-minglab kishilar g'imirlardi.

Endi shu minglagan askar yalanglikni qopladi. Biroq bular tinch. Unsiz, jim, ma'yus chim kavlaydi. Tosh ag'darishadi. Jangda joni samoga uchgan askar jasadini tuproqqa topshirishadi.

Bular kechagina jang bo'layotgan maydonni eslashadi.

Yerning ko'z yoshini surtib, yerning qayg'usiga sherik bo'lishayotgandek.

Jang bo'lib o'tgan maydonda tosh oz edi. O, kecha toshning ozligi jang uchun ayni muddao bo'lgan. Bugun toshning tanqisligi bularga muammo bo'ldi. Boisi, jangda jon topshirgan jangchilarning jasadlari qo'yilgan yerda o'chmas iz bo'lishi shart. U belgi esa — tosh!

Tosh sovuqda yorilmaydi. Issiqda kuymaydi. Tosh asrlar osha saqlanadi. Shu tosh ostida bir vaqtlar bo'lib o'tgan jangda joni ko'kka uchgan bir jasur askarning qabri saqlanib qolganini bu tosh kelajak avlodga xabarlaydi. Hozir esa tosh, tosh, tosh topish bu kishilarga malol va mashaqqat edi. Bu eng og'ir mushkulot bo'ldi. Huv, olis soy tarafdan tuyaga, otga tosh ortib kelayotgan kishilar tongdan boshlab tinim bilmadi. Mana shu yalanglikda bir-biriga tutash, egizday o'xshash qabrlarni qazigan kishilar kun-u tun tinim bilmadi.

"Jasadlarni ko'mishni jadallashtiraylik. Yana bir kunga cho'zilsa, ular ayniydi. Ko'k chivinlar qurt tashlab, kalxatlar titib tashlaydi. O, uvol, uvol".

Askar bugun qotil emas, rahmdil, yuvosh, muloyim, g'amgin, kamtar va qo'rqoqdir. Qo'rqqanda ham Tangrisidan qo'rqadi u. Biri-birini ayamay o'lim sochgan inson farzandidan Tangrining g'azabi kelmasa edi, deb qo'rqadi askar. Bugun u qo'liga oybolta olib, urush qo'msagan kishi emas, qo'liga cho'kich olib, go'r qazigan kishi.

Go'r qazigan kishi, mungli, mulohazali, notinch bo'ladi. O'tgan umrni ko'z oldidan o'tkazadi. Umr qiziqarli, bahsli, qo'rqinchli va qisqa.

"Ha-ya, shu qisqaligi yaxshi... Umr uzayib ketsa, bu inson bolalari bir-birini tiriklayin yer ekan. Shundog'am yeb yuborishdi mana... Nima? Biriga birining bolta so'qishi, birini biri o'ldirishi — yegani bo'lmay nima yana? Yeyish degan shu. Nima?

Teng ekin ekib, yaylovda teng mol boqib, qishda ko‘mir yoqib, konda temir eritib, o‘g‘il-qizni qoshimizga chorlab suhbat qurib, “Ulug‘ so‘z”ni aytib osoyishta uxlab, tinchgina o‘z tashvishlarimizga sho‘ng‘ib, ro‘zg‘or tebratsak, umr kechirsak, Tangri bizni yorlaqar edi. Voy-yey, nega inson farzandi bunchalik shafqatsiz?”

Go‘r qaziyotgan askar shularni xayolidan kechirdi. Chakkasida ter yaltiradi. Ataylab uni artmadi. Mashaqqatda oqqan ter insonga quvvat bo‘ladi. Allanechuk bir iliq samimiyat uning terlagan manglayini ilitdi. U bundan zavq tuydi.

“...Shu o‘lib yotgan askar — ekin eksa, mol-hol ko‘paytirsa, shunday manglay teri unga ham rohat bag‘ishlarmidi? Hozir erta bahor. Odamlar yer haydab, urug‘ qadaydigan palla. Mollar bolalab, parrandalar uya solgan kez. Mana bu jigarim bu yil tariq ekmoqchi edi. Tilagiga yetmadi, o‘lib yotibdi. Zaifasi tul qoldi. Qozoni to‘nkarildi. O‘chog‘i qisir. O‘g‘il-qizi yetim. Ota-onasi g‘am-alamda kuyib-yondi. Hozir men unga go‘r qaziyapman. Chuqur qaziyin. Harbiy kiyimi, qurol-aslahalari, mingan oti, barcha kerakli ashyosi birga dafn etiladi. Aks holda, bu sho‘rlikning uchgan ruhi bezovta bo‘ladi. O‘ksinadi, tiriklar meni unutdi, yod etmadi, arvohimni chirqillatdi, deydi. E-ya, jigarimning ruhi tinch bo‘lsin. Uning jasadi qo‘yiladigan qabrni keng qaziyman. Marhum orom olsin. Oti ham birga mangu uyquga ketsin. Otining yem-xashagini tog‘oraga solib qo‘yaman. O, jigarim, mendan rozi bo‘l. Bizga qahring kelmasin. Bizdan norozi bo‘lma!”

Go‘r kavlagan kishi ko‘z yoshini surtdi. Bugun u askar emas — go‘rkov. Go‘r kavlagan kishi — yig‘loq, xafahol. Arvohga hurmat ko‘rsatmaslik — noma’qul ish...

Qadim bir yurtda ayovsiz, qaqshatqich jang bo‘ldi... Qari jangchi cho‘tini qitirlatib, shag‘alli yerni chuqilab gap boshladi: mazkur urushda mayitlarni yerga berish g‘oyatda mushkul bo‘ldi... Qish fasli bo‘lganida oson bo‘larmidi? U palla xuddi bugungidek kun ilib, yer yasharib, chivin-chirkay uchib chiqqan kez... Ko‘milmay qolgan mayitlar darrov ayniy boshladi. Ua, o‘lganlar ozroq bo‘lsa-chi! Yoki janggoh maydoni kichik bo‘lsa-chi! Huv, xira parda tortilgandek oqish tuman qoplagan adirlardan beri butun

tekislik to'la askar o'ligi. O, bu yerga urug' sepilsa, tomir otib, yashnab, baraka unmasmidi? Undan hayot unib chiqadi. Agar o'lik sepilsa, bu — mahrumiyat, bu — qiyomat. Badbo'y hid anqigan yerga jin-shaytonlar uymalashadi. Ular mayitni xo'rlashadi. Kasallik, maraz qoplaydi.. Jonivor, o'limtikxo'rlar inson jasadini jin-shaytonlar tahqiriga qiymay, ularga qarshi urishadilar. Jinlar o'liklarni oyoqosti qilib, chiritishi mumkin. O'limtikxo'rlar ularga izn bermay, mayitni kuzatadilar. Boltayutarlar suyaklarni yutib yuboradi. Kishi suyagi qurib, oftobda qoqlansa, undan yomon dard tarqalishi mumkin...

Qari askar manglay terini artdi. Oftobda kuygan terisi qat-qat bo'lib burishgan. Qisiq ko'zlari o'ychan, qiyofasi mungli. Shu zamongacha talay janglarda ishtirok etib, o'lmay omon qolgan bu chol ko'p marta yarador bo'lgan. Ana, o'ng qulog'i chunoq. U o'sha boyagi — Elteres ularni g'aflatda qoldirib, uyqudaligida bosgan jangda qulog'ini choptirgan. O, bosh omon qolib, quloqning kesilishi — katta o'lja, katta davlat. Quloqdan biroz qiyg'och tegsa, bo'yin kesilmasmidi?! Mana bu chap yuzidagi oq tirtiq oyboltaning tig'idan qolgan iz. O, oybolta bexato so'qilganida yuzi emas, suyagi kesilmasmidi?! Unda esa oybolta bu askarning yuziga epkin bilan adashib tekkan. O'sha oybolta tig'ining o'rni hozir ham bilinib turibdi. Bu askar o'sha jangdan omon chiqdi. Qirq yil qirg'in bo'lsa ham, beajal chivin o'lmaydi, degani shu-da. Ajal olmadi uni. Bu askar hanuz tirik. Kechagi jangda ham bu askar o'z jonini asrab, bo'yin tovlab yurgani yo'q. Jonini ayamay chopishdi. Qari bo'lsa ham, jangdan bo'yin tovlashga haqi yo'q. Jonini avaylagan qo'rqoqlarni bobolar arvohi qarg'aydi. Har safar ulug' janglar tepasida uchib yuruvchi bobolar arvohi o'z avlodining botirini ham, zaifini ham, kuchlisini ham, abjirini ham qo'llaydi. Arvohlar qo'rqoqni kechirmaydi. Qo'rqoq — o'z urug'ining isnodi. Qo'rqoq nasl yakka o'zi o'limga yuz tutgani mayliga edi. Uning qo'rqoqlik kasri butun urug'iga, eliga, yalov shioriga tegadi. Qo'rqoqning boridan yo'g'i afzal. Uning yov qo'liga asir tushganidan hech naf yo'q...

O, kechagi jangda ham shu chunoq quloq, tirtiq yuz qari askar chekinmay olishdi. Cho'llamay, deya qil chaynadi. yengilmay,

deya hushyor bo'ldi, oyboltasini bexato tutib so'qdi. Dushmanning talayini otdan tushirib, chopdi. O'zi otidan tushgani yo'q.

Mana hozir esa o'lganlarga go'r qazimoqda.

Lahad tubidan chiqqan toshni ikki kishi ko'tarib, lahad qirg'og'iga qo'yishdi. Tosh atayin tarashlanganday bir tarafi yapasqi silliq edi. Qari askar beo'xshov qo'lining qadoq bosgan kaftlari bilan toshning silliq yuzasini siladi.

— E-ya, bu tosh yuzasi yozuv bosgani mos ekan. Bechora, bu yerga qo'yiladigan askarimiz oq niyatli yigit edi. Balbali o'z joyidan chiqdi.

— Bu askar chekinmay olishgan-ku, og'a?

— Xo'sh?

— Qo'rqoq ortiga qaramay qochadi, — yosh askar kuldi.

— E, kulma, bola! Qo'rqoqning qochganidan ne naf?

Yosh askar indamadi. Cho'ti bilan yerni o'ya berdi. Qari askar ham tinim bilmadi.

— ...o'sha ulug' qirg'inda o'lik qoplagan keng yalanglikka kimsa yaqin yo'lay olmay qoldi. O'likdan chiqqan badbo'y hid nim tutun bo'lib, ko'kka o'rladi. Havo buzildi. O'limtikxo'rlar ham ularni yeb tugata olishmadi. O'shanda jin-shaytonlar tilagiga yetdi. To'rt tomonga vabo sepishdi. Inson, hayvon, qayvaran, parrandalar... bari qirildi. Ha! Unda bo'lib o'tgan musibatni Tangrim boshqa yo'latmasin! Inson yog'i quyosh taftida erib, jizg'inak bo'ldi. O't ketib, xas-xashak kuyib, tosh qoraydi. Biri-biriga shunchalik ko'p qasd qilgan odam bolasini Tangri jazolamadimi?! O'choqqa o't yoqilmadi. Tunduk tortilmadi. Arqondagi qulun bo'shatilmadi. Ovul-ovul yoppasiga qirildi.

— E-e bolam, bular hammasi qiyomatga teng bir dahshat. O'lgan o'ligini yashirolmay qolishning o'zi qiyomatdan kam kulfatmi? O'shanda quturgan, semirgan shaytonlar aziz yerlarga tupurmadimi? Ular ayovsiz haddan oshib, jasadlarni ko'ma olmay, o'zlari ham o'lim topgan inson farzandlarini tahqirlab tashlamadimi? O'shanda ular osmon va yer oralig'ida ulkan qora qanotlarini selpib, yomonlik sochib, xunuk karillashmadimi?!

Qari askarning hikoyasini hech kim bo'lmadi. Katta-kichik Tangriga iltijo qildi:

“Buyuk Tangrim, bizga qahr qilma! Jangda o‘lganlarni oxirgi manzillariga kuzatyapmiz”...

Qari jangchi boshqalarga buyurib qo‘ydi:

— E, chaqqonroq harakat qilinglar! Jigarlarimizni tezroq dafn etaylik! Jin-shayton karillamasin, yig‘lasin bu safar. Tilagi amalga oshmay qolsa, jinlar faryod chekadi. Jangda shahodat topganlarni tez yerga qo‘yaylik!

Bu go‘r qazilib bo‘ldi.

Xushbichim yosh askarning jasadini kishilar lahadga tushirishdi. Askar muruti endi sabza urgan, boshidan issiq-sovuq o‘tmagan o‘spirin edi. O, o‘spirin bo‘lsa ham, tap tortmay chopishganini-chi! Sovutining bir necha yeri sitilib ketgan. Oyboltaning qattiq zarbi tekkan yerlari ham bor. Jancharning tig‘i teshib o‘tgan, biroq askar badaniga yetmay sinib ketgan. O, asl yigit, nima bo‘lganda ham juda jasur yigit bo‘lgan ko‘rinadi. O‘zini g‘anim mo‘ljalga olib, janchar sanchganida, jancharni bolta bilan sindirgan, shekilli. Yoki bir siltab, kuch bilan sindirib tashlaganmi? Jancharning uchi cho‘pqutida sanchilib qolgan. Ikkinchi janchar esa ko‘ksini jarohatlagan. Ha, yosh askarning qo‘ynida qoni ivib qolibdi. Nimadir bo‘lib yopinchig‘i tushib ketganmi? O‘q qoq chakkasiga sanchilibdi. Shundan ajal topgan o‘xshaydi.

O, bu haqiqiy mardning ajali!

Bunday o‘lim ham sharaf. Qari askar marhumning peshonasidan siladi:

— Boraqol, eran! Mangu yotadigan manzilingga bor, Yosh eding. Sening o‘limingdan rozimiz, el rozi, Tangri rozi! Senga ajal olib kelgan po‘lat tanangda qoldi. Uni narigi dunyoda olovga erit. O‘zingga janchar yasab ol. Unda senga daf qilmoqchi bo‘lgan shaytonni o‘ldir!

— Bor, bor, eran! Bo‘z yer bag‘ri senga ko‘rpa. Erta ketdim, deb yozg‘irma. Hammamiz to‘xtaydigan manzil — bu yer...

— E.. chirog‘im. Tug‘ilgan borki, o‘ladi.

— Bu dunyoga ustun bo‘lib qolgan inson farzandi yo‘q. — Hammamiz ketamiz...

— Sening o‘liming pok o‘lim! Jangda jasorat ko‘rsatib, joni fido bo‘lgan askarning yuzi yorug‘ bo‘ladi!

— Ona sutingni oqlading, eran!

Harb kiyiming ustingdan tushmadi. Qurol-yarog‘ing yoningda, eran! Kishilar tantanali, lekin past ovozda pichirashdi.

— G‘am chekkan ota-onang, yetim qolgan o‘g‘il-qizing, tul qolgan yoring sendan rozi.

El-elating sendan rozi. Sen ham bizdan rozi bo‘l! Qari askar atrofdagilarga murojaat qildi:

— O, xaloyiq, bizdan erta ajrab ketayotgan bu yosh eranda kimning haqi qolgan?

Unda-bunda ovozlar yangradi:

— Yo‘q!

— Yo‘q!

— Yosh eran chinakam botir ekan!

— Bizning unda haqimiz, da’vomiz yo‘q!

— Yosh eran oqko‘ngil ekan!

— Oti, sovuti, quroli bilan olis safarga yakka o‘zi ketdi!

— Borsin, borsin,eran!

— Eranning olis safari baroridan kelsin!

Yosh askarning qabriga yozuv bosilgan tosh qo‘yildi. Unga ikki qator so‘z yozildi:

“Men qirg‘izning quluniman. Ismim — Senek. Yigirma bir yoshimda qazo topdim...”

Go‘r qazish...

Go‘r qazish...

Qum — tosh qitir-qitir bo‘lib tuni bo‘yi irg‘itildi. O, tunda go‘r qazish kunduzgiday emas, yengil. Kunduzi oftob qoqlab tashlaydi. Tunda salqin. Qorong‘i... Qo‘rqinchli.. Tunda yon-veriga qarab, tashvish chekib ham o‘tirilmaydi. Tunda hech kim indamaydi, tinim bilmaydi...

O, tunda ham go‘r qazidik, tinmadik, degan so‘zni ulug‘lardan ko‘p eshitgan quloq hozir hech so‘z eshitishni xohlamaydi. Boisi, tunda go‘r qazish, bu — o‘ta qo‘rqinchli, o‘ta oshig‘ich yumush. Tunda kishini qorong‘ilik chulg‘ab oladi. Yonginasida turgan jinni ham ko‘ra olmaydi. O‘sha jinning o‘zi ham qurumday qop-qora. Shunday ekan, qorong‘ida qora jin ko‘rinarmidi?

“Og‘iz ochmay ishlang. Kurakni, cho‘tni mahkam tuting. Jin qo‘lingdan tushirib yubormasin. Uxlab qolmang! Mudrab ketsang, yuzingga shapatila. Uyqung ochilsin. Shayton ozdirib ketmasin. Tunda go‘r qazish shunaqa qo‘rqinchli bo‘ladi. Hoy, bola, qo‘rqma! Ayni vaqtda qo‘rqish gunoh bo‘ladi. Sen qazigan go‘rda yotgan jasadning ruhi azob chekadi, unda”...

Shunday ta’kidlar bilan tun bo‘yi tin olmay ishladilar. Cho‘t mizi toshga tegadi. Vaqti-vaqti bilan yalt-yult o‘t chaqnaydi. Toshga uriladi. Tuproq tashqariga chiqariladi. Qanday ham mushkulot, qanday zahmat bu — go‘r qazish?! Oz bo‘lsa, bo‘lmasmidi?! Yer yumshoq tuproqli bo‘lsa bo‘lmasmidi?!

Asrlar bo‘yi oftobda qaqragan, tuyoqqa toptalgan yalanglik betida tosh oz bo‘lgani bilan, yer ostida dasht qatiga jo bo‘lgan toshlar oz emas ekan. Zotan, bu qazish davomida bilindi. Bir zamonlar maydon yuzasidagi katta toshlarni bugungiday katta janglardan so‘ng qirg‘in topgan askarlarga yodgorlik qilish uchun huv o‘rtadagi yalanglikka tashib ketishgani ayni haqiqat. Xuddi o‘sha tekislikda oq tosh, ko‘k tosh, qizil toshlar uyilgan toshloq do‘nglik bor. Bu tosh tepalarni payqamagan odam shu tosh tepalar yonida ajal topib, jasadi ko‘milgan askarlar yotganini ham payqay olmaydi. Bu toshlar allazamonlardan buyon shu sarhadda sochilib yotganga o‘xshaydi. O‘z-o‘zicha to‘dalanib, yig‘ilib, uyilib yotganga o‘xshaydi. O, qanday ham o‘zicha bo‘lsin? Hech sababsiz o‘zicha ham tosh yig‘ilib qolarmidi? Ho‘v, qadimgi O‘g‘uz alp davridami, yoki undan avvalmi, yoki keyinmi? Kim ham ayta olardi? U zamonlarni aniq bilganlardan hozir hech kim qolmadi. Afsonalarda xabar berilishicha, hikmatlarda aytilishicha, qadim zamonlarda shu tekislikda katta jang bo‘lib o‘tgan. Ko‘p qirg‘in bo‘lgan. U jangda inson bolasi shunchalar ko‘p o‘lib-yitgan. Askarlar qabri ustiga qo‘ygulik toshlar yetishmay qolgan. O‘shanda tuyaga, ho‘kizga ortishib, odamlar olisdan tosh tashishgan. Alqissa, mana shu yam-yashil yalanglikning toshlarini o‘sha tomonga tashib ketishgan, deya rivoyat qilinadi.

— O, og‘a, o‘shanda qirg‘in qattiq bo‘lgan, deng...

— Bo‘lmasam-chi... Inson bolalari bir-biriga qanchalik o‘chakishib, yovlashaversa, urushi ham shunchalik qattiq, qirg‘ini ham ko‘p bo‘ladi.

— Kechagi hujum u darajaga yetmadi, deng?

— O, kecha u tarafdan to‘qqiz tuman, bizdan sakkiz bo‘lib, jangga kirdik. Bu uncha ko‘p emas, lekin oz ham emas. Katta-katta janglarda ikki tomonda o‘ttiz-qirq tumandan askar janchar sunib, jangga kiradi.

— O, o‘shancha lashkar janggohga sig‘armidi?

— Sig‘maganda qayga borardi, o‘g‘lon. Boshga kulfat kelsa, ikki oyoq bir etikka sig‘adi. Jang kimo‘zar poygasi emas. Jangda ot bilan odam birikib, bir chuqurda tirashadi, bir chuqurda qolishadi. Anovi tekislikdan biz qancha ot o‘ligi, qancha odam o‘ligini oldik.

— O, ko‘p, og‘a, sanamadim.

Yosh askar indamadi. Qariya ogohlantirdi:

— Marhum bu dunyodan o‘tgandan so‘ng kuni bitadi. Umr shunday o‘lchovli. E, o‘g‘lon, to‘xtamang. Marhumlarni tezroq dafn qilaylik.

Yosh askar anoyilik bilan so‘radi:

— Odam o‘ldirish jinoyatmi, og‘a?

— E... Odam o‘ldirishdan ko‘ra og‘irroq jinoyat yo‘q, o‘g‘lon...

— Jangda shuncha odam o‘ldi. Ularning qoni kimni tutadi, og‘a?

Qari askar go‘r qaziy turib g‘o‘ldiradi:

— E-e... o‘g‘lon, har kimki hujumga kirar ekan, o‘z o‘limini, uvolini bo‘yniga olib kiradi. Ko‘nglidagi fikri qora bo‘lgan odamning uvoli o‘ziga-da. Ko‘nglida oq niyati bo‘lsa, o‘limi bilan ham savob topadi. Ezgulik uchun kurashib o‘lganlar — bular askarlar, ularning o‘limi ham haqiqiy askar o‘limi bo‘ladi!

Bugun biz yerga berayotgan marhumlar qora ish uchun kurashgan bo‘lganlarida, men ularga go‘r qazib o‘tirmas edim. Hamma jim bo‘lib qoldi.

Osmon boyadan beri bo‘zara boshlagan edi. Shamol yurib turibdi. Birdan havo dim bo‘lib qoldi-da, yomg‘ir quyib yubordi.

U yoq-bu yoqdan odamlar chodirga qarab yugurishdi. Biroq ulardan ba'zilari to'xtab, yana ortga qaytdi.

— E og'a, ho'l bo'ldik, — dedi yosh askar.

— Hechqisi yo'q! — dedi qari askar, — ho'l kiyim oftob chiqqanda quriydi. Buzilib boshlamasidan jasadlarni kuttirmaylik. Qazing, o'g'lon!

Go'r qazishdi. Qazaverishdi.

Oftob chiqsa, yomg'ir yoqqan-yog'magani ham sezilmay qoladi. Ammo o'liklar aynisa, illat tarqalishi mumkin..." — shu o'y kelganda yosh askar charchoqni unutardi.

Dafn etuvchilar tinim bilishmadi. Chetdan qaragan kishiga bu tumonat el sirli bir imorat qurishayotganday ko'rinardi. Odamlar to'rtta-beshta bo'lib guruhlangan. Tuproqlar uyum-uyum. Toshlar to'p-to'p. Bitta katta guruh tuyalarini yetaklab kelib, cho'ktirib, ortilgan toshlarni tushira boshlashsa, yana bir guruhi tuyalarni matashtirib bog'lab qaytib jo'nab ketmoqda edi. Ot, ho'kizga tosh ortib kelayotganlar undan ko'p.

Bularning hammasi kechagi askarlar. Bugun ular qurol-yarog' o'rniga kurak, cho't, kerki olishgan. Yengil jargak, tag'or shalvor, peshband kiyib olishgan. Yer kavlash, tosh tashish uchun bular qulay, kirchimol va to'zimli.

Yulg'undan, ignabarg toldan to'qilgan katta-katta yapaloq savatlarni tuyalarga bo'ktarib, to'qim urilgan ho'kizlarga ortib olishgan. Toshni o'sha savatlarda tashishyapti. O, bu o'ta og'ir yumush. Ho'kizlar imillaydi. Boshini xam qilib, "Mm, odamzot, men sen uchun yuk ko'tarib, tosh tashib xoridim. Dam ber-chi menga", degani kabi pishillaydi. Ter tepchigan burnini jiyiradi. Darmoni qurigan tuya bo'zlaydi. Bu bo'zlash — mungli bo'zlash. Tuya charchoqdan bo'zladimi, bo'tasini qo'msadimi, uyurini sog'indimi, yoki qirg'in topgan behisob inson bolalariga qayg'urdimi — noaniq. Zotan, jonivor tuya shunday iztirobli bo'zlaganida yurakni orziqtirardi.

Tuya bo'zlatib, olisdan tosh tashiyotgan kishilar bir kutilmagan tasodifga yo'liqishdi. Ular katta karvon bo'lishib, huv adirning og'zidan beridagi toshlarni tashib keltirishayotgan edi. Turnaqator tizilib kelayotgan tuyalar joni og'riganday bo'kirishardi. Shu asno-

da qarshi tomondan boshqa jonivorning bo‘kirishi eshitildi. Karvon tuyalari bo‘zlashdan to‘xtashdi. To‘g‘ridan kelgan bo‘zlash boshqa bir jonivorning ovoziday eshitilib, ha deganda tanilavermadi. Hamma jim quloq tutib turganida, yuqoridagi tog‘ tizmasi orasida qandaydir bir qora tuya ko‘rindi. Ikki o‘rkachi o‘rtasida do‘ppaygan bir yuk bor edi. Yukning biror idish yoki qop, yoki boshqa narsa ekanligi olisdan bilinmadi. Qora bo‘g‘ra bo‘zlay-bo‘zlay karvonga yaqinlasha boshladi. U o‘q yetguday masofaga kelganida: “Kimsizlar? Yotmisizlar?” degandek bo‘zlab-bo‘zlab qo‘ydi-da, boshini tepaga ko‘tirib “buk” degandek bo‘ldi. Og‘ir yukdan beli tolib, joni og‘riganda shunday qiladi tuya. To‘xtovsiz bo‘zlagan bo‘g‘ra og‘ir yukdan beli tolib, bundan g‘azabi kelgandek, uni hech kimga bermayman, deb ayab, qizg‘anayotgandek, boshini ko‘tarib, ortga tashlab, mungli-mungli bo‘zlardi. Bo‘g‘raning ich-ichidan toshib chiqqan bo‘zlashi kishilarda taassuf uyg‘otardi...

“Ey-ya odam bolasi, odam bolasi,
Men ko‘rgan kun eng qayg‘uli...
Eng qayg‘uu-u-u-uli, eng qayg‘u-u-u-uli-i...”

— Vah! — dedi oldidagi askar. — Men bu bo‘g‘rani tanidim. Uysunning Tarpangi mingan bo‘g‘ra-ku!..

— Jangga minib kirgan, deng?

— Haa, o‘sha.

— Ustidagi odam, shekilli.

— O, o‘lik...

Ikki-uch otliq choptirib borishdi. Qora bo‘g‘ra ularga ko‘zlarini javdiratib qaradi. Mungli bo‘zlashi bosilmadi. Jonivor, eslik mol o‘zi tanigan kishilarni ko‘rib yuragi to‘lib ketganga o‘xshardi. Yana kim biladi? Javdiragan qop-qora ko‘zlaridan munchoq-munchoq ko‘z yoshlari yumaladi.

“— Ey-ya odam bolasi, odam bolasi,
Men ko‘rgan kun eng qayg‘uli.
Eng qayg‘u-u-u-uli-i, eng qayg‘u-u-u-uli-i!..”

Jonivor bo‘zlab, ko‘z yosh to‘kib turaverdi.

Bo‘g‘raning ustidagi yuk egasi Tarpangning jasadi ekan. Jangda Tarpangning jasurligini ko‘rgan askarlar endi o‘sha sherning

jasadi tuyasining ikki o‘rkachi o‘rtasiga yopishib, tushmay kelayotganini ko‘rib turishardi. O, jasur Tarpang. U botir bo‘lganda ham o‘z udum-taomillariga ega bo‘lgan g‘aroyib botir edi. Bunday botirlar insonlar ichida kamyob. Biz bilgandan Dev aka, shu Tarpang, yosh Yo‘lbars, Bars... yana bularga tenglasha oladigan O‘roq, Kerek va Agushlar. Bu botirlarning har biri o‘zicha bir qoya, o‘zicha bir ihota. Shunday qahramonlarga ega bo‘lgan lashkarboshilarning yuzi hamisha yorug‘, ko‘ngli to‘q. Qo‘shinga shunday taptortmas erlar, odatlarni saqlaydigan botirlargina tirgak bo‘la oladi.

Sho‘rlik Tarpang dashtda tuya boqib yurgan kezida, o‘z hunarini, kuchini, namoyish qilib, bo‘g‘ra minib olishib, Erkishini quvontirgan edi. “O, sher, yov yuzlashgan jangda qurshovni yorib o‘tadigan alpning salobati bor ekan”, deb sinagan Erkishi kechagi jangda ko‘k yalov oldida turib, shu sher Tarpangning yov qo‘shiniga lochindek chovut solishidan behad quvongan edi. Nafaqat Erkishi, balki o‘sha jangda uni kuzatgan hamma Tarpangning o‘zidan ham, bulkullagan tuyasidan ham rozi bo‘lmaganmidi? Hozir o‘sha alp Tarpangning o‘ligi tuyasi ustida yuklanib turardi. O, dahshat. U qanday qazo bo‘ldi? Qo‘shindan qanday ajrab qoldi ekan? Jasad qanday yuklandi ekan?

Odamlar qora bo‘g‘rani bo‘zlatib yetaklab kelishdi. Go‘r qaziyotganlar orasida ko‘pni ko‘rgan donishmandlar bor. Ehtimol, ruhi tirik bo‘lgan eranning o‘ligini yerga ravo ko‘rmay alplarning piri — shavkatli kishi uni bo‘g‘raga ortib qo‘ygan, deguvchilar ham bo‘ldi.

Ammo unday emas. O‘z odatiga qat’iy rioya qiluvchi Tarpang botirning, ot minganday bo‘g‘ra minib kurashishi ham uning o‘ziga xos udumi, yo‘rig‘i edi. Endi mana bu tarzda jasadning bo‘g‘raga bog‘lanib qolishi ham o‘ziga xoslik edi. Boshqa hech kim uni tuyaga bog‘lay olmaydi. U o‘zi jangga kirish oldidan bo‘g‘raning ikki o‘rkachi o‘rtasiga arang sig‘ib o‘tirgan alp gavdasini o‘zi chirmab, o‘zi bog‘lagan. “O‘lsam, o‘ligim yerda qolmaydi. O‘ligim ham olishadi g‘anim bilan. Tarpang botir shunchaki o‘lib ketaveradigan jon emas. U o‘lganda ham o‘ligi tirikdek yuraveradigan inson!

Alqissa, Tarpang dushman qarorgohiga yaqin borib, jang o‘chog‘ining o‘zida ayovsiz chopishdi. Elteres sherning “Oq to‘lqin”i qoplab kelganida atayin mana shu bo‘g‘rachan dajjolni yo‘qotish hech gap emas, deb shaylangan askarlar Tarpangni o‘rtaga olishdi. Tarpang bo‘sh kelmadi. Holdan toygunicha chopishdi. Oxiri “Oq to‘lqin” botirlaridan biri mo‘ljallab urgan janchar halqumiga botdi... Jancharning po‘lat uchi Tarpangning halqumida qolib, sopi cho‘rt sinib ketdi. Ustida o‘tirgan egasi, mayib bo‘lib, chopishga yaramay qolganini sezgan qora bo‘g‘ra hurkib maydondan chetlanib ketdi. Jancharning singan uchi bo‘yniga taqalib, ozor bera boshladi. Tizgin qattiq tortilganidan, Tarpang o‘lganidan keyin ham tizimcha bo‘shamadi. Qora bo‘g‘ra na boshini egib o‘tlay olmay, na ustidagi egasini bir silkitib tushirolmay, bo‘zlagandan-bo‘zlab, qir-adirni oshib yurganida shu tosh tashiyotgan odamlarga duch keldi. Endi Tarpang botirning jasadini yerga olishib, tizginni bo‘shatishganda ham jonivor bo‘g‘ra bo‘zlashdan to‘xtamadi. Piyoladek qora ko‘zlarini javdiratganicha, ayanchli bo‘zlayverishi odamlargina emas, qora toshlarni ham jimiratib yuborgudek edi. O, jonivor, O‘ysul ota bolasi. O, bu qutlug‘ jonivor egasi Tarpangni yo‘qlab, kechagi hujumda halok bo‘lgan er jangchilarni yo‘qlab bo‘zlayotgandek:

— Ey-ya, odam bolasi, odam bolasi,

Men ko‘rgan kun eng qayg‘uli.

Eng qayg‘u-u-u-u-li, eng qayg‘u-u-u-uli-i!

Qora bo‘g‘raning piyoladek javdiragan ko‘zlaridan no‘xatdek ko‘z yoshlari shashqator oqardi. Tuyaning bo‘zlashi, kishilarning qayg‘usini yangiladi, yuraklarni ezdi.

Odamlar oshig‘ich go‘r qazishardi.

Qora bo‘g‘ra o‘tlamadi. Bo‘zlashini to‘xtatmadi. Mungli-mungli bo‘zladi. Bo‘g‘raning uzluksiz bo‘zlayverishidan kishilar tashvishlana boshlashdi.

— Jonivor, jonivor. Tuya tabarruk hayvon. U biror yomonlik sharpasini sezganga o‘xshaydi. Marhumlarni tezroq ko‘maylik!

— Voh, jigarlarim. Tarpang botirning jasadini tezroq dafn etaylik....

Tarpang uchun qazilgan go'rdan chiqqan tuproq boshqalarnikiga qaraganda ko'proq uyildi.

— Ha, endi botirning yotar joyi keng bo'ladi. Bemalol sig'adi!- dedi qariya. Tarpangni tuproqqa qo'yishdi. Botirning sovuti, quroli o'zi bilan birga ko'mildi. Mana, umr bo'yi botir qo'lidan tushmagan uzun sopli oyboltasi. Bu oybolta haqida qo'shiqchi kuylagan:

Qizil cho'g'da toblangan.
Ko'k irg'aydan soplangan.
Ko'ko'rcha qilin egdirgan.
Nozik xayol-la chizdirgan
Eni eshikday bolta.

Xullas, sof temirdan toblangan. Tig'iga po'lat ulangan, zahar surtilgan oybolta. Mana, Tarpang tortgan muguz o'q-yoy, uning yonida sadoq to'la o'qlari turibdi. Ana qinsiz po'lat qilichi. "Qirg'izning qilichi o'tkir, askarining qo'li kuchli", degan maqol shunday qinsiz qilichlarga nisbatan aytilgan.

Zero, bu qilichning egasi Tarpang botirning qo'li qattiq, kuchli edi. Tarpang serpigan qilich bir siltaganda bo'g'raning bo'ynini cho'rt uzib tashlardi...

O, alp, u umr bo'yi tuyani joniday yaxshi ko'rdi. Janglar to'xtagan tinchlik vaqtlarda u tuya boqardi. Tuya zoti borki, bu egasining fikrini o'qiganday, uni siylagani kabi, quturib, og'zidan oq ko'pik sochib jazavaga tushganda ham, Tarpangni ayardi. Tarpangdan boshqa qanday otliq-yayov kelgan bo'lmasin, tuyalar ularni tepib-tishlab tashlar, boshidan ko'pik purkab yuborardilar. Tuyalarni Tarpang tabarruk sanardi. Tuyalar ham doim yonlarida yurgan Tarpangni siylashardi...

Endi o'sha asl mol-tuyalar siylagan Tarpang botirning jasadi yerda yotibdi. Uning liboslari, qurol-aslahasi, yo'l ozuqasi — bari yonida. Bir umr bo'g'ra minib yurgan botir urushga ham bo'g'ra minib chiqqan. Uning o'sha qora bo'g'rasi hozir qabri boshida mungli bo'zlab turibdi. Bo'zlayotgan bo'g'raga odamlar Tarpang urgan to'qimni sozlab, boshqatdan to'qishdi. Boshiga kumush qatilgan ipak no'xtani taqishdi. Ustiga kimxobini yopishdi. Keyin...

Qari askar botirlik azmi bilan kelib, yengini shimara bo'zlab turgan qora bo'g'rani po'lat bolta bilan ensasiga so'qdi. O, botir askarning zarbi qattiq-da! Bo'zlab turgan qora bo'g'ra yiqildi. Tarpang botir yotgan qabrga jonsiz qora bo'g'rani ham tushirishdi.

— O, ezgu ish yo'lida bizdan ajragan alp, sening noming o'chmasin! Bo'g'rangni o'zing minib yur!

— Butun lashkar sendan rozi!

Tarpangning qabri ustiga qo'yilgan toshga shunday yozildi:

"Urug'im uysun. Ismim Tarpang. Yoshim ellik sakkizda, ezgu ish yo'lida men sizlardan ajraldim. Uch o'g'il, ikki qizim qoldi. Zaifam tul qoldi. O'zim jangda qurbon bo'ldim."

EHTIYOT BO'LING! "TUMANBOSHI" SHAP!

Jinlar vabo sepsa, uni kulgi o'rog'i o'rib tashlaydi.
Qiziqchi Shapning so'zi

Qo'g'irchoq eran qilich serpidi.
Quturgan alp yer tubiga yitdi.
Afsonadan

Tarixning shamchirog'isiz taktika — tund.
A. V. Suvorov

Jang ham, go'r qazishlar ham nihoyasiga yetmadi... yetti kun oyga o'tdi. Oy yilga ulandi... Urush... Urush...

Bunday qonli urushlar qadimdan bo'lib kelgan. Bitta to'qnashuvda biri-biriga janchar sunishib, tamom bo'ladigan urushlar bor. Yarim kun, bir kun urishib, tugagan urushlar bor. Kun-u tun urush qilishib, qirilib, ado bo'lgan urushlar bor. Oylab-yillab to'xtovsiz urishavergan, chopishgan, qirilgan urushlar bor.

Urishayotgan ikki tomonda kuchlar teng, lashkarboshilari oriyatli bo'lsa, urush uzoq cho'ziladi. Bunda faqat sovut kiyib, qilich tutgangina askar emas, balki ikki tarafning qora boshli, ayri oyoqli barcha erlari nizolashadi. Hammasi otga minadi, hammasi qurol ko'taradi. O, bunday shiddatli urushning nomi o'chsin. Surunkali

qirg‘inbarotda begunoh uvol ketganlar, oh-vohlar, ingrab-to‘lg‘anishlar odatiy hol.

Tunduk o‘choqqa yiqiladi. Qozon to‘nkariladi. Kul to‘ziydi. Ko‘krakdagi boladan kattarog‘i borki, yov hisoblanadi. Qirg‘indan omon qolganlar g‘olibga qul. Moli, qimmatbaho buyumlari, butun boyligi o‘lja.

Yengilgan tomonning yer-suvi huvillaydi. O, bu eng qo‘rqinchli, ayanchli xilvatgoh. Oppoq uylar qad ko‘targan qo‘nishlar toptalgan, oyoqosti qilingan. Hattoki, uchib-qo‘nib yurgan qarg‘a-zag‘izg‘onlar ham sayramay, hurpayishadi. O‘tovda qolgan kuchuk anchli angillaydi, vahimali ulib-ulib qo‘yadi. Adashgan-uloqqan mollar o‘tlamaydi. Odamlarni qo‘msab, uyurini eslab, yetimsiraydi. Uyuri esa yo‘q.

Kishilar bo‘lsa bir-birini chopib, qirib, bir-birini bog‘lab, allaqachon qullikka olib ketilgan....

O, unday olatasir urushning nomi o‘chsin! Hech bir yurtning boshiga kelmasin!..

Oriyatli, nomusli, kuchli Elteres sher, Erkishiga taslim bo‘lgisi kelmadi. “Sen qirg‘izning Erkishisi bo‘lsang, men Uchsuvning Elteresi bo‘laman. Ho‘v, mo‘r-malaxday tabg‘achni tor-mor qilaman, degan Elteresman. Endi senga taslim bo‘lib, oyog‘ingga bosh urishim kerakmidi? Eha! Kuchim yetmasa, kulimni ko‘kka sovurasan, kuchim yetsa, sening kulingni ko‘kka sovuraman”!

Binobarin, Elteres dastlab chekindi. Har tomonga elchi yo‘llab, lashkarboshilar ko‘magida yangi qo‘shin tuzdi. Yana yangidan o‘n ikki tuman qo‘shin tuzib, jangga kirdi. Qadim bobolaridan beri harbda yurgan bu urushqoq yurtning yayov askarlari ham urushda bo‘sh kelmadi. Tabg‘ach bilan bo‘lgan urushlarda katta qo‘shin safida jangga kirishardi. Zamon oxirlab, bu ko‘chmanchi avlodlar qayerni manzil tutsa ham, hujumda ham, yakkama-yakka jangda ham, sayilda ham, ko‘chishda ham ot ustidan tushmasliklari shart. Katta-kichikning kuchi, rizqi, qanoti — bu ot!

Oti kuchli, oti chopqir askarning o‘z kuchli, o‘zi chopqir. Qochsa qutuladi, quvsa yetadi, urishsa, g‘alaba qozonadi. Mana shu qushday uchayotgan qo‘shinning qanotini sindira olsa, o‘zi g‘alaba qilishini bilgan dushman askari otlarini o‘ldirib, otlarni

nishonga olib, qo'shinni yayov qoldirishi — joriy urush rejasi talab qilgan hiylani tabg'achlar allazamonlardan buyon qo'llab kelishgan...

Bir safar omonsiz janglardan birida o'sha tabg'achning mug'ombir lashkarboshisi Tan I o'zining yoyandoz merganlaridan atayin qo'shin tuzdi. Bu qo'shinning vazifasi kelayotgan yovning yo'lini to'sib, pistirmada turadi. Biroq ular yerga kirib ketganday berkinib, biqinib yotishadi. Tan Ining boshqa qo'shinlari maydonda yovni qarshi oladi. Jang boshida shiddat bilan hujum qilishadi-da, so'ng tez chekina boshlaydi. "Ey-ya, quyonyurak tabg'ach qochyapti. Ta'qib etamii-i-iz!"... — degancha Elteres barcha tumanlarini maydonga tashlaydi... O, Tangrim, yomonlikdan o'zing asra! Yerdan chiqqanday kamon o'qi yog'ila boshlaydi. Askarlar omon, otlar chopib kelayotib dumalayveradi...

O, otdan ajralganda qiyomat qo'pmaydimi?! Elteres tumanlari tig'iz qirg'inga giriftor bo'lgan. Tabg'achni yengamiz, degan ko'tarinki ishonchlariga suv sepilgan. G'alaba uyoqda tursin, qirg'indan omon qolgan qo'shin arang qochib qutuladi.

Aynan o'sha jangda kuchdan emas, hiyladan pand yegan Elteres o'ksinib qaytib keladi.

O'q sindirdi qanotimni,
Makr egdi sabotimni.
Ushaltirmay murodimni
Tangrim, nega jazoladi?!

Shunday deb bo'zlagan Elteres o'sha safar qattiq qayg'urdi. Tadbirli lashkarboshi dushmanidan qasos olish uchun bor kuchini ayamay tayyorlana boshladi. Bor chora-tadbirini o'rtaga tashladi. Qo'shin faqatgina otliqlardan iborat bo'lmay, unda piyoda askarlarning ham bo'lishi muvaffaqiyatning sababchilaridan edi. Oti nobud bo'lgan askar, qanotim qayrildi, deb talmovsiramasin. Oti yiqilsa, o'zi o'sha sur'atda jangni davom ettiraversin. Piyoda askar qatori jangga kirsin! — degan Elteres keyingi vaqtlarda qo'shinni ikkovi yo'nalish bo'yicha ham mashq qildirib, chiniqtirdi. Ho' o'sha.. qor qalin yoqqan qishda Oqtermel dovonidan oshganda o'sha mashg'ulotlar Elteres qo'shinini g'alabaga erishtirgan.

O‘sha safar o‘mrovigacha qorga botgan otlar bosolmay qolganida, askarlar yayov qor kechib, yo‘lni davom ettirishgan.

Endi shu Elteres yengilgani sayin yengilgisi kelmay, zaiflashgani sayin buni ham tan olmay, yangi kuch yig‘di. Jangda otlar yetishmay qolsa, maydonga piyoda askarlar chiqdi. Avvaliga otliqlari shiddat bilan olisha boshlaydi. So‘ng birdaniga ortga surila-surila tutqich bermay chekinaveradilar. Qochgan yov qurshovga tushadi. Endi ularning hududlarini egallaymiz, yalovini yiqitib, yoppasiga otdan tushiramiz, tizzalisi tizza bukib, boshlisi bosh egadi, deguncha bo‘lmay, ular ketgan tarafdan yerdan unib chiqqanday bir xil yoyandoz piyoda merganlar chiqib keladi-da, kamondan o‘q yog‘dirishadi. G‘ururlanib yov quvib, qiyqira chopgan qirg‘iz qo‘shini yomg‘irdek yog‘ilgan o‘qqa uchrab, chalg‘i bilan chopganday, oldingi safdagilari yondamasiga otdan qulashi barobarida ortdagilarning safi siyraklasha boradi. Qo‘shin holdan toyadi. Elteresning bu makri ish berib, qo‘shin parokanda bo‘la boshladi. Botirlar qurol ko‘tarish imkoniyatini yo‘qotdi. Erkishining esa imkonni qo‘ldan boy berib, arosat yo‘lda qolgisi kelmasdi. Avjiga chiqqan bunday suronli jangda bunday arosatda qolish — na g‘alabaga erishmay, na mag‘lub bo‘lmay to‘xtab qolish eng xavfli vaziyat sanaladi. Erkishi kabi botir sarkarda uchun bu yengilish bilan barobar.

Etagini yig‘may turib yov bosdi.
Chilvirini uzib ot qochdi.

Battar bo‘ling, battar bo‘ling! — deydi bunday vaqtda urishgan dushman taraf. O‘gitlar aytib, o‘z kuchidan mag‘rurlanib qo‘shin tuzgan tarafni masxaralay boshlaydi. Zero, bu safar shunday qo‘shin tuzgan taraf — qirg‘iz. U o‘sha qor qalin yoqqan qishda talanganlari uchun qasos olmoqchi. Kutilmaganda ularni g‘aflatda qoldirib hujum qilgan Uchsuv yurtini bo‘ysundirmoqchi. Botirlarini taslim qilmoqchi. So‘ng ularni ittifoqqa chaqirib:

— Tili bir, dili bir yurtmiz! Ko‘chsak, qo‘nishimiz qo‘shni, tinchlikda yursak, chegaramiz bitta. Bir bosh, bir el bo‘lish o‘rniga kek saqlashib, yovlashib urishganimiz nimasi? — degan andishani o‘rtaga tashlamoqchi.

Bu qondosh elatlar bunchalik bir-birini qirib, mol-dunyosini talab, o'g'il-qizini qul qilib, biriga biri tajovuz qilmaganida edi, yana-da gullab-yashnab mustahkamlanardi.

O, u xayol yetsa ham, qo'l yetmas orzu! Bu orzuni amalga oshirish uchun harakat qilgan oqil-donolar ozmunchami? Biroq ular bu ezgu maqsadni hamjihatlikda, chuqur mulohaza bilan, aql-idrok bilan yechmay, har biri o'z fikricha, o'zicha aql yuritib, o'zicha manmanlik qilib... bir-biriga bo'sh kelmay, birontasi tasodifan "Sening fikring to'g'ri, biz shunga ma'qulmiz", deb qo'yishsagina, unga mag'lub bo'ladiganday, yulduzi so'nib qolguday tuyiladi... so'ng o'zining ustunligini isbotlash uchun shu tariqa tortishuv ketidan tortishuvlar uyushtirib, viqor ko'rsatishga urinadi. Bahs-munozaralar olishuvga, undan katta to'qnashuvga aylanadi."Men uni jang maydonida bosh egdiraman"... deb aytish haybatli eshitiladi.

Binobarin, Elteres ham bo'yin egmas alplardan. Agar u yov yo'lini to'ssa, oshib o'tib bo'lmas dovonga aylanadi. Erkishi ham bo'ysunmas alp. Nafaqat alp, balki dono, tadbirli sarkarda. Agar u yo'lga tursa, shunchaki dovon emas, chinakam qoya. Boshqa xon, bek, botirlar ham o'zlarini o'shanday dovon, o'shanday qoya deb hisoblashadi.

— Tangri mendan ortiq qilib yaratgan zo'r bo'lsa, yo'limdan chiqib meni oshib o'tsin-chi! — deydi har biri...

Xuddi shu manmanlikning, shu quruq savlatning kasri avlodlar mafkurasini buzayotganini bilib turishsa ham, shu dono va tadbirli lashkarboshilardan birontasi shu illatni qilich bilan shart kesib tashlay olmadi. Aqllari yetib, ko'zlari ko'rib tursa ham, ko'z oldini ilg'ay olmagan so'qir kabi, kelajakka qaray hammalari bir yo'l, bir maqsad bilan yo'lga chiqmay, yovlashib-urishib yurishgani nimasi?!

— Ha, Elteres, nega bizni g'aflatda qoldirib, biz uyquda yotgan kezda hududimizga kirding? — deydi Erkishi.

— Voh, Erkishi! Men sening yalovingni yiqitaman. O'z bobomning oq yalovini saltanating o'rtasiga o'rnataman! — deydi Elteres.

Ostonada yulqingan ikki arslon kabi bu ikki sherning orini qo'zigan, junbushga keltirgan, yuzlashtirgan kuch ham ana shu nomus kuchi.

Er yigitning or-nomusi o‘tda, suvga cho‘kmaydi. Uni faqat dushman fitnasi sindirishi mumkin. O‘z urug‘ini bir jamoa qilib jamlab turuvchi xayrixohlik siri ham mana shu nomus kuchi edi. O, uni his qilgan, tuygan, siylagan, asragan ellar bular. Er nomusi — el nomusi deyilishi bilan har qanday sarkash ham sergak tortib, jini qoqiladi.

Binobarin, Elteresning bosh maqsadi Uchsuv yurtining oq yalovini hammadan baland ko‘tarish edi. Buning uchun o‘zidan zaiflar bilan kuch sinashishga hojat yo‘q. O‘ziga teng yoxud o‘zidan kuchli yovga ot qo‘yish. Qirg‘iz chegarasiga qo‘shin kiritishdan oldin Elteres chegaradosh ellarni oralab chiqdi. Biz sendanmiz, deganlarini o‘ziga qo‘shdi, yovlashganlarini chopdi. Ularning molu dunyosini o‘lja qilib, yerini o‘z hududiga qo‘shdi. Qirg‘izni bo‘ysundirib olgandan so‘ng, tabg‘achga yo‘l olmoqchi. Tabg‘achni taslim etib, oltin, kumush, asilini o‘lja sifatida qo‘lga kiritganidan so‘ng alpning armoni qolmaydi. So‘ng shunday cho‘ng alpsher jonini topshirar fursatda poyoni ko‘rinmagan shu bo‘z yer yuzasining xo‘jasi edim, deya armonsiz ketadi. Elteres sherning yuragini o‘rtagan maqsad edi bu! Bu tilagiga yetadimi, yo‘qmi, kim biladi?

Qirg‘iz qo‘shini yalovini yiqitishga imkon bermadi, bo‘yin egmadi. Endi qirg‘iz yerida emas, Uchsuv yerida jang yurib, Uchsuv elining tinkasi qurib, ko‘ngli cho‘kib qolgan payt.

O, bu urush, bu qonli urush oylar bo‘yi to‘xtovsiz yoqqan oq yog‘inday qachon tinishi noma’lum. Ba’zan tovsilib, tinchigandek bo‘ladi. O‘shanda yurtdagi ahli donishlar, sarkardalar, qo‘shin boshliqlari kengashadilar. Ikki qo‘shin hamjihatlik sulhini tuzadi. Urush tugaydi. Qushning ikki qanotiday bo‘lib parvoz qilaylik. Qo‘nalg‘ada chopqir otlarimizni qantaraylik. Bizga chetdan ko‘z olaytirgan dushmanga birga otlanaylik, deb kutib turishganida... bu tilak havoga sovuriladi. Ikki tomon qo‘shini yana bir-biriga ot solishadi. Yana urush, qirg‘in, talon-taroj. Bo‘z yer yana zirqiraydi.

Elteres qo‘shinining piyoda askarlari Bosh tegin qo‘shinidagi otlarni qirib, askarlarini yayov qoldirdi. “Qo‘g‘irchoq qo‘shin hujum qildi, kigiz dev yer tubiga kirdi”, degan hikmatdagi bir usul boyagi yilqichi Shapning esiga tushdi.

Burungi zamonda bir uddaburron sarkarda bo‘lgan ekan. Jangda qo‘shini ozayib, yengilishga ko‘zi yetib qolganida, o‘n qo‘tosga to‘qim urib, kigiz qo‘g‘irchoqlarni mingizib, qo‘toslar to‘dasini yov tomonga haydab boraverdi. Qo‘tos mingan qo‘g‘irchoq askar kamondan uzilgan o‘qqa parvo qilmay boraverdi. Ularning kigiz ekanligini bilmay qolgan dushman qo‘rqqanidan yalovini tushiribdi”... — deyilgan hikmatli so‘z bayonida.

Shap qiziqchi yilqi boqib yurib o‘shanday bir qo‘g‘irchoq yasadi. Janchar sanchsa, yiqilmaydigan qilib oshlamaga kigizdan qilingan kiyim kiygizib, belini bog‘lab, ayg‘irga mingizib qo‘yib yuborganida o‘zi yasagan bu “odamcha” ni o‘zi tirik deb ishonayozdi. To‘lin oy shu’lasida g‘o‘dayib ayg‘irga “minib” ketayotgan qo‘g‘irchok alp jangchiga aylangan-qolgan.

Yilqi uyurini har tarafga hurkitib, Shap otini choptirganicha yilqichilar safiga keldi:

E-e-e-ey! It yilqichilar... Shundoq o‘tiravering? Novcha bir alp yilqini oraladi. — Yilqichilar otga minishdi. Yilqi o‘tlayotgan o‘tloqqa kelib qarashsa, otlar, ayg‘ir tinchsiz. Uyur o‘rtasida novcha birov yuribdi. Yilqilar uni “qo‘lga tushirmoqchi” bo‘lishdi. Biroq qo‘g‘irchoqdan cho‘chib qolgan ayg‘ir bir u tomonga, bir bu tomonga hurkib, o‘zi bilan birga uyurdagi boshqa otlarni ham hurkitdi. Ilojini topmagan yilqichilar oxiri o‘sha novcha nusxani yiqitishmoqchi bo‘lishdi. Hammasi unga qarata o‘q yog‘dira boshladilar. Novcha alp otilayotgan o‘qni nazar-pisand qilmay, uyur oralab yuraverdi...

Tong oqarib, yerga yorug‘lik inganidan so‘ng ko‘rishsa, tun bo‘yi “yilqi oralagan alp” kigiz qo‘g‘irchoq ekan. Aldanib, Shapga mayna bo‘lishganini bilganda, kulganday bo‘lishdi. Keyin norozi bo‘lib, achchiqlanishdi. Qani, bizni aldagan Shapni suvga bosaylik! — deyishib axtarishsa, har kuni o‘ralashib yuradigan Shap bugun yo‘q. Chaylasiga kelishdi. Yo‘q. Nari izlashdi — beri izlashdi. Uzoq poylab o‘tirishdi.

— Agar topib olsam, yorib tashlar edim! — dedi rangi zahil bir yilqichi. Qayerdandir kuchukning angillashiga o‘xshash ovoz eshitildi. Yilqichilar alanglab yon-veriga qaradilar. Hech narsa ko‘rinmadi. O‘sha to‘ng‘izni topib olsam, to‘ng‘izday yorib tash-

lar edim! — dedi burni katta yilqichi. Cho'chqa bolasining xurrillashiday sas keldi. Yilqichilar yana alanglab qarashdi. Hech narsa yo'q.

— O, u ablah ko'rinib qolsa, bo'ri otganday otib tashlar edim! — dedi qari yilqichi.

— Tinchimizni buzdi. Qayerdandir bo'rining ulishi eshitildi. Yilqichilar sergaklanib, atrofni kuzatishdi. Hamma nafasini ichiga yutib jim bo'ldi. Huv, burchakdagi serka sanoch qimirladi... Rangi zahil yilqichi sinchiklab sanochga qaradi. U har doim qoq ilikka tiralib o'sha burchakda ilinib turardi.

— Sanoch... — dedi rangi zahil yilqichi asta. U tomondan g'alati ovoz keldi:

— Vishshsh. Yaqinlashmang. Qo'zg'almang. Ajdar!

— Vishshsh...

Yilqichilar bir muddat nafasini ichiga yutib jim bo'lib qolishdi-da, so'ng hammasi baravariga qichqirib yuborishdi:

— Ua, it...

— Ua, to'ng'iz...

— Odamning xayoliga kelmaydigan ishlar.

— Vishsh.. dedi sanoch tarafdan yana.

— Chiq! Tegmaymiz, — dedi qari yilqichi. Sanoch taraf ovoz berdi:

— Qanday chiqaman? Yechib olinglar...

Ko'rsa, Shap sanochni bo'shatib, o'zi tushib, bog'ichidan ilgakka bog'lab, ilgak uchini keragaga ilib qo'yib, o'zi sanochga salmog'ini tashlagan ekan, sanoch o'z-o'zidan keragaga ilinib qolibdi. Katta sanochdan suyak tishlab olgan Shap mo'ralab, basharasini ko'rsatishi bilan yilqichilar kulgidan o'zlarini to'xtatolmay dumalashgan.

O'sha Shap qiziq so'nggi janglarning birida otidan ajragan. Otdan ajralgan birgina Shap emas, oldingi safda kelayotganlarning ko'pi qanotidan ayrilgan. Askarning otidan ajralgani — qanoti qayrilgani. Hamma tahlikada qo'rqib yursa, Shap yerda dumalab, qichqira boshladi:

— Ua-a, Elteres alpni endi o'zim yengdim. Sho'rlik Elteres endi mening taloto'p "tumanim"dan o'ladi. Ha-a! Ha-Ha! Hye-

ye-yey, mening "tumanim", otlaning! Saflaning! Belni mahkam bog'lang, yovni qurshab oling.

Saflaning kigiz qo'shin! Saflaning! Yuzboshi Shapni koyib berdi:

— Sullohlik qilma, o'v! Jangdan qochma!

— Yo'q, bu siz o'ylagan ish emas, — dedi Shapni yaxshi bilgan o'z yuzboshisi. Bu Shap og'am oddiy odam emas. Og'ziga alvasti tupurgan g'alati kishi. U gapini tugatmay turib, Bars kelib qoldi. Barsni ko'rishi bilan Shap ovozini balandlatdi:

— Eh-hey! Tumanboshi Bars. Sen menga ta'zim qilib yukun! Men bundan buyon oddiy askar emasman. Bugundan boshlab tumanboshi menman. Men kigiz qo'g'irchoq tumanini maydonga solganimda, po'stak dev yakson bo'ladi...

Shap qiziqning gaplariga Bars ham kuldi. So'ng dedi:

— Shap og'am qadim lashkarboshilarning kuchi tamom bo'lganda qo'llagan so'nggi chorasini qo'llab ko'rsin. Shusiz ham kigiz-po'staklarga o't tutashib kuyib ketyapti. Ovloqlarda yoyilib o'tlayotgan qo'toslardan ko'pi yo'q. O'nboshi askarlaringni o'zing tanla. O'z bilgingcha ish tut, Shap og'a. Bor mahoratingni qo'lla.

— Ha, tumanboshi, udum bo'yicha bir to'sh tirashib qo'ying. Odam bolasi boshlagan tumandan ham qo'g'irchoq tumani zo'r chiqsin, deb qo'ying!

Shap qiziq bilan Bars botir ikkovlon botirlarcha to'sh tirashdi...

O'zi tumanboshi bo'lib, yakka kelgan Shap bor-yo'g'i bir yuzboshini askarlari bilan olib, qo'g'irchoq lashkarini shaylashga ketdi. Askarlarning vazifasi — qo'toslarni haydab kelish. Ularga to'qim urib, hammasini bir yerga jamlab, so'ng ularni shovqin-suron bilan haydash. Qo'toslarni yig'ib kelib, ularga jabduq urib, kigiz qo'g'irchoqlarni o'rnatib olish qiyin kechmadi. Qum ishqalangan kigizni qo'tosning ustiga yopishdi. Keng ho'kiz egariga ikkita do'lana tayoqni ayri qilib o'rnatib, qo'toslarga shu egar urildi. Keyin g'o'dayib turgan tayoqlarga enli qilib qirqilgan kigizlar o'rab chiqildi. Belini bog'lab, "boshiga" kigiz dubulg'ani bostirdi. Bo'ldi! — dedi Shap Erkishiga.

Akang qarag'ay yovga olisdan uligan qashqir! Kamon o'qi bir emas, o'n teshsin, (qiyqirib kuldi)... Olg'a bostirib boraverma-

sa, men Shap bor bo‘lmay, yo‘q bo‘lay. Bo‘ynimni bundoq uzib, boshimni chiyalarga tashlang! Shap shunday deya bo‘ynini o‘zi to‘lg‘ayotgandek aylantirdiki, boshi ortga qarab qolayozdi. Shapning bu g‘alati qilig‘iga qarsillab kulgan Erkishi:

— Bor bo‘l, Shap qizig‘im. Shu usuling yovni cho‘chitmasa ham, bir qo‘llab ko‘r, — dedi qiziqchiga.

Shap bu hiylani amalga oshirish uchun bir oy bo‘yi tadorik ko‘rdi. Nihoyat, besh ming jabduqli qo‘tosga besh ming kigiz askar mindirib, qo‘shinga keldi.

Dastavval o‘yin-tomosha bo‘lib tuyilgandi Shap aytgan bu usul. Endi besh ming qo‘tosga mingan “qo‘g‘irchoq lashkar” kelayotganda undan bexabar bo‘lgan dushman qo‘shini emas, boxabar bo‘lgan o‘z qo‘shiniga ham Shapning ko‘z ko‘rib, quloq eshitmagan bu qo‘g‘irchoqlari nechog‘lik g‘ayritabiiy bo‘lib ko‘rinmadi?! Birinchidan, hammasining mingani ot emas, qo‘tos, kiygani unniqqan bo‘z sovut. Ikkinchidan, biri emas, bari dabdaba bilan qo‘r to‘kib, egarda adil “o‘tirgan”.

Guvillab kelayotgan qalin qo‘toslar uyuri oralaridan shamol o‘tmaydigan darajada shig‘ab, siqilishib, yo‘rtib kelishar ekan, dastlab ularning qaysi jonivor ekanligi ilg‘anmadi. To‘qim urilib, o‘q o‘tkazmaydigan terlik namat yopilib, kigiz qo‘g‘irchoq mindirilgan qo‘toslarning o‘zi ajabtovur jonivor. Uni minib olgan lashkar odam bolasi emas, allaqaysi o‘ngirlardan chiqib kelgan alomat hilqatlar... Hozir shu “hilqatlar”ni ko‘rganlar ag‘rayib, hayratlanib kuzata boshladilar. Odamlar orasida g‘ala-g‘ovur boshlandi:

— E... tavba!

— Vah! Bir kun ajoyibot ko‘rmasang so‘qir, bir kun ajoyibot eshitmasang kar bo‘lasan, deyilgani rost, Er aka!

— Huv, yoyilib kelayotganlarni jin-ajdarmi debman...

— Ajabo...

— Buni Shap qanday uddaladi?

— E, bu Tangrining mo‘jizasi. Shap qanday uddalasin?..

— O, bu Shapning ishi. Shap o‘zi o‘ylab topmadi buni. Mashoyixlardan uqqanini amalda qo‘llab ko‘rdi. Azaldan matal o‘laroq aytib kelinayotgan bu g‘aroyibotni bugun ko‘zlari bilan ko‘rdi. Bu ajib qo‘shin bo‘zarib, xira to‘zon orasida yana-da sirli

tortib, aqlga sig'mas darajada g'ayrioddiy, sirli, vahimali bo'lib tuyildi...

— Eh-hey, jonli qo'shin bu! — deyishdi. — Qo'g'irchoq, deb kim aytdi?..

Shap hozirlagan bu qo'shin qulay fursatini poylab Elteresning piyoda tumani ustiga bostirib bordi, Bars tumanlari shig'ab boraverdilar.

Kuz oftobi yerni qoqlab tashlagan. Qo'tosning ayri tuyog'i o'sha qatqoq yer betini bosganda bo'z chang tepada muallaq turib qoldi. Kuzgi xira, rutubatli g'ubor ana shu bo'z chang bilan qo'shilganda ulkan bir bo'z maxluq zarang yer betini sidirib, siljib kelayotganday quyuq tuman sudraladi. Ming-mingdan bo'linib, beshta katta guruhni tashkil etgan qo'shin changib kelayotganda, uzun, buralib-eshilib yotgan bahaybat ajdar qiyofasi gavdalanib, ajdardan chiqqan chang ortidagi lashkar adadsiz, mo'r-malaxdek jimirlab, ko'ngillarga g'ulg'ula oraladi...

Odatda, otliq askarlar yaqinlashsa: "Kelaversin! Yaqinroq kelsin! Otlarini nishonga oling!" — deb kamonlariga o'q joylab, tayyor turishgan Elteresning piyoda tumani bu safar ham yo'lning eng qulay yerini pistirma tutishib, yerga singib ketganday biqinib yotishib otliqlarni poylashardi. Kamgakning o'ngir-chuquriga berkinib sas-sadosiz yotgan merganlardan birontasining kuzatib yurgani payqalmasa, aksariyat hammasini yerdagi bo'z toshlardan, yo'sin-to'nkalardan ajratish imkonsiz edi. Elteres o'zi boshlagan otliq tuman esa merganlar pistirma qurgan kamgak ortidagi uzun jarlikda. Jarlikning ichi-tashi, nishabi butazor bo'lib, Elteresning ko'kdan tilagani yerda ato etilgan edi. Qirg'oqqa yaqin yerdagi soyabonsimon to'p-to'p butalar orasidan otliq o'tgan askar egarga tayanib tursa ham payqalmasdi. Shu sababdan Elteres o'zi bilan o'n lashkarboshini olib, shu butazorda huv yalanglikni qoplab kelayotgan dushman qo'shinini poylab turibdi.

Qirg'iz tumanlari olisdan poyonsiz sarhadni qoplab, sanab sanog'iga yetib bo'lmas darajada ko'ringan. Yaqinlashgani sayin oldingi safdagilarni taniy olmay, ajablana boshlashdi. Undan ham qizig'i o'sha noma'lum chavandozlarning mingan ulovlari mutlaqo g'alati jonivor edi. Bir qarasang, beo'xshov, qop-qora,

novcha bu odamlar yayov kelayotganday bo'lib ko'rinardi. Yo'q, qandaydir gungursday, to'ng'izsifat jonivorlarni odamga o'xshagan allakimlar haydab kelyapti...

Chunonchi, Elteresdan oldinda pistirma qo'ygan merganlar bu ajabtovur lashkarni ko'rib, cho'chiy boshladi.

— Voh, Tangrim, Bular nima o'zi?..

— Piyoda desang, piyoda emas. Qo'lida qilichlari ham bor (Qo'tos buqalarning muguzlari yarqirab, qilichga o'xshab ko'ringan).

— O'zlari bo'zrang, chalvorlari qora...

— Ey, o'nboshi, buyuring, boshiga otaylikmi, oyog'igami?

— O'zlarini nishonga olaylikmi, otlarinimi?

— E, minganlari otga o'xshamadi... Nimani mo'ljallaylik o'zi?!

— O'zlarini nishonga olaylik, o'zlarini...

Yer ko'chganday guvillab tez kelayotgan qo'shin yaqinlashib qoldi. Shundagina haligi qora charvorga o'xshagan chalvor emas, yunglari yerga sudralib kelayotgan qo'tosga o'xshadi. Lekin haqiqatdan qo'tos ekanligi ham anchagacha tanilavermadi. Uni minib olgan askarlar esa bir tekisda sirli, qotma, gerdaygan...

Elteresning pistirmadagi merganlari qo'rqib ketishdi. Ular avvlgiday kamon ota olmay, biri o'q uzsa, ikki-uch mergan pusib qocha boshlar edi.

So'nggi yetti kun ichida xufiya ayg'oqchilarini yuborib, pistirmalardan xabar topgan Erkishi bu safar tap tortmay bostirib boraverdi. Shuningdek, oldingi safda borayotgan qo'tos mingan qo'shinni bir sinamoqchi bo'lgan tumanboshilar ham sarosimaga tushmadi. Zero, insonning vaqti-vaqti bilan shu kabi hangomani qo'msab qolishi haqiqat-ku! Hatto ot yolidan qon oqqan jangda ham qayg'u bilan kulgining hamohang ekanligi chin. Yoki inson uddalaganni inson uddalay olmaydimi? Elteresning qaqshatqich hiylasiga Erkishi yilqichi Shapning eshitib ko'rganga tentaklik bo'lib tuyiladigan kigiz qo'g'irchoqlarini ro'para qildi. Darhaqiqat, merganlar yog'dirgan o'qdan bu safar otlar ham, askarlar ham omonda. Kigizni o'q teshib o'tgudek bo'lsa, bitta-yarimta qo'tos o'lishi mumkin. Lekin kigiz "askarlar" o'q o'tkazgudek

emas. Bari egarga qapishib, bo‘z kigizga o‘ranib g‘o‘dayib borishmoqda.

Merganlar harchand o‘q yog‘dirib, xujumni qaytarishga urinishmasin, oldingi safdan biron “askar” yiqilmadi. Buni ko‘rgan merganlar ura qochishdi. Qochgan yovni qo‘g‘irchoq tor-mor etadi. Nima, kigiz qo‘g‘irchoq hujum qilsa, chuvrindi dev qochmaydimi? Qochadi, yakson bo‘ladi u!

Elteresning parokanda bo‘la boshlagan piyoda tumanini Yo‘lbarsning otliq tumani qurshay boshladi. Bosh tegin bilan Bars Elteresning o‘ziga yuzlanishdi. Uzoq davom etgan jang-u jadalning bugungi to‘qnashuvi shunday shitob bilan boshlandi.

...Qo‘g‘irchoq askarlarning “tumanboshisi” yilqichi Shap oldi-orqasiga qaramay o‘zi boshlagan lashkar ichiga sho‘ng‘ib dushman qarorgohini ham oralab chiqadimi, kim biladi? Nima bo‘lganda ham, har biriga o‘ntadan ortiq nayza sanchilib qolgan bu o‘lim bilmas qo‘g‘irchoqlar “cho‘chib” qo‘toslarning bo‘yinturug‘idan tortib ortga qayirisharmikin? Har holda, ustidagi yuki inson qiyofasida bo‘lgani bilan,. ularda jon asarini sezmagan jonivorlar hurkib, lo‘killab chopib, bosh bermay qo‘yishdi. Ortda kelayotgan qo‘shinning shovqin-suroni, taloto‘pi qo‘toslarni battar hurkitdi...

Hamisha tog‘da, yonbag‘irlarda, qish-qirovda ham o‘tlab, to‘q yashaydigan, doim yovvoyilik tabiatida qoladigan jonivor edi bu qo‘tos. Juni qalin, uzun, terisi qalin, kuchli, sarkash qo‘toslarni minib jangga kirish mumkin, degan xayol Elteresning tushiga ham kirmagan edi. Afsona-asotirlarda kelgani demasa, qo‘tos minib jangga kirgan qo‘shinni hech kim ko‘rmagan edi. Shapning bu tumani chindan ajoyibot bo‘ldi. Hammasidan ajibrog‘i ustida odam emas, kigiz qo‘g‘irchoq mindirilgan yovvoyi qo‘toslar bosh bermay, bir-biriga xezlanishib, hammasi dunguragan bitta kuchga aylandi-qo‘ydi. Qo‘tos galasining bir bo‘lib hurkkanidan qiyomat qo‘pdi. Endi Elteresning yayov merganlarigina emas, sara otliq tumanlari ham hujumga betlamay, qo‘toslar taloto‘piga duchor bo‘lishdi. Hurkkan kuchli quyun yo‘llarni bo‘g‘ib qo‘ydi. Esxonasi chiqqan qo‘shin baqir-chaqir qilishib, biri qo‘rqqan, biri shoshgan, biri norozi bo‘lib, jang jang emas, bosholomon, boshboshdoqlik yuzaga keldi. Elteres qo‘shinida parokandalik

boshlandi. Saflar buzildi. Boisi, bir butun bo'lib, suv toshqini kabi hamma narsani surib, qoplab siljib kelayotgan qo'toslar uyuri ortidan kelayotgan Erkishini endi qanday kuch bilan mahv etish mumkin?! O'qni mensimagan kigiz askarlar talay yergacha safini buzishmadi. Hovliqib, qizishib qolgan yovvoyi mol to'dasi ur-surga qaramay ketaverdi. Bosh tegin bilan Barsning tumanlari ham qanotlarini yoyib siljiyverdilar. Jang sur'ati jadallasha bordi.

Elteres qo'shinining safi buzilib, askarlar chekina boshlaganida, yilqichi Shapning qo'g'irchoq qo'shini ham sochila boshladi. Ertalabdan beri bir-biri bilan suzishib, xezlanishib kelayotgan qo'toslar endi bezib, chet-chetga o'ta boshladilar. Qo'g'irchoq "askarlar" ham ularning boshini qayirmay, ular ketgan tomonga "ketaverishdi". "Biz o'z vazifamizni qoyilmaqom qilib o'tadik. Tush vaqti bo'ldi, endi ketsak bo'laveradi", deganday, "tumanboshi" Shapdan "ruhsat so'ragan" bir askar yo'q. Qo'toslar galasi bezidi. Qo'g'irchoq askarlar holdan toydi... Biroq qo'g'irchoqlardan birortasining dushman qo'liga tushishini istamagan Shap ularni ortga qaytarishga tutindi. Hurkib, sochilib ketgan qo'toslarni yig'ib, bir bosh qilib, ortga qayirish tirikning do'zahi bo'lmasinmi? O'lsam o'lamanki, biror qurchog'imni g'animga o'lja qilmayman, deb chirangan "tumanboshi" endi mutlaqo olatasir ichiga sho'ng'ib ketdi. Mingani manglayi oq o'zi ko'mirday qop-qora buqa. Qo'toslar qayoqqa burilsa, Shapning Oq manglayi ham o'sha yoqqa yo'l olardi. Shap, hatto o'zi mingan shu Oq manglayni ham arang boshqarardi. Bir amallab qo'g'irchoq mingan qo'toslarni to'sib, mana yo'lga soldim, deganda,.. O, Tangrim, o'zing saqla! Elteresning otliq askarlari otilib chiqib, o'rab olishdi-da, "tumanboshi"ni ellik kishisi bilan qo'lga tushirishdi.

O, bu o'rish-arqog'i murakkab dunyoda ne ishlar bo'lmaydi?!

Shapni "Oq to'lqin" tumanining botir mingboshisi Esanlay qo'lga tushirdi. U qirg'iz botirlari bilan bir necha bor yakkama-yakka jangda ham, maydonda ham olishib, jasorat ko'rsatib kelgan botir edi. Bu jangda u o'zining ming askari bilan kecha tushda qo'shinga kelib qo'shilgan, kechgacha urishib, otlari qora terga tushib, o'zlari qurshovda qolib, holdan toygan, biroq tun yarmigacha mardonavor jang qilishgan edi. Bir otdan ikkinchisi-

ga sakrab o'tib minib, ro'parasidan chiqqan yov askariga bolta so'qib, otidan tushirib, o'ziga bitta oybolta tekkizmadi, tegsa ham, jiddiy jarohat olmadi. Tun yarimdan og'ib, oy botib, qorong'ilik qoplagan kezda qurshovdan chiqib, qolgan-qutgan askari bilan qutulib ketishga muvaffaq bo'lgan. Ular biror holi o'ngir izlab yo'lga tushishdi — o'zlari uxlab, otlariga ham dam berib, kuch yig'ib olishmoqchi bo'lib kelishayotganda... banogoh Shapni uchratib, qo'lga olishdi. Boshida hurpaygan qora qalpoq, ustida kigiz cho'pqut, bo'yni so'rraygan Shap birinchi ko'rgan odamga esi kirarli-chiqarli tentaknamo bo'lib tuyilardi. Tinchlik kunlari shu holicha yo'liqib qolganida, Esanlay boshliq hammalari miriqib kulishgan bo'lardi: "Ee, sen odammisan, jinmisan, kimsan?" — deyishardi. Jangda charchab, hollari qurib, ko'ngillariga hech narsa sig'may, g'ashlanib kelayotgan dushman askarlari Shapning kepatasini ko'rib, battar zardasi qaynadi. Ustiga-ustak Shap qurmag'ur shunchaki qo'shinga ergashib yurgan bir bechoraman, deb, iz yashirish o'rniga Esanlayning yuziga tik qaradi:

— E, Esanlay! Sen mingboshimisan. Men tumanboshiman! — dedi to'g'ridan-to'g'ri — Sen menga mazammat qilolmaysan. Mening o'sha Elteres sheringga gapim bor. Daydigan qo'rqoq lashkarboshing mening qarshimda turmasin!

Shapning bu surbetligidan Esanlayning jon-poni chiqib ketdi!

— Evoh! Bu nima haqorat! Bu badbaxtning boshini ikkiga bo'lib tashlamasammi?!

Shap xumoridan chiqqan kishicha qiyqirib kulib yubordi:

— Vah! Ana bo'lmasa! Kim badbaxt? Men emasmi boshdan-oyoq sovut kiyib, duldul minib, qo'shin boshlagan Elteres sherning damini qayirgan? Yoki senmi badbaxt? Tuni bilan ko'zing ilinmay bezib kelayotgan? Vah, boshimni ikkiga ajrata olmasang, qo'rqoq, bo'lmag'ur ekansan! Asl boshlar shunday yorib tashlanadi!

So'rraygan, oriq Shapning bu aytgan gaplari qanchalik jahlini chiqarsa, shunchalik kulgisini keltirdi. "E, bu zahar tilli, tentaksifat bir bechora odam ekan. Botir boshim bilan bunga teng bo'lmay", — deb u bilan aytishishni to'xtatdi Esanlay. Esanlayning bu fikrini o'qiganday, Shap avjiga chiqib qichqiraverdi:

— Haah, qo'rqoq alp! Hali yalinasan menga. Men senga qilich ko'tarib urinib o'tirmayman. O'ngirga qarab qurqirasam, Semurg' keladi ko'kdan. Toqqa qarab uvillasam, ko'kyol tushadi tog'dan. Keyin ikkovi bitta seni emas, shu yerdagi hammangni nimtalab tashlaydi.

Esanlay kinoya qildi:

— E-ha, sening shunaqa karomatlaring ham bormi?!

— Bo'lmasam-chi! Meni kim deb o'ylaganding? Kecha El-teres lashkarining kuchini qirqqan mening shu karomatim edi. Hozir bitta ishora qilsam, oting bosib turgan yer ikkiga ajrab hammalaringni yutib ketadi! O, insonning insonga yomonlik qilishi qanday razolat, men seni ayayman.

— E, sehrgar, — dedi Esanlay endi g'azablanmay. — Qani ko'rsat-chi, o'sha karomatingni?

— Qo'rqmaysanmi, alp?

Esanlay og'iz ochguncha bo'lmay, Shap burgutcha kurillab, keyin bo'richa uliy boshladi. Ko'z oldilarida Shapning bir vaqtning o'zida burgutchasiga va bo'richasiga ovoz chiqarishiga bular chindan hayratlana boshladilar. "Ay, bu odam bolasi emas, odam qiyofasidagi jin", - deganicha askarlarning ba'zi birlari qo'rqib ketdi.

— Aye, bu oddiy odam emas...

— Kiyimi ham, o'zi ham aytib turibdi-ku!

— Basharasini qara. Bir qushga, bir yovvoyi mushukka o'xshash mumkinmi?.. Qari yuzboshi seskanib ketdi:

— Qora jinni shunday oriq, bo'yni uzun bo'ladi, deyishardi...

Shap jiddiylashdi. Kulmadi, koyinmadi, o'kinmadi. Qandaydir qo'rqinchli voqeani hikoya qilayotganday, o'ta ishonarli qilib so'zlay boshladi:

— Ana, ko'rdingmi, Esanlay mingboshi! Ana, ana! Ro'paraga qarang! Barchangiz qarang! Qora barchin[1] qiyofasidagi mening pirim ko'kyol qiyofasidagi sening piringni changallab yotibdi!

[1] **Barchin** — oltinchi marta tullagan burgut. Tadqiqotchilarning aytishicha, burgut qarib, "munkillab qolmasligi" uchun patlarini o'zi yulib tashlaydi va yangi o'sib chiqqan patlar burgut tanasining ham yosharishini ta'minlaydi. Oltinchi marta yangi patlari o'sib chiqsa, qironqora deyiladi.

Ko‘r, ko‘rib qo‘y, maqtanchoq alp! Ana, ko‘kyol piringni holi qurib, g‘ingshib yotibdi...

Shap bo‘richasiga ayanchli ulib qo‘ydi-da... qamchisini Esanlayning otining tumshug‘iga niqtadi:

— Ana, ana! O‘z piringning o‘limini ko‘rib ol. Piringni ko‘ra olmaganing — farishtang qochdi, degan gap. Men esa pirimni ko‘rib turibman. Pirim qironqoraday qurqurayapti...

Shap g‘olib burgutdek qurqurayverdi.

Esanlayning yuragi shuv etdi: “Bu o‘zi jin, jin bo‘lmasa ham, ko‘zi ochiq odam. Bu odam yaxshisi o‘z yo‘liga ketsin”... Atrofidagilarga Shap qurillab-uvillayotganday emas, qandaydir bir ko‘zga ko‘rinmas mahluqlar ulib-irillayotganday vahimaga tushishdi. Esanlayning odamlari tek qotishdi.

— Ajabo, odam bolasining qo‘lidan kelmaydigan g‘alati ishlar... Chayillash. Bu rostdan ham jin. Bo‘ri jon talashayotganday jon achchig‘ida ayanchli ulidi. Burgut tobiga, kuchiga yetganday, qarqiradi. “Eeh, bu inson emas”...

— Ana, ana! Ko‘ringlar, ko‘ringlar! Sening piringni mening pirim yanchib tashladi. Oooo, bale-ye-ye-ye! Qironqoram! Tabarruk qushim!

Yana burgut qarqiradi. Joni chiqayotgan bo‘rining ulishi shunchalik yaqqol, voqyeiy eshitildiki, tomoshabinlarning ko‘z o‘ngida qorni yorilib yotgan bo‘ri o‘ligi gavdalanib ketgandek bo‘ldi...

Shap quvonib qichqiraverdi:

— Ana, ana! Oralaringda pok niyatli, ko‘zi ochiqlaring bo‘lsa, pirlaringning o‘limini ko‘rib qolar. Anovi ko‘kyol qorni eshilib yotibdi. Mening pirim qoraqiron bo‘lsa... ana, quvonishini eshiting!

Shap egardan ko‘tarila boshladi. G‘olibona quvonib, qo‘li bilan ishora qildi:

— Bo‘ldi! Pirim parvoz qildi! Piring ko‘kyolning nafasi so‘ndi. Endi qilich sug‘urasanmi, janchar sanchasanmi? Menga baribir... Men omon, sen yomon! Mayli, bu safar hammangizga omonlik beraman. Sizlarga tegmayman. O‘zim ketdim. Tangrim bergan lashkarimni osmonga yo‘llasam, dushmanga yomon bo‘ladi. Qirq yil osmondan do‘l yog‘diradi. Ketdim!

Shap Oq manglay qo'tosning qorniga oyoqlarini niqtab qo'ygan edi, jonivor yo'rtib ketdi. Esanlay ham, uning askarlari ham bu g'alati odamga "to'xta!" deyishmadi.

Mingboshi ham, yuzboshi ham, o'nboshi ham, askar ham ichida: "Ketsin, ketaversin. Bu odam emas, jin. Ko'zdan yo'qolgani ma'qul"... — deyishardi. Shapning sheriklari ham ergashib keta boshladilar. Hech kim ularni to'xtatmadi. Shu tariqa, qiziqchi, hazilkash, topqir, makkor Shapning faqat qo'tosga minib olgan odamlari eson-omon yov qo'lidan qutulib ketishdi...

Yilqichi Shapning dushman qo'lidan qutulishigina emas, bir lashkarboshini laqqa tushirgani, ko'z ko'rib, quloq eshitmagan hiylalari qo'shin ichida duv ketdi:

— Piri barhayot Erkishining qo'shinida jin avlodidan bo'lgan odam qiyofali birov yurar ekan. U birda qoraqiron bo'lib qarqirasa, osmon va yer o'rtasidagi barcha qoraqironlar junbushga kelar ekan. So'ng ko'z ochib yumguncha yoniga kelishar ekan. "Ol", desa, olar ekan, "Ur", desa, urar ekan. Ko'z oldingda piringni qiynab, o'zingni holsiz qilib qo'yar ekan. Esanlay tumanboshi qanday alp edi-ya?! Erkishining o'sha jin-parisini asir olaman deb, o'zi tildan qolib, kuchdan toyib yotibdi ekan. Bu karomatgo'y, qo'yib bersa, yovga balo yog'dirib yuboradi.

— O... Elteres sher yalovini tushirmasa, o'z nasliga ziyon keltiradi...

Shunday vahimali mish-mishlar endi Elteres lashkari ichida aytila boshladi. Nufuzi ko'tarilganida er boshiga qush qo'nadi. Nufuzdan ayrilganida boshidan o'sha qush ketadi. Tole ketadi. Yo'llarini ko'rinmaydigan, kutilmagan omadsizliklar chirmab tashlaydi. O, bu eng xatarli yoziq. Zotan, odam bolasi bo'ysundira olmagan Elteresning kuchi qirqilmagani bilan boshidan baxt qushi keta boshlagan edi. Qo'shin xoni, lashkarboshi, mingboshining aljib, tildan qolishi, shalvirab kuchdan qolishi yomon oqibat, albatta.

Chindan ham bu yomon alomatlar shu bilan to'xtamadi. Kun o'tgan sayin Erkishining tumanlari jangni shiddatli tus oldirdilar. Darvoqe, yovni ayaganning o'zi jarohat oladi. Jangning udumi — yutqazgan tarafni talon-taroj etish. Jangning maqsadi — askarlarni o'lja-g'animatlarga botirish. Erkishi esa o'lja umidida,

dunyo muhabbati ortidan jang boshlamagan. U ketgan oriyatini qaytarish uchun otga minib, qurol tutgan. Qondosh bo'la turib, o'zlariga pichoq urgan Elteresni emaklatgani kelgan.

Erkishi bu hujumni odillik, jasorat, bobomeros yo'lni davom ettirgan tabarruk hujum bo'lishini xohlagan.

— Dushmanni yengib bo'ldik, deb buzg'unchilikka o't-mang! — deb ogohlantirgan Erkishi qo'shin boshliqlarini. — Kim o'lja ortidan yugurib ketsa, bobolar udumi bo'yicha, o'g'ri hisob-lanib, boshi olinadi! Shu jazoni unutganing miq etmay boshingdan ajraysan!

Dono sarkardaning bu eslatmasi joriy qoidalarga — zamon an'analariga to'g'ri kelmaydigandek... Jang uyoqda tursin, o'lja deb ham qirilish kerakmi? Binobarin, yengilgan elning elini tala-may, boyligini, asilini, molini o'zlariga qoldirish nodir hodisa. Uni kim ko'ringan sarkarda, nomi xon bo'lganning barchasi uddalay-vermaydi. Uni qilni qoq yorgan odil, oltinga, kumushga, asilga ko'z olaytirmagan qanoatli, nazari to'q, halol jo'mard, kengfe'l sarkarda qila oladi. Shunday kengfe'l, mard sarkardaning mardligi ozlik qiladi bunda. Qo'l ostidagi lashkarboshilarni, abo-beklarni, botirlarni, askarlarni ham shunday kengfe'llikka, jo'mardlikka tar-biyalamay turib, qo'shinning har bir a'zosining fe'l-atvorini nozik o'rinlarigacha his qilmay turib, ularni o'ziga qalban itoat ettirmay turib bu zo'r tilagini amalga oshira olmaydi.

Maqsad xolis bo'lsa, tilak amalga oshadi!

Alqissa, Odiltoy ajo joni uzilishi arafasida ortida qolayotgan el-yurtining omonligini o'yladi. Entika-entika, so'nggi nafasida arang aytgan so'zi shu bo'ldi: "G'oz galasi boshsiz ucha olmaydi. Kuchli yurt boshsiz qolsa, kuchi so'nadi. Boshsiz yurtga chetdan ko'z olaytirgan g'animlar ko'payadi. Xoni o'lgan yurt shunday qoraga burkanib, huvillaydi. Shu qondosh ellar birlashsangiz edi. Men ajo bo'lgan vaqtda boshqalar uyoqda tursin, — az, chaa, to'lo's, qarluq, nayman, qurikan, o'n o'q... bari bizga ters qarardi. Ularning xoniga ehtirom ko'rsataverdim, botirlaridan iliq so'zimni ayamadim. Uzoqni ko'ra bilgan donosi bilan kelishib, ahil bo'lib ketdik. Ters o'ylaganlardan anovi Jariq tegin kabi o'lib ketaverdi. Evoh, o'g'lon, abjirsan, keskirsan! Lekin yodingda tut, pichoq

qanchalik keskir bo'lmasin, o'z sopini o'zi kesmaydi. Har qancha chapdast bo'lsang bo'l, o'sha o'z qondoshlaringni chopsang chop, faqat o'sha sarkashni bo'ysundirish uchun, elini o'ziga el qilish uchun shunday qil. Ammo minba'd mol-joniga qasd qilib, o'g'il-qizini qul etma!... Odiltoy ajo bir entikib olib davom etgan: "Anovi Uchsuvning Elteresi qo'shin kirgizdi. U shunday kalta o'ylagan botirlardan. Kalta o'yladi ham. Sen ham unga ergashib teng bo'lma, bolam. Urishsang urish, lekin talashma, to'nashma. Uchsuv eli bizga nasabdosh. Shuni yodingda tut! Ammo... O'sha Elteres biz bilan hamjihatlikka rozi bo'lganida bormi, yengilmas kuch bo'larmidik? U sher esa manman bo'lib ketdi. Cho'g'ultur (Faqat Odiltoy ajogina Erkishini o'z nomi bilan chaqirardi), Cho'g'ultur, sen aqlingni ishlat. Abo-biylar, mana bu balog'atga yetmagan yosh lashkarboshilar senga ko'makdosh. Sen shularga tirgak bo'l! Meni yerga qo'ydim, dema! Mening nomim bilan da'vat et! Elteresni ittifoqqa chaqir. Madadsiz odam, hatto bir ko'vachani sindirolmasligini yodda tut! Elteres sher bilan ittifoq tuzib olsang, bu ko'p urug'li el sizlardan yiroqqa ketmaydi. Ko'p urug' bir bosh, bir qo'l bo'lib turganda, yov nechog'lik kuchli bo'lsa ham, yuragi betlamaydi. Eranlar, hammangiz tinglang, Ajo o'ldi, desangiz, men dafn etilayotganda ot qo'yuvchi bo'lmang. Ajomiz o'rdada idora yurityapti, biz u yo'lboshchimizning buyrug'ini bajarib dala-tuzdamiz, deng. Qachon yengilmas kuchga aylanganingizda, ajoning ruhi barhayot bo'ladi. O'shanda Elteres ham yovlasha olmaydi."

Odiltoy ajoning mazkur vasiyatini Erkishi dilida mahkam tutdi. Jo'mard ajoning vasiyatiga amal qilib, qanchalik keskir bo'lmasin, bugungi jangda o'z sopini kesmadi. Uchsuvni talamadi. Faqat shu yurtning yengilmas sheri Elteres botir bilan to'qnashdi...

— Eh-ha, sinmaydigan daraxt o'sganmi yoxud kuchi sinmagan alp tug'ilganmi?!

Yilqichi Shapning "karomati" Esanlay botirni shol etib qo'yganidan keyin talay lashkarboshilar o'zi kelib, Erkishining oldiga kelib taslim bo'ldilar...

Kuz oyoqlab, dala-dashtga birinchi qor elangan kuni Elteres sherning o'zi ham qo'lga tushdi.

ERKISHINING BIR KUNI

Ey, inson, eshit! Men seni qancha yaxshi ko'rsam, shuncha jasorating ortadi.

Erkishi

Inson — chinakam inson bo'lgandagina go'zal

Menandr

Sen odamlar meni bilmaydi, deb notinch bo'lma, sen odamlarni bilmayman, deb notinch bo'l.

Konfutsiy

Inson — inson bilan inson.

El so'zi

Barvasta bir mo'ysafid kishi oybolta tayanib, oqsoqlanib bosib qirga chiqdi. Qadam olishi osoyishta. Yalangbosh. Usti-boshi yengil. Egnida bosqonchi kiyadigan taka jargak to'n, taka jargak shim. Oyog'ida qo'nji tizzasini qoplab turadigan qora kigiz etik. U kigiz etikday dag'al, og'ir emas, yuqa, yengil, issiq. Oxirgi jangda Erkishi to'pig'idan jarohat olgan. U to'qnashuvda alp qilichi yetkazgan og'ir jarohat emas, shunchaki "soxta" jarohat. Tap tortmay chang solgan botirlaridan rozi. "Ha, yigitlarim qaysi jangda ortga tisarilgan? So'q! Bo'z yigit. Salmog'ingni sezma. Salmog'ingni oyboltaga tashla! — deya Erkishi bu ko'kyollaridan rozi bo'lib, depsinayotgan Katta to'riq otini niqtab turganida, to'pig'i "jiz" etdi. "Gurs!" oybolta urilsa, qilt etmaydigan Erkishi "ie" deb engashdi-da, qanoti dirillab turgan kamon o'qini ko'rdi. Qandaydir bir daydi o'q oyoqni himoyalovchi sovutni sitib, etikni teshib, badanigacha yetgan edi. To'pig'i jizillay boshladi.

— Voh, tikan... Qaydan keldi bu? — Erkishi engashib o'qni sug'urib oldi. O'q uchidagi silliq po'latni zang bosib qolgan ekan. Nam holicha sadoqda qolib ketgan shekilli? O'sha zang bosgan po'lat uchi qonga bo'yaldi.

— E, ko'zga otar merganning o'qi... — deb Erkishi kulib qo'ydi-da, o'qni o'z sadog'iga solib ketaverdi. Jangda o'q uchi tirnab o'tgan jarohat uyoqda tursin, oybolta tekkan jarohatni ham tang'ib olib, yana jangga sho'ng'ib ketgan eranlar ozmi? Singan

oyog‘iga shaqshaq qo‘yib bog‘lab, yana ot minib ketaverganlar ozmi? Er o‘zi o‘ldim, demasa, ajali unga yo‘lamaydi. Qo‘rqoq odam o‘ladi. Shijoatli erning joni sakkizta bo‘ladi, degan qat’iy ishonch Erkishi tugul atrofidagi oddiy askarlarni ham rag‘batlantirib yuborardi. Qisqasi, askarlar ancha-muncha jarohatga parvo qilishmas edi.

O‘sha safar Erkishi oyog‘idagi yarani mutlaqo unutib yuborgan. Jang ham sustlashdi. Taraflar ikki tomonga ajradi. Qachon qarorgohga qaytib kelayotganda, Erkishi oyog‘i lo‘qillab, og‘irlashib qolganini sezdi. Otdan tushganida jarohatni tekshirish maqsadida atayin salmog‘ini yarador oyog‘iga tashlab bosdi. O‘ng oyog‘ining to‘pig‘i emas, sondan pasti tizillab og‘rib, ko‘zida o‘t chaqnagandek bo‘ldi. “E.. daydi o‘q hushimni olay dedi-ya? Alp yengolmagan devni pashshaning tumshug‘i yiqdi... deganimikan bu? Meni bu chirpiq ag‘daradimi hali, O, Tangrim?!”...

— Aye... jizillayapti...

Chindan ham og‘rig‘i chidab bo‘lmas darajada kuchayib ketdi. Alp ekanligi, sarkarda ekanligi, Erkishi ekanligi uning sabotini tutib turdi. “Shu la’nati jarohatdan yiqilamanmi endi? O, Tangrim, el oldida kulgiga qoldirma, yov oldida sharmanda qilma meni. Shiddatli jangda Elteresning o‘zi emas, nazari yiqitgan Erkishi tikanakdan yiqildi, demasin do‘st-dushman, O, Tangrim! Alpman, axir! Menga alp o‘limini ato et! To‘qnashuvda, minglab yovning o‘rtasida kun-u tun urishib, ko‘pini yer tishlatib, o‘zim qon ichida o‘lay, Tangrim! Voh, ajalim unda ham bo‘lmasa, otni xoritgan yurishda yetti kun uyqudan qolib yo‘l bosib, sakkizinchi tuni toshga bosh qo‘yib toshdek qotib uxlab yotganimda, meni arslon bossin. Unda ham ajalim bo‘lmasa, tog‘ darasidan o‘tib borayotganimda, tog‘ ko‘chib, bosib qolsin... Asti bu chirpindi-tikanakdan yetgan la’nati jarohatdan o‘ldirma, sog‘ chiqay, bu bemavrid darddan, Tangrim!”

Ammo Erkishining dardi chirpindi yetkazgan yengil yara emas, xavfli jarohat edi. To‘piq shishib, o‘t bo‘lib lovullab, zo‘riqib borayotgan jarohatning og‘rig‘i sonigacha qaqshatib yubordi. Og‘riqqa chidab bo‘lmas edi. Tinchlik vaqti bo‘lganida, balki ko‘rpaga yotib olib, davolanarmidi? Jang ketayotgan pallada esa,

kasalini sezdirib qo'ysa ham, qo'shinning ruhi tushadi. Shuning uchun yarasidan jabrlanayotganini yov emas, o'z askarlari ham bilmasin, dedi Erkishi. Sal o'ziga kelib olgandan so'ng qo'shindagi tabibni oldirdi. Tabib uzun soqolining uchini burab, kamariga qistirib qo'ydi-da (shunday qilmasa, uzun malla soqolining uchi engashganida yerga tegib, ishlayotganda qo'liga o'ralashib, chatishib, xalaqit beradi. Yurganda o'z holiga qo'ymasa, ishlayotganida shu tarzda yig'ishtirib oladi), Erkishining jarohatini kuzata boshladi. Qayrilma qo'njli navkar etigi yechiladigan emas, uchli tig' bilan etikni tilib yubordi tabib. So'ng paytavani ivitib, birga qotib qolgan qonni yuvdi. Shishni to'xtatib, og'riqni pasaytiradigan shifo usullarini qo'llay boshladi. Uzunsoqol tabib chindan ham qo'li yengil, shifosi em bo'ladigan hakim edi. Tinchlik kezlari butun vaqtini shifobaxsh dorivor giyohlarni izlash, terish bilan o'tkazadi. Qaysi ildizni yilning qaysi vaqtida tersa, davo bo'lishi, qaysi gulni tunda, qaysinisini kunduzi uzsa, farq qiladigan xususiyatlari, ildizga qaysi o'simlik poyasi yoki qaysi yaproqni qo'shib qaynatish kerakligi, yoki qaynatmay, ezmasini achitib malham qilishni, shuningdek, o'sha giyoh, yaproq, urug'ning quritilgani qaysi jarohatga sepilishi, qaysilari faqat sirtdan qo'llanishi bu tabibga yod bo'lib ketgan. Shirin uyquda yotganida uyg'otib: "Tabib aka, falon botirning jarohati azob beryapti"deyilsa, u: "Nimadan kelib chiqqan jarohat? Necha kun bo'ldi? Shishi qanday? Issig'i bormi? Ishtahasi qanday?" deb so'rab olib, jarohatning og'ir-yengilligini bilib oladi. Jarohat yengil bo'lsa, "O, o'g'lim, qo'rqmang, "Qirmani" ichirib, "Jonbosdi" surtib, qimirlamay yotqizib qo'ysak, uch kunda san ko'r-man ko'r bo'lib ketadi. Otni keltiring. Manzil uzoq emasmi?" — deydi.

Jarohat tuzalmaydigan bo'lib gazak olganini bilganida, tabib soqolining uchini uqalab talay vaqt unsiz o'tiraveradi. O'z ichida kimlar bilandir maslahatlashayotganga o'xshaydi. Aslida hech kim bilan maslahatlashmaydi. Jimgina: "Eh, bechora, jarohati og'ir ekan. Mening dorilarim tuzatib yuborsa, u yigitning omadi. Huv, birda ko'k zovga chiqqan yolg'iz gulni tong g'ira-shirasida uza olmay qolgandim. Evoh, oq tomirni biroz kechiktirib kovlab oluvdim-a!.. Ha, ularning kuchi qaytmadimikan?" — deb o'z ichida u

kasalga qaysi dorini ichirib, qaysi birini surtib, qanday ovqat berish kerakligini o'ylab ketdi.

"Oo, aziz Oqbergen o'zingiz qo'llang. Tabiblar piri "Davolab bo'lmaydigan kasalning o'zi yo'q", degan.

Tabibning bunday xayolga botib qolishi yonida taraddudlanib turgan kishiga allanechuk sirli, qandaydir bir qo'llovchisi bilanmi, g'oyibona maslahatlashayotganday bo'lib ko'rinadi.

"Ha-ya, ko'p gapirib, u aziz kuchni cho'chitib yubormay. Qo'llovchi piri, shifo homiysi Umay ona bilan fikrlashmoqda", — deb chaqirib kelgan kishi tabibning o'zi gapirmagunicha javdirab tek turaveradi.

"Ha... — deydi tabib o'ziga-o'zi, alpning ishi oybolta so'qish. Tabibning ishi jarohatlarni davolash!" So'ng o'zini chaqirib kelgan kishiga aytadi: — Ketdik. Tangri umr bersa, yashab ketadi. Boraylik. Davolaylik.

Erkishining yetti otasidan berigi ajdodlari temirchi o'tgan bo'lsa, tabibning qancha ota-bobolaridan beri tabib bo'lib kelganini o'zi ham aniq aytolmaydi. Uzoq o'tmishdagi bobomiz Oqtayloq avliyodan beri bizning bobolar tabibchilik qilib keladi, - deyishadi.

— Ha, u Oqtayloq otadan beri qancha ota o'tgan ekan? — deb so'raganlarga, tabib — uzun barmoqlari bilan uzun soqolini silay tushuntira boshlaydi:

— O-o-o, u zamonlar — allazamon. Buyuk qirda oqish tortib, ko'zga ilg'anmas bo'lib qolgan qarag'ayning uchiday, ko'zga ko'rinmaydigan bo'lib ketgan qadim tush. O'z otam — Oqko'z tabib. Bunday atalishiga sabab otamning bir ko'ziga oq tushgan edi. Bobom — Oqjo'l tabib. U kishi davolaganda sog'aymagan kasalning o'zi bo'lmagan ekan. Qayerga borsa ham, kimning qanday kasalini davolasa ham, oyoqqa turg'izar edi, deyishadi bobom haqida. Katta bobom — Tuman tabib. U bobomning mol-holi ko'payibdi. "O'n ming qo'yimni ol, Tangrim. Dori — darmonimga hammaga shifo bo'ladigan em ato qil", — deb quyosh chiqayotganda sig'inib so'rar ekan. To'rtinchi bobomiz Oqg'ulja. Davolayotgan bemori tushida arxar qiyofasida kelmasa, dorim shifo bo'lmaydi, Tangri yo'l bermayapti, deb bosh tortar edi, deyishardi.

Beshinchi bobomiz — Terak tabib. O, u kishi faqat tabibgina emas, donishmand, oqil ham bo'lgan ekan. Abo-beklar bilan to'rda yonma-yon o'tirgan yerida "Tabib aka, sizga keldim", deb kelib qolishsa, taraddudlanmay o'rnidan turib, birga jo'nab ketar ekan. O'lim to'shagida yotgan o'n bemorni davolasa, to'qqizi sog'ayib, biri dorulbaqoga rihlat qilar ekan. U bobom shifobaxsh gulmi, o'tmi, giyohmi,.. ko'zi ochiqday, hammasining xususiyatini adashmay topa olar ekan. Yurib borayotib: "Voh, sariq oltin, oq kumushga sotib olinmaydigan jonni saqlab qoluvchi darmon shunda", deb odamlar har kuni toptab o'tadigan ko'rimsiz alafni avaylab silab o'tar edi. Oltinchi bobomiz — Oyko'rgan tabib. O, dardlar davosini, ko'pincha, oydin tunda zovlar, daralar, oq qorli tog'lardan izlab yurgan, deyishadi. Ilonning zahridan, yovvoyi takaning o'tidan, hasharotning uyasidan, bedananing qo'nog'idan, toshning kovagidan, chittakning inidan,.. boringki, Bo'z yer shirasini emgan jonli-jonsiz, nabotot-jamodot.. barisidan shifo axtarib yurgan, deyishadi. Ha-a, tabib shifoni shu tariqa izlab yuradi...

Uzunsoqol tabib soqolini tutamlab o'yga toladi: "O, Tangrim, Men sirimni qanday odamga ochdim? Tabib sirini ochsa, ilon afsunini yozadi. Ortiqcha hech narsani oshkor qilmadimmi, Tangrim?"

Uzunsoqol tabibni maroq bilan tinglab o'tirgan odamlar nojo'ya gapirib yuborib, tabibni cho'chitib qo'ymaslik uchun lommim demay, hikoyasining davomini kutishardi: "Tabib aslida sirini ochmaydi. Sirini ochgan tabibdan hikmat uzoqlashadi. Fikrini aynitib qo'ymaylik. Aks holda uyog'ini aytmay qo'yadi".

Tabib ham uzoq sukut qilib o'tiraveradi. Tinglayotganlar ham so'z qotmay kutishadi. Keyin ularning bir e'tiborli kishisi asta so'raydi:

— Tabib, undan avvalgi bobolaringiz ham tabib o'tgan bo'lsa kerak?

— Aha, Oyko'rgan bobodan nari Oqtayloq bobogacha to'qqiz ota bor. Ularning barcha ishlarini sanab o'tish joiz emasdir. Avvalgi tabiblar karomat berilgan tabarruk emchi bo'lishgan. Yoki ular bizga shunday bo'lib tuyiladimi? Uni Tangrining o'zi qo'llab turadi. Tabibning ishi jarohatga shifo berishdir. Men ko'nglimni gapga

burmay, ishimni davom ettiray. O'rtaga archa yoqing. O'z moyi o'zi bilan, yer ostida ming yil yotsa ham, yog'ochi chirimaydigan archa tutuni iflos hidlarni, nopok narsalarni haydaydi, kasallik tashiydigan yovuz kuchlarning illatini qochiradi. O'rtaga archa yoqing. Olovda suv qaynab tursin. Olov o'rtasida cho'g' qolsin. Uy atrofida g'ala-g'ovur ovozlar chiqmasin!

Shunday eslatmalardan so'ng Uzunsoqol bemorni davolashga kirishardi...

O'sha safar Erkishining jarohatini jang sharoitida, dalada davoladi.

— Oh, Tangrim! — dedi Uzunsoqol tabib o'zicha. — Alpning alp kuchini ko'z ilg'amas jin g'orat etadi, degani shu bo'lsa kerak. O'q uchi tirnagan arzimas jarohat gazaklab ketibdi-ku, Tangrim, o'zing saqla. Yo'lboshchimizni saqla. Ajalini o'zing adashtir. Dori-darmonimni em qil, Tangrim!

Yarani bog'layotgan tabibga Erkishi istehzo qildi:

— Eh, tabib, Meni Er aka deysizlar hammangiz. Chivinning tumshug'iday sabil tirnab o'tibdi. Otdan yiqitdi-ku..

— Unday emas, Er aka. Alpga oybolta tegsa, oyoqqa turib ketishi mumkin, lekin yovuz kuchlar daf qilsa, tuzalmas dardga chalinadi.

— O, rost. Ko'z o'ngingdagi yovni yo yengasan, yo undan yengilasan. Ko'rinmas yovga uchrasang, to'g'ri go'rga borasan, — der edi usta otam. O'sha o'q tegishi bilan chora ko'rsak, shuncha dahmaza yo'q edi. Mana gazaklab ketibdi. Endi qiynalamiz.

Jizillayotgan og'riqqa Erkishi tishini-tishiga qo'yib chidab, tabibga ham durustroq gapirolmadi...

O'shanda tabibning aytgani to'g'ri bo'lib chiqdi. Gazak olib ketgan jarohat uzoq vaqtgacha tuzalmadi. Botirning joni qaqshab, ko'z yummasdan tong ottirgan tunlari ko'p bo'ldi. Uzoq davolandi. Oxiri "Tabarruk qo'li em bo'lsa, kasal hozir" bo'ldi. Bor mahoratini ishga solib, dori-darmon qilib tun-u kun Erkishining yonidan ketmagan Uzunsoqol tabibning niyati amalga oshdi.

Tishlaganga qoni oqqan, yirtqichga yem qayvaran, deganlaridek...

Dori-darmon kor qildi. Em bo'ldi. Erkishi sog'aydi. O, shunda ham butunlay sog'ayib keta olmadi. O'sha yarador bo'lgan o'ng oyog'idan kuch ketib, to'pig'i tortishib, oqsoqlanib bosib qoldi. Zotan oqsoqlangani bilan og'riq yo'q edi. Shu tariqa, botirlik udumi bo'yicha, oyboltaga tayanib, dorilomon kunlarni tashvishsiz boshdan kechirardi...

Alpni tashvishsiz deyish ham mubolag'a bo'lsa kerak...

Faqat baloyinafsini to'ydirishni ko'zlab urushga otlangan sarkarda uchun mil-mil o'ljalar bilan qaytib kelish — katta shodiyona bo'ladi. Erkishi chegarani mustahkamlagan, yer-suvni idora qilgan sarkarda. U bugungi g'alabasining natijasi ertaga nimani olib kelishini uzoqdan sinchiklab ko'ra bilgan dono yo'lboshchi. Dono bo'lganda ham ko'p o'ylab, mulohaza qilib, oq bilan qoraning yonma-yonligini, yig'i bilan kulgining hamohang ekanligini xotirida tutadigan zakiy alp.

Ko'pdan beri uydan chiqmagan alpning oyboltaga tayanib aylanib yurishidan maqsadi oddiy sayr emas. Hamisha jang-jadalda yurgan lashkarboshining uyda o'tiraverishi harb kishisiga xos bo'lmagan odat, albatta. Nima bo'lganda ham quyosh nuri yog'ilib turgan ajoyib kundan bahra olish, tevarak-atrofga bir ko'z tashlash... "Eh, ko'hna dunyo, ko'hna dunyo. Sening nurafshon jamolingga oshuftaman. Zulmatingdan shikastaman, — dedi Erkishi yonbag'irda o'tirganicha poyonsiz kenglikka, huv Ulug'tog' tog' cho'qqilari, yam-yashil qir etaklariga ko'z tashlar ekan.

— Eeh, keng dunyo, sen shunday keng bo'la turib, g'azab qilganingda men kabi bir notavonning ikki oyog'ini bir qo'njga tiqib tashlaysan, ee! Sening shunchalik keng bag'ringni — hammamizni sig'dirgan Ota yurt dedik. O'tlaganga o't-maysang, suvsaganga suving serob. Tishlaganga qoni oqqan behisob barra jonivorlaring bisyor. O, endi o'sha rizqi butun mahluqing qurgur o'zi bir mazax. — Erkishi kulgan bo'ldi. — Mazax bo'lganda qandoq? Jonivorlarning eng zo'ri — filing sichqondan qochadi. Sudralganning eng zaharlisi — iloning qumursqadan qochadi. Arsloning uzun-tumshuq pashshadan qochadi... Eha, dono, tadbirkor inson o'zidan qochadi. Qaroqchi tundek qoplab kelgan yov tumanlari o'lja talay-

di. Eh, umrim bo'yi insondan yovuzroq, insondan zolimroq jonni ko'rmadim. Insondan buzg'unchiroq o'zi yo'q...

Erkishi olis-olisda quyosh nurida yarqirayotgan muz cho'qqilarga termilib qaradi. Alpning o'tkir ko'zlari hali nurini yo'qotmagan. Umr bo'yi yurt kezib, hujum sharoitida chegara atrofida uzoq-yaqinni tulkicha is olib kuzatib, burgutdek sinchiklab tikilib, yerning dukurini tinglab kuzatib, tevarak atrofda nimalar bo'layotganini fahmlab bilib, shu tariqa, toblanib, chiniqib, oldindan ayta olish, uzoqni ko'rish va eshitish qobiliyatlarini kasb qilgan qari askar hozir shu kasbiga qaytib o'tirardi.

Huv kun nurida tovlangan muz cho'qqiga qarab o'tirib, ufqdan berida qandaydir rutubatli qora bulutlar cho'zilib kelib, bir uchi ko'l o'zaniga osilib tushganini ko'rganda: — "Tangrim, o'zing saqla! Tez orada bo'ron turadiganga o'xshaydi?" — dedi xayol ichida o'sha qora bulutlarga ko'ngil burib. Bu ham uzun serjumboq umri davomida olgan ta'limidan biri edi. Bulutning ko'chishidan, parrandaning uchishidan, to'rt oyoqlining yaylov almashishidan, ilon, kaltakesak, qurt-qumursqa, chayon-qisqichbaqalarning fe'li o'zgarishiga qarab yer ustida qanday evrilishlar ro'y berishini insonlar avvaldan payqab borishgan.

Erkishi ham shunday o'tkir fahm bilan ne'matlanganlardan biri edi. U avvalgilarning belgi-asoratlarini uqib-bilish orqali o'zi ham kashf eta olardi. Chunonchi, tunda soqchilikda yurgan kezlari yulduzlarining aylanishidan, chiqib botishidan tortib, rang-tusigacha bo'lgan yer va osmondagi belgi-alomatlardan o'zi ham voqif edi. Qolaversa, Hulkar, Uch arxar, yetti qaroqchi, Oltin qoziq, Qo'sh muguzli buzoq, Oqbo'z ot, Ko'kbo'z ot, yetim qiz, Tonggi Cho'lpon, Kechki sariq yulduz, Talmiz qizning yulduzi, Umay ona yulduzi, O'g'uz alp yulduzi... hamma davrning belgi-alomati bo'lgan, jangchilar belgi tutgan yulduzlardan tortib, qadim bahodirlar sharafiga nomlangan yulduzlar, yil belgisi, alpning jangda g'olib bo'lishi, sarkardaning jangga kirishi, sarbonning yo'lga chiqishi...kabi jamiki katta-kichik buhronlarni mana shu samoviy jismlar bilan qayd etib borgan bu yurtning shu belgi-alomatlari ham shunchaki asossiz safsata emas, nozik fahm, chuqur sinch-

kovlikka asoslangan ta'limot ekanligini his qilgan Erkishi o'zi ham shu belgi-alomatlarni to'liq bilardi.

Qo'shin hozir bo'lib, hujumga otlanganlarida, shunday belgilar ters bo'lib ko'rinsa, o'ngidan kelguniga qadar yurishni to'xtatib qo'ygan kezlari ham bo'lgan. Aksincha, alomatlarga e'tibor bermay, hovliqib otlanib ketishganida, nadomat chekib, hujumni yarmida to'xtatishga majbur bo'lgan fursatlar ham bo'lgan. Buning bari tajribadan kelib chiqqan ko'hna bilim, ziyraklik natijasi edi. Hozir bepoyon kenglikdan ko'zini uzmay o'tirib:

"Eh, yorug' dunyo! — deb Erkishi qattiq xo'rsindi. — Yorug' dunyo. Men alp edim, desam... Umr bo'yi otga qo'ngan soqolli bola bo'lib o'tyapman ekan, sendan dunyo. Umrim hujum, jang, to'qnashuv bilan halak bo'lib... Eh... tinchlik-osoyishtalikda o'tkazgan halovatli kunlarim qancha o'zi? Oz, juda oz. Oz bo'lganda ham shunchalar ozki, o'sha dorilomon kunlarim xotirimdan faromush bo'lgan. Darvoqe, qachon o'sha dorilomon kunlar bo'lib o'tgan umrim sahifasida. O'shanda, men o'spirin chog'imda bizning el Oltintog'ni makon tutib yashagan vaqtlarda bir oz omon-zamonlar bo'ldi. U kezda mening mohir usta otam bor edi. U kishi meni tin oldirmasdi. "Uyqu — o'likniki. Ish — tirikniki. Ko'rukni bos, ahmoq. Ota kasbingni olib qol. Ustachilik yetti ajdodingdan qolgan tabarruk kasb. Tur. Ildam harakat qil! — deb tongdan turg'izib ko'ruk bostirar edi o'shanda otam rahmatli. O'smir kezimdan ko'ruk bosdim. Bosqon urdim. Po'latni bolg'aladim. O'z qilichimni o'zim yasadim. Tinchlik kunlari ham urush yarog'lari yasab, askar uchun ishladik. Qilich o'rniga ko'zni quvontiradigan go'zal buyumlar yasasak, unga zeb berib, pardozlasak, uni sinmaydigan, yemirilmaydigan mustahkam qilib yasasak, bor mahoratimizni ishga solib, go'zallik timsoli o'laroq bir san'at yaratib, so'ng uni kelajak avlodlarga tuhfa etsak, o, unda qirg'iz ustalarining mohir qo'li yaratgan har xil ajoyib buyumlar hozir tilga kirib so'ylamasmidi? Ular jonli, bebaho meros bo'lmasmidi?..." Yodiga Sariuul oqinning aytganlari tushdi. "Sariuul oqin sal avvalroq qazo qilgan. Iyagiga bitta tuk chiqmagan ko'sa, chag'ir ko'z odam edi, rahmatli. Soqoli yo'qligi tufayli hamma

uni "ko'sa" derdi. Aslida yuzidan nur yog'ilgan istarali kishi edi. Og'iz ochishi bilan ajoyib she'riy satrlar oqib kelaverar edi"... deyishardi yoshi ulug'lar. Cho'g'ultur o'smir chog'ida Sariuul oqinning aytganlari, deb kattalar zarbulmasal qilishganini hozir ham eslaydi.

Sari-Uul oqinning qo'shiqlarida o'zgacha bir fikr va ohang mutanosibligi, ta'sirchan bayon bilan aytilgan nasabnoma, nasihat bo'lmish — shu ko'hna dunyoning ustivor zalvorli sho'rishiga qilich solishgan alplar tugul, jon-jonivor tugul, ko'z ilg'amagan kuchlargacha aziyat chekkanini, ko'zga ko'rinmas alp kuchining ozorlanib bo'zlaganini qo'shiqlarida bayon etgan Sariuul oqinning pandlari yosh Cho'g'ulturni jasurlikka azm ettirardi.

Qor va muzlar erishdi,
Tog' suvlari oqishdi.
Ko'kda bulut yurishdi,
Qayiqlardek o'ynashib.
Alplar rosa urishar,
Kuchin jangda sarflashar,
Birin-biri alqashar,
Dushmanlarga o'q otar.[1]

Ha, bu qadim bayotlar abas safsatalar edimi? Umrim davomida yaxlit erigan qorni, muzni ham ko'rdim. Qor-muz ko'lida qayiq bo'lib suzgan ko'kish bulutlarga oyoq qo'ydim. Ko'kka sapchigan alplar bilan yoqalashdim. Kuch sinashdik. Keyin yarashdik, do'stlashdik. Bir-birimizni alqadik, maqtadik. O'limga tik borib, ajal komida birga o'q otishdik... So'ng ikki tomon yana yovlashdik. Boshqatdan urishdik. O, bu aqlga bo'ysunmagan jizzakilik, hovliqmalik girdobiga men ham tushganman. Boshqalar ham tushdi. Biri qutlug' niyat bilan qilich serpisa, yana biri o'lja ilinjida tajovuz bilan qilich serpidi. O, u o'z ishini yovuzlik, deb bilmadi. Mardlik, deb da'vo qildi. Mening shiddatimga kim qarshi tura oladi, deb havolandi. Begunohlarni qon qaqshatdi... O'sha begunoh insonlarning jabr-sitamdan tomgan ko'z yoshlaridan

[1] Bu qadim she'rlar Mahmud Koshg'ariyning "Девону lug'отit turk" kitobida bor (Muallif izohi).

moviy bulutlar suzib yurgudayin ko'l yaraldi. Evoh, toshbag'irlar, avboshlar, qachon biz shu toshbag'irlik, beboshlikni tashlaymiz. Bu beshafqatlik o'zi qachon boshlandi? Qachondan buyon davom etmoqda? — Erkishi bir muddat tin olib, — hozir yaxshi, — dedi fikrini davom ettirib. Avvalgiga qaraganda hozir inson zoti aqlini yig'ib olgan. Kengfe'llikni kasb qildi. Eh, qadimda birining bosh chanog'ini biri kosa qilib, ichimlik quyib ichar edi. Tangrim saqlasin! Bu zamonda undaylar yo'q. Unday vahshiy qoidalar yo'q. Keyingi avlod kasb qilib olmasa bo'lgani? Kim biladi? Oxirzamon odamlari bizdan ham tajovuzkor, bizdan ham vahshiy, zolim bo'lib ketishmasa edi. O, unda avlodlar sho'ri! Avlodlar bobolarning yaxshi fazilatidan namuna olib, ma'siyatlaridan eslatma olib umrguzarornlik qilishsa, nur ustiga nur. Eh, inson degan xilqat otalarining yaxshi ishini davom ettirib, yomonidan saqlansa, bu kurrai zamin yasharib ketmasmidi? Yo'q! Unday bo'lmaydi ham. Qanday yasharsin?! Huv, O'g'uz bobodan beri yashagan ajdodavlodlar yomonlikdan hazar qildimi? Yo'q! Hazar qilmadi. Hazar qilish uyoqda tursin, yaxshilik o'tini o'chirib, yomonlik dudini tutatgan ajo, alp, xon, bek, biylarning sanab sanog'iga yetish mushkul. Sho'rlik qora elning gunohi ne? Ular kim biror bosqinchiga qul. Ular qaydan madad olsin? Bir zamonlar yovvoyilar kabi kim ko'ringanga chovut solishgan yillari boyoqish qora el qirilib bitdi. O, unda faqat bitta urushda yuz ming bo'z uyga o't qo'yilgan, o'sha yuz ming xonadondan bironta yetim bola qolmagan. Bironta tirraqi uloqcha qutulmagan. Avvalgilarning ma'siyatlarini takrorlamaslik degani shumi? Yo'q! Eh, odamzot, sening badbaxtliging edi bu"...

Erkishi yo'g'on barmoqlarini chakkasiga qo'ygancha, boshini quyi solib bir muddat turdi:

"Ey, Tangrim, Erkishi degan nom oldim. Zurriyotim faxrlanib, o'rnak olib yurgudayin maqomga yetdimmi? Yoki men ham chovut solib, po'lat sug'urib, qizil to'kib yuraverdimmi?" — Shundan so'ng Erkishi bo'lishiga turtki bo'lgan bir voqea ko'z oldida gavdalandi. Bundan roppa-rosa qirq bir yil avval sodir bo'lgan voqea. Yuz askar bilan ayg'oqchilikda kuzatib yurib, tabg'achning ming askariga yo'liqib qoldi. Cho'g'ultur guruhi

bilan dushmanga yuzlandi. Dastlabki to'qnashuvda askarlarning aksariyati ajal topdi. Qarorgohga xabar berish uchun bir askarni yubordi. Boshqalari to'qnashuvda. Otlar qushdek yeldi. Cho'g'ulturning ikki qo'li teng chilvir, tizgindan holi. "Botirning ikki qo'li — qo'rqoqning ming qo'li", degan maqol bejiz emas. Bu safar yo'lini qilib, qo'shqo'llab gurzi so'qdi Cho'g'ultur. Zuuv-zuuv o'q uchirdi, Cho'g'ultur. O'z haybati bilan ming askarga mengzadi. Cho'g'ultur guruhi dushman bilan kun-u tun olishdi. Ko'pni yer tishlatdi. O'zidan ham yo'qotishlar bo'ldi. Holdan toyib, tomog'i qaqragan Cho'g'ultur yov qo'liga tushmadi. Kecha yo'lga chiqqan askar xabar yetkazib, ikki ming qo'shin quyosh chiqib kelayotganda olisdan ko'rinish berdi. Shunda tabg'ach qo'shini chekinib qocha boshladi. Qo'shinning qorasi ko'rinishi bilan holi qurigan Cho'g'ultur ot yoliga suyanjb qoldi. Biroq og'iz chayib, suv ichib olganidan so'ng yana o'ziga keldi...

U jangda tabg'ach qo'shini qutula olmadi. Qirg'indan omon qolgani asir olindi.

Shundan keyin hiylaning homiysi - Oqbergan ota, oqlikning homiysi — Qutbergan ota, mardlik homiysi — Sher ota, safar homiysi — Jo'l ota bo'lgani kabi bizda ham bitta zanjirband sher bor. U Odiltoy ajoning yuzboshisi — Cho'g'ultur botir! Cho'g'ultur endi Erkishi bo'ladi. U Tangrining qo'shinga, eliga bergan in'omi. U —Erkishi! Cho'g'ultirni alplik ramzi hisoblanmish ko'k kigizga o'tqazishib, azot ko'targan eranlar qo'shin qarorgohini uch marta aylantirishdi:

— Tangri bergan ism. Erkishi! Erkishi!

Xaloyiq guvillab olqishlab turdi:

— Tangri buyurgan ism.

— Erkishi!

— Erkishi!

— Erkishi!

Yurtdan-yurtga, eldan-elga, og'izdan-og'izga mish-mishlar tarala boshladi:

— Qirg'izning bir askari tabg'achning ming askari bilan olishibdi! Boshi yorilibdi. Olishgan ko'yi boshini tang'ib... jangni davom ettiraveribdi. Oyog'i sinibdi, jang davomida oyog'ini mah-

kam bog‘lab... qayta urishaveribdi. Uyqusi kelibdi. Jang suroni ichida ot ustida mizg‘ib turib olishibdi. Suvsabdi. Olishayotib o‘z tupugini yutib chanqoqni yo‘qotibdi. Tabg‘ach qo‘shinini o‘sha yuzboshi taslim qilibdi. Qo‘lga tushgan tabg‘ach botiri ular bilan kun-u tun olishgan yuzboshini ko‘rmoqchi bo‘libdi. Qaddi-basti kelishgan Cho‘g‘ultur: “Sen bilan men yuzlashgan edim”, deb o‘zini tanitgani zamon tabg‘ach botiri Cho‘g‘ulturning oyog‘iga yiqilibdi: “O‘ttiz marta katta jangda qatnashdim. Qancha alpni yer tishlatdim. Men sen kabi sherni ko‘rmaganman... Botirboshini botirgina mahv eta oladi. Meni o‘z qo‘ling bilan chopib tashla”, deb o‘sha botir yuzboshining qilichiga boshini tutibdi.

— Egilgan boshni qilich kesmaydi! Taslim bo‘lgan botirni chopish — xunrezlik. Boshingni ko‘tar! — dedi yuzboshi.

— Ha, javonmard, deya xaloyiq u yuzboshini ko‘k kigizda ko‘tarishibdi. Yalt etgan uchqun kabi o‘sha voqealar Elteresning ko‘z oldidan o‘tdi.

— Eh, — dedi u xayol og‘ushidan chiqar ekan. — Xaloyiqning o‘sha ishonchini oqladimmi, Tangrim? Bilaks? Hammasi o‘zingga ayon. Insonlardan yaxshilikni ayamadim, lekin ko‘rganim ziyon bo‘ldi. Urush baribir urush-da. Hujumda askarlar to‘sh tirashib do‘stlashmaydi-ku. Qilich serpib, qon to‘kishadi. Oybolta ko‘tarib, bosh yorishadi-da. Kuchlilar kuchsizlarni mahv etadi. Faqat u emas, og‘a-ini, yor-u birodari — hammasi qayg‘u-hasrat chekadi.

Bo‘lmasa, urush deyilarmidi?

Har mavsumda o‘zi bosh bo‘lib qatnashgan katta janglarning qattiq to‘qnashuvlari Erkishining ko‘z oldida gavdalandi. Turli hujum, turli to‘qnashishlar...

Talon-taroj, qirg‘in...

Shunday janglarning birida dushmanning bir ovuli talandi: qattiqdan qozon darz ketdi, yumshoqdan kul sovurildi. Suluv, ko‘hlik, pokiza qiz-kelinlar abgor etildi. Otalar, onalar qon qaqshadi. Yolvordilar. Tiz cho‘kdilar. Omonlik tiladilar. So‘ng.... ular ko‘kka qo‘l cho‘zib, bor qahrini, sitamini, nola-fig‘onini aytib, bo‘zlab-bo‘zlab: yovni qarg‘adilar...

“Ha, yovni ayamoq nuqson-da. Yana qanday jabhasi bor urushning? Bu safar ularni yanchib tashlamasak, keyingi safar bizni

qiradilar. Bundan beshbattar vayronagarchilik, chunon qaqshatiq, chunon xo'rliklarni solmasmi boshimizga?"

Erkishi shu xayollar bilan o'zini ovutdi. O'z istibdodi, jabr-zulmini oqlagulik vaj topgani sayin Tangriga tavallo qildi...

Agar hozir yonida kimdir bo'lsa, unga aytgan bo'larmidi:

— Tangri erni harb uchun yaratgan. Biz ham urushlarda boshqani ayamadik. Tangrining o'ziga ayon, o'zi avf etsin.

Ammo bu so'zlarini eshitadigan hech kim yo'q edi yonida. Hatto huv, qir etagidan uchib kelgan kabutarlar ham o'zlarini panaga olishdi. "Anov yerda odam bolasi o'tiribdi. Odam bolasi bo'lganda ham talay yillar qilichi qonda yurgan sarkarda. Unga yaqinlashmaganimiz ma'qul. Biz ikkimizning bor-yo'g'i bir begunoh parranda ekanligimizni bu zo'r kishi qayerdan bilsin. Sen bilan biz uyadan birga uchgan bir jùft qushmiz. U esa — qo'llarida oybolta — shu juftligimizga raxna solishi turgan gap. Beri qoch, azizim, beri. Bu ovloq butazorga yashirinaylik", — deyishib, kabutarlar azim tup chakandaning qatida g'oyib bo'lishdi.

"Eh, — deb qo'ydi Erkishi, — jon-jonivor yoppasiga odamzotdan o'zini olib qochadi..."

Shunda o'sha qirg'inbarot jangda bo'lgan bir voqea esiga tushdi: Erkishi besh-o'n askarini olib, qo'nish oralab yurgan edi. "Tiq" etgan na bir tovush, na bir sharpa yo'q. Atrof-javonib huvillagan, ayanchli, mudhish va hazin sukutga cho'mgan. Bunday paytda inson biror jonzotni ko'rgisi kelar ekan. Mayli, inson bo'lmasa ham, biror yetim qo'zimi, oqsoq uloqchami deganday... O, yo'-o'-o'q. U qo'zi-uloqlar qayerda yashiringan bo'lsin?! Yoxud qanotiga o'q tekkan qarg'a-parg'a ko'rinsa... O, yo'-o'-o'q. Bunday qaqshatqich hujumdan so'ng qaysi qarg'a qolsin bu o'limgohda... Hech bo'lmaganda, yer ostidan tumshug'ini chiqarib mo'ralagan bir kalamush ko'rinsa?! O, odamzot, odamzot. Sen o'z xunrezligingni, zolimligingni, beshafqatligingni shu qo'nishni ko'rgandan keyin sezar ekansan! Bu qo'nishni bunchalik yanchib tashlagan sarkarda xudkush, qonxo'r, o'lja ilinjida yurt talab yurgan bosqinchi bo'lsachi... Bu zaminning kulini ko'kka sovurgan shaxs — elining oq fotihasini olgan Erkishi. Jo'mard alp. O, bu olijanob botirning ta'rifga sig'mas tiynati... Adolatsiz, nohaq kaslarga qarshi jonini

qurbon etgudek olishadi... O, uning olijanobligi qursin! O'zi-chi? O'zi bu ko'k qo'nishni shunchalik yakson qildi...

"Ha, buni Tangri o'zi buyurdi. Bunday qilmasa bo'lmas edi. Tangri o'zi kechirsin", dedi Erkishi o'sha safar. O'sha yam-yashil qo'nishning shunchalik toptalganiga, biror jon tirik qolmaganiga qattiq o'kindi. Turib-turib seskandi, qo'rqdi, yuragi uvishdi. "E, Tangrim, bu jonlarning uvoli tutmasin meni", dedi. Biror jon qolmagan o'sha qo'nishda "shitir" degan sharpani qo'msab alangladi. Biror jonzot ko'zga chalinmadi.

Ular janggohni oralab yurib, endi narigi o'zanga o'tamiz, deb turishganida... allaqanday bir chinqiriq eshitildi. Erkishi tizginni tortib to'xtadi. Butun vujudi quloqqa aylanib tingladi. O'ng-u so'lni alanglab kuzatdi. To'g'rilarida qoraygan allanima yotardi. Ovoz o'sha tomondan keldi. Ko'rsa, u qorayib ko'ringan narsa chala kuygan eski po'stak ekan. O'sha kuyuk po'stak tagidan hurpaygan kuchukcha boshini chiqardi. Oy-e, bunday vaqtda odamzot ham qo'rqinchli bo'lib ko'rinsa kerak. Kuchuk boshini yashirib oldi... Erkishi kuchukni chaqirdi:

Kuch, kuch, ma, ma?

Kuchuk po'stak ostida ingillay boshladi. Erkishi nariroq jildi. Kuchuk po'stak ostidan chiqib, ularga ergashdi. Erkishi to'xtadi. Kuchuk ham to'xtab qoldi. Erkishi cho'ntagidan qurut olib kuchukka ko'rsatib, tashladi:

— Kuch, kuch?

Kuchuk kelmadi.

Erkishi yana yurib ketdi. Kuchuk yana biroz ergashib bordi. Qurut yerda qolib ketaverdi. Kuchukning ochligi va yolg'izlanib, qo'rqib qolgani ko'rinib turardi.

Ie, it bolasi. Qurutni yemadi-ku? — dedi Erkishi.

Kuchuk esa qurutni hidlagani ham yo'q. Kichkinagina tumshug'ini ko'kka ko'tardi. Ayanchli ulidi. So'ng nochor shumshayib, dumini qisganicha o'zi avval yotgan po'stakni qatiga kirib ketdi. Erkishi bir xil bo'lib ketdi:

— Ha, shunchalik qalbimiz qotib ketdimi... Kuchukni o'z holiga qo'ying. O'sha kuyuk po'stak uning makoni-da baribir. Ketdik... — degan edi Erkishi.

Alp yuragini ezib yuborgan o‘sha mash’um manzara hech ko‘z oldidan ketmas edi... Hozir ham tog‘ etagida o‘zi tanho o‘tirib, o‘tgan umrini sarhisob qilar ekan, yana o‘sha yolg‘iz kuchukchani esladi. Ana, o‘sha kungiday tumshug‘ini ko‘kka ko‘tarib, ingroq ovoz bilan ayanchli-ayanchli ulidi... O, bu ulish qo‘nishda yolg‘iz qolgan kuchukning ulishi. Endi o‘sha kuchuk o‘rnidagi g‘arib-benavo odamzotning bo‘zlashi qanday bo‘larkin?!

“Ey, alplar, botirlar! Bizni Tangri shunday tinib-tinchimas qilib yaratgan ekan-da! Tinib-tinchimagan maxluq faqat insonmidi? Ana, chumolilarni qarang, ertadan-kechgacha tinim bilmaydi...

Lipillab turgan shamchiroqni o‘chirish — qilich sanchish bilan bo‘lib qoldi. Umr — g‘animat. Uni asrang, qadrlang, e’zozlang, degan mashoyixlar bizga qoldirgan pandnomalarida. Shu hikmatni kecha Elteres ikkovimiz eshitdikmi? Yo‘q. Eshitmadik! Eshitsak, amal qilsak, ikkimiz tuman-tuman qo‘shin bilan yuzlasharmidik. Qilich serpishib, qon to‘kib, qirilisharmidik. Qanchadan-qancha botir ajdodlar Sayg‘oqli maydonida tosh bobo bo‘lib qolgan. Ana-vi yosh, hali suyagi qotmagan yigit mening nabira qizim Oyjarqin bilan ahd-u paymon qilishgan edi. Erlarcha qurol tutish, ot surish havasida, erlik burchini o‘tash maqsadida, botirlanib, yov bilan yuzlashgani maydonga kirdi. Eh! Hali jang hadisini bilmagan yosh lochin juvonmarg ketdi. Biz jang qilmasak, oila qurmoqchi edi u. Bizga kuyov tutinmoqchi edi u. Qo‘rg‘oniga qizimizni kelin qilib tushirmoqchi edi. Ikkovi bir yostiqqa bosh qo‘ymoqchi edi. Bizga bir oila qo‘shilardi. Endi u navqiron yoshida uvol ketib, tosh boboga aylandi. Oyjarqin qizim unsiz bo‘zladi. Navnihol qizim shu yoshida qon yig‘lab, mungga cho‘mdi. Bunday taqdirlar bir talay... Janggohda joni qiyilganlar ham, qaylig‘ini eslab g‘am yut-ganlar ham ko‘p, juda ko‘p... Qanchalari qirildi. Ular chiroq lip etib o‘chganday o‘chib qoldi. So‘ng qosh qoraygandek asta zulmat qa’riga singib ketishdi. Ular ho‘v, qo‘nishda qolgan kuchukdan battar mahv etildi. O‘sha kuchuk omon bo‘lsa, ulg‘ayadi, ko‘ppak bo‘ladi. O‘lganlar esa o‘chdi, tayinsiz ketdi. Bemavrid o‘lim... eng achinarli, achchiq o‘lim-a”... Erkishining yuzidan yosh du-maladi. Tangriga ayon? Irodasi mustahkam bu alpning yig‘lagani shu bo‘lsa kerak. Ertadan beri ulug‘vor qiyofada olislarga tikilib

o‘tirgan alp sarkarda hozir eng ojiz, eng zaif, eng kichik, oddiy el ichidan chiqib kelgan to‘pori odamga aylandi-qoldi.

— Ey-y, bechora avom el... — deb kuyindi u o‘zini o‘sha avomlar o‘rniga qo‘yib.. — Bechora avom hammasiga sabr qilar ekan. G‘amga botganlar ham, bo‘zlaganlar ham, siqtaganlar ham, qirilganlar ham o‘shalar. Qarangki, jangda g‘alaba qozondik, deymiz. O‘sha g‘olib qo‘shinimizdan qanchasining joni janggohda zavol bo‘ldi...

Erkishi tog‘ etagiga choshgohda kelib o‘tirgan edi. Hozir kun qiyomdan og‘ib qoldi. Qir-adir, o‘ngir-tepalar nurga cho‘mgan, borliq iliq, gashtli, fayzli. Ahyon-ahyonda mayin shabada esadi. Agar shu shabada yelib qo‘ymasa, borliq mudrab ketarmidi? Erkishi soyani ko‘zlab, o‘rnidan qo‘zg‘aldi.

“Ee, muqaddas Kun, bandalaringni o‘zing mag‘firat qil. O‘zing kechir. Elteres bilan yarashib ketsak bo‘lardi. O‘shanda Bo‘z yer siqtamas, Quyosh nuri xiralanmas, ne-ne o‘g‘lonlar yerga yitmas edi. Hammamiz jamuljam bo‘lar edik. Kuchli bo‘lar edik... Olishdik. To‘qnashdik. Qilich serpishdik. Oybolta so‘qishdik. Qon to‘kishdik. Endi esa men uni, u esa meni “alp er” deb alqashib o‘tiribmiz”...

Erkishi istehzoli kuldi:

— Ha, Ha... Ha... Ha... Elteres sher. Sen mening oqsoq oyog‘imga tiz cho‘kding. Men esa sog‘ oyog‘imni oqsatib bunda o‘tiribman. Ikki nor yovlashaverdik. O‘rtada qancha jonlar uvol bo‘lib ketdi-ya?! O, sher! Ikkimiz yovlashmasak, shuncha g‘amalam inmasmidi yer-suvimizga? Mung emas, sevinch to‘lar edi. Xushbaxt yashar edik. Ikkimiz qora bo‘g‘ra bo‘lib chaynashdik. O‘rtada avom ziyon tortdi. Unda gurkiragan sen ham, burqiragan men ham nomus, nomus degan edik. Endi, qara. O‘sha nomusimiz — bolalar o‘yini kabi puchak, ahamiyatsiz safsata ekan. Vaqt o‘tgani sayin bizning jang, chopish, hujumlar bolalar o‘yiniga tobora mengzab boryapti. Xaloyiqni qaqshatib o‘ynamasak, nima edi, Elteres sher?!

Bizning bu o‘yinimiz rivoyatga aylanib, kelajakda naql etilsa, avlodlar undan o‘zlariga o‘rnak olsin. Ular bizdek junbushga kelib quturmasin. Biz kabi bachkana o‘yin o‘ynab, avomning boshiga

qora kunlarni solishmasin. Tabarruk zaminni ot tuyog'i toptamasin. Ha! U menday qarib, esi kirdi-chiqdi bo'lib qolgan kaltafahm kishining xayoli-da! Inson men kabi ovsar bo'lib qolganida esiga keladi-da, bu gaplar. Lekin kech bo'ladi. Eh, charog'on Quyosh, sen shu bugungiday nurli mehringni to'kib turib, so'nggi avlodlarimning shu bugungi mendek nadomat qilib, aljib o'tirganini ko'rib istehzo qilsang kerak. Odamzot kuchli, dono, jasur bo'lib borgani sayin men kabi falsafa so'qaverar ekan.

Ha, rostdan shunday. Avom aljisa, o'zi boshiga kulgi. Dono aljisa, xaloyiqqa kulgi. Menga o'xshagan alp botirining aljishi avval-oxirgi hammaga kulgi bo'ladi...

Keyingilardan ham menga o'xshagan kaltafahmlar chiqadi. Shuningdek, so'nggi avlodning kuchi aqlida bo'ladi. Aql o'sgani sayin kuchi kamayadi. Odamning boshi qozonday bo'lib, bo'yni qiltiqdek bo'lib qoladi, deydi bilgichlar. Ha-a...ha... U qozonday boshni qilday bo'yin ko'tara oladimi o'zi? Naq kulgini, naq taloto'p, naq boshbodoqlikni shu qozonday bosh yuzaga keltiradi. Jabrini esa qildek bo'yin tortadi. Eh, Tangrim. Odamzotni o'zing tartibga keltirmasang, u boshboshdoqlik ketidan kulgiga qoladi. Yalpisiga qirilib bitmasa go'rga edi! Kuch bir alpni yiqar, o'n alpni yiqar... O, aql adashsa, uni tiklaydigan kuch yo'q. Yaxshilik chiroq yoqsa, yomonlik zulmatga chirmaydi. O, yomonlikdan saqlasin. Tangri saqlasin"...

Shu payt qarshi tomondan elas-elas tovush eshitildi. Ertalabdan beri Erkishining qoshiga biror jon kelmagan edi. Odamlar yayov aylanib yurgan botirni holi qo'yishgan edi.

Alpning kuni! Er aka dunyoga ko'z tashlab o'tiribdi.

Ay-ye, to'qnashuv tamom bo'ldi. Ajo vafot etdi. Chegara hududlarida isyonlar ro'y bermadi. Alp ham qaridi. Hozir shu alpning bemalol o'tirib, xayolga tolgan fursati!

Ovuldagilar shunday deyishadi: Erkishining xayolini bo'lib, fikrini alahsitib, yoniga borishga birontasining jur'ati yetgan emas. Botirning ertalabdan beri qo'zg'almay o'tirganini ko'zdan qochirmay kuzatayotgan Sayqal ena boya xizmatkorga aytib, qozon ostirdi. O'tgan yili tug'ilgan qulunni so'ydirib, etini qozonga soldirdi. Ikki sanochga qimiz quydirdi. Yaxshi dudlanib, quyuq tortgan

sanochlar qaymalga ortildi. Askarga qaymalni yetaklatib, Sayqal ena Erkishini ko'zlab yo'lga tushdi. Sayqal ena boshdan-oyoq ko'k kiyingan, faqat yoqasidagi qunduzlari va kiyimining kashtalaridagi zarblangan kumushlar va oltin suvi yuritilgan bezaklarigina biri jigarrang, biri oq, biri sariq bo'lib turlanib turardi. Boshida boybichalar kiyadigan elechek emas, yosh xonimlar kiyadigan dastor. Unchalik zeb berilmagan — marjon, gavhar, feruza kabi asl toshlar bilan bezalmagan. Qari zaifani yoshartirib, shu bilan birga qarilik sumbatiga mos tushgan bu dastor Sayqal enani salobatli, viqorli ko'rsatar edi.

"Ha, asl ayol, — dedi Erkishi Sayqalni ko'rib. — Shunday asl ayol, mo'tabar Umay onasi bo'lgan ellar asło kam bo'lmaydi.

Elteres kelayotganlarga qarab o'tirmadi. Ro'parasiga tik boqib o'tirgan ko'yi tashrifchilarni ko'z qirida payqadi:

"Hoynahoy, chanqovbosti ichimlik olib kelyapti. Kelsin, kelaversin. Zaifa sungan suv o'lik jonni tiriltirar emish"...

Sayqalning poshnadagi qo'ng'iroqchalarning "jiring-jiring"i eshitildi. Umay ona vafot etgandan so'ng yurt onasi bo'lishdek mas'uliyatli vazifani zimmasiga olgan Sayqal ena tovoniga oltin qo'ng'iroqlar qo'yilgan naqshinkor etik kiygan edi. Umay ona hayotligida Sayqal bu onalik maqomiga da'vo qilishga botinmagan. Unday qilishga yo'l yo'q edi. Sayqal oyim ajo oilasidagi ikkinchi xonim edi. Undan yuqori rutbada esa shu Umay ona — Odiltoy ajoning boybichasi turardi. Yurt onasi rutbasiga ko'tarilish Sayqal uchun hali erta, ertagina emas, udum ham bunga yo'l bermas edi. Mana endi Odiltoy ajo ham, Umay ona ham qazo qildi. Odiltoy ajo bo'lsa, boyagi Uchsuv yurti bilan bo'lgan to'qnashuv arafasida, bobolar o'gitini, udumini bayon etganidan so'ng ko'p o'tmay joni uzildi. Shu jon berarda ham tutila-tutila vasiyatini aytdi:

— Yurt chegarasiga hushyor turinglar... Ajoning vafotini eshitgan g'animlarning chirog'iga yog' quyilib, g'imirab qolishadi... Elteres alp g'aflatda qoldirmasin. Qonun-qoidani mensimaydigan u alp har qanday surbetlikdan toymaydi. Men jon taslim qilyapman. Meni qimiz bilan yuvinglar. Sovut bilan kafanlanglar, shundan so'ng omonat saqlab turinglar! Illo, men qazo qilib, alp-beklarimdan, Umayimdan, el-yurtimdan judo bo'lganimni hech kim

bilmasin. Men oq o'rdada yurt so'rab, sizlarga orqa bo'lib kelgan ajolaring bo'lib... O, Cho'g'ulturim, sen tumanlaringni boshlab, chegaradan xabar ol. Yovni to'qnashuvda yengsang, talonchilik qilib, o'g'lini qul, qizini cho'ri etma! Niyating xolis bo'lsa, yurt himoyasini ko'zlasang, urush och. Yovni chorla. Yaxshilikning ortidan yaxshilik kelaveradi.

Ajo entikib, so'zini arang yakunladi:

— Bu aytganlarim omonat...

Oxirgi nafasini "uf" deya chiqarib, Odiltoy ajo dunyodan ko'z yumgan. Ajoning jasadini o'zi vasiyat qilganday, qimiz bilan yuvib, sovut bilan kafanlab, omonat saqlashga arang ulgurishgan. So'ng qirg'iz qo'shini hujumga otlangan...

Ikki qo'shin to'qnashgan beomon hujumda ham, olatasir, qirg'inbarot jangda ham Erkishining qalb to'rida saqlagan odati — "Talon-taroj qilma, Cho'g'ulturim!" — deb aytgan ajoning xitobi bo'ldi. Xuddi ajo bashorat qilganiday, Elteres tig'i o'tmaslashgan po'latdek yanglish so'qdi. Shuning uchun Erkishining oldida tizzasi bukildi... Jangda ko'k yalov oq yalovdan baland ko'tarildi. Erkishining qo'shini Uchsuv yurtini talon-taroj etmay, jo'mardlik qilgani chor tarafga ovoza bo'ldi, shuning barobarida qirg'iz yurti boshqalarga viqorli, kuchli bo'lib ko'rina boshladi. Hozir ham bu yurtning yulduzi porlab turgan fursat. Ayni shu fursatda ajo otaning qazo qilganini to'rt tomonga xabar berishdi. Uzoq-yaqin, qavm-qarindosh, o'z-yot bo'lib, hammasiga yuborilgan choparlar to'qson to'qqizta bo'ldi. O'zimizning yaqinlar, quda-andalar, xonbeklar yetib kelguncha ancha vaqt o'tadi, deb marhumni saqlab turgan edik. Bobomizning jon taslim qilganiga ancha kun bo'lib qoldi, deb xaloyiqqa ma'lum qilishdi. Dafn marosimi joriy udumlar bo'yicha eng oliy darajada o'tkazildi. Ajoning jasadi kuydirilgani yo'q, yerga berildi.

Donishmand ajosidan ayrilgan bu yurtga ot qo'yib, urush ochishni hech bir yurt ko'zlagani yo'q. Bu ishga endi ular botinmasdi ham. Ne-ne alplari, bilgich abolari, beklari, jasur lashkarboshilari turibdi bu yurtning.

Odiltoy ajo dafn etilganidan so'ng ko'p o'tmay Umay ona hayotdan ko'z yumdi... Umay onaning qabri ham oltmish to'qqiz yil

birga umr kechirgan ajoning qabri yonidan qazildi. Umay onani oxirgi safarga uzatish ma'rakasi ham dabdabali o'tdi.

Biroq hozir ajoning ham, Umay onaning ham maqbaralari tiklangani yo'q. Maqbaraga zarb etilajak bitiklar, belgi-nishonalar tayin. Faqat amalga oshirish qoldi, xolos. Bu reja ustida hali ish boshlamadilar. Ajo gumbazini tiklash ancha-muncha xarajat talab qilardi. Shuning uchun kuz-qishda yig'inib olishsa, kelasi bahorda ish boshlashmoqchi. Tinchlik-omonlik bo'lsa, chin quron[1] oyida ish boshlashsa, to'qqizning oyi[2]da maqbara ham ko'tarilib qoladi.

Oq kigizga solishib, Yosh teginni ajo taxtiga o'tqazishganda, barcha tabaqa vakillari, shu bilan birga Erkishi ham bunga ma'qul bo'ldi.

Bugun tog' etagida o'tirib, xayolga tolganida "Eh, oldinda amalga oshiriladigan bir talay muhim ishlar bor", deganda birinchi bo'lib shu maqbara muammosi esiga keldi.

Huv, pastda qaymalni yetaklatib shu tomonga kelayotgan Sayqalni ko'rganidan so'ng Erkishi qaddini rostladi:

"Ha, o'lmasni Tangri yaratmas, sinmasni banda yaratmas... Umay ona oramizdan ketsa ham, uning qutlug' o'rnini kelini egalladi. Tangriga shukur. Bu dunyodan ketgan asllarning ortida hech kim qolmagani yomon. Yaxshining o'rnini yomon bosolmaydi. Bu dunyodan ketganning ortida solih farzandlar qolsa, amal daftari yopilmaydi. Bilaks, farzandlar noqobil bo'lsa, solih bobo boshlagan ezgu ishlar kesiladi-to'xtaydi. Umidlar uziladi".

Sayqal ona Erkishining qoshiga keldi:

— Hormang, Er aka!

— E, keling, keling, bor bo'ling, kelin!, — dedi Erkishi.

— Ko'p o'tirdingiz, suvsagandirsiz? A?

Qaymalni yetaklab kelgan askar ta'zim etib turganida Sayqal buyurdi:

— Tuyani cho'ktir, yigit! Sanochlarni tushir!

Jonivor tuyaning ko'zlari javdiraydi. Bu bo'talarning ko'zlariyey! Ma'yus, charosdek... Qaragan odamni xayolga botirguday termuladi bo'ta nigohi. Chunonchi, bo'taning, qaymalning, ingenning

[1] **Chin quron** — aprel.

[2] **To'qqizning oyi** — oktabr.

nigohi eng mungli nigoh. Qip-qizil ipak shokila, no'xta jiyagiga qadalgan kumush yuritilgan marvaridlar ham bir nafosat. Ikki o'rkach o'rtasiga yopilgan sholcha ham bir yarashimli, ko'rkam. Oq o'rda xonimining shunday hashamga g'arq bo'lgan qaymali edi bu.

Qaymal cho'ktirilgach, Sayqal o'rkachga solingan oq xurjunni oldi, dasturxon yozdi. Taom qo'yildi. Askar ikkovi sanochni qaymaldan tushirib, bog'ichini yechmay turib chayqatib-chayqatib oldi. So'ng birining og'zini yechdi.

Kumush kosaga qimiz quyildi. Ertalabdan anqigan tog'ning namxush hidini qimizning safobaxsh hidi bosib ketdi. Kosa qo'liga kelgungacha sabri yetmayotgan odamdek Erkishi quyilayotgan qimizga ko'z tashladi. Kosa qo'liga tegishi bilan bo'shatdi. Erkishining qimiz simirishini askar ko'rishga ham ulgurmay qoldi: "Vax, Er aka, cho'llab o'tirgan ekan-a?" — dedi.

— Quying, yigit! — dedi Sayqal kosani sanochning og'ziga olib borib. Erkishi mo'ylov uchlarini bosh barmog'i bilan siladi. Uzun barmoqli qo'llari serpay, qoboqlari yirik, yuzi za'faron, surli, viqorli... Qo'r to'kib o'tirgan sobiq jangchi ketma-ket uch kosani bo'shatdi. So'ng:

— Ha! Alp ichimligi. Qaqrab, cho'llagan ekanman. Tanimga jon yugurdi. Bor bo'l, yorqin bolam!

— Etdan oling — dedi Sayqal ena.

Shundagina Erkishi qinidan oltin sopli kichik pichog'ini chiqardi. Qulunning qovurg'asini qo'liga oldi.

— Ayg'oqchilardan xabar yo'q...

— E-e, tinchlik! Er aka. Keladi...

— Bars hech narsaga parvo qilmaydi. Yo'lbars bo'lsa, jang paytida olovga tashlanganday yig'laydi.

— Ha, ikki eran o'xshash... Erkishi quvonib qo'ydi:

— Ikkovi teng tentak. Ha, "Tentak qush ko'z ochmay turib, tentaklar el ichida tarqalmay turib, ularni yo'lga solib ol", demadimi ajo ota. To tirik ekanmiz, naslimiz uzilmaydi, tentaklar el ichida tarqalmaydi. Ular go'dak chog'idan bizga ergashgan. Ular bizdan rozi, biz ulardan rozimiz. Lekin shunda ham, o'tkir tig'ning mizidek bu beqaror dunyoda inson zoti hamisha birday emas. Ular ham turlanib ketadi. O'zgaradi...

Siz tarbiyalagan botirlar yuzingizga oyoq qo'ymaydi, Er aka! Bunga ishonchim komil...

O'rnidan turgan tuyaning ko'zlari javdiradi. Mungli, ma'yus. Erkishi chidab turolmadi:

— Eh, bu tuya jonivorning mungi-yey... Bolam, tuyani nari yetaklagin-chi. Bugun hech bir mungli narsaga nazarim tushmasin, devdim...

Askar qaymalni yetaklab pastlay boshladi. Ikki o'rkachi tikkaygan qaymal eng pok, eng beozor jonivorday bir maromda mastona-mastona qadam tashlab uzoqlashdi.

Erkishining qoshlari bezovta chimirilib, jiddiy tortdi:

— Ajo otamiz oramizdan ketdi. Anovi vijdonsiz xonlar nima deyishyapti? Erlar eshitmagan gapni ayollar g'iybatlashadi. Kelin, sog' bo'ling. Xabardor bo'lib turing. O'sha razillar ko'k yalovga ko'z tikishsa, o'zlarining o'tini o'zlariga ichiramiz. Yovning sirtida bo'lma, ichida bo'l. Kech bilingan ish kuchni sindiradi...

Sayqal bosiq so'zladi:

— Qulog'im to'rt, Er aka. Hozircha biror notinch harakat ilg'anmadi...

— Chiqmaydi ham... Yana kim biladi? Mushuk bolasi mushukcha miyovlaydi. To'ng'iz bolasi to'ng'izcha xurillaydi. Xon deymiz, bek deymiz, ularning hammasi birdek emas... Martaba bilan mol-dunyoga qiziqmagani barmoq bilan sanagulik... Aslida bosh ajo bo'laman, degani ham yo'q emas, elning ichida. Ha, qo'lidan kelsa, ana ko'ppak ham oltin taxt ustida o'tirsam, deydi. Ammo dumi bunga yo'l qo'ymaydi.

Sayqal indamadi. Erkishi o'zicha ogohlantirgandek bo'ldi:

— Ikki yil o'tdi. Haligi arab podshohi yuboradigan karvon bu yili kelishi kerak. Anavi tubutning Aygan xonidan keladigan noyob dori bilan Bichik kitobi ham kechikdi. Sababi ham ma'lum. O'zaro nizolarimiz ko'payib ketdi, o'sha ichki nizolarimiz kasri endi o'zimizga uryapti. Shu notinchliklarimiz dovrug'i chet o'lkalarga tarqaldi. Yoki Aygan xonga elchi yuborib, ishora bersakmikin? Eha, yo'q. Bo'lmaydi... Valine'mat ajosidan ayrilib, qirg'iz nurab qolibdi, deydi u tullak.

Erkishiga to‘g‘ri maslahat berish niyatida Sayqal gapga aralashdi:

— Buylashning xabarini kutaylik, Er aka...

— Ie, to‘g‘ri aytasan, kelin. Avval Buylashni kutaylik. Tabg‘achning elchisi bizga katta tuhfalar bilan do‘stona tashrif buyurgan edi. Buylash ham tabg‘achga sir oldirmas. Buylashning tabg‘ach podshohiga tortiq qilib olib ketgan sovg‘asi ham qimmatbaho. Ha, bizda ham tabg‘achni maftun etadigan asil mollar talaygina. Tangri bizdan eng serunum, fayzli zaminni darig‘ tutmadi. Sariq oltin, oq kumush, qimmatbaho bronza, asl po‘latga boymiz. Yovvoyi yirtqichlardan tortib silovsingacha, lochindan tortib shunqorgacha bu yer-suvning parranda-darranda-yu nabototiga qut berilgan. Bizdagi asil tosh, bizning jiparkindik ularning ko‘pchiligida yo‘q. Bori ham biznikicha emas. — Erkishi gapi o‘ziga nash’a qilib kulgan bo‘ldi. — O‘sha tosh qal’adagi o‘ziga bino qo‘ygan tamanno malikalar, xonimlar bizning mushk, bizning tivit, bizning zarb bosilgan o‘yma naqshlar, bizning mo‘ynalarga maftun, ustalarimizning oltin, kumush nodir buyumlari o‘sha podshoh va shohlarning shohi, o‘sha xon va xonlarning xoni saroylarini pardozlab, bezab turibdi. Ularning har biri o‘sha bizning asil mollardan ko‘proq olgisi keladi. Ehtirom yuzasidan savdo aloqalarini yo‘lga qo‘yib olsak, deganlari bor. Kuch bilan tortib olamiz, deganlari bor. Eh-ha, itning egasi bo‘lsa, bo‘rini Tangri saqlaydi. Tabg‘ach ko‘pligiga sig‘insa, biz Tangriga sig‘indik... Tangri bizni ming yildan beri saqlab kelyapti. Farzandlarimiz Tangrini unutmasa, Tangri ham farzandlarimizni unutmaydi. Saqlaydi!

Sayqal Erkishini quvvatladi:

— Ha-ya, Er aka, yurtning oltin yulduzi charaqlasin!

— Ha, boyliklarni asraydigan o‘g‘lonlarimiz jasur, qizlarimiz chevar bo‘lsin!

— Ota yurtimiz — muqaddas, Yulduzi porlasin...

Chegaragacha kelgan yov harob qiladi yurtni. Ajo ota avliyo edimi... Jasadini omonat saqlashni vasiyat qildi. Agar u ajoligiga borib, izzat-ikrom bilan dafn qilishni vasiyat qilsa nima bo‘lardi?! Omad qushi boshimizdan uchgani o‘sha bo‘lmasmidi? Biz dafn bilan andarmon bo‘lib qolganimizda, hech qanday tartib-qoidaga

rioya qilmaydigan Elteres fursatni g'animat bilib bosib olmasmidi? Yorug' kunlarimiz qora bo'lmasmidi? Shusiz ham yig'lab-siqtayotgan el uchun bu o'lganning ustiga chiqib toptash emasmi? Ha, so'nggi kuchimiz qolgunicha olishardik. Kim biladi? Xavfsizlik — qayg'uga yaqin turadi...

— Ajo otamiz shunday inson edi. Dunyodan qaytishda ham elni saqlab qoldi..

Erkishi bir muddat sukutga cho'mdi. Qo'r to'kib o'tirgan alp qulunning hil-hil pishgan etidan totinardi. Jag' suyaklari tortilardi. O'tkir ko'zlarini dasturxonga tikkan. Lekin bu nazar taomga badnafslik nazari emas, bu "Rizq to'lgan ulus dasturxonidan nozu ne'mat aslo uzilmasin", degan tilak edi bu.

Sayqal ona indamadi. " Jimgina Er aka ovqatlanib olsin. Ertalabdan beri bir o'rindan jilmadi-ya. Qarigan chog'ida cho'kib qolmasa, koshkiydi!" degan zaifalarcha xayolga berildi.

Chindan ham Erkishi ovqat ustida o'tirib ham xayoli o'tgan-ketganga chalg'ib, goh bugunning, goh ertaning tashvishi bilan ko'ngli xotirjam bo'lolmasdi. Hozir Erkishining ko'z oldiga yilqichi Shap keldi. Uning go'sht yeyishi, qimiz yutishi ham o'zicha bir hangoma edi. "Ha, u ham tengsiz inson edi. Topqir, uddaburon insonlar o'lmaganida shu Shap qiziq o'lmas edi. U bechora ham oramizdan ketdi.

Erkishi qayg'uga cho'mdi.

Yengilmas xiylakor va tajribali alpni hozir o'lim qahri mung'aytirdi.

"Ey... bebaqo dunyo. Shunchalar keng, yorug', zavqnok bo'la turib, o'lim giribonidan olgan biror insonga ko'mak berolmasang?! Shunday yorug' sahningda o'tirib, shunday kuch-quvvatim bo'la turib, Tangrim, sen yuborgan ajal dag'dag'asiga oybolta o'qtala olmayman. Oybolta so'qish qayoqda, ajab, yag'ir eshakdan battar haqir bo'lib, ajalning oldiga tushib ketaverasan. Donoliging ham, makkorliging ham, alpliging ham bir pul. Uning po'pisasiga taslim bo'lib, daming chiqmay qoladi. Voh..."

Shap qiziqning tulkiga o'xshab tumshug'ini cho'zib, ko'zlarini qisib turishi mung'ayib o'tirgan Erkishining ko'z oldida gavdalandi. Shap shunday qilganda yilqichilar kulishardi: "Voy, sen-yey!

Bu kepatangni ko‘rsa, ajal ham adashadi. Balki sen yo‘lini qilib o‘lmay qolarsan, shum”.

Yilqichilarning shu gapi yana qulog‘ida jarangladi Erkishining.

“Ha, bebaqo dunyo, — dedi Erkishi ich-ichidan xo‘rsinib. — O‘sha eng abjir Shap ham ketdi. O‘sha qiziqchi ham ajalning tashrifini chalg‘ita olmadi. Kim chalg‘itadi? Oqil osholmagan dovon, olg‘ir osholmagan dovon, alp osholmagan dovon — shu ajal dovoni ekan...

Shapning o‘limini eslab Erkishi beixtiyor kulib yubordi. Allazamondan beri shumshayib o‘tirgan alpning kulgani Sayqalga ham nash’a qildi-da, “Nega kuldingiz, Er aka?” degandek jilmayib qaradi. Azbaroyi chehrasi ochilgan Erkishi yengil tortib, ichidagini to‘kib soldi:

— Eh-ye, Tangri favqulodda yaratgan insonning o‘limi ham favqulodda bo‘lar ekan. Haligi Shapni aytaman-da... Qo‘g‘irchoq “tumani”ni boshlab, yovni quvib solib, bir o‘zi mag‘lub qilganday bo‘lib terisiga sig‘may qaytib kelgandan so‘ng... unga qutturgan qo‘tos buqasi hamla qilib qoldi-ku! Beayov ajal oyoq ostida deganlaridek, Shap bechora shuncha botirliklaridan so‘ng biroz vaqt bola-chaqasi davrasida ularga bosh bo‘lib yashab yuraversa bo‘lmasmidi, Tangrim?

Sayqal xo‘rsinib qo‘ydi. Kelin chog‘idayoq alp begidan tul qolgan begoyimning ko‘z oldiga Er Qulchuri keldi. O‘sha-o‘sha yosh, navqiron Qulchur. Navjuvon Qulchur. So‘ng bu qartaygan qallig‘idan yuz o‘girgandek, mubham xayolot pardasiga singib ketdi...

— O‘limga chora yo‘q ekan, Er aka... — dedi Sayqal.

Sayqaldagi parishonlikni tuygan Erkishi gapni burdi:

— Hechqisi yo‘q! Tangri bizni shunday hasrat ichra yaratmaganida, odamzot yer-suvga o‘t qo‘yib, o‘zi oyoq qo‘ygulik joy topa olmay shumshuk bo‘lib qolmasmidi?

Bizga umrning o‘lchab bergani ham, bizni aqlli, uddaburon, kuchli qilib yaratib, so‘ng muqarrar ajalga yuzlashtirib qo‘ygani ham bejiz emas-da, kelin bolam... Kechagi kun bugun qaytib kelmaydi. Bugun tinchlik zamon. Erta ham baxayr bo‘lsa, ayni muddao.

— Chanqog‘imni qondirding. Charchog‘imni chiqarding, bolam. Farzandlaring yurt so‘rasin! Yurtimiz xor bo‘lmasin!

Erkishi yosh askarlarday chapdastlik bilan o‘rnidan turdi-da, qaymalni yetaklab ketgan askarni chaqirdi:

— Hoy, o‘g‘lon, keling! Onangiz bilan birga keting!

TOSH MAQBARALAR SO‘ZLAGANDA

Toshga tamg‘a bostirgan
Bilgi gapin eshiting.
Hikmatdan

Yaxshi o‘zi o‘lsa ham, so‘zi o‘lmas.
Maqol

Turkiylarning yenisey bitigi yodgorliklarining mazmuni, bizning fikrimizcha, qirg‘iz elining qadimgi madaniy boyligini teran anglashga va yaqqol ko‘rsata olishga imkon beradi.
S.Y. Malov

Oylar yil tizginini qoqdi. Yillar asr tizginini qoqdi...

Asrlar o‘z yo‘lida, o‘z safarida sochlari oqardi...

Urush, jang, qonli to‘qnashuvlarning oxiri ko‘rinmaydi...

Inson shunday tuganmas urushlarni bira to‘la o‘ziga kasb qilib olgan go‘yo...

— Eh, shu urushlar tamom bo‘lsa koshkiydi. Avlodlar bitta qo‘nishni o‘troq qilib, makon tutar edi. Unib-o‘sib, palak otishardi, — deyishardi odamlar. Bu ularning tinchlik kunlari soqolini silab turib aytgan gap-so‘zi... Inchunin, tinchlik bo‘lsagina, qo‘lga limmo-lim kosa yetib, og‘izga yangi pishgan osh tegib, odamlar bamaylixotir o‘tirib gurunglasha olardilar...

Ovul-ovullarga ot dupuri yetadi:

— Urush! Urush!

— Otlaning! Otlaning!

— Chegaraga dushman keldi! Odamlar esankirab, mung‘ayib qolishadi... Hozirgina dorilomon, saodatmand kunlardan gap ochib, osoyishta, bahuzur o‘tirgan odamlar apil-tapil otga minadilar. Jancharlar sozlanib, oyboltalar ko‘tarilib, qilichlar sug‘uri-

ladi. Do‘l gumburlaydi. Inson qanchalar shafqatsiz, qanchalar qonxo‘r, qanchalar jasur bo‘ladi-ya.

Ha, og‘ziga endi yetgan oshni ham xotirjam yeya olmaganiga alami keladi. Tinchi buzilganiga alami keladi. Chegara buzilib, ota qo‘nishi oyoqosti bo‘lganiga alami keladi. Odamlar shu payt-da otlanib, o‘limga tik borishmasa, bosqinchi yov baribir o‘limga duchor qiladi.

O, bu zabtingga mutlaq cheklov bormi o‘zi? O‘lchov bormi o‘zi? Yoxud insoniyat zamonlar osha shu tarzda qilich chopishib o‘taveradimi?

Bu savolga aniq javob aytadigan odam bolasi hali tug‘ilmagan... So‘nggi asrlarda qirg‘iz hududlaridan notinchlik arimadi. Ko‘plagan yog‘iy, kuchli yog‘iy ko‘z tikaverdi. Kelaverdi...

Urushga-urush, to‘qnashuvga-to‘qnashuv ulanaverdi. Ne-ne er o‘g‘illar juvonmarg bo‘ldi. Ne-ne gulgun qizlar dilxun, dilshikasta injidi. O‘g‘illar ozaydi. Ikki o‘zakning biri qirqilib, biri yorti qolib ketdi. Avvallari turlanib-tovlanuvchi Oq o‘rda uyning chambaragi o‘choqqa quladi. Ovuldan fayz ketdi. Chorva ozaydi. Savdo karvonlarining oyog‘i uzildi. Ulovlar oriqladi. Ko‘pi nobud bo‘ldi. Xonakilashib, uyur bo‘lib yilqi bilan yaylovda birga o‘tlaydigan qulonlar odamdan bezib, yovvoyilashib, o‘z yaylovlariga surilib ketdi. Chunonchi, jonivor qulon bolalari yilqiday bo‘lmas ekan, nima bo‘lganda ham yovvoyi-da! Ular osonlikcha qo‘lga o‘rganmasliklarini bildirib qo‘ydi. Mutlaqo, bu ko‘kka sapchigan yovvoyi qulonlarni qo‘lga o‘rgatuvchi ko‘kka sapchigan sher o‘g‘illar o‘zi oz. Bosh-oxiri yo‘q to‘qnashuvlarda o‘g‘lonlar qirilaverdi...

Qirg‘indan omon qolganlari holdan toygan, nochor, zaif holda bazo‘r yetib keldi...

“Ha, Er aka, barhayot ruhingdan aylanay, Er aka, maqbarang yonida turibman. Bizni yozg‘irmang?!. Jangda jonimizni ayamadik. Kun-tun otdan tushmadik. Tuz totinmadik. Och olishgan kunlarimiz bo‘ldi. Cho‘pqutlar titildi. Yalang‘och chopishdik...”

“Ha, valine’mat ajo Odiltoy bobo, ko‘p janglarda arvohing bizga rag‘bat berardi. Biz yovni yengar edik. Qarorgohga quvonib,

kuylab qaytib kelar edik. Bu safar yengildik. Qirildik. Tum-taraqay qirildik. Omon qolgan shu bir hovuch askar bir amallab kelyapmiz. Bizni yozg'irmang, bobo?"

Qirg'indan omon qolgan piyoda-otliq qo'shinning qoldig'i shu alpozda — oh-voh chekib, piyodasi piyoda, otlig'i otda tentirab, shalvirab, och-nahor ahvolda uzilay-uzilay, deb qolgan ipdek cho'zilib, aftoda, bemajol holda bazo'r kelayotir. Odatda, tushgacha bosib o'tiladigan yo'lni bular ikki-uch kunda arang bosishdi. Hujumga borayotganda ot yurishidan tantanavor "do'pir-do'pir" sado chiqar, yer guldirar edi. Parrandalar qo'na olmay aylanishardi. Otliqlar epkinidan yer to'zardi. Tekis, tantanavor, mahobatli. Jo'sh urgan alp kuch, yovvoyi kuch shiddat bilan qoplab kelayotganday edi. Jangovar ijtihod, hayajon bilan kelayotgan edi.

Hozir u azimat, u haybat, u suronli sha'n-shavkatdan asar ham yo'q. Adashgan-uloqqan yov-otliqlar. Ozib-to'zgan, yirtiq-juldur kiyingan yalang'och kishilar. Bularni askar deb ham bo'lmaydi.

Xullas kalom, qirg'indan zo'rg'a omon qutulgan askarlar...

Yo'l ozig'i solingan idishlar allaqachon bo'shab, ovqat yuqi qotib ketgan, suv bo'yiga kelishganda o'sha idishlarni chayib, taom hidi aralash suv ichishadi.

Ayni vaqtda jindek quvvati borlari holi qurib qolgan sherigini suyab, arang sudralishmoqda. Ochqab, holdan toyib, rang-ro'yi gezarib ketganlarining ovoz berishga ham majoli yo'q. Sal bardamroqlari gap tashlashadi. "So'zlashib ketaylik. Mashoyixlarning so'zidan ayta keting. Qahramon yurtning botirlari edik, axir. O'sha jasurliklarni bir eslaylik"...

Biri so'z boshlaydi:

— Ha, jo'mard Er aka. Ot boshiga ish tushsa, suvlig'i bilan suv ichar, er boshiga ish tushsa, etigin yechmay suv kechar, degan edi bobolarimiz. Mana, hammamiz er edik... Boshimizga shu kun tushdi. Suvlig'i bilan suv ichadigan otlarimiz xarom o'ldi. Yechilmaydigan etiklarimiz yirtildi...

Qari askarning gaplarini berida ketayotgan malla soqol quvvatladi:

— Nolimang, Bekchur. Ana Qorasengir. Tabarruk Qorasengirni cho‘kkan qora norbo‘tami, deysan uzoqdan. Undan nari yo‘l bo‘ylab ketgan keng yalanglikda bobolarimizning tosh maqbaralari bor. Huv, ana, maqbaralarning qorasi ko‘rinib qoldi. Hozir o‘shalarning yonidan o‘tamiz... G‘ayrat qiling, eranlar! Bobolarimizning tirik ruhlariga yo‘liqamiz!

Oldinda borayotganlar yo‘l uzra bir muddat unsiz tikilib turishdi-da, ovqatlanib, chanqoq bosib olishganiday, bor g‘ayratini yig‘ib olg‘a intildilar.

Ay-ye, azizlar...

Ie, ular har doimgiday, hech o‘zgarishsiz, qanday bo‘lsa o‘sha holatda ekan. Tosh tosh-da! Bularni biror falokat joyidan qo‘zg‘atmasa, sindirib vayron qilmasa, shu holicha turgani-turgan...

Fotiha o‘qing! Bobolar manziliga yaqinlab qoldik. Bardam bo‘ling! Bardam bo‘ling hammangiz!

Tosh maqbaralar xuddi g‘aroyib tosh askarlar, afsonaviy tosh odamlar kabi tek qotishgan. Oldida to‘rtta qizil qirrali tosh va ko‘k toshli maqbara. Baland, mahobatli. Shunchalik baland, shunchalik og‘ir toshni bu yerga qanday keltirilganining o‘zi jumboq. Qanday ulovga ortilgan. Kim degan bu toshlarni ulovga ortdi? O, yo‘q! Bunday toshni ko‘taradigan ulov qayoqda deysiz? Ot, ho‘kiz, bo‘g‘ra, fil, karkidonlar bu toshni ko‘tara olmaydi. Bu toshni bu manzilga faqat insonning bilak kuchi keltirishi mumkin. Hozir iligi qurigan bu askarlarga o‘sha tosh ko‘targan kuchlarni tasvirlab berishga hojat yo‘q. Ayni damda unsiz yig‘lab kelayotgan askarlarning ko‘z yoshlari yuzlaridan oqardi. O‘sha metindek qo‘zg‘almas qizil toshning to‘rt tarafiga qayd etilgan bitiklarni o‘qishga tutinishdi.

Toshga zarblangan yozuvlar moziydan bayon qiladi:

“Otam — Edil, o‘zim — Odil. Elim meni ulug‘ladi. Odiltoy ajo dedi. Men ota qo‘nishni ko‘z qorachig‘idek saqladim. Yurtimga, elimga to‘g‘ri bo‘ldim. Yilqim son-sanoqsiz edi. Tuyam yetti mingta edi. Askarga ulov qilib berdim. Libos qilib berdim. Taom qilib berdim. Yolg‘iz o‘g‘lim bor edi. Elchil er edi. Chegaraga tabg‘ach yov keldi. Botir sarkarda o‘g‘lim bizdan ayrildi. Halok bo‘ldi.

O‘ng tomonimdagi abo, biy, beklarim, so‘l tomonimdagi alp, eran, sarkardalarim eshiting —

Hammangiz el-yurt tinchligini ko‘zlang.
El-yurt tinchligini saqlang.
Tabg‘achning zebu ziynatiga aldanmang.
Mayin ipagiga qiziqmang.
Kim tabg‘achning mayin ipagiga qiziqsa,
O‘sha odam yog‘iyning ipakdek yumshoq so‘ziga uchib ketadi.
Kim tabg‘achning yumshoq so‘ziga uchib ketsa, o‘z elini g‘ussaga ko‘madi.
Mening aytadiganim shu.
So‘zimni olgan xon, abo, bek, lashkarboshilar
Elni qo‘riqladi, hududlarga yovni yo‘latmadi.
So‘zimni olmaganlari eldan ketgan Erdona bo‘ldilar...
Ha, mening kamtar yurtim —
Sen iliq so‘zga tez ishonasan.
Oqko‘ngil va kamtarsan.
Qorning ochsa, ochdi demagan,
Qorning to‘ysa, to‘ydi demagan —
Yov ahdida turmasa, uni kechirgan mardsan.
O‘sha mardliging bilan butun turkiy el iftixorisan.
Sen o‘shanday mard bo‘l.
Yovning zeb-ziynatiga qiziqma.
Yovning yumshoq so‘ziga aldanma...
Buni men aytdim — Odiltoy ajomiz aytdi, deb tinglangiz”

Tosh maqbarada saqlangan shu bitiklarni eshitib, och-nahor, ozib-to‘zgan askarlar nola qilishdi. Tiz cho‘kishdi. Tosh gumbazni quchoqlashdi:

— Ha, jo‘mard bobo, biz aldanmadik. Jonimizni ayamay olishdik...

Noiloj qoldik, holdan toydik...

Ha, aziz bobo, bizdan umid uzmang. Bizni alqang.

Askarlar faryod urib yig‘laganida, tosh gumbazlar larzaga kelgandek bo‘ldi. Yer guvillagandek bo‘ldi...

Tosh maqbaralar ko‘p. Biri — past. Biri — baland. Biri — ko‘k tosh. Biri — qizil tosh. Baridan ajoyibi — shu tosh gumbazlarning yonidan tortib ortga tomon qanotini yoyib turgan polvonlar siymosi tizilgan. Ular ortda qolmay ergashib kelayotgan tosh askarlarga o‘xshaydi. Hech qachon, hech zamonda safari qarimaydigan, charchab-horimaydigan tosh askarlar...

O, kim biladi? Zamon yomon bo‘lsa, dahshatli falokat qo‘psa, bu tosh askarlar ham qo‘zg‘alar. Yakson bo‘lar. Yo‘qolar. So‘ng siri yerga ko‘milgan tosh bobolarga aylanar. Tubsiz, tilsiz tarixga aylanar. Balki qiyrab, yer betidan supurilib ketar. Zamonlar o‘tib, shunday tosh maqbaralar mavjudligi haqiqatidan so‘nggi avlod vakillari mutlaqo bexabar bo‘lib ketishar.

O, kim biladi?

Tarix bitiklari birda aniq bo‘lsa, birda mubham. Olam yurishi chandon shov-shuvli, benihoya — hech tamom bo‘lmaydigan hujum. Baland-baland mahobatli tosh uylardan iborat bo‘lgan azim shaharning yakson bo‘lib, yerga yitib, o‘rnidan arpa, sho‘ra o‘sib chiqqani aytiladi. Bu dunyoni ba’zida xayol bilan qamrab ololmaysan, ba’zida esa nafasing aks-sado beradi... Har qanday ofatlar o‘tib kelgan bu zamin boshidan. O‘taveradi. Bu kulfat, huzurot, evrilishlar tabiat qonuniga binoan sodir bo‘ladi...

Insonlar esa hamisha erksiz. Ilojsiz. Ojiz...

Hozir shunday bir vaziyatni boshidan kechirgan qirg‘iz yurti sochildi. Alp lashkarboshilar qirildi. Mard jangchilar qirildi. Amallab tirik yetib kelganlari shu tariqa tentiray-tentiray bobo maqbaralar qoshiga yetib kelishdi...

— Ha, Er aka! — dedi ozg‘in, yalang‘och askarlarning qarisi bo‘lgan malla soqolli mo‘ysafid ko‘k tosh gumbaz poyiga tiz cho‘kib, chakkasini yerga qo‘ydi. Achchiq ko‘z yoshlari quyilib kelaverdi. Uvadasi chiqqan cho‘pqutning yirtig‘idan oriq qovurg‘alari orasidan ko‘tarilib-tushayotgan o‘pkasi sezilardi. Ha. Inson qattiq kuyinib, qattiq alamdiyda bo‘lsa, o‘pkasi qafasidan potirab chiqquday sirtdan bilinadi...

— Ha, Er aka. Kechiring bizni. Biz yomonligimizdan, noahilligimizdan, qo‘rqoqligimizdan qolmadik bu kunga! Hayotning

shafqatsiz qonunlari ham mavjud ekan. O‘sha shafqatsizligini bugun bizga ko‘rsatib, bizni xarob qildi. Taassufki, jangda halok bo‘lganlarni ko‘molmadik ham. Ularni dafn etishga imkonimiz yo‘q edi. Ochmiz, majolimiz yo‘q. O‘lar ahvolda shu yergacha kelib oldik.

Qir o‘ngirni siypalab sarin shabada esdi. Mag‘rur tosh gumbazlar zirillab ovoz bergandek bo‘ldi. Och, ramaqijon, juldur askarlar tupuklarini ham yutolmay, sassiz turishardi. Hammasi “g‘ir” etgan shamolga uchib ketguday — holsiz. Ko‘k tosh gumbaz “zirilladi”. Silliq yuzasiga bosilgan bitiklar aniq-tiniq:

“Otam qirg‘izning Erkishisi edi. O‘z otam usta edi. O‘z otim Cho‘g‘ultur edi. O‘n yoshimda askar bo‘ldim. O‘n ikki yoshimda jangga kirdim. O‘n yetti yoshimda katta jangga chiqdim. Oyboltam og‘ir edi. O‘tkir edi. Metin edi. Qilichim asl po‘lat edi. O‘zim taptortmas edim.

Yov seni ursa, uni kechirgan jo‘mard bo‘l.

Tuya ko‘targan alpdan tislanmadim. Olishdim. yengdim.

Chegarani qo‘riqladim. Elimni qirg‘indan saqladim... Otam qo‘ygan Cho‘g‘ultur ismim — el qo‘ygan Erkishi bo‘ldi.

— Ha, odamzot, eshiting!

Men seni yaxshi ko‘rganim sayin shijoatim ortadi”...

Qiltillab turgan askarlar bitikdagi ma’noni his qilishdi. Nola-fig‘onni bas qilishdi. Qaddini tutishdi:

Ha, tengi yo‘q Er aka. Uning tirik ruhi bizga hamdardlik bildirmoqda. Boshingizni ko‘taring! — dedi boyagi qari askar.

— Tosh bobo bizni alqamoqda. Ovoz chiqardi, — dedi biri.

— Alqasin!.. — dedi yana biri.

Barchasi Erkishining maqbarasi qoshiga kelib, sukut saqlashdi. Jimjitlik. Yel shiviri, chivinning g‘ing‘illashi... deganday, sas-sado to‘xtab qoldi...

Erkishining maqbarasiga yaqin yerda oqish bir tosh panalaganday turardi. Toshning bir tomonigina oqish bo‘lib, bir tomoni ko‘k, bir tomoni qizg‘ish, orqasi esa chipor — ajoyib tog‘ jinsi ekan. Bu tosh boyagi Shap qiziqning qabriga qo‘yilgan yodgorlik ekan. Kimsa borki, avval toshning turfa tovlanishiga qiziqsinadi.

Zotan, qidirsa ham, bunday noyob toshni topish mushkul. Ha, yana kim biladi? Balki bunday tosh boshqa yerda yo'qdir. Tangri o'sha g'aroyib Shap akaning maqbarasi uchun atayin yaratgan chiqar? Ha, shunday...

Shu serqirra toshning ko'kish tomonida qo'tos buqasi qutirgandek tashlanyapti. Uning tarvaygan beso'naqay muguzida qandaydir qoqsuyak jasad turardi. Jasadning ikki qo'li qo'tosning ikki muguzidan tutib olgan. Ikki oyog'i osmonda. U qo'tos suzib yuborgan ojiz odamdek emas, muguzda muallaq turib o'ynayotgan askar timsolida tasvirlangan edi. O'zi chigirtkadek ozg'in, oyoq-qo'li chandon uzun. Na odam gavdasiga o'xshaydi, na tarvaqaylagan baqaga... Nimaga o'xshasa ham, basharasi g'oyat kulgili. Ezilib, mung'ayib kelgan kishi buni ko'rib xaxolab kulib yuborguday...

Ustiga — ustak tosh yuzasiga bitilgan so'zlar ham hajviy yo'sinda yozilgan:

"Ha, alp!
Men — Shap sherman!
Men oddiy yilqichi edim.
Tangri mendan taomini qizg'andi...
Ko'ring — o'zim oriqman,
Qo'g'irchoq tumanini boshlagan alpman.
Ha! Ey, inson, sen buni bilgin:
Qora jin o'lat sepsa, uni kulgi o'rog'i o'rib tashlaydi"...

Xezlangan qo'tosning beso'naqay uzun muguzida ko'ngilochar o'yin o'ynayotgandek ajabtovur kerishgan Shap qiziqning siyrati ko'rganning ko'nglini ochdi.

Evoh, Jigarimiz Shap aka! Evoh, odam bolasining eng zarifi Shap aka! — dedi qari askar. — Sening tirik ruhing ko'nglimni chog'ladi!

Qiziqchi Shapning g'aroyib kulgili shamoyiliga kishilar endi chin dildan kulishdi:

— Eh, hazilkash bobo! — Qanday asl inson edi-ya! "Qora jin o'lat sepsa, uni kulgi o'rog'i o'rib tashlar!"

Haq so‘z! Ey, odamzot avlodi!

Shap akaning sharpasini ko‘rdik. Qiziq hazilidan eshitdik. Taomidan totingandek quvvat oldik. Ketdik, eranlar. Quvvatimiz borida manzilga yetib olaylik!

Dadillangan askarlar olg‘a bosdi...

Biroz oshiqib, so‘nggi asrda ro‘y bergan voqeadan bir shingil hikoya qildik.

Bu davrgacha bo‘lgan buyuk jang haqida so‘z endi boshlanadi.

MUNDARIJA

"Tog' odam"ning tog'day asari *(Zuhriddin Isomiddinov)* 3

KO'K YALOV

Roman

BIRINCHI QISM

Yosh tegin 9
Ulg'ayish 24
Odiltoy Ajo 44
Erkishining kamoni chiyillab uchdi 64
Tekemergen 78
Er Tekeshning o'limi 89
Erkishi bog'landi yoki Uysun yerida 104
Yashil ko'l bo'yida 124
Chaa bilan Az 134
Dostondan xabar 160
Oltin arava 182
Dostonning tug'ilishi 205

IKKINCHI QISM

Qum chayqagan izdamiz 220
Osmon va olov 225
Lashkar uyquda yotganda 243
Sayqal enaning kamoni 261
Boboning odati 275
Sayqalning o'rdasida 282
Uchinchi yutuq 309
Edil Ajo oshida 336
Kuch va sog'inch 362
Uzatish 391

UCHINCHI QISM

Urush arafasida 404
Sayg'oqli maydonida 416
Yakkama-yakka jangda 426
Urush 438
Urush tamom bo'lmadi 456
Tosh bobolar 465
Ehtiyot bo'ling! "Tumanboshi" Shap! 479
Erkishining bir kuni 499
Tosh maqbaralar so'zlaganda 525

T 81 Tugalboy Sidiqbekov [Matn]: nasr/to‘plovchi va nashrga tayyorlovchi Zuhriddin Isomiddinov. – Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2022. – 536 b.
ISBN 978-9943-8571-0-0

UO‘K 821.512.154-3
KBK 84(5Qir)

TURKIY ADABIYOT DURDONALARI

TUGALBOY SIDIQBEKOV

83-jild

Adabiy-badiiy nashr

Tarjimon
Ulug‘bek Abdusalomov, Hilola Abdusalomova

Muharrir *To‘xtamurod Hasanboyev*
Badiiy muharrir *Shuhrat Mirfayozov*
Dizayner *Bobur Tuxtarov*
Texnik muharrir *Yelena Tolochko*
Kichik muharrir *Zilola Mahkamova*
Musahhih *Sharofat Xurramova*
Sahifalovchilar: *Shahlo Buriyeva, Islom Azamatov*

Tasdiqnoma raqami № 4642. 22.07.2020-y.
Bosishga 18-oktabr 2022-yilda ruxsat etildi. Bichimi 60x90 $^{1}/_{16}$.
Ofset qog‘ozi. “PT Astra Serif” garniturasida ofset usulida bosildi.
Shartli bosma tabog‘i 33,5. Nashriyot-hisob tabog‘i 31,44.
Adadi 1 185 nusxa. Shartnoma № 149-1/22 Buyurtma raqami № 22-366

Original maket O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining “O‘zbekiston” nashriyotida tayyorlandi.
100011, Toshkent, Navoiy ko‘chasi, 30.
Telefon: (71) 244-34-38, (71) 244-24-91.

“O‘zbekiston” NMIU MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: 100011, Toshkent, Navoiy ko‘chasi, 30.

TURKIY ADABIYOT
DURDONALARI

TUGALBOY SIDIQBEKOV